Саройда қабул маросими эътиборли, самимий тарзда ўтдики, воқеа кузатувчи назарида "ҳеч бир ўғил ўз отасидан шундай даражадаги эътибор ва қадрни" кўрмаганди. Хива хазинасидан "шаҳзодага харажат ва чиқимлар учун, ҳар ойига 1500 тилло пул, шериклари учун кийим-кечак ва 500 тилло ажратилди". Сайид Муҳаммад Раҳимхон билан Абдулмалик тўра ўртасидаги муносабатларда кейинчалик "совуқлик" юзага келди[15-306]. Хива ҳукмдори Бухорода юз берган воқеалардан хабар топгач, шаҳзодани шум ниятидан қайтаришга қанча уринмасин, шаштидан кайтара олмади. Ҳатто кечирим сўраб, шаҳзода Бухорога бориш ёки Хивада қолишга рози бўлса, мулк олиши, яшаш учун шароит мавжудлигини эслатганда ҳам кўнмасдан, туркман такалари ёки эрсарилар юртига кетишга иижозат сўради. Ҳар қанча уриниб шаҳзодага таъсир қилаолмаган

Хива хони шаҳзодани ўзи истаганча, эркин қолишга мойиллик билдирди. Ниҳоят Абдул Малик тўранинг сарбозларидан катта бир гуруҳи Хивада хон хизматида қолди. Шаҳзода эса, бир гуруҳ навкарлари билан Марв такалари сари йўл олди [16-307]. Айни дамда подшо Россияси истилочиларининг Тошкент ва Бухорони қўлга киритишлари Хива хонлиги учун катта хавф туғдирганди. Бундай хавф деярли, ҳар онда сезиларди.

ХУЛОСА. Шундай қилиб, Хива хонлиги айниқса пойтахт Хива, Мовароуннаҳру Туркистон томондан келган қочқинлар учун ҳимоя масканига айланаёзганди. Саройда элу-юртни бу мудҳиш хавфдан асраш чора-тадбирлари кўрила бошланди. Айни пайтда Ҳиндистонда инглизлар қўнжидан паноҳ топиш ғояси юрт ҳукмдори Сайид Муҳаммад Раҳим II Баҳодирхон дили зикрини эгалларди. Бахтга қарши, инглизлар ҳомийлиги фикри ҳам амалга ошмади[17-1872 №50]. Хиванинг Ҳиндистондаги Англия вице-қироли Норсбрук ҳузурига юборган элчилиги [18-18/1873] омадсиз чиқди. Англия ва Россия матбуотида Хиванинг яширин миссияси хабари эълон қилинганидек хонликнинг Хонқа беклиги ҳокими Аминбой ҳожи Ёқуббек ўғли бошчилигидаги элчилик [19-№28,№32] Калькутта шаҳрида Лорд Норсбрук билан ўтказилган музокараларда деярли ҳеч қандай натижага эришмасдан 18 ой давом этган элчилик сафаридан 1872 йил май ойида қайтиб келишди [20-28-35].

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ўзбекистон Миллий архиви 715-фонд 1 рўйхат. 55-дафтар.
2. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. соч, том 2, часть 2, М.1963. –С 403.
3. Веселовский Н. Туземец о русском завоеваний. Бартольд В.В. указ соч, с 333-334.
4. Икрамов Камил. Караваны уходят. Ташкент 1976, -С.5.
5. Динашева Лазат Сарсенбаевна доцент, МКТУ имени Х.А.Ясави. UNIVERCUM: СОМ общественные науки. Из истории соперничества России и Англии за Среднюю Азию (конец XIX начала XX века). 1994.
6. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азий. Т, 2 М. 1906. –С 65.
7. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. Соч. том 2, часть 2, М.1963. –С. 405 .
8. Огаҳий. Шоҳиди Иқбол. Тошкент. 1976. 175-176-бетлари.
9. Огаҳий. Гулшани давлат. Тошкент, 2020, 304-бет.
10. Терентьев М.А. История завоевания Средней Азии. М., 1906. Т.2 401-бет.
11. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. соч, том 2, часть 2, М.1963. С. 407.
12. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. Соч, том 2, часть 2, М.1963. 410-411-бетлар.
13. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. Соч, том 2, часть 2, М.1963. 412-413-бетлар.
14. Бартольд В.В. События перед Хивинским походом 1873 года по рассказу Хивинского историка. Соч, том 2, часть 2, М.1963. 414-415-бетлар.
15. Огаҳий. Гулшани давлат. Тошкент. 2020, 306-бет.
16. Огаҳий. Гулшани давлат. Тошкент. 2020, 307-бет.
17. Хивинский посланник в Калькутте. //Туркестанские ведомости. 1872. № 50.
18. //Голос. 18 (30) января. 1873 года.
19. Александр Кун. Рассказ хакима Аминбая. //Туркестанские ведомости 1873 № 28, № 32.
20. Наврузов С. Хонқа ҳокими Аминбой ҳожи Муҳаммад ўғлининг Ҳиндистонга 1871-1872 йилларда элчилик сафари. Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. 2024, 1/3, 28-35-бетлари.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 193.479.12

IBN SINONING "IXLOS" SURASI TAFSIRIDAGI FALSAFIY QARASHLARI TAHLILI

To'xtasinov Ro'zimuhammad Nurmuhammad o'g'li, Mir Arab oliy madrasasi o'qituvchisi, Buxoro davlat universiteti doktoranti, islomshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ANALYSIS OF IBN SINA'S PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE INTERPRETATION OF SURAH "IHLOS"

Tokhtasinov Ruzimuhammad Nurmukhammad ugli, Teacher at the Higher Madrasah Mir Arab, Doctoral student (DSc) at Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Islamic Studies (PhD)

АНАЛИЗ ФИЛОСОФСКИХ ВЗГЛЯДОВ ИБН СИНЫ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ СУРЫ "ИХЛОС"

Тохтасинов Рузимухаммад Нурмухаммад оглы, преподаватель в Высшем медресе Мир Араб, докторант Бухарского государственного университета, доктор философии по исламоведение (PhD)

https://orcid.org/ 0009-0005-1061-4430
e-mail:
tuxtasinov.m@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ibn Sinoning* ***"Ixlos surasi*** *tafsiri"dagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Maqolada Ibn Sinoning suraga bo'lgan yondashuvi, uning* ***Tavhid*** *va* ***Yagona Alloh*** *haqidagi falsafiy g'oyalari ochib beriladi. Suraning tafsirida uning islomiy tafakkur va falsafadagi o'rni tahlil qilinadi. Ibn Sinoning tafsiridagi falsafiy tushunchalar, uning o'ziga xos falsafiy tizimining rivojiga qanday ta'sir qilganligi ko'rsatiladi. Maqola, shuningdek, Ibn Sino tafsirining zamonaviy islom falsafasi va tafsiri uchun ahamiyatini tushuntiradi.*

Kalit so'zlar: *Ibn Sino, Ixlos surasi, falsafiy qarashlar, tafsir, tavhid, islom falsafasi, ilohiyot, tasavvuf.*

Abstract: *This article analyzes the philosophical views of Ibn Sina in his interpretation of the "Ikhlas Surah". It explores Ibn Sina's approach to the Surah, particularly his philosophical ideas on Tawhid and the Oneness of God. The article delves into how his interpretation reflects his broader Islamic philosophical system. It highlights the influence of Ibn Sina's philosophical concepts on the development of Islamic thought and examines the relevance of his interpretations in contemporary Islamic philosophy and exegesis.*

Key words: *Ibn Sina, Ikhlas Surah, philosophical views, exegesis, Tawhid, Islamic philosophy, theology, Sufism.*

Аннотация: *В данной статье анализируются философские взгляды Ибн Сины в его толковании* ***суры "Ихлас"****. Рассматривается подход Ибн Сины к суре, особенно его философские идеи о* ***Тавхиде*** *и* ***Единстве Бога****. Статья исследует, как его толкование отражает более широкую исламскую философскую систему. Анализируются влияние философских концепций Ибн Сины на развитие исламской мысли, а также актуальность его толкований в современном исламском философском и экзегетическом контексте.*

Ключевые слова: *Ибн Сино, сура Ихлас, философские взгляды, тафсир, тавхид, исламская философия, теология, суфизм.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Mashhur alloma va faylasuf Abu Ali Husayn ibn Abdulloh ibn Sino Buxoriy tibbiyot, falsafa va mantiqqa oid asarlar muallifi. Ibn Sino "Tibbiyot-ning Gippokrati" va "Hikmatning Aristoteli" deb tanilgan. G'arb va musulmon olimlari uni "Islomiy faylasuflarning peshvosi" deb atashgan. U haqida: "Farobiydan keyin unga o'xshagan faylasuf kelmagan", deb yozilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ibn Sino Qur'oni Karimning bir qator kichik suralari va ba'zi oyatlariga tafsir yozgan bo'lib, bu ishni falsafiy, mantiqiy qarashlari asosida amalga oshiradi. Quyida Ibn Sinoning "Ixlos" surasiga yozgan tafsirining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Ixlos surasi bo'yicha mustaqil tafsirlar va uning falsafiy talqinlari masalasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Ibn Sino (vaf.428/1037) davrigacha bu sura haqida na mustaqil tafsir yozilgan va na falsafiy izoh berilgan. Mansur Halloj (vaf.309.422) ga nisbat berilgan "*Kitobu Tafsiri Qul Huvallohu Ahad"* nomli tafsir haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ushbu asarning mavjudligi tasdiqlanmagan va kutubxona manbalarida qayd etilmagan[1: 242; 2: 162; 3: 305].

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, Ixlos surasining falsafiy talqinini birinchi bo'lib Ibn Sino amalga oshirgan. Shu bilan birga, bu sura haqida mustaqil tafsir yozish an'anasi ham Ibn Sino bilan boshlangan va keyinchalik rivojlangan. Ixlos surasi, uning Allohning zoti haqida chuqur mazmunli ekanligi sababli, aynan Ibn Sinoning falsafiy qarashlari orqali o'ziga xos tafsir maktabi yaratilishiga asos bo'lgan. Bu holat tafsir tarixi va falsafiy tafakkur rivojlanishida muhim bosqich sanaladi. Ibn Sino Qur'on tafsiriga falsafiy yondashgan holda, undagi barcha suralarni emas, balki o'z falsafiy qarashlarini yoritish uchun mos bo'lgan ayrim sura va oyatlarni tanlagan. Ixlos surasi u tanlagan eng muhim suralardan biri bo'lib, bu sura Allohning zoti haqida so'z yuritgani uchun uning falsafiy qarashlari va vahiy o'rtasida uzviylikni ko'rsatishga imkon bergan. Ibn Sino ushbu tafsirda o'zining metafizik tushunchalarining asosi bo'lgan "vojib-mumkin" (zaruriy va mumkin bo'lgan mavjudlik) tushunchasini asoslab bergan, Allohning mutlaq mohiyatini tushuntirgan va mavjudlikning mohiyatdan alohida ekanligini dalillagan. Shuningdek, u mavjudotning zaruriy mavjudlikka ega bo'lgan zotdan qanday vujudga kelganini Qur'on oyatlari asosida izohlab bergan. Ibn Sino ushbu tafsirni mantiq asosida, qiyoslar tizimiga mos ravishda yozgan. Har bir fikrni chuqur mantiqiy tahlil orqali keltirganligi sababli, tafsiri yuqori ilmiy darajada yozilgan bo'lib, har bir jumlasi alohida sharhlashni talab qiladi. Bu holatni marhum Ahmad Hamdi Akseki (vafoti 1951y.) quyidagicha ifoda etadi: "Aristotel mantiqini qayta isloh qilgan va tartibga keltirgan ushbu faylasuf o'zining boshqa asarlari kabi bu asarida ham har bir jumlani mantiq tarozisi bilan o'lchagan, har bir jumla alohida sharhlashga muhtoj..."[4]

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ibn Sinoning ushbu tafsir usuli keyingi davrlardagi sharhlovchilar (masalan, Dabbog'iy va Hodimiy) tomonidan davom ettirilib, yanada rivojlantirilgan. Bu tafsir Qur'on matnining mantiq va falsafa asosida talqin qilingan noyob namunasi bo'lib, uning tafsir ilmi va falsafiy tafak-kurdagi o'rni yuqori baholanadi. Shu orqali Qur'on tafsirida mantiqiy va falsafiy yondashuvning kuchli asoslari yaratilgan. Ibn Sino qalamiga mansub "Ixlos surasi tafsiri" dunyoning ko'plab kutubxonalarining qo'lyozmalar fondlarida saqlanadi. Quyida ularning ba'zilarini keltirib o'tamiz:

A) Chester Betti 1/17-18 [(11) 3045] - (58 b - 62 a) 699H/1299M. Ushbu nusxaning mikrofoto nusxasi Dubaydagi Jum'a al-Majid kutubxonasida mavjud, raqami 795.

B) Mar'ashiy kutubxonasining ro'yxatining 1/243 inventar raqam ostida. Ushbu nusxaning mikrofoto nusxasi Dubaydagi Jum'a al-Majid kutubxonasida 3711 inventar raqam ostida saqlanadi.

C) Princeton Universiteti (yangi qo'lyozmalar) 317-318 (1537) 2 1406- (1b- 12a) 9H/630M.

D) Hindiston kutubxonasi 2/1/14-15 [1234) (1079) _ (55 _ 63a) jamlangan _ 1173H-1179H/1759M-1765M – "Tavhid surasi va Muavvizatayn tafsiri" deb nomlangan. Ixlos va Falaq surasining tafsiri Dehlida 1311H/1893M yilda va Qohiradagi Sa'ada matbaaida 1335H/1917M yilda nashr etilgan.

E) O'zbekiston fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti sharq qo'lyozmalari asosiy fondida ham ixlos surasining

tafsiri 2385 inventar raqam ostida saqlanadi [5: 118, 119].

Ixlos surasi tartib bo‘yicha Qur’oni Karimning 112-surasi bo‘lib, 4 oyatdan iborat:

بِسۡمِ ٱللَّهِ ٱلرَّحۡمَٰنِ ٱلرَّحِيمِ قُلۡ هُوَ ٱللَّهُ أَحَدٌ 1 ٱللَّهُ ٱلصَّمَدُ 2 لَمۡ يَلِدۡ وَلَمۡ يُولَدۡ 3 وَلَمۡ يَكُن لَّهُۥ كُفُوًا أَحَدُۢ 4

Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan (boshlayman). 1. (Ey, Muhammad,) ayting: “U Alloh yagonadir. 2. Alloh behojat, (lekin) hojatbarordir. 3. U tug‘magan va tug‘ilmagan ham. 4. Shuningdek, Unga biror tengqur ham yo‘qdir [6: 604].

Ibn Sinoning “Ixlos” surasiga yozgan tafsirining qisqacha mazmuni quyidagicha:

Avvalo, “Huva” so‘zidan Allohning mutlaq mohiyatiga, so‘ngra boshlang‘ich sababga (mabdal avvalga) o‘tib, “vojibul vujud” haqida uzun izohlar beradi. Bu, bir ma’noda vojibni isbotlashdir va uni sharhlovchi mufassirlarning e’tiborini tortgan asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. Zoti mutlaqning mohiyati haqida gapirgandan so‘ng, ilohiy haqiqatning nima ekanligini bayon qilib, Uning ta’rifining qanday bo‘lishi mumkinligini klassik ta’rif nazariyasi asosida muhokama qiladi. Zoti mutlaqning mohiyati, uni tashkil etuvchi quruvchi (muqovvim) unsurlardan iborat emasligi sababli, uning haqiqati haqida aniq bir ta’rif (hadd) berish mumkin emasligini ta’kidlaydi.

Birinchi oyatda keltirilgan “Ahad” so‘zidan foydalanib, Zoti uluhiyatning birligini tushuntiradi. Birlikning turlari haqida gapiradi va Zoti uluhiyatning mutlaq birligi haqida bayonot beradi. Uning fikricha, Zoti uluhiyat nafaqat zoti jihatdan birdir, balki zoti uni tashkil etuvchi hech qanday quruvchi (quruvchi) unsurlarni o‘zida jamlamaganligi sababli, oddiy (basit) ma’noda ham birdir. Zoti uluhiyatning boshqa narsalarga bog‘liq mohiyati yo‘q va u butun mavjudotning ilk asosidir. Ko‘plik va olam Uning suduridan paydo bo‘lgan. Keyinroq, qanday shaklda bo‘lishidan qat’iy nazar, Allohga sherik qo‘shish, o‘xshash bir mavjudot yaratish yoki tug‘ish va tug‘ilish bilan bog‘liq bo‘lgan g‘oyalarni isbotlashga harakat qilganlar yoki mavjudotlarga vujud berishdan kelib chiqib, o‘xshashlariga ham mavjudlik berishi mumkinligi haqidagi xayolga berilganlar fikrlarining noto‘g‘ri ekanligini tushuntiradi. U, mavjudotda o‘ziga teng bir mavjudot yo‘qligini bildiradi.

Oxirida, suraning ishora va ta’rif yo‘li orqali Allohning zoti, sifatlari va amallari haqidagi har bir narsani, ya’ni Vojibul vujud bo‘lgan Zoti mutlaqni eng mukammal tarzda ta’riflaganini aytib, Ixlos surasining shu sababli Qur’ondagi suralarning uchdan biriga teng ekanligini ta’kidlaydi [7].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ibn Sino Ixlos surasini shu tarzda sharhlashi, undan keyingi davrda ham suraning falsafiy va kalomiy nuqtayi nazardan sharhlanishiga sabab bo‘ldi va Ixlos surasi haqida qilingan sharhlarda bu qisqa asardan keng foydalanildi. Quyida Ibn Sinoning Ixlos surasi tafsiri ustida sharh yoki hoshiya yozgan olimlar kelitirilgan:

1. Jaloliddin Muhammad ibn As’ad ibn Muhammad Davvoniy (vaf.908/1502).
2. Ahmad al-Maraşiy ad-Dabbog‘iy (vaf.1165/1752).
3. Abu Said Muhammad ibn Mustafo ibn Usmon al-Hodimiy (vaf.1176/1762).
4. Muallifi ma’lum bo‘lmagan (Konya Yusuf Og‘a nusxasi).
5. Abul-Qosim Muhammad Abdurrahmon (XX asr boshlari).
6. Ahmad Hamdi Aksaki (vaf.1370/1951).

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Ibn Sino bilan boshlangan falsafiy yo‘nalishdagi bu tafsir an’anasi, faylasuflar va kalomchilar nuqtayi nazariga mos ravishda uluhiyat tushunchasining asosan tanzih (Allohning ulug‘ligini va mutlaqligini ta’kidlaydigan) yo‘nalishda sharhlangan va Alloh taoloning yagona va takrorlanmasligini doimiy ravishda urg‘ulagan sharhlar an’anasi sifatida davom etgan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. **Ibn Nadim**, *al-Fihrist.* – Tehron. 1971. 242 b.
2. **Shamsiddin Muhammad ibn Ali ibn Ahmad Dovudiy**, *Tabaqotu’l-Mufassirin.* – Qohira, 1972/1392, 1-jild. – 162 b.
3. **Ismoil Posho Bag‘dodiy**, *Hadiyyatu’l-Arifin.* – Anqara: Milliy Ta’lim Vazirligi, 1955. 1-jild. – 305 b.
4. Ahmad Hamdi Akseki. Ibn Sinoning Ixlos surasi tafsiri, tarjima va sharh. – Turkiya: *Selamet*, 1949. Jild IV, son 11, – B. 1.
5. O‘z R FAShI. Asosiy fond. Qo‘lyozma. R: 2385. – B. 118-119.
6. Abdulaziz Mansur. Qur’oni karim ma’nolari tarjimasi. – Sirdaryo: Yoshlar nigohi, 2023. – B. 604.
7. Abdulloh Abdurrahmon Al-Hatib. Tafsiru Suratil-Ixlos lişh Shayx Abu Ali al-Husayn ibn Abdullah ibn Sina. – Turkiya: Majallatush sharia vad dirosatul islomiyya, 2002. Jild XVII, son 51. – B. 51.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 801.82:81.192

O‘ZBEK ADABIYOTI FANIDAN MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI

Sayipova Dilobar Rahimovna, Samarqand davlat universiteti Kattaqo‘rg‘on filiali o‘qituvchisi

METHODOLOGY FOR IMPROVING INDEPENDENT EDUCATIONAL TASKS IN UZBEK LITERATURE

Saipova Dilobar Rakhimovna, Lecturer of the Kattakurgan branch of the Samarkand State University

МЕТОДИКА СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ ПО УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Саипова Дилобар Рахимовна, преподаватель Каттакурганского филиала Самаркандского государственного университета

https://orcid.org/0009-0001-6380-5311
e-mail: sayipova@bk.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar tahlil qilingan. Maqsadli rejalashtirish, topshiriqlarni diversifikatsiya qilish, interaktiv usullarni qo‘llash, reflektiv o‘qitish, mustaqil izlanish va samarali baholash kabi metodlar orqali o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga va milliy madaniyatni chuqurroq anglashlariga yordam beradi.*

Kalit so‘z: *mustaqil ta’lim topshiriqlari, interaktiv usullar, reflektiv o‘qitish, mustaqil izlanish va samarali baholash.*

Abstract: *This article analyzes methodological approaches aimed at improving independent learning assignments in Uzbek literature. It examines opportunities to enhance students’ interest and solidify their knowledge through targeted planning, diversifying assignments, applying interactive methods, reflective teaching, independent research, and effective assessment. These approaches aid in developing students' analytical thinking skills and deepen their understanding of national culture.*

Key words: *independent learning assignments, interactive methods, reflective teaching, independent research, effective assessment.*

Аннотация: *В данной статье анализируются методические подходы, направленные на совершенствование самостоятельных заданий по изучению узбекской литературы. Рассматриваются возможности повышения интереса учащихся и укрепления их знаний через целенаправленное планирование, разнообразие заданий, применение интерактивных методов, рефлексивное обучение, самостоятельные исследования и эффективную оценку. Эти подходы способствуют развитию аналитического мышления учащихся и углубляют их понимание национальной культуры.*

Ключевые слова: *самостоятельные задания, интерактивные методы, рефлексивное обучение, самостоятельные исследования, эффективная оценка.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O‘zbek adabiyoti fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish metodikasi haqida gapirganda, bir nechta asosiy yo‘nalishlarni ko‘rib chiqish mumkin:

- Har bir topshiriqning maqsadini aniq belgilash lozim. Bu maqsadlar o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini oshirishga qaratilgan bo‘lishi kerak;
- O‘quvchilarning turli qobiliyatlarini rivojlantirish uchun topshiriqlarni turli shakllarda, masalan, esse yozish, tahlil qilish, munozara va ijodiy yozuv kabi faoliyatlar orqali taklif etish;
- O‘quvchilarning qiziqishini oshirish uchun zamonaviy texnologiyalar, masalan, onlayn platformalar va interaktiv dasturlarni qo‘llash;
- O‘quvchilarni o‘z o‘qish jarayonini tahlil qilishga va o‘z ustida ishlashga o‘rgatish. Bu uchun kundaliklar yoki bloglar yuritish tavsiya etiladi;
- O‘quvchilarga mustaqil izlanish olib borish uchun mavzular berish va ularni o‘zaro bahs-munozaralarga jalb qilish;
- Topshiriqlarni baholashda konstruktiv fikr-mulohazalar berish, bu esa o‘quvchilarning o‘z ustida ishlashiga yordam beradi;
- O‘zbek adabiyotining madaniy va tarixiy kontekstini o‘rganish orqali o‘quvchilarning tushunchalarini kengaytirish.

Ushbu metodik yondashuvlar o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish jarayonini samarali va qiziqarli qilishga yordam beradi[1].

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS). Tadqiq etilayotgan mavzu bir qator mahalliy tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Xususan, bu borada N.Jumaniyozov[1], A.Murodovlarning[2] tadqiqotlari ayniqsa tahsinga sazovor. O‘zbek adabiyoti fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqolada, mustaqil ta’lim topshiriqlarini samarali tashkil etish uchun bir nechta metodik yondashuvlar ko‘rib chiqiladi. Birinchi navbatda, topshiriqlarni aniq maqsadlar asosida rejalashtirish kerak. Har bir topshiriq o‘quvchilarning adabiy bilimlarini chuqurlashtirish va ularni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Maqsadni aniq belgilash orqali o‘quvchilar nimaga erishishlari kerakligini tushunadilar [2].

O‘quvchilarning turli qobiliyatlarini rivojlantirish uchun topshiriqlarni turli shakllarda taklif etish muhimdir. Masalan, esse yozish, adabiy asarlarni tahlil qilish, munozaralar tashkil etish va ijodiy yozuv mashg‘ulotlari kabi faoliyatlar orqali o‘quvchilarning qiziqishini oshirish mumkin.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘quvchilarning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini kuchaytirish mumkin. Onlayn platformalar va interaktiv dasturlar yordamida o‘quvchilar mustaqil ravishda adabiy asarlarni o‘rganishlari va tahlil qilishlari mumkin. O‘quvchilarni o‘z o‘qish jarayonini tahlil qilishga va o‘z ustida ishlashga o‘rgatish ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kundaliklar yoki bloglar yuritish orqali o‘quvchilar o‘z fikrlarini ifodalash va rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O‘quvchilarga mustaqil izlanish olib borish uchun mavzular berish ularning tahlil qilish va tadqiqot olib borish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu jarayon orqali o‘quvchilar o‘z bilimlarini mustahkamlash bilan birga, yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar. Topshiriqlarni baholashda konstruktiv fikr-mulohazalar berish muhimdir. Bu o‘quvchilarga o‘z ishlarini yaxshilash va kelgusida yanada muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam beradi [3].

O‘zbek adabiyotining madaniy va tarixiy kontekstini o‘rganish orqali o‘quvchilar adabiy asarlarning mazmunini chuqurroq tushunadilar. Bu yondashuv ularning madaniy bilimlarini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu metodik yondashuvlar orqali o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish jarayoni samarali va qiziqarli bo‘ladi. Bu esa ularning adabiyotga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va bilimlarini mustahkamlaydi.

O‘zbek adabiyoti fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlari o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Quyida bir nechta topshiriq turlarini ko‘rib chiqamiz:

Insho yozish.

Mavzu: Alisher Navoiy ijodida insoniylik g‘oyalari

Vazifa: Alisher Navoiy asarlaridan misollar keltirib, insoniylik g‘oyalarini tahlil qilish.

Asar tahlili.

Mavzu: Abdulla Qodiriy asarlaridagi tarixiy voqealar

Vazifa: “O‘tgan kunlar” romani asosida tarixiy voqealarni tahlil qilish va ularning zamonaviy ahamiyatini muhokama qilish.

Ijodiy yozuv.

Mavzu: Yangi davr qahramoni

Vazifa: Zamonaviy O‘zbekiston qahramonini tasvirlovchi qisqa hikoya yozish.

Munozara.

Mavzu: Adabiyot va zamonaviy jamiyat

Vazifa: Adabiyotning zamonaviy jamiyatdagi o‘rni va ahamiyati haqida munozara tashkil etish.

Adabiy tadqiqot.

Mavzu: O‘zbek xalq og‘zaki ijodi va uning bugungi kundagi ahamiyati

Vazifa: O‘zbek xalq og‘zaki ijodining turli janrlarini o‘rganish va ularning zamonaviy madaniyatdagi o‘rnini tahlil qilish.

Kitob sharhi.

Mavzu: Cho‘lponning “Kecha va Kunduz” asari

Vazifa: Asarning asosiy mavzulari va qahramonlari haqida sharh yozish.

Madaniy tadqiqot.

Mavzu: O‘zbek adabiyotida milliy qadriyatlar

Vazifa: O‘zbek adabiyotidagi milliy qadriyatlarni o‘rganish va ularning jamiyatdagi aksini ko‘rsatish [4].

Ushbu topshiriqlar o‘quvchilarning adabiyotni chuqurroq o‘rganishiga, tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishiga va ijodiy salohiyatlarini oshirishiga yordam beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, ushbu maqolada o‘zbek adabiyoti fanidan mustaqil ta’lim topshiriqlarini takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlar ko‘rib chiqildi. O‘quvchilarning qiziqishini oshirish va bilimlarini mustahkamlash uchun topshiriqlarni rejalashtirish va turli usullarni qo‘llash muhimligi ta’kidlandi. Interaktiv va reflektiv metodlar yordamida o‘quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, milliy madaniyatni chuqurroq anglash imkoniyatlari yaratildi. Mustaqil izlanish va baholash usullari esa o‘quvchilarning bilimlarini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Jumaniyozov N. O‘zbek adabiyoti va uning o‘qitilishi. – Toshkent: 2021. – 201 b.
2. Murodov A. O‘zbek adabiyoti: nazariya va amaliyot. – Toshkent. 2018. – 117 b.
3. Rahmonov I. Adabiyot darslarida innovatsion metodlar. – Toshkent: 2020. – 92 b.
4. Xudoyberdiyev Sh. O‘zbek adabiyoti darslarida mustaqil ishlarni tashkil etish. – Toshkent: 2019. – 102 b.
5. Курбанбаева М. Талабаларда мустақил ишлаш кўникмаларини тўғри ривожлантириш. (2024). *TAMADDUN NURI JURNALI*, *11*(62), 302-304. https://doi.org/10.69691/g96v9q93

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 930.26(67/68.621.7/9)

ОГАҲИЙНИНГ “ГУЛШАНИ ДАВЛАТ” ТАРИХИЙ АСАРИДА САЙЙИД МУҲАММАДХОН ХОНЛИК ДАВРИ ВОҚЕАЛАРИ ТАФСИЛОТЛАРИ

Матякубов Шоназар Собирович, Хоразм Маъмун академияси катта илмий ходими, тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

https://orcid.org/0009-0003-0888-2941
e-mail: shonazarmatyoqubovv@gmail.com

DETAILS OF THE EVENTS OF THE PERIOD OF SAYID MUHAMMAD KHAN KHANY IN AGAHI'S HISTORICAL WORK “GULSHANI DAVLAT”

Matyakubov Shonazar Sobirovich, Senior Researcher of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy in Historical Sciences, (PhD)

ПОДРОБНОСТИ СОБЫТИЙ ЭПОХИ САИДА МУХАММАДХАНА В ИСТОРИЧЕСКОМ ТРУДЕ “ГУЛЬШАНИ ДАВЛАТ” ОГАХИ

Матьякубов Шоназар Собирович, старший научный сотрудник Хорезмской академии Маъмуна, доктор философии по историческим наукам (PhD)

Аннотация: *Мақолада Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг “Гулшани давлат” тарихий асарида Хива хони Саййид Муҳаммадхон ва хонлик воқеотларига оид маълумотлар берилади.*

Калит сўзлар: *Хоразм, Хива, Мунис, Огаҳий, “Гулшани давлат” Саййид Муҳаммадхон, тарих, Бухоро, Қўқон, Хуросон ўзбек, туркман, ёвмут, жамшидлар.*

Abstract: *The article provides information about the events of the Khiva Khan Sayyid Muhammadkhan and the khanate in the historical work of Muhammad Riza Ogahi “Gulshani Davlat” (The State of the Golden Horde).*

Keywords: *Khorezm, Khiva, Munis, Ogahi, Sayyid Muhammadkhan “Gulshani Davlat” (The State of the Golden Horde), history, Bukhara, Kokand, Khorasan, Uzbeks, Turkmen, Yavmut, Jamshids.*

Аннотация: *В статье представлены сведения о Хивинском хане Сайид Мухаммад-хане и событиях ханства в историческом труде Мохаммада Ризо Огахи “Гульшани давлат”.*

Ключевые слова: *Хорезм, Хива, Мунис, Огахи, “Гульшани давлат”, Сайид Мухаммад-хан, история, Бухара, Кокан, Хорасан, Узбеки, Туркмены, Явмут, Джамшиды.*

КИРИШ. XVII-XIX асрлар Хоразм хонлиги маданий ҳаёти учун характерли бўлган хусусиятлардан биттаси тарихий асарлар яратиш эди. Абулғозий Баҳодирхоннинг “Шажараи турк” асаридан бошланган бу анъана Шермуҳаммад Мунис, Муҳаммад Ризо Огаҳийгача давом этади. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳийнинг тарихга оид асарлари “Риёз уд-давла” хонликнинг 1825-1842 йил воқеалари, “Зубдат ут-таворих” 1843-1846 йил воқеалари, “Жомеъ ул-воқеоти султоний” 1846-1855 йил воқеалари, “Гулшани давлат” 1856-1865 йил воқеалари, “Шоҳиди иқбол” 1866-1872 йил воқеалари Хоразм хонлиги тарихи ёритиш бўйича асосий манбалардир. Республикамиз илмий ташкилотларида Мунис ва

Огаҳийнинг тарихий асарларини ўрганиш ва оммалаштириш борасида шу пайтгача талайгина илмий тадқиқот ишлари амалга оширилган. Ўзбек тарихчилари билан бир қаторда рус шарқшунослари ҳам Мунис ва Огаҳий тарихий асарларини ўрганиб, ўзларининг ижобий фикрларини билдириб ўтганлар, шу ўринда рус академик олими В.В.Бартольднинг фикрларини келтириб ўтиш мумкин. В.В.Бартольд Мунис ва Огаҳийнинг тарихий асарларига бундай баҳо беради: “Мунис ва Огаҳий томонидан яратилган адабий ва тарихий асарлар қанчалик камчиликка эга бўлмасин, тарихий воқеаларни баён этиш ва уларда келтирилган фактик материалларнинг кўплиги жиҳатидан бизгача етиб келган Қўқон ва Бухоро хонликлари тарихи бўйича ёзилган ҳамма асарларни анча орқада қолдиради”[1].

ТАҲЛИЛ ВА МЕТОДОЛОГИЯ. Огаҳийнинг “Гулшани давлат” тарихий асари Хоразм тарихига бағишланган бешта асарининг тўртинчи асаридир. Мазкур асарда Хива хонлиги худудида 1856-1865 йилгача Саййид Муҳаммадхон ҳукмронлик қилган даврларида бўлган воқеалар ўз аксини топган. Ушбу асарнинг ҳозирги кунда учта қўлёзма нусхаси мавжуд бўлиб, битта нусхаси Ўзбекистонда Фанлар академиясининг шарқшунослик институтида, қолган иккита нусхаси эса Россия Фанлар академияси қўлёзмалар институти фондида сақланмоқда. Хива хони саройи кутубхонасида сақланаётган бир нусха 1873 йилдаги Россия босқинида А.Кун томонидан олиб кетилган ва 1890 йилда Россиядаги Осиё музейига сотилган. Яна бир нусхаси А.Н.Самойлович томонидан 1908 йилда Хивадан Россияга олиб кетилган. “Гулшани давлат” асарини эски ўзбек ёзувидан Ш.Воҳидов ва Қ.Алланбой қизи табдил этиб, изоҳ ва луғатларни тузганлар.

МУҲОКАМА. Асар муқаддимасида Огаҳий ўзининг исми ва тахаллусини, шунингдек Мунисга яқин қариндош эканлигини ва кўп вақтлардан буён жаннатий ва маърифатпарвар подшоҳларнинг марҳамати билан тарихий воқеотлар тўғрисида асарлар ёзишдан ниҳоятда мамнун эдим деб қуйидаги маълумотни ёзиб ўтади: “...камина Муҳаммад Ризо Мироб ал-мулаққаб би-л-Огаҳий – биродарзода ва дастпарвардайи Мунис мироб, неча айёмдин бери подшоҳи жаннатжойгоҳлар ва шаҳаншоҳи маърифат-паноҳларнинг марҳамати мулкиона ва илтифоти хусравоналаридин воқеъот забти ва тарих рабтиға маъмур ва ул амр воситаси била аҳли олам орасида ниҳоятсиз мубтаҳиж ва масрур эрдим”[2]дейди. Хива хони Қутлуғ Муродхон Абдуллахондан кейин 18 ярим ёшида 7 ой хонлик тахтида ўтирди. Муҳаммад Ниёзбий туркман ёвмутларнинг қўллови билан хонни Аркдаги қора уйида ўлдиради ва унинг жиғали телпагини бошига кийиб тахтга ўтиради. Муҳаммад Ниёз тахтда ўтириб Ёқуб мехтарни ўз олдига аркка чақиради. Лекин Ёқуб мехтар унинг олдига бормайда ва арк дарвозасини эгаллаб олади, навкарлар билан келиб қалъа устида туриб, Арк ичидаги ёвмутларга қарши қирғин бошлайди. Шаҳар халқини ёвмутларга қарши қўзғаб, ёвмутни калласини кесиб келтирганларга ўн тилла, уни тирик келтирганга йигирма танга берамиз жар солиб қичқиради. Халқ ёппасига қўлига курол, найза, қилич олиб, ёвмутларни ўлдира бошлайди. Ёқуб мехтар бошчилигидаги навкарлар қалъа устидан келиб, Арк ичидаги ёвмутларни милтиқлардан отдилар. Навкарлар нишонидан қочиб Арк кўринишхонасида қамалиб қолган қирққа яқин туркман ёвмутларни ва Муҳаммад Мурод маҳрам ёқасидан тутиб, судраб чиқарган Муҳаммад Ниёзбийни Аркдан чиқариб қатл этдилар. Бу ҳақда Огаҳий деб ёзади: “Ва аркони давлат жонбозларидин шижоаттавъом Муҳаммад Мурод маҳрам фармони қазожараён қуввати била балойи ногоҳондек даҳлизға югуриб, ажалчангал бозусининг нируси била Муҳаммад Ниёзбийнинг яқасидин тутуб, судраб ташқарига чиқардилар. Дарҳол ҳукми олий мужиби била ани дағи уқубат маҳбасида маҳбус, балки адам зиндониға солиб, мафқуд ва матмус эттилар[3]. Шундан сўнг Ёқуб меҳтар бошқа аёнлар билан маслаҳатлашиб, Саййид Муҳаммадхонни Хива тахтига муносиб кўришиб, милодий 1272, ҳижрий 1856 йил 12 феврал душанба куни, 33 ёшли Саййид Муҳаммадхонни тахтга чиқаради. Барча аркони давлат, шаҳзода ва тўралар, фозилу-фузало ва шоиру-тарихчилар хон ҳазратларини муборакбод этганликлари ҳақида Огаҳий қуйидагича ёзиб қолдиради: “Ва ҳамул қаср фазосида Хивақ музофотининг жамии уламову қузот ва кубарову содоти, барча олиймакон шаҳзодалар ва гардунтавон озодалар ва аркони давлат ва аъёни ҳазрат ва жумлаи машоҳиру

аъроф ва акобиру ашроф итттифоқ била мазкур бўлган кун, яъни товушқон йили хуршиди рахшоннинг сабиҳ ул-важҳ Юсуфи далв буржининг йигирма учунчи даражасидин намоён эрди, таърихи ҳижрия минг икки юз етмиш иккида, жумоди ус-соний ойининг бешида, душанба куни улуғ чошт вақтидаким, соати саодатосор ва ахтари шарофатшиор эрди”[4]. Хон тахтга ўтиргандан кейин янги лавозим амир ал-уламо мансабини таъсис этди ва оғаси Саййид Маҳмуд тўрани шу мансаб билан сийлади ва шу йўл билан тахт даъвогарлигидан ҳам қутилди. Амир ал-умаро Хива хонлигидаги ҳарбий қўшинларнинг бош қўмондони лавозими бўлиб, Муҳаммад Амин иноқ даврида Фозилбий ҳам шу лавозимда ишлаган эди, лекин шундан кейин бу лавозим ҳеч кимга берилмаган эди. Амир ал-умаро лавозимининг маоши ҳаммадан кўп, йилига 500 тилло бўлиб, яна бир неча вилоятлар унга беркитилган эди. Бу ҳақда Огаҳий шундай деб ёзади: “... шаҳзода Саййид Маҳмудни иноятн хисравониға махсус ва авотифи мулуконаға машмул тутуб, муборак жулуининг учинчи куниким, жумод ус-соний ойининг еттиси ва чаҳоршанба куни эрди, амир ал-умаро мансаби олийсин арзони тутуб ва андоғ иззатлиғ мансаб маснадида ўлтуруб, умарои аъзам ва кубаройи зу-л-иҳтиром орасида садрнишинлик даражаси била сарфроз, балки анжам хайли ўртасида хуршиди жаҳонтоб амир ул-умаросидек мумтоз қилди”[5]. Ушбу бўлиб ўтган вокеликни Огаҳий назм йўлида ҳам талқин этади:

“Ул сарафрози жаҳон, мазҳари жуд,
Фахри олам орасида Саййид Маҳмуд.
Бўлди иззат била бу олам аро,
Шоҳ лутфидин амир ул-умаро” [6].

Шундан кейин Саййид Муҳаммадхон хонлик учун қилган хоинлиги ва қотиллиги учун ўлдирилган Муҳаммад Ниёз девонбеги ўрнига Муҳаммад Мурод маҳрамни содиқ ва самимий хизматларини инобатга олиб, қадрини баланд, мартабасини олий қилиб, закот йиғиш ва девонбегилик мансабига лойиқ кўради. Бу ҳақда Огаҳий: “Ва ҳамул кун ул ҳазрат камоли карам ва ғояти мурувватидин Муҳаммад Ниёз девонбегини музаккийлик ва девонбегилик мансабидин маъзул этиб, анинг ўрниға ул хизматкори қадимий ва жонсипори самимий ихлоставъом, никушайам Муҳаммад Мурод маҳрамни закот аҳзига омил ва девонбегилик мансабининг олий даражасиға восил қилиб, аркони давлат ва аъёни ҳазрат орасида қадриға баландлик ва мартабасиға аржумандлик еткурди”[7]. Шунингдек хон яна бир неча амалдорларни янгилади. Қутлуғ Муродхон томонидан ёвмутлар билан урушда мағлуб бўлиб, асирга тушиб қолган Муҳаммад Ниёзбийни ўрнига бий лавозими берилган Оллоқулихонниг ўғли Раҳимбердибийнинг нолойиқ ҳаракатлари сабаб лавозимидан маҳрум этиб, унинг ўрнига Оллоқулихоннинг яна бир ўғли Маҳмуд тўрани бий этди. Бу ҳақда Огаҳий: “...нолойиқ ҳаракатлар сабаби била Раҳимбердибий ибн Аллоҳберди тўранинг ҳоли саҳифасиға азл рақамини чекиб, анинг ўрниға олийшон, рафеъмакон, манзалатнишон, ҳимматтавамон, зубдайи арбоби вужуд шаҳзода Саййид Маҳмуд валади аршади подшоҳи жаннатмакон Аллоҳқули Баҳодирхон сақаллоҳу сирраҳуни авотифи мулуконаға махсус тутуб, бийлик хилъати хосин комати қобилиятиға ихтисос бериб, умаройи изом ва кубаройи зулаҳшом оросида садрнишин қилиб, зурвайи мартабасин аълойи илиййиндин ўткарди” [8] деб ёзади. Юқорида зикр этилган Қутлуғ Муратхон ўлдирилиши ва тахтдан ағдарилиши натижасида Хива халқининг Муҳаммад Ниёзбий бошлаб келган ёвмутларга қарши бошланган қатли ом яъни оммавий қирғинда милтиқ ўқи ва қилич тиғидан ажали етмай тирик қолган айрим ёвмутлар юз меҳнат ва минг машаққат билан қочиб қутулиб, ўлар ҳолатда ҳазрат Исми Маҳмуд ота мақбарасидаги ёвмут қавми ўбасига жам бўлдилар. Бу ҳақда Огаҳий: “Бу ижмол тафсилоти улким, Қутлуғ Мурадхони жаннатмаконнинг қиёматнишон воқеаси ҳангомидаги қатли омда Хивақ шаҳрининг суккон ва фуқаросининг жалодатнишон шужаоъси тиғи зарбидан баъзи ажали етмаган ямут муфсидлари юз меҳнат ва минг машаққат била қочиб, қутулуб, ўлум ҳолида Исми Маҳмуд ота алайҳи-т-таҳийот ва-с-санонинг мақбарайи пурсафоси ҳаволисидаги ямут ўбасиға ҳар тарафдин бориб, жамъ бўлдилар” [9] деб маълумот беради. Огаҳий ўзининг “Зубдат-ут-таворих” тарихий асарида маълумот беришича, Раҳимқулихон отаси Оллоқулихон даврида унинг фармони билан ҳижрий 1843 йилда Эрон юришига отланади. Ушбу сафар чоғида Хуросоннинг Бодгис музофотига қарашли Кўшк

ва қоратепа мавзеларида яшовчи жамшидия оқимга мансуб аҳоли Раҳимқулихонга Ҳирот ҳокими Шоҳ Комрондан шикоят қиладилар. Улар шоҳнинг зулми ҳаддан ошгани, жамшидия оқимига мансуб аҳолининг молларини талон-тарож этиб, аёллари ва болаларини қул қилиб сотаётганини билдириб, хондан мадад сўрайдилар. Бу ҳақда Огаҳий "Зубдат-ут-таворих" асарида шундай маълумот беради: "Бу ижмол тафсили улким, жамшидия тавойифининг мавотин ва масокини Хуросон вилоятидин Бодғис музофотида Кўшк ва Қоратўпа отлиғ мавозеъда эрди. Ва Ҳирот волийси Шоҳ Комрон аксар авқот ул жамоаға таҳаккумот ва тасаллутот кўргузуб, зулми сариҳ ва туҳмати қабиҳ била амвол ва мавоший, асбоб ва ҳавошийсиға яғво ва торож еткурур эрди. Балки аксар аёл ва атфолларин қизилбош атаб, атроф ва жавонибдаги вилоятларға сотар эрди"[10] дейилади. Раҳимқули Эрон сафарини қолдириб, жамшидларга ёрдам беришга қарор қилади ва ўн беш мингдан зиёд уйлик элатни Хуросондан Хоразм диёрига кўчириб келади. Саййид Муҳаммадхон даврига келиб эса ўн беш йилча Хоразмда яшаган жамшидия халқи асли ватани бўлмиш Хуросонга кўчиб кетиши бошланади. Уларнинг кўчиши сабаблари ҳақида Огаҳий қуйидагича маълумот беради: "....ноаҳил бегонаға ошнолиғ умиди била бир ният қилмоқ йилондин дўстлиғ тилаб, қўйн ичра парвариш кўргузмакдур. Ва ноқобил бедавлатга беҳуда тамъа била мурувват этмак шўразордан гул кўкармоқ истаб, тухум сочмоқ расмин тузмакдур. Нединким, анга ҳар нечаким тарбият қилсанг, ҳаргиз бегоналиғ зойил бўлмас ва мунга ҳар нечаким, мурувват этсанг, асло бедавлатликдан ўзга нима ҳосил бўлмас!"[11] деб ёзади ва яна уларнинг кўчиб кетишларидан норизо бўлиб: "ул тоифа Хоразм подшоҳларидин кўп тарбият ва шафқатлар кўрдилар, аммо сўнгроқ хизматкорлиғ ва жонсипорлиғ русумин аён қилмоқ вақти етушган ҳолда кўрнамаклик кўргузиб, мувофиқат ўрниға мухолифат осорини намаён эттилар"[12] дейди ва Огаҳий яна бир маълумот, яъни жамшидийларнинг Хуросондан Хоразмга кўчиб келиш вақтини яъни ҳижрий 1257, милодий 1841 йил ҳақида, шунингдек уларга Қиличниёзбой қалъаси жой бериб, ўзлари хоҳлаган ерига экин экиб зироат олишлари имконияти берилганлиги ҳақида ҳам маълумот беради: "Чун Раҳимқулихони жаннатмакон отаси мағфиратнишон Аллоҳқули Баҳодирхоннинг фармони била анинг зафариқтиро замонида сиғир йили, санайи минг икки юз эллик еттида сипоҳи бекарон била Хуросон мамлакатиға бориб, мазкур тоифани Хоразм вилоятига кўчуруб келтуруб, Қиличниёзбой қалъаси тавобеъидин ўзларининг хоҳлаган еридин маъво ва сукно ва зироатгоҳ таъйин этти"[13] дейилади.

ХУЛОСА. Огаҳий асарлари қаторидаги "Гулшан давлат" асари Огаҳийнинг бу асаридан олдинги тарихий асарларидаги воқеотларни янада тўлдириши ва бойитиши билан бир қаторда Хива хони Саййид Муҳаммад даври хонлик воқеотлари тўғрисида қимматли маълумотларни тақдим қилади. Тарихий асарда келтирилган воқеа ва ҳодисотлар тасвири Хоразм тарихини ўрганувчи тадқиқотчилар учун қимматли илмий манба бўлиб хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Бартольд .В.В.История культурной жизни Туркестана. Л.1927. стр.113.
2. Огаҳий "Гулшани давлат". Асарлар .6-жилд. Т.: Sharq. 2020.-6б.
3. Огаҳий. Гулшани давлат. Асарлар. 6-жилд. Тош.Sharq: 2020.-20б.
4. Огаҳий. Гулшани давлат Асарлар.6-жилд. Тош. Sharq: 2020.-21б.
5. Ўша жойда, 32 бет.
6. Ўша жойда.
7. Ўша жойда, 33 бет.
8.Ўша жойда.
9.Ўша жойда, 35бет.
10. Огаҳий. "Зубдату-т-таворих" Асарлар.3-жилд. Тош.Sharq: 2020.-84б.
11. Огаҳий. Гулшани давлат. Асарлар.6-жилд. Тош. Sharq: 2020.-36.
12. Ўша жойда, 37 бет.
13. Ўша жойда.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:347.92.124

ASOSSIZ ORTTIRILGAN BOYLIKNI QAYTARISHNING FUQAROLIK-HUQUQIY AHAMIYATI

Ikramov Abrorbek Kamolidinovich
Sudyalar Oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi tadqiqotchisi

ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОЕ ЗНАЧЕНИЕ ВОЗВРАТА НЕОБОСНОВАННО ПРИОБРЕТЕННОГО ИМУЩЕСТВА

Икрамов Аброрбек Камолидинович
Исследователь высшей школы судей при Высшем судебном совете

THE CIVIL-LEGAL SIGNIFICANCE OF THE RESTITUTION OF UNJUST ENRICHMENT

Ikramov Abrorbek Kamolidinovich
Researcher of the Higher School of Judges under the Supreme Judicial Council

e-mail: ikramovjustice87@gmail.com
Tel: +998949088025
0009-0001-6103-1164

Annotatsiya: *Ushbu tadqiqotda asossiz orttirilgan boylikni qaytarishning fuqarolik-huquqiy ahamiyati o'rganiladi. Tadqiqotda asossiz orttirilgan boylik tushunchasi, milliy qonunchilikdagi ifodasi, asossiz orttirilgan boylikning kelib chiqishi va qaytarish usuli hamda tartibi ko'rib chiqiladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksida o'z aksini topgan ayrim moddalarning rioya etmaslik, uni sodir etuvchida zararni jabrlanganga qoplab berish burchini hamda jabrlangan kishida esa, ko'rgan zararini qoplanishini talab qilish huquqini vujudga kelishi kabi tushunchalarga oydinlik kiritiladi.*

Kalit so'zlar: *asossiz orttirilgan boylik, asossiz orttirilgan boylikni qaytarish, majburiyat, huquq, mol-mulk.*

Аннотация: *В данном исследовании рассматривается гражданско-правовое значение возврата необоснованно приобретенного имущества. Анализируются понятие необоснованного обогащения, его отражение в национальном законодательстве, происхождение, а также способы и порядок возврата. На основе соответствующих положений Гражданского кодекса Республики Узбекистан освещаются вопросы применения и несоблюдения отдельных статей, юридические обязательства лица, необоснованно обогатившегося, и права потерпевшего. В частности, необходимость возврата рассматривается как средство защиты имущественных прав потерпевшей стороны.*

Ключевые слова: *необоснованное обогащение, возврат необоснованного обогащения, обязательство, право, имущество.*

Annotation: *This study examines the civil-legal significance of the restitution of unjust enrichment. It analyzes the concept of unjust enrichment, its expression in national legislation, its origins, as well as the methods and procedures for restitution. Based on relevant provisions of the Civil Code of the Republic of Uzbekistan, the study highlights the application and non-compliance with certain articles, the legal obligations of the unjustly enriched party, and the rights of the aggrieved party. In particular, the necessity of restitution is considered as a means of protecting the property rights of the aggrieved party.*

Key words: *unjust enrichment, restitution of unjust enrichment, obligation, law, property.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki kunlardan boshlab, har bir sohada bo‘lgani kabi sud-huquq sohasida ham qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida jamiyatda qonun ustuvorligi, inson huquq va erkinliklarini ta’minlash hamda fuqarolar bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda. Fuqarolik-huquqiy tartibga solishning eng muhim qoidalarini o‘zida mujassamlashtirgan qonun hujjati bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi fuqarolik qonunchiligi hujjatlari tizimida asosiy o‘rinni egallaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 8-moddasida, asossiz boyib ketish, fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelish asosi sifatida ko‘rsatilgan. Ushbu moddani X.R.Raxmonqulov va O.O.Oqyulov sharhlar ekan, “O‘zR FK 8-moddasining oltinchi va yettinchi bandlarida ko‘rsatilgan noqonuniy harakatlar fuqarolik huquqi va burchlarini vujudga kelishi uchun asos bo‘lishi mumkin. O‘zR FK 8-moddasi 6-bandida ko‘rsatilgan qonun buzilishi uni sodir etuvchida zararni jabrlanganga qoplab berish burchini hamda jabrlangan kishida esa, ko‘rgan zararini qoplanishini talab qilish huquqini vujudga kelishiga olib keladi. Mazkur qonun buzilishlari O‘zR FKning 57- bobi bilan tartibga solinadi. O‘zR FK 8-moddasi yettinchi bandida ko‘rsatilgan fuqarolik huquqining buzilishi ham asossiz boyib ketgan shaxs uchun, u kimning hisobiga boyigan bo‘lsa, o‘sha kishining 29 2-bob. Fuqarolik huquq va burchlarining vujudga kelishi oldida O‘zR FK 58-moddasiga binoan majburiyatni keltirib chiqaradi” [1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarning fuqarolik huquqiy munosabatlar tizimida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi va subyektlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishning fuqarolik-huquqiy vositasi va usuli sifatida shakllanishi ham ko‘plab fuqarolik huquqiy institutlar (shartnomalar, mulk huquqi, dilektlar) kabi uzoq tarixiy o‘tmishga borib taqaladi. Insoniyat tarixining dastlabki darvlaridayoq o‘zgaga tegishli narsani asossiz qo‘lga kiritish yoki ushlab qolish og‘ir gunohlardan biri sifatda qarab kelingan. Qadimgi Rim huquqi boshqa huquq manbalari va huquqiy tizimlar hamda odat huquqlaridan farqli ravishda birinchilardan bo‘lib, majburiyatlarni shartnomali va shartnomadan tashqari turlarga bo‘lish bilan birga, shartnomadan tashqari majburiyatlarni zarar yetkazishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga va asossiz boylik orttirishdan kelib chiqadigan majburiyatlarga bo‘ladi [2].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko‘ra, “O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so‘zsiz tan olinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega, to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiladi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etadi”, deb qayd etilgan.

Bohodir Isroilovga ko‘ra, asossiz boylik orttirish qonun hujjatlarida ta’qiqlanadigan holat bo‘lib, lekin u kundalik hayotimizda uchrab turadigan amaliyot hisoblanadi. Asossiz orttirilgan boylik boshqa shaxs jabrlanuvchi yoki da’vogar hisobidan mol-mulkni egallab olingan yoxud mulkni tejab qolish evaziga uni qo‘lga kirituvchi shaxs tomonidan orttirilgan boylik hisoblanadi. Jamiyatda hayotimiz va iqtisodiyotning raqamlashib borishi barchani yangi texnologiyalardan foydalanish bilan bog‘liq fuqarolik huquqiy munosabatlari ishtirokchisiga aylantirdi. Elektron to‘lov tizimi orqali mobil telefon yoki boshqa turdagi xizmatlar uchun to‘lovni amalga oshirish jarayonida biror raqamni noto‘g‘ri ishlatib, to‘lov amalga oshirilishi shaxsga asossiz boylik orttirishiga sabab bo‘ladi.

Mulkni tejash hisobiga orttiriladigan boylik kreditor mulkini ishlatish natijasida tejalgan mulkka egalik qilish oqibatida olinadi. Masalan, qurilish tashkiloti buyurtmachi materiallari hisobidan qurilish ishlarini amalga oshirgan taqdirda, bajarilgan ish uchun sarflangan buyurtmachining qurilish materiallarini tejab qolib, uni buyurtmachiga qaytarmagan mulk qurilish tashkiloti tomonidan asossiz orttirilgan boylik hisoblanadi.

Xuddi shuningdek quyidagi ham asossiz boylik orttirish holatlari hisoblanadi:

uyni xarid qilish bo‘yicha og‘zaki dastlabki kelishuv asosida berilgan zakalat puli, og‘zaki

kelishuv bo‘yicha qarz berilgan, ammo qarz oluvchi mablag‘ni qaytarmagan holat;

ko‘cha yuzidagi shaxsiy uy yoki korxona binosiga kelishuvsiz, ruxsatsiz reklama bannerini o‘rnatib xizmat yoxud mahsulot reklama qilish;

soliq bo‘yicha noto‘g‘ri imtiyoz qo‘llash evaziga olingan daromad;

byudjet oldida majburiyat yo‘q soliq to‘lovchining soliq bo‘yicha to‘langan ortiqcha to‘lovi” [2].

Fuqarolik kodeksining 1023-moddasida, “Qonunchilikda yoki bitimda belgilangan asoslarsiz boshqa shaxs (jabrlanuvchi)ning hisobidan mol-mulkni egallab olgan yoki tejab qolgan shaxs (qo‘lga kirituvchi) asossiz egallab olingan yoki tejab qolingan mol-mulkni (asossiz orttirilgan boylikni) jabrlanuvchiga qaytarib berishi shart, ushbu Kodeksning 1030-moddasida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Fuqarolik kodeksining 1025-moddasida, “Qo‘lga kirituvchining asossiz orttirilgan boyligini tashkil etuvchi mol-mulk jabrlanuvchiga asl holida qaytarilishi lozim.

Qo‘lga kirituvchi jabrlanuvchining oldida har qanday, shu jumladan u orttirilgan boylikning asossizligini bilgan yoki bilishi lozim bo‘lgan paytdan keyin asossiz qo‘lga kiritilgan yoki tejab qolingan mol-mulkning tasodifiy yetishmovchiligi yoki yomonlashuvi uchun javobgar bo‘ladi. Bu paytgacha u qasd va qo‘pol ehtiyotsizlik uchungina javobgardir”, deb qayd etilgan. Majburiyat munosabatlaridagi qo‘shimcha talablarning tabiati shundayki, ular bosh talab bor bo‘lgani uchungina mavjuddir. Demak, qo‘shimcha talablar mustaqil ma’noga ega emas. Neustoyka, garov, qarzdorning mol-mulkini ushlab qolish, kafillik, kafolat, zakalat va boshqalarga asoslangan talablarning qo‘shimchalik yoki aksessorlik xususiyati ularni asosiy talab asoslangan huquqlarni himoya qilishdan mustaqil ravishda muhofaza qilish imkoniyatini bermaydi. Sharhlanayotgan modda qo‘shimcha talablarning aynan shunday tushunilishini mustahkamlaydi va ularning da’vo muddatini asosiy talab muddati tugashi bilan bekor qiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Mulkdor insofsiz egallovchidan mol-mulkka insofsiz egalik qilgan butun vaqt davomida olgan yoki olishi mumkin bo‘lgan barcha daromadlarni qaytarib berishni yoki to‘lashni talab qilishga haqli. Qonunsiz egalikda bo‘lgan mol-mulkdan olinadigan daromadlarning undiruvni talab qilish huquqiga mol-mulkdan mulkdor bilan tuzilgan shartnoma asosida egalik qilib foydalangan, biroq mol-mulk o‘z ixtiyoridan tashqari bo‘lgan usulda egaligidan chiqib ketgan boshqa huquq egalari egallovchilar, ashyoviy va majburiyat asosida egadirlar. Mulk huquqini va boshqa ashyoviy huquqlarni himoya qilish faqat mulkdor tomonidan mustaqil talab qo‘yilishi yo ob’yektiv jihatdan mushkul yoki imkonsiz bo‘lganda ruxsat etiladi. Boshqa hollarda mulkdor yo o‘ziga tegishli daromadlarni noqonuniy egallovchidan mustaqil undiradi, yoxud bu ishni ishonchnoma asosida bajarishi uchun qonuniy egallovchiga taqdim etadi.

In English, aphorisms related to poverty often focus on the dual nature of the condition—both as a material lack and a social stigma. English proverbs and sayings portray poverty as something that can lead to resilience, humility, and even moral growth. Some examples include:

"Poverty is the mother of crime."

This English aphorism suggests that economic hardship often leads individuals down destructive paths, such as crime or unethical behavior, due to a lack of resources or opportunities. It emphasizes the connection between poverty and social issues, portraying poverty not just as a personal struggle but as a catalyst for broader societal problems.

"A poor man's wealth is in his friends."

This saying highlights the idea that poverty is not just defined by financial status but by the richness of one's relationships. It suggests that while material wealth may be lacking, emotional wealth, or the value of genuine friendships, holds greater significance in life.

"Necessity is the mother of invention."

This proverb, often used in discussions about poverty, implies that when faced with a lack of resources, people are forced to be more resourceful and creative. It shows that poverty can drive innovation and resilience as individuals or communities strive to overcome their limitations.

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). These aphorisms illustrate the view of poverty as both a source of hardship and an opportunity for growth. While English aphorisms typically highlight individual resilience when confronting poverty, they also emphasize the broader societal issues that poverty can lead to. Similarly, Uzbek proverbs and aphorisms offer profound insights into the experience of poverty. However, Uzbek culture places a greater emphasis on communal responsibility, collective action, and the spiritual aspects of poverty, focusing on the importance of unity and moral strength in overcoming economic challenges. Some examples include:

"Kambag'al o'limni bilmaydi, boy esa hayotni". (A poor man does not know death, but a rich man knows life.) This Uzbek saying suggests that poverty can shield individuals from some of life's harsh realities. It implies that poverty may free people from some of the anxieties that come with wealth, such as fear of death or loss, highlighting the complex relationship between material and spiritual wellbeing.

"Kambag'allik – ko'zga ko'rinar, boylik – yurakka." (Poverty is seen with the eyes, wealth with the heart.) This saying emphasizes the idea that poverty is an outward, visible condition, while wealth is a matter of inner contentment. It suggests that the true richness of life is not measured by material possessions, but by the peace and contentment one feels inside. This reflects the Uzbek emphasis on inner strength and spirituality, even in the face of material poverty.

"Kambag'alni yomonlab, boyni o'rnak qilma". (Do not blame the poor, do not emulate the rich.) This saying offers a moral lesson, advising against harsh judgment of the poor and the idolization of the rich. It reflects a sense of humility and social harmony, where one should not elevate the wealthy nor disdain the poor. This view speaks to a more egalitarian ethos in Uzbek society. Uzbek aphorisms often emphasize collective values and the inner qualities of a person. Poverty is frequently seen as a shared experience, and the focus tends to be more on how individuals and communities can support each other through adversity. Despite the cultural

TAMADDUN NURI

differences, both English and Uzbek aphorisms share several common themes in their expressions of poverty:

Resilience and Adaptability: Both traditions acknowledge the resilience of individuals facing poverty, highlighting how necessity can spur creativity or inner strength.

Material vs. Spiritual Wealth: Both cultures recognize that true wealth is not merely defined by material possessions. The importance of friendships, community, and inner peace is emphasized as a form of wealth.

Social Responsibility: Both English and Uzbek aphorisms point to the social consequences of poverty, stressing that the condition can lead to broader societal issues, whether through crime or feelings of inequality.

While both cultures recognize the challenges posed by poverty, their perspectives diverge in several key areas:

Individual vs. Collective Focus: English aphorisms often center on personal struggles and individual resilience when faced with poverty, emphasizing the role of the individual in overcoming hardships. In contrast, Uzbek proverbs place a greater emphasis on community and collective responsibility, highlighting the importance of social cohesion and shared efforts. Many Uzbek sayings also carry a moral message, encouraging empathy and mutual support within society.

Spiritual and Moral Dimensions: Uzbek aphorisms typically incorporate a deeper spiritual or moral perspective, suggesting that poverty serves as a test of one's character and faith. These proverbs encourage individuals to endure hardships with dignity and strength. English proverbs, however, tend to focus more on the material aspects of poverty, often exploring its practical implications and the tangible consequences it can have on people's lives.

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). The aphorisms from both English and Uzbek cultures offer valuable perspectives on the experience of poverty. Despite differences in tone and emphasis, both highlight the profound impact that poverty has on both individuals and society. English aphorisms tend to focus on resilience, the material consequences of poverty, and the significance of relationships, while Uzbek aphorisms emphasize community, spiritual wealth, and the moral lessons associated with poverty. Together, these sayings present a comprehensive view of poverty, portraying it as both a social condition and a personal challenge shaped by cultural values and shared human experience.

English proverbs often explore the relationship between poverty and societal issues, such as crime or innovation, highlighting the practical effects of lack. In contrast, Uzbek proverbs suggest that poverty can foster personal growth and strengthen communal ties, offering moral guidance on how individuals and society should approach both wealth and poverty.

Despite these differences, both sets of aphorisms share key themes, such as the importance of resilience, the contrast between material and spiritual wealth, and the social ramifications of poverty. Ultimately, both English and Uzbek aphorisms provide a well-rounded view of poverty, acknowledging its challenges while also recognizing the potential for personal and collective development. This illustrates how culture influences the way we understand and respond to this universal human experience.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Mieder W. International Proverb Scholarship. – New York: Garland Publishing, 1993.
2. Qulmamatova Muattar Otabek qizi, Safarova Farida Normurotovna (2021). The Features of a Good Translator in Translating Medical Terms. Analytical journal of education and development, (2181-2624)
3. Qulmamatova M.O. "BOYLIK" KONSEPTINING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI. (LINGUOCULTURALOGICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF «WEALTH»)

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 801.82:81.109

RUS TILSHUNOSLIGIDA GRADUAL SHKALANING KOGNITIV JIHATI

Dustmamatova Nilufar Pirimkulovna
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi dotsent v.b., (PhD)

КОГНИТИВНЫЙ АСПЕКТ ГРАДУАЛЬНОЙ ШКАЛЫ В РУССКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Дустмаматова Нилуфар Пиримкуловна
и.о.доцента, (PhD) Кафедры теории и практики перевода Ташкентского университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои

COGNITIVE ASPECT OF THE DEGREE SCALE IN RUSSIAN LINGUISTICS

Dustmamatova Nilufar Pirimkulovna
Acting Associate Professor, PhD, Translation Theory and Practice Department, Tashkent Alisher Navoi University of Uzbek Language and Literature

e-mail: ndustmamatova@gmail.com
Tel: +998339720808
Orcid: 0000-0003-0560-1043

Annotatsiya: *Mazkur maqolada so'nggi paytlarda tilshunoslikda tadqiq etilayotgan darajalanish, ya'ni graduonimiya hodisasi haqida so'z boradi. Rus tilshunosligida ham graduonimiyaning maydon hosil qilishi, uning asosiy jihatlari, belgilari, xususiyatlari hamda bu hodisaga yondosh bo'lgan tushunchalar batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada bir qator olimlarning ilmiy izlanishlari asosida graduonimiya hodisasining umumiy ko'rinishi, graduallik belgilari, graduonimiyaning sinonimiya va antonimiya bilan bog'liqlik jihatlari ham aks etgan.*

Kalit so'zlar: *graduonimiya, gradosema, gradotativ, graduallik, me'yor, dominanta, kognitiv jihat, oppozitsiya, dominant shkala, nodominant shkala, uzv.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается явление градации, а именно градуонимии, которое в последнее время изучается в лингвистике. Подробно освещается явление формирования градуонимии в русской лингвистике, его основные аспекты, признаки, особенности, а также периферийные понятия, связанные с этим явлением. В статье также представлен обзор явления градуонимии, основанный на научных исследованиях, проведенных рядом российских ученых, особенности градуонимии, аспекты соотношения градуонимии с синонимией и антонимией.*

Ключевые слова: *градуонимия, градосема, градотатив, градуальность, норма, доминанта, когнитивный аспект, оппозиция, доминантная шкала, недоминантная шкала, элемент.*

Annotation*: This article deals with the phenomenon of gradation, specifically grading, which has been recently studied in linguistics. The phenomenon of gradonymy formation in Russian linguistics, its main aspects, signs, features, as well as peripheral concepts related to this phenomenon are covered in detail. The article also presents an overview of the phenomenon of gradonymy that is based on the scientific researches conducted by a number of Russian scientists, features of gradonymy, aspects of the correlation of gradonymy with synonymy and antonymy.*

Key words*: graduonymy, gradoseme, gradative, graduality, norm, dominant, cognitive aspect, opposition, dominant scale, non-dominant scale, element.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION). Graduallik falsafa, mantiq, psixologiyaga asoslanib, insonning ongi, dunyoqarashi, faoliyati, atrof-olamga nisbatan bo‘lgan munosabatlarining ko‘proq/kamroq namoyon bo‘lishidir. Graduallikka mantiqiy kategoriya sifatida qaraladi. Insonning biror belgini ifodalashida predmetlarga xos bo‘lgan belgi yoki miqdoriy jihatdan me’yoriy so‘zga nisbatan bir chiziqda tartibli joylashtirilishi, ya’ni gradual shkala xosligini, graduallik markazida to‘liq darajalanish, uning atrofida esa qisman darajalanish kuzatilishini ta’kidlash joiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS). Graduallik deganda, gradatsiya, gradual munosabatlar, graduallashish ham tushuniladi. Graduallashishda me’yor va ularning qutblarini E.Sepir tadqiq etgan va graduonimiya hodisasini psixologik jarayon sifatida o‘lcham, miqdoriy xususiyatlarga bog‘liqligini ta’kidlab, hissiyotlarning ortishi/kamayishiga ko‘ra *mantiqiy, psixologik, lingvistik* graduonimiya turlariga ajratgan. U nafaqat graduallashishdagi markaziy va boshlang‘ich nuqta, balki gradual shkala, uning qutblari, graduonimiyani psixologik jarayon sifatida belgi va miqdordan oldin inson tafakkurida shakllanishini ta’kidlagan. “Biror narsani miqdor yordamida ifodalanishiga moyil bo‘lgan so‘zlar o‘z zamirida eksplitsitlikning 4 darajasiga ega ekanligini; kvantifikatsiya natijasida implitsit graduallashadigan so‘zlar yoki iboralar; implitsit graduallashish natijasida kvantifikatsiyalashadigan so‘zlar yoki iboralar; eksplitsit graduallashgan, biroq implitsit kvantifikatsiyalashadigan so‘zlar yoki birikmalar” mavjudligini asoslagan [4].

Leksik birliklar D.Kruz tasnifida (zanjir, spiral, aylanasimon, martaba, daraja anglatuvchi leksemalar, miqdor va hajmiga ko‘ra darajalanuvchi atamalar/otlar) o‘z aksini topgan [2] va yuqoridagi tasnif ko‘rinishlarida so‘zlarning asl holati gradual munosabatga hech qanday qo‘shimchalar qo‘llanmagan holda shakllangan. Unda darajalanishga oid ta’riflar mujassamlashganligini ko‘rish mumkin:

a) qo‘shimcha vositalar qo‘llanmasligi;

b) asosiy lug‘aviy ma’nosiga ko‘ra darajalanishi;

v) gradual shkalada ularning o‘zaro miqdori va belgisiga ko‘ra farqlanishi;

g) gradual qatordagi so‘zlar dominanta so‘z atrofida birlashishi.

Graduonimiya hodisasi va unga yondosh tushunchalar rus olimlari tomonidan o‘tgan asrdan buyon turli jihatdan o‘rganilib, tadqiq etib kelinmoqda (S.Kolesnikova [3], М.Бондаренко [2], A.Sherbakov [6] va boshqalar). Ushbu hodisani o‘rganishda graduonimiyaning tom ma’nodagi maktabini ham aynan rus olimasi S.M.Kolesnikova yaratgan.

Rus tilshunosligida graduonimiya (belgi intensivligi darajasi) gradual shkala tushunchasining tadbiq etilishiga sabab bo‘lgan. Gradual shkala – belgi darajasining ortib/kamayib borish sifatida ko‘p/kam/teng nisbiy graduatorlar birliklarining tartibga solinishi bo‘lib, shkalada belgilangan nuqtalar subyektiv xususiyatga ega: uning asosini individning idrok etishi hamda baholashi tashkil etadi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION). N.Fedyayeva tomonidan darajalanishning tuzilishi batafsil ishlab chiqilgan: *graduallashuvchi subyekt, graduallashuvchi obyekt, gradual belgi, gradual shkala* mavjudligi; graduonimiyaning leksik-semantik kategoriya ekanligi, ushbu kategoriya “maydon” tuzilishiga ega bo‘lishi, uning yadrosini esa sifat darajalari, o‘lcham, daraja ravishlari tashkil etishini ta’kidlagan [5] bo‘lsa, V.Belyanin sifat belgilarini gradual shkalada o‘lchash mumkinligi va gradual shkalani shakllantirishda semantik qator hosil qiluvchi so‘zlar yig‘indisi “navbatma-navbat” joylashtirilishi, so‘zlarni odatdagi lug‘atlarda berilishidan farqlanishini asoslab bergan [1].

Gradual shkala tuzilishi gradual qatordan quyidagi xususiyatlari bilan farqlanadi: gradual shkalaning asosiy sharti – me’yor (yoki dastlabki nuqtasi), ya’ni belgining me’yorga nisbatan ortib/kamayib borishi; shkala hosil qilish xususiyatiga ko‘ra gradual shkala turli shakllar ko‘rinishida bo‘lishi ham mumkin. Xususan, bu shakllar shkala hosil qilish belgisi, chegaralanganlik, davriylik ko‘rsatkichlariga ko‘ra aniqlanadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Miqdoriy belgi so‘zlovchining atrofidagi o‘rab turgan obyektlar,

predmetlar, belgi-xususiyatlar, harakat va holatlarga dastlabki (0) nuqta darajasiga nisbatan ifodalanishini ko‘rsatadi hamda gradual shkala shakllanishiga asos bo‘ladi. Me’yoriy darajaga nisbatan qolgan to‘rtta ko‘rsatkich o‘zaro belgining ko‘proq/kamroq darajasiga ko‘ra farqlanadi. Gradual shkaladagi so‘zlar paradigmasi me’yordan ortiq bo‘lsa *больше, чем ...*; kam bo‘lsa *меньше, чем ...* graduatorlari yordamida hosil qilinadi. Bunda har bir belgi shartli subyektiv tusda bo‘lib, graduallikning ma’noviy tuzilmasida obyektiv va subyektivlikni namoyon etadi. Graduallik belgisining natijasini taqdim etuvchi graduatorlarning harakatlarini aks ettiradigan gradual shkala o‘lchamlariga ega bo‘lgan lisoniy birlik - gradotativ ham me’yoriy (0) daraja bilan mutanosib bo‘ladi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Gradual shkala belgining ortib/kamayib borishini aks ettiruvchi, maksimal va minimal belgilarning chegaralariga ega bo‘lgan birlikdir. Ushbu shkaladagi graduator esa belgini orttiruvchi/kamaytiruvchi maxsus vositalar hisoblanadi. Shkalaga xos bo‘lgan yana bir birlik - *gradosema* graduallik miqdorining ortishi/kamayishini ifodalash barobarida gradual shkalada turli yo‘nalishlarda joylashadi. Tilshunoslikdagi graduonimiya doimiy ravishda mantiqiy graduonimiyaga asoslanib, barcha til darajalarida o‘z aksini topadi. Shu o‘rinda, bu kabi hodisalarni qamrab olgan tadqiqotlar natijalari amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan gradual lug‘atlar yaratish imkonini yaratadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/REFERENCES):

1. Белянин В.П. Психолингвистика. – М.: Флинта, 2004. – С.143-145.
2. Бондаренко М.В. Градуальность как свойство лексики и основание для построения лексичесой парадигмы. Дисс. ... канд. филол. наук. – Воронеж, 2001. – 138 с.
3. Колесникова С.М. Градационные отношения в современном русском языке. Дисс. … канд. филол. наук. – М., 1993. – 225 с.
4. Сэпир Э. Градуирование: семантическое исследование//Новое в зарубежной лингвистике. Вып.16: Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985. – С.43-78.
5. Федяева Н.Д. Языковой образ среднего человека в аспекте когнитивных категорий градуальности, дуальности, оценки, нормы. Дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2003. – С.24.
6. Щербаков А.В. Градация как стилистическое явление современного русского литературного языка. Дисс. ... канд. филол. наук. – Красноярск, 2004. – 135 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 82-1/29

AYOL RUHIYATI TALQINIDA HIJRON VA AYRILIQ MOTIVLARINING AKS ETISHI (ZEBO MIRZO IJODI MISOLIDA)

Otamuratova Muyiba O'ktamovna, Urganch davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasi o'qituvchisi

REFLECTION ON THE MOTIVES OF HIJRAN AND SEPARATION IN THE INTERPRETATION OF WOMAN'S PSYCHOLOGY (IN THE EXAMPLE OF THE CREATION OF ZEBO MIRZO)

Otamuratova Muyiba Oktamovna, teacher of the "Uzbek language and literature" department of Urganch State University

ОТРАЖЕНИЕ МОТИВОВ РАЗЛУКИ В ИНТЕРПРЕТАЦИИ ЖЕНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ (НА ПРИМЕРЕ ТВОРЧЕСТВА ЗЕБО МИРЗО)

Отамуратова Муйиба Ўктамовна, преподаватель кафедры "Узбекский язык и литература" Ургенчского государственного университета

https://orcid.org/0000-0001-7472-8289
e-mail: muyiba.otamuratova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida ayol ruhiyati ifodasini yoritishda hijron va ayriliq motivlarining qo'llanilishi taniqli shoira Zebo Mirzo ijodi misolida talqin qilinadi.*

Kalit so'zlar: *she'riyat, motiv, talqin, ruhiyat, ijod, mahorat.*

Annotation: *In this article, the use of motives of emigration and separation in modern Uzbek poetry to illuminate the expression of the female psyche is interpreted on the example of the work of the famous poetess Zebo Mirzo.*

Key words: *poetry, motive, interpretation, spirit, creativity, skill.*

Аннотация: *В данной статье на примере творчества известной поэтессы Зебо Мирзо интерпретируется использование мотивов эмиграции и разлуки в современной узбекской поэзии для освещения выражения женской психики.*

Ключевые слова: *поэзия, мотив, интерпретация, дух, творчество, мастерство.*

KIRISH. Bugungi davr o'zbek she'riyatida milliy ruh ifodasi va shu bilan birgalikda jahon adabiyotiga xos ayrim xususiyatlar teran namoyon bo'lmoqda. Badiiy ijodda asosiy diqqat qaratilgan mavzu bu inson kechmishlari, shaxs psixologiyasi masalasidir. Har bir ijodkor ushbu jarayonni o'z nigohi bilan ko'radi va o'z iste'dodi va dunyoqarashiga binoan aks ettiradi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida inson kechinmalari talqini haqida so'z ketar ekan, bu borada bevosita davrimiz nazmining yetakchi mavzularidan biri bo'lgan ayol ruhiyati masalasining badiiy ijodda faol

ifodalanayotganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. “Bugungi odamning ko‘ngli bugunning tuyg‘ularini tuyadi. Bugungi kishilarning ruhini bezovta qiladigan gaplar bugun aytilgani ma’qul. Binobarin, bugungi she’riyat – bugungi odamning ko‘ngil mavjlari. Bugungi odam esa kechagisidan tamomila farq qiladi. Yaqindagina odamlarda umumiylik jihatlari ko‘p edi. Endilikda har bir odam tilsimlangan qo‘rg‘on singari alohida va sirli. Shuning uchun ham hozirgi ijodkorlar hayot hodisalarini aks ettirishdan ko‘ra, inson ko‘nglini badiiy tadqiq etishga ko‘proq urinmoqdalar. Chunki shaxsiyatning tilsimlangan qo‘rg‘onlari kaliti faqat ko‘ngilda ekanligi anglab yetildi”[3:75]. Ta’kidlangani kabi, globallashuv davri she’riyatida asosiy e’tibor inson qalbini inkishof etishga qaratildi.

MAVZUNING DOLZARBLIGI VA HOZIRGI HOLATI. Ma’lumki, inson ruhiyati keng qamrovli tushuncha. Zamonaviy she’riyatda shaxs ichki kechinmalari aks ettirilgan asarlar xususida so‘z borar ekan, bugunning dolzarb mavzularidan biri hisoblangan badiiy adabiyotda ayol ruhiyati ifodasini o‘z ijod namunalarida yoritib berayotgan iste’dodli shoira Zebo Mirzo ijodi alohida tadqiq etishni talab qiladi. Ijodkor o‘z badiiyat namunalarida ayol qalbiga teran nazar tashlaydi va uning iztiroblarini izchil yoritishga intiladi. Uning asarlarida ayol ruhiyati talqini ishqiy lirikada teranroq namoyon bo‘ladi. Zebo Mirzo she’riyatini tahlil qilish ayol qalb kechinmalarining badiiy adabiyotdagi in’ikosini chuqur anglashga imkon yaratadi.

TAJRIBA QISMI (TADQIQOTNI AMALGA OSHIRISH). “O‘z ijodida inson ko‘nglining turfa ko‘rinishlarini global mavzular darajasiga olib chiqqan shoiralardan biri Zebo Mirzodir. Uning she’rlarida ayol qalbi rangin va chuqur ma’no tashiydi. Shoira ijodiga nazar soladigan bo‘lsak, uning ijodi bugungi o‘zbek she’riyatining yorqin namunasidir. Shoira she’rlarida yetakchi mavzu ishq mavzusidir. Ishqni Yaratganning inoyati, deya qabul qilgan shoira Allohdan najot kutadi, gunohlaridan o‘tishini so‘raydi, panoh tilaydi”[4: 73]. Shoira boshqa ijodkorlardan farqli ravishda she’rlarida ayol ruhiyatini talqin qilishda ishq tuyg‘usi bilan uyg‘un ravishda hijron va ayriliq motivlaridan keng foydalanadi.

“Isming – yuragimga urilgan xanjar,
Sug‘urib olsalar o‘laman.
Men seni shu qadar muhabbat
va azob bilan…
jim sevaman!” [5:74].

Yuqoridagi misralarda ijodkor lirik qahramon siymosida o‘z yoriga murojaat qilayotgan ma’shuqa tilidan so‘zlaydi. U yorning ismini o‘z yuragiga sanchilgan xanjarga qiyoslar ekan, undan ayrilishni ana shu yurakka qadalgan xanjarning sug‘urib olinishi tufayli yuzaga keladigan azobli o‘limga qiyoslaydi. Lirik qahramon uchun bu muhabbat azob bilan yonma-yon ekanligini ifodalaydi. She’rdagi keskin tasvir shoira – lirik qahramon – ayol ruhiyatining nechog‘lik murakkab ekanligini ayon etadi. “She’riyat, eng avvalo, ruhiyat ko‘zgusi o‘laroq, inson ongi va qalbida chuqur taassurotlar hosil qiladi. Shuning uchun haqiqiy shoirlar har qanday sharoitda ham qalb va ruhoniyat tasvirlariga alohida ahamiyat beradi”[2:327].

“To‘kilib qaraysan…
Nigohingda mung,
Yuragimga botib bormoqda, hayhot.
Sevgim,
Ko‘zingdagi shafqat ne uchun?
Baxtsiz bir ayolga
O‘xshayman nahot?” [6:93]

Keltirilgan she’rda ijodkor o‘z qismatining, umuman, ayol qismatining nechog‘lik og‘ir ekanligini ko‘rsatib berishga intiladi. Chunki ayollar uchun muhabbat har doim ham quvonch keltiravermaydi. Ular, ma’lum ma’noda, hamisha boshqalarning o‘z ustidan to‘qiydigan g‘iybati-yu, beradigan qarori bilan hisoblashishga majbur. She’rdagi lirik qahramon ham xuddi shu holatni boshdan kechiradi. U o‘zi sevib ayrilayotgan insonning vido oldidan o‘ziga shafqat nazari bilan boqishini istamaydi. Chunki u oshiq va bu muhabbatni o‘zi uchun chinakam baxt deb biladi. Shu bois, hech ayriliq bu baxtga putur yetkazishi mumkinligiga ishonmaydi. Shoira ta’biri bilan aytganda, “Bir yorug‘ Ko‘ngildan yaralgan” ayol uchun bu hijron pisand emas. Zero, u eng oliy baxtga – oshiqlik baxtiga musharraf bo‘lgan.

“Sening sevging – menga jannatiy in’om,
Hatto azobing ham umrimga gulbayt.
Shu yorug‘ ishq bilan
Mukarram, shodkom,
Baxtsiz bir ayolga o‘xshaymanmi, ayt!”[6:93]

Lirik qahramon ayriliq dastidan do‘zax azobini tortayotgan bo‘lsa-da, ishq qudrati unga kuch bag‘ishlaydi. Ko‘nglidagi bu ilohiy nur – yor sevgisini o‘zi uchun jannatiy tuhfa deb qabul qiladi. Bu yorug‘ ishq bilan o‘zini baxtiyor his qiladi.

Yuragida qaynoq muhabbat o‘ti yonib turgan ayolning baxtsiz bo‘lishi mumkin emasligini bayon etadi.

XULOSA. Ayonki, ishq tasviri bilan hamohang ravishda hijron va ayriliq motivi o‘zbek va jahon she’riyatida an’anaviylik kasb etgan. Bu mavzular barcha zamonlarda shoiralar qalbining nozik torlarini chertib o‘tguvchi ilhom manbayi bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ayol ruhiyatini teran talqin qilishda ham ushbu motivlar muhim o‘rin tutmoqda. Bu holatga har bir ijodkor turlicha yo‘sinda yondashadi. Qaysidir ijodkorlar asarlarida ayriliq o‘lim bilan barobar tasvirlansa, ba’zi asarlarda bu jarayon qismatga isyondek akslantiriladi. Zebo Mirzo she’riyatida esa ayriliq va hijron ishqqa soya solish kuchiga ega emasligi daillanadi. Shoira o‘z uslubi orqali bu olamda hech qanday kuch ayol muhabbatiga tenglasha olmasligini yoritib beradi. Bu holat esa, o‘z o‘rnida ayol ruhiyatini tasvirlashda hijron va ayriliq motivlarini qo‘llashda shoiraning o‘ziga xos mahoratini ko‘rsatib beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Hakimjon Karimov. Istiqlol davri adabiyoti. – Toshkent: Yangi nashr, 2010. 364 b.
2. Jumaboyeva J. XX asr o‘zbek she’riyatida psixologik tasvir mahorati. – Toshkent: Fan, 2004. 334 b.
3. Qozoqboy Yo‘ldoshev. Ochqich so‘z. – Toshkent: Tafakkur, 2019. 688 b.
4. Sobirova Z. Globallashuv davri o‘zbek she’riyatining asosiy xususiyatlari. // PhD. diss. – Toshkent, 2023. 131 b.
5. Zebo Mirzo. Nur kukunlari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. 87 b.
6. Zebo Mirzo. Ishq. – Toshkent: Akademnashr, 2011. 128 b.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 811.112.2'373.42+811.512.133'373.42

NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA SO'Z VA UNING MA'NOLARI BORASIDA AYRIM FIKR-MULOHAZALAR

Jumaniyazov Atabay, Urganch davlat universiteti professori, filologiya fanlari nomzodi[1]
Yusubova Chamangul Mamutjonovna, Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti[2]

https://orcid.org/0000-0002-4952-6156
atabeyj@yahoo.de

A FEEDBACK ON THE WORD AND ITS MEANINGS IN GERMAN AND UZBEK LANGUAGES

Jumaniyazov Atabay, candidate of philological sciences, professor, Urgench State University[1]
Yusubova Chamangul Mamutjonovna, PhD student, Urgench State University[2]

chamangul.yusupova.1989@mail.ru

НЕКОТОРЫЕ РАССУЖДЕНИЯ О СЛОВЕ И ЕГО ЗНАЧЕНИЯХ В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Джуманиязов Атабай, профессор Ургенчского государственного университета, кандидат филологических наук[1]
Юсубова Чамангул Мамутджоновна, докторант Ургенчского государственного университета[2]

Annotatsiya: *Mazkur maqolada so'zlar va ularning ma'no xususiyatlari nemis va o'zbek tillarida chog'ishtirilib o'rganiladi. So'zlarning ma'no, mazmun, tub xususiyatlari, farqlari ochiqlanadi. Ma'nolarning kishi ongiga o'z, qo'shma va assotsiativ ta'siri tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar: *so'z, gap, narsa, hodisa, ma'no, mazmun, zamir, sema, semema, nom ko'chishi, salbiy ma'no, ijobiy ma'no, ko'chma ma'no, assotsiativ, assotsiatsiya.*

Abstract: *In this article, words and their semantic features are studied through a comparison of German and Uzbek. The characteristics of meaning, content, and reference of words, along with their differences, are revealed. The effects of meanings on human consciousness, whether intrinsic, composite, or associative, are also analyzed.*

Key words: *word, sentence, thing, event, meaning, content, reference, seme, sememe, nominal transfer, negative meaning, positive meaning, figurative meaning, associative, association.*

Аннотация: *В этой статье изучаются слова и их особенности значения сравнительно на немецком и узбекском языках. Раскрываются различие между значением, содержанием, затаенными мыслями слов. Значение слов анализируется по его прямым, переносным и ассоциативным влияниям на разум человека.*

TAMADDUN NURI

***Ключевые слова**: слово, предложение, предмет, обстоятельство, значение, содержание, затаенная мысль, сема, семема, перенос имён, отрицательность, положительность значений, прямое, переносное и ассоциативное значение, ассоциация.*

KIRISH. Ma'lumki, insoniyatning eng muhim va asosiy muloqot vositasi til hisoblanadi. Til birliklari ichida esa so'z (tilshunoslikda so'z ostida tilning eng kichik mustaqil ma'no anglatuvchi va mustaqil qo'llaniluvchi birligi tushuniladi. Maqolamizda mazkur ta'rifga to'la qo'shilgan holda ish tutiladi) odamlarning o'zaro fikr almashinuvida birlamchi rol o'ynaydi. Zero, kishilik jamiyatining o'zaro muloqoti asosan (imo-ishoralar, mimika va jestlar, ko'z qarashlari va b. hisobga olinmaganda) faqat va faqat so'zlar ishtirokida amalga oshadi. Biz so'zlar orqali obyektiv borliqni ataymiz, ko'rsatamiz va ularga xos muhim belgilarni, ya'ni tevarak-atrofimizdagi narsalarning tabiati (*hayotdagi ko'rinishi, hajmi, rangi, shakli-shamoyili*) va mohiyati (*hayotdagi vazifasi, o'rni, ahamiyati*) kabi xususiyatlarni ifodalaymiz. Mazkur belgilar ifodasi esa, asosan besh hissiy a'zolarimiz (*ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, tana orqali his qilish*) ta'sirida anglashilayotgan tushunchalar va ularning mushohadasi orqali ongimizda gavdalanadi va ular so'zlar orqali nomlanib, farqlaniladi. Natijada insoniyatning o'zaro muloqotida so'z (nom) shunday bir qudratli vositaga aylanadiki, endi bizda so'zlar orqali ifodalanilayotgan narsa va hodisalarni qaytadan ko'rish, eshitish, ta'm yoki hidini bilish, paypaslab yoki silab (qattiq-yumshoq, issiq-sovuqligini sezish uchun) o'tirishga ortiqcha hojat qolmaydi. Binobarin butun borliq, o'n sakkiz ming olam, so'zlar orqali to'la ifodalanilishiga harakat qilinadi, ular orqali anglashilgan narsalar mavjud (yoki mavjud emas)ligiga shak-shubha qolmaydi, ularni qaytadan borlab yoki yo'qlab o'tirishga zarurat sezilmaydi, "so'z" orqali kifoyalaniladi. Inobatdagi narsa va hodisalar so'z vositachiligida tafakkur etiladi va gap nima haqida borayotganligi ruhan mushohada qilinadi. Bu fenomenal hodisa orqali esa dunyoni bilishda so'z (til)ning inson hayoti uchun tayanch qurol ekanligi, turmush mushkulotlarini yengillashtirishda muhim dastakligi namoyon bo'ladi. Amal va tajriba natijasida uning mo'jizaviy kuchi isbotlanadi. Yaratganga, uning odamzodga bergan mazkur "ta'limi asmosi" uchun ich-ichdan hamd-u sanolar aytiladi.

Mazkur fikrlarga tayanib, maqolamiz sarlavhasida kalit so'z sifatida qayd qilingan "So'z ma'nolari" haqida muxtasar to'xtaladigan bo'lsak, dastavval shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, har bir so'z o'z ma'nosi yoki ma'nolariga ega bo'lishi bilan bir qatorda, ular orqali anglashilayotgan tushuncha (*tub ma'no*) asosan gap(lar)da namoyon bo'ladi. Zero biz bildirmoqchi bo'lgan ma'lumot, aytmoqchi bo'lgan xabar yoxud nazdimizda tutilgan fikrlar so'zlarning o'zaro ma'no-munosabati va sintaktik bog'liqligiga ko'ra asosan gap ("Gap" atamasi orqali biz to'g'ri talaffuz yoki imloga ega bo'lgan (fonetik jihatdan), o'zaro ma'no-munosabati nuqtayi-nazaridan to'g'ri bog'langan (grammatik jihatdan) so'zlar vositasi bilgan-anglashilgan fikrni tushunamiz) orqali ifodalanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Biroq maqolamizda "gap"ga emas, "ma'no" asosiy mavzu ekanligini e'tiborda tutib, gap to'g'risida alohida to'xtalib o'tirmaymiz, asosiy diqqatimizni so'zlar ma'nosiga qaratamiz. Bunda avvalo "ma'no" so'zi ostida o'zbek tilshunosligida haligacha aynan nima anglashilishi zarurligi (*nemis tilshunosligi bu borada ko'p ilgarilab ketgan*) haqida aniq bir fikr yoki konkret ta'rif yo'qligini, hanuzgacha muayyan to'xtamga kelinmaganligini nazarda tutish shart. Chunki "ma'no" so'zi izohi mazmun, tushuncha leksemalari bilan muqobil ko'rilib, ya'ni "ma'no" ayrim hollarda "mazmun" yoki "mazmun"ni "ma'no" deb ham tushunaverilishi mumkinligi, ularning *ayni* ekanliklari tilimizning izohli lug'atlarida ta'kidlanib kelinyapti. Mazkur sharh va izohlarga yana chuqurroq e'tibor qaratilsa "ma'no" leksemasining kontekstual ifodalanish sema va sememalari ko'pligi qayd qilinishi bilan bir qatorda, uning inson tasavvuridagi assotsiatsiyasida "mazmun" leksemasiga to'la ma'nodosh (Hozirgi davr tilshunosligida ma'nodosh – sinonim so'zlarning ma'nan bir-biridan farq qilishi, tilda bir xil ma'noli so'zlar uchramasligi, balki ularning ma'nosi muayyan hollarda o'xshab ketishi, o'xshashlik esa asosan ikki alohida narsa va hodisa muqoyasasi asosida mushohada qilinishi keyingi yillarda qayta-qayta ta'kidlanib kelinmoqda) ekanligi qayd qilinadi va buning uchun jonli (*gohida muqobil, gohida e'tirozli*) misollar ham keltiriladi. Shu asnoda "ma'no" va "mazmun" so'zlariga nafaqat ikkita

alohida til birligi sifatida qarash, balki ularning ma'nolari ham tubdan alohidalik kasb etishi qiziquvchi (o'rganuvchi) nigohidan chetda qoldiriladi. Vaholanki "ma'no" leksemasining o'zagi *ma'ni,* "mazmun" leksemasining o'zagi *zamin* so'zlari bilan bog'liqligi va ular ta'sirida inson ongi in'ikosida boshqa-boshqa hodisa va tasavvurlar shakllanishi ortiqcha izoh talab qilmaydi. Ular bilan birga qo'llaniladigan sintaktik birliklar (*ma'no orqali mavhum, mazmun orqali esa konkret narsa va hodisalarga ishora qilinadi*) ham turlicha. Shu sabab, mazkur so'zlar mushohadasi zaminida obyektiv borliqqa alohida yondashuv yotadi: "ma'no" abstrakt ravishda inson ruhining bevosita ko'magida, "mazmun" esa konkret holatda insonning hissiy a'zolari (beshta) yordamida ongimizda gavdalanadi va mushohada qilinadi. Fikrimiz bayonini lo'nda qilib ifodalaydigan bo'lsak, "ma'no"ni tom ma'noda ko'rib yoki ta'mini sezib bo'lmaydi, "mazmun"ni esa nazardan kechirish yoki tanovul qilish mumkin. Masalan, "palov" (taom)ning yegulik ekanligi ma'no jihatdan ruhimiz orqali tasavvur qilinadi, uning mazmun jihatdan qaysi masalliqlardan iboratligi ko'z orqali ko'riladi va ta'mi til orqali seziladi. Shu ma'noda, izohli lug'atlar sharhining yetarli emasligiga e'tirozlarimizni isbotlash niyatida *ma'no* va *mazmun* so'zlariga "O'zbek tilining izohli lug'ati" (2006-yil) bergan sharhlarni aynan keltiramiz:

Ma'no – (mazmun, tushuncha, g'oya);

1. So'zning mazmun tomoni, so'z bilan ifodalangan tushuncha. *So'zning to'g'ri ma'nosi. Men odatim bo'yicha, so'zlarning ma'nolarini va nomlarning nomlangan narsa bilan munosabatini bilishga qiziqqanimdan: - U qishloqni nega Tezguzar deb ataganlar? – deb so'radim.* S.Ayniy, Esdaliklar.

2. Mazmun. *Gavhar bu gapdan "Qo'limdan kelsa, yordamimni ayamayman", - degan ma'noni uqdi.* O'.Hoshimov, Qalbingga quloq sol.

3. Ba'zi xatti-harakat va shu kabilardan anglashiladigan narsa; ifoda. *Xotin uning harakatidan "o'pich ber" degan ma'noni angladi-da: "-Shuni to'g'ri ayta qolsangiz nima bo'lar ekan!"-dedi.* A.Qahhor, Mayiz yemagan xotin.

4. Biror narsaning mohiyati, nima ekanligi, mohiyat. *Samandarov zaharxanda qildi: "-Bu qanaqa musobaqa bo'ldi? Musobaqaning ma'nosini tushunasanmi o'zing?"* Abdulla Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. [2; 2- жилд, б.565-566].

Mazkur leksemalar izohlarining lug'atlarimizda ularning o'zaro ma'nodosh so'zlar ekanligi ta'kidlanib kelinayotganini yanada ravshanroq va ko'rgazmaliroq ko'rsatish uchun "mazmun" so'ziga berilgan izohlarni ham aynan keltiramiz.

Mazmun (mundarija, ma'no)

1. Aql, fikrlash bilan tushuniladigan, mantiqiy mundarija; boshqa belgi ifodalangan ichki mundarija. *Kitobning mazmuni. Xatning mazmuni. "-Qayin otang menga bir xat yozibdir, o'qib-o'qib, mazmuniga tushunolmay hayron bo'laman".* A.Qodiriy, O'tgan kunlar.

2. Ish-harakat,voqea-hodisa va shu kabilarni belgilovchi asos, mohiyat. *Boshqa barcha tinchliksevar xalqlar singari, tinchlik va ijodiy mehnat xitoyliklarning ham hayot mazmuni, ijod manbaidir.* T.Jo'rayev, Ulug' Xitoyda.

3. Biror hodisaning mohiyatini belgilovchi, narsalarni aynan shu narsa sifatida ifodalovchi muhim element va o'zgarishlarning yig'indisi, asosi. *Shakl va mazmun birligi* [2; 2- жилд, б. 525-526].

Berilgan izohlardan ayon bo'lyaptiki, ularda inson hayotidagi eng asosiy omil – so'zlarning ma'nosi va mazmunini anglash tabiatan insonning avvalo his-tuyg'ulari, keyin esa ruhi bilan bog'liqligiga ishora qilinmaydi, ular inobatga olinmaydi. Zero, so'zlar orqali obyektiv borliqdagi mavjud narsa va hodisalar nafaqat nomlaniladi, balki hissiy a'zolarimiz (*ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid bilish, tegish, ushlash, silash yoki paypaslash*) orqali ular mushohada qilinadi, mavjudligi tan olinadi va ruhan qalbga tuyuladi. Hissiy a'zolar orqali anglashilayotgan ma'nolarga inson aqlini ham ishga solgan holda munosabatda bo'ladi, aql ma'no va mazmunni anglashda ko'maklashadi va inson ruhan bardamlashadi, fikrlari teranlashadi. Va o'z navbatida aqli ham takomillashadi. Darhaqiqat, inson so'z ma'nolarini hissan va ruhan anglashi orqali unda so'zlar orqali ifodalangan obyektiv borliqning ma'nosi va mazmuni haqida tushuncha, tasavvur paydo bo'ladi. Biroq tushuncha hali kamlik qiladi va doimo ham aniq hamda to'g'ri bo'lavermaydi. Binobarin "inson tushunadi" degani "inson aniq biladi" degani emas. So'zlar ma'nosini to'liq bilish va qalbdan his qilish uchun barkamol ruh kerak. Ruh aralashmaguncha avvalo narsani, keyin uni nomlayotgan so'zni va pirovard natijada ikkalasi ta'sirida mushtaraklashib tushunilayotgan ma'noni to'la anglash qiyin. Qisqa qilib aytganda, ma'no bu

inson besh hissiy a'zosiga suyanib va aqlini to'la va to'g'ri ishlatgani holda so'zlarni ruhan anglashidir. Mazkur fikrlar, indallosini aytganda, yuqorida ta'kidlaganimizdek, so'zlar ma'nosini na ko'rib, na eshitib va na qo'l bilan ushlab bo'ladi, ularni anglash kerak. Ong esa ruhimiz in'ikosidir. Mulohazalarimizni konkret misollar bilan tushuntirishga harakat qilamiz.

Masalan, rang (kamalak ranglari – *qizil, to'q-sariq, sariq, yashil, moviy, ko'k, binafsha*) qanday ekanligini ko'rish mumkin, lekin nima ekanligini ayta olmaymiz. Zero rangni ko'rish bizga ko'zimiz orqali tabiatan ato etilgan, lekin ranglar ostida nima yotganligi bizga hali qorong'u. Endi odamga Alloh tomonidan berilgan ikkinchi inoyat – aqlni ishlatish zaruriyati tug'iladi. Biroq aqlimiz ham besh hissiy a'zomiz mushohadasiga bog'liqligi bois, hali rangni nima ekanligini ta'riflay olmaydi, ojizlik qiladi. Endi navbat ilm (tajribalar)ga keladi. Shularga tayanib, ranglarni sezish uchun avvalo yorug'lik zarurligini bilamiz. Zero qorong'ulik rangni ko'rsatmaydi, inkor etadi, "yo'qqa chiqaradi". Endi ko'z o'ngimizda uch narsa mushtaraklashayotganini sezamiz, ya'ni *muayyan* narsa, *muayyan* yorug'lik va *muayyan* rang. Rangni, yorug'likni, narsani aniq ko'ramiz, biroq "muayyan" nimaligini anglamaymiz, bu so'zning- ishorasi ko'zga ko'rinmaganligi sabab, uni tasavvur ham qila olmaymiz, chunki u na miqdor, na daraja va na reallikni aniq bildiradi. U mavhum so'z, ishorasi esa konkret emas. Natijada uning asosi va mezoni nimadaligini anglashda yana qiynalamiz. Xayolimizda "rang" haqida ma'lum tasavvur (rasm, surat) hosil bo'lganday bo'ladi va uni qalban his qilamiz. Ammo uni baribir so'zlar bilan ifodalab, ta'riflab bo'lmaydi. Darvoqe, ko'zi ko'r odam "rang" nimaligini ko'rmaydi va bilmaydi (*ko'rmagan narsasini tasavvur ham qila olmasa kerak*). Ko'zi ochiq odam esa "rang"(oq, qora)ni ko'radi, lekin nimaligini ta'riflay olmaydi (*demak, bilmaydi*). Chunonchi, ko'r odam ko'zi ochiqdan "*Rang nima o'zi?*" deb so'rasa, biz ko'zi ochiqlar "rang" nima ekanligini na izohlab va na sharhlab bera olamiz. Biz ranglar "oq, qora, qizil, ko'k" bo'ladi deb turlarga bo'lib tushuntirmoqchi bo'lishimiz mumkin, lekin "Xo'p, oq nima o'zi?" deb ko'zi ko'r odam so'rasa, "oq" nimaligini aytishga harakat qilib ko'ring-chi! Ayta olmaysiz, ayta olmaymiz! Xulosa shuki, so'z ma'nosi (ko'rinmasligi sabab) ko'zi ko'r yoki ko'zi ochiq uchun bab-baravar, ikkalasi ham ruhlariga tayanib ish ko'radi, birisi ko'rib, birisi ko'rmayin. Ko'rlarning tasavvur dunyosi biz uchun qorong'i. "Qorong'i"da hech narsani ko'rib bo'lmaganidek, bu mavzu yechimini ko'zi ko'rlarga qoldiramiz. Biz ko'zi ochiqlar esa rangni ko'rsak-da, uning nimaligi, uning tasavvuri faqat va faqat ruhimizda shakllangan, aks etgan bo'ladi. Mulohazalarimiz qisqa xulosasi shuki, mazkur muammoni (rang nimaligini) uning tabiati va mohiyatini yechishda yuqorida ta'kidlaganimizdek hissiy a'zolarimiz ojizlik qiladi, aqlimiz yetishmaydi, ilmimiz kamlik qiladi. Xuddi shu yerda insonga uning ruhi ko'mak beradi, ma'noni anglashga yordam qiladi. So'zlar ma'nosini tushunish aynan inson ruhiga bog'liq ekanligi isbot talab qilmaydi. Zero ruh shunday qudratli narsaki, unga na makon, na zamon va na so'z ma'nolarini qalbga o'tkazish to'siqlik qila oladi. Qo'shimcha qilib yana shuni ta'kidlash lozimki, inson ma'naviyati ham uning ruhiga, ruhiy pokligiga bog'liqdir. Darhaqiqat ruh orqali so'zlar ma'nolari anglashiladi, ma'noni anglash esa o'z navbatida ruhni ulug'laydi. Shu yo'sinda narsalar, so'zlar (nomlar) ning ma'nolari ostida shakllangan inson ma'naviyati ham (*ma'no, ma'nan, ma'naviy, ma'naviyat – hammasining o'zagi bir ma'ni so'ziga borib taqaladi)* bevosita inson ruhi bilan birga namoyon bo'ladi.

Endi bildirilgan fikrlar asosida "mazmun" so'zining ma'nosini tahlil qilamiz. Bu so'z izohli lug'atlarimiz ta'rifi bo'yicha "*mundarija, ma'no, mohiyat"* deb tushunadigan bo'lsak, fikrimiz yana "ma'no" so'zi ma'nosi tomon yo'naladi. Ya'ni "*So'zingda ma'no yo'q!" "So'zingda mazmun yo'q!"* gaplari ma'nodosh bo'lib qoladi, deyarli bir xil tushuniladi. Chunki ularning farqiga qiziqmaymiz, sababini izlamaymiz. Lekin "*So'zingda na ma'no bor va na mazmun!* " - deyilsa ma'no bilan mazmun farqlanishi zarurligi anglashiladi. Ularning ma'no farqlarini bilish yuqorida biz bildirgan fikr, mulohazalar asosida yondashilsa, murakkab emas. Binobarin "ma'no" uchun ruh, mazmun uchun esa hissiy (tana) a'zolari zarur. Zero mazmunni ko'rsa, eshitsa bo'ladi. Ta'm, hid, qattiq, yumshoq, issiq, sovuqlikni sezsa bo'ladi. Narsa mazmunida (mazmun so'zining o'zagi "zamin" ekanligi inobatga olinsa) nima borligi, uning nimadan iboratligi, tarkibi va o'zaro bog'liqligi inson tomonidan osongina mushohada qilinadi. Biz shu tariqa narsa-hodisalar mazmunini

TAMADDUN NURI

hissiy a'zolarimiz orqali sezamiz, shohidi bo'lamiz va guvohlik beramiz. Mabodo, so'z mazmuni konkret narsani emas, abstrakt (mavhum, ilohiy) narsalar(sevgi)ni anglatsa, yana ruhga murojaat qilamiz, ularni ruhan ko'z oldimizda gavdalantiramiz, tasavvur qilamiz va timsol yasaymiz. Natijada qalbimizda ularning ruhiy mazmuni (sevgi bilan uzviy bog'liq barcha konkret narsalar shodasi) shakllanadi, tasavvur qilinadi. Tafakkur kengligi hajmi esa, e'tibordagi shaxsning amaliy va nazariy mushohadasi, ruhining ojiz yoki kuchliligi bilan belgilanadi va "sevgi"ni har kim o'z tushunchasiga asosan anglaydi, qadrlaydi va baholaydi.

Ma'lumki, so'zlarning ma'nosi va mazmuni haqida gap ketganda tilimizda yana bir *"zamir"* leksemasi borki, bu so'z "ma'no" va "mazmun" bilan bir qatorda, hatto ma'nodosh holatda ham qo'llanilib va tushunilib keladi. Bu so'z aslan forsiy bo'lib, ma'nosi tilimizdagi *"olmosh", "almashlash"* so'zlariga muqobildir. E'tiborli joyi shundaki, izohli lug'atlarimiz bu so'zni ham *ma'no* va *mazmun* til birliklari bilan ayni sharhlaganligini aniq ko'rsatish maqsadida, mazkur so'z izohini ham lug'atda berilganicha keltiramiz :

Zamir (vijdon, aql,yashirin fikr)

1. Tub mohiyat, asl ma'no, mazmun; asos. *Romandagi qator obrazlarning zamirida konkret tarixiy shaxslar yotadi*.

2. olmosh.

3. Zamir (erkaklar ismi). [2;2-жилд, б.128.]

Berilgan izohlardan ko'rinib turibdiki, *ma'no, mazmun* va *zamir* so'zlarining ma'nolari sinonimik xarakterga ega, ya'ni *"Gapingda ma'no yo'q!", "Gapingda mazmun yo'q!"* va *"Gapingda zamir yo'q!"* gaplarini ma'nodosh tushunish va hatto birini ikkkinchisi o'rniga ishlataverish mumkindek, ma'nosi bittaday tuyuladi. Gaplar mohiyatiga chuqurroq yondashilsa, *"Gapingda ma'no yo'q!"* deganda *gaping orqali hech narsa tushunmayapman, gaping aqlga sig'mayapti, nima aytayotganingni men qalban va ruhan anglamayapman*, degan ma'nolar yotadi.

Mabodo *"gapingda mazmun yo'q!"* deyilsa, *gaping asossiz, konkret (abstrakt) narsalarga suyanmaydi, bo'sh, ashyoviy dalili yo'q, yuzaki, umumiy* ma'nolarini nazarda tutish joiz.

Agarda *"gapingda zamir yo'q!"* deyilsa, *gapingga almashtirib beradigan narsa yo'q, gaping quruq, gaping befoyda, gapingga hech narsa berilmaydi* yoki *gaping evaziga biror narsa olib bo'lmaydi, evazi yo'q,* degan ma'nolarni inobatga olish zarur.

Boshqacha qilib aytganda, "zamir" so'zining forscha *olmosh, almashlanib olinish qiymatiga teng narsa,* arabchada esa *yashirin, pinhona* ma'nolaridan kelib chiqib, "zamir" so'zining ma'nosini *so'zning qiymati nimaga tengligi, muayyan so'z aytilgandan keyin uni nimaga almashlab olish mumkinligi, yoxud shu so'z eshitilgandan keyin so'z o'rniga nimani keltirib berishlari yoki nimani olish mumkinligi,* deb tushunish kerak.

Masalan: "Suv" so'zi aytilsa, so'zning qiymati, tengi, uning evazi – suv (ichimlik) ekanligi va shu so'zni aytgan odamga (masalan kasalga) albatta suv keltirib berish zarurligi ma'nolari yotadi. Ya'ni "suv" so'zining evaziga ichimlik beriladi, so'z so'zligicha qolib ketmaydi, konkret narsaga almashtiriladi.

MUHOKAMA. Tilshunosligimizda so'z ma'nolari yuqorida qayd qilganimizdek yetarlicha o'rganilib kelinmayotgan bo'lsa-da, ularning tasnifi maqtovga loyiq. Milliy tilimizda ular to'rtga:

1. Atash ma'nosi;

2. Ko'rsatish ma'nosi;

3. Leksik ma'nosi (tub, asliy);

4. Ko'chma ma'nolarga bo'lib o'rganiladi [1;б.100] (*nemis tilida asosan ko'rsatish va leksik ma'no farqlanadi*) [4;S.394] va bu tasnif so'z ma'no xususiyatlarini o'rganishda muayyan aniqlik va yengillik tug'diradi.

Masalan, tulki so'zining atash ma'nosi uning nomi, boshqa hayvonlardan farqlash kodi (paroli) sifatida, ko'rsatish ma'nosiga kelsak, bu ma'no xususiyati nazdda turgan narsa va hodisaga (go'yo qo'l yoki mimika-jest bilan ko'rsatilganday) ishora qiladi. Chunonchi, "*Bu yilgi ov sezonida tulkilar otilmasin!"* degan gapda tulki nomlanish bilan bir qatorda qaysi hayvon turining otilmasligi ko'rsatilyapti ham. Shu ma'noda qiziquvchiga dala-dashtga borib *tulki*ni topib, boshqa hayvonlardan farqlab, unga alohida nazar bilan qarashga hojat qolmaydi. *Tulki* zotini tanigan ovchi endi uni ko'rsa-da otmaydi. *Tulki*ga ov qilmaydi. Tulkining – *yovvoyi, yirtqich, ayyor* hayvon ekanligi ovchining qalbi (ruhi)da bo'ladi. Tulki deganda ayyor odamlarning tushunilishi esa, tulki nomi (ma'nosi)ning odamlarga ko'chganligidan dalolatdir. "Tulki" leksemasi ikkala (o'zbek va nemis) tilida ham ko'p ma'noli (polisem)dir. Uning

TAMADDUN NURI

nemis va o‘zbek tillaridagi ma’nolarida muayyan farqlar ham bor, ularning lug‘atlardagi izoh-qaydlarini aynan keltiramiz.

Der Fuchs: 1. kleineres Raubtier mit rötlich braunem Fell spitzer Schnauze, großen, spitzen Ohren und buschigem Schwanz – *Uzun tumshuqli, qizg‘ish-qo‘ng‘ir junli kichikroq yirtqich hayvon.* 2.a) Fell des Fuchses: ein Kragen aus Fuchs – *Tulki terisi, juni: tulki yoqa.* b)aus dem Fell des Fuchses gearbeiteter Pelz: sie trägt einen Fuchs – *Tulki terisidan ishlangan mo‘yna: ayol egnida tulki*. 3.(ugs.) durch seine Schläue und Gewitztheit andern überlegener Mensch: er ist ein (schlauer, alter) Fuchs – *Ayyorlik va makrda boshqalardan ustun odam, shum odam: u ayyor, qari tulki*. 4.(ugs., oft abwertend) ein Mensch mit roten Haaren: er, sie ist ein Fuchs – *(so‘zlashuv va salbiy ma’noda) qizil sochli odam: u (o‘g‘il, qiz bola) tulki*. 5.Pferd mit rötlich braunem Fell sowie Mähne und Schweifhaar von gleicher oder hellerer Farbe – *qizil-qo‘ng‘ir terili yoxud shu rangdagi yoki undan to‘qroq rangli yolli va quyruq sochli ot*. 6.Tagfalter mit gelb bis rotbraunen, blau bis schwärzlich gefleckten und gesäumten Flügeln – *sariq, qizil-qo‘ng‘ir, ko‘k, qora dog‘li astarli qanotli kunduzgi kapalak.* 7.(Verbindungswesen) noch nicht voll berechtigtes Mitglied einer Studentenverbindung im ersten und zweiten Semester – *talabalar korporativiga to‘la a’zo bo‘lmagan talaba.* 8.(veraltet) Goldmünzen – *(eskirgan) tilla tanga* 9.Abzugskanal einer Feuerung zum Schornstein – *mo‘rining alangali tutunini chiqaruvchi tuynugi*[4;S.619].

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati” esa “tulki” leksemasini quyidagicha sharhlaydi, aynan keltiramiz:

“Tulki” – 1. Bo‘risimonlar oilasiga mansub, tumshug‘i uzun, dumi mayin uzun junli, o‘ta sezgir va ayyor yirtqich sut emizuvchi hayvon. 2.Shu hayvonning mo‘ynasi va undan tayyorlangan telpak va b. 3.ko‘chma O‘taketgan ayyor, makkor odam haqida. [2; 4- жилд, б.186] Ko‘rinib turibdiki, “tulki” so‘zining ma’nolariga berilgan nemischa va o‘zbekcha izohlar ham son (quantitativ) ham sifat(qualitativ) jihatdan bir-birlaridan farq qiladilar. Nemis tilida mazkur leksemaning to‘qqizta ma’nosi bo‘lsa, o‘zbek tilida uning 3 ma’nosiga izoh berilgan. Ikkala tilda ham o‘z va ko‘chma ma’nolarga to‘xtalingan, sharhlar til egalarining mazkur hayvon haqidagi shaxsiy (individual) tasavvurlari bo‘yicha ifodalangan. O‘z ma’nosida o‘zbek tili (xalqi) e’tiborida tulkining *bo‘risimon, sut emizuvchi, tumshug‘i va dumi uzun, mayin junli hayvon ekanligi va uning hayotda o‘ta sezgir va ayyorligi* ta’kidlansa, nemis tili(xalqi)da bu hayvonning (*kichikroq*) jussaliligi, teri va junining rangi (*qizg‘ish-qo‘ng‘irlik*), tumshuq va quloqning *uchli*ligi, quyruqning *paxmoq*ligi, ishlanilgan *teri*si “tulki”ga xos asosiy sifatlar deb qayd qilingan. Qizig‘i shundaki, asosiy o‘xshashlik va farqlar ko‘chma ma’noda ko‘zga tashlanadi. Asosiy o‘xshashlik “tulki” nomini ikkala tilda ham *ayyor odam*ga ko‘chishidadir. Yoxud *ayyor odam*ning “tulki” deb xoslanishidir. Shuni alohida ta’kidlash joizki, nemis tili(xalqi)da bu nom bilan ataladigan narsalar safi ancha kengaygan. Nemis xalqi uning ostida ayyor odamlar emas, *qizil sochli, qizg‘ish rangli* odamlar, qizg‘ish-qo‘ng‘ir tusli, yolli, quyruqli *otlar*, sariqdan qizg‘ish-qo‘ng‘irgacha, ko‘kdan qora dog‘li astar qanotli kunduzgi *kapalaklar*, birinchi kurs *talabalar*i, *tilla tangalar*, *mo‘ri tuynugi*ni muloqotda qo‘llanilish o‘rniga qarab tushunadi. Nemis xalqi tasavvurida bu so‘z ma’nosining kengayishi ko‘p qirrali bo‘lib, uning ostida ayyor odamlardan tashqari qizil odamlar, talabalar, hayvonlar (ot), hasharotlar (kapalak), metall turi (tilla tanga), boshpana tarkibi (mo‘ri tuynugi)ni nomlashgacha yetib borgan.

Мазкур жадвалда Селунгурдан топилган йирик сут эмизувчи ҳайвонларнинг даври ва тарқалиши акс этган. Маконнинг қадимги одамлар томонидан ўзлаштирилиши қайси даврда содир бўлганлигини маданий қатламлардан тош буюмлар бирга топилган органик (палеофлора ва палеофауна) қолдиқларни ўрганиш ва таҳлил этиш орқали билиш мумкин [20;29]. Палеофауна орасидаги кемирувчилар ўрта плейстоцен учун характерли [18]. Хусусан, сут эмизувчилар орасида Стенон оти, Денингер айиғи, кичик мосбах бўриси ва қизил бўри каби архаик шакллар кўзга ташланади ва улар ўрта плейстоценнинг биринчи ярмига ишора қилади [5]. Маконнинг палеофаунаси таҳлиллари натижасида "Олой плейстоцен даври териокомплекси"ни ажратишга ҳаракат қилинган ва унинг геологик ёши 1,0-0,6 млн йил билан белгиланган [9].

Ёдгорликнинг даври хусусида палеозоологларнинг берган санасини таъкидлаш лозим, унга кўра, макон миндель ва миндель-рисс даври билан саналаниши мумкин ҳамда бу Шарқий Европанинг тирасполь ва сингиль териокомплексларига мос келади [5].

Ёдгорликни саналаш учун қатламларда майда сут эмизувчиларнинг суяк қолдиқларининг бўлиши жуда муҳимдир. Индикатор сифатида Microtus (Neodon) ex gr. Juldaschi нинг архаик қолдиқлари учраши ҳисобланади ва улар сўнгги плейстоценда йўқолиб кетади, сичқонларнинг бу тури ёдгорликнинг 3-5-қатламларида учрайди, бироқ 2-қатламда учрамаган [8].

Мутахассисларнинг аниқлашича кемирувчиларнинг фаунаси Селунгур ғор маконида ҳаёт ҳукм сурган вақтларда баъзи жойларида, ирмоқлар бўйларида ўрмон ва бутазорларга эга тоғли даштлар ҳамда жанубий адирликларда чўллашган экологик шароитлар мавжуд бўлганлигидан далолат беради. Бу ердаги турларнинг асосий таркиби ва нисбатлари Селунгур макони ҳукм сурган вақтларда кам ўзгаришларга учраган [2;3].

ХУЛОСА (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Шундай қилиб, Селунгур ғор макони маданий ётқизиқларидан топилган сут эмизувчи ҳайвонлар плейстоценнинг барча босқичларида (илк, ўрта ва сўнгги) ва ҳозирда ҳам яшаб келаётган турлардан иборат.

Юқорида қайд этганимиздек, ёдгорликдан Мосбах бўриси ва Денингер айиғининг суяк қолдиқлари топилган, палеозоологларнинг аниқлашича ушбу сут эмизувчилар ўрта плейстоценнинг охири ва сўнгги плейстоценнинг бошларида қирилиб кетган. Палеофауна қолдиқлари орасида энг қадимгиси ҳисобланган Стенон оти бундан 1 млн йиллар муқаддам ер юзидан бутунлай қирилиб кетганлиги Селунгурни ўрта плейстоценнинг бошларига оид қадимги ёдгорлик эканлигига ишора қилади. Кемирувчилар фаунасининг таҳлили ҳам ёдгорликнинг ўрта плейстоценга оидлигини тасдиқлайди.

Палеоиқлим хусусида ҳам айтишимиз мумкинки, плейстоцен даврида Сўх ва ушбу воҳа атрофидаги ҳудудларнинг иқлими намчил (плювиал) бўлган.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Аристов А. А., Барышников Г. Ф. Млекопитающие фауны России и сопредельных территорий. Хищные и ластоногие. Санкт-Петербург, 2001. - 558 с.
2. Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Ископаемые млекопитающие пещеры Сельунгур // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент, 1988. - С. 7.
3. Батыров Б.Х., Величко А.А., Кременецкий К.В., Маркова А.К., Ударцев В.П. Палеоэкология ашельской стоянки Сельунгур (предварительное сообщение) // Проблемы взаимосвязи общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент, 1988. - С. 24.
4. Батыров Б.Х., Батыров А.Р. Костные остатки млекопытающих пещеры Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. С. 76-85.
5. Барышников Г.Ф., Батыров Б.Х. Среднеплейстоценовые хишные млекопитающие (Carnivora, Mamalia) Средней Азии // Четвертичная фауна Северной Евразии: Санкт-Петербург, 1994. - С. 3-40.
6. Банников А.Г., Флинт В.Е. Отряд Парнокопытные (Artiodactyla)) // Жизнь

животных. Просвещение, Млекопитающие. -Т. 7. Москва, 1989. - 558 с.
7. Величко А.А., Кременецкий К.В., Маркова А.К., Ударцев В.П. Палеоэкология ашельской стоянки Сельунгур (предварительное сообщение) // Проблемы взаимосвязи природы и общества в каменном веке Средней Азии. Ташкент, 1988. - С. 18-19.
8. Величко А.А., Арсланов А.А., Герасимова С.А., Исламов У. И. и др. Стратиграфия и палеоэкология раннепалеолитической стоянки Сель-Унгур // Хроностратиграфия палеолита Северной, Центральной, Восточной Азии и Америки. Новосибирск, 1990. - С. 76-79.
9. Воложенинов Н.Н., Крахмаль К.А. К алайскому плейстоценовому териокомплексу // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. Ташкент, 1994. - С. 106-112.
10. Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып.19. Ташкент, 1984. - С. 18-27.
11. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древне палеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск. 1992. - С. 143-163.
12. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. ФАН, Ташкент, 1995. - 220 с.
13. Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // СА №2. Москва, 1990. - С. 115-126.
14. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Некоторые проблемы палеоэкологической реконструкции ашельской стоянки Сельунгур // ОНУ. № 12. 1990. - С. 7.
15. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. Ташкент, 1966. - С. 28-35.
16. Логинова О., Логинова И. Ирбис-Снежный Барс. – Snov Leopard Fund. Усть-Каменогорск, 2013. - 152 с.
17. Марков Р.А., Дьяконова А.Т., Григорьева Л.В. История научных исследований степного бизона (Bizon priscus) // Universum : Химия и биология: электрон. научн. Журнал, №3(3). 2017. - С. 17.
18. Маркова А.К. Фауна ископаемых грызунов из ашельской стоянки Сельунгур // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии: Ташкент, 1994. - С. 85-106.
19. Орлов Ю. А. Основы палеонтологии (в 15 томах). Том 13. Млекопитающие Архивная копия от 29 декабря 2016 на Wayback Machine.: Издательство Академии наук СССР. Москва, 1962. - 423 с.
20. Омонов А.М. Марказий Осиёнинг илк палеолит даври маданиятлари муаммолари (Селунгур ёдгорлиги мисолида) // Ўтмишга назар // №9, 4 жилд, 2021. - Б. 72-85.
21. Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // ВА. Вып.2, 1960. - С. 38.
22. Соколов В.Е. Редкие исчезающие животные. Млекопитающие: Высшая школа. Москва, 1986. - 519 с.
23. Сяомин Ван и Ричард Х. Собаки: их ископаемые родственники и история эволюции. Издательство Колумбийского университета. Тедфорд, 2008. - 232 с.
24. Титов В. В., Фауна крупных млекопитающих позднего плицеона северо-восточного Приазовья. 1999.
25. An International Journal of Paleobiology Volume 31, 2019 - Issue 4: SI: Cave Bear.
26. Baskin, Leonid & Danell, Kjell. Ecology of Ungulates: A Handbook of Species in Eastern Europe and Northern and Central Asia. - Springer Science & Business Media, 2003. - P. 15-38.
27. Gopalakrishnan S., Sinding S., Ramos-Madrigal J., et al. Interspecific Gene Flow Shaped the Evolution of the Genus Canis (англ.) // Current Biology : journal. Vol. 28, iss. 21. 2018. - P. 3441-3449.
28. Markova A.K., Smirnov N. G., Kozharinov A. V., Kazantseva N.E., Simakova N. and Kitaev L.M. Late pleistocene distribution and diversity of mammals in northern eurasia. Paleontologiya I Evolucio. 1995. - P. 5-134.
29. Omonov A.M. Selungur gor makonining tosh industriyasi (texnik-tipologik tadqiqot). Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. - 58 b.
30. Omonov.A.M. Some Considerations about Paleoecology of Central Asia and Migrations of Ancient Hominids During the Pleistocene Period // International Journal of Social Sciences, Vol. 4 No (3), 2021. - P. 341-345.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 801.82:81.405

BADIIY ASAR NOMLARI TARJIMASIDA LINGVISTIK MUAMMOLAR: INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI QIYOSIY TAHLILI

Abdullayev O‘lmasbek Xayrullayevich
Termiz davlat pedagogika insituti o‘qituvchisi

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ ПЕРЕВОДА НАЗВАНИЙ ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ

Абдуллаев Улмасбек Хайруллаевич
Преподаватель Термезского государственного педагогического института

LINGUISTIC ISSUES IN THE TRANSLATION OF LITERARY TITLES: A COMPARATIVE ANALYSIS OF ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Abdullaev Ulmasbek Khayrullaevich
Teacher at Termez State Pedagogical Institute

E-mail: ulmasbekabdullaev2@gmail.com
Tel: +998 91 780 59 29
Orcid: 0009-0001-1242-7509

Annotatsiya. *Ushbu maqola badiiy asar nomlarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilishdagi lingvistik muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Asar nomlari tarjimasi jarayonida til strukturasi, semantik ma‘no qatlamlari va madaniy faktorlar katta ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida transkripsiya, so‘zma-so‘z tarjima, adaptatsiya va erkin tarjima usullarining samaradorligi tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar*: tarjima nazariyasi, badiiy asar nomlari, ingliz va o‘zbek tillari, lingvistik muammolar, adaptatsiya, transkripsiya, so‘zma-so‘z tarjima.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению лингвистических проблем при переводе названий литературных произведений с английского на узбекский язык. В процессе перевода названий произведений важную роль играют структура языка, семантические слои и культурные факторы. Анализируется эффективность методов транскрипции, дословного перевода, адаптации и свободного перевода при переводе с английского на узбекский язык.*

Ключевые слова: *теория перевода, названия литературных произведений, английский и узбекский языки, лингвистические проблемы, адаптация, транскрипция, дословный перевод.*

Annotation: *This article is dedicated to studying linguistic issues in translating literary titles from English to Uzbek. In the process of translating literary titles, language structure, semantic layers, and cultural factors play a significant role. The effectiveness of transcription, literal translation, adaptation, and free translation methods is analyzed in the context of translating from English to Uzbek.*

Key words: *translation theory, literary titles, English and Uzbek languages, linguistic issues, adaptation, transcription, literal translation.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Badiiy adabiyot tarjimasida muallifning fikrlarini, asarning ruhini va badiiy qiymatini to‘liq saqlab qolish juda muhim ahamiyatga ega. Tarjima jarayonida asl matnning estetikasini, uning madaniy kontekstini va tilning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish zarur. Badiiy matnni tarjima qilishda shunchaki so‘zlar va grammatik strukturalarni to‘g‘ri

tarjima qilish kifoya qilmaydi, balki muallifning yaratgan obrazlari, tilning musiqasi, ritmi va so‘z tanlovi ham to‘g‘ri aks ettirilishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/MATERIALS AND METHODS). Asar nomi esa, ayniqsa, tarjima qilinadigan matnning ajralmas qismi bo‘lib, uning maqsadi asarni o‘quvchiga tanishtirish va uni o‘ziga jalb qilishdir [1]. Nom badiiy matnning eshik qismidir va u o‘quvchining ilk taassurotini yaratadi. Asar nomi ko‘pincha o‘quvchini o‘ziga tortadigan, savol tug‘diradigan yoki sirli bir tasavvurni uyg‘otadigan xususiyatlarga ega bo‘ladi. Nomni tarjima qilishda uning asl ma‘nosi, badiiy qiymati va konteksti saqlanib qolishi kerak [2], shuningdek, o‘quvchining yangi madaniyatga oid tasavvurlariga ham mos kelishi zarur.

Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi strukturaviy, semantik hamda madaniy farqlar tarjimani yanada murakkablashtiradi. Strukturaviy farqlar so‘z tartibi, grammatik konstruktsiyalar va til tizimining farqlaridan iborat bo‘lib, ular tarjimada mantiqiy bog‘lanish va yaxlitlikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi. [3] Semantik farqlar esa, ayniqsa, badiiy matnlar uchun, so‘zlarning ma‘no qatlamlaridagi nozik tafovutlarni o‘z ichiga oladi. Badiiy matnlar ko‘pincha o‘zida chuqur ma‘naviy va tasavvurni uyg‘otuvchi elementlarni saqlaydi, shuning uchun har bir so‘zning nozik ma‘nosi tarjimada muhim ahamiyatga ega bo‘ladi. Madaniy farqlar esa eng ko‘zga ko‘ringan muammolardan biri bo‘lib, ular so‘zlar va iboralarning madaniy kontekstdagi ma‘nolaridagi farqlarni anglatadi. Masalan, ingliz tilidagi biror madaniy maxsus atama yoki adabiy obrazni o‘zbek tiliga tarjima qilishda uning ma‘no to‘liq aks ettirilishi uchun qo‘shimcha tushuntirishlar, ekvivalentlar yoki madaniy kontekstni hisobga olish zarur bo‘ladi.

Shu tarzda, badiiy adabiyot tarjimasida faqat so‘zlar emas, balki asarning butun badiiy tizimi, uning ruhini, madaniy va estetik o‘ziga xosliklarini to‘liq saqlab qolish kerak. [4] Bu jarayon o‘zaro madaniy va lingvistik farqlarni o‘rganish, tarjimaning ingliz va o‘zbek tillaridagi o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishni talab qiladi.

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Badiiy asar nomlari til vositasi sifatida qisqa, aniq va ifodali bo‘lishi talab qilinadi. Ular quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Identifikatsiya funksiyasi: Asarni boshqa adabiyotlardan ajratish. Bu funksiya asar nomining o‘ziga xosligi va tanib olish imkoniyatini ta’minlaydi. Semantik funksiya: Asarning asosiy mazmuni yoki syujetini qisqacha ochib berish. Nomda mavjud bo‘lgan semantik ma‘lumotlar asarning mavzusi, xarakterlari yoki umumiy kayfiyatiga ishora qiladi.

Pragmatik funksiya: O‘quvchini qiziqtirish va uning asarga bo‘lgan e’tiborini jalb qilish. Pragmatik jihat auditoriyaga qaratilgan bo‘lib, madaniy va estetik omillarni ham o‘z ichiga oladi. [5]

Badiiy asar nomlarini tarjima qilish jarayonida yuqorida keltirilgan funksiyalarni saqlab qolish muhimdir. Bu jarayonda tarjimon nafaqat lingvistik, balki madaniy va estetik xususiyatlarni ham inobatga olishi lozim. Ammo tillar o‘rtasidagi semantik va pragmatik tafovutlar ko‘pincha ushbu funksiyalarning to‘liq saqlanishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi ko‘p ma‘noli yoki metaforik nomlar o‘zbek tiliga tarjima qilinayotganda o‘z semantik boyligini yo‘qotishi yoki o‘quvchilar uchun tushunarsiz bo‘lib qolishi ehtimoli mavjud. Shu sababli tarjimon kontekstual moslikni ta‘minlash uchun ijodkorlikni qo‘llashi zarur [6].

Nom tarjimasi jarayonida quyidagi muammolar ko‘p uchraydi:

Til strukturasi: Ingliz tilida sintaktik jihatdan qisqa, ammo ifodali nomlar ko‘p uchraydi (masalan, *To Kill a Mockingbird — Maysafurush qushni o‘ldirish*). Ushbu qisqalik va ifodalilik ko‘pincha so‘zlarning qisqa leksik birliklari orqali kuchli semantik ma’no yukini bera olish qobiliyatiga bog‘liq. Bunday hollarda o‘zbek tiliga tarjima qilishda so‘zma-so‘z yondashuv yetarli bo‘lmasligi mumkin, chunki o‘zbek tili grammatik jihatdan ko‘proq so‘z birikmalariga va izohlashlarga tayanadi.

Ma‘no qatlamlari: Ingliz tilidagi nomlar ko‘p hollarda metaforik yoki ko‘plab ma‘no qatlamlariga ega bo‘ladi. Ushbu qatlamlar asarning estetik va intellektual mazmunini aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi. Masalan, *The Catcher in the Rye — Chig‘anoq dalasidagi qo‘riqchi* nomi o‘zida ko‘p ma‘nolarni mujassam etgan: yoshlarning noaniqliklari, o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilish va hayotning murakkabligi. Ingliz tilida yashirin simvolik ma’noga ega bo‘lgan ushbu nom o‘zbek tiliga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinganda ma’no qatlamlarining bir qismi yo‘qolib qolishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, bunday nomlarni tarjima

qilishda kontekstni saqlash uchun erkinroq yoki ijodiy yondashuv talab etiladi.

Madaniy faktorlar: Badiiy asar nomlari aksariyat hollarda muayyan madaniyatga oid elementlarni o‘z ichiga oladi. Bunday nomlar asarning lokal xususiyatlarini, o‘ziga xos madaniy kontekstini aks ettiradi va shu bilan birga asar o‘quvchisi uchun o‘ziga xos ramziy va majoziy mazmunni yaratadi. Masalan, *One Flew Over the Cuckoo‘s Nest* asari ingliz madaniyatidagi majoziy ifodalarga asoslangan. Bu nom madaniy va lingvistik jihatdan murakkablikni o‘zida mujassam etadi, chunki “Cuckoo” so‘zi inglizcha madaniy kontekstda “aqlan notinchlik”ni anglatadi, bu esa asarning umumiy mazmuniga chuqur bog‘liqdir.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). O‘zbek tiliga tarjima qilish jarayonida ushbu nomdagi ramziy ma‘noni saqlab qolish qiyin, chunki o‘zbek o‘quvchisi uchun bu madaniy asos tushunarsiz bo‘lishi mumkin. Tarjima jarayonida ekvivalent nom topish uchun ikki xil yondashuv qo‘llanilishi mumkin: birinchidan, madaniy moslashtirish, ya’ni majoziy ma’noni o‘zbek o‘quvchisi uchun tushunarli shaklda qayta yaratish; ikkinchidan, qo‘shimcha tushuntirishlar orqali asl nomning ramziy ma’nosini yetkazish. Misol tariqasida, *One Flew Over the Cuckoo‘s Nest* nomi *Qarg‘a uyasi ustidan uchib o‘tgan* tarzida tarjima qilinishi mumkin edi, lekin bu tarjima asl madaniy asos va ramziy ma’noni to‘liq aks ettirmasligi ehtimoli yuqori. Shu sababli, madaniy tafovutlarni hisobga olgan holda tarjimon bunday asarlar uchun ijodiy va moslashuvchan yondashuvlarni qo‘llashi zarur. Tarjima jarayonida madaniy ekvivalentlarni topishning qiyinligi tarjimonlardan chuqur lingvistik bilim, madaniy tushuncha va ijodkorlikni talab qiladi.

Badiiy asar nomlarini tarjima qilishda quyidagi yondashuvlar qo‘llaniladi:

So‘zma-so‘z tarjima: Ingliz tilidagi asarning nomini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zbek tiliga tarjima qilish. Misol: *War and Peace — Urush va Tinchlik*.

Adaptatsiya (Moslashtirish): Madaniy o‘ziga xoslikni hisobga olgan holda tarjima qilish. Misol: *The Old Man and the Sea — Chol va Dengiz*.

Transkripsiya: Asar nomining tovushini o‘zbek tilida berish. Misol: *Romeo and Juliet — Romeo va Julietta*.

Erkin tarjima: Nomning umumiy mazmunini saqlab qolgan holda ijodiy tarjima. Misol: *Gone with the Wind — Shamolda qolgan hislarim.*

Quyidagi tahlilda inglizcha badiiy asarlarning o‘zbek tiliga tarjima variantlari o‘rganiladi. Har bir tarjimada qanday yondashuv ishlatilganiga, tarjimaning original nom ma’nosini qanchalik aks ettirishiga e’tibor beramiz.

The Great Gatsby → *Buyuk Getsbi*.

Tahlil: Ushbu tarjima original nomning ma’nosini to‘liq aks ettirgan. “Great” so‘zi “buyuk” deb tarjima qilinib, Gatsby ism-sharifi esa o‘zlashtirish usuli bilan berilgan. Tarjima aniq va soddadir, shu bilan birga asar ruhiga mos.

Animal Farm → *Molxona*.

Tahlil: “Animal Farm” aslida “Hayvonlar fermasi” degan ma’noni bildiradi.

Tarjimada bu nom qisqartirilgan va “molxona” tarzida berilgan. Biroq bu variantning nozik jihati shuki, “hayvon” tushunchasi kengroq bo‘lsa-da, “molxona” atamasi faqat mollarga oid ko‘rinish beradi va asarning mohiyatini to‘liq aks ettirmaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION). Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlar, jumladan til strukturasi, semantik nozikliklar va madaniy kontekstning murakkabligi badiiy asar nomlarini tarjima qilish jarayonida sezilarli qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Har bir nomni tarjima qilishda uning semantik qatlamlari, ramziy va majoziy mazmunlari saqlanib qolishi lozim. Shu bilan birga, asarning o‘zbek madaniyati va estetik didiga mos kelishini ta’minlash zarur. Nomlar tarjimasida nafaqat til, balki madaniy tafovutlarni hisobga olish tarjimonning asosiy vazifasidir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Baker M. In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge, 2018. – P. 25-37.
2. Nida E. Toward a Science of Translating. Leiden: Brill, 2003. – P. 76-89.
3. Jo‘rayev N. Tarjima Nazariyasi va Amaliyoti. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti, 2016. – B. 45-58.
4. Bassnett S. Translation Studies. Routledge, 2014. – P. 102-119.
5. Abduazizov A. Badiiy Asarlarni Tarjima Qilishning Lingvistik Muammolari. Toshkent: Fan, 2012. – B. 150-167.
6. Qayumov A. Tarjima San’ati. Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi, 2008. – B. 123-137.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:096.375.132

CHORVACHILIK VA QISHLOQ AHOLISINING IJTIMOIY HAYOTI: MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR

Jumayeva Shoxida Choriyevna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi

ЖИВОТНОВОДСТВО И СОЦИАЛЬНАЯ ЖИЗНЬ СЕЛЬСКОГО НАСЕЛЕНИЯ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ

Жумаева Шохида Чориевна
Преподаватель Термезского университета экономики и сервиса

LIVESTOCK AND SOCIAL LIFE OF THE RURAL POPULATION: PROBLEMS AND PROSPECTS

Jumaeva Shokhida Chorievna
Lecturer at Termez University of Economics and Service

E-mail: jumayevas@tersu.uz
Orcid: 0009-0003-1683-3066

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sovet hukumati davrida chorvador aholining maishiy xizmatlar bilan ta'minlanishdagi muammolari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, O'zbekistonda chorvadorlar hayotiga oid ijtimoiy muammolar va natijalar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Chorvachilik, sovet hukumati, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, turmush sharoiti.*

Аннотация: *В статье рассматриваются проблемы обеспечения поголовья скота хозяйственными услугами в советское время. В нем также освещаются социальные проблемы и последствия, связанные с жизнью животноводов в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Животноводство, Советская власть, экономика, сельское хозяйство, условия жизни.*

Abstract: *This article examines the problems of the livestock population in providing them with household services during the Soviet period. It also highlights the social problems and results of the life of livestock farmers in Uzbekistan.*

Key words: *Livestock, Soviet government, economy, agriculture, living conditions.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Chorvadorlar uchun zarur bo'lgan maishiy xizmatlar, jumladan poyafzal, kiyim tikish, ta'mirlash va texnik xizmatlar yetishmasligi, aholining turmush darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan. 1970-yillarda davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar kam bo'lib, aholiga xizmat ko'rsatish sohasidagi rivojlanish sekin bo'lgan. 1980-yillarda bu muammolarni hal qilishga kirishilgan bo'lsa-da, Sovet ittifoqi ichki iqtisodiy qiyinchiliklar va ma'muriy-buyruqbozlik sababli natijalar yetarli bo'lmagan. O'zbekistonda chorvador aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohasidagi samarasizlik va muammolar davlat siyosati va iqtisodiy rejalashtirishdagi kamchiliklar bilan izohlangan. O'zbekistonda qishloqlar, dashtliklar, qir-adirlar va tog'li hududlarda yashayotgan chorvador aholisiga maishiy xizmat ko'rsatish har doim muhim masalalardan biri bo'lib kelgan. Bunday hududlarda turmush sharoiti maxsus yondoshuvni talab qiladi, chunki odamlar asosan chorvachilik bilan shug'ullanadilar va ularning zaruriyatlari, ehtiyojlari shaharlardagi aholidan ayrim jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu davrda chorvador aholi uchun yangi maishiy xizmat turlarini joriy etish va rivojlantirishga qaratilgan loyihalarda yetarli mablag' ajratilmagani, shuningdek, qishloqlarda maishiy xizmat binolarini barpo qilishga va xizmat turlarini ko'paytirishga yetarli e'tibor berilmagan. Natijada qishloq aholisining turmush darajasi va har

kunlik hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. 1970-yillar boshida Surxondaryo viloyatidagi chorvador aholining turmush tarzi achinarli holda bo'lgan. Chorvador aholisiga kerakli ko'nikmalar va xizmatlarni ko'rsatishda katta muammolar mavjud edi. Poyafzal, kiyim tikish, ta'mirlash, soatsozlik, fizoterapiya, rasmxona va radio- televiziya" sohasida mutaxassislar va xizmatlar juda kam edi. Bu sohalardagi ustaxonalar aholi ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'lmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Chorvador aholisining kundalik turmushi uchun zarur bo'lgan ta'mirlash, qayta jihozlash, oyoq va kiyimlar tikish, radio-texnik xizmatlar, metall buyumlarga ishlov berish, uy-ro'zg'or buyumlarini tayyorlash va boshqa sohalarda o'rta maxsus o'quv yurtlari mavjud emas edi. Shuningdek, mavjud mutaxassislarning huquqiy himoyasi, malakasini oshirish, ish joyi bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va zarur xom-ashyo hamda asbob-uskunalar bilan ta'minlashga e'tibor berilayotgani yo'q edi. Bu esa chorvador aholini turmush tarziga salbiy ta'sir etib, ta'mirlashga muhtoj bo'lgan buyumlarni ta'mirlash uchun sharoit yo'qligi tufayli tashlab yuborilar hamda oila daromadiga yomon ta'sir qilar edi. Sovet davrida O'zbekistonda chorvador aholiga xizmat ko'rsatish sohaga ajratilgan mablag'lar juda kam bo'lib, bu aholining kundalik ehtiyojlarini qondirishga yetarli bo'lmagan. 1970-1980-yillarda sarflangan mablag'lar jon boshiga kam hissa bo'lgani uchun, chorvadorlar turmush tarzida salbiy ta'sir ko'rsatgan va ularni iqtisodiy og'irliklarga solgan [2].

MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION) Sovet hukumati chorvador aholi uchun xizmat qi-ladigan maishiy-xizmat turlarni rivojlantirish, yangi imkoniyatlarni yaratish bo'yicha arzimas mablag'lar ajratib, ushbu mablag'larni juda kam qismini O'zbekiston Respublikasi uchun ajratar edi. Ushbu ajratilgan mablag'lar chorvador aholi jon boshiga hisoblaganda nihoyatda kam foizni tashkil qilar edi.

Janubiy hududlarda chorvador aholi uchun hayotiy zarur bo'lgan maishiy-xizmat xizmatlari, ayniqsa, rasmxona, soch-soqol olish, ayollar sochini turmaklash, hammom, kiyimlarni kimyoviy usulda yuvish, mebellar tayyorlash, qayta ta'mirlash, radio-televiziya ustaxonalari, uy-joylarni va shaxsiy transportlarni ta'mirlash kabi sohalar 1970-yillarda yangidan paydo bo'la boshladi. Bu soha hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, unga ajratilgan mablag'lar nihoyatda kam edi. O'zbekistonda 1969-yilda 5423 ta maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari mavjud bo'lib, ularga 21,0 million rubl mablag' ajratilgan edi. 1970-yilga kelib, maishiy xizmat tarmoqlari 13425 taga yetdi va bu sohaga ajratilgan mablag'lar 100 million rublni tashkil etdi. Maxsus maqomga ega bo'lgan Qashqadaryo viloyatida 1969-yilda 262 ta maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari bo'lib, ularga barqaror 0,5 ming rubl mablag' sarflangan edi. 1970-yilda esa bu soha 841 ta tarmoqkacha kengayib, 4,4 million rubl sarflandi. Surxondaryo viloyatda ham 1969-yilda 262 ta maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari mavjud bo'lib, u yoqda ham 0,7 ming rubl mablag' sarflangan edi. 1970-yilga kelib, bu ko'rsatkich 841 tagacha o'sdi va 4,5 million rubl mablag' sarflandi. Shu tariqa, yangi hayotiy zarur bo'lgan maishiy xizmatlar tarmoqlari juda tez o'sib, ularga ajratilgan mablag'lar ortganiga qaramasdan, sohaga bo'lgan e'tibor va mablag'lar hali ham yetarli bo'lmagan. Qayd etilgan ushbu raqamlar chorvador aholi jon boshiga sarflanganda o'rtacha juda kam miqdorini tashkil etar edi [3].

NATIJALAR (РЕЗУЛТАТЫ / RESULTS). Chorvador aholiga xizmat ko'rsatish sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish uchun Markaz yetarli moddiy yordam ajratmadi. Ajratilgan mablag'lar ham asosan Markaziy yirik shaharlarlarga sarflanib, Janubiy hududlarda byudjet hisobidagi maishiy xizmat ko'rsatish tarmoqlari juda sekinlik bilan paydo bo'lib, xizmat turlari shakllana bordi. 1975-yilda Surxondaryo viloyatda 1091 ta maishiy xizmat nuqtasi bo'lib, 9,0 million rubl mablag' sarflandi. Tahlil qilinayotgan yillarda janubiy hududlarda chorvador aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni yangi binolar bilan ta'minlash, yangi xizmat turlari radio-televiziya, metallga ishlov berish, zargarlik, zamonaviy soch turmaklash, soatsozlik, kiyimlarni kimyoviy tozalash, kir yuvish texnikalarni qayta ta'mirlash bo'yicha kurslar ham PTU qoshida maxsus o'qitish bo'limlari tashkil etildi [4]. Shuningdek oyoq poyafzali, kiyim tikish syehlari ochilib, aholi talab ehtiyojlardan kelib chiqib, mahsulotlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Maishiy xizmat ko'rsatish sohani rivojlantirishga e'tibor 1980-yillarda ma'lum ma'noda rivojlanish bosqichiga ko'tarilib, ushbu masala davlat nazorati doirasida ko'rib chiqildi. Chunki rivojlangan sotsializm g'oyasi ta'sirda siyosat yuritayotgan

TAMADDUN NURI

Sovet hukumati o‘zini strategik davlat dasturida “Hamma bir kishi uchun, bir kishi hamma uchun” degan balandparvoz shiorga tayanib, sotsializmni afzalliklarni namoyon etishga kirishdi. O‘zbekistonda ham maishiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi ijobiy o‘zgarishlar chorvador aholi manfaatlarni himoya qilish, talab-ehtiyojlarni hisobga olgan holda xizmat turlarini yaratish masalasida jiddiy ishlarni amalga oshirishga kirishildi. 1980-yilda O‘zbekiston Respublikasida jami 18031 ta maishiy xizmat ko‘rsatish nuqtalari bo‘lib, 314,0 million rubl mablag‘ sarflangan bo‘lsa, Qashqadaryo viloyatida 1285 ta maishiy xizmat ko‘rsatish nuqtalari bo‘lib, 15,6 million rubl, Surxondaryo viloyatida 1206 ta maishiy xizmat ko‘rsatish nuqtalari bo‘lib, 16,7 million rubl mablag‘lar sarflandi [5].

Sovet ittifoq davridagi turg‘unlik sharoitda aholini turmush tarzini yaxshilash uchun zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilmadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida chorvador aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida amaliy natijalarga erishilmadi. 1985-yilda O‘zbekistonda chorvador aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida amaliy natijalarga erishishda jiddiy muammolar mavjud edi. Mamlakatdagi 20379 ta maishiy xizmat tarmoqlari 439,9 million rubl mablag‘ sarflanishini talab etdi. Bu mablag‘lar asosan mavjud tarmoqlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, chorvador aholini ish-haqi bilan ta’minlash uchun yetarli bo‘ldi. Surxondaryo viloyatida 1114 ta maishiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlari bo‘lib, ularga 19,2 million rubl sarflandi. Biroq, ushbu mablag‘lar va tadbirlar sohaga uzoq muddatli rivojlanish va zamonaviy xizmatlar joriy qilish uchun yetarli emas edi. Sovet tuzumida “Qayta kurash” siyosati asosida jamiyatni turg‘unlikdan chiqarishga qaratilgan bo‘lsa-da, bu siyosat amaliy natijalarga olib kelmadi. Chorvador aholisi uchun maishiy xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish, yangi zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta’minlash va yangi xizmat turlarini yaratishda aniq va samarali tadbirlar ishlab chiqilmadi [3]. Bundan tashqari, ma’muriy-buyruqbozlik va qoloqlik holati saqlanib qoldi, bu esa sohaning rivojlanishini to‘sib, aholining haqiqiy ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat bermadi. Sovet hukumati davrida chorvador aholiga maishiy xizmatlarning rivojlantirilishi va ularga zaruriy yordamni ko‘rsatish masalasi yetarlicha e’tiborga olinmagan. Bunga asosan, moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning kamligi, yangi xizmat turlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan mablag‘larning cheklanganligi sabab bo‘lgan [3].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, Sovet hukumati chorvadorlarga maishiy xizmat ko‘rsatishda amaliy natijalarga erishish uchun kerakli resurslar va strategik rejalarni yaratmagan edi. Bu holat chorvador aholisining kundalik turmushiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, ularning turmush darajasining pastligiga olib keldi. Maishiy-xizmat sohasini rivojlantirish milliy daromadni oshirish va mahalliy aholining ijtimoiy holatini yaxshilashga qaratilgan aniq va samarali harakatlarni talab qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2004-2006-yillarida fermer xo‘jaliklarni rivojlantirish konsepsiyasi» to‘g‘risidagi PF-3342-sonli Farmoni. 2003-yil 27-oktyabr//www.Lex.uz.
2. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi. 1091- fond, 1-ro‘yxat, ish-2292, 120-varaq.
3. Surxondaryo viloyat hokimligi joriy arxivi . 1091- fond, 1-ro‘yxat, ish-2298, 24-varaq.
4. Qarshiyev Sh. Fermer xo‘jaliklarida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirish, (Qashqadaryo viloyati misolida). Iqt.fan.nomz. ...diss.-Toshkent, 1998. – B. 142.
5. Surxondaryo viloyat xokimligi joriy arxivi. 1091-fond, ish-2298, 134-varaq.
6. Дусназаров, М. И., & Жумаева, Ш. Ч. (2020). Теоретические основы понятия семейного воспитания с позиций становления и развития культурной традиции. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (1), 151-154.
7. Shodavlatovna, D. S., & Chorievna, J. S. (2021). The issue of a just king in kaikous’s nightmare. Academicia: an international multidisciplinary research journal, 11(3), 1416-1420.
8. Жумаева, ш. Ч. (2020). Развитие и сохранение аутентичности как условие естественного образования человека. Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук, (4), 46-49.
9. Chorievna, j. S. (2022). Livestock reforms in surkhandarya. Texas journal of agriculture and biological Sciences, 4, 68-70.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 193.479.132

ISTE'MOLCHI AXLOQINING IJTIMOIY-MADANIY VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI

Akmal Axmedovich Axmedov
Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalari Universiteti "Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix" kafedrasi dotsenti

ВЛИЯНИЕ ПОТРЕБИТЕЛЬСКОЙ ЭТИКИ НА СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ И ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

Акмаль Ахмедович Ахмедов
Доцент кафедры «Социально-гуманитарных наук и истории» Ташкентского международного университета финансового менеджмента и технологий

THE IMPACT OF CONSUMER ETHICS ON SOCIO-CULTURAL AND ECONOMIC DEVELOPMENT

Akmal Akhmedovich Akhmedov
Associate Professor of the Department of Social and Humanitarian Sciences and History of the Tashkent International University of Financial Management and Technology

E-mail: akmal.axmedov@mail.ru
Orcid: 0009-0009-2015-2152

Annotatsiya: *Mazkur maqolada iste'molchi axloqining jamiyatning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Iste'molchi madaniyati va xulq-atvori jamiyatda barqarorlik, adolatli bozor munosabatlari hamda iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi muhim omillardan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, maqolada iste'molchi huquqlarini himoya qilish, axloqiy me'yorlarga asoslangan xarid qilish madaniyati va unga ta'sir etuvchi ijtimoiy faktorlar o'rganiladi.*

Kalit so'zlar: *Iste'molchi axloqi, ijtimoiy madaniyat, iqtisodiy rivojlanish, bozor munosabatlari, iste'molchi huquqlari, etika, barqaror rivojlanish, iste'mol madaniyati.*

Аннотация: *В статье анализируется влияние потребительской этики на социально-культурное и экономическое развитие общества. Потребительская культура и поведение считаются одними из важнейших факторов, влияющих на стабильность в обществе, справедливие рыночные отношения и экономический рост. В статье также рассматриваются вопросы защиты прав потребителей, культура покупок, основанная на этических нормах, и социальные фактори, на нее влияющие.*

Ключевие слова. *Потребительская этика, социальная культура, экономическое развитие, рыночние отношения, права потребителей, этика, устойчивое развитие, культура потребления.*

Abstract: *The article analyzes the influence of consumer ethics on the socio-cultural and economic development of society. Consumer culture and behavior are considered to be among the most important factors influencing stability in society, fair market relations and economic growth. The article also considers issues of consumer protection, a shopping culture based on ethical standards and social factors influencing it.*

Key words: *Consumer ethics, social culture, economic development, market relations, consumer rights, ethics, sustainable development, consumer culture.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Iste'molchi axloqi jamiyatning umumiy ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchi axloqi jamiyatda qanday turdagi qadriyatlar va normalarning ustunlik qilishi va qanday o'zgarishlarga duch kelishini belgilaydi. Masalan, ekologik axloqiy me'yorlarga ega bo'lgan iste'molchilar jamiyatda barqaror rivojlanish va ekologik mas'uliyat kabi qadriyatlarni targ'ib qiladilar. Bu esa barqaror iste'mol odatlarini shakllantiradi va jamiyatdagi turmush tarzi hamda e'tiqodlarni o'zgartiradi. Iste'molchilarning xulq-atvori milliy madaniyatning bir qismi bo'lib, turmush tarzi va identifikatsiyaga ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchilarning mahsulot tanlashdagi afzalliklari milliy o'ziga xoslikni, urf-odatlarni va an'analarni shakllantirishi yoki o'zgartirishi mumkin. Masalan, mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tanlash milliy g'urur va o'z madaniyatiga bo'lgan hurmatni ifoda etadi. "Turli millat va xalqlarning keng ma'nodagi ijtimoiy, ma'naviy, axloqiy va estetik ideallari mavjud va ularni avaylab-asrash, ularga tayangan holda odamlar hayotini tartibga solish insonparvar jamiyatning asosiy belgilaridan birini tashkil etgan. Ayniqsa, bugungi kunda, etakchilikni da'vo qilayotgan davlatlar daromad olish va iste'molchilik kayfiyatiga qaratilgan tuban qadriyatlarni asl qadriyat sifatida dunyo xalqlariga taqdim etayotgan bir sharoitda unga qarshilik ko'rsatish hamda milliy madaniy-ma'naviy ildizlarni saqlashga intilish muhim ahamiyat kasb etadi" [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Iste'molning ijtimoiy falsafasining asoslari iste'molni iqtisodiy, sotsiologik, psixologik, madaniy va marketing o'lchovlarini qamrab oluvchi hodisa sifatida ko'p qirrali tushunishni o'z ichiga oladi. O'zbekistonda iste'molchi odob-axloqi jahon iste'mol tendensiyalari ta'sirida shakllangan bo'lsa, milliy madaniyat va mahalliy an'analar sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat iqtisodiyotida asosiy omillar daromadlar dinamikasi, turmush darajasi va chakana savdo infratuzilmasining rivojlanishi hisoblanadi. Iste'mol uch darajada kontseptsiyalanadi: individual faoliyat (iste'molchi odatlari), boshqaruv obyekti sifatida (davlat iste'mol siyosati) va ijtimoiy institut sifatida (iste'mol ijtimoiy boshqaruv elementi sifatida). P.V.Dashinning "Iste'mol bozorining ijtimoiy-struktur xususiyatlari" nomli tadqiqot ishida iste'mol bozorining ijtimoiy va tuzilmaviy jihatlari falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor iqtisodiyot, jamiyat va madaniyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka qaratilgan. Muallif iste'mol modellarini jamiyatning turli guruhlari, sinfiy tuzilmasi va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Muallif iste'mol bozorini jamiyatning o'zgarishi bilan bog'liq holda ko'radi, bu esa ijtimoiy-struktur yondashuv uchun kuchli asos yaratadi. Biroq, iqtisodiy omillar chuqurroq yoritilmagan: bozor mexanizmlarining o'zi emas, balki uning ijtimoiy ta'siri ko'proq tahlil qilingan [3].

G'arb iste'mol qadriyatlarining kirib kelishiga qaramay, o'zbek madaniyatida kollektivizm, o'zaro yordam va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishga e'tibor saqlanib qolgan, bu esa uni G'arbdagi ko'proq individual va gedonistik iste'mol tendentsiyalaridan ajratib turadi. L.I. Xvoyevskaya tadqiqot ishi mavzusining tanlanishi o'z davrning iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlari, shuningdek, post-sotsialistik makonlarda iste'molchilar xulq-atvorining yangi shakllanib borayotgan jarayonlariga bag'ishlanishidan dalolat beradi. Avvalgi adabiyotlar va nazariy yondashuvlarga tayanib, muallif ijtimoiy marketing konsepsiyasini nafaqat tijorat maqsadlari balki ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish, sog'lom iste'mol odatlarini targ'ib qilish va regional xususiyatlarni hisobga olish orqali tahlil qiladi [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Iste'molchi axloqi jamiyatda axloqiy me'yorlar va ma'naviyatni tarbiyalaydi. Mas'uliyatli iste'molchilar jamiyatdagi tenglik, adolat va ijtimoiy birdamlik tamoyillariga e'tibor berib, ijtimoiy barqarorlikka hissa qo'shadilar. Shuningdek, o'z ehtiyojlarini qondirishda odillik va boshqa manfaatlarni inobatga oluvchi axloqiy qarorlar jamiyatdagi ma'naviy muhitning yaxshilanishiga olib keladi. Iste'molchilarning xulq-atvori va afzalliklari ijtimoiy o'zgarishlarga yo'l ochadi. Masalan, barqaror va adolatli iste'mol qadriyatlarini targ'ib qilish yangi ijtimoiy harakatlarni, ijtimoiy mas'uliyatni va ekologik axloqiy tamoyillarni targ'ib qilishga olib keladi. Bu esa jamiyatning umumiy axloqiy standartlarini yaxshilaydi va turmush tarzini o'zgartiradi.

Iste'molchi axloqi iqtisodiy bozorni shakllantiradi. Iste'molchilarning afzalliklari va talabiga mos ravishda ishlab chiqaruvchilar mahsulot va xizmatlar taklifini o'zgartiradilar. Masalan, sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi iste'molchilarning o'sishi sog'lom oziq-ovqat mahsulotlari, ekologik toza mahsulotlar va xizmatlar bozorini kengaytiradi. Bu esa ishlab chiqaruvchilarni innovatsiyalar yaratishga, mahsulot sifatini oshirishga va iqtisodiy raqobatbardoshlikni kuchaytirishga undaydi. Mas'uliyatli iste'molchilar axloqi iqtisodiy rivojlanishni uzoq muddatda barqaror va muvozanatli bo'lishiga yordam beradi. Ular barqaror va ekologik mahsulotlarga talab yaratib, ishlab chiqaruvchilarni ekologik mas'uliyatli faoliyat yuritishga undaydi. Bu esa tabiiy resurslarning saqlanishiga, atrof-muhitni muhofaza qilishga va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. "Iste'molchilarning xulq-atvori deganda tovar harid qiluvchilarning tovarni (xizmatni) tanlash va sotib olish jarayonida tushunib yetgan hatti-harakatlarining majmui tushuniladi" [1].

Iste'molchilarning yangi ehtiyojlari va afzalliklari innovatsiyalarni rag'batlantiradi. Bozor talabiga mos ravishda ishlab chiqaruvchilar yangi mahsulotlar va xizmatlar yaratadi, bu esa iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi. Shuningdek, iste'molchilarning axloqiy tamoyillari iqtisodiy faoliyatda korxonalar va tashkilotlarni axloqiy qadriyatlar, adolatli savdo va ijtimoiy mas'uliyatni inobatga olishga undaydi. Iste'molchilar xulq-atvori mehnat bozoriga ham ta'sir ko'rsatadi. Iste'molchilikning rivojlanishi yangi sohalar va xizmatlar talabini oshiradi, bu esa yangi ish o'rinlari yaratadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Iste'molchi axloqi ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanish uchun muhim omildir. U jamiyatdagi qadriyatlar, turmush tarzi va iqtisodiy faoliyatni belgilab, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlariga ta'sir qiladi. Jamiyatning axloqiy qadriyatlari va iqtisodiy jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lib, iste'molchi axloqi ushbu bog'liqlikning muhim mexanizmi sifatida rol o'ynaydi. Iste'molchi axloqining O'zbekistonning ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini falsafiy tahlil qilish G'arbda kechayotgan jarayonlardan farq qiluvchi tarixiy, madaniy va diniy jihatlarni o'z ichiga olgan murakkab va ko'p qirrali muammodir. O'zbekistonning an'anaviy jamiyatida zamonaviy G'arbdan farqli o'laroq, moddiy iste'mol diniy va ma'naviy ta'limotlardan kelib chiqqan qadriyatlar tizimi bilan chegaralangan edi. Bu yerda iste'mol jamoa, oila va jamoa (mahalla) doirasida tartibga solingan. Bunda asosiy e'tibor moddiy emas, ma'naviy qadriyatlar, ya'ni kattalarga hurmat, o'zaro yordam, mahalla hamjihatligi kabilarga qaratildi. Bu tizimli iste'molning paydo bo'lishini cheklab qo'ydi va individual moddiy ehtiyojlarga e'tiborni chekladi. Moddiy iste'molni ma'naviy hayotdan ikkinchi darajali deb hisoblaydigan so'fiylik va islomiy tamoyillar axloqiy iste'mol me'yorlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). O'zbekistonda iste'molchi axloqi ijtimoiy-madaniy me'yorlar va iqtisodiy amaliyotlarni tushunish mumkin bo'lgan hal qiluvchi obyektiv bo'lib xizmat qiladi. Iste'molchi xulq-atvorini qo'zg'atuvchi motivlar kengroq ijtimoiy dinamika va qadriyatlarni aks ettiradi, madaniy o'ziga xoslikni va iqtisodiy amaliyotni shakllantiradi. Shu bilan birga, iste'molga qarshi harakatlar iste'mol madaniyatining ta'siri haqida o'sib borayotgan xabardorlik va fikrlashdan dalolat beradi, bu o'z taqdirini o'zi belgilashning yangi shakllariga olib keladi va kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga potentsial ta'sir ko'rsatadi. Iste'molni rag'batlantirish va axloqiy tartibga solish o'rtasidagi muvozanat iste'mol madaniyati va axloqi mamlakat ijtimoiy tuzilishi va iqtisodiy taraqqiyotini qanday shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Boyjigitov S.K. Xaridorlar (Iste'molchilar) va mijozlar xulq-atvori modeli // Экономика и социум. 2023. №6-2 (109).
2. Yarashov S. Axloqiy taraqqiyotga globall tahdidlarning ta'siri // Academic research in educational sciences. 2022. – B. 132-136.
3. Дашин П.В. Социоструктурные характеристики потребительского рынка : автореферат дис. ... кандидата философских наук:. - Краснодар, 2007. – 30 с.
4. Хвоевская Л.И. Социальный маркетинг потребительского поведения : Общие и региональные аспекты: диссертация ... кандидата социологических наук. - Ростов-на-Дону, 1999. – 159 с.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 801.82:81.401

OLAMNING LISONIY MANZARASIDA VATAN MAVZUSIDAGI MAQOLLARNING AHAMIYATI (INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARI MISOLIDA)

Fayziyeva Adiba Husniddinovna
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti G‘arb tillari kafedradsi katta o‘qituvchisi

ЗНАЧЕНИЕ ПОСЛОВИЦ НА ТЕМУ РОДИНЫ В ЯЗЫКОВОМ КАРТИНА МИРА (НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)

Файзиева Адиба Хусниддиновна
Старший преподаватель кафедры западных языков Ташкентского государственного университета востоковедения

THE SIGNIFICANCE OF PROVERBS ON THE TOPIC OF THE MOTHERLAND IN THE LINGUISTIC PICTURE OF THE WORLD (IN THE EXAMPLE OF ENGLISH AND UZBEKI LANGUAGES)

Fayzieva Adiba Husniddinovna
Senior Lecturer at the Department of Western Languages, Tashkent State University of Oriental Studies

e-mail: adibakomilova2000@gmail.com
Tel: +998933792575
ORCID: 0009-0001-6916-3321

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida mavjud maqollarni lingvomadaniy nuqtai nazardan tahlil qilinib, ularning paremologiyada frazeologik birlik sifatidagi mavqei o‘rganiladi. Tadqiqotda g‘arb va sharq madaniyatiga oid bo‘lgan ikki xalq og‘zaki ijodiga doir maqollar tahlilga tortilib, chog‘ishtiriladi. Shuningdek, konsept va tushuncha so‘zlariga olimlarning ilmiy qarashlari asoslanib, ta’rif beriladi, ulardagi farqli tomonlar aniqlanadi. Lingvomadaniy jihatdan frazeologik birlik sifatida ingliz va o‘zbek tillaridagi maqollar tahlilga tortiladi.*

Kalit so‘zlar: *paremiologiya, vatan, madaniy kontekst, tushuncha, lingvomadaniyatshunoslik, maqol, xalq og‘zaki ijodi.*

Аннотация: *В данной статье пословицы, существующие в английском и узбекском языках, анализируются с лингвокультурологической точки зрения, а также изучается их статус как фразеологических единиц в паремиологии. В исследовании рассматриваются и сравниваются пословицы двух народов, относящиеся к устному творчеству западной и восточной культур. Кроме того, на основе научных взглядов ученых даются определения понятиям «концепт» и «понятие», выявляются их различия. Пословицы английского и узбекского языков анализируются как фразеологические единицы с лингвокультурной точки зрения.*

Ключевые слова: *паремиология, родина, культурный контекст, понятие, лингвокультурология, пословица, устное народное творчество.*

Annotation: *This article analyzes proverbs in English and Uzbek from a linguocultural perspective and examines their status as phraseological units in paremiology. The study compares proverbs from the oral traditions of two cultures – Western and Eastern. Additionally, the concepts of “concept” and “notion” are*

defined based on scholars' perspectives, and their differences are identified. English and Uzbek proverbs are analyzed as phraseological units from a linguocultural point of view.

Key words: *paremiology, homeland, cultural context, notion, linguocultural studies, proverb, oral folklore.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonda qator o‘zbek tilshunos va tarjimashunoslar tarafidan vatan konsepti doirasidagi maqollarni folklorshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etilgan bo‘lib, ularning inglizcha tarjimalari tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslik darajasida yetarlicha o‘rganilmagan. Dunyo tilshunosligida ham konsept va tushuncha terminlari o‘rtasidagi farqlar haqida ayrim ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, ularning o‘ziga xos xususiyatlari quyidagicha tavsiflanadi:

Konsept nafaqat mavhumlikni, balki aniq assotsiativ va emotsional-baholovchi belgilarni ham o‘z ichiga olgan g‘oyani ifodalaydi.

Tushuncha – esa bu predmet va hodisalar haqidagi umumiy va xususiy belgilarni aks ettiruvchi fikr sifatida qaraladi. Bu ko‘proq mavhum mantiqiy jarayon bilan bog‘liq.

Mazkur qarashdan kelib chiqib, ta’kidlash mumkinki, konsept so‘zining qamrovi tushuncha so‘zinikidan ko‘ra keng. Konsept odatda insoniyatning turmush tarzi, madaniy va lisoniy hodisalar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, maxsus qoliplar orqali shakllanadi. U lingvistik birlik sifatida madaniyatning ma’lum bir qirralarini ifodalaydi. Shu sabali ham har bir konseptning lingvomadaniyatshunoslikda alohida o‘rni mavjud. Paremiologiya deganda nafaqat maqollar, balki matallar ham nazarda tutiladi. Shunday ekan, albatta, ularning folklordagi ahamiyati alohida hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). V.N.Telia maqollar va matallar frazeologiyaning birliklari bo‘lish bilan birga folklorga ham tegishli ekanligida qarama-qarshilikni ko‘radi. Ushbu mezondan kelib chiqib, boshqa barcha frazeologik birliklarni ham folklor elementlariga kiritish mumkin degan xulosaga kelish mumkin, biroq bu fikr bilan kelishib bo‘lmaydi. Birinchidan, frazeologizmlar, paremiya birliklaridan farqli o‘laroq, “janr” tushunchasiga mos kelmaydi, ikkinchidan esa, ular o‘rgatuvchi yoki nasihatgo‘y xarakterga ega emas [1].

Bu o‘rinda konsept haqidagi olimlarning fikr-mulohazalarini inobatga olish zarur. Savenkova paremiya tushunchasini ikkilamchi til belgilari sifatida talqin qiladi – vaziyatlar yoki haqiqatlar o‘rtasidagi munosabatlarni belgilovchi mustahkam va barqaror iboralar (maqollar va matallar). Ular semantik boyligi va turli nutqiy vaziyatlarda hamda maqsadlarda qo‘llash imkoniyati bilan tinglovchilarni o‘ziga jalb qiladi. Ushbu birliklar bir tilning so‘zlashuvchilari o‘rtasida to‘laqonli muloqot jarayonini ta’minlaydigan semiotik quyi tizimlardan birini tashkil etadi [2].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Kognitiv tilshunoslik XX asrning oxirgi choragida shakllana boshlagan va XXI asr boshlariga kelib, lingvistikaning yetakchi yo‘nalishlaridan biriga aylangani tilshunoslar doirasiga ma’lum. Zamonaviy kognitiv tilshunoslikning rivojlanishi amerikalik tadqiqotchilar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqalarning ilmiy izlanishlari bilan chambarchas bog‘liq. Ular ushbu soha tilni falsafaning bilish nazariyasi bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganib, uning shakllanish jarayonidagi psixologik, biologik va neyrofiziologik jihatlarini ijtimoiy, madaniy hamda lingvistik hodisalar bilan uzviy aloqador holda tahlil qiladi.

Quyidagi maqollarni tahlilga tortamiz:

An Englishman's house is the castle.

Bu maqol o‘zbekchaga *Inglizlar uchun qasr – o‘z uyi* tarzida tarjima qilinsa, uning o‘zbekcha ekvivalenti sifatida *o‘z uying o‘lan to‘shaging* maqolini keltirish mumkin.

Bulbul chamanni sevar, odam vatanni.

Mazkur maqolni ingliz tilida ikki xil tarzda ifodalash mumkin:

1) *East or west, home is best.*
УКРЕПЛЕНИЕ МАТЕРИАЛЬНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ БАЗЫ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН (1991-2019)

Тишабаев Алишер Махаматджанович, научный исследователь Ферганского государственного университета

STRENGTHENING THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (1991-2019)

Tishabaev Alisher Makhamatdjanovich, Researcher of Ferghana State University

https://orcid.org/0009-0001-6246-8595

e-mail: tishabayev11@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida 1991-2019-yillarda jismoniy tarbiya va sport moddiy-texnika bazasining mustahkamlanishi va uning asosiy natijalari ilmiy adabiyotlar va birlamchi manbalardagi materiallar yordamida tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *O‘zbekiston Respublikasi, jismoniy tarbiya, sport, moddiy-texnik baza, moliyaviy ta’minot, zamonaviy inshootlar.*

Abstract: *The article analyzes the strengthening of the material and technical base of physical education and sports in the Republic of Uzbekistan in 1991-2019 and its main results using materials from scientific literature and primary sources.*

Key words: *Republic of Uzbekistan, physical education, sports, material and technical base, financial support, modern facilities.*

Аннотация: *В статье с помощью научной литературы и материалов первоисточников проанализированы укрепление материально-технической базы физического воспитания и спорта в Республике Узбекистан в 1991-2019 годах и его основные результаты.*

Ключевые слова: *Республика Узбекистан, физическое воспитание, спорт, материально-техническая база, финансовое обеспечение, современная база.*

KIRISH. Respublikada jismoniy tarbiya, sportni ommalashtirishga qaratilgan hukumatning muhim e’tiboridan kelib chiqqan holda uning moddiy-texnika bazasi hamda moliyaviy ta’minotiga jiddiy urg‘u berildi. Ana shu belgilangan vazifalar tufayli sohaning moddiy bazasi yil sayin takomillashtirib borildi. Alohida ta’kidlab o‘tish joizki, butun mamlakatda bo‘lganidek aksariyat viloyatlarning markazlarida qad rostlagan sport turlariga ixtisoslashgan stadionlar va boshqa shu kabi zamonaviy inshootlar ta’mirlandi hamda doimiy foydalanishga kiritildi. Xususan, Respublika

Prezidentining sovrini uchun tennis bo‘yicha xalqaro turnirlar o‘tkazilishining yo‘lga qo‘yilishi hamda ularning aynan 1994-yildan boshlanishi va muntazam ravishda davom etishi Toshkentdagi “Yunusobod”, “Jar”, “O‘zbekiston” va boshqa sport majmualarining barpo etilishiga sabab bo‘ldi. Ularda faqat respublika musobaqalari va tennis bo‘yicha xalqaro turnirlarigina emas, hattoki boks, kurash, sharqona yakka kurash bo‘yicha Osiyo va jahon birinchiliklarining o‘tkazilishi ham ommalashdi. Tennis kortlari va yirik sog‘lomlashtirish sport markazlari barcha viloyatlarning markazlarida qurildi va doimiy foydalanishga topshirildi. Ularning tarkibida yirik sport zallari, suv havzalari, futbol va boshqa sport o‘yinlari maydonlari mujassamlashdi.

TADQIQOT METODI. “Yunusobod” sport majmuasida xalqaro musobaqalarni o‘tkazish bo‘yicha jahon andozalariga mos keladigan kompleksda tomoshabinlar madaniy hordiq chiqarib dam olishi, sportchilar esa o‘z kuchlarini sinashi uchun qulay imkoniyatlar yaratildi. Shu bilan bir qatorda, mahalliy aholi uchun o‘yin maydonlari, sport zallari va yugurish, dam olish yo‘laklarini qurish ishlari jadallashdi. Jumladan, ta’lim tizimi (o‘rta bo‘g‘in ta’lim muassasalari) yoshlari uchun yangidan barpo etilgan zamonaviy o‘quv binolarining tarkibidan yirik sport zallari hamda suv havzalari ham o‘rin oldi. Deyarli barcha oliy ta’lim muassasalarida yirik sport majmualari barpo qilindi. Ishlab chiqarish korxonalari, ya’ni soliq tizimi, qurilish va aloqa muassasalarida yangi sport majmualarini qurish ham an’anaga aylanib bordi.

NATIJA VA MULOHAZALAR. 1994-yilning yanvariga qadar faqatgina Toshkentda 26 dan ortiq o‘yingoh, 5 ta manej, sport saroylari va suv sporti saroyi, 58 ta suzish havzasi, 36 ta futbol maydoni, 549 ta jismoniy tarbiya tashkiloti qayd qilingandi[1]. O‘zbekistonda soha taraqqiyotida jismoniy madaniyat jamoalari hamda sport bilan shug‘ullanuvchilarning roli katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Xususan, jismoniy madaniyat jamoalarining soni 1991-yilda 14 577 ta bo‘lgan bo‘lsa, 1995-yilda 14 408 ta va 2000-yilda esa 15 863 taga yetdi, ba’zi yillarda jamoalar sonining kamayishiga sabab shundaki, ba’zi korxonalar va muassasalar birlashtirildi yoki tugatildi, keyinchalik esa ularning soni yanada ortib bordi[2].

Respublika hududlarida joylashgan amaldagi sport inshootlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish natijasida soha taraqqiysi borasida olib borilayotgan ishlarning alohida tahsinga loyiq ekanligini isbotlaydi. Masalan, sport inshootlarining soni va ularning quvvati 2002-yilga nisbatan 2012-yilga kelib 2 948 taga oshdi, uning bir vaqtning o‘zida sportchilarni qabul qila olish imkoniyati 25 5176 nafarga yetdi. 2002-yilda mamlakatda sport inshootlari soni 48 204 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2012-yilda ular 51 152 tadan iborat bo‘ldi. Sohadagi faoliyatga kiritilgan inshootlarning o‘sishini hududlararo tahlil qiladigan bo‘lsak, 2012-yilga kelib eng katta o‘sish ko‘rsatkichi Navoiy, Buxoro, Jizzax va Surxondaryo viloyatlariga to‘g‘ri keldi, eng kam o‘sish Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri hissasiga to‘g‘ri keldi, Namangan viloyatida esa ushbu ko‘rsatkichning pasayishi ham kuzatildi. Ba’zi hududlarda joylashgan amaldagi sport inshootlari sonining ortmasligi, ular quvvatining kamayishiga ham sezilarni ta’sir qildi. Bunyodkorlik ishlari keyingi yillarda ham davom etdi. Jumladan, 2014-yili Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 28-bolalar va o‘smirlar olimpiya zahiralari sport maktabining yangi binosi foydalanishga topshirildi. Bu yerda “Zafar qurilish servis” korxonasi bunyodkorlari tomonidan 2 milliard 38 million so‘mlik qurilish-montaj ishlari bajarildi. Binoda yoshlarning kurash, belbog‘li kurash, yunon-rim kurashi, dzyudo, turon yakka kurashi va og‘ir atletika bilan shug‘ullanishi uchun barcha qulay sharoitlar yaratildi[3].

Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasining manzilli dasturlariga asosan 2003-2014-yillarda jami 1979ta inshoot bunyod etildi. Uning 1605tasi sport, 278tasi bolalar musiqa va san’ati maktabi hamda 96ta suzish havzalaridan iborat bo‘ldi. 2013-yili respublikada 113ta sport inshooti va suzish havzasi hamda 55ta bolalar musiqa hamda san’at maktablari qurilib, doimiy foydalanishga berildi[4]. Ushbu obyektlarning 132tasi qishloq joylarda ishga tushirilib, ular uchun 210 milliard 400 million so‘m mablag‘ sarflandi. Shu bilan birga, 120 turdagi sport inventarlari va

TAMADDUN NURI

uskunalarining 116tasi mamlakat korxonalarida ishlab chiqarildi. Bundan tashqari, o‘tgan 2014-yili 163ta inshootda qurilish-tiklash ishlari o‘tkazildi hamda 115ta bolalar sporti inshooti (jumladan, 18ta yangi qurilish TIPlar asosida, shu bilan bir qatorda, maktablarda 73ta sport zallarini yangidan barpo etish, 17ta mavjud inshootlarni qayta ta’mirlash hamda 7ta sport inshootlarini kapital jihatdan ta’mirlash) muntazam foydalanishga kiritildi[5]. Respublikada har yil bahor faslida o‘quvchi qizlarga sport kiyimlari topshirish an’anaga aylandi. 2014-yilda mazkur an’anaga asosan yangi zamonaviy dizayn asosida tikilgan 12 turdagi jami 111302 komplekt sport liboslari va 189943 komplekt sport formalari qizlarga topshirildi. Bu esa qizlar o‘rtasida sportning yanada ommalashishi, ularning sog‘lom ulg‘ayishlarida muhim omil bo‘ldi. Ayni shu davrda mamlakatda 842 ming nafarga yaqin qizlar sport bilan shug‘ullanib keldi. Respublikada 2 millionga yaqin bola sportning 30dan ziyod turi bilan muntazam shug‘ullandi. Xalq ta’limi tizimida jami 28ta futbol maktab-internati, 489 bolalar hamda o‘smirlarning sport maktablari umumiy faoliyatda bo‘ldi. Mazkur futbol maktab-internatlarida 2014-yili 5778 nafar o‘quvchiga 312 nafar o‘qituvchi-murabbiy, BO‘SMlarida 322 337 nafar sportchiga 9983 (ulardan 2536 nafari ayollar) nafar murabbiy ta’lim-tarbiya berdilar[6]. Bolalarning sportga qiziqishini yanada oshirish maqsadida hududlarda sportning ko‘plab turlari bo‘yicha musobaqalar, sport festivallari, o‘rtoqlik uchrashuvlari va o‘quv-mashg‘ulot yig‘inlari muntazam ravishda o‘tkazildi. Masalan, 2003-2013-yillarda 23 mingta sport tadbiri o‘tkazilgan bo‘lsa, ularning qariyb 17 mingtasi qishloq joylarda tashkil etildi. Ana shu tadbirlarda 10,5 milliondan ortiq bola, jumladan, qishloq joylarda yashaydigan 7,6 million nafar o‘qil-qizlar ishtirok etdi[7].

2014-yil 3-dekabrda Vazirlar Mahkamasi tomonidan “2015-2020-yillarda umumta’lim maktablarini zamonaviy sport zallari bilan ta’minlash chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida”gi qarori qabul qilinib, tasdiqlangan maxsus dasturga muvofiq O‘zbekistonda 2021-yilga qadar Bolalar sportini rivojlantirish jamg‘armasi hamda ta’lim muassasalari (umumta’lim maktablari, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar, tibbiyot o‘quv dargohlari)ni qayta qurish, kapital ta’mirlash va zaruriy anjomlar bilan ta’minlash jamg‘armasi mablag‘lari hamda imtiyozli xorijiy kredit va grantlar, yuridik va jismoniy shaxslarning xayriya ehsonlari hisobiga 1706ta yangi sport zali barpo etish belgilandi[8]. Ma’lum bo‘lishicha, ushbu obyektlar respublikaning barcha hududlarida, jumladan, Samarqand (419ta), Surxondaryo (256ta), Qashqadaryo (224ta), Farg‘ona (158ta), Toshkent (127ta), Andijon (125ta), Namangan (104ta), Buxoro (85ta), Jizzax (81ta), Navoiy (37ta), Xorazm (24ta) va Sirdaryo (9ta) viloyatlarida, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (53ta) hamda Toshkent shahrida (4ta) qurilishi mo‘ljallandi.

Sohaning taraqqiyotiga qaratilgan masalalar, vazifalar keyingi yillar davomida ham izchil davom etdi. Jumladan, 2017-yilning 14-15-aprel kunlarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Samarqand viloyatiga qilgan tashrifi davomida bu yerda amalga oshirilgan ishlar sarhisobiga bag‘ishlangan matbuot anjumani bo‘lib o‘tdi. Unda sport turlarini yanada jadallashtirish, sohaning moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash borasidagi amaliy tadbirlar muhokama qilindi. Shu davrga qadar 70ta umumta’lim maktablaridagi sport inshootlaridan 55ta inshootda pasport mavjud bo‘lib, ushbu muassasalardagi sport zallarining foydalanish darajasi 80foizdan ortiqni tashkil qildi. Biroq, sport to‘garaklari jadvali 5ta maktabda mavjud emasligi aniqlandi[9]. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari soni 183 nafar, ulardan 79 nafari malaka oshirishdan o‘tgan, inshootlar jihozlanishi va sanitariya holati 75 foizni tashkil qildi[10]. Musobaqalarda ishtirok etganlar va sovrindor bo‘lganlar 384 nafar, ular orasida 69 nafar razryadli o‘quvchilar ham mavjud. Samarqand shahridagi 11ta akademik litseyda sport inshootlari mavjud bo‘lib, ularning umumiy quvvati 1206 nafar, foydalanish darajasi 65 foizni tashkil qildi. Bu sport inshootlarida sportning 9ta turi bo‘yicha to‘garaklar faoliyat yuritdi, 1340 nafar o‘quvchilar ushbu inshootlardan kunlik foydalandilar. Biroq, shahardagi 26ta kasb-hunar kollejlarining sport inshootlaridan pasporti mavjud emaslari 5tani tashkil etdi. Umumiy quvvati 4690 nafar bo‘lib, foydalanish darajasi 70 foiz bo‘ldi hamda 12ta sport turlari bo‘yicha to‘garaklar faoliyati yo‘lga qo‘yildi[11]. 2016-yilda viloyat yoshlarining 2 nafari jahon, 7 nafari Osiyo chempionligini qo‘lga kiritdi. Yil davomida samarqandlik sportchilar 362ta oltin, 383ta kumush

TAMADDUN NURI

va 495ta bronza medallarini qo‘lga kiritdilar. Shundan 43ta oltin, 56ta kumush va 47ta bronza medal xalqaro musobaqalarda qo‘lga kiritildi. Viloyatda 5262ta sport inshooti bo‘lib, uning 948tasi sport zali, 13tasi suzish havzasi, 23tasi tennis korti, 767tasi futbol, 368tasi mini-futbol (shundan 168tasi sun’iy qoplamali), 770tasi gandbol, 1279tasi voleybol, 1031tasi basketbol maydonlaridir[12]. Viloyat sportchilari tomonidan 2018-yilda respublika musobaqalarida 1652ta (shundan 520ta oltin, 545ta kumush va 587ta bronza), Osiyo chempionati va kubogi bellashuvlarida 91ta (36ta oltin, 23ta kumush va 32ta bronza), jahon chempionati va kubogi bahslarida 57 ta (16ta oltin, 18ta kumush va 23ta bronza) va nufuzli xalqaro turnirlarda 126ta medal (57ta oltin, 40ta kumush va 29ta bronza) qo‘lga kiritildi [13].

2019-yili O‘zbekistonda faoliyat yuritgan sport inshootlari soni 51651tani tashkil etgan, shu jumladan, qishloq joylarda ular 27591 tadan iborat bo‘ldi. Barcha sport inshootlarining bir kunlik quvvati (o‘tkazish imkoniyati) 2136,8 ming kishini tashkil etdi, shundan qishloq joylarida 1037,0 ming kishini tashkil etdi. Mavjud sport inshootlar asosiy qismi 39841ta sport maydoncha va maydonlaridan iborat bo‘lib, sport zallari – 10863ta, stadionlar 417ta, suzish basseynlari 316ta, otish tirlari 142ta, o‘q otish va stendga otish joylari 40ta, manejlar 24ta, otchoparlar soni 8tani tashkil qildi[14].

XULOSA. Xullas, hukumatning sohani taraqqiy ettirishga qaratilgan jiddiy e’tiboridan kelib chiqqan holda uning moddiy-texnika bazasi va moliyaviy ta’minoti yil sayin mustahkamlanib bordi. Ana shu muhim vazifalardan kelib chiqqan holda mamlakatda ko‘pgina zamonaviy sport inshootlari barpo qilindi, ularning soni yildan-yilga asta-sekin ortib bordi. Bu kabi sport obyektlarining barpo etilishi hamda ularning doimiy foydalanishga topshirilishi aholi, ayniqsa yosh avlodning sog‘ligi hamda salomatligini tiklash va muhofaza qilish borasidagi muhim islohotlar sifatida e’tirof etish maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA), M.38-fond, 3-ro‘yxat, 112-yig‘majild, 40-varaq.
2. O‘zMA, M.38-fond, 3-ro‘yxat, 112-yig‘majild, 42-varaq.
3. Samarov R. Chempionlar maktabining yangi binosi / Sport, 2014-yil 18-dekabr.
4. O‘zMA, M.38-fond, 3-ro‘yxat, 112-yig‘majild, 42-varaq.
5. Nuraliyev F. Farzandlari sog‘lom yurt qudratli bo‘lur / Sport yangiliklari, 2014-yil 30-dekabr.
6. O‘zMA, M.38-fond, 3-ro‘yxat, 112-yig‘majild, 345-varaq.
7. Nuraliyev F. Ozod yurt o‘g‘lonlari / Sport yangiliklari, 2014-yil 17-iyun.
8. Niyozov S. 2021-yilgacha 1706 ta yangi sport zali quriladi / Sport yangiliklari, 2014-yil 16-dekabr.
9. O‘zMA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 88-varaq.
10. Hakimov S. Matbuot anjumani o‘tkazildi / Sport, 2017-yil 20-iyun.
11. O‘zMA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 89-varaq.
12. Hakimov S. Samarqandda olimpiada ishtirokchilari soni ko‘payadi / Sport, 2017-yil 31-yanvar.
13. O‘zMA, M.1-fond, 16-ro‘yxat, 34-yig‘majild, 90-varaq.
14. 2019 йилда жисмоний тарбия ва спорт ривожланишининг асосий кўрсаткичлари. – Тошкент: Ўзбекистон Республикаси давлат статистика қўмитаси, 2020. –Б.3.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 3237.001.09

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA GIDRONIM KOMPONENTLI MAQOLLARDA EKVIVALENTLIK MASALALARI

Kayumova Shaxnoza Kobiljonovna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, (PhD)

EQUIVALENCE ISSUES IN PROVERBS WITH HYDRONYMIC COMPONENTS IN UZBEKISTAN AND ENGLISH

Kayumova Shakhnoza Kobiljonovna, Termez University of Economics and Service, (PhD)

ВОПРОСЫ ЭКВИВАЛЕНТНОСТИ В ПОСЛОВИЦАХ С ГИДРОНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Каюмова Шахноза Кобилжоновна, Термезский университет экономики и сервиса, (PhD)

https://orcid.org/0000-0005-0544-6813
e-mail: Shaxnoza.kayumova@.gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi gidronim komponentli maqollarning ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Gidronimlar xalqning tabiatga munosabati va hayot tarzini aks ettiruvchi muhim til birliklaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotda maqollarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan asosiy muammolar, jumladan, madaniy farqlar, metaforik ifodalarning nozik jihatlari va tuzilma tafovutlari ko‘rib chiqiladi. To‘liq, qisman va ekvivalentga ega bo‘lmagan maqollarning tarjima va interpretatsiya usullari tahlil qilinib, ularning madaniyatlararo muloqotdagi ahamiyati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *gidronim, maqollar, tarjima, ekvivalentlik, lingvomadaniyat, metaforik ifoda, madaniy kontekst.*

Abstract: *This article analyzes the equivalence issues of proverbs with hydronymic components in Uzbek and English. Hydronymics are one of the important linguistic units reflecting the attitude of the people to nature and their way of life. The study examines the main problems that arise in the process of translating proverbs, including cultural differences, subtleties of metaphorical expressions and structural differences. Methods of translation and interpretation of proverbs with full, partial and no equivalents are analyzed, and their importance in intercultural communication is highlighted.*

Keywords: *hydronym, proverbs, translation, equivalence, linguistic culture, metaphorical expression, cultural context.*

Аннотация: *В статье анализируются вопросы эквивалентности пословиц с компонентами-гидронимами в узбекском и английском языках. Гидронимы являются одной из важных языковых единиц, отражающих отношение народа к природе и образу жизни. В исследовании рассматриваются основные проблемы, возникающие в процессе перевода пословиц, включая культурные различия, тонкости метафорических выражений и структурные различия. Анализируются методы перевода и интерпретации полных, частичных и безэквивалентных пословиц, подчеркивается их значение в межкультурной коммуникации.*

Ключевые слова: *гидроним, пословицы, перевод, эквивалентность, лингвокультура, метафорическое выражение, культурный контекст.*

KIRISH. Til – bu xalq madaniyatini, tarixini va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim vosita. Har bir millatning o‘ziga xos tafakkuri, hayotiy tajribasi va dunyo haqidagi tasavvurlari uning tilida, ayniqsa, maqollarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Maqollar xalq donishmandligi, hayot tajribasi va qadriyatlarini o‘zida mujassam etgan qisqa va mazmunli iboralardir. Ular avloddan-avlodga o‘tib, milliy tafakkurning shakllanishida muhim rol o‘ynaydi. Gidronim komponentli maqollar suv, daryo, dengiz va boshqa suv havzalari bilan bog‘liq bo‘lib, ular xalqning tabiatga munosabati va hayot tarzini aks ettiradi. Bu kabi maqollar inson hayotining muhim jihatlarini, xususan, chidamlilik, barqarorlik, vaqt va taqdir kabi tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, suv oqimi hayotning davomiyligini va o‘zgaruvchanligini, dengiz esa cheksizlik va noma’lumlikni anglatishi mumkin.

O‘zbek va ingliz tillari turli til oilalariga mansub bo‘lsa-da, ularning folklorida gidronim komponentli maqollarga katta e’tibor qaratilgan. Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillaridagi gidronim komponentli maqollarning ekvivalentlik masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, maqollarni tarjima qilish jarayonidagi qiyinchiliklar, ularning semantik va madaniy xususiyatlari hamda lingvistik tafovutlari o‘rganiladi.

Gidronimlar – suv obyektlari nomlarini ifodalovchi so‘zlar bo‘lib, ular ko‘pincha maqollarda ramziy ma’no kasb etadi. O‘zbek tilidagi “*Tomchi-tomchi yig‘ilsa, dengiz bo‘lur”* maqoli kichik harakatlarning katta natijalarga olib kelishini bildiradi. Ingliz tilida esa *“Little drops make the mighty ocean”* shaklida ekvivalent topiladi. Bu ikkala maqolda ham suv metaforasi orqali sabr va bardoshlilikning muhimligi ifodalangan.

O‘zbek va ingliz tillaridagi gidronim komponentli maqollarni chog‘ishtirganda, quyidagi ekvivalentlik turlarini ajratish mumkin:

To‘liq ekvivalentlik: Mazmun va tuzilish jihatidan bir xil bo‘lgan maqollar. Bu holatda har ikkala tilda ham bir xil tushuncha va ma’no ifodalanadi. Masalan, *“Still waters run deep”* va *“Sokin (Tinch) suvning tagi chuqur”* – har ikkisi ham tashqi sokinlik ortida chuqur ma’no yashiringanligini bildiradi. Bu kabi maqollar madaniyatlararo tushuncha uyg‘unligini ko‘rsatadi.

Qisman ekvivalentlik: Mazmun jihatdan o‘xshash bo‘lib, tuzilishi yoki ifoda usuli farqlanadigan maqollar. Masalan, *“Ko‘p suv oqsa, loyqasi chiqadi”* va *“Time and tide wait for no man”* – har ikkisi ham vaqtning o‘tishi va hayotning davom etishi haqidagi dono fikrni bildiradi. Shuningdek, *“Bir tomchi suvning qadriga yetmagan, bir daryoga zor bo‘lar”* maqoli ingliz tilidagi *“We never know the worth of water till the well is dry”* iborasi bilan qisman mos keladi.

Ekvivalenti yo‘q maqollar: Ba’zi maqollar bir tilga xos bo‘lib, boshqa tilga aniq tarjima qilib bo‘lmaydi. Masalan, *“Daryoning qirg‘og‘ida turib cho‘milish o‘rganilmaydi”* maqoli ingliz tilida aynan muqobili bo‘lmasa-da, *You cannot learn to swim without getting into the water* ifodasi mazmun jihatdan yaqin keladi. Shuningdek, *“Suv kelsa, to‘pig‘ingdan, gap kelsa, boshingdan”* maqoli o‘zbek xalqining og‘zaki ijodi mahsuli bo‘lib, ingliz tilida unga to‘liq muqobil maqol yo‘q.

Bu ekvivalentlik turlari o‘zbek va ingliz tillaridagi gidronim komponentli maqollarni lingvistik va madaniy jihatdan chog‘ishtirish imkonini beradi. Ba’zi maqollar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalentga ega bo‘lsa, ba’zilarining tarjimasi yoki muqobili mazmuniy jihatdan farqlanishi mumkin. Shu sababli, maqollar tarjimasida faqat lingvistik moslik emas, balki madaniy kontekst ham e’tiborga olinishi lozim.

Gidronim komponentli maqollarni tarjima qilishda asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

Madaniy farqlar: maqollarning kelib chiqishi xalqning hayot tarzi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun ularni bevosita tarjima qilish qiyin bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek tilidagi *“Suv kelsa, to‘pig‘ingdan, gap kelsa, boshingdan”* maqoli suvning kutilmagan holatlarga sabab bo‘lishini ifodalaydi, lekin ingliz tilida unga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ekvivalent topish qiyin. Ba’zi maqollarning chuqur ma’no qatlami bor bo‘lib, ularni oddiy tarjima orqali yetkazish qiyin. Masalan, ingliz tilidagi *“Don’t cross the bridge until you come to it”* maqolini o‘zbek tiliga *“Ko‘prik oldiga yetmay turib, uni kesib o‘tishga urinma”* deb tarjima qilish mumkin, lekin bu maqolning metaforik mazmunini to‘liq aks ettirish uchun qo‘shimcha izoh berilishi maqsadga muvofiqdir.

Har bir til o‘ziga xos grammatik va sintaktik xususiyatlarga ega bo‘lib, bu maqollar tarjimasida muammolar tug‘ilishi mumkin. Masalan, o‘zbek

tilida maqollar ko‘pincha qisqa va obrazli bo‘lsa, ingliz tilidagi maqollar ba’zan yanada tushuntirish talab qilishi mumkin. *“Tomchi-tomchi yig‘ilib, daryo bo‘lur”* maqoli qisqa va aniq ifodalangan bo‘lsa, ingliz tilida unga yaqin mazmundagi ibora *“Little drops of water make the mighty ocean”* struktura jihatdan tugallangan gap holatida keltiriladi.

Kontekstga bog‘liqlik: maqollarning ma’nosi u ishlatilgan kontekstga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Masalan, *“Suv ko‘p oqsa, loyqasi chiqadi”* maqolini ingliz tiliga *“When the water flows, the mud settles”* deb tarjima qilish mumkin, ammo bu maqol turli kontekstlarda turlicha talqin qilinishi mumkin.

So‘zma-so‘z tarjimaning noaniqligi: ba’zi maqollar so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o‘z ma’nosini yo‘qotishi yoki chalkashlikka sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, *“Sokin (Tinch) suvning tagi loyqa”* maqolini *“The bottom of still water is muddy”* deb tarjima qilish mumkin, lekin ingliz tilida bu ibora keng qo‘llanilmaydi, shuning uchun *“Still waters run deep”* kabi mos ekvivalent topish muhim hisoblanadi.

Gidronim komponentli maqollarni tarjima qilish jarayonida nafaqat tilshunoslik, balki madaniy kontekstni ham e’tiborga olish zarur. Shuning uchun tarjima jarayonida ekvivalentlarni tanlashda faqatgina lingvistik moslik emas, balki ularning semantik va madaniy ahamiyati ham chuqur o‘rganilishi lozim.

XULOSA. O‘zbek va ingliz tillaridagi gidronim komponentli maqollar xalq donishmandligi va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi. Ushbu maqollarning tarjima va ekvivalentlik masalalarini o‘rganish tilshunoslik hamda tarjima nazariyasi nuqtayi nazaridan muhimdir. To‘liq, qisman yoki umuman ekvivalenti bo‘lmagan maqollar tahlil qilinganida, ularning madaniy kontekstdagi ahamiyatini inobatga olish zarur. Shu sababli, maqollar tarjimasida nafaqat lingvistik, balki madaniy va semantik omillarni ham hisobga olish lozim. Maqollarni tarjima qilish jarayonida so‘zma-so‘z tarjima ba’zan ma’noni buzishi yoki tushunarsiz holga keltirishi mumkin. Shu bois tarjimada kontekstga mos ekvivalentlarni topish va ularning madaniy mazmunini yetkazish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek va ingliz maqollari o‘rtasidagi farqlar har bir xalqning tabiat va hayot tarzi bilan bog‘liq ekanligi, shuningdek, ularning dunyoqarashini aks ettirishini ko‘rsatadi. Demak, gidronim komponentli maqollarni tarjima qilishda faqatgina lingvistik jihatni emas, balki ularning tarixiy, ijtimoiy va madaniy kontekstini ham chuqur o‘rganish lozim. Kelajakda bu mavzu bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar olib borish orqali maqollarning tarjima jarayonini yanada mukammallashtirish va madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish mumkin bo‘ladi. Bu esa tarjima jarayonlarini yanada sifatli qilish bilan birga, milliy va xalqaro madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Baker, M. (2018). In Other Words: A Coursebook on Translation. Routledge.
2. Nida, E. A., & Taber, C. R. (2003). The Theory and Practice of Translation. Brill.
3. Newmark, P. (1988). A Textbook of Translation. Prentice Hall.
4. Lakoff, G., & Johnson, M. (2003). Metaphors We Live By. University of Chicago Press.
5. Курбанбаева, М. (2023). Пословицы и поговорки со схожим значением в русском и узбекском языках и общность народной мудрости. Tamaddun nuri jurnali, 4(43), 15-18.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 398.2:82.0 (043.3)

TURKIY XALQLARNING XALQ OG'ZAKI IJODINI TADQIQ ETISHDA O'ZBEK KUMULYATIV ERTAKLARINING AHAMIYATI

Xolmurodova Olima Abdivaliyevna
Jizzax davlat pedagogika universiteti, Xorijiy tillar fakulteti dotsenti

ЗНАЧЕНИЕ УЗБЕКСКИХ КУМУЛЯТИВНЫХ СКАЗОК В ИССЛЕДОВАНИИ НАРОДНОГО УСТНОГО ТВОРЧЕСТВА ТЮРКСКИХ НАРОДОВ

Холмурадова Олима Абдивалиевна
Джизакский государственный педагогический университет, Доцент факультета иностранных языков

THE IMPORTANCE OF UZBEK CUMULATIVE TALES IN THE STUDY OF THE FOLKLORE OF TURKIC PEOPLES

Kholmuradova Olima Abdivalievna
Jizzakh State Pedagogical University, Associate Professor, Faculty of Foreign Languages

xolmurodovaolima7@gmail.com
https://orcid.org/0000-0001-6256-4037

Annotatsiya: *Mazkur maqola o'zbek xalq og'zaki ijodining muhim qismi bo'lgan kumulyativ ertaklarni hylistik metodologiya asosida o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, hylistik metodologiya yordamida ertaklarning tuzilishi va semantik xususiyatlari chuqur o'rganilib, ularning folkloristik ahamiyati baholanadi.*

Kalit so'zlar: *turkiz xalqlar, kumulyativ ertaklar, kumulyativ tuzilish, janriy xususiyatlar, o'zbek kumulyativ ertaklari, hylistik metodologiya, folklor, didaktik xususiyatlar.*

Annotation: *This article is dedicated to the study of cumulative tales, which are an important part of Uzbek folk oral literature, using a holistic methodology. Additionally, with the help of a holistic methodology, the structure and semantic features of these tales are thoroughly examined, and their folkloristic value is assessed.*

Key words: *Turkic peoples, cumulative tales, cumulative structure, genre characteristics, Uzbek cumulative tales, holistic methodology, folklore, didactic features.*

Аннотация: *Данная статья посвящена изучению кумулятивных сказок, которые являются важной частью устного народного творчества узбекского народа, на основе холистической методологии. Кроме того, с помощью холистической методологии глубоко исследуются структура и семантические особенности сказок, а также оценивается их фольклористическая значимость.*

Ключевые слова: *тюркские народы, кумулятивные сказки, кумулятивная структура, жанровые особенности, узбекские кумулятивные сказки, холистическая методология, фольклор, дидактические особенности.*

Kirish. Kumulyativ ertaklar nafaqat o'zbek, balki dunyo xalqlari ertaklari fondida alohida o'rin tutadi va insoniyat tongida paydo bo'lgan mifopoetik tafakkur mahsuli sifatida baholanadi. O'zbek kumulyativ ertaklari ham asosan hayvonlar haqidagi ertaklar tarkibida qaralib, baholanib keladi, ularning rang-barang shakllari va poetik qurilmasi tinglovchi-yu tadqiqotchilarni o'ziga rom etadi. Qariyb bir asrga yaqin vaqt oralig'ida amalga oshirilgan o'zbek xalq ertaklarining turli-tuman nashrlariga nazar

tashlaydigan bo‘lsak, ularning barchasida kumulyativ ertak namunalarini uchratamiz. Ammo bu namunalar alohida jamlanib, bir tizimda qaralib chop etilgan emas. Shu sababli biz birinchi galda bu xil ertaklarni ajratib umumiy ro‘yxatini keltirishni lozim topdik. Tartib berilayotgan ro‘yxatimiz mukammallikka da'vo qilmaydi, lekin ushbu sanoqning o‘zi ham kumulyativ ertaklarning umumo‘zbek ertaklari fondidagi mavqei salmoqli ekanligini ko‘rsatadi, ular haqida kerakli tasavvurni uyg‘otadi. O‘zbek xalq kumulyativ ertaklarining mavjud nashrlardagi namunalari quyidagilar: “Tuxumboy bilan Buyrakboy”, “Qumursqa polvon”, “Uch echki”, “Susambil”, “Bit o‘ldi – burga azador bo‘ldi”, “Bo‘z bola”, “Oyjamol bilan kal”, “Bo‘ri bilan mergan”, “Chivinboy”, “Chu-chu mekunam”, “Qo‘ng‘iz bikach”, “Och bo‘ri”, “Tulki bilan bo‘ri”, “Tulkiboy”, “Qarg‘a bilan qo‘zi”, “Bo‘ri bilan mergan”, “Bo‘ri bilan tulki”, “Kampir bilan shaqol”, “Jasur chol”, “Oltmish og‘iz yolg‘on”, “Noshud bola”.

Kumulyativ ertaklarni sirtdan kuzatish davomida ham ularga xos quyidagi xususiyatlarni alohida ajratib sanash mumkin:

- Kumulyativ ertaklar tuzilishining zanjirli ko‘rinishga ega ekanligi.
- Ertak qahramonlarining hayvonlar, turli buyum, ashyolar va qisman odamlardan iboratligi.
- Ertak matnida formula shaklini olgan savol-javoblarning muhim o‘rin tutishi.
- Matn tarkibida she'riy qismlarning alohida o‘ringa egaligi.
- Ertak kompozisiyasi boshlama, zanjirli tavsif va xotimadan tashkil topishi.
- Majoziylik va ramziylikning ustuvor ko‘rinish olishi.
- Shartlilikning asosiy usul sifatida namoyon bo‘lishi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. *Matn tarkibida she'riy qismlarning alohida o‘ringa egaligi.* Kumulyativ ertaklarning aksariyat qismida qahramonlar dialogida she'riy parchalar keladi. Umuman, o‘zbek xalq ertaklarida she'riy parchalar mavjud namunalarning aksariyat qismi kumulyativ ertaklar hisobiga to‘g‘ri keladi.

“Qo‘ng‘iz bikach” ertagida ham personajlar savol-javobi she'riy shaklda berilganligini ko‘rishimiz mumkin[1].

Folklorshunos G‘.Jalolov ertaklar tarkibida keluvchi qo‘shiqlar va ularning ertak syujetidagi vazifasi borasida quyidagi fikrni yozadi: “Qo‘shiqlar ertaklar syujetida maqol va topishmoqlar singari hal qiluvchi, voqealarni birlashtiruvchi vazifani o‘tamaydi, ularning emotsional xususiyatlarini kuchaytirish, badiiy tasvir kuchini oshirish, xarakterlar orasidagi munosabatlarni dialog (lapar kabi) formasida bayon etish, qahramonlarning lirik holati, kechinmalarini ochib berish uchun qo‘llaniladi”[2].

Olimning fikrini davom ettirib yana aniqlik kiritish kerak bo‘ladi. Qo‘shiqlarning ertak syujetidagi o‘rni ham muhim. Ular faqat qahramon “kechinmalarini ochib berish uchun qo‘llaniladi” deb baholash qo‘shiqlarning badiiy qimmatini kamaytirish bo‘ladi. Ular ertak dramatizmining ortishiga, mazmunning to‘liq ifoda topishida, voqealar tafsilotini aniq ifodalashda ham muhim rol o‘ynaydi.

O‘zbek kumulyativ ertaklarda ko‘p uchratish mumkin bo‘lgan she'riy parchalar haqida Komiljon Imomov quyidagi fikrni keltiradi: “Ertaklarda lirik ohangni kasb etgan she'riy parchalar obraz ruhiyatini belgilab, voqelikka munosabatini oydinlashtiradi. Asosiy vazifasi e'tiborni tortish va estetik zavq berish vazifasini ado etadi”[3], – deb yozadi.

Bugungi kunda bolalar folklori tarkibida bolalar qo‘shiq namunasi sifatida qaraluvchi aksariyat zanjirli tuzilishli qo‘shiqlarning, aslida, kumulyativ ertaklar tarkibida kelganligini ko‘rishimiz mumkin. Lekin vaqtlar o‘tishi davomida ertak unutilib, faqat qo‘shiqlargina saqlanib qolganligi faktlariga duch kelinadi. Ammo bu qo‘shiqlarning boshqa hududlarda saqlangan ertak variantlarining uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi. Folklorshunos A.Musaqulov “O‘zbek xalq lirikasi” kitobida shunday qo‘shiqlardan birini keltirib, bu qo‘shiqning tarixiy ildizlari haqida o‘z fikrini bayon etadi.

[1] O‘zbek xalq ertaklari. Birinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.75.

[2] Jalolov G‘. O‘zbek folklorida janrlararo munosabat. – Toshkent: Fan, 1979. – B.133.

[3] Imomov K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.166.

Turkiy xalqlar tarixida ayiq totemi ham juda rivojlangan. Shuningdek, etnografik adabiyotlarda bir totem vakillari dushmanlik maqsadida boshqa guruh totemlarini olganliklari aytiladi.

Olimlar fikricha, qadimda bir urug‘dan tarqalgan turli aymoq vakillari fratiriylarga birlashganlar. Bunda bosh urug‘ va unga yaqin urug‘lar totemlari bo‘yicha ham birlashganlar. Shuningdek, urug‘lar birlashmasi bilan boshqa birlashma o‘rtasida doimiy ziddiyat mavjud bo‘lib, **biz** tushunchasi doimo **ular**ga qarshi qo‘yilgan. Ana shu jihatlardan qaralsa, qo‘shiqdagi ayiq bosh urug‘ totemi, bo‘ri, tulki fratriy totemlar, qashqir dushman totem ifodasidir”[4].

Olim bu qo‘shiqning ertak tarkibida kelishidan bexabar bo‘lgan. Yozib oluvchi ham, aytuvchi ham qo‘shiqning ertak sifatida amalda bo‘lganligini bilmagan bo‘lishlari kerak. Aytuvchi ham ertakni unutgan avlod vakili sifatida ertakdan butkul bexabar o‘sgan bo‘lishi mumkin. Ammo ushbu qo‘shiqni folklorshunos Sh.Turdimov Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumani To‘ra qishlog‘ida yashagan Vazifa momodan 1985-yili yozib olgan “Tulki” nomli kumilyativ ertak tarkibida to‘liq holda kelishi vaziyatga oydinlik kiritadi.

Muhokama. Kumulyativ ertaklarning vaqtlar o‘tib unutilishi sababli ulardagi qo‘shiqlarning bolalar qo‘shig‘i sifatida saqlanib qolishiga misollar ancha. Shunday misollardan biri “Tulkichak” qo‘shig‘idir. “Tulkichak” qo‘shig‘ining variantlari o‘zbek va qoraqalpoq bolalar folklor namunalari orasida mashhur. Qo‘shiqning bir necha qoraqalpoq variantlari chop etilgan[5].

“Tulkichak” qo‘shig‘ini “Jovur chol” ertagi tarkibida mukammal ko‘rinishda o‘qiymiz. Ertakni 1948-yili Samarqand viloyati Qo‘shrabot tumanining Qoraksa qishlog‘ida yashovchi qissaxon baxshi Rahmatulla Yusuf o‘g‘li folklor arxiviga (Inv. № 1090) yozib topshirgan, ertak “O‘zbek xalq ertaklari” to‘plamida nashr etilgan [6]. Ertakda tulkining Jovur cholga o‘g‘il bo‘lishi, barcha yumushlarini bajarishi va tunda uydan chiqib ketayotgan vaqti Jovur chol va tulki o‘rtasida ayni qo‘shiq varianti savol-javob shaklida kelishini ko‘ramiz[7].

Natijalar. Ertak tarkibidagi qo‘shiq shu bilan yakun topadi. Bu ertak alohida tadqiq etishni talab qiladi va biz muammomiz qamrovidagina fikr yuritdik, xolos. Demak, bugungi kunda bolalar folkloridagi aksariyat zanjirli qo‘shiqlarning u yoki bu jihatdan kumulyativ ertaklar bilan bog‘liqligi alohida o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalar sirasiga kiradi. Umuman, kumulyativ ertaklarning bolalar folklori namunalari tarkibida o‘rganilishi va yosh bolalar nutqining rivojlanishida bu namunalarning misol tariqasida qo‘llanilishi bejiz emas. Chunki ulardagi iboralar, qo‘shiqlar, dialoglar sodda va ohangdorligi bilan bolalar nutqining rivojlanishida, obrazli fikrlash ko‘nikmalarining shakllanib rivojlanishida katta o‘rin tutadi.

Bu o‘rinda folklorshunos V.P.Anikinning: “Bolalarning ona va buvalaridan eshitadigan birinchi ertagi kumulyativ ertaklardir. Bu ertaklardagi zanjirsimon, savol-javobli uslub, bir turdagi epizodlar bolaning diqqatini jalb qiladi va uncha katta bo‘lmagan ertak matnini bolalar tezda eslab qolishadi. Kumulyativ ertaklardan keyingina bola hayvonlar haqidagi ertaklar, sehrli ertaklar va topishmoqlarni bila boshlaydilar”[8], – deb bildirgan fikri muhim.

Tadqiqotchi T.V.Zueva ham ertaklarda kumulyativ kompozitsiya, ya'ni zanjirli bog‘lanishlar tamoyiliga asoslangan qurilishda bir xil o‘zgarmaydigan motivning har gal yangi yo‘nalish orqali bog‘lanishi ortib borishiga e'tibor qaratadi. Kumulyativ strukturaga ega ertaklar syujeti turli takrorlanish va bog‘lanishlardan iborat bo‘lib, ba'zan savol-javobli, she'riy, matnli tuzilishda bo‘ladi. Bu tur ertaklarning yana bir jihati ularda bog‘lanishlar zanjirni hosil qilishidir deb ko‘rsatadi[9]. Bir so‘z bilan

[4] Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B.61.

[5] ***Әмирлан Сейдин Елсүйер улының*** **дала жазыўлары:** 2000-жыл, 3-январь. Информант: Болық Ешполат қызы, 1920-жылы туўылған, миллети: қарақалпақ (қытай ~ қайшылы ~ мәжек). Мәнзил: Таўелибай үлкеси, Үшқудық қаласы, 12 мкр., 26-жай, 9-үй.

[6] O‘zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.5-8.

[7] O‘zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov,Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.7.

[8] Аникин В.П. Русское устное народное творчество: учеб. – М.: Высш. шк., 2001. – С.558.

[9] Зуева Т.В. Русский фольклор : учеб. для высш. учеб. зав. 5-е изд. – М.: Флинта, Наука, 2003. – С.82.

aytilsa, kumulyativ ertaklar syujetidagi zanjirda dialoglar va ulardagi she'riy qismning o‘rni alohida vazifasiga barcha tadqiqotchilar diqqat qaratishgan.

Kumulyativ ertaklarning semantikasiga bag‘ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam ekanligini ta’kidlash kerak. Bu borada “Tuxumboy bilan Buyrakboy” ertagi mazmuni haqida “Borsa kelmasdagi xazina”[10] maqolasini ta'kidlash o‘rinli. Muallifning: “Tuxumboy bilan Buyrakboy” ertagining timsoliy mazmunni ramziy obrazlar ifodalagan ma'no zanjiridan kelib chiqmoqda. Ya'ni “Bor tiriklik urug‘da “buyrak” bo‘lib uxlaydi, “ona” botiniga o‘tib, quvvat olib unadi, kamol topadi va yana urug‘ga qaytdi” deb anglash mumkin. Ushbu mazmun tom ma'noda bilim, xalqona falsafiy xulosadir va undan ertakning boshqa semantik sathlariga chiqish mumkin. Ertak qurulmasidan ruhiy-ma'naviy sathga o‘tilsa, insonning kamolot bosqichlari ham urug‘ – turli holat, kechinmalar, ko‘nikma va qoliplar doirasini yorib yangi mazmundagi voqelikka o‘tish barobarida so‘nggi manzilga yetgungacha davom etishini anglatadi. Bolalar folklori namunalari – og‘zaki ijodning eng ko‘hna, teran ma'no qatlamlariga ega xazina, ularni shunchaki bolalar qo‘shig‘i, aytimi, o‘yini, ertagi deb qarash tadqiqotchini adashtiradi. Aksincha, ko‘plab janrlar ibtidosi, xalqimizning mifologik dunyoqarashlari, tafakkur iqlimlarining javharini ana shu xazinadan topish imkoni mavjud. “Tuxumboy bilan Buyrakboy» ertagi bu holatga yorqin misol”, – deb yozishi ertak mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Bu xil tadqiqotlarning kumulyativ ertaklarning barcha namunalari asosida yaratilishi har bir xalqning mifopoetik tafakkurini tadqiq etish ikonini beradi.

Shartlilik barcha san'at namunalari, xususan, folklor asarlarini qabul qilish, anglash va talqin etishda muhim o‘rin tutadi. Shu sababli barcha kumulyativ ertaklar shartli qabul qilinadi, anglanadi, shartliliksiz bu ertaklar anglamsiz qolishi tayin. Kumulyativ ertaklardagi shartlilik alohida tadqiq etiluvchi muammolarning biri ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek xalq ertaklari. Birinchi kitob / Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.75.
2. Jalolov G‘. O‘zbek folklorida janrlararo munosabat. – Toshkent: Fan, 1979. – B.133.
3. Imomov K. O‘zbek xalq nasri poetikasi. – Toshkent: Fan, 2008. – B.166.
4. Musaqulov A. O‘zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 2010. – B.61.
5. Əmirlan Seydin Elsγyer ulinің dala jazio‘lari: 2000-jil, 3-yanvar. Informant: Boliq Eshpolat qizi, 1920-jili tuo‘ilg‘an, milleti: qaraqalpaq (qitay ~ qayshili ~ məjek). Mənzil: Tao‘elibay γlkesi, Yshqudiq qalasi, 12 mkr., 26-jay, 9-γy.
6. O‘zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob/Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.5-8.
7. O‘zbek xalq ertaklari. Uchinchi kitob/Tuzuvchilar: M.Afzalov, X.Rasulov, Z.Husainova. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – B.7.
8. Аникин В.П. Русское устное народное творчество: учеб. – М.: Высш. шк., 2001. – С.558.
9. Зуева Т.В. Русский фольклор : учеб. для высш. учеб. зав. 5-е изд. – М.: Флинта, Наука, 2003. – С.
10. Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina // Maktabgacha tarbiya. – Toshkent, 2000. – B.46.
11. Xolmurodova, O. (2021). DEVELOPING ENGLISH LANGUAGE SKILLS THROUGH FAIRY TALES . Журнал иностранных языков и лингвистики, 2(4). извлечено от https://history.jspi.uz/-index.php/fll/article/view/999
12. Kholmurodova, O. A. (2019). COMPARATIVE ANALYSES OF UZBEK AND ENGLISH CUMULATIVE FAIRY TALES. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 8(10), 59-73. DOI: http://dx.doi.org/10.0001/ijllis.v8i10.1976

[10] Turdimov Sh. Borsa kelmasdagi xazina // Maktabgacha tarbiya. – Toshkent, 2000. – B.46.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 89331.729:8930.3

CHET TILIDA NUTQ GRAMMATIKASINI O‘QITISH MUAMMOLARI VA O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Amirqulova Dilnoza Bahriddin qizi, Navoiy davlat universiteti 2-kurs tayanch doktoranti

PROBLEMS AND SPECIFIC CHARACTERISTICS OF TEACHING SPEECH GRAMMAR IN A FOREIGN LANGUAGE

Amirkulova Dilnoza Bahridin kizi, Navoiy State University 2nd year foundation doctoral student

ПРОБЛЕМЫ И ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ ГРАММАТИКИ РЕЧИ НА ИНОСТРАННОМ ЯЗЫКЕ

Амиркулова Дилноза Бахридин кызы, докторант 2-курса Навоийского государственного университета

https://orcid.org/ 0009-0005-9925-4602
e-mail: wdilnoz1994@gmail.com

Annotatsiya: *Muloqot jarayonida nutq grammatikasini o‘qitish o‘quvchilarning grammatik qoidalarni to‘g‘ri tushunishi va muloqotda qo‘llay olish qobiliyatini shakllantiradi. Ammo, bu jarayonda ko‘plab qiyinchiliklarga duch keladi, jumladan, grammatik interferensiya, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovut, o‘quvchilarning motivatsiyasi yetishmasligi va darsliklarning moslashuvchan emasligi. Maqolada ushbu muammolarni bartaraf etish yo‘llari, jumladan, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va moslashuvchan ta’lim vositalaridan foydalanish usullari yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *Nutq grammatikasi, chet tili, grammatik interferensiya.*

Abstract: *Teaching speech grammar in the process of communication forms the ability of students to correctly understand grammatical rules and apply them in communication. However, this process faces many difficulties, including grammatical interference, the gap between theory and practice, lack of motivation of students, and inflexibility of textbooks. The article discusses ways to overcome these problems, including the use of a communicative approach, interactive methods, and flexible teaching aids.*

Keywords: *Speech grammar, foreign language, grammatical interference.*

Аннотация: *Обучение грамматике речи в процессе общения развивает у учащихся умение правильно понимать грамматические правила и применять их в общении. Однако этот процесс сталкивается со многими трудностями, включая грамматические помехи, разрыв между теорией и практикой, отсутствие мотивации у студентов и негибкие учебники. В статье рассматриваются пути преодоления этих проблем, в том числе использование коммуникативного подхода, интерактивных методов и гибких средств обучения.*

Ключевые слова: *грамматика речи, иностранный язык, грамматическая интерференция.*

KIRISH. Chet tilda nutq grammatikasini o‘qitish o‘quvchilarda chet tilini amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, bu jarayon ko‘plab muammolar va qiyinchiliklar bilan birga keladi. Shuningdek, nutq grammatikasi o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari ta’lim jarayonining o‘ziga mos yondashuvlarini talab qiladi. Bunday interferensiya til o‘rganuvchining ona

tili va o‘rganilayotgan til o‘rtasidagi grammatik farqlardan kelib chiqadi. Grammatik interferensiya natijasida, o‘rganilayotgan tilning grammatik qoidalari ona tili grammatikasiga moslashtiriladi va bu tilning qoidalariga zid bo‘lishi mumkin. Bu holat, asosan, so‘z tartibi, fe’l shakllari yoki artikllar noto‘g‘ri qo‘llanishida namoyon bo‘ladi.

Chet tilida nutq grammatikasini o‘qitishning o‘ziga xos xususiyatlari.

1. **Nazariya va amaliyot tafovuti:** Grammatik qoidalar nazariy jihatdan yaxshi tushuntirilsa-da, o‘quvchilar ularni real muloqotda qo‘llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Nutq grammatikasini o‘qitish, o‘quvchilarning qoidalarni nazariy ravishda o‘rganishidan tashqari, ularni real muloqotda qo‘llash imkonini yaratishdir. Masalan, o‘quvchilarni suhbat va rolli o‘yinlarga jalb qilish orqali grammatik qoidalarni mustahkamlash.

Preview:



Masalan: She have book. Artikl tushib qolishi hamda “have” fe’lining III shaxsga moslashmaganligi.

2. **O‘quvchilarning motivatsiyasi yetishmasligi.** Grammatikani o‘rganish ko‘pincha zerikarli deb qabul qilinadi, bu esa o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini pasaytiradi. **Til o‘rganish jarayonida o‘quvchilarimizni yetarli miqdorda rag‘batlantirmaganimiz, yoki oddiy xatolariga ham baholarni pasaytirib qo‘yishimiz sabablardan biri bo‘lib ko‘rinishi mumkin.**

Masalan, dars davomida o‘quvchilarimizni oddiygina bunaqa ko‘rinishdagi rag‘bat kartochkalari bilan ham rag‘batlantirib borishimiz mumkin.

Bu baholash kartochkalari yordamida o‘quvchilarga hozirgi yangi baholash tizimi bo‘yicha, ya’ni kunlik formative baholarini yig‘ish tartibini o‘rgatadi, o‘quvchi dars davomida necha ball olganini o‘z ko‘zi bilan ko‘rib turadi.

3. **Qisqa vaqt va resurslarning yetishmasligi.** Chet tili darslarida grammatika va nutq ko‘nikmalarini bir vaqtda rivojlantirish uchun vaqt va qo‘shimcha materiallar yetarli bo‘lmasligi mumkin. Darsliklardagi ma’lumotlardan tashqari mavzu doirasida kunlik tarqatma materiallar, mavzuga aloqador ko‘rgazmalar tayyorlab dars davomida o‘quvchilarda bo‘sh vaqt bo‘lib, ularning fikri chalg‘ishiga yo‘l qo‘yilmasligiga alohida e’tibor bermog‘imiz darkor.

Masalan: Bu kabi boshqotirmalar ham o‘quvchilarni darsga qiziqtiradi hamda diqqatini jamlab, darsga kirishib olishga yordam beradi.

3. Interaktiv darslar. Nutq grammatikasini o‘rgatishda texnologiyalar va interaktiv vositalardan foydalanish, masalan, video darslar, onlayn platformalar, o‘yinlar orqali darslarni qiziqarli qilish mumkin. Masalan, ingliz tilidagi video va podkastlarni tinglash va ular asosida muhokama o‘tkazish.

Masalan: o‘quvchilarga biron mavzuni tushuntirib bo‘lingandan so‘ng, ular bilan o‘sha mavzuga taalluqli bo‘lgan debatlar, davra suhbatlari olib borilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi.



4. O‘zaro feedback (qayta aloqa): O‘quvchilarning grammatik xatolariga e’tibor qaratib, ularni tushuntirish va tuzatish jarayoni yumshoq va konstruktiv bo‘lishi kerak.

Chet tili nutqining grammatik tomonini o‘rgatish muammolari va xususiyatlari.

Chet tilidagi nutqning grammatik tomonini o‘rganish chet tilini o‘zlashtirishda murakkab, ammo muhim jihatdir. Grammatika to‘g‘ri jumlalarni yaratish uchun tizimli asosni ta’minlaydi va fikringizni og‘zaki va yozma tilda samarali ifodalashga yordam beradi. Biroq, uning rivojlanish jarayoni bir qator muammolar bilan birga keladi va o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olishni talab qiladi:

- Grammatikani o‘qitish muammolari;
- Ona tilidan o‘tkazish.

Til o‘rganuvchilar ko‘pincha grammatik tuzilmalarni ona tilidan chet tiliga o‘tkazadilar, bu esa xatolarga olib keladi.

Misol: ona tilida so‘zlarning tartibi ingliz tiliga qaraganda erkinroq bo‘lib, bu gaplar tuzishda xatoliklarga sabab bo‘lishi mumkin (“Kecha men kino ko‘rdim” o‘rniga “Kecha kino ko‘rdim”). Ingliz tilida esa gapda so‘zlarning o‘rnini o‘zgartira olmaymiz. “I watched the movie yesterday” shaklida bo‘ladi.

XULOSA. Ingliz tilida nutq grammatikasini o‘qitish, nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki ularni amalda qo‘llash ko‘nikmasini shakllantirish samarali bo‘ladi. Dars jarayonida kontekstual va

kommunikativ yondashuvlarni qo‘llash, zamonaviy o‘quv vositalaridan foydalanish va individual yondashuvlarni tanlash orqali bu jarayonni yanada samarali qilish mumkin. Ushbu metodlar o‘quvchilarning grammatikani muloqotda tabiiy va ravon qo‘llashiga yordam beradi. Ingliz tilida nutq grammatikasini o‘qitish jarayoni ko‘plab muammolarga qaramay, til o‘rganuvchilarning til ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayonni samarali tashkil qilish uchun interaktiv yondashuvlar, shaxsiylashtirilgan metodlar va kontekstual ta’limda qo‘llanilishi darkor. Bu usullar grammatikani faqat nazariy bilim sifatida emas, balki amaliy ko‘nikma sifatida ham o‘zlashtirilishini ta’minlaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abdug‘afurovich, R.B. (2022). Innovation Technologies in Teaching English. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(6), 288-291.
2. Dilafruz Xidoyatova. Samarali interaktiv metodlar. 1.0. Toshkent. Vneshinvestprom-2023. Pp-177-181.
3. Hoshimov O‘.H., Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o‘qitish metodikasi.-Toshkent, 2003-yil.
4. Khodjayev, K.K. (2021). The specificity and complexity of the process of learning English. International Journal on Orange Technologies, 3(6), 21-24.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 81-2

XORAZM VOHA FOLKLORI TILIDAGI ERONIY O‘ZLASHMALARDA AYRIM FONETIK HODISALAR

Jumanyazova Muxabbat Xusinovna, Abu Rayhon Beruniy nomidagi UrDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

SOME PHONETIC PHENOMENA IN IRANIAN LOANWORDS IN KHOREZM OASIS FOLKLORE LANGUAGE

Jumanyazova Mukhabbat Khusinovna, Associate Professor of the Abu Rayhan Beruniy Urdu State University, Candidate of Philological Sciences

НЕКОТОРЫЕ ФОНЕТИЧЕСКИЕ ЯВЛЕНИЯ В ИРАНСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЯХ ФОЛЬКЛОРНОГО ЯЗЫКА ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА

Джуманьязова Мухаббат Хусиновна, доцент Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни, кандидат филологических наук

https://orcid.org/0000-0002-2471-5823
e-mail: muxabbat.j@urdu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Xorazm vohasi folklori tilidagi eroniy o‘zlashmalarda uchraydigan ayrim fonetik hodisalar tahlil qilinadi. Unda Xorazm xalq qo‘shiqlari, doston va maqollari leksikasidagi eroniy o‘zlashmalardagi tovush tushish hodisalarining tarixiy ildizlari xususidagi fikrlar misollar bilan bayon etiladi.*

Kalit so‘zlar: *Xorazm vohasi, folklor, xalq qo‘shiqlari, doston, maqol, eroniy o‘zlashma, qator undosh, tovush tushishi, sheva, adabiy til.*

Qastı-ǵárezi, Aybiyke menen tillesiw hesh bolmasa qız jeńgesi Aymerekeni kórip, onıń *awzın iyiskew*. (Terbenbes 196-b) Bunda sınap kóriw, qıyalın bilmekshi bolıw gáp alıw sıyaqlı mánilerin bildirip tur.

Olarǵa qalay *awız salsın*, erbiyisken jas sozaq-seksewildiń japıraǵın jalmap, shaqaların shaynap kórip edi, - yaq, záhár bunday bolmas!!! (Terbenbes 9-b) Mısaldaǵı «awız salıw» frazeologizmi joq qılıw, qatardan shıǵarıw mánilerinde kelgen. Jáne de QTTS 1 tomlıǵında [3.122] «awız salıw» tislew, umtılıw, julıp alıp, ekinshi birewge orınsız urısıw degen mánileri de bar.

«Aǵası Hákimniń oǵın óshirmedi, inilerin xalıq qatarına qostı» dep tolıq *awız toltırıp aytıwǵa* boladı. (Terbenbes 137-b) Bundaǵı «awız toltırıp aytıw» frazeologizmi tiykarınan, maqtanıw degen máni menen birge adamnıń minez-qulqın unamsız tárepin maqtanshaqlıq, sútxorlıq mánilerin ashıp beriwde qollanıladı.

Toydıń qızıǵınan keshigip qalıp *awzı pisken* Ámet búkir, ortadaǵı ǵıjlap turǵan tomarǵa alaqanın tosıp…(Terbenbes 131-b) Bundaǵı «awzı pisken» frazeologizmi pánt jew, aldanıw degen mánilerdi bildirse, xalıq arasında «awzı kúygen qatıqtı da úplep ishedi» degen naqıl mánisi de usıǵan únles.

Xalıq dep, xalıq ushın isleymen, aǵa! – dep Arzımbettiń ózi qatarlı bolsa da, *awzı-awzına juqpay* «aǵalap» juwqıldaǵanı Lepeske jaǵıńqıramasa da «xalıq ushın » degen lebizi onı isendirgendey boldı. (Terbenbes 241-b) Bunda frazeologizm kóp sóyleytuǵın degen mánini bildirse, oǵan *awzı bir tınbaw* frazeologizmi variant bola aladı. Bunday

frazeologizmlerdi insannıń minez-qulqın is-háreketi arqalı beriwde yaǵnıy adamnıń kóp sóylew is-háreketi menen kórsetiledi.

Men bilemen onı, bolmasa nege kesheden berli *awzına qum quyıp*, dım úndemeydi. (Terbenbes 26-b) «Awzına qum quyıw» frazeologizmi J.Eshbaevtıń sózliginde: [1.47] sóylemew, úndemew, sóyletpew, úndetpew sıyaqlı mánileri berilgen.

«Usınday úyi túwe, qoymasına da qulıp urmaytuǵın hámme ózimdey» dep isenetuǵın, *awzın ashsa ókpe-júregi teńdey kórinetuǵın* xalıqqa da úsiytip!? (Terbenbes 94-b) Bunda «awız » komponentli somatikalıq birlik «ókpe» hám «júrek» komponentleri menen birge qollanılǵan. Tiykarınan, adamlardıń aq kókirek, ańqıldaq, sumlığı joq minezin ashıp beriwde qollanıladı.

Er adam hám hayal-qızlarǵa baylanıslı paydalanılatuǵın frazeologizmlerde de olardıń unamlı hám unamsız kelbeti kórinedi. Ayırım somatikalıq frazeologizmler kóbirek hayal-qızlar tilinen qollanılǵanın kóriwimiz múmkin. Ásirese, bunday jaǵdaylar shıǵarma qaharmannıń tiykarǵı obrazın ashıp beriwde áhmiyetli rol oynaydı. Mısalı: Nárestenıń izinshe-aq baqırǵan dawısı esitken adamnıń jeti júyesinen ótip ketetuǵın kelini «atam bar eken-aw, namaz oqıp otır eken-aw», demesten, uyat joq, balasınıń sıyraǵınan súyrep, «*awzına aq iyt kirip, qara iyt shıǵıp*» alıp ketti. (Terbenbes 172-b) bunda « urısıw, jaman sózlerdi aytıp baqırısıw, ǵarǵaw» [1. 17] mánisindegi frazeologizm qaharmannıń xarakterin ashıp beriwge xızmet qiladı, jáne de onıń minez-qulıqtağı, awzı jaman, patas, turpayı hayal ekenligin kórsetip beredi. [8. 85]

«Bay izlep baratır » deydi *awzı bos* birewler. (Terbenbes 50-b) Bunda berilgen frazeologizm awızında sóz turmaytuǵın, kóp sóyleytuǵın, ósekshi degen mánilerin bildirip, adamnıń minez-qulqın is-háreketi arqalı ashıp beriwde qollanıladı.

Sebebi, el biylegen biylerinıń *awzı bir* emes edi. (Terbenbes 5-b) Mısaldağı *awzı bir* frazeologizminıń tiykarǵı mánisi wádelesiw, kelisip alıw, sırlas bolıw mánilerin menen keledi, biraq joqarıdağı mısalda bolsa bolımsız máni bildirip tur.

Xalıq dep, xalıq ushın isleymen, aǵa! – dep Arzımbettiń, ózi qatarlı bolsa da, *awzı-awzına juqpay* «aǵa» lap juwqıldağanı Lepeske jaǵıńqıramasa da «xalıq ushın» degen lebizi onı isendirgendey boldi. (Terbenbes 241-b) Bunda, Q.Paxratdinov hám Q.Bekniyazovlar: [5.17] awzı-awzına juqpaw- kóp sóyledi, mıjıdı degen mániste berilgenligin kórsetedi. *Awzı-murnıńdı bılshıtpay* otır jónińe, gúm bol, osharıl! (Terbenbes 146-b)

Bundağı frazeologiyalıq máni – pámsiz sóz, ne bolsa sonı sonı aytıw, mazmunsız sóylew mánilerinde kelgen.

Awzıńa qarap sóyle, aja-ǵaa! (Terbenbes 147-b) bul mısaldağı frazeologizm itibar menen, oylanıp sóylew semaların bildirip tur.

«Óz úyim – ólen tósegim» degendey, ózge jer *awzıńnan pal aǵızıp*, átkónshekke salıp shayqap otırsa da kindik qanıń tamıp, jetilgen óz oshaq basıńa hesh nárse jetpeydi. (Terbenbes 42-b) *Awzınan pal aǵızıp* frazeologizmi mol-kólshilik, barlıq shárayattı jaratıw mánisinde jumsalǵan.

Apa, onda sizler sóylesip otıra beriń, men oshaqqa dúmshe qoyıp keleyin, - baydıń *qurı awız* ketejaqlığınan qısınıp, gápke Jaqsımurat suǵılıstı. (Terbenbes 222-b) Mısaldağı qurı awız frazeologizmi hesh nárse jemesten ketiw, awqatlanbay ketiw mánilerin bildiirp kelgen.

- Qutqaradı, jası ullı…
- *Awzıńa may*, ilayım! Sizler jassız-ǵoy, mıń aytqan menen de jassız. 49-b.

Joqarıdağı mısalda kelgen frazeologizm qaraqalpaq tilinde birewge aytqan pikiri ya jańalığına, jaqsı niyetine tilekles bolǵan jaǵdayda onı qollap-quwatlaw maqsetinde awzıńa may somatikalıq frazeologizmi etiket sóz xızmetinde qollanılsa, al qazaq tilinde bolsa, awzıńa may, astıńa tay variantları qollanıladı dep keltirip ótken. [6.362] Al, ulıwmalıq mánisi bolsa aytqanıń kelsin, degeniń bolsın mánilerin bildiredi.

Juwmaq. Juwmaqlap aytqanda, hár bir jazıwshı frazeologizmlerden paydalanıwda ózine tán ózgeshelik hám stil dóretedi. Kórkem sóz sheberi Q.Mátmuratov «Terbenbes» romanında somatikalıq frazeologizmlerdi ekspressivlik mániniń kúshliligine qaray sheber qollana bilgen. Maqalada keltirilgen awız dominantlı somatizmi menen keletuǵın frazeologizmler shıǵarmada oǵada ónimli qollanılǵan. Jáne de buǵan qosımsha retinde, Q.Paxratdinov hám Q.Bekniyazovlardıń miynetinde [4.16] 195 den aslam awız komponentli somatikalıq frazeologizmlerdiń túsindirmesi keltirilgen.

Demek, somatikalıq frazeologizmlerdi kórkem shıǵarmalarda, qaraqalpaq folklorında poeziyalıq qatarlarda jiyi qollanıladı. Házirgi waqıtta

TAMADDUN NURI

qaraqalpaq tilinde somatikalıq frazeologizmlerdi hár túrli aspektlerde izertlew xalıqtıń milliy mádeniyatınıń uzaq ásirlik tamırın, tilde óz sáwleleniwi menen saqlanıp qalǵanlıǵın ańlawǵa tiykar boladı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar

1. Aynazarova G. Qaraqalpaq tilinde teńles eki komponentli frazeologizmler sózligi. – Nókis.: «Ilimpaz», 2023, 17-b.
2. Ешбаев Ж. Қарақалпақ тилиниң қысқаша фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис, «Қарақалпақстан», 1985. – Б. 47.
3. Қарақалпақ тилиниң түсиндирме сөзлиги. I том. Нөкис.: «Қарақалпақстан», 1982. – Б. 122.
4. Mátmuratov Q. Terbenbes – Nókis:. «Qaraqalpaqstan», 2023, 320-bet.
5. Пахратдинов Қ, Бекниязов Қ. Қарақалпақ тилиниң фразеологиялық сөзлиги. – Нөкис.: «Qaraqalpaqstan», 1985. – Б. 117.
6. Shınnazarova S. Túrkiy tillerde somatikalíq frazeologizmlerdiń salístírmalí analizi «Jaǵa Ózbekstan - Úshinshi renessans» uranı astında xalıqaralıq bilimlendiriw standartlarına tiykarlanǵan oqıw materialların úzliksiz bilimlendiriw sistemasına keń en jaydırıwdı optimallastırıw» temasındaǵı Xalıqaralıq ilimiy – teoriyalıq konferenciya materialları. 2023, 113-114 b.
7. Шынназарова С. Соматикалық фразеологизмлер – лингвокултурологиялық бирликлерден бири. «Ilim hám jámiyet» журн. 2023, (№3)86-бет.
8. Юсупова Б. Қарақалпақ тилиниң фразеологиясы ҳәм оны изертлеўдиң гейпара мәселелери (Илимий мақалалар топламы). –Ташкент, «Taffakur avlodi», 2020. 85-б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 316.7. 303.3.173

“HUSNI-XULQ”NING TARIXIY-NAZARIY VA FALSAFIY TALQINI

Ne’matova Orzigul Axmedovna
O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

ИСТОРИКО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ И ФИЛОСОФСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ «ХУСНИ-ХУЛКА»

Нематова Орзигул Ахмедовна
Независимый исследователь Международной исламской академии Узбекистана

HISTORICAL-THEORETICAL AND PHILOSOPHICAL INTERPRETATION OF «HUSNI-KHULK»

Nematova Orzigul Akhmedovna
Independent researcher of the International Islamic Academy of Uzbekistan

rzigul_nematova@mail.ru
Orcid: 0842-0200-5244-0422

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Husni-xulq” atamasining mazmuni, mohiyati ochib berilgan. “Husni-xulq”ning tarixiy-nazariy, an’anaviy va zamonaviy, falsafiy talqini tarixiy-nazariy, ilmiy-falsafiy adabiyotlar asosida qiyosiy tahlil qilingan. “Husni-xulq” atamasi qadimgi sivilizatsiyalarda qanday ma’no-mazmunni anglatishini, aynan qanday so‘zlar bilan izohlanganligi keltirib o‘tilgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Rim kabi turli qadimiy sivilizatsiyalarda o‘ziga xos mazmun va mohiyatni anglatganini va istilohda qanday atamalar bilan talqin etilganligi yoritib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *“Husni-xulq”, go‘zallik, chiroy, axloq, fe’l-atvor, mukammallik, uyg‘unlik, axloqiy qonun, burch, ma’naviy kamolot.*

Аннотация: *В данной статье раскрывается значение и сущность термина «Хусни-хульк». На основе историко-теоретической и научно-философской литературы проведен сравнительный анализ историко-теоретической, традиционной и современной, философской интерпретации «Хусни-хулька». Упоминается значение термина «хусни-хульк» в древних цивилизациях и точные слова, используемые для его описания. В разных древних цивилизациях, таких как Древний Египет, Месопотамия, Древняя Индия, Китай, Греция и Рим, он имеет определенное значение и суть, а также то, какие термины используются для его толкования во время революции.*

Ключевые слова: *«Хусни-хульк», красота, красота, нравственность, характер, совершенство, гармония, нравственный закон, долг, духовная зрелость.*

Abstract: *This article reveals the meaning and essence of the term “Husni Khulk”. Based on the historical-theoretical and scientific-philosophical literature, a comparative analysis of the historical-theoretical, traditional and modern, philosophical interpretation of “Husni Khulk” is carried out. The meaning of the term “Husni Khulk” in ancient civilizations and the exact words used to describe it are mentioned. In different ancient civilizations such as Ancient Egypt, Mesopotamia, Ancient India, China, Greece and Rome, it has a certain meaning and essence, as well as what terms are used to interpret it during the revolution.*

Key words: *“Husni-khulk”, beauty, beauty, morality, character, perfection, harmony, moral law, duty, spiritual maturity.*

Kirish. “Husni-xulq” atamasi o‘zbek tilidagi ikki arabcha “husn” (go‘zallik, chiroy) va “xulq” (axloq, fe’l-atvor)”[1:565] so‘zlarining birikmasidan tashkil topgan. Bu atama insonning chiroyli axloqiy fazilatlari, yaxshi xulqi va odob-axloqining go‘zalligi ma’nosida ishlatiladi. “Husni-xulq” (حُسنالخُلُق) – arabcha ibora bo‘lib, “odobli xulq” yoki “yaxshi xulq” degan ma’noni anglatadi. Bu tushuncha islom an’analari va falsafasida chuqur ildizlarga ega bo‘lib, uning talqini qo‘llanishiga ko‘ra istilohlarda turlicha ma’nolarda ham qo‘llaniladi. “Husni-xulq” ko‘p qirrali tushuncha bo‘lib, diniy hamda dunyoviy ma’nolarda ham ishlatiladigan universal atamadir. Ushbu atama asrlar davomida dolzarb bo‘lib kelgan, jamiyat va madaniyatdagi o‘zgarishlar bilan hamohang rivojlanishda davom etmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Ezgu xarakter va axloqni o‘zida mujassam etgan “Husni-xulq” tushunchasining tarixiy taraqqiyot jarayonida rivojlanib, sayqallanib Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Qadimgi Hindiston, Xitoy, Yunoniston, Rim kabi turli qadimiy sivilizatsiyalarda o‘ziga xos mazmun va mohiyat kasb etgan va istilohda bir qancha atamalar bilan talqin etilgan.“Husni-xulq” atamasi islomiy adabiyotlarda va axloqshunoslikka oid asarlarda paydo bo‘lgan bo‘lsa-da lekin tarixan go‘zallik, axloq va xulq atvorni ifoda etishi orqali tarixan shakllangan.

Qadimgi Misrda fazilat va axloq tushunchasi haqiqat, adolat va ilohiy tartib ma’budasi Maat tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq edi. Maat haqiqat va muvozanat ideallarini o‘zida mujassam etgan Misrliklarning ilohiy ma’budasi hisoblanadi. “Misrliklar jamiyatda va shaxs hayotida uyg‘unlikni saqlash uchun Maatning ko‘rsatmalariga va axloqiy tamoyillariga rioya qilish zarur deb hisoblashgan”[2:226]. “Marhumlar kitobi” kabi matnlarda yaxshi amallar va ezgu xulq-atvorning keyingi dunyoda muhim ekanligi qayd etilgan.

Qadimgi Misrda “Husni-xulq” atamasi ikki xil ma’noda ishlatilgan (sababi ***“husn”*** – chiroy, go‘zallik, shakl shamoyil, “xulq” – inson fe’l atvorining mukammalligi deb talqin etilgan. ***Qadimgi Mesopotamiyaning*** rivojlangan davlatlari hisoblangan, Shumer va Akkad madaniyatida ezgulik haqidagi fikrlar ham mavjud edi. Birgina misol, “Xammurapining qonunlar kodeksida to‘g‘ri va adolatli deb hisoblangan ko‘plab qonunlar va xatti-harakatlar standartlari mavjud bo‘lib, unda insonning fe’l-atvori ifodalab berilgan. Bu qonunlarda halollik, mas’uliyat va ijtimoiy adolat eng muhim tamoyil sifatida ta’kidlanadi”[3:54]. Xulqning yuksak namunasi sifatida, Shumer afsonalari va dostonlaridan, “Gilgamish”da, do‘stlik, sharaf va axloqiy tanlov kabi tushunchalar qadrlangan.

Muhokama. Vedalar va Upanishadlarda inson tabiati, olam va ma’naviy yetuklik haqidagi ko‘plab falsafiy mulohazalar mavjud. Ular, shuningdek, jismoniy va ma’naviy ma’noda uyg‘unlik, muvozanat va go‘zallik haqidagi g‘oyalarni o‘z ichiga oladi. Hind falsafasida “sattva” (mehribonlik, poklik) tushunchasini insonning ichki go‘zalligining uyg‘unlashgan ideal bilan chambarchas bog‘langan”[4:29]. “Husni-xulq” atamasini ma’naviyat va falsafa doirasidagi go‘zallik va estetika bilan bog‘liq tushuncha sifatida, “ruhning tabiati (atman) va o‘z-o‘zini bilish yo‘li nuqtai nazardan, go‘zallikni nafaqat jismoniy sifat, balki ichki uyg‘unlik, poklik va ma’naviy kamolotning in’ikosi sifatida talqin etilgan”[5]. Qadimgi Hindistonda fazilat tushunchasi falsafa va diniy ta’limotlarida markaziy o‘rin egallaydi. Veda matnlari ham uning izohi Upanishadlar ham, dxarma – axloqiy qonun va burch haqida bayon etiladi. Dxarma hayotning individual va ijtimoiy tomonlarini, jumladan, yaxshi xulq-atvor, halollik va boshqalarga g‘amxo‘rlik qilishdan iborat hodisa hisoblanadi. Hind falsafiy maktablarida “Husni-xulq” tushunchasi Hind falsafasining ***Chorvaka Lokayata, Sankxya, Nyaya va Vaisheshika*** kabi turli falsafiy maktablari prizmasi orqali tahlil qilinganda, maktablarning har biri go‘zallik, tabiat va idrok haqida o‘ziga xos qarashlarni ifoda etadi.

Chorvaka yoki Lokayata materialistik dunyoqarashga ega falsafa bo‘lib, hissiy idrok va empirik tajribaga urg‘u beradi. Shu nuqtai nazardan, go‘zallik (husn) jismoniy his-tuyg‘ular orqali qadrlanadigan voqelik sifatida talqin etilgan. “Chorvakalar metafizik tushunchalarni inkor etib, haqiqiy voqelikni faqat kuzatish va boshdan kechirish orqali anglash mumkin”[6:36], deb ta’kidlaydilar. Shunday qilib, ular go‘zallikni

birinchi navbatda jismoniy joziba va hissiyotlardan zavqlanish deb tushunishgan.

Sankxya dualistik qarashni ilgari surgan falsafiy maktab bo‘lib, Purusha (ong) va Prakriti (tabiat) o‘rtasida farqlanadi. Ushbu tizimda go‘zallik tabiatdagi uyg‘unlik va tartib bilan bog‘lanadi. “Go ‘zallik (husn) Purusha va Prakriti o‘rtasidagi muvozanatda namoyon bo‘ladi”[7] degan qarashni ilgari surgan. Bu yerda estetik idrok tabiat qonunlari va ularning uyg‘unligini anglash bilan bog‘liq bo‘lib, go‘zallik inson ichki ma’naviy olamining ifodasi deb baholanadi.

Nyaya falsafasi mantiq va epistemologiya asosiga qurilgan. Bu yerda go‘zallikka to‘g‘ri bilim va idrok nuqtai-nazaridan qaralgan. “Nyaya falsafasida ta’kidlashicha, go‘zallik haqidagi bilimga ob’ektlarni to‘g‘ri idrok etish va tushunish kiradi. Go‘zallikni mantiqiy tahlil qilish mumkin bo‘lgan shakl, rang va mutanosiblik kabi toifalar orqali aniqlangan”[8:123]. Shu nuqtai nazardan husni-xulq estetik sifatlarni to‘g‘ri anglash bilan bog‘liq hodisa deb hisoblangan.

Vaisheshika maktab vakillari “voqelikning atomistik xususiyatini tasniflaydi, aynan mana shu tasniflashda go‘zallik ob’ektlarning sifatlari va munosabatlari orqali tahlil qilinadigan xususiyat sifatida qabul qilinadi”[9:217]. Vaisheshika dunyoni turli elementlardan iborat deb hisoblaydi va go‘zallikni ularning kombinatsiyasi va o‘zaro ta’siri natijasi sifatida talqin etadi. Demak, husni-xulq predmetlarning estetik qiymatini anglash orqali ularning sifatlarini o‘rganishni o‘z ichiga oladi.

Qadimgi Xitoy falsafasi inson xulq-atvorini va jamiyatdagi o‘zaro munosabatlarni chuqur o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, “husni-xulq” tushunchasi turli falsafiy maktablar tomonidan o‘ziga xos talqin qilingan. Ushbu tushuncha asosan Konfutsiychilik, Daosizm va Moizm kabi maktablar falsafiy ta’limotlarining muhokama markazi hisoblanhan. Konfutsiy ta’limoti va qarashlarida “husni-xulq”, “asosan ***“jen”***(仁), ya’ni mehr-oqibat, insonparvarlik tushunchasi bilan bog‘liq tarzda ifodalangan. Konfutsiy fikricha, “husni-xulq”-insonparvarlik va adolat ***“li”***(禮) qoidalariga amal qilishda namoyon bo‘ladi”[10:116]. Har bir kishi jamiyatda o‘zining ijtimoiy rolini tushunib, unga mos ravishda xulq-atvorni shakllantirishi, axloqli bo‘lishi, nafaqat individual hayotning, balki, jamiyat barqarorligining ham asosi hisoblanadi. Qadimgi Xitoy falsafasining yirik ta’limoti hisoblangan Daosizmda “husni-xulq” konfutsiy ta’limotidan keskin farq qilgan. Insonning, tabiat bilan uyg‘unlikda yashash bilan bog‘liq hodisa hisoblangan. Daosizm asoschisi Lao Tszi “axloqiy qoidalarga qat’iy amal qilishni emas, balki, tabiiylik (自然,) va oddiylikni qo‘llab-quvvatlaydi. Axloqning sun’iy ijtimoiy normalariga emas, balki “Dao” (道) yo‘liga ergashish g‘oyasi ilgari surilgan”[11:172]. Demak, “Husni-xulq”ni inson o‘z qalbi bilan tabiat uyg‘unligini anglab yetganda tabiiy ravishda hosil bo‘ladigan holat sifatida baholagan.

NATIJALAR. Milet maktabi Qadimgi Yunonistonning falsafiy oqimlaridan biri bo‘lib, eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda faoliyat ko‘rsatgan. Fales, Anaksimandr va Anaksimenlar ushbu maktabning asosiy vakillari hisoblanadi. Asosiy faoliyati tabiat falsafasi bilan bog‘liq masalalar doirasida shug‘ullanishgan. O‘z e’tiborlarini olamning asosiy mohiyati (arxe) va tabiat qonunlariga qaratganlar. Ammo ular “husni-xulq” masalasiga bevosita chuqur e’tibor qaratmagan bo‘lsalar-da, ularning dunyoqarashlari va falsafiy yondashuvlari axloqiy masalalarni o‘rganishda keyingi maktablarga ta’sir ko‘rsatgan. Milet maktabi vakillarining fikricha “Tabiat va insonning uyg‘unligi inson tabiatning bir qismi ekanini va tabiat qonunlarini tushunish orqali, tabiatdagi barcha narsa bir asosdan arxe (asosiy element) kelib chiqqan. Bu birlik falsafasi axloqni ham insoniyatning umumiy mohiyati sifatida ko‘rish uchun zamin yaratgan”[12:976]. Suqrot (mil.av. 470/469 – Afina – 399), Aflotun (mil.av. 428/427 – mil. av. 348/347) va Arastu (mil.av. 384/383, Stagira – mil.av. 322/321, Xalqida)ning “husni-xulq” haqidagi qarashlari qadimgi yunon falsafasining axloqiy masalalarga bag‘ishlangan eng muhim asoslarini tashkil etadi. Ular insonning axloqiy fazilatlarini shakllantirish, husni-xulqning mohiyati va maqsadini tahlil qilishda alohida yondashuvlarga ega bo‘lib, o‘z davri va keyingi asrlardagi axloqshunoslik taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatgan.Suqrotning husni-xulq haqida asosiy e’tibori insonning axloqiy o‘zini anglashiga qaratgan bo‘lib, “u axloqni insonning ichki dunyosi va aqliy rivojlanishi bilan bog‘lagan. “Husni-xulq” bilim bilan bog‘liq. U “bilim – bu fazilat” degan fikrni ilgari surgan[13:1315]. Uning fikricha, inson axloqiy

TAMADDUN NURI

jihatdan noto‘g‘ri xatti-harakat qilsa, bu uning bilimsizligidan kelib chiqadi.

Aflotunning husni-xulq haqidagi fikrlari asosan, axloqiy qarashlari idealizmga asoslangan. U husni-xulqni insonning ruhiyati va jamiyatdagi vazifalari bilan bog‘lagan. Aflotun “inson ruhini uch qismga ajratgan: 1) aql (bilim olishga intilish), 2) jasorat (iroda va qat’iyat), 3) mayl (istak va xohishlar). “Husni-xulq” inson ruhining ushbu qismlari o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash bilan yuzaga keladi. Aql yuqori o‘rinda bo‘lishi kerak, chunki u boshqa qismlarni boshqaradi”[14:44]. Aflotunga ko‘ra, “husni-xulqning asosiy mezoni – adolatdir. Adolat nafaqat insonning ichki dunyosida, balki jamiyatda ham muhim o‘rin tutadi. Husni-xulq adolatni saqlash va jamiyatdagi har bir shaxsning o‘z vazifasini bajarishi orqali rivojlanadi”[15:45]. Aflotun “husni-xulq”ning to‘rt asosiy fazilat komponentlarini (donolik, jasorat, me’yor va adolat) orqali tushuntirgan. Arastu axloq masalalariga amaliy va realistik nuqtai-nazaridan yondashgan. U “husni-xulq”ni insonning hayotdagi baxt-saodatga (eudaimonia) erishish uchun muhim vosita sifatida ko‘rgan. Arastuning “husni-xulq haqidagi eng mashhur nazariyasi “o‘rta yo‘l” konsepsiyasi bo‘lib, u axloqiy fazilatlarni haddan tashqari ko‘p yoki kam bo‘lmagan holat sifatida talqin qilgan”[16:1392]. Masalan, jasorat fazilat bo‘lib, u qo‘rqoqlik va jasurlikning o‘rtasida joylashgan. Arastu fazilatlarni ikki guruhini ajratgan: 1) Intellektual fazilatlar (bilim va tafakkurga asoslangan); 2)Axloqiy fazilatlar (amaliyot va odat orqali shakllanadigan). Axloqiy fazilatlar odat va tarbiya orqali shakllanadi. Shu sababli, husni-xulq insonning kundalik hayotdagi amaliy tajribasiga bog‘liq.

Sitseron (e. avv. 106–43-yillar) Rim falsafasining yirik namoyandasi bo‘lib, u axloqiy masalalarni davlat boshqaruvi va ijtimoiy munosabatlar bilan bog‘lagan. Husni-xulq insonning o‘z fazilatlari va ijtimoiy majburiyatlarini to‘g‘ri anglashida namoyon bo‘ladi. Sitseron adolat, mardlik, donolik va ehtiyotkorlikni asosiy axloqiy fazilatlar sifatida ko‘rsatgan. Sitseron jamiyatdagi husni-xulqni saqlash uchun qonun va axloqiy me’yorlarning birligiga ishonadi. Yaxshi davlat boshqaruvi fuqarolarning axloqiy xulq-atvorini mustahkamlaydi.

Xulosa. Husni-xulqning tarixiy-nazariy va falsafiy talqini insoniyat taraqqiyotining turli bosqichlarida turli xalqlar falsafiy qarashlarida ifodalanib kelgan. Qadimgi tsivilizatsiyalar Misr, Mesopotomiya, Hindiston, Xitoy, Yunoniston va Rimda “Husni-xulq”, axloqiy me’yorlar va insoniylik tamoyillarini o‘ziga xos falsafiy qarashlar orqali izohlagan. Husni-xulq qadimgi tsivilizatsiyalar falsafasida insonning jamiyatdagi o‘rni, o‘zini boshqarish va tabiat bilan uyg‘un yashash masalalari orqali talqin qilingan. Bu falsafiy qarashlar hozirgi zamonaviy axloqiy tushunchalarga asos bo‘lib xizmat qilgan va insoniyat ma’naviy taraqqiyotini yuksaltirgan. Har bir tsivilizatsiya husni-xulqni o‘ziga xos madaniy, diniy va falsafiy qarashlar bilan izohlagan.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати 80000 дан ортиқ сўз ва сўз бирикмаси. А.Мадвалиев таҳрири -Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2022. – Б.565.

1. Большаков А.О. Человек и его Двойник. Изобразительность и мировоззрение в Египте Старого царства. –СПб.: Алетейя, 2001. – С. 226.

2. Клима Й. Законы Хаммурапи // Зарубежное востоковедение. – М.: “Издательство восточной литературы”, 1998. – Вып.1. – С.54.

3. Бродов В.В. Истоки философской мысли Индии. – М.: “Изд-во МГУ”, 1990. –С.29.

4. Иванов В. Г. История этики средних веков. – Санкт-Петербург, 2002.

5. Васечко, В. Ю. Древняя и средневековая восточная философия: учеб пособие. – Екатеринбург: “Изд-во Урал ун-та”, 2017. – С.36.

6. Larson, G.J., “Introduction to the Philosophy of Samkhya”. The Encyclopedia of Indian Philosophies, Volume 4, Princeton University Press, 2014.

7. Ghokale, Pradeep P. Inference and Fallacies Discussed in Ancient Indian Logic (with special reference to Nyāya and Buddhism). Bibliotheca Indo-Buddhica Series, Sunil Gupta. – Delhi.: “Sri Satguru Publications”. 1992. – P.123.

8. Лысенко В. Г. Категории вайшешики и лингвистическая традиция Индии // Историко-философский ежегодник, – М.: “Наука”, 2000. – С.217.

9. Переломов Л.С. Конфуций и конфуцианство с древности по настоящее время

TAMADDUN NURI

(V в. до н. э. – XXI в.). – М.: «Стилсервис: Институт Дальнего Востока РАН», 2009. – С.116.

10. Лукьянов А. Е. Лао-цзы и Конфуций: Философия Дао. М., 2001. – С.172.

11. Лебедев А.В. Милетская школа // Новая философская энциклопедия: в 4 т. пред.науч.-ред совета В.С. Стёпин.– М.: «Мысль», 2010. – С. 976.

12. Иванова М.С. Этический рационализм Сократа: знание как основа добродетели // Bulletin of Medical Internet Conferences (ISSNПоэтика. Категории. – Минск, 1998. – 1392 с. 2224-6150) 2017. Volume 7. Issue 6 1310-1315 с.

13. Лосев А. Ф. Жизненный и творческий путь Платона / Платон. Собрание сочинений. В 4 т. Т.1 / Общ. ред. А. Ф. Лосева и др. – М.: Мысль,1994. – С.44-45.

14. Лосев А. Ф. Жизненный и творческий путь Платона / Платон. Собрание сочинений. В 4 т. Т.1 / Общ. ред. А. Ф. Лосева и др. – М.: Мысль,1994. (Серия «Философское наследие»). – С.44-45.

15. Аристотель. Этика. Политика. Риторика.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 801.82:81.912

MEDIALINGVISTIKA VA SAVODXONLIK

Po'latova Saltanat Mirzaliyevna
Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali assistenti

МЕДИАЛИНГВИСТИКА И ГРАМОТНОСТЬ

Пулатова Салтанат Мирзалиевна
Ассистент Термезского филиала
Ташкентской медицинской академии

MEDIALINGUISTICS AND LITERACY

Pulatova Saltanat Mirzaliyevna
Assistant, Termez Branch of the Tashkent Medical Academy

Tel: +998904196085
E-mail: pulatova.s@mail.ru
Orcid: 0009-0002-3845-3606

Annotatsiya: *Ushbu maqolada medialingvistika turli ommaviy axborot vositalarida (masalan, televideniye, radio, gazeta, jurnal, internet) ishlatilishiga, bu vositalarda til qanday shakllanishi va tarqalishi, shuningdek, tilning jamoatchilik fikri, madaniyat va jamiyatning shakllanishiga ta'sirini o'rganuvchi soha ekanligi yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *medialingvistika, internet, savodxonlik,til, tadqiqot.*

Аннотация: *В данной статье медиалингвистика – это область, которая занимается изучением использования различных средств массовой информации (например, телевидения, радио, газет, журналов, Интернета), того, как язык формируется и распространяется в этих средствах массовой информации, а также как язык влияет на формирование общественного мнения, культуры и общества.*

Ключевые слова: *медиалингвистика, Интернет, грамотность, язык, исследования.*

Annotation: *In this article, media linguistics is the field that studies the use of various media (e.g., television, radio, newspapers, magazines, the Internet), how language is formed and distributed in these media, and how language influences the formation of public opinion, culture, and society.*

Key words: *media linguistics, Internet, literacy, language, research.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Medialingvistika — bu tilshunoslikning tili va ommaviy axborot vositalari (OAV) bilan bog'liq jihatlarni o'rganadigan sohasidir. U tilda va matnlarda ifodalangan axborotning qanday tarqatilishi, qanday ta'sir qilishini anglatadi. Medialingvistika sohasidagi asosiy mavzular quyidagilardan iborat:

Mediametaforalar – Ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan metaforalarning tahlili. Metafora nafaqat tilning uslubiy xususiyati, balki bu fikrning o'zi bo'lib, ya'ni inson ongida avtomatik tarzda ishlab chiqariladigan fikrlar majmuasidir.

Til va siyosat – Media va siyosat o'rtasidagi o'zaro aloqalar, jumladan, siyosiy nutqlar va reklama orqali tilni manipulyatsiya qilish [2].

Medialingvistik tahlil – Media materiallarining tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinishidir. Medialingvistika, shuningdek, onlayn platformalarda, ijtimoiy tarmoqlarda va internetda til ishlatilishini o'rganishga ham qaratilgan. Bu soha tilning jamiyat va media orqali qanday rivojlanishini va tarqalishini ko'rsatishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Medialingvistika sohasida bir nechta muhim

adabiyotlar mavjud bo‘lib, ular media va til o‘rtasidagi munosabatlarni, ommaviy axborot vositalarining tilshunoslik nuqtai nazaridan qanday ishlashini o‘rganadi. Quyida, medialingvistika bo‘yicha ba’zi muhim adabiyotlarning tahlili keltirilgan:

1. Alan Partington tomonidan yozilgan “The Language of the News” asari. Ushbu asar, yangiliklar va media matnlarida til ishlatishning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganadi. U ommaviy axborot vositalaridagi tilni tushunishga yordam beradigan asosiy tamoyillarni va usullarni belgilaydi. Asarda, eng ko‘p uchraydigan til texnikalari, masalan, «framing» (ramkalash), normativ va badiiy til vositalarining ishlatilishi, axborotning ta’sirini oshirish uchun qanday ishlatilishi yoritilgan [1].

2. Norman Fairclough tomonidan yozilgan “Language and Power” asari. Faircloughning bu asari tilning ijtimoiy kontekstda qanday ishlashini va til yordamida qanday shakllanishi mumkinligini o‘rganadi. U medialingvistika va kritik diskurs tahlilining asoslarini yaratgan va tilni manipulyatsiya qilish vositasi sifatida qanday ishlatish mumkinligini ko‘rsatgan. Fairclough ommaviy axborot vositalaridagi tilni ijtimoiy kontekstdan ajratib bo‘lmasligini ta’kidlaydi va tilning siyosiy va iqtisodiy ahamiyatini yoritadi [2].

3. Philip Seargeant tomonidan yozilgan “Media Discourse: Representation and Interaction” asari. Ushbu asar media diskursining yaratilish jarayonini va media matnlarida tilning qanday ishlatilishini tahlil qiladi. Seargeant media va til o‘rtasidagi aloqani chuqur o‘rganadi, shuningdek, media orqali jamiyatni qanday shakllantirish mumkinligini ko‘rsatadi. Asarda, media tilida tilning ishlatilishining psixologik, madaniy va siyosiy aspektlari kiritilgan. Ushbu asar ommaviy axborot vositalarida tildan qanday foydalanishni anglashda yordam beradi [5].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Allan Bell tomonidan yozilgan “The Discourse of News Media” asari yangiliklar va ommaviy axborot vositalarida ishlatiladigan tilning xususiyatlarini chuqur o‘rganadi. Asar media diskursining yaratilishida tilning qanday rol o‘ynashini ko‘rsatadi va turli xil yangiliklar format-lari, jumladan, maqolalar, intervyular va televizion yangiliklarning tahlilini taqdim etadi. Bell yangilik-lar tilidagi so‘zlar va ifodalar orqali jamiyatda qanday fikrlar shakllanishini tahlil qiladi [1].

Medialingvistika adabiyotlari tilni ommaviy axborot vositalarida qanday ishlatilishi, ularning jamiyatni shakllantirishdagi roli va manipulyatsiya vositasi sifatida qanday ishlatilishini tushunishga yordam beradi. Ushbu asarlar, tildan qanday foydalanishni, tilni tahlil qilishning turli metodlarini va mediadiskursni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, ular tahlil qilish uchun metodologik yondashuvlarni taklif etadi va tilning ommaviy axborot vositalaridagi ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Medialingvistika sohasida tadqiqot metodologiyasi til va media o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur tahlil qilish uchun bir qancha ilmiy yondashuvlarni o‘z ichiga oladi. Bu metodologiya, tilni media matnlarida qanday ishlatilishini, uning jamiyat va madaniyatga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan. Medialingvistika tadqiqotlarida ishlatiladigan asosiy metodologiyalar quyidagilardir:

Diskurs tahlili. Diskurs tahlili – bu tilning ijtimoiy va siyosiy kontekstda qanday ishlashini o‘rganish metodidir. Medialingvistika kontekstida bu metod ommaviy axborot vositalaridagi matnlar va nutqlarni tahlil qilishga yo‘naltirilgan. U tilning qanday tuzilganini, qanday ifodalar ishlatilishini va ularning jamiyatdagi ma’lumotlarni qanday shakllantirayotganini o‘rganadi.

Korpus lingvistikasi (Corpus Linguistics). Korpus lingvistikasi – bu tilni statistik va kompyuter asosida tahlil qilish usulidir. Bu metodologiya ommaviy axborot vositalarida ishlatilgan tilni tizimli ravishda tahlil qilish imkonini beradi. Korpus yordamida katta miqdordagi matnlarni tekshirish va tilning umumiy xususiyatlarini aniqlash mumkin. Masalan, onlayn yangiliklar yoki ijtimoiy tarmoqlarda ishlatilgan so‘zlar va gaplar yordamida tahlil qilish.

Kontent tahlili (Content Analysis). Kontent tahlili – bu media matnlarini tizimli ravishda o‘rganish va ularda mavjud bo‘lgan mavzular, tushunchalar yoki til xususiyatlarini aniqlash metodidir. Bu metod media mazmunining strukturasini, maqsadini va qanday ta’sir ko‘rsatishini aniqlashda foydalidir. Masalan, biror bir yangiliklar dasturidagi mavzular va ular taqdim etiladigan uslubni tahlil qilish [2].

Interaktiv tahlil (Interactional Analysis). Bu metod ommaviy axborot vositalaridagi interaktiv munosabatlarni, yangiliklar dasturlari, intervyular va ijtimoiy tarmoqlardagi muloqotlarni o‘rganadi. Bu

yondashuv tildagi o‘zaro ta’sirni, auditoriya bilan aloqani va kommunikativ jarayonlarni tahlil qiladi.Bunga ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar va jurnalistlar o‘rtasidagi dialoglarni tahlil qilish kiradi.

Vizuallik tahlili (Visual Analysis). Media matnlarida vizual elementlarning (rasmlar, grafikalar, videolar) qanday ishlatilishini o‘rganish. Bu metod vizual va lingvistik elementlarning o‘zaro bog‘lanishini ko‘rsatadi va tahlil qiladi. Bunga televizion yangiliklar dasturidagi tasvirlar va ularga tegishli matnlarni birgalikda tahlil qilish kabilarni kiritish mumkin [4].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Medialingvistika tadqiqot metodologiyasi turli yondashuvlar va usullarni o‘z ichiga oladi, bu esa til va media o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni chuqur tushunishga yordam beradi. Tadqiqotchilar turli metodlarni birlashtirib, ommaviy axborot vositalarining jamiyatdagi rolini, tilning ijtimoiy ahamiyatini va imkoniyatlarini o‘rganadilar. Medialingvistika, ayniqsa, jahon axborot muhitining shakllanishi va rivojlanishi uchun juda muhim soha hisoblanadi. Medialingvistikaga oid takliflar sohaning rivojlanishi va uning ijtimoiy ahamiyatini yanada kengroq anglashga yordam beradi [5].

Ommaviy axborot vositalari tilining kommunikatsiya jarayoniga ta’siri juda katta. Xususan, tilda ishlatiladigan xabarlar, lug‘at, sintaksis va stilistik vositalar aloqa o‘rnatishda muhim rol o‘ynaydi. Media nafaqat axborot tarqatadi, balki jamiyatning qadriyatlari, va me’yorlarini shakllantirishda katta rol o‘ynaydi. Ijtimoiy rollarni yaratishda va ijtimoiy fikrni shakllantirishda media tili muhim omil hisoblanadi. Medialingvistika tadqiqotlari tilni manipulyatsiya qilish usullarini aniqlash va ularning ta’sirini baholashga qaratilgan tadqiqotlarni ko‘paytirishi kerak. Bu o‘z navbatida, jamoatchilikni manipulyatsiya qilishga qarshi chora-tadbirlar ko‘rishga yordam beradi [6].

Media tili madaniy o‘zgarishlarni yoritish va qo‘llab-quvvatlashda katta rol o‘ynaydi. Shu bois, tilda yangi atamalar va so‘zlar qo‘llanilishi madaniy jihatdan to‘g‘ri bo‘lishi lozim. O‘zgartirishlar va yangiliklar doimiy ravishda tahlil qilinishi kerak. Media tili hamda uning ishlatilishini normallashtirish zarur, chunki murakkab so‘zlarni no‘tog‘ri qo‘llash jamiyatda noto‘g‘ri tushuncha va xatolarga olib kelishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarida tilni aniq, ishonchli va to‘g‘ri ishlatishga ahamiyat berish zarur. Bu, o‘z navbatida, jamoatchilikning axborotga bo‘lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Media, til yordamida ommaviy axborot vositalarining ma’suliyatini oshirishi kerak. Tahlil qilish va so‘zlarni to‘g‘ri ishlatish, ijtimoiy muammolarni yoritishda ehtiyotkorlik va ma’suliyat talab etiladi. Shu tarzda, medialingvistikaning tahlili jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy jarayonlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, medialingvistika bugungi axborot oqimi kuchayib borayotgan XXI asrda axborot madaniyatini shakllantirishga, turli axborot xurujlaridan saqlanishga yordam beruvchi soha bo‘lib, mediasavodxonlik va axborot madaniyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Mamatova Ya., Sulaymanova S. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyoti yo‘lida. – Toshkent. 2015. – 302 b.
2. Muratova N. Mass Media in State Strategic Programs of Information Society Development in Different Countries. International Journal of Social Science Research and Review. – 2022. – P. 76-82.
3. Muratova N. The Online Media Environment as a Part of the Global Information Market: Analysis of Structure and Development Trends. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2022. – P. 171-177.
4. Qosimova N., Toshpo‘latova N. O‘zbekiston OAV da bolalar mavzusining yoritilishi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent. 2014. 132 b.
5. Seargeant P. Media Discourse: Representation and Interaction. – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2018.
6. Кириллова Н.Б. Медиакультура: от модерна к постмодерну. www. journal.fledu.uz. Ilmiy-metodik elektron jurnal. 2005. – С. 319-326
7. Федоров А.В. Словарь терминов по медиаобразованию, медиапедагогике, медиаграмотности, медиакомпетентности. – Таганрог: Изд-во Таганрогского государственного педагогического института. – 2010. – 216 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 811.111.81.15

COGNITIVE-PRAGMATIC STUDY OF METAPHOR-FORMING LINGUISTIC UNITS IN THE UZBEK AND RUSSIAN LANGUAGES

Shukurova Zulkhumor Bakhtiyorovna
Teacher at Karshi State University

КОГНИТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТАФОРООБРАЗУЮЩИХ ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ В УЗБЕКСКОМ И РУССКОМ ЯЗЫКАХ

Шукурова Зулхумор Бахтиёровна
Преподаватель Каршинского государственного университета

O‘ZBEK VA RUS TILLARIDA METAFORIK TIL BIRLIKLARINI KOGNITIV-PRAGMATIK O‘RGANISH

Shukurova Zulxumor Baxtiyorovna
Qarshi davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail:
shukurova.zulkhumor@bk.ru
Orcid: 0009-0009-9020-8967

Annotation: *This article analyzes the cognitive-pragmatic aspects of metaphor-forming linguistic units in the Uzbek and Russian languages. The interpretation of metaphor from the point of view of cognitive linguistics and pragmatics, its connection with human thinking and cultural worldview are highlighted. It is shown how the metaphor system in the Uzbek and Russian languages is formed in various semantic fields and how it is connected with national thinking. It is also analyzed how metaphors serve to increase the effectiveness of speech from a pragmatic point of view.*

Key words: *Metaphor, cognitive linguistics, pragmatics, Uzbek language, Russian language, speech effectiveness, semantic field, cultural thinking.*

Аннотация: *В данной статье анализируются когнитивно-прагматические аспекты метафорообразующих языковых единиц в узбекском и русском языках. Освещены интерпретация метафоры с точки зрения когнитивной лингвистики и прагматики, ее связь с мышлением человека и культурной картиной мира. Показано, как формируется система метафоры в узбекском и русском языках в различных семантических полях и как она связана с национальным мышлением. Также анализируется, как метафоры служат повышению эффективности речи с прагматической точки зрения.*

Ключевые слова: *Метафора, когнитивная лингвистика, прагматика, узбекский язык, русский язык, речевая эффективность, семантическое поле, культурное мышление.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘zbek va rus tillarida metafora yasovchi lingvistik birliklarning kognitiv-pragmatik jihatlari tahlil qilingan. Kognitiv tilshunoslik va pragmatika nuqtai nazaridan metafora talqini, uning inson tafakkuri va madaniy dunyoqarashi bilan aloqasi yoritilgan. O‘zbek va rus tillarida metafora tizimi turli semantik sohalarda qanday shakllanganligi va uning milliy tafakkur bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Shuningdek, metafora nutqning ta’sirchanligini oshirishga qanday xizmat qilishi pragmatik nuqtai nazardan tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Metafora, kognitiv lingvistika, pragmatika, o‘zbek tili, rus tili, nutq ta’sirchanligi, semantik maydon, madaniy tafakkur.*

INTRODUCTION (ВВЕДЕНИЕ/KIRISH). Language is the most important tool of human thinking, through which people form their ideas about the world. Metaphor, as an integral part of language, is considered not only an artistic style, but also one of the main mechanisms of the human thinking system. Metaphors in the Uzbek and Russian languages are formed in various contexts, especially as a result of cultural and historical thinking. This article analyzes the cognitive and pragmatic aspects of metaphorical linguistic units in the Uzbek and Russian languages.

Metaphor is an integral part of human thinking and communication, which is studied through various scientific approaches. Historically, metaphor has been considered more as an object of analysis in literary studies, but in modern linguistic studies its role in the language system is being studied in depth. Below, the main theoretical approaches to metaphor, its cognitive and pragmatic properties, and semantic structure are considered in detail.

MATERIALS AND METHODS (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД/ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD). Aristotle (4th century BC) explained metaphor mainly as a figure of speech. He stated that metaphor is the creation of a new artistic image by calling one object by the name of another. For example, metaphors such as «the poet is a muse» were used to make speech beautiful and impressive. This approach has been dominant for many centuries, and even in the 18th-19th centuries, metaphor was studied mainly within the framework of literary studies. By the 20th century, Richards (1936) proposed that metaphor be studied in two main components:

a. Tenor – the main object of the metaphor (e.g., the concept of «life»).

b. Vehicle – the image that is likened to the main object (e.g., «road» or «journey»).

For example, in the metaphor «Life is a journey», «life» is the tenor, and «journey» is the vehicle. This approach opened up new possibilities for understanding the internal structure of metaphor.

The cognitive metaphor theory (CMT – Conceptual Metaphor Theory) put forward by Lakoff and Johnson (1980) proved that the main function of metaphor is not only the decoration of artistic speech, but also the formation of human thinking [5]. They divided metaphors into two main groups:

Conceptual metaphors – the main model of perception of the world in human thinking. For example, the concept of «Time – money»: «I need to save time», «I will not waste my time». Pure linguistic metaphors – figurative expressions that arise only at the level of language units. This approach showed that although metaphor depends on language, its foundations are formed in human thinking. Each language and culture has its own system of metaphors, which reflect the worldview and historical experiences of society [2].

DISCUSSION (ОБСУЖДЕНИЕ/MUHOKAMA). In the 21st century, the role of metaphor in verbal communication began to be studied more widely. According to the pragmatic approach, metaphor is not only semantically important, but also plays a central role in communication. Metaphors are formed in the language system in connection with lexical units related to different areas [3].

Today, metaphor research is being studied in connection with the sciences of linguistics, psychology, artificial intelligence and neuroscience. Neurolinguistic research shows that in the process of understanding metaphors, the human brain activates different areas. In artificial intelligence, computer linguistics and semantic analysis models are used to automatically analyze metaphors.

Theoretical study of metaphor confirms its important role in language, thought, and speech. Research, from classical approaches to modern cognitive and pragmatic approaches, shows that metaphor is an important mechanism of human thought and communication, and is an integral part of the structure of national culture and language [4].

Metaphors in Uzbek and Russian are an integral part of human thinking, they are actively used in various semantic fields. Through metaphors, people understand complex concepts, create new ways to understand reality, and achieve effective communication in the process of speech. This section analyzes in detail the formation of metaphors in Uzbek and Russian, their main manifestations, and their connection with national thinking [1].

Metaphors are taken from various sources, and are usually based on the following main factors:

a. Influence of nature and environment. Metaphors related to the desert and steppe are widespread in the Uzbek language:

«Life has become dry like a desert» (life is full of difficulties)

In Russian, metaphors related to the sea and forest are more common:

«Life is a stormy sea» (life is a difficult and changeable process)

b. Social and historical factors.

The Uzbek language contains more metaphors related to farming and craft traditions:

«Ilm – bu hosil» (knowledge is the result of labor).

In Russian, historical military metaphors are widespread:

«Битва за знания» («battle for knowledge»).

c. Religious and spiritual factors [6].

In Uzbek, Islamic influence is noticeable, and metaphors of light and darkness are widely used: «Ko'ngli yorishdi» (joy and understanding appeared).

In Russian, religious metaphors that emerged under the influence of Orthodox culture are often found: «Душа поет» (the soul is happy) [7].

RESULTS (РЕЗУЛЬТАТЫ/NATIJALAR). Metaphors are divided into different groups depending on the semantic fields. In Uzbek and Russian, there are the following main types of metaphors:

1. Metaphors related to nature and life processes.

Natural phenomena are widely used in explaining life processes.

Uzbek: «Hayot daryo kabi oqib o'tadi».

Russian: «Жизнь – это река, несущая нас»

In these metaphors, the duration and variability of life are associated with the flow of water [3].

In Uzbek and Russian, metaphors are found in various semantic areas and are associated with national thinking, history and culture. This analysis shows that metaphors are not only a means of artistic expression, but also a fundamental component of speech and thinking. Through metaphors, people express their worldview and effectively organize communication [4].

CONCLUSION (ЗАКЛЮЧЕНИЕ/XULOSA). Metaphors in Uzbek and Russian are widely used not only in artistic speech, but also in everyday communication. They are one of the main tools that reflect human thinking and national worldview. The cognitive-pragmatic approach allows us to deeply understand the role of metaphors in language and thinking.

REFERENCES (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА/ADABIYOTLAR RO'YXATI)

1. Black M. Models and Metaphors. Cornell University Press. 1962.
2. Boborajab o'g'li, S. H. (2024). REPRESENTATIVE FEATURES OF LINGUISTIC MANIPULATION IN THE COMMUNICATIVE SITUATION. *Social science and education*, *1*(2), 41-47.
3. Evans V., & Green M. Cognitive Linguistics: An Introduction. Routledge. 2006.
4. Kövecses Z. Metaphor: A Practical Introduction. Oxford University Press. 2010.
5. Lakoff G., & Johnson, M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press. 1980. – 286 p.
6. Oxford English Dictionary Loneliness & Solitude Definition. Oxford University Press. 2024.
7. Sobirjonovna, S. M. (2023). EXPLANATION OF DISCOURSE MARKERS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, *21*, 193-199.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 801.82:81.186

INGLIZ VA O‘ZBEK MAQOLLARIDA “YAXSHILIK” KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

Murodova Sarvigul Komil qizi
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti, Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishi 2-kurs magistranti

ЛЕКСИКО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “ДОБРОТА” В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПОСЛОВИЦАХ

Муродова Сарвигул Комил кизи
Магистр 2 курса, иностранный язык и литература (английский язык), Термезского университета экономики и сервиса

LEXICO-SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT OF “KINDNESS” IN ENGLISH AND UZBEK PROVERBS

Murodova Sarvigul Komil qizi
Termez University of Economics and Service, 2nd year Master student of Foreign Language and Literature (English)

Tel: + +998 90 075 03 35
E-mail: murodova.sarvigul@bk.ru
Orcid: 0009-0008-1057-0425

Annotatsiya. *Ushbu maqolada “Yaxshilik” konsepti tahlilga tortilgan. “Yaxshilik” insoniyat tarixida doimo muhim ijtimoiy va axloqiy tushuncha bo‘lib kelgan. Turli davrlarda va jamiyatlarda yaxshilik tushunchasi turlicha talqin qilingan bo‘lsa-da, uning mohiyati insoniylik, adolat va mehribonlik kabi qadriyatlarga asoslanadi. Ushbu maqolada yaxshilik tushunchasining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil qilinishi ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *semantik, sinonim, antonim, frazeologik birliklar, morfologik va semantik o‘zgarishlar, maqol, metaforik qo‘llanish, frazeologizm, denotativ va konnotativ ma’no, stilistik xususiyatlari.*

Аннотация. *В данной статье анализируется понятие “Добро”. “Доброта” всегда была важной социальной и моральной концепцией на протяжении всей истории человечества. Хотя понятие добра трактовалось по-разному в разные времена и в разных обществах, его суть основана на таких ценностях, как гуманность, справедливость и доброта. В статье рассматривается историческое развитие понятия добра и его анализ на основе современных исследований.*

Ключевые слова: *семантика, синонимы, антонимы, фразеологические единицы, морфологические и семантические изменения, пословица, метафорическое использование, фразеология, денотативное и коннотативное значение, стилистические особенности.*

Abstract. *This article analyzes the concept of “Goodness”. “Goodness” has always been an important social and moral concept in human history. Although the concept of goodness has been interpreted differently in different eras and societies, its essence is based on values such as humanity, justice, and kindness. This article examines the historical development of the concept of goodness and its analysis based on modern research.*

Key words: *semantics, synonyms, antonyms, phraseological units, morphological and semantic changes, proverb, metaphorical use, phraseology, denotative and connotative meaning, stylistic features.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Til inson tafakkurining ifodasi bo‘lib, unda xalqning madaniyati, qadriyatlari va hayotiy qarashlari aks etadi. Har bir til o‘ziga xos lug‘at boyligiga ega bo‘lib, undagi so‘zlar turli ma‘no qatlamlarini ifodalaydi. “Yaxshilik” konsepti ham shunday

muhim tushunchalardan biri bo‘lib, insoniy fazilat, axloqiy qadriyat va jamiyatda ijtimoiy munosabatlarni belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida e‘tirof etiladi. Yaxshilik konsepti ko‘p holatlarda ijobiy ma’noda ishlatilib, mehr-muruvvat va insoniylik hislatlarini ifodalab keladi. Bu so‘z o‘zbek tiliga turkiy tillardan kirib kelgan bo‘lib, o‘zbek tilidagi lug‘aviy ma’nosi “ezgu ish, muruvvat, mehribonlik – insonlarga nisbatan yaxshi munosabat ko‘rsatish, o‘zgalarga yordam qo‘lini cho‘zish, xayr-saxovat qilish ma’nolarini bildiradi”. Uning asosiy ildizi kelib chiqishi turkiy oilaga mansub bo‘lgan “yaxshi” so‘zi hisoblanadi. Qadimdan “yaxshi” so‘zi ezgulik, go‘zallik, foydalilik mazmunida qo‘llanilgan. Ushbu maqolada “yaxshilik” konseptining semantik tahlili, uning asosiy ma‘nolari, sinonim va antonimlari hamda frazeologik birliklardagi qo‘llanilishi o‘rganiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ko‘plab tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, “yaxshilik” so‘zi turkiy tillarda uzoq tarixga ega bo‘lib, uning ildizlari qadimiy yozma manbalarda, xususan, Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni Lug‘otit Turk” va Radlovning “Turk dialektologiyasi” (XIX asr) kabi asarlarida keng yoritilgan. Etimologik jihatdan “yaxshilik” so‘zining shakllanishi, uning morfologik va semantik o‘zgarishlari turli turkiy tillarda kuzatilgan va bu masala N.K. Dmitriyev, Ubaydulla Jo‘rayev kabi olimlarning asarlarida ham keng tahlil qilingan.

Frazeologik va semantik jihatdan olib borilgan tadqiqotlar “yaxshilik” konseptining ma’nolar ko‘lamini aniq belgilash imkonini berdi. Xususan, A. Madvaliyevning o‘zbek tilining frazeologizmlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari, Sh. Rahmatullayevning izohli lug‘ati “yaxshilik” so‘zining asosiy semantik turlarini va ularning qo‘llanilish xususiyatlarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotlar “yaxshilik” so‘zining ijtimoiy nutqda, adabiy uslubda va kundalik hayotda qanday ishlatilishini ko‘rsatdi[1].

Tilshunos olim A. Qayumovning “Til va ma’naviyat” asarida esa “yaxshilik” tushunchasi o‘zbek xalq maqollari va nutqiy an’analari asosida tahlil qilingan: *“Yaxshilik qilsang, yaxshilik topasan”; “Yaxshilik qil, daryoga sol, baliq bilmasa, Xoliq biladi”.*

МУНОКАМА(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlar “yaxshilik” so‘zining morfologik va semantik tahlillariga bag‘ishlangan bo‘lib, bu borada U. Jo‘rayevning o‘zbek tilida ot yasovchi qo‘shimchalarga bag‘ishlangan tadqiqoti va I. Haqqulovning “O‘zbek tili semantikasi” asari alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, Haqqulov “yaxshilik” so‘zining axloqiy, omad va muvaffaqiyat, ijtimoiy-hayotiy va frazeologik birliklardagi qo‘llanilishlarini alohida ma’no qatlamlari sifatida ajratib bergan. Ko‘plab ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida ham ushbu ma’no qatlamlariga mazmun jihatidan mos keluvchi maqol hamda frazeologik birliklar talaygina.

1. Axloqiy ma’no:

Misol: *Yaxshilik ham, yomonlik ham o‘z egasiga qaytadi.*

(Bu gapda yaxshilik insonning axloqiy fazilati sifatida tushuniladi).

“Yaxshilik” ezgulik, mehribonlik, muruvvat kabi tushunchalarni anglatadi.

“Yaxshilik qilish – insoniy burchdir”.

“A kind heart loseth nought at last” — Mehribon yurak oxir-oqibat hech narsa yo‘qotmaydi. (Mehribon inson har doim mukofotini oladi, hatto darhol bo‘lmasa ham) [2].

2. Omad va muvaffaqiyat ma’nosi:

Ba’zan yaxshi natija yoki farovonlik ma’nosida ishlatiladi.

Misol: *“Bu yil ko‘p yaxshiliklar bo‘ldi”*

Bu kontekstda “yaxshilik” ijobiy voqea yoki natija sifatida tushuniladi. *Yaxshilikni ko‘rib turibmiz.*

(Bu yerda yaxshilik yaxshi hodisa yoki natijalarni anglatishi mumkin.)

“Do‘stimga yaxshilik yetib keldi” (ya’ni, unga omad kulib boqdi)

“He that sows virtue, reaps fame” — Fazilat ekkan inson, shuhrat o‘radi. (Kim yaxshilik qilsa, oxir-oqibat hurmat va e’tibor topadi) [3].

3. Ijtimoiy-hayotiy qo‘llanilishi:

Misol: *Qo‘shningga yaxshilik qil, u senga albatta javob qaytaradi.*

(Bu yerda yaxshilik real harakat—yordam, saxovat shaklida ifodalanmoqda).

Kundalik nutqda “yaxshilik” turli maqsadlarda ishlatiladi.

“Ota-onangga yaxshilik qil, duolarini ol”.

TAMADDUN NURI

"A house is a fine house when good folks are within" — Uy ichidagi yaxshi odamlar uyni chiroyli qiladi. (Uy va oilaning eng katta boyligi – undagi yaxshi insonlardir)

4. Metaforik qo'llanish

Misol: "*Yaxshilik yomg'irdek yog'd"i.* (Bu yerda yaxshilik obrazli ma'noda ishlatilgan).

"Virtue is a jewel of great price" — Fazilat bebaho durdir. (Fazilat insonning eng katta boyligi va qadrli xususiyatidir) [4].

5. Frazeologik birliklar tarkibida:

"Yaxshilik" so'zi ko'plab maqollar va iboralarda uchraydi. Maqollar: *"Yaxshilik qilsang, dengizga sol"* – Qilingan yaxshilik uchun minnat kutmaslik kerak. "*Good words cost nought"* — Yaxshi gap tekin. (Yaxshi muomala qilish hech narsaga tushmaydi, lekin katta ta'sir ko'rsatishi mumkin).

"Yaxshilik yomonlikni yutar" – Ezgulik har doim yomonlikdan ustun turadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Semantik jihatdan yaxshilik tushunchasi denotativ va konnotativ ma'noga ega bo'lib, u turli tillarda o'ziga xos shakllarga ega. J. Lyons (1977) fikricha, yaxshilik tushunchasi semantik maydon doirasida boshqa ijobiy axloqiy tushunchalar bilan bog'liq bo'ladi [5]. Masalan, o'zbek tilidagi yaxshilik so'zi ezgulik, mehribonlik, saxovat kabi sinonim tushunchalar bilan uyg'unlashganidek ingliz tilida ham kindness, benevolence, charity, virtue, generosity kabi so'zlar goodness terminiga sinonim bo'la oladi.

A. Wierzbicka (1991) madaniyatlararo semantika doirasida yaxshilik tushunchasining turli tillarda qanday aks etishini tahlil qilib, uning asosiy semantik komponentlari quyidagilardan iboratligini aniqlagan[6]:

Axloqiy qadriyat: yaxshilik insoniy fazilat sifatida qabul qilinadi.

Ijtimoiy munosabat: yaxshilik ko'pincha boshqa insonlarga yordam berish yoki ularga yaxshi munosabatda bo'lish bilan bog'liq.

Subyektiv hissiyot: yaxshilik qilgan inson ichki mamnuniyat yoki halollik hissini tuyadi.

Masalan, ingliz tilidagi *goodness*, o'zbek tilidagi yaxshilik so'zlari semantik jihatdan o'xshash bo'lsa-da, har bir tilda turli madaniy konnotatsiyalarga ega. Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "yaxshilik" so'zi faqat tilshunoslik doirasida muhim ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Kelajakda bu so'zning ingliz va o'zbek tillari bilan qiyosiy tahlili, uning pragmatik aspektlari bo'yicha yangi tadqiqotlar olib borish istiqbollidir. Shuningdek, "yaxshilik" tushunchasining zamonaviy jamiyatda va virtual kommunikatsiyadagi ishlatilish xususiyatlarini o'rganish ham lingvistik tadqiqotlar uchun muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Ta'kidlash lozimki, zamonaviy tilshunoslik "yaxshilik" konseptining keng miqyosda har xil yo'nalishlarda, xususan, etimologik, morfologik, semantik tuzilishi, uning sinonim va antonimlari, qolaversa, stilistik va frazeologik jihatdan qo'llanilishini o'rganadi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, "yaxshilik" konsepti o'zbek va ingliz tilida keng qo'llaniladigan va ko'p ma'noli tushuncha bo'lib, u insoniy fazilat, ijtimoiy yordam, yaxshi hodisa yoki sog'likni bildirishi mumkin. Uning sinonim va antonimlari, shuningdek, kontekstga qarab turli ma'nolarga ega bo'lishi semantik tahlilda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Muhammedova S., Ergasheva O. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent. 2006.– 92 b.
2. Turdimov Sh. O'zbek maqollari to'plami. – Toshkent: "Sharq", 2005. – 512 b.
3. Rosalind Fergusson., Jonathan Law. - The Penguin Dictionary of proverbs, Market House Books Ltd, England. 2000. – 372 p.
4. Shomaqsudov Sh., Shorahmedov Sh. Hikmatnoma: O'zbek maqollarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zb. Sovet ensiklopediyasi Bosh redaksiyasi, 1990. – 528 b.
5. Lyons J. Semantics. - Cambridge University Press, 1977. – 897 p.
6. Wierzbicka A. Cross-Cultural Pragmatics: The Semantics of Human Interaction. Mouton de Gruyter, 1991. – 502 p.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 193.479.15

ISLOM TASAVVUFIDA “TAJALLIY” TUSHUNCHASI

Raximov Xolmurod Majitovich
Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

КОНЦЕПЦИЯ «ТАДЖАЛЛИ» В ИСЛАМСКОЙ СУФИИ

Рахимов Холмурод Мажитович
Базовый докторант Бухарского государственного университета

THE CONCEPT OF «TAJALLI» IN ISLAMIC SUFISM

Rakhimov Kholmurod Mazhitovich
Doctoral student of Bukhara State University

E-mail: raximovxolmurod697@gmail.com
Orcid: 0009-0008-8829-8353

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom tasavvufining kelib chiqishi, unda paydo bo‘lgan nazariyalar, xususan, “tajalliy” nazariyasi rivojlanish bosqichlari, ushbu nazariyaning manbasi va unga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, tajalliy, vahdatul-vujud, mushohada, Zot, sifat, Hakim Termiziy, Tustariy, Qushayriy, Ibn Arabiy, Najmiddin Komilov, Ja’far Xolmo‘minov.

Annotation. This article discusses the origins of Islamic Sufism, the theories that emerged in it, in particular, the stages of development of the theory of «tajalli», the source of this theory and the definitions given to it by scholars.

Key words: Sufism, tajalli, wahdatul-wujud, observation, Zot, sifaat, Hakim Termizi, Tustari, Qushayri, Ibn Arabi, Najmiddin Kamilov, Ja’far Kholmuminov.

Аннотация. В статье рассматриваются истоки исламского суфизма, теории, возникшие в его рамках, в частности, этапы развития теории «таджалли», источник этой теории и определения, данные ей учеными.

Ключевые слова: суфизм, таджалли, вахдатул-вуджуд, наблюдение, Зат, атрибут, Хаким Термизи, Тустари, Кушайри, Ибн Араби, Наджмиддин Камилов, Джафар Холмуминов.

KIRISH. (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Islom tasavvufining kelib chiqishi Muhammad payg‘ambarga borib taqaladi. Naqshbandiya tariqati silsilasi Abu Bakr Siddiq va Ali ibn Abu Tolib orqali Muhammad payg‘ambarga bog‘lanishi bunga dalildir.[5] Muhammad payg‘ambar hayotlik zamonida Madina masjidida toat-ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan “suffa ahli” ham tasavvuf atamasi paydo bo‘lishiga sabab qilib ko‘rsatiladi. [6] Ular faqir va g‘arib jamoa bo‘lib, butun umrini ibodat va ilohiy ishqqa bag‘ishlagan, hamda oila qurish va kasbu hunar bilan shug‘ullanishga vaqt ajratmas edilar Qalbini va botinini isloh qilishga e’tibor qaratgan bu toifa keyinchalik “so‘fiylar” deb atala boshladi.

So‘fiylar mashg‘ul bo‘ladigan zikr va amallarni bajarish tasavvuf deb nomlandi. Tasavvuf yo‘nalishi shakllana borishi mobaynida bu fanning o‘ziga xos terminologiyasi ham paydo bo‘ldi. “Faqr”, “fano”, “uns”, “muhabbat”, “rizo”, “sabr”, “qanoat”, “tavakkul”, “mushohada”, “muroqaba”, “tavba”, “inobat” kabi so‘zlar tasavvufning o‘ziga xos terminlaridir. Shular jumlasidan “tajalliy”

tushunchasi ham tasavvufdagi muhim mavzulardan biridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). “Tajalliy” - arabcha «تجلي» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “aniq bo‘lmoq”, “topilmoq”, “ochilmoq”, “o‘zini to‘la namoyon qilmoq” ma’nolarida keladi.[2] Xudoga nisbatan ishlatilgan “Tajalliy” tushunchasi kelib chiqishi Qur’onning A’rof surasi 143 oyatidan kelib chiqqan. Ushbu oyatda: «فَلَمَّا تَجَلَّى رَبُّهُ لِلْجَبَلِ جَعَلَهُ دَكًّا» 7:143. Bu oyatni tarjimasi Tafsiri hilolda:“Robbi toqqa tajalliy qilganida, uni titilgan holga keltirdi”, shaklida keltirilgan. A. Inoyatov va G‘. Zikrillayev tarjimasida: “Yaratgan zot jamolini ko‘rsatgan edi, tog‘ parchalanib ketdi”,[1] shaklida berilgan.

Ya’ni, Allohni toqqa qilgan tajalliysiga ulkan tog‘ bardosh bera olmay titilib ketdi. Muso payg‘ambar Allohni jamolini ko‘rsatishni so‘raganda, Alloh foniy ko‘z bilan O‘zini ko‘rish imkonsizligini isbotlash maqsadida toqqa tajalliy qildi. Tog‘ titilib ketgach, Muso payg‘ambar ahdidan qaytdi. Lekin so‘fiylar qalb ko‘zi bilan Allohni mushohada qiladilar va bu mushohada ta’sir jihatdan ko‘z bilan ko‘rgandan zarracha kam bo‘lmasligi kerak. Agar kimda qalb mushohadasi ko‘z mushohadasi (ko‘rishi)dan kam ta’sirga ega bo‘lsa, u komillikka yeta olmagan bo‘ladi.

“Tajalliy” tushunchasining asosi Qur’onda mavjud va bu tushuncha keyinchalik rivojlantirilgan. Raboh ibn Amr birinchi bu mavzuni ko‘targan bo‘lsa, Hakim Termiziy va Sahl Tustariylar rivojlantirgan. Ibn Arabiy esa mukammal shaklga keltirgan.

Tasavvuf bobida dastlabki kitoblardan hisoblangan Abu Bakr Kalobodiyning « التعرق لمذهب اهل التصوف» “at-taarruf limazhabi ahli at-tasavvuf” kitobida “tajalliy” masalasi Sahl Tustariy ta’limoti o‘laroq keltirilgan. Bu kitobga keyinroq Ali ibn Ismoil Qavnaviy sharh yozgan. Qavnaviy sharhida shunday keltiriladi:

“Sahl aytdi: “tajalliy uch xildir. 1. Zot tajalliysi bo‘lib, u mukoshafa (ochilish, ayon bo‘lish)dir. 2. Sifatlar tajalliysi bo‘lib, u nur makonidir. 3. Zotning hukmi tajalliysi bu – oxirat va undagi voqealardir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Tajalliy – Allohga yuzlanganlar qalbiga Haq nurining porlashidir. Tasavvuf olimlari aytdilar: “tajalliy – g‘ayb nurlaridan qalblarga ochilgan sirlardir”.

Zot tajalliysining ma’nosi – bu mukoshafadir, ya’ni dunyoda qalbning ochilishidir. Buning misoli Abdulloh ibn Umarning ka’bani tavof qilishda: “biz u yerda Allohni ko‘rgandek bo‘lar edik”, degani va Nabiy alayhissalomning: “Allohni ko‘rib turgandek ibodat qil”, deganidir.

Zotning sifatlari tajalliysining ma’nosi, bu nur makonidir – bandaga Haqning qudrati tajalliy qilishidir. Banda undan boshqasidan qo‘rqmaydi, U bandaga kifoyadir va undan boshqasidan umid ham qilmaydi. Barcha sifatlar ham shundaydir. Bu ma’no Horisani xabarida kelgandir: “go‘yoki Robbimni arshini aniq ko‘rar edim”. Go‘yoki unga Robbisining xabari tajalliy qildi. Bu xabar xuddi ko‘rsatilgandek ta’sir qildi.

Agar sifatlar bandaga tajalliy qilsa (namoyon bo‘lsa) banda faqat shu tajalliy taqozo qilgan amallarni bajaradi. Agar unga Allohni qudrati tajalliy qilsa, banda undan boshqasidan qo‘rqmaydi. Agar bandaga Allohning kifoyaligi tajalliy qilsa, undan boshqasidan umid qilmaydi. Barcha sifatlar shundaydir.

Horisaga Robbisining qiyomat haqidagi xabari tajalliy qildi va bu xabar u uchun aniq sodir bo‘lgandek bo‘ldi.

Zotning hukmi tajalliysi oxiratda bo‘ladi. Bir guruh jannatda va bir guruh do‘zaxdadir.[6]

Tustariy birinchi bo‘lib “tajalliy”ni uch qismga bo‘ldi va har uch qismni Allohni zotiga bog‘ladi. Tajalliyi zot va tajalliyi sifat ruhiy kamolotga yetishganlar uchun shu dunyoda hosil bo‘ladi, ammo tajalliyi hukm az-zot oxiratda sodir bo‘ladi. O‘sha vaqtgacha bandalar ilohiy hukmdan xabarsiz bo‘ladilar. Hukm namoyon bo‘lgach, xabar topadilar. Ammo “haqqul yaqin” darajasiga yetganlar xabar berilgan hodisalarga iymonlari kuchli bo‘lgani uchun ko‘z bilan ko‘rganlarida ham iymonlari o‘zgarmaydi.

“Tajalliy” masalasiga Qushayriyning “risolat al-qushayriya” asarida ham tushuncha berilgan. Unda: “satrlanish bandaga basharligi sababidan bo‘ladi. U g‘oibdagi ko‘rinmas narsalarni mushohada qila olmaydi. Agar unda g‘aybiy nur zohir bo‘lsa, bu basharlik pardasini ketkazadi. “Tajalliy”ga –banda tarafidan bashariy hijoblarni ketkazish va qalb oynasini bashariy tabiat zanglaridan sayqallash orqali erishiladi. Haq esa o‘z holini bandaga kashf qiladi. “Tajalliy” – ism va

sifatlar pardalari ortidan Zotning zohir bo‘lishidir”, [7] deyilgan.

Qushayriyning fikricha, inson basharlik sifatidan chiqib ruhoniy holatga o‘tsa, unga ilohiy “tajalliy” jilva qiladi. Modomiki, u basharlik sifatida qolar ekan, Zoti ilohiy jamoli tajalliysi (namoyon bo‘lishi)dan mahrum bo‘ladi.

Vahdat ul-vujud falsafasidagi Vahdat olamining Kasrat olamida va aksincha, Kasrat olamining Vahdat olamida ko‘rinishi, ammo aslida, Kasrat o‘sha Vahdatning aynan o‘zi ekanligi, ko‘plik shaklida ko‘rinishi esa uning turlicha jilvalari va nusxalaridan o‘zga narsa emasligi haqidagi fikr ham Platonning fikrlariga o‘xshab ketadi. Uning ob’yektiv idealizmi bo‘yicha, “olam ko‘p bo‘lishi mumkin emas, chunki yakkayu yagona “namuna” aql egasi bor, shuning uchun ushbu “namuna”ga taqlid qiluvchi faqat bir olam mavjuddir”. [4]

Ibn al-Arabiy va uning izdoshlari talqin etgan Vahdat ul-vujud falsafasi olamdagi barcha mavjudotlar – moddiy va nomoddiy, jonli va jonsiz ashyolar birlashib, butun bir Mutlaq Vujudni tashkil etadi, degan fikrga asoslangan ta’limot emas. Aksincha, Vahdat ul-vujud ta’limoti butun Borliq yagona va haqiqiy mavjudlikdan iborat, bu yakka-yagona mavjudlik Alloh taolodir, degan fikrga asoslangan. Ya’ni, Haq taolo o‘z-o‘zini tanish uchun Borliqni yaratdi. Borliq go‘yo ko‘zgu bo‘lib, Haq jamoli, ilmu hikmati unda aks etadi, jilolanadi. Shundan ushbu ta’limotning muhim qismi bo‘lgan tajalliy g‘oyasi ham kelib chiqadi [3].

Ja’far Xolmo‘minov tajalliy asosini tashkil qilgan nurni bir xil, o‘zgaruvchan emas, deb ta’riflagan. Agar biz nurni o‘zgaruvchan deydigan bo‘lsak, bu Haqni o‘zgaruvchan deyishga olib keladi. Bunda esa maxluq bilan Xoliq (Yaratuvchi)ning sifatlari bir xil bo‘lib qoladi. Bu esa imkonsizdir. Nur tajalliysidan ta’sirlanganlarning turlicha bo‘lishi esa quyosh nurini qabul qilgan shishalarga qiyos qilingan. Haq tajalliysini qabul qilgan barcha narsalar, xususan inson ham nurdan turlicha aks tarqatishi qobiliyat va sharoitga bog‘liq ekan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Dastlab mutasavvif olimlar “tajalliy” nazariyasiga sodda yondashib, qisqacha ta’riflarni keltirganlar. Tustariy faqat ilohiy tajalliy haqida gapirib, uni uch qismga bo‘linishini, komil insonlar buni qalb ko‘zi bilan mushohada qilishlarini aytib o‘tgan. Tustariyning shogirdi Mansur Halloj ham tajalliy nazariyasini olg‘a surgan. Muhyiddin Ibn Arabiy esa bu ilohiy tajalliyni borliq va inson o‘rtasidagi munosabatdan kelib chiqib ta’riflagan. “Vahdatul vujud” nazariyasi tasavvuf olamida katta yangilik bo‘ldi. Ibn Arabiy tajalliyni ta’riflab, Yaratuvchi va mavjudotlar o‘rtasidagi aloqalar va ularning qanday birlashishini tushuntirib bergan. Tustariy ta’limotida faqat ilohiy tajalliyda to‘xtalgan bo‘lsa, Ibn Arabiyda tajalliyni mavjudotlarda aks etishi bayon qilib berilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Umuman olganda ilm-fanning barcha tarmoqlari qatori tasavvuf ilmi ham vaqt o‘tishi bilan rivojlanib bordi. Xususan, tajalliy masalasi ham bir qancha bosqichlardan o‘tib mukammal nazariyaga aylandi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Inoyatov A., Zikrillayev G‘. Qur’oni karim oyatlari mazmun-ma’nosining o‘zbekcha izohli tarjimasi – Toshkent: Hilol-nashr, 2022. – B. 167.
2. An-naim ul-kabir. Arabcha-o‘zbekcha lug‘at. – Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2021. – B. 109.
3. Xolmo‘minov J. Shayx Muhyiddin Ibn al-Arabiy – Islom teologiyasi va teosofiyasi yirik namoyandasi. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from ParisFrance. Date: 19th January, 2023 ISSN: 2835-3730. – P. 366-373.
4. Xolmo‘minov J. Vahdat ul-vujud va qadimgi yunon falsafasi. XXI asr: fan va ta’lim masalalari ilmiy elektron jurnali. №3, 2021. – B. 4.
5. Najdat To‘sun. Oltin halqa –T.: Qamar-mediya, 2022. – 224 b.
6. ابو بكر محمد بن اسحاق كلابادي. التعرف لمذهب اهل التصوف.طشقند, مطبعة ماوراءنهر م2018 – ه1439. ص 14
7. ابي بكر محمد بن اسحاق الكلابادي. التعرف لمذهب اهل التصوف. طشقند, ماوراءنهر. ه1439-م2018. ص 88
8. زكريا بن محمد الانصارى. نتائج الافكار القدسية في بيان معاني شرح الرسالة القشيرية. بيروت لبنان, دار الكتب العلمية.2007م.2ج, ص 117

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 821.512.133

ОНА ТИЛИДАН ТАЪЛИМ МОДЕЛЛАРИ ВА ДАРС ЖАРАЁНИНИ ЛОЙИҲАЛАШТИРИШ

Ризаева Мафтуна Холмурод қизи,
Навоий давлат педагогика
университети тадқиқотчиси

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МОДЕЛЕЙ И УЧЕБНОГО ПРОЦЕССА НА ОСНОВЕ РОДНОГО ЯЗЫКА

Ризаева Мафтуна Холмурод кизи,
Научный сотрудник
Навоийского государственного
педагогического университета

DESIGNING EDUCATIONAL MODELS AND LESSON PROCESS FROM THE NATIVE LANGUAGE

Rizaeva Maftuna Kholmurod kizi,
Navoi state pedagogy
University researcher

e-mail:
rizayevam@gmail.com
orcid.org/0009-0005-4255-8672

Аннотация: *Мақолада она тили таълим моделлари ва дарс жараёнини лойиҳалашга доир таклиф-тавсия ва ёндашувлар баён қилинган, шунингдек, она тилида нутқий компетенцияни ривожлантириш методлари, ечимлари ҳақида фикр юритилган.*

Калит сўзлар: *лойиҳалаш, кўникма ва малака, метод, усул, технология, компетенция, баҳолаш, аниқлаш, қўллаш.*

Аннотация: *В статье описываются предложения-рекомендации и подходы к проектированию образовательных моделей родного языка и процесса уроков, а также размышляются о методах, решениях для развития речевой компетенции на родном языке.*

Ключевые слова: *проектирование, навыки и компетенции, методика, метод, технология, компетентность, оценка, идентификация, применение.*

Annotation: *The article describes the proposal-recommendations and approaches to the design of the educational models of the native language and the dar process, and also reflects on the methods, solutions for the development of speech competency in the native language.*

Key words: *design, skills and competencies, method, method, technology, competence, assessment, identification, application.*

Кириш

Педагогик технологиянинг марказий муаммоси ўқувчи шахсини ривожлантириш орқали таълим мақсадига эришишни таъминлашдан иборат. Педагогик технологияда таълим мақсадининг аниқ шаклланганлиги, таълимнинг маҳсулдорлиги, тескари алоқа мавжудлиги, кафолатланган якуний натижа каби тамойилларга асосланилади. Таълимни компьютерлаштириш жараёнида ўқувчи фаолиятини моделлаштиришда ҳам шу ғояга асосан иш тутиш лозим.

Ижодий таълим ўқувчи интеллектуал салоҳиятини индивидуал ривожлантириш, ҳар бир ўқувчига унинг ўзига хос хусусиятлари асосида ёндашиш учун кенг имкониятга эга. Унда ўқувчи ўзига хос суръат, мотив, фикрлаш йўли билан ўқув материалини ўзлаштиради.

Ижодий таълимнинг ўзига хос хусусиятларига кўра ўқитувчининг роли ўзгаради, асосий вазифа ўқувчилар шахсини ривожлантириш, уларни ижодий изланишга йўналтириш ва бу соҳада уларга кўмаклашиш ҳамда ижодий ишлашларини ташкил қилишдан иборат бўлади.

Адабиётлар таҳлили ва методологияси

Таъкидлаш ўринлики, глобаллашув шароитида тил ўрганишга бўлган эҳтиёж инсон фаолиятининг турли соҳаларида ўзини намоён этмоқда. Она тилининг грамматик тизими ва ундан олинган қисмларни таққослаш тил таркибидаги ҳодисаларни грамматик жиҳатдан тартибга солади. Кўпгина тадқиқотчилар тилларни қиёсий ўрганиш муаммосига турлича ёндашадилар. Хусусан, В.А.Корневнинг ёзишича, “барча даражаларда алоқада бўлган тилларнинг ўхшашлиги ва фарқларини: фонологик, лексик, морфологик ва синтактик жиҳатдан тўлиқ ўрнатиш зарур. Таққослаш “шакл”дан (семасиологик ёндашув) ва “таркиб”дан (ономасиологик ёндашув) амалга оширилиши мумкин”[1].

Тилшунос олим Н.Маҳмудовнинг бу борадаги фикрлари ҳам шу жиҳатдан эътиборлидир: “Таълим жараёнида ўқувчининг идрок даражасини эътиборга олган ҳолда, элементар тарзда бўлса-да, стилистик маълумотларга эътиборни мунтазам қаратиб бориш мақсадга мувофиқдир. ... Хорижий тил таълимнинг қайси боскичида ўрганилишидан қатъи назар муайян натижага эришиш учун она тили ва ўрганилаётган тилнинг қиёсий стилистикаси ҳақида маълумотларнинг аҳамияти улкандир”[2].

Л.В.Щчербанинг эътироф этишича, “интерференция жараёнининг моҳияти лингвистик жиҳатдан маърузачи ва тингловчи тилининг ўзаро мослашуви ва алоқада бўлган тиллар нормаларининг мос равишда ўзгариши билан белгиланади”[3].

С.П.Розанованинг таъкидлашича, “она тилига хос хусусиятларнинг узатилиши салбий (онгсиз, ўз-ўзидан) бўлиши мумкин, бу эса хатолар пайдо бўлишига олиб келади ва ижобий (онгли, мақсадга мувофиқ). Таққослаш лингвистикаси элементларидан фойдаланган ҳолда чет тилини ўқитиш методикаси асосида айнан ижобий томонга ўтиш имконияти ётади”.[4]

Ўқувчи ва ўқитувчи фаолиятини таҳлил қилиш шуни кўрсатадики, ижодий таълимни йўлга қўйиш ва таълим тизимига кенг жорий қилиш натижасида ўқитувчининг таълим жараёнидаги ўрни ва унинг олдида турган вазифалар ўзгаради: ўқитувчининг вазифаси - ўқувчиларни мустақил равишда ўз мақсадларини амалга ошириш режасини тузишга одатлантириш, уларни амалга оширишга ўргатишдан иборат бўлади.

Табиат, жамият ва онг ҳодисаларини ўрганишда инсоннинг фаоллиги етакчи тамойиллардан бири сифатида даставвал фалсафада асосланган эди. Инсоннинг билиши субъект ва объект муносабатида амал қилиб, ўзаро таъсирнинг яхлит тизим сифатида шаклланишига олиб келади. Моддий нарсалар инсон фаолияти таъсири доирасига киргач, билиш объектига айланади. Ўз навбатида билиш объектига айланган нарса, ҳодисалар мураккаблиги, қийинлиги, нотанишлиги, фаолиятда бажарадиган иши жиҳатдан инсонга акс таъсир қилади. Субъектнинг объектга, объектнинг субъектга таъсири ўзаро таъсирни юзага келтиради. “... бинобарин, билиш жараёнида субъект ва объект муносабати бир томонлама таъсир бўлмай, аксинча улар ўртасидаги диалектик ўзаро таъсирдир. Уларнинг бир-бирига таъсири асосида инсоннинг ижтимоий-тарихий амалиёти ётади”.

Фалсафий асарларда инсон фаолиятининг предметлилиги – предметларга йўналганлиги ва субъектлилиги – билиш жараёнида унинг фаоллиги ўзаро алоқадор ҳодисалар сифатида ажратилади.

Фан асосларини ўқувчиларга етказиш учун ўрганилаётган ўқув материалига дидактик

[1] Корнев В.А. Сопоставительная семантика и проблема межъязыковой интерференции. // Языковая семантика и образ мира. – Казань. 1997. Т.1. –С. 82-84.

[2] Mahmudov N. Til ta’limi va stilistika // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2009. – № 1. – B. 3-9.

[3] Щчерба Л.В. Граматика русского языка: Часть I фонетика и морфология. –Москва. Книга по Требованию, 2014. –210 с.

[4] Аркадьева Э.В и.др. Обстоятельственные отношения в русском языке в сопоставлении с французским. Для говорящих на французском языке. Русский язык. –Москва: Под ред. З. И. Сироткиной, 1989. – 45 с.

ишлов берилади, яъни ўқув материалининг ўқув элементлари ажратилади, уларга доир топшириқлар ишлаб чиқилади, ўқув саволлари тузилади, ўқув кўргазмалари тайёрланади ҳамда уларни ўрганиш кетма-кетлиги белгиланади[126]. Бу ишлар таълимнинг изоҳли-кўргазмали, муаммоли, топшириқли, табақалашган, дастурлаштирилган, алгоритм-лаштирилган каби турларининг хусусиятларини инобатга олган ҳолда амалга оширилади. Таълим турларининг ҳар бири эса қандайдир моделга эга. Таълимни ўқитувчи нуқтаи назаридан ҳам, ўқувчи жиҳатидан ҳам, ўқитувчи ва ўқувчи фаолиятининг ўзаро таъсирига кўра ҳам тасаввур этиш мумкин. Таълимни айнан иштирокчилари жиҳатдан тасаввур этиш йўли билан таълим моделлари ажратилади. Таълим турлари таълим моделларига кўра белгиланади. Ижодий таълимни ўқитиш ва ўқиш фаолиятига кўра тасаввур этишда таълим жараёнининг воситаси, ўқувчи ёки ўқувчилар жамоаси шу жараённинг субъекти, ижодий таълим предмети сифатида қаралади[20]. Таълимни лойиҳалаштиришга бундай нуқтаи назардан ёндашилганда таълим-нинг қандай моделларидан фойдаланиш қулай ёки моделларнинг қайси босқичларини лойиҳа-лаштириш имкониятлари кенгроқ деган савол туғилади. Бу саволга жавоб бериш учун таълим моделлари мазмунини кўриб чиқамиз.

Таълим моделлари мазмуни дидактик адабиётларда етарлича баён қилинган. Амалиёт-да кўп ишлатиладиган модел **изоҳли-кўргаз-мали таълим**дир. Ўқув материалини ўзлашти-ришнинг бу моделида билимларни тайёр ҳолда ўрганиш ғояси ётади. Унинг модели қуйидаги кўринишга эга: ўқувчиларни ахборотни ўрганишга тайёрлаш; билимларни баён қилиш; маълумотларни турли топшириқларни бажариш ёрдамида мустаҳкамлаш.

Дастурлаштирилган таълимда ўқувчи-лар ўқув материалидаги бир ўқув элементини ўрганишга тайёрланади; билимлар баён қилинади; билимлар мустаҳкамланади; билимлар назорат қилинади ва шу жараён ҳар бир ўқув элементи учун такрорланади[177].

Муаммоли таълимда ўқувчилар онгида муаммоли ҳолат яратилади; муаммони ҳал қилиш йўллари изланади; танланган усул муаммони ҳал қилишга татбиқ этилади; бажарилган муаммо бўйича хулосалар чиқарилади; хулосалар амалиётга татбиқ этилиб, билимлар мустаҳкамланади.

Топшириқли таълим ҳам муаммоли таълимга кўп жиҳатлари билан яқин бўлиб, унда ўқув материали топшириқлар тизими шаклига келтирилади; топшириқлар тизими бажартири-лади; бажарилган топшириқлардан хулосалар чиқарилади; хулосалар турли ўқув шароитларига татбиқ этилади. Таълим самарадорлиги дарсни қандай модель асосида ташкил қилишга, унинг қонуниятларига қатъий амал қилинишига боғлиқ. У ўқув материалининг хусусиятларидан келиб чиқиб белгиланади. Бироқ таълим жараёнини компьютер ёрдамида амалга ошириш дарсларни умумийроқ модель асосида ташкил қилишни тақозо этади.

Хулоса.

Муаммоли таълимнинг камчилиги шундаки, муаммони ечиш жараёнида фақат ўқитувчи таклиф этган ечим вариантлари билан чекланилади. Ўқувчиларнинг муаммони ечиш-нинг ажралиб турадиган “ажойиб” йўллари синф ўқувчилари орасида муҳокама қилинмайди. Кўрилган ҳар бир моделнинг маълум ижобий ва салбий томонлари бор. Уларни тўлиқ таҳлил қилган ҳолда топшириқли таълимни таълим жа-раёнини компьютерлаштиришдаги етакчи модель деб олишни мақсадга мувофиқ деб биламиз. Ваҳоланки, ижодий таълимда таълим моделларидан ҳар бирининг ижобий элементлари олинади ва улар уйғунлаштирилган ҳолда жараён ташкил этилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Корнев В.А. Сопоставительная семантика и проблема межъязыковой интерференции. // Языковая семантика и образ мира. – Казань. 1997. Т.1. –С. 82-84.
2. Mahmudov N. Til ta’limi va stilistika // Til va adabiyot ta’limi. – Toshkent, 2009. – №1. – B. 3-9.
3. Щчерба Л.В. Граматика русского языка: Часть I фонетика и морфология. –Москва. Книга по Требованию, 2014. –210 с.
4. Аркадьева Э.В и.др. Обстоятельственные отношения в русском языке в сопоставлении с французским. Для говорящих на французском языке. Русский язык. –Москва: Под ред. З. И. Сироткиной, 1989. – 45 с.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 141(23)

EXPRESSION OF MORAL PRINCIPLES IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF ALISHER NAVOI

Uzakova Lola Abdurashitovna, Researcher at the Samarkand, State Institute foreign languages

ВЫРАЖЕНИЕ НРАВСТВЕННЫХ ПРИНЦИПОВ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ АЛИШЕРА НАВАИ

Узакова Лола Абдурашитовна, Исследователь самаркандского государственного института иностранных языков

l.uzakova@mail.ru
Tel: (90) 191-50-50
https://orcid.org/0009-0009-4112-0299

ALISHER NAVOIY MA'NAVIY MEROSIDA AXLOQ PRINSIPLARINI IFODALANISHI

Uzoqova Lola Abdurashitovna
SamDCHTI tadqiqotchisi
SamDU dotsenti S.Abdullaev taqrizi asosida

Annotation: *In the works of Alisher Navoi, he instilled a sense of love for people, for whom he called people to good deeds, cooperation, and mutual solidarity, for whom he called rulers and great people to the path of goodness and justice. In them, the lyrical hero of the philosopher-poet, thinker, and humanist poet Navoi, who dreamed of the reign of enlightenment and moral virtues, speaks fully and completely about the coming of an era of justice and general prosperity. This article analyzes the socio-philosophical issues of the role of the category of morality in the spiritual heritage of Alisher Navoi, the inextricable link between man and society, the rise from ignorance to perfection, and the upbringing of truly human virtues.*

Key words: *spirituality, morality, principle, diligence, culture, perfection, ignorance, consciousness, perception, worldview, Islam, faith, conscience.*

Аннотация: *Творчество Алишера Навои проникнуто чувством любви и сострадания к людям, призывавшим людей к добрым делам, сотрудничеству и объединению, а правителей и великих людей — следовать по пути добра и справедливости. В них лирический герой Навои, поэт-философ, мыслитель, поэт-гуманист, мечтавший о царстве просвещения и нравственных добродетелей, полно и всецело говорит о наступлении эпохи справедливости и всеобщего благоденствия. В статье дается социально-философский анализ таких вопросов, как роль категории нравственности в духовном наследии Алишера Навои, неразрывная связь человека и общества, восхождение от невежества к совершенству, воспитание истинно человеческих качеств.*

Ключевые слова: *духовность, нравственность, принцип, трудолюбие, культура, совершенство, невежество, сознание, восприятие, мировоззрение, ислам, вера, совесть.*

Annotatsiya: *Alisher Navoiy ijodida u insonlarni ezgu ishlarga, hamkorlikka, o'zaro hamjihatlikka da'vat etgan, hukmdorlar, ulug' zotlarni ezgulik, adolat yo'liga da'vat etgan insonlarga mehr-muhabbat tuyg'usi singdirilgan. Ularda ma'rifat va axloqiy fazilatlar saltanatini orzu qilgan faylasuf shoir, mutafakkir, insonparvar shoir Navoiyning lirik qahramoni, adolat va umumiy farovonlik davri kelishi*

to‘g‘risida to‘liq va to‘la gapiradi. Ushbu maqolada Alisher Navoiy ma’naviy merosida axloq kategoriyasini o‘rni, inson va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik, jaholatdan komillikka ko‘tarilish, chinakam insoniy fazilatlarni tarbiyalash kabi masalalar ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: *ma’naviyat, axloq, prinsip, mehnatsevarlik, madaniyat, komillik, jaholat, ong, idrok, dunyoqarash, islom, iymon, vijdon.*

Kirish. Mutafakkir Alisher Navoiyning hayoti va ijodiy faoliyati temuriylar saltanatining oltin davriga to‘g‘ri keldi. Davlat arbobi va shoir sifatida faoliyat ko‘rsatgan Navoiy jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitini belgilovchi mafkuraviy ta’limotlarga befarq bo‘lmagan, albatta. Shoir dunyoqarashi va ijodining g‘oyaviy asoslari haqida uning asarlari bir muncha tasavvur bera oladi.

Mutafakkirning badiiy asarlaridagi ilg‘or axloqiy g‘oyalar, kategoriyalar, tamoyillar ijobiy qahramonlar obrazlarida tasvirlanadi. Bundan tashqari mutafakkirning asarlarida jamiyatdagi turli toifalarning axloqiy qiyofasi yoritilgan.

Alisher Navoiyning ijtimoiy-axloqiy qarashlari shoirning deyarli butun ma’naviy merosini qamrab olgan. Mutafakkirning amaliy faoliyati u yoki bu tarzda uning axloqiy ta’limotini real hayotda amalga oshirishga qaratilgan edi. Navoiy o‘z asarlarida inson va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni jahon taraqqiyotining uzilmagan zanjirining umumiy bo‘g‘ini sifatida ko‘rsatdi. Navoiyning inson taraqqiyoti haqidagi qarashlari inson va jamiyat haqidagi o‘sha paytda mavjud bo‘lgan qarashlarga asoslanadi. Inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning ushbu kontseptsiyasida shaxsning oqilona, ijodiy rivojlanishi ustuvor ahamiyatga ega edi.

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Alisher Navoiyning ma’naviy merosi dastlab uning zamondoshlari tomonidan o‘rganilgan. Do‘sti va davlat hukmdori Husan Boyqaroning “Risola” asarida, uning ustozi va ruhan yaqin do‘sti Abdurahmon Jomiyning “Haft Afrang”, “Yusuf va Zulayho”, “Devaniy” asarlarida, tarixchi olim Mirxondning “Ravzat us-safo” tarixiy risolasida, tarixchi Xondamirning Alisher Navoiyga bag‘ishlangan “Makorim ul-axloq” (“ Axloq go‘zalligi ”), Zayniddin Vosifiy “Badoe ul-vaqoe” asarida”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarida buyuk mutafakkir shaxsi va uning bardavom merosini tavsiflashga harakat qilindi. Hozirgi davrda bu asarlar mutafakkirning yashagan davri, hayoti va ijodini o‘rganish uchun muhim ahamiyatga egadir.

Yevropada XIX asrdan boshlab shoirning adabiy asarlarini tizimli tahlil qilish va o‘rganish boshlandi. XIX - asrning 1-yarmida Yevropada Alisher Navoiy asarlari matnlarini nashr etish, shu asarlar asosida yaratilgan lug‘atlar nashr qilish boshlandi. O‘sha davrda Kartmer, Pave de Kurteil, Ogaha Sirri Levend, I.N.Berezin, M.Nikitskiy, V.V.Vilyaminov-Zernov tomonidan boshlangan Navoiy asarlarini o‘rganishni qayd etishni lozim deb bilamiz.

Ulug‘ shoirning falsafiy-axloqiy dunyoqarashi barcha asarlari, jumladan “Xamsa”da ham aks etganini ko‘rish mumkin. Ularda sevgi, muhabbat, yaxshilik, yomonlik, majoziy ishq, sabr, qanoat, himmat, saxiylik kabi tushunchalar tahlili berilgan. Navoiy falsafiy-axloqiy ta’limotining asosiy mazmuni inson mohiyati, ma’naviy olami masalalarini qamrab oladi. Shuning uchun mutafakkirning falsafiy-axloqiy qarashlari hozirgi kunda ham yoshlar ma’naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyatga egadir.

“Farhod va Shirin” dostoni falsafiy-axloqiy asardir. Bu asarda inson aqlining kamolot sari yuksalishi o‘z aksini topgan. Dostondagi botiniy ma’no, undagi ideal dunyo hayotining tasvirini beradi. Bu dunyoga muhabbat, ezgulik, do‘stlik va birdamlik xos bo‘lib, yaxshilik yovuzlik ustidan g‘alaba qiladi, adolat, donolik, muhabbat barqaror bo‘ladi.

Navoiyning “Layli va Majnun” dostoni ham botiniy mazmuniga ko‘ra falsafiy-axloqiy ma’noga egadir. Ammo “Layli va Majnun” asari ishqiy mavzuda yaratilgan boshqa asarlardan farq qiladi. Navoiy talqinida oshiq va ma’shuqaning avomga xos ishqi (nafsoniy sevgi) kamolga etib majoziy (rahmoniy ishq)qa aylanadi. Majnun Layli jamolida Alloh tajalliy (aks etishi)sini ko‘radi. Shuning uchun u Allohni qalbi tanu joni bilan sevadi. Majnun ishqi yuksak namuna, mehr-oqibati, pok axloqi esa ibrat bo‘la oladi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Navoiyning axloqiy qarashlarida yaxshilik va yomonlik tushunchasi ham keng yoritiladi. U ushbu tushunchani juda keng ma'noda tushunib, u orqali yoshlarning xulq-odobi va yurish-turishini, axloqiy fazilatlarini baholaydi. Yoshlarning o'z baxti yo'lida mehnat qilishi, o'z atrofidagilarga yaxshi munosabatda bo'lishi, o'zgalar baxtini o'z baxti deb bilishi, boshqalarning quvonchiga quvonish komillikning belgisi ekanligini takror-takror eslatib o'tadi.

Navoiyning yaxshilik va yomonlik ildizlarini insonlarning o'zaro munosabatidan qidiradi, ularni ta'lim-tarbiya bilan bog'liq holda tahlil qiladi. Xudo insonni pok, hech qanday gunohsiz va nuqsonsiz qilib yaratgan. Yaxshi va yomon odatlarni kasb qilish faqat insonning o'ziga, oila, tashqi muhit va maktabga bog'liq. Uning fikricha, yaxshilik va yomonlik ikkita qarama-qarshi kuch bo'lib, ular bir-biri bilan doimo kurash olib boradi. Ular hayotda bir-biri bilan kelisha olmaydi. Insonda yaxshilik va yomonlikning asosi, kurtagi bo'ladi. Odamning xatti-harakati va faoliyatida uning namoyon bo'lishi o'ziga bog'liq holatdir. Shuning uchun inson faqat yaxshilik qilishi, bu dunyoda u yaxshi nom qoldirishga intilishi, o'zgalarga ranj-u ozor bermasligi lozim.

Mutafakkirning qadimgi Eron podshohlari hamda ularning tarixiy qahramonliklari va shaxsiyatlari haqida hikoya qiluvchi asari "Tarixi muluki Ajam"dir. Abulqosim Firdavsiyning "Shohnoma" dostoni va "Tarixi Tabariy" kitobi "Tarixi muluki Ajam" uchun asosiy manba vazifasini o'tagan. Muqaddas dinimiz tarixiga taalluqli rivoyatlar, xususan, bir qancha payg'ambarlar hayot yo'li, Aflotun (Platon), Batlimus (Ptolemey), Buqrot (Gippokrat) singari donishmandlar hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlarni bilib olishda "Tarixi anbiyo va hukamo" asari qimmatli manba hisoblanadi. Alisher Navoiyning yuqorida tilga olingan har ikki asari falsafa tarixida alohida o'ringa ega.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Alisher Navoiy axloqni ideal tushuncha sifatida emas, balki odamlar o'rtasidagi haqiqiy munosabatlarni, ularning oila va jamiyatdagi xatti-harakati va xulq-atvorini tartibga soluvchi ta'limot sifatida qaragan.

Navoiy qahramonlari o'zlarining hayotiy kuchlari bilan o'ziga xos zotlarini o'ziga tortadi, fe'l-atvoridagi ijobiy xislatlari bilan hurmat qiladi, jamiyatdagi axloq prinsiplariga qat'iy amal qiladi, axloq prinsiplariga amal qilmaydigan insonlarni esa mensimaydi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub"da axloq falsafasi, etikaga taalluqli barcha muhim masalalar haqida qimmatli fikrlarini bildiradi. Navoiyning bu asarida ko'rib chiqilgan masalalar tasavvuf falsafasiga emas, balki insonshunoslik, antropologiyaga taalluqlidir. Navoiy "Mahbub ul-qulub"ning birinchi qismida siyosat falsafasi, podshohlar siyosati haqida fikr yuritadi. Alloma bu asarida zolim va johil podshohlarni, vazirlarni el, ulus boshiga kelgan balo, ofat deb tanqid qiladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Yuqorida bildirilgan fikrlar shunday xulosa qilish mumkinki Navoiy ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy qarashlarining asosiy mazmuni inson mohiyati, ma'naviy olami, odobi, xulq-atvori masalalaridan iboratdir. Alisher Navoiy asarlarining o'ziga xosligi shundaki, ularda insonning ruhiy-ma'naviy kamolotga etish jarayoni chuqur tahlil qilinadi va tavsiflanadi. Shoir bunda sharqona tafakkur tarixida odat tusiga kirgan zohiriylik va botiniylikning dialektikasidan mohirona foydalangan. Mutafakkir asarlari g'oyasi asosida insonni ulug'lash, unga nisbatan bo'lgan chuqur mehr-muhabbat yotadi. Shu nuqtai nazardan olganda har bir avlod shoir ijodiga o'z davri talablariga asoslangan holda yondashadi. Shuning uchun Navoiyning ijodi har bir davrda o'zgacha mazmun kasb etib, yangi qirralari bilan namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiyotidagi o'rni" xalqaro ilmiy anjuman materiallari. – Navoiy, –2017. –B.9.

2.Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror, MAT,7-jild, – Toshkent, 1991, 26-bet.

3.Navoiy Alisher. Hayrat ul-abror, MAT,7-jild, – Toshkent, 1991, 297-bet.

4.Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. O'n jildlik, 6-jild. Xamsa. Hayrat-ul abror. Farhod va Shirin. –Toshkent: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2011. –B -6.

5.Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub. MAT.J. 14. –Toshkent: Fan, 1998. –B. 58-59.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 801.82:81.492

ILMIY MATNLARDA METAFORALARNING SEMANTIK-STRUKTUR TADQIQI

Tursunova Charos
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti o'qituvchisi

СЕМАНТИКО-СТРУКТУРНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТАФОР В НАУЧНЫХ ТЕКСТАХ

Турсунова Чарос
Преподаватель Университета информационных технологий и менежмент

SEMANTIC-STRUCTURAL RESEARCH OF METAPHORS IN SCIENTIFIC TEXTS

Tursunova Charos
Teacher at the University of Information Technologies and Management

E-mail:
ch.tursunova25@gmail.com
Orcid: 0009-0007-7853-1855

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ilmiy matnlarda metaforalarning semantik va struktur jihatlari o'rganilgan. Ilmiy uslubning asosiy xususiyatlari va undagi metaforalarning roli tahlil qilingan. Metaforalarning semantik va grammatik xususiyatlari o'zbek va ingliz ilmiy matnlari misolida tadqiq etilgan. Natijalar ilmiy matnlarda metaforalarning ilmiy tushunchalarni ifodalashda qanday xizmat qilishini ko'rsatadi.*

Kalit so'zlar: *ilmiy matn, metafora, semantika, struktura, lingvistika, ilmiy uslub, korpus tahlil.*

Аннотация: *В статье рассматриваются семантические и структурные аспекты метафор в научных текстах. Анализируются основные черты научного метода и роль метафоры в нем. Семантические и грамматические свойства метафор изучаются на примере узбекских и английских научных текстов. Результаты показывают, как метафоры в научных текстах служат для выражения научных концепций.*

Ключевые слова: *научный текст, метафора, семантика, структура, лингвистика, научный метод, корпусный анализ.*

Abstract: *The article examines the semantic and structural aspects of metaphors in scientific texts. The main features of the scientific method and the role of metaphor in it are analyzed. Semantic and grammatical properties of metaphors are studied using Uzbek and English scientific texts as examples. The results show how metaphors in scientific texts serve to express scientific concepts.*

Key words: *scientific text, metaphor, semantics, structure, linguistics, scientific method, corpus analysis.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Turli yo'nalishlarning o'zaro sintezlashuvi insonga til hodisalarini har tomonlama, ko'p qirrali o'rganish uchun yangi imkoniyatlar yaratib berdi. Tilshunoslikda inson, uning ma'naviy dunyosi va madaniyatini bilishga bo'lgan qiziqish o'z ifodasini antroposentrik paradigmaning asosiy tamoyillariga murojaat qilishda topdi. Uning konstruktiv xususiyati tilni insonning dunyoqarashi, uning ma'naviy va amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liq holda tushunishdir. Shu munosabat bilan aqliy jarayonlarni shakllantirishda madaniy muhit, tajriba va shaxs amaliy ko'nikmalarining roli muhimdir, bunda metafora muhim o'rin tutadi.

Ilmiy matnlarning asosiy maqsadi fikrni aniq, lo‘nda va mantiqiy izchil tarzda ifodalashdan iborat bo‘lsa-da, metaforalarning qo‘llanilishi matnni yanada ta’sirchan va tushunarli qilishga xizmat qiladi. Metaforalar ilmiy nutqda terminologiyaning shakllanishida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola ilmiy matnlardagi metaforalarning semantik va struktur jihatdan qanday xususiyatlarga ega ekanligini tahlil qilishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ko‘p qirrali hodisa bo‘lgan metafora ikki ming yildan ortiq davom etgan bahs-munozaralar mavzusi bo‘lib kelgan. Falsafiy va ilmiy fikrlash obyekti sifatida metafora antik davrdan boshlab tadqiqot mavzusiga aylangan. 1930-1940-yillardan boshlab u psixoanalitiklar, ilmiy metodologiya mutaxassislari, madaniyatshunoslar, psixologlar, antropologlar va boshqa tadqiqotchilar tomonidan turli xil ma’nolarni sintez qilish va ulardan evristik maqsadlarda foydalanish, modellar yaratish maqsadida o‘rganila boshlandi. Bugungi kunga kelib metafora fanlararo tadqiqotlar nuqtai nazaridan ham, alohida fanlar, jumladan, tilshunoslik uchun ham dolzarbligicha qolmoqda [1].

Ushbu tadqiqotda ilmiy matnlarda metaforalarning semantik va struktur jihatlarini o‘rganish uchun turli lingvistik tadqiqot metodlari qo‘llanildi. Ilmiy matnlarda metaforalarning ishlatilish xususiyatlarini aniqlash uchun o‘zbek va ingliz tillaridagi ilmiy maqolalar va dissertatsiyalar o‘rganildi. Ma’lumotlar bazasi sifatida turli fanlarga oid ilmiy maqolalar, jumladan, tabiiy fanlar va gumanitar fanlar bo‘yicha chop etilgan ilmiy ishlar tanlab olindi. Bu orqali metaforalarning qaysi sohalarda ko‘proq ishlatilishi va ularning xususiyatlari haqida xulosa chiqarildi.

Misol uchun, «genetik kod» iborasi genetik ma’lumotlarni ifodalash uchun ishlatiladi, biroq «kod» so‘zi dastlab kompyuter tiliga xos bo‘lib, metaforik ma’noda biologiyada qo‘llanilgan [2].

Ingliz tilida metaforalarning sintaktik tuzilishi o‘zbek tiliga qaraganda erkinroq bo‘lib, ba’zan qo‘shimcha predikativ elementlarni talab qiladi. Metaforalarning chastotasini aniqlash uchun tanlangan matnlarda korpus lingvistikasi usuli qo‘llanildi. Metodologik tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ilmiy matnlardagi metaforalar har bir fan va tilga ko‘ra turlicha qo‘llaniladi. Ingliz tilida metaforalar yanada keng tarqalgan bo‘lsa, o‘zbek ilmiy matnlarida ular nisbatan kam uchraydi va ko‘proq terminologik xususiyat kasb etadi. Bu esa ilmiy uslubning har bir tilda qanday rivojlanganiga bog‘liq [3].

Shuningdek, semantik va struktur tahlillar metaforalarning ilmiy tushunchalarni ifodalashda samarali vosita ekanligini isbotladi. Ushbu tadqiqot natijalari kelajakda ilmiy matnlarni yozish metodikasi, tarjima nazariyasi va lingvistika tadqiqotlari uchun foydali bo‘lishi mumkin [4].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ushbu tadqiqot ilmiy matnlarda metaforalarning semantik va struktur jihatlarini tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, metaforalarning ilmiy nutqda o‘rni beqiyos bo‘lib, ular yangi ilmiy tushunchalarni shakllantirish, murakkab jarayonlarni oddiyroq tushuntirish va matnning stilistik ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Ilmiy matnlarning asosiy maqsadi ma’lumotni aniq va tushunarli yetkazish bo‘lsa-da, metaforalarning qo‘llanilishi matnning qiziqarli va tushunarli bo‘lishiga yordam beradi. Ayniqsa, yangi ilmiy atamalarni yaratishda metaforalar asosiy rol o‘ynaydi. Masalan, «genetik kod», «axborot portlashi», «intellektual kapital» kabi metaforalar ilm-fan rivojlanishi jarayonida termin sifatida shakllangan [7].

Metaforalarning funksional o‘rni quyidagicha tavsiflanishi mumkin:

Ilmiy terminlarni yanada ta’sirchan va tushunarli qilish (masalan, «neyron tarmoq» – sun’iy intellekt sohasida ishlatiladigan atama).

Ilmiy tushunchalarni abstrakt ifodalash («axborot oqimi», «molekulyar mashina»).

Murakkab jarayonlarni ommalashtirish va ommabop qilish (masalan, «aqlli texnologiyalar») [8].

Biroq ilmiy matnlarda metaforalardan ortiqcha foydalanish matnning aniq va ilmiy uslub talablariga mos bo‘lishiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ayniqsa, texnik va aniq fanlarga oid matnlarda ortiqcha metaforalardan foydalanish terminlarning noaniqlashishiga olib kelishi mumkin.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ingliz tilida yozilgan ilmiy matnlarda metaforalar o‘zbek tiliga qaraganda kengroq qo‘llaniladi. Ingliz tilida metaforalar odatda innovatsion termin yaratish va ilmiy tushunchalarni ifodalash uchun faol ishlatiladi. O‘zbek tilidagi ilmiy matnlarda esa metaforalarning aksariyati an’anaviy

terminlarga asoslangan bo‘lib, ularning zamonaviy rivojlanishi nisbatan cheklangan.
Misol uchun: Inglizcha: «black hole» (qora tuynuk). O‘zbekcha: «gravitatsion quduq» yoki «qora tuynuk» [6].

Ko‘rinib turibdiki, ayrim inglizcha ilmiy metaforalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilish qiyin, chunki ularning ilmiy uslubdagi ishlatilishi va madaniy konteksti farq qiladi. O‘zbek tilida esa terminologik metaforalar ko‘proq rasmiy va ilmiy uslubda ifodalanadi, bu esa ba’zan ularning tushunarliligini pasaytirishi mumkin [5].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, metaforalarning ilmiy matnlarda ishlatilishi sohalarga qarab farqlanadi:

Aniq va tabiiy fanlarda – metaforalar abstrakt tushunchalarni tasvirlash uchun ishlatiladi (masalan, «elektron buluti», «DNK kaliti»).

Ijtimoiy va gumanitar fanlarda – metaforalar jarayon va nazariyalarni tavsiflash uchun keng qo‘llaniladi («madaniy meros», «ijtimoiy kapital») [3].

Texnologiya va innovatsiya sohasida – yangi atamalar yaratishda metaforalardan foydalaniladi («aqlli texnologiyalar», «sun’iy intellekt»).

Bu shuni anglatadiki, metaforalar ilmiy nutqning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning semantik va struktur jihatlarini o‘rganish ilm-fan va texnologiya taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir. Ilmiy matnlarning tushunarli bo‘lishi uchun metaforalar muhim ahamiyat kasb etsa-da, ularning me’yoridan ortiq ishlatilishi ilmiy aniqlik va mantiqiy izchillikka salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ingliz va o‘zbek tilidagi ilmiy matnlarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida metaforalar kengroq va faolroq qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa ilmiy uslub an’anaviy terminlarga tayanadi [8].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). So‘nggi yillarda lingvistik tadqiqotlarning eng dolzarb muammolari - bu insonning muloqot jarayonidagi idrok etish qobiliyati bilan bog‘liq. Biz ilgari to‘plangan tajribaga murojaat qilish orqali yangi ma’lumotlarni qayta ishlaymiz. Metafora, shu nuqtai nazardan, tushunish hodisasini o‘rganish uchun unumdor manbadir. Noma’lumning individual tomonlarini allaqachon ma’lum bo‘lgan narsalarga o‘xshatish orqali, metafora bizga tajriba bilan tasdiqlangan faktlar asosida taxminlar qilish imkoniyatini beradi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, metafora tilshunoslikda eng muhim ko‘chma ma’no hodisalaridan biri bo‘lib, nutq va tafakkur rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Metafora – bu faqatgina badiiy ifoda vositasi emas, balki inson tafakkurining asosiy komponenti bo‘lib, tilning rivojlanishida, ilmiy tushunchalarni shakllantirishda va madaniy tafakkurda katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Abdullayeva, I. A. K., & Khushbakova, N. N. K. (2022). Problems of Translating English Idioms Into Uzbek. Academic research in educational sciences, 3(11), 208-211.
2. Boborajab o‘g‘li, S. H. (2024). REPRESENTATIVE FEATURES OF LINGUISTIC MANIPULATION IN THE COMMUNICATIVE SITUATION. *Social science and education*, *1*(2), 41-47.
3. Boymirzayeva S. Matn hodisasi mazmuniy tuzilishining kognitiv mohiyati. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent. 2010.
4. Khushbakova, N. (2021). LINGUA-CULTURAL ASPECT OF LITERARY TRANSLATION. Экономика и социум, (5-1 (84)), 243-247.
5. Maxraimova Sh.T. O‘zbek tili metaforalarining antroposentrik tadqiqi (nominativ aspekt). Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand. 2020.
6. Sobirjonova, M., Qayumova, M., Turdalieva, S., & Xayitaliyev, S. (2024). LINGVOKULTUROLOGIYANING SHAKLLANISHIDA KONSEPTNING O ‘RNI. *Interpretation and researches*.
7. Sobirjonovna, S. M. (2023). EXPLANATION OF DISCOURSE MARKERS. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, *21*, 193-199.
8. Sobirjonovna, S. M. (2023). TYPES OF PRONOUNS IN ENGLISH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, *11*(4), 1039-1041.
9. Xudayberganova D. O‘zbek tilidagi matnlarning antroposentrik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi. – Toshkent. 2013.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 821.111

RAMZIY DETALLARNING G‘ARB ADABIYOTIDA INTERTEKSTUAL TADQIQI

Sadikova Dildora Nizomovna, Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi

INTERPRETATION OF SYMBOLIC DETAILS IN WESTERN LITERATURE

Sadikova Dildora Nizomovna Assistant teacher of NavSU

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ СИМВОЛИЧЕСКИХ ДЕТАЛЕЙ В ЗАПАДНОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Садыкова Дильдора Низомавна, Ассистент преподаватель Навоийского государственного университета

ORCID:0000-0002-1961-9677

sadikovadilya88@gmail.com

Abstract: *Ushbu maqolada simvollarning ahamiyati, funktsiyalari va adabiy asarlarga qo‘shgan hissasini o‘rganish orqali, ularning hikoyalarni qanday boyitishi va o‘quvchilarni qanday jalb qilishi haqida ma’lumot beriladi.Dan Braunning Da Vinchi siri (2003)asari san’at, din, tarix va fitna nazariyalarini birlashtirgan madaniy hodisadir. Ushbu maqola Da Vinchi siridagi ramzlarning intertekstual tabiatini o‘rganadi, Braunning diniy va tarixiy an’analarni qayta talqin qilish uchun tarixiy va badiiy motivlarni qanday qayta kontekstlashtirishini tahlil qiladi. Muqaddas Grail, pentakl va Vitruvius Odami,febbonachi ketma -ketligi kabi asosiy ramzlarni o‘rganish orqali bu tadqiqot romanning mavjud matnlar bilan bog‘liqligi va zamonaviy diskursga ta’sirini tahlil qiladi.*

Kalit so‘zlar: *ramz , intertekstuallik, Muqaddas Graal, pentakl, vitruvius odami, fibbochi ketma ketligi.*

Abstract: *This article explores the significance, functions, and contributions of symbols in literary works, shedding light on how they enrich narratives and engage readers. Dan Brown's The Da Vinci Code (2003) is a cultural phenomenon that combines art, religion, history, and conspiracy theories. This article examines the intertextual nature of symbols in The Da Vinci Code, analyzing how Brown recontextualizes historical and artistic motifs to reinterpret religious and historical traditions. By studying key symbols such as the Holy Grail, the pentacle, and the Vitruvian Man, Fibbochi sequence, this research highlights the novel's connection to existing texts and its impact on contemporary discourse.*

Key words: *symbol, intertextuality, Holly Grail, pentacle, fibbochi sequence , vitruviuos man.*

Аннотация: *В данной статье исследуются значение, функции и вклад символов в литературные произведения, раскрывая то, как они обогащают повествования и привлекают читателей. Роман Дэна Брауна Код да Винчи (2003) является культурным феноменом, объединяющим искусство, религию, историю и теории заговоров. В этой статье рассматривается интертекстуальная природа символов в Коде да Винчи, анализируется, как Браун переосмысливает исторические и художественные мотивы для переинтерпретации религиозных и исторических традиций. Изучая ключевые символы, такие как Святой Грааль, пентакль и Витрувианский человек, это исследование подчеркивает связь романа с существующими текстами и его влияние на современный дискурс.*

Ключевые слова: *символ, интертекстуальность, Святой Грааль, пентакль, Витрувианский человек, последовательность Фибоначчи.*

Kirish

Ramziylik XIX asr oxiri va XX asr boshlarida muhim adabiy harakat sifatida shakllanib, undan oldingi realizm va naturalizm bilan tavsiflangan davrlardan ajralib turadi. Bu harakat to‘g‘ridan-to‘g‘ri tasvirlash o‘rniga, ramziy ifoda orqali chuqur ma'nolar va hissiyotlarni yetkazib berishga intiladi. Ramziylikning tarixiy kontekstini tushunish, uning ilk adabiy harakatlari, ayniqsa romantizm va modernizm bilan yaqin aloqalarini ochib beradi, bu harakatning rivojlanishiga va mavzularga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Ramzlar mualliflarga murakkab g‘oyalarni qisqa va aniq ifodalash imkonini beradi. Obyektlar, personajlar yoki voqealarni simvol sifatida ishlatish orqali, yozuvchilar kengroq temalar yoki hissiyot holatlarini o‘sha elementda jamlab qo‘yadi. Simvollarni integratsiya qilish orqali, mualliflar hikoyalarining tematika teranligini oshiradi. Shuningdek ramzlar madaniy ahamiyatga ega bo‘lib, ular yaratilgan davrdagi madaniy qadrlar va jamiyat muammolarini aks ettiradi. *Mobi Dik* asarida, Germna Melvill oq balindan ishlatib, insonning tabiatga qarshi kurashi, odatlar va befarq yondashuvlar bilan bog‘liq murakkab simvol sifatida uning kurashini ifodalaydi (Melvill,1851). Bunday simvollar o‘quvchilarni personajlarning madaniy kontekstlari va real mavjud bo‘lgan muammolarini o‘rganishga taklif etadi.

Ramzlar o‘quvchilarni tafakkur qilishga taklif etadi, ularni matndagi ma’nolarning qatorlarini aniqlashga majbur qiladi. Ramzlar ham madaniy va tarixiy holatlarni o‘z ichiga qamrab olgan bo‘lib, ularni ibtidoiy davrdan boshlab to zamonaviy adabiyot shakllarida ko‘rish mumkin. G‘arb adabiyotidagi simvollar murakkab g‘oyalarni ifodalashda, mavzularni teranglashtirishda, madaniy qadrlarni aks ettirish va o‘quvchilarni talqin qilishga jalb etish uchun muhimdir. Yozuvchilar simvollarni ishlatish orqali, o‘z hikoyalarini hayotga olib keladilar, mustaqil tadqiqot va turli kontekstlarda inson tajribasini tushunishga taklif qiladilar.

Adabiyotlar tahlili

Ramzlar uzoq vaqtdan beri G‘arb adabiyotining asosiy tayanchi bo‘lib kelgan, ular so‘zma-so‘z ma’nolar bilan metaforik, mavhum tushunchalar o‘rtasida ko‘prik vazifasini o‘taydi. G‘arb adabiyotidagi ramzlarning rolini o‘rganish va tahlil etish, ularning murakkab mavzularni yetkazish, hikoyalarni boyitish va o‘quvchilarni insoniy tajribalarning universal jihatlari bilan bog‘lashdagi ahamiyatini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Asarlardan misollarni tahlil qilib, bu tadqiqot belgilarning madaniy va vaqt chegaralaridan oshib, insoniyat uchun doimiy qadriyatli ma’lumotlar taqdim etishini ta’kidlaydi.

Bilamizki adabiyotda ramzlar ikki xil yo‘l bilan tushuniladi, to‘g`ridan to‘g`ri va ko‘chma ma’noda,albatta oxirgisi matnda chuqur ma’no kasb etadi. Postmodernizm adabiyotida simvolizm yo‘nalishida turli ramzlar, simvollar, belgi va jumboqli rasmlarni o‘z ichida olgan.Ushbu ramzlarni intertekstual tahlil qilish esa tadqiqotimizning asosiy obyektidir.

Intertekstuallik, Julia Kristeva tomonidan kiritilgan tushuncha bo‘lib, matnlar o‘rtasidagi munosabatlar va ularning bir-biriga ta’siri va qayta shakllantirishini anglatadi [1]. Da Vinchi siri romanida Den Braun intertekstuallikni keng qo‘llaydi, tarixiy, diniy va badiiy an’analar bilan bog‘liq ramzlardan foydalanadi. Bu ramzlar nafaqat bezak sifatida emas, balki fantastika va haqiqat o‘rtasidagi bo‘shliqni to‘ldiruvchi hikoya vositalari sifatida xizmat qiladi. D.Braunning intertekstual ramzlardan foydalanishi o‘quvchilarni xristianlik, san’at va tarix haqidagi o‘rnatilgan rivoyatlarni qayta ko‘rib chiqishga undashini ta’kidlaydi. Ta’kidlab o‘tilganidek Romanning eng qiziqarli jihatlaridan biri intertekstuallikdan foydalanishidir, xususan, Uyg‘onish davri san’ati, xristian ilohiyoti va qadimiy mifologiya kabi turli manbalardan olingan ramzlar orqali ularni qanday qayta kontekstlashtirishini tahlil qiladi [2]. Pentakl, anagramma, fibbonachi ketma ketligi, Muqaddas graal kabi asosiy ramzlarni o‘rganish orqali bu tadqiqot romanning mavjud matnlar bilan bog‘liqligi va zamonaviy diskursga ta’sirini ta’kidlaydi.

Muhokama va tahlil

Muqaddas Grail ramzi - “Graal" so‘zi, eng dastlabki etimologik jihatdan tahlil qilsak, qadimgi fransuzcha *graal* yoki *greal* so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, qadimgi oksitanchadagi *grazal* va qadimgi kataloncha *gresal* so‘zlariga o‘xshashdir. Bu so‘z "yer, yog‘och yoki *metalldan yasalgan kosacha* yoki *idish*" (yoki oksitancha shevalarning turli

variantlarida har xil turdagi idishlar) ma'nolarini anglatgan.

Eng keng tarqalgan etimologik izohga ko'ra, bu so'z lotinchadagi *gradalis* yoki *gradale* so'zidan kelib chiqqan bo'lib, undan oldinroq shakli *cratalis* bo'lgan. Bu so'z esa o'z navbatida crater yoki cratus so'zidan hosil bo'lgan bo'lib, qadimgi yunoncha krater (κρᾱτήρ – katta sharob aralashtirish idishi) so'zidan olingan [3].

Ayrim manbalarga ko'ra, bu so'z *cratis* (to'qilgan savat turi bo'lib, keyinchalik idishga nisbatan ishlatilgan) so'zidan yoki lotincha gradus so'zidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin. Gradus so'zi *"bosqichma-bosqich", "pog'onama-pog'ona"* degan ma'noni bildirgan va bu so'z ovqat vaqtida dasturxonga tortiladigan taomlarga nisbatan ishlatilgan.

Da Vinchi siri romanidagi eng mashhur ramzlardan biridir. An'anaviy ravishda Grail Iso Masihning So'nggi Kechaning kechki ovqatida foydalangan kosasi sifatida tasvirlangan, ammo Braun uni muqaddas onalik ramzi sifatida qayta talqin qiladi. Bu talqin o'rta asr afsonalari, Gnostik matnlar va feminist ilohiyotdan ilhomlanadi. Braunning *Graali* jismoniy narsa emas, balki Maryam Magdalinaning Isoning qon sulolasi vakili sifatidagi rolining ramzidir (Braun, 2003,b.236). Bu talqin Margaret Starbirdning *The Woman with the Alabaster Jar* (1993) asariga mos keladi, unda Maryam Magdalinaning Isoning xotini va ilk xristianlikdagi markaziy shaxs ekanligi ta'kidlanadi. Braun Grailni Maryam Magdalinaga intertekstual ravishda bog'lab, xristian tarixining patriarxal talqinlariga qarshi chiqadi.

Pentakl, besh qirrali yulduz, romandagi yana bir muhim ramzdir. Pentaklning etimologik kelib chiqishini o'rganadigan bo'lsak bu so'z birinchi marta fransuz tilidan 1561-yilda ingliz tilida yozilgan. Fransuz tilida bu so'z *"talisman"* degan ma'noni anglatadi. Shuningdek, bu so'z o'z navbatida lotincha "pentaculum" so'zidan (lotincha kichraytiruvchi -culum qo'shimchasidan foydalangan holda), italyancha *"pentacolo"* so'zidan kelib chiqqan [4].

D.Braun uni muqaddas onalik va tabiatning uyg'unligini ifodalash uchun ishlatadi. Tarixiy jihatdan pentakl paganizm va okultizm bilan bog'liq bo'lib, ko'pincha yovuzlik ramzi sifatida noto'g'ri tushunilgan. Da Vinchi kodi romanida Braun pentaklning asl ma'nosini tiklab, uning qadimiy madaniyatlarda qo'llanilishi va sevgi ma'budasi Venera bilan bog'liqligini ta'kidlaydi (Braun, 2003, 37). Bu qayta talqin Eliphas Levi kabi olimlar tomonidan qo'llab-quvvatlanadi, u Transcendental Magic (1854) asarida pentakl inson mukammalligining ramzi sifatida tasvirlaydi.Braunning pentaklni intertekstual tarzda ishlatishi o'quvchilarni xristianlikdan oldingi ramzlarni shaytonlashtirish haqida savol berishga undaydi.Besh qirrali yulduz-Pentaklni yozuvchi asarda turli ma'nolarda kelishini ya'ni diniy va falsafiy ma'nolarini ochib berishda yorqin misollar asosida professor R.Lengdon orqali ko'rsatib bergan.

"*"Symbols carry different meanings in different settings," Langdon said. "Primarily, the pentacle is a pagan religious symbol."*

- Nowadays, the term pagan had become almost synonymous with devil worship—a gross misconception. The word's roots actually reached back to the Latin paganus, meaning countrydwellers. "Pagans" were literally unindoctrinated country-folk who clung to the old, rural religions of Nature worship. In fact, so strong was the Church's fear of those who lived in the rural villes that the once innocuous word for "villager"—villain—came to mean a wicked soul.

"The pentacle," Langdon clarified, "is a pre-Christian symbol that relates to Nature worship. The ancients envisioned their world in two halves—masculine and feminine. Their gods and goddesses worked to keep a balance of power. Yin and yang. When male and female were balanced, there was harmony in the world. When they were unbalanced, there was chaos." Langdon motioned to Saunière's stomach. "This pentacle is representative of the female half of all things—a concept religious historians call the 'sacred feminine' or the 'divine goddess.' Saunière, of all people, would know this"

Langdon had to admit, it seemed odd. "In its most specific interpretation, the pentacle symbolizes Venus—the goddess of female sexual love and beauty."*"*[5]

Demak, shuni aytish mumkinki *pentakl* yoki *pentagramma* ramzi kelib chiqish tarixi o'rta asrlarga borib tarqalishi va matematikadagi mukammal shakl, ya'ni besh qirra ayollik va erkaklik tengligini ifodalishi tarixiy va zamoniviy adabiyotlarda o'z ichki yashirin va tashqi ma'nolarini ifoda etgan. Da Vinchi siri asaridagi bu

ramz gipoteks sifatida Wikkalarning *“Magick Book, Golden Dawn”* kitoblarida uchratish mumkin bo‘lgan ilohiy tumor ramziy ma’nolarini aks ettirgan [6]. Har bir millat yohud har bir madaniyatda o‘zgacha ma’no kasb etgan pentakl ramzi muallif tomonidan hikoyada turli ma’nolarda ifoda etilgan.

Vitruvius Odami: Insoniyat Potentsialining Ramzi

Leonardo da Vinchining Vitruvius Odami romanda doimiy takrorlanadigan motiv bo‘lib, san’at, fan va ma’naviyatning kesishgan nuqtasini ifodalaydi. Braun bu chizmani Leonardo Da Vinchi insoniyatning ilohiy tabiatiga bo‘lgan ishonchini ta’kidlash uchun ishlatadi. Vitruvius Odami nafaqat inson tana nisbatlarining tasviri, balki moddiy va ma’naviy o‘rtasidagi muvozanatning metaforasidir (Braun, 2003, 119). Bu talqin san’at tarixchisi Martin Kempning Leonardo asarlari bo‘yicha tahliliga mos keladi, u rassomning inson tanasini koinotning mikrokosmosi sifatida qiziqishini ta’kidlaydi (Kemp, 1981). Vitruvius Odamini hikoyaga kiritish orqali Braun romandagi yashirin haqiqatlarni ochib berish mavzusini ta’kidlaydi. Bu usul intertekstuallikda alluziya (ishora) bo‘lib o‘quvchi ushbu mashhur ramz orqali asarda berilayotgan ishorani ta’kidlaydi.

Fibonachchi ketma-ketligi, ya’ni har bir raqam oldingi ikkita raqam yig‘indisidan hosil bo‘lgan sonlar qatori (masalan, 0, 1, 1, 2, 3, 5, 8, 13, ...), asrlar davomida matematiklar, olimlar va san’atkorlarni hayratda qoldirib kelgan. Garchi adabiyotda uning aniq qo‘llanilishi kam uchrasa-da, ba’zi mualliflar va shoirlar o‘z asarlarida Fibonachchi ketma-ketligi yoki uning tamoyillarini strukturaviy yoki mavzuiy vosita sifatida qo‘llaganlar [7]. Fibonachchi ketma-ketligi ko‘pincha tabiiy naqshlar, masalan, barglar, gullar va qobig‘larning joylashuvi bilan bog‘liq. Adabiyotda u o‘sish, uyg‘unlik va hayotning o‘zaro bog‘liqligini ramziy qilishi mumkin. Uning qo‘llanilishi nafaqat matematik go‘zallikka ishora, balki chuqur falsafiy va estetik mavzularni o‘rganish usuli hamdir. Quyida bir nechta diqqatga sazovor misollar keltirilgan:

Dan Braun "Da Vinchi kodi" asarida

Dan Braunning "Da Vinchi kodi" (2003) bestseller romanida Fibonachchi ketma-ketligi aniq tilga olinadi va syujetning bir qismi sifatida ishlatiladi. Ketma-ketlik sirni ochish uchun kod sifatida qo‘llaniladi, bu uning matematik go‘zalligi va tarixiy ahamiyatini ta’kidlaydi. Braunning Fibonachchi ketma-ketligidan foydalanishi uning san’at, fan va sirni birlashtirishga bo‘lgan qiziqishini aks ettiradi.

She’riyat va "Fib" shakli

Zamonaviy she’riyatda Fibonachchi ketma-ketligi "Fib" deb nomlangan she’riy shaklga ilhom bergan. Bu shaklda har bir misradagi bo‘g‘inlar soni Fibonachchi ketma-ketligiga mos keladi (masalan, 1, 1, 2, 3, 5, 8 bo‘g‘in). Gregory K. Pincus kabi shoirlar bu shaklni ommalashtirib, o‘sish, tabiat va o‘zaro bog‘liqlik kabi mavzularni o‘rganishda foydalanganlar, xuddi ketma-ketligning o‘zi kabi.

Vladimir Nabokov "Pale Fire" asarida

Garchi Fibonachchi ketma-ketligi aniq qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, Vladimir Nabokovning *"Pale Fire"* (1962) asari uning murakkab tuzilishi va raqamli naqshlari bilan mashhur. Ba’zi adabiyotshunoslar, matematikaga qiziqishi chuqur bo‘lgan Nabokovning Fibonachchi kabi matematik ketma-ketliklardan ilhom olgan bo‘lishi mumkinligini ta’kidlashadi, bu uning asarlarining qatlamli murakkabligini yaratishga yordam bergan [8]. Garchi Fibonachchi ketma-ketligi adabiyotda boshqa adabiy usullar kabi keng qo‘llanilmasa-da, "Da Vinchi kodi" kabi asarlarda va eksperimental she’riyatdagi mavjudligi uning ijodkorlikni ilhomlantirish va badiiy ifodaga qo‘shimcha ma’nolar qo‘shish imkoniyatini ko‘rsatadi [9].

Braunning intertekstual ramzlardan foydalanishi ikki tomonlama maqsadga xizmat qiladi: bu hikoyani boyitadi va o‘quvchilarni mavjud matnlar bilan muloqotga jalb qiladi. Braun S*o‘nggi Kecha, Sion Priory va Apokrif* kabi asarlarga murojaat qilib, haqiqat va fantastika o‘rtasidagi chiziqni noaniq qiladigan qatlamli hikoya yaratadi. Bu usul keng munozaralarga sabab bo‘ldi, tanqidchilar Braunni tarixiy noaniqliklar uchun aybladi, qo‘llab-quvvatlovchilar esa uni murakkab g‘oyalarni ommalashtirish qobiliyati uchun maqtadi. [10]

Xulosa

Demak qarama-qarshiliklar qanday bo‘lmasin, Da Vinchi siridagi intertekstual ramzlar adabiyotning madaniy rivoyatlarni qayta talqin qilish va qayta shakllantirish qudratini namoyish etadi. Dan Braunning Da Vinchi siri ramzlarning doimiy kuchiga va ularning vaqt va kontekstdan oshib ketish qobiliyatiga guvohlik beradi. Intertekstuallik orqali Braun Muqaddas Grail, pentakl va Vitruvius Odami, fibbochi ketma ketligi kabi ramzlarni qayta talqin qilib, o‘quvchilarni o‘rnatilgan rivoyatlarni shubha

ostiga olish va tarix va din haqida muqobil talqinlarni o‘rganishga undaydi. Roman tarixiy noaniqliklari uchun tanqid qilingan bo‘lsa-da, uning intertekstual boyligi uning madaniy ta’siriga bevosita hissa qo‘shgan. Turli matnlar va an’analar bilan muloqot qilib, Da Vinchi kodi o‘quvchilarni haqiqatning tabiati va ramzlarning dunyoni tushunishimizdagi rolini muhokama qilishga taklif qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Graham Allen. Intertextuality. Routledge, 2000. ISBN 0-415-17474-0. B 200.
2. Nizomovna, Sadikova Dildora. "The category of intertextuality: Allusion, quotation, symbol." *International Journal Of Literature And Languages* 4.11 (2024): 46-54.
3. Diez, Friedrich. An etymological dictionary of the Romance languages, Williams and Norgate, 1864, p. 236.
4.Crowley, Aleister (1991). "Liber CLXV: A Master of the Temple". The Equinox of the Gods. New Falcon Publication. ISBN 978-1561840281. "The Pantacle of Frater V. I. O
5.Dan Brown “Da Vince Code” 2003 p, 34-36 (1st ed.), US: Doubleday, April 2003, ISBN 0-385-50420-9.
6.D. Sadikova, Den Braunning “da Vinchi siri asaridan “**Pentakl**” ramzining tadqiqi, Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№4/4 (113), Хоразм Маъмун академияси, 2024 й. – 460 б. – Босма нашрнинг электрон варианти - http://mamun.uz/uz/page/56, b-251.
7.Richard A. Brualdi, Introductory Combinatorics, Fifth edition, Pearson, 2005
8.Scott, T.C.; Marketos, P. (March 2014), On the Origin of the Fibonacci Sequence (PDF), MacTutor History of Mathematics archive, University of St Andrews
9.Mathematical Patterns in Poetry: The Fibonacci Sequence (Poetry and Mathematics Quarterly, 2018)
10. *Sulla letteratura* (2003 – English translation by Martin McLaughlin: *On Literature*, 2004).

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 821.512.133

VOQELIKNI REALISTIK AKS ETTIRISHDA ILMIY TAFAKKURNING ROLI YUSUF SHOMANSUR TALQINIDA

Tursunoy Jarkinova Abdumajitovna, ToshDO'TAU tayanch doktoranti

THE ROLE OF SCIENTIFIC THINKING IN THE REALISTIC REFLECTION OF REALITY IS INTERPRETED BY YUSUF SHOMANSUR

Tursunoy JARKINOVA Abdumajitovna, PhD student of TashDO'TAU

РОЛЬ НАУЧНОГО МЫШЛЕНИЯ В РЕАЛИСТИЧЕСКОМ ОТРАЖЕНИИ РЕАЛЬНОСТИ ИНТЕРКУЕТ ЮСУФ ШОМАНСУР

Турсуной Жаркинова Абдумажитовна, аспирантка ТашДО'ТАУ

https://orcid.org/0009-0008-2368-8377

tursunoyjarkinova@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Yusuf Shomansurning munaqqid sifatidagi ijodiy izlanishlari haqida fikr yuritiladi. Unda voqelikni realistik aks ettirishda ilmiy tafakkurning roli haqida ijodkorning qarashlari berilgan. Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton ijodida ilmiy asarlaring ta'siri qay darajada bo'lganligini Yusuf Shomansur qanday talqin qilganligi haqida fikr-mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *munaqqid, proza, poeziya, romantizm, realizm, monografiya, pyesa, novatorlik*

Abstract: *This article discusses the creative research of Yusuf Shomansur as a critic. It contains the author's views on the role of scientific thinking in realistic reflection of reality. Opinions are given about how Yusuf Shomansur interpreted the influence of scientific works on the works of Maqsud Sheikhza and Izzat Sultan.*

Key words: *criticism, prose, poetry, romanticism, realism, monograph, play, innovation*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются творческие поиски Юсуфа Шомансура как критика. В ней изложены взгляды автора на роль научного мышления в реалистическом отображении действительности. Приводятся мнения о том, как Юсуф Шомансур интерпретировал влияние научных трудов на творчество Максуда Шейхзы и Иззата Султана.*

Ключевые слова: *критика, проза, поэзия, романтизм, реализм, монография, пьеса, новаторство.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yusuf Shomansurning munaqqid sifatidagi qalami o'z ustida qilingan tinimsiz mehnat natijasida o'tkirlashib boradi. Uning adabiy-estetik dunyoqarashi ijoddan ijodga, taqrizdan maqolaga, maqoladan risolaga qarab kengayib boradi. Yusuf Shomansurning akademik Naim Karimov rahbarligida himoya qilgan "Voqelikni realistik aks ettirishda ilmiy tafakkurning roli"[1][1] mavzusidagi dissertatsiyasida ilmiy salohiyati yuksalgan, tafakkur doirasi kengaygan mutaxassisni ko'ramiz. Tadqiqot ishi Maqsud Shayxzodaning ijodida realizmning boyishi, undagi novatorlikning ahamiyati, Izzat Sulton ijodida realistik tasvir san'atining o'rni, Pirimqul Qodirovning prozasi haqidagi boblarga ajratilib, undagi fikrlar ilmiy dalillarga, tahlillarga asoslanganligi jihatidan bizga qimmatlidir. Yusuf Shomansur ham ijod, ham tanqidchilik borasida

[1] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати …дисс. – Тошкент, 1973 – 158 б.

munosib o‘rniga ega bo‘lgan o‘zbek adabiyotining yetakchi vakillarini sanar ekan, ularning qatoriga Hamza, A.Qodiriy, G‘afur G‘ulom, Oybek, Hamid Olimjon, Maqsud Shayxzoda, Izzat Sulton, Pirimqul Qodirovlarni kiritadi. Maqsud Shayxzodaning poetik ijodi, Izzat Sulton dramaturgiyasi, Pirimqul Qodirov prozasiga alohida etibor qaratadi. Ularning adabiy-tanqidiy maqolalari nazariy teranligi, o‘tkir mulohazalarga boyligi bilan alohida ajralib turishiga diqqatini qaratadi. Tadqiqot obyekti qilib uch olim-yozuvchining asarlari olinadi. Asarning birinchi bobi “Romantizmdan realizmga”, “Realizmning boyishi”, “Lirik qahramonning ruhiy olami”, “Fidoyi qahramon obrazi” kabi qismlardan iborat. Yusuf Shomansur birinchi faslda o‘zbek adabiyotining romantizmdan realizmga o‘tish bosqichi haqida gapirar ekan, asosiy tur sanalmish poeziyaning o‘rni haqida to‘xtaladi. Unga shunday ta’rif beradi: “Poeziya hayotni odatda oliyjanob insoniy tuyg‘ular silsilasida tadqiq etadi. Hayot hodisasi haqqoniy ehtiroslar prizmasidan o‘tsagina poeziyaga aylanadi. Poeziyaning o‘ziga xos birinchi muqaddas xususiyati shunda. Nazm shakliga kirgan, lekin haqqoniy poetik jozibaga ega bo‘lmagan tizmalar shuning uchun ham hamma davrlarda poeziyaga yot bo‘lib kelgan. Aksincha, hamma nozik va chin tuyg‘ular ham she’riyatga aylanavermaydi. Negaki, poeziya tuyg‘ularning o‘ziga xos shakl me’yorini talab qiladi, boshqa janrlar “ayta olmagan”gapni xuddi shu yo‘sinda aytishga imkon topadi”[2][2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / MATERIALS AND METHODS). Yusuf Shomansur tadqiqotchi sifatida poeziyada hayot hodisalarni ifodalashda XVIII asrgacha romantizmdan foydalanib kelinganligi aytar ekan, XIX asrga kelib, poetic ijodda tub burilish yuz berganligini ta’kidlaydi, ya’ni ijodkorlar xalq dardini, og‘ir hayot qiyinchiliklarini, ijtimoiy tengsizlik sabablarini aniqroq ko‘rishga va konkretroq ifodalay boshlaganligini yozadi. Realizmning bunday xususiyatlarini Maqsud Shayxzoda she’riyati misolida ochiqlab beradi. Urush davrida yaratilgan “Kurash nechun?”, “Berlinda sud bo‘lg‘usi”, “Kapitan Gastello”, “Pxenyanning qoni” singari she’rlari o‘zining gumanistik pafosi bilan, oliyjanob g‘oyalarning tantanasiga ishonch ruhi, she’riy tuzilishidagi yangi-yangi izlanishlari bilan ajralib turishini qayd etadi. Shayxzoda she’riyatining o‘sishida Mayakovskiyning ta’siri masalasi alohida tahlil qilinadi. Bunda muhim omillar sifatida shoirning ijodi haqida Shayxzodaning “Yangi tip shoir”, “Sovet she’rlarining ustozi”, “Sovet poeziyasining klassigi”, “Mayakovskiy – she’riyatimiz bayrog‘i”, “Mayakovskiy va o‘zbek sovet adabiyoti”, “Yangi shuur va she’r kuychisi”, “Shoirning tirik ovozi”, “Hamisha tirik” kabi maqolalarida san’atkorning poeziyasi chuqur tahlil qilinganligini ta’kidlaydi: “Shayxzoda olim sifatida poeziyaning yuksalishida, parvoz qilishida madad beradigan omillarni tekshirar ekan, ularni uch katta tarmoqqa ajratadi: klassik adabiyot an’analarini o‘rganish, xalq ijodiyoti sirlaridan voqif bo‘lish va hozirgi zamon rus she’riyatining novatorona yutuqlarini izma-iz tahlil qilish. 20-yillarning o‘rtalarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan boshqa qator shoirlar singari u ham dastlab hozirgi rus poeziyasining tajribalaridan ozuqa oladi, estetik tasavvurlarini oshirib, ijodiy kuchini, qalamini sinab ko‘radi. Shundan keyingina u o‘zbek klassik adabiyoti an’analariga murojaat etadi. Shu narsa Shayxzoda poeziyasida realizmning shakllanishi va kuchga to‘lishida o‘z aksini topadi”[3] [3]. Yusuf Shomansur ustozi Shayxzoda she’riyatining ildizlarini uning adabiy-tanqidiy maqolalariga bog‘laydi. Rus poeziyasining novatorlik an’analarini Mayakovskiy ijodini tahlil qilish jarayonida o‘rgangan bo‘lsa, klassok she’riyatda realistik tasvir masalalarini Alisher Navoiy asarlarini tekshirish jarayonida tadqiq etganliga alohida ahamiyat beradi. Realistik an’analarning ta’siri yaqqol sezilgan she’rlari sirasiga esa “Muallim”, “Quyosh, oy, qiz”, “Suv qissasi”, “Olma”, “Ko‘zlar” ni kiritadi. Shayxzoda poeziyasining uchinchi irmog‘i sanalmish xalq og‘zaki ijodining ta’sirini “Toshkentnoma” dostoni misolida tahlil qiladi. Shuningdek, olim “Navoiy ijodida folklor motivlari” ilmiy kitobini yozish jarayonida o‘zlashtirgan bilimlarni o‘z ongiga ham juda chuqur singdirib olganligi sababli ham asarlarida xalq og‘zaki ijodining xazinalaridan bahramand bo‘lganligini yaqqol sezish

[2] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати …дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 9.

[3] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати …дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 26.

mumkinligini yozadi. “Kapitan Gastello”da klassik adabiyotga xos fazilatlar bilan novatorlik belgilari sintetik birlashib ketganligini aytib o‘tadi: “She’rdagi “She’r yurakli bu lochin” ta’biri klassik tasvirga yaqin tursa, “Bir munchasi qochdilar baland demay, past demay” iborasi xalq ijodiyotining nafasini ufurib turadi. “Umrlar bo‘ladiki, tirigida o‘likdir, o‘limlar bo‘ladiki, o‘lgan odam tirikdir” kabi lo‘nda ifodalar esa Mayakovskiy novatorligining ijodiy ta’sirida topilgan quyma satrlar bo‘lib, lirik qahramon dunyoqarashining ko‘zgusiga aylanadi[4]. Yusuf Shomansur Maqsud Shayzodaning uch manba ta’sirini garmonik birlashtira olganligini uning tuyg‘ular haqqoniyligini bera olishdagi iste’dodiga bog‘lasa, uning ijodida hayot tasviri, yangi zamon qahramonlari kechinmalari, bugungi kunning eng dolzarb, tarixiy voqealari o‘zining haqqoniy ifodasini topganligini to‘rtinchi manba – shoir-tadqiqotchiligiga aloqador deb biladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ikkinchi bobda Izzat Sultonning yozuvchi-tadqiqotchiligiga alohida e’tibor qaratilib, ilmiy-tanqidiy asarlarining mohiyati ochiqlanadi. Izzat Sultonning ijtimoiy-tarixiy muhit bilan bosh qahramon munosabatlari haqidagi mulohazalari o‘rtaga tashlanadi. “Abay” romanining yutuqlarini to‘g‘ri talqin qilganligiga urg‘u berilib, o‘zining ijodiga ham unda qo‘yilgan talablar asosida qo‘l urganligi aytiladi. Yusuf Shomansur “Ijtimoiy muhit bilan qahramon birligi” tamoyili asosida yaratilgan obrazlar sirasiga aynan Izzat Sulton tomonidan yaratilgan Navoiy, Furqat, Niyoz kabilarni kiritadi. Izzat Sultonning “Mashhur san’atkor” maqolasi ahamiyati yuqori ekanligi aytilib, undagi tarixiy mavzularda ijod qiluvchi qalamkashning burchlarini ilmiy jihatdan asoslab berganligini diqqatga sazovor jihatlardan deb biladi. Tadqiqotchi Izzat Sultonning “Tarix va zamonaviylik” maqolasini ham muhim masalalar ko‘tarilganligi jihatidan g‘oyatda ahamiyatli deb biladi. Tarixiy janr masalasi faqatgina shakl jihatidan qimmatli emas, nainki tasvir etilayotgan hayotiy materialning mohiyatini qanday tushunish va kishilarning obrazlarini qanday talqin etish, ya’ni mazmun masalasi ekanligini aytganligini yuqori baholaydi. Qolaversa, muallif tarixiy shaxs va qahramon obrazi masalasini “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasi misolida taftish qiladi: “Shayxzoda tragediyasida Ulug‘bekning davlat arbobi sifatidagi qiyofasi yaxshi aks etganligini to‘g‘ri ko‘rsatgan tadqiqotchi asarda Ulug‘bekning olimligi yetarlicha ochib berilmaganligini ham to‘g‘ri tanqid qiladi. Izzat Sulton O‘z fikrini davom ettirib, agar muallif Ulug‘bekning olimlik faoliyatini obrazlar sistemasida rivojlantirganda o‘sha zamonda mutaassiblikning boshida turgan Xo‘ja Axror obrazini yaratish va binobarin, o‘rtadagi kurashni keskinroq, yorqinroq ko‘rsatish imkoni tug‘iladi, deydi”[5] [5]. Yusuf Shomansur Izzat Sultonning maqolalari zamiridagi haqiqatni anglar ekan, dramalarini ana shu falsafani yetkazib turuvchi muhim vositalar ekanligiga ishonch hosil qiladi. Bundan tashqari, uning hayot voqeligini chuqur o‘rganishini yuksak baholaydi, ularni muvaffaqqiyatli asarlarning negizi deb hisoblaydi. zamirida yuzdan ortiq tarixiy manbalar, adabiy-badiiy, ilmiy, memuar asarlar yotgan “Alisher Navoiy” dramasining badiiyati yuksakligini aytib o‘tadi. Unda tarixiy haqiqatga ham, badiiy to‘qimga ham tobe bo‘lib qolmay, o‘sha davr voqeligi realistic aks ettirishga urinish kuchligi o‘zbek adabiyotida tarixiy janrning yana bir qadam olg‘a siljishiga sabab bo‘lganligi ta’kidlaydi. Izzat Sulton uchun esa tarixiy-badiiy asar yozishdan oldin shu mavzu haqidagi ilmiy maqolasi tajriba vazifasini o‘taydi. Tadqiqotchi yozuvchining “Adabiyotni yangi bosqichga ko‘taraylik” maqolasidagi quyidagi fikrlarni fakt sifatida keltiradi: “Badiiy adabiyotda obraz hayotiy fakt bilan yozuvchi idealining qo‘shilishi natijasida maydonga kelgan “quyma”ning xusussiyati shuki, u o‘z tarkibiga kirgan ikkala elementning ham fazilatini orttiradi. Hayotiy fakt ichki ma’no va yorqinlik kasb etsa, ideal ham hayotiylik va ishontiruvchilik kasb etadi. Natijada hayotiy va yorqin obraz maydonga keladi”[6] [6]. Ko‘rinib turibdiki, adibning ilmiy maqolasi yaxshi bir drama yozish uchun zuvala vazifasini bajargan. Buni Yusuf Shomansur dalillar bilan ilmiy asoslab bera olgan. Tarixiy asar

[4] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати …дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 39.

[5] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. кандидати …дисс. – Тошкент, 1973 – Б.64.

[6] Иззат Султон. Асарлар(тўрт томлик). И – том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б 128.

yozishdan oldin ilmiy asar yozish tajribasiga Pushkinning "Pugachyov tarixi" ilmiy asarini namuna qilib keltiradi, o'zbek adabiyotining yirik vakillarining ijod namunalari bilan solishtiradi: "Shunisi xarakterliki, Pushkin Pugachyov hayotini qanday qunt bilan o'rganib, avval ilmiy risola yaratgan bo'lsa, bizning yozuvchilarimiz Oybek, Uyg'un, Izzat Sultonlar ham Navoiy hayotini shunday chuqur o'rgandilar, avval ilmiy asarlari bilan maydonga chiqdilar. Oybek, Izzat Sultonlar Navoiy haqidagi badiiy asarni tugallagandan keyin ham shu mavzudagi ilmiy ijodni, tadqiqqotni to'xtatmadilar. Izzat Sultonning "Navoiyning qalb daftari" monografiyasi shuni ko'rsatib turadi"[7][7]. Bu monografiyaning yutuqlarini e'tirof etib, Navoiyning tarqoq biografiyasini shakllantirishda dasturulamal bo'lganligini, uni yozish jarayonida Izzat Sulton o'zining dramaturg, tarjimon, muharrir, tarixchi ekanligini har qachongidan ham keng ko'lamda namoyish etganligini qayd etadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yusuf Shomansur Izzat Sultonning ilmiy va badiiy ijodining uyg'un jihatlarini Furqat haqida yozilgan asarlari misolida ham ochiqlab beradi. Furqat haqidagi opera librettosi va kino povestida hamda "Burgutning parvozi" pyesasida ham tarix faktlari va hujjatlarni badiiy to'qima yordami bilan yanada chuqur va realistic tasvirlashga erishganligini yuksak baholaydi. Xususan, "Burgutning parvozi" da erishgan yutuqlari haqida: "Izzat Sulton asrimizning boshlarida zulmga qarshi bosh ko'tarib chiqqan xalq vakili Namoz o'g'ri kurashi bilan bog'liq tarixiy faktlarga suyangan holda, shu kurashning mohiyatiga monand syujet yo'nalishini belgilaydi. Syujet qurilishida xalq dostonlariga xos favqulod-dalik, bahodirona ko'tarinki ruh alohida rang va ohanglar bilan ifodalanadi"[8][8], – deydi. Bundan tashqari tadqiqotchi Izzat Sulton asarlarining tili va uslubiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Qolaversa, tarixiy asarlarda til koloriti masalasi olim – Izzat Sulton ijodida dadil va to'g'ri yoritilganligini e'ti-bordan chetda qoldirmaydi. Dramaturg sifatida esa xarakter koloritiga alohida e'tibor berishini haqida esa "Noma'lum kishi"dagi qahramonlari misolida tahlil qilib beradi. Undagi Niyoz, Azamat, Turg'unoy, Nurbobolar tilida – dramaning asosiy qahramonlari oddiy to'polonchilar emas, balki zulmni tag-tomiridan kemirib tashlashga intilayotgan aql-zakovatli kishilar xarakteri yaqqol bo'rtib turishini ta'kidlaydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Tadqiqotchi o'rganayotgan obyektining nafaqat ijobiy tomonlarini yoritib berishi kerakligi ayni haqiqat. Shu bilan birga, unda uchraydigan kamchiliklarni ham ko'zdan qochirmasligi kerak. Yusuf Shomansur ham tadqiqotchi sifatida ijodkorning erishgan yutuqlarini aytishi bilan birga kamchiliklarini ham ko'rsatib o'tadi. Izzat Sulton dramaturgiyasida uchraydigan kamchilikni til koloriti bilan bog'liqlikda deb biladi: "Muallif tarixiy tildagi murakkablikdan qutilaman deb goho boshqa bir nuqsonga yo'l ochib qo'yadi: tarix qahramonlari goho haddan tashqari ko'p gapiradilarki, bu ularning individual xususiyatiga-gina emas, umuman, ularning xarakteriga to'g'ri kel-maydi"[9][9]. Mana shunday qusurlarni ko'rsatgan holda uning mahorati qay darajada ekanligini ham Oybek, Maqsud Shayxzoda ijodiga qiyosan o'rganib chiqadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. Кандидати.дисс.– Тошкент, 1973 – 158 б.
2. Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. Кандидати.дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 9.
3. Иззат Султон. Асарлар(тўрт томлик). И – том. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – Б 128.
4. Султон И. Ҳаёт, адабиёт ва маҳорат: адабий-танқидий ишлар. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1972. – 318 б.
5. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – 392 б.

[7] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. Кандидати.дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 84.

[8] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли: филол. фан. Кандидати.дисс. – Тошкент, 1973 – Б.91.

[9] Юсуф Шомансур. Воқеликни реалистик акс эттиришда илмий тафаккурнинг роли. Филол. фан. кандидати …дисс. – Тошкент, 1973 – Б. 102.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 93.33

TURKISTONDAGI ROSSIYA BANKLARI: XIX ASR OXIRI - XX ASR BOSHLARIDA PAYDO BO‘LISHI VA OQIBATLARI

Ismoilova Parvina Xamidjon qizi, Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

RUSSIAN BANKS IN TURKESTAN: EMERGENCE AND CONSEQUENCES IN THE LATE XIX - EARLY XX CENTURY

Ismoilova Parvina Khamidjon qizi, lecturer at the Department of History of Uzbekistan, Fergana State University

РУССКИЕ БАНКИ В ТУРКЕСТАНЕ: ВОЗНИКНОВЕНИЕ И ПОСЛЕДСТВИЯ В КОНЦЕ XIX - НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Исмоилова Парвина Хамиджон кизи, Ферганский государственный университет, факультет истории, преподаватель кафедры истории Узбекистана

parvinahistorian@gmail.com

https://orcid.org/0000-0003-2032-497X

Annotatsiya: *Maqolada XIX asr oxiri - XX asr boshlarida bank muassasalarining paydo bo‘lishi va ularning Turkiston mintaqasidagi ta'siri uchun zarur shart-sharoitlar ko‘rib chiqilgan. Maqolada, shuningdek, Rossiya banklarining mahalliy aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari tahlil qilinadi. Manbalar asosida mintaqadagi Rossiya banklarining rivojlanishining ikkiligi tahlil qilinadi: bir tomondan, banklar mintaqada sanoatni joriy etishga ko‘maklashdi, boshqa tomondan - mustamlakachilik qaramligini kuchaytirdi.*

Kalit so‘zlar: *Turkiston, Kaufman, iqtisodiyot, sanoat, banklar, resurslar, mustamlakachilik siyosati.*

Abstract: *The article considers the prerequisites for the emergence of banking institutions in the late XIX - early XX century and their influence in the Turkestan region. The article also analyses the socio-economic consequences of Russian banks for the local population. On the basis of sources the duality of development of Russian banks in the region is analysed: on the one hand, the banks promoted the introduction of industry in the region, and on the other hand - strengthened colonial dependence.*

Key words: *Turkestan, Kaufman, economy, industry, banks, resources, colonial policy.*

Аннотация: *В статье рассматриваются предпосылки возникновения банковских учреждений в конце XIX - начале XX века и их влияние в Туркестанском крае. Также в статье анализируются социально-экономические последствия деятельности российских банков для местного населения. На основе источников анализируется двойственность развития российских банков в крае: с одной стороны, банки способствовали внедрению промышленности в крае, а с другой - усиливали колониальную зависимость.*

Ключевые слова: *Туркестан, Кауфман, экономика, промышленность, банки, ресурсы, колониальная политика.*

TAMADDUN NURI

ВВЕДЕНИЕ. Стремление царской России к капиталистическому развитию принимало две разные формы: «развитие вглубь» - экспансия в пределах существующей территории, и «развитие вширь» - распространение капиталистической практики на новые территории. Последнее, на примере Туркестана, представляет собой захватывающую главу в российской экономической истории. Этот процесс, обусловленный поиском новых ресурсов и рынков, привел к значительным экономическим преобразованиям в Туркестане. Стремление к наживе часто затмевало заботу о благополучии местных жителей, что приводило к социальным волнениям и сопротивлению колониальному режиму. Пример Туркестана иллюстрирует противоречия, присущие «развитию вширь», подчеркивая противоречие между экономическим прогрессом и человеческими жертвами колониальной экспансии.

ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД. Потребность в банковском учреждении в Ташкенте становилась все более очевидной, что привело к появлению различных предложений о его создании. Однако, создание банка в регионе оказалось сложным делом. В июле 1867 года Э.Э. Круг в письме к К.П. фон Кауфману изложил планы создания в Ташкенте частного коммерческого банка. Кауфман, еще не знакомый с реалиями Средней Азии, отказался поддержать это предложение.

Вопрос об учреждении банковских учреждений в Туркестане вызывал бурные споры и пристальное внимание со стороны чиновников края. После тщательного рассмотрения 15 марта 1869 года на заседании «Комиссии для образования финансового управления в Туркестанском крае» было решено, что наиболее приемлемым решением является создание отделения Государственного банка в Ташкенте. Однако министр финансов М.Х. Рейтерн откладывал создание этих филиалов, ссылаясь на отсутствие телеграфной линии в Туркестане как на существенное затруднение. [1] Это решение подчеркивает значительную роль коммуникационной инфраструктуры в содействии финансовому развитию, особенно на недавно присоединенных территориях. Отсутствие телеграфной линии затрудняло передачу информации и мешало Государственному банку эффективно управлять своими операциями в регионе. Задержка с открытием отделения Государственного банка в Ташкенте подчеркивает проблемы и сложности, связанные с внедрением современных финансовых институтов в быстро развивающуюся колониальную среду.

ОБСУЖДЕНИЕ. Несмотря на первые задержки, К.П. фон Кауфман оставался приверженцем идеи создания банковского учреждения в Ташкенте. Кауфман рассматривал учреждения банковских институтов как важнейший шаг в содействии развитию российской торговли и промышленности в Средней Азии. Эта инициатива стала основой более широкой программы Кауфмана по созданию четкого и доступного маршрута для проникновения имперских экономических интересов вглубь региона. Неизменная преданность Кауфмана этому проекту подчеркивает то стратегическое значение, которое он придавал банковскому делу как катализатору экономического развития и экспансии в Средней Азии.[2]

Газете «Русский Туркестан», говорилось о том, что: «в 1898 году 18 мая разрещено земельным банкам открыть операции в Туркестанском крае, но только на городском имущество. Вопрос же о кредите владельцам имуществ вне городов остался не разрешённом в то время часть землевладельцев, имеющих крепостные акты пользуются кредитом в государственном банке, но этот кредит как краткосрочный не может удовлетворять наших хозяев, ибо им приходится возвращать ссуду в банк в то время, когда эта ссуда не могла еще помочь хозяйству на ноги». [3]

Фактически, процесс получения кредитов для местного населения заключалось в следующем: каждый желающий получить ссуду должен был подать прощение начальнику уезда, в котором указывалось размер суммы и срок, на который он его просит. Ссуда выдавалась под поручительством двух или трех благонадежных лиц. Благонадежность последних была равна как

TAMADDUN NURI

благонадежность просителя, удостоверяют сельский или аульный старшина и волостной управитель. Если он не пожелают ставить печать на прощение, то ссуда не выдавалась. Следовательно, получение ссуды зависело от согласия туземной администрации. Местная администрация в основном отказывала тем, кто был не в состоянии заплатить ссуду в дальнейшем. Иными словами, ссуда в основном выдавалась состоятельным жителям края или малоимущим, которые пользовались особым расположением волостного управителя.[4]

РЕЗУЛЬТАТЫ. Одним из первых банков в Туркестанском крае это был филиал Государственного банка, который был открыт 10 мая 1875 году в Ташкенте. На момент создания отделения банка управляющим был Действительный статский советник Александр Игнатьевич Штейн[5]. В дальнейшем директором филиала был Н.М. Бахтиаров, который управлял банком до 1881 года. Это отделение было единственным банком в крае, который контролировал бюджетные средства колониальной администрации и выдавал кредиты для развития торговли [6]. Таким образом, создание отделения Государственного банка в Ташкенте стало значительным шагом на пути развития официальной финансовой системы в Туркестане, способствующей развитию торговли и экономического роста.

Постепенно отделения Госбанка стали расширяться в Туркестанском крае, уже к 1915 году в регионе насчитывалось 10 отделений банка [7].

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Создание банковских учреждений в Средней Азии было важнейшей стратегией царской России, способствовавшей экономической экспансии, укреплению имперского контроля и эксплуатации ресурсов региона, что способствовало достижению целей Российской империи. Эти учреждения предоставляли важнейший капитал для российских коммерческих предприятий, способствовали развитию торговли и интегрировали экономику Средней Азии в российскую финансовую систему, тем самым укрепляя царский контроль и позволяя эксплуатировать местные ресурсы в интересах империи. Таким образом Русские банки в Туркестане играли важную роль в укреплении колониальной экономической структуры, поскольку они контролировали движение капитала в провинции. Такой контроль над капиталом также сдерживал рост местного предпринимательства, поскольку местное население было вынуждено полагаться на российские учреждения в вопросах кредитования и капиталовложений. В результате российские банки выступали в качестве инструментов экономического господства, способствуя извлечению богатств из Туркестана и обеспечивая направление ресурсов региона на благо всей имперской экономики.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА:

1. М.И. Вексельман. Деятельность русских коммерческих банков в Средней Азии и их роль в развитии местной буржуазии с.152
2. Там же
3. Русский Туркестан// выпуск № 8 ─1898, с.1
4. Туркестанский сборник. №427 с.131
5. Сост. А.К. Голубев. Русские банки: справочные и статистические сведения о всех действующих в России государственных, частных и общественных кредитных учреждениях. К книге прилагается "Стенная таблица" с перечнем городов, в коих находятся кредитные учреждения или их отделения. Санкт-Петербург: Ком. Съезда представителей банков коммерч. кредита, 1896-1908. с.5
6. Алимджанов Б. История банковского дела в Центральной Азии. “ЗАМОН ПОЛИГРАФ” ТАШКЕНТ, 2022 с.7
7. Правилова Е. Финансы империи: деньги и власть в политике России на национальных окраинах. 1801–1917. – Litres, 2022. с 296

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 811.161.1

XALÍQ DÁSTANLARÍNDA SÓZ ShAQAPLARÍNÍŃ QOLLANÍLÍWÍ

[1]Abdiev Azamat Turǵanbaevich
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Qaraqalpaq tili kafedrası docenti, filologiya ilimleriniń kandidatı
[2]Saparmatov Omar Shamurat ogli
Ájiniyaz atındaǵı NMPI Túrkiy tiller fakulteti talabası

abdiev79 @mail.ru
https://orcid.org/0009-0004-8629-4560

XALQ DOSTONLARIDA SO‘Z TURKUMLARINING QO‘LLANILISHI

[1]Abdiev Azamat Turǵanbaevich
Ajiniyoz nomidagi NDPI Qoraqalpoq tili kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
[2]Saparmatov Omar Shamurat ogli
Ajiniyoz nomidagi NDPI Turkiy tillar fakulteti talabasi

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЛОВОСОЧЕТАНИЙ В НАРОДНЫХ ЭПОСАХ

[1]Абдиев Азамат Турганбаевич
доцент кафедры каракалпакского языка НГПИ им. Ажинияза, кандидат филологических наук
[2]Сапарматов Омар Шамурат оглы
Студент факультета тюркских языков НГПИ им. Ажинияза

omarsaparmatov@gmail.com
https://orcid.org/0009-0009-2807-9041

THE USE OF WORD GROUPS IN FOLK EPISTLES

[1]Abdiev Azamat Turǵanbaevich
Docent of the Karakalpak Language Department of the Ajiniyaz National Research Polytechnic Institute, Candidate of Philological Sciences,
[2]Saparmatov Omar Shamurat ogli
Student of the Faculty of Turkic Languages, NSPI named after Ajinyoz

Annotaciya: Bul maqalada qaraqalpaq xalıq dástanlarında sóz shaqaplarınıń qollanılıw órisi haqqında sóz etilgen bolıp, házirgi qaraqalpaq ádebiy tilinde qollanılıwı menen salıstırmalı túrde izertlengen.

Tayanısh sózler: lingvofolkloristika, morfologiya, atlıq, kelbetlik, sanlıq, feyil, almasıq, ráwish.

Annotatsiya: Bu maqolada qoraqalpoq xalq dostonlarida so‘z turkumlarining qo‘llanilish doirasi haqida so‘z yuritilgan bo‘lib, hozirgi qoraqalpoq adabiy tilida qo‘llanilishi bilan qiyosiy tarzda o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: lingvofolkloristika, morfologiya, ot, sifat, son, fe’l, olmosh, ravish.

Аннотация: В данной статье говорится о сфере использования групп слов в каракалпакском народном эпосе и сравнивается их использование в современном каракалпакском литературном языке.

Ключевые слова: лингвофольклористика, морфология, существительное, прилагательное, число, глагол, местоимение, наречие.

Annotation: This article discusses the scope of use of word groups in Karakalpak folk epics, and compares their use in the modern Karakalpak literary language.

Key words: Linguistic folklore, morphology, noun, adjective, number, verb, pronoun, adverb.

Kirisiw. Xalıq dástanlarınıń tilin úyreniw til ilimindegi aktual máselelerdiń biri bolıp tabıladı. Túrkiy til biliminde sonıń ishinde qaraqalpaq til iliminde keyingi jılları folklorlıq tekstlerdiń tilin úyreniwshi lingvofolkloristika tarawı keń rawajlanıp barmaqta. Lingvofolkloristikanıń tiykarǵı obyekti folklorlıq tekstler bolıp, lingvistikalıq tárepten onıń tilin tereń analizlep úyrenedi.

Tiykarǵı bólim. Qaraqalpaq xalıq dástanlarında sóz shaqaplarınıń qollamılıw órisin úyreniw til biliminiń áhmiyetli máselelerinıń biri. Dástanlardaǵı atlıq, kelbetlik, sanlıq hám feyil sóz shaqapları ónimlı jumsalǵanlıǵın ańlawǵa boladı. Degen menen olardıń jasalıw órisin úyrenip shıqqanımızda tómendegi formalardı kórip shıqtıq.

Atlıqtıń jasalıwında oǵuz tillerine tán affiksler qollanıladı:

1) **–dash** qosımtası **–das** variantın almastıradı.

Qarın**dash**ım aytıshtırarman («G», 54-bet)

Bash yol**dash**ım Agayunis peridur (Sonda, 150-bet)

2) **–ısh, -ish** qosımtası **–ıs, -is** qosımtası menen qatnasadı.

Qısı-jazı ada bolmas em**ish**ler («S-H», 220-bet)

Tamasha qıl qırq jigittiń ur**ısh**ın («G», 27-bet)

3)**–shán** affiksi ushırasadı

Búlbiller gúl**shán** bağına («G», 27-bet)

4)–jan suffiksi ushırasadı: bolajaq

Kelbetlik sóz shaqabı sın-sımbattı bildiriwshi sózler oǵuz hám qarluq tillerine tán: **ulıǵ, sháhli, qáwpeki, sırqas, yubqa, shádi-shákkar, shárqi, xursand** t.b.

Sóz esittik **shádi-shákkar** tilińnen («G», 100-bet)

Íqrarıńa saq bol, joq **sáni** qáwpekidur («Ǵ-A», 125-bet)

Sırqas Sánemniń halın (Sonda, 71-bet)

Kelbetlik jasawshı **–dán, -den** variantları **–day, -dey, -pay, -pey** affikslerin geyde almastırıp qollanıladı:

Kózde jasım sharshará**den** tókilmish («S-H», 192-bet)

On tórt keshe ay**den** jamalı keldi («G», 168-bet).

Eski **–den** variantı XIX ásirdegi shayırlar tilinde júdá ónimli qollanılıp, bull sol wakıttağı jazba ádebiy tásirinen bolıwı kerek [3.108].

Sanlıq sóz shaqabı. Sanaq sanlıqlardan dástanlarda oǵuz tiplerinde ushrasatuǵın ***ekki, elli, toqqız, sákkiz, algmısh, etmish*** t.b. ariantları qollanıladı.

Góruǵlınıń kómip qoyǵan etti yılǵı sharabı bar edi («G», 145-bet)

Qatarlıq sanlıqlarda **-ınshı, -inshi** affiksleri menen birge **-denshi** affiksde qollanıladı: ***ekilenshi, jetilenshi.***

Feyil sóz shaqabı. Dástanlardı úyrene otırıp biz feyildiń tómendegi formaların kórip shıqtıq. Feyil sózler házirgi qaraqalpaq ádebiy tilindegi siyaqlı is-háreketti bildirip keledi.

Kelbetlik feyil. Xalıq dástanlarınıń tilindegi kelbetlik feyiller tómendegi formalar arqalı jasalǵanlıǵın kóriwge boladı.

1. Dástanlar tilinde **–ǵan, -gen** affiksi menen bir qatarda onıń oǵuz tillerindegi variantları bolǵan **–an, -en** formaları da jekke siyrek ushırasadı.

Qırq qánizler bilán sallanıp gáláń,

Bir zaman yanımda oynayıp **kúlán** («S-H», 216-bet)

Húsni alamdı **yandıran**

Palwanlıǵını **bildirán**.

Úsh júz ashıqnı **óllgirán**

Jádiw kóz qunqarnı bersin? («G», 175-bet)

2. ***–mısh, -mish*** affiksi kelbetlik feyil jasawshı eski affikslerden bolıp, ol házirgi túri, ázerbayjan, gagauz tillerinde ónimli qollanıladı [3.118].

Dástanlar tilinde usı qosımta arqalı jasalǵan feyiller kóplep ushırasadı:

Ájel kúnde ǵash pitil**mish** atıma («Ǵ-A», 19-bet)

Pesh anama qum-qısmetler yazıl**mısh** («S-H», 192-bet).

Bul formadaǵı kelbetlik feyiller dástanlar tilinde betlik-san formaların da qabıllaydı:

Aq sútin em**mishem** men qana-qana («Ǵ-A», 19-bet)

Men búgin kesh**mishem** hárne barımnan («G», 171-bet)

Sizdi-ashıq, bizdi-mashıq de**mishler** («S-H», 220-bet)

3. ***–ar, -er, -r*** formasınıń ***–ır, -ir, -ur*** hám eń eski ***–yur, -yúr*** variantı da ushırasadı.

Qırq jigittiń bir ármanı sol **bolır** («G», 18-bet)

Begler bedew minip shikar **áyleyur**

Qazısı, jollası oqıp **gurleyur** («S-H», 220-bet)

TAMADDUN NURI

«Sayatxan-Hámira»da –ár forması da bar?

Sháhárine –var kárwanlar shegiler («S-H», 213-bet)

4. ***–malı, -meli*** forması tiykarınan ázerbayjan tiline tán [2.212]. Dástanlarda bul formalı feyiller oǵuz elementleri sıpatında kózge túsedi:

At oynatıp dash qın jiydan **keshmáli**,

Áwez áyleń, aq sharaptan **ishmáli**.

Góruǵlı der jińishke belden **ǵushmalı**.

Gózállerin periyzada megzemes («G», 135-136-bet)

Zulpların pallap **órmeli** («S-H», 222-bet)

Hal feyildiń jasalıwı. Xalıq dástanlarınıń tilindegi hal feyiller tómendegi formalar arqalı jasalǵanlıǵın kóriwge boladı.

1) ***–yip*** qosımtası jekke –siyrek qollanıladı:

Yar-yar **deyip** olar gezdi dúnyada («Ǵ-A», 74-bet)

Men seni **egleyip**, sorarman sawal (Sonda, 154-bet)

*2)*Bolımsız formadaǵı ***–may, -mey*** qosımtası ***–mayın, -meyin*** túrinde de qollanıladı.

Kelgen isti **pitkermeyin** qayttıńız («G», 32-bet)

Keler bir kún dáwran, **kelmeyin** qayttıńız («Ǵ-A», 48-bet)

Bul eski ***–máyni*** forması Ájiniyaz shıǵarmalarında bar [4.48].

3) Hal feyildiń ***–alı, -eli*** forması túrkmen tilinde bar [1.377]. Bul formadaǵı hal feyiller dástanlarda oǵuz elementleri sıpatında kórinedi.

Kewil giynesin **ashalı**,

Ókpe giyneden *kesheli*

Kese-kese may isheli («Ǵ-A», 127-bet)

Qolım sheshkil **gúresheli**

Haslı zatıń **sorashalı** («G», 148-bet)

-ya (ya) forması da bar, parlań, harlan t.b.

Jeńiz **terlaya-terlaya** («G», 155-bet)

Atawısh feyildiń jasalıwı. Xalıq dástanlarınıń tilindegi atawısh feyiller tómendegi formalar arqalı jasalǵanlıǵın kóriwge boladı.

1) Dástanlarda atawısh feyil jasawda ***–maq, -mek, -baq, -bek, -paq, -pek*** affiksleri ónimli qollanıladı.

Diydár **kórispek** joq bilsin Ǵáribim («Ǵ-A», 150-bet)

Geyde ***–paq, -pek*** qosımtası ornına ***–maq, -mek*** qollanılıwı oǵuz elementleri bolup tabıladı.

Góruǵlı Gúrjistan palwanı bilán **gúreshmekke** maydana kiristi («G», 136-bet)

Ushmaq bolıp qanatındı dúzetip (Sonda, 99-bet)

Bul qosımta barıs sepliginde de qollanıladı:

Sum dushpanlar qoymas sapa **súrmege**,

Kelippen aldına basım **bermege** («Ǵ-A», 43-bet)

Taxtına jinsem **jaǵmaǵa**

Shiyrin lábinnen **tagmaǵa**

Kózim qıymas **oyatmaǵa**

Oyan há patshanıń qılı («G», 138-bet)

Bul qubılıs Ájiniyaz dóretpesinde ushırasadı:

2) ***–ısh, -ish, -sh*** affiksi atawısh feyil jasawda ***–ıs, -is, -s*** varianti menen almasıp qollanıladı. Bul affiks tiykarınan oǵuz hám qarluq toparındaǵı tillerge tán bolıp keledi.

Shul **ketmishden** Ashıqaydıń pirdiń mákanın sorap bara berdi («G», 167-bet)

Qıya-qın **baqıshların**

Janım otqa **yaqıshların**

Qaqaq urıp **kúlishlerin**

Bil táker biybim, bal tóker («S-H», 217-bet)

Almasıq sóz shaqabınıń qollanılıwı. Almasıq sózlerden dástanlar tilinde siltew almasıqları oǵuz hám qarluq tiller toparına tán bolǵan fonetikalıq variantları menen qollanıladı: ***bu, buw, oshal, oshbuw t.b***.

Buw dáwletti bergen Qádiri Máwlen («G», 17-bet)

Osha daǵlardıń basınan («S-H», 199-bet).

Dawıslılarda tańlay únlesliginiń saqlanbawı oǵuz tillerine tán fonetikalıq qubılıs bolıp tabıladı.

Dástanlar tiliniń konsonantizminde ózgeshelikler bar. **B** sesiniń sonor **m** sesi menen orın almasıw qubılısı seziledi. **S** sesiniń **sh** sesi menen orın almasıw qubılısı dástanlar tilinde sezilerli kózge taslanadı. Bul qubılıs ózbek, túrkmen ázerbayjan tillerine tán. **J** sesiniń **y** sesi menen orın almasıwı eski ózbek ádebiy tiliniń tásirin kórsetedi.

Dawıslı hám dawıssız sesler tarawında ushırasatuǵın ayırım fonetikalıq sáykeslikler dástanlardaǵı oǵuz tili elementlerin belgileydi. Atılq dawıslılardıń sáykesligi, ashıq dawıslılar menen qısıq dawıslılardıń sáykesligi dástanlar tiliniń ózgesheligin kórsetedi. Bunday sáykeslikler ásirese kelbetlik feyildiń affikslerinde kózge taslanadı hám bul affiksler házirgi ayırım oǵuz tillerine qollanıladı. Qısıq dawıslılardıń, erinlik dawıslılardıń házirgi

TAMADDUN NURI

ádebiy til menen salıstırǵanda saykesligi dástanlarda oǵuz elementleriniń saqlanǵanın tastıyıqlaydı.

Dawıssız sesler ásirese jasalıw ornı boyınsha sáykeslikleri menen ózgeshelenedi. Qos erinlik dawıssızlar sáykesligi dástanlarda ayrıqsha kózge taslanadı. Únsiz juwısıńqı fonemalar sáykesligi ***(sh-s)*** dástanlarda jiyi ushırasadı, házirgi ózbek, túrkmen, ázerbayjan tillerine tán bolıp keledi. Únli-únsiz dawıssızlar sáykesligi ***(k-g, q-g)*** dástanlar tilinde qollanılıp, házirgi ayırım oǵuz tillerine ushırasadı.

Y-l, y-j sáykesligi de dástanlarda oǵuz tili elementlerine mısal bola aladı.

Jabısıńqı jubaylas seslerdiń **(t-d)** sáykesligi dástanlardaǵı oǵuz tillerine jaqınlıqtı kórsetedi **(law-daǵ)**.

Dawssızlarda sesler únlesliginiń saqlanbawı házirgi oǵuz tillerine tán bolıp dástanlarda kózge kórinedi.

Ayırım seplik formalarınıń qollanılıwı boyınsha qıpshaq hám oǵuz tilleri bir-birinen ózgeshelenedi. Iyelik sepliginiń **-nıń, -niń** forması eski ózbek ádebiy tiliniń tásiri bolıp tabıladı. Barıs seplik jalǵawınıń **–i,-e,-á** formaları tiykarınan túrkmen hám ázerbayjan tillerine tán bolıp, dástanlarda ónimli qollanılǵan. Tabıs seplik jalǵawı tartım qosımtasınan soń **–nı, -ni** túrinde jalǵanıwı, oǵuz tillerine tán. Dástanlarda bull qubılıstı bayqawǵa boladı. Shıǵıs, orın seplik jalǵawlarında da oǵuz elementleri bar.

Juwmaq. Sózimiz juwmaǵında sonı aytıw múmkin, dástanlarda tartım, betlik, san formalarınıń qollanılıwı oǵuz tillerine jaqın bolıp keledi. Atlıqqa tán kelbetlik jasawshı qosımtalardıń qollanılıwı dástanlar tiliniń házirgi ádebiy tilden ózgesheligin belgileydi. Ayırım sanlıqlardıń qollanılıwı házirgi oǵuz tillerine tán qubılıs. Feyil formalarınan *-an, -en, -mısh, -mish, -malı, -meli* kelbetlik feyil qosımtaları oǵuz tillerine tán bolıp dástanlar tilinde qollanıladı. Hal feyildiń atawısh feyildiń ayırım formaları dástanlardaǵı oǵuz elementlerin kórsetedi. Almasıq hám ráwish sózlerdiń ayırımları dástanlarda oǵuz tillerindegi variantları menen qollanılǵan.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Türkmen diliniň grammatikasy. Morfologiýa. Aşgabat. Rax. 1999. 601 sax.
2. Азербайжан дилиниң грамматикасы. –Баку, 1982.
3. Насыров Д.С. Становление каракалпакского общенародного разговорного языка и его диалектная система. Нукус. Казан. 1976. 398 б.
4. Сайтов Д. XVIII-XIX әсирлердеги қарақалпақ шайырлары шығармаларының тили. Нөкис. Қарақалпақстан. 1989.
5. Хамидов Ҳ. Қарақалпақ тили тарийхының очерклери. Нөкис. Қарақалпақстан. 1974. 356 б.
6. Ҳамидов Ҳ. Каракалпакский язык XIX начала XX вв по данных писменных памятников. Тошкент. Фан. 1986. 220 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:101.9

"OSOR AL-BOQIYA" ASARIDA ANTROPOLOGIK MASALALAR TAHLILI

Begaliyev Jo'rabek Toshbekovich, Toshkent kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali o'qituvchisi

АНТРОПОЛОГИЧЕСКИЕ ВОПРОСЫ В РАБОТЕ "ОСОР АЛЬ-БАКИЯ"

Бегалиев Журабек Тошбекович, преподаватель Самаркандского филиала Ташкентского международного химического университета

ANALYSIS OF ANTHROPOLOGICAL ISSUES IN THE WORK OF "OSOR AL-BAQIYA"

Begaliyev Jurabek Toshbekovich, teacher of the Samarkand branch of the Tashkent International Chemical University

https://orcid.org/0009-0001-8460-7641
e-mail: jurabek.begaliyev81@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Osor al-Boqiya asaridagi antropologik masalalar tahlili o'rganiladi. Asar muallifi Abu Rayhon Beruniy insoniyat tarixi, madaniyati va ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga oid muhim ma'lumotlarni keltirib, o'ziga xos antropologik qarashlarni shakllantirgan. Unda xalqlar tarixi, urf-odatlari, diniy e'tiqodlari va turmush tarzlari haqidagi ma'lumotlar chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, Beruniyning geografik va etnografik kuzatuvlari uning antropologik metodologiyasini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Maqolada asarning mazkur jihatlari tahlil qilinib, Beruniyning inson va jamiyat haqidagi qarashlari yoritiladi.*

Kalit so'zlar: *antropologik tahlil, inson jamiyati rivojlanishi, ilmiy meros, Abu Rayhon Beruniy, arxeologik manbalar, etnografik tadqiqotlar, qadimiy madaniyatlar.*

Abstract: *This article examines the analysis of anthropological issues in the work of Asar al-Baqiyya. The author of the work, Abu Rayhan Beruni, presented important information about the history, culture, and processes of social development of mankind, and formed his own unique anthropological views. It provides an in-depth analysis of information about the history, customs, religious beliefs, and lifestyles of peoples. In addition, Beruni's geographical and ethnographic observations played an important role in shaping his anthropological methodology. The article analyzes these aspects of the work and sheds light on Beruni's views on man and society.*

Keywords: *anthropological analysis, development of human society, scientific heritage, Abu Rayhan Beruni, archaeological sources, ethnographic research, ancient cultures.*

Аннотация: *В статье рассматривается анализ антропологических проблем в эпоху "Осор аль-Бакия". Автор труда Абу Райхан Беруни предоставил важные сведения об истории, культуре и процессах социального развития человечества, сформировав свои собственные уникальные антропологические взгляды. В книге дается глубокий анализ информации об истории, обычаях, религиозных верованиях и образе жизни народов. Кроме того, географические и этнографические наблюдения Беруни сыграли важную роль в формировании его антропологической методологии. В статье анализируются эти аспекты произведения и освещаются взгляды Беруни на человека и общество.*

Ключевые слова: *антропологический анализ, развитие человеческого общества, научное наследие, Абу Райхан Аль-Бируни, археологические источники, этнографические исследования, древние культуры.*

KIRISH. O‘rta asr Sharq allomalari ham o‘z asarlarida insonning jismi, ruhiyati, ma’naviyati orasidagi o‘zaro aloqadorlik mexanizmi mohiyatini ifoda etuvchi qonuniyatlarni aniqlashga intildi. Insonning olamga bo‘lgan munosabatini, uning atrof-muhitni, hatto o‘zini-o‘zi o‘zgartira olish yo‘llari va uslublarini, o‘z taqdirini o‘zi belgilovchi buyuk mavjudot ekanligini har tomonlama tahlil qildi. O‘zi haqida, o‘zining ruhiy-ma’naviy kamoloti haqida turli g‘oyalar, ta’limotlar yaratdi. Shunday mutafakkirlardan biri Abu Rayhon Beruniy hisoblanadi.

O‘rta asrning mashhur musulmon faylasufi xorazmlik Abu Rayhon Beruniy “Bashariy ilmlar”ni ilk bor qo‘llagan olim sifatida insonni dunyo markaziga qo‘yib, uning borliq va atrofidagi muhit bilan o‘rnatgan munosabatlarini tahlil qilib, zamonaviy antropologiyaning asoschisi sifatida qabul qilinadi. Bu sohada u inson faoliyatlarini madaniy boylik sifatida tushunish uchun asosan taqqoslash, qiyoslash usulidan foydalanadi. Mutafakkirning birinchi yirik asari “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari bo‘lib, uning arabcha nomi “Al-osor al-boqiya an al-qurun al-holiya”, Yevropada “Xronologiya”, o‘zbek sharqshunosligida “Osor al-boqiya” nomi bilan mashhurdir . Shu o‘rinda asarning mazmuni va mohiyati, o‘rganilishi haqida qisqacha to‘xtalib o‘tishni lozim deb o‘ylaymiz.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD. Osor al-boqiya asarining tuzilishi muqaddima va 21 bo‘limdan iborat bo‘lib, bo‘limlar esa, o‘z o‘rnida, boblarga ajratilgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, Asarni uchta asosiy qismga bo‘lish mumkin: astronomiya (1-5 bo‘limlar), tarixiy (6-8 bo‘limlar) va diniy (9-21 bo‘limlar)[1].

Beruniy asarning muqaddima qismida Allohga hamd-u sano aytgandan keyin asarning yozilish sababini quyidagicha ifodalaydi: “Adiblardan biri mendan turli xalqlar haqidagi tarixlar, ularning boshlanishlari va shaxobchalari, ya’ni oylar va yillari ustida u tarix egalarining ixtiloflar va bu ixtilof sabablari, mashhur bayramlar, har xil vaqtlar va yumushlar uchun belgilangan kunlar, millatlarning ba’zisi amal qilib, ba’zisi amal qilmaydigan boshqa marosimlar haqida so‘radi va meni imkon boricha ularni juda ravshan bayon etib, o‘quvchi fahmlaydigan, turli kitoblarni axtarish va u kitob egalarini surishtirishga ehtiyoj qolmaydigan bir asar yozishga da’vat etdi”[2]. Beruniy bu kitobni Jurjon hokimi, Beruniyning homiysi Shams ul-Maoliy Qobus ibn Vashmgirga (976–981, 998–1012) atab yozgan edi. Muallif asarning yozilish sababalarini aytib, “Amir Shams ul-Maoliyning oliy davlatidan quvvat olib, butun kuchimizni yig‘ib, bor imkoniyatni ishga solib, goh eshitish, goh ko‘rish va qiyos qilish orqali, bilimimiz yetganicha, yuqoridagilar haqida bayon etishga bel bog‘ladim. Keyin muborak xizmat libosini kiyganligim ham o‘sha mendan so‘ralganlarni oliy taxt egasi uchun isbot etib berishga, shu bilan Shams ul-Maoliyga yangidan xizmat etib, shon-u sharafi asrlar va uzoq zamonlar osha kelgusi avlodga mendan meros bo‘ladigan faxr liboslarini kiyishga, shu asarni yozishga meni jur’atlantirdi”. Ya’ni asar bevosita Qobus ibn Vashimgirning homiyligi va Beruniyni bevosita qo‘llab-quvvatlashi natijasida yozilgan. Asar 1000-yillar atrofida yozilgan bo‘lib, o‘sha paytda Beruniy 27 yoshda edi.

Tadqiqotchilarning aniqlashicha, Osor al-boqiya asari 20 dan ortiq nusxada yetib kelgan. Asarning eng qadimiy va to‘liq nusxasi Istanbuldagi Boyazid umumiy kutubxonasida № 4667 raqamda saqlanadi. U Ibn al-Mu’izziy nomli kotib tomonidan Sa’id ibn Mas’ud Qass uchun 1207-yilda ko‘chirilgan. Sa’id ibn Mas’ud Qass haqida manbalarda ma’lumotlar kam, faqat u Abbosiylarning oxirgi xalifasi Mu’tasim (1242–58) davrida yashagani taxmin qilinadi.

MUHOKAMA. O‘zbekistonda ham Beruniyning ushbu asari ustida tarjima va tadqiqotlar olib borilgan. 1968-yilda O‘zRFA Sharqshunoslik instituti ilmiy xodimi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti sovrindori Abdufattoh Rasulov tomonidan ushbu asarning o‘zbek tiliga birinchi tarjimasi amalga oshirilgan va u keyingi yangi tadqiqotlarga asos bo‘lib xizmat qildi. A.Rasulov tarjima jarayonida yuqorida sanab o‘tilgan barcha nashr va qo‘lyozmalardan, shuningdek, Eronda nashr etilgan Akbar Dono Sirisht Sayrafiyning fors tilidagi tarjimasidan ham foydalangan[3].

So‘nggi o‘n yilda Beruniy asarlarini ilmiy doiralarga keng tanitish maqsadida Sharqshunoslik instituti yetakchi ilmiy xodimi, professor Ashraf Ahmedov boshchiligida (B.Abdullayev,

M.Xandamova, U.Kuranbayevalar ishtirokida) Beruniy tanlangan asarlarining yangi nashri ustida ish olib borildi. 2015-yilda “Osor al-boqiya” 1-jild sifatida rus tilida “Pamyatniki minuvshix pokoleniy” nomi ostida nashr qilindi. 2022-yilga kelib, mazkur guruh tomonidan Beruniy asarlarining yetti jildi o‘zbek tilida e’lon qilindi. Ushbu ko‘pjildning birinchisi “Osor al-boqiya” asaridir. Mazkur tarjimaning boshqalaridan afzal jihati – yangi nashrni tayyorlovchilar oldingi tarjimalarda yo‘l qo‘yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf qilgan. Asar o‘quvchiga tushunarli bo‘lishi uchun tushunilishi qiyin so‘zlarga qo‘shimcha sharhlar yozilgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Osor al-boqiya” (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar) asari dunyoning manzarasini ilmiy va falsafiy nuqtayi nazardan tushuntirishga qaratilgan. Unda olam, vaqt, makon, madaniyatlar va inson hayotiga doir keng qamrovli mulohazalar o‘rin olgan. Asarda olam va inson o‘rtasidagi aloqa, ularning tabiatdagi o‘rni va ularning o‘zaro ta’siri tahlil qilinadi.

Mutafakkir asarda tarixiy voqealar hamda turli elat va diniy qarashlarga oid ma’lumotlar berish bilan bir qatorda, olam va odam yaralishi va undagi turli tabiiy hodisalar to‘g‘risida bir qancha ilmiy nazariyalarni ilgari surgan[4]. Avvalo, alloma olam manbasi “tuzilish va buzilish”dan iboratdir, deydi. Olamning vujudga kelishi masalasida “Olam azaliy, falak esa cheksiz bo‘shliqqa joylashgandir”, degan realistik qarashlarni ilgari suradi. Vaqt va makonning o‘zaro bog‘liqligi masalasida Beruniy olamni yaxlit tizim sifatida tasvirlaydi, u yerda vaqt va makon bir-birini to‘ldiruvchi asosiy tushunchalar hisoblanadi.

Beruniy antropologik qarashlarini, o‘z kuzatishlaridan kelib chiqqan holda, shunday gipotezani ilgari suradi: “Avval boshda dengizlar quruqlik o‘rniga va quruqliklar dengizlar o‘rniga o‘tgan. Mabodo olam insonga qadar paydo bo‘lgan bo‘lsa, uning qachon paydo bo‘lganligi noma’lumdir. Agar olam inson paydo bo‘lgandan keyin vujudga kelgan bo‘lsa, unda uning paydo bo‘lganligi odamlarning xotirasida saqlanmagan. Chunki bu o‘ta uzoq muddat bo‘lib, vaqtlar o‘tishi bilan xabarlar unutiladi va olam haqidagi ma’lumotlarni faqat maxsus o‘rgangan kishilargina idrok qila oladi”[5]. Bundan kelib chiqadiki, insoniyatning paydo bo‘lishi, uzoq evolytusiyani bosib o‘tgan va ma’lumki, olimning ko‘p fikrlari keyinchalik tasdiqlanib, ilmiy nazariyaga aylandi. Mutafakkirning bu g‘oyalari hozirgi zanmonaviy falsafaning dolzarb mavzularidan hisoblangan snergetika muammosiga va antropologiyaning ko‘pgina savollariga javob beradi deb hisoblaymiz.

NATIJALAR. Yuqoridagi iqtibosdan kelib chiqadiki, Beruniy qadimgi madaniyatlar va dinlar o‘rtasidagi bashariyatning paydo bo‘lishiga oid qarashlar xilma-xilligiga alohida e’tibor qaratgan. U “Kitob ahli” deb atagan yahudiylar, nasroniylar va boshqa dinlarning insonning kelib chiqishiga oid turli ta’limotlarini taqqoslagan. Bu esa uning madaniyatlararo va tarixiy tahlilning muhimligini tushunganidan dalolat beradi.

Beruniy din va madaniyatlar o‘rtasidagi qarashlar xilma-xilligini ularning geografik, tarixiy va ijtimoiy shart-sharoitlari bilan bog‘laydi. Uning maqsadi faqat qarashlarni qayd etish emas, balki ular orasidagi umumiy tamoyillarni aniqlash va ularning taraqqiyotga ta’sirini o‘rganishdan iborat[6].

Beruniy inson tarixini faqat hodisalar va faktlar orqali emas, balki ularning inson ongi va madaniy taraqqiyotga ta’sirini hisobga olgan holda o‘rganadi. Uning nazariy tahlillarida bashariyatning paydo bo‘lishi va uning tarixini tushunish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Beruniy har bir madaniyat va dinning bashariyat tarixi haqidagi qarashlarini ularning o‘ziga xos mantiqiy asoslariga ko‘ra baholagan. U hech bir madaniyatni boshqasidan ustun yoki kam emas, deb tushungan, bu esa uning ilmiy xolisligini namoyon etadi.

Beruniy insonning kelib chiqishiga oid qarashlarni har tomonlama o‘rganish orqali ularning umumiy asoslarini topishga harakat qiladi. Uning ta’kidicha, bu xilma-xillik tarixiy jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi va ushbu jarayonlarni tushunish uchun inson tabiati, ijtimoiy munosabatlari va dunyoqarashini o‘rganish zarur.

“Osor al-boqiya”dagi mazkur fikrlar Abu Rayhon Beruniyning antropologik masalalarga ilmiy va xolis yondashuvini aks ettiradi. U qadimgi madaniyatlar o‘rtasidagi qarashlar xilma-xilligini yoritar ekan, ularning inson tarixi va madaniyatlari evolyutsiyasiga ta’sirini tushuntirishga intiladi. Beruniy antropologiyasida insonni tabiatning bir bo‘lagi sifatida qaraydi. Uning fikricha, inson tabiat qonunlari ta’sirida yaratiladi va yashaydi. Olimning geografiya va mineralogiya sohasidagi tadqiqotlari inson faoliyati va tabiiy resurslardan

TAMADDUN NURI

foydalanishning uzviy bog‘liqligini ko‘rsatadi. Masalan, “Minerologiya” asarida Beruniy minerallarning tabiati va inson hayotidagi ahamiyatini o‘rganadi. Bu holat insonning tabiiy va ijtimoiy borliqdagi rolini tushunishga yordam beradi[7].

XULOSA. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, yuqorida keltirilganidek, Beruniyning antropologik usuldan foydalanadigan tanqid va tekshirish usulida rivoyatlar tahlili alohida o‘rin tutadi. Beruniyning antropologik qarashlarining manbaviy asoslarini u o‘zidan oldin ilmiy uslublar asosida yozilgan asarlarga murojaat etadi. U o‘z asarlarida hind, yunon va boshqa xalqlarning shu va shunga o‘xshash rivoyatlarini tahlil qiladi. U asarlarida Abu Yoqub Is’hoq Kindiy, Zakariyo ar-Roziy va Dinovariylarning nomlari ko‘p marta eslatiladi. Ayniqsa, Zakariyo ar-Roziyning qarashlari ta’siri katta bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Toshkent: O‘zbekiston, 2022, -B.39.
2. Sachau E. The Chronology of Ancient Nations, translated and edited, with notes and index, by London 1879.
3. Abu Reyxan Biruni, Izbrannie proizvedeniya, t. I. Pamyatniki minuvshix pokoleniy / Perevod M. Salye. Tashkent, 1957.
4. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I tom. – T.: 1968. –B.13.
5. Sachau E. Chronologie orientalischer Völker von Albêrûni, herausg. von, Leipzig 1878.
6. Akbar Dono Sirisht. Tarjuma-ye Osor al-Boqiye-ye Abu Rayhon Biruni. Tehron, 1321/1943.
7. Ebu Reyhan el-Biruni, Maziden Kalanlar (El-Asar el-Bakiye), tr. Ahsen Batur, Istanbul 2011.
8. Akbar Dono Sirisht. Tarjuma-ye Osor al-Boqiye-ye Abu Rayhon Biruni. Tehron, 1321/1943.
9. Jurakulov F.N. Abu Rayhon Beruniy tabiy-ilmiy va ijtimoiy-falsafiy merosining G‘arb olimlari tomonidan tadqiq etilishi /falsafiy-tarixiy tahlil/ Fal.fan.nom. darajasini olish uchun yoz.diss.- Toshkent, 2007. –B.94.
10. To‘rayev B.O. va boshq. Sinergetika: mohiyati, qonuniyatlari va amaliyotda namoyon bo‘lishi //T.: Navro‘z nashriyoti. – 2017. – S. 12-13.
11. Mavlyanovna A.M. Artistic Creativity as a phenomenon of culture and spirituality (axiological approach) //Web of Humanities: Journal of Social Science and Humanitarian Research. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 10-14.
12. Usmonov F.N. The place of rational and creative thought in turning the virtuality into reality //Paradigmata poznani. – 2014. – №. 2. – S. 31-33.
13. Ganiyev E. Stages of development and impact on social life of an informed society in Uzbekistan //Western European Journal of Historical Events and Social Science. – 2024. – T. 2. – №. 11. – C. 17-20.
14. Ризаев И.И. Структура социальной системы – основа самоорганизации общества. – 2020.
15. Samatov X., Ibadullayeva Z. Sociological analysis of study courses //Modern Science and Research. – 2024. – T. 3. – №. 5.
16. Kubayeva S. Intellectual Games: Stimulating the Development of The Human Mind //International Journal of Scientific Trends. – 2023. – T. 2. – №. 12. – C. 74-78.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 1(091

IJTIMOIY-AXLOQIY QADRIYATLARNING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASHDAGI AHAMIYATI

Axmedova Ma'rifat Abdullayevna, UrDU dotsenti, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE IMPORTANCE OF SOCIO-MORAL VALUES IN THE UPBRINGING OF A HARMONIOUS GENERATION

Akhmedova Marifat Abdullayevna, Associate Professor of UrSU, Doctor of Philosophy in Philosophy (PhD)

ЗНАЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-НРАВСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ВОСПИТАНИИ ГАРМОНИЧНОГО ПОКОЛЕНИЯ

Ахмедова Маърифат Абдуллаевна, доцент УрГУ, доктор философии по философским наукам (PhD)

https://orcid.org/0000-0003-1753-6779
e-mail: ahmedovamarifat79@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi ahamiyati to'g'risida fikrlar yoritilgan. Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar orqali insonning tom ma'nodagi mavjudligi belgilanadi. Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar insonlar o'rtasida to'g'ri munosabatlarni shakllantiradigan, jamiyatda barqarorlik va tartibni saqlaydigan, har bir insonning ahamiyatini anglash va unga hurmat ko'rsatish kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-axloqiy qadriyatlar insonlarga o'zaro hurmat, bag'rikenglik, adolat va mehr-oqibatni o'rgatadi. Bu qadriyatlar yoshlarni to'g'ri qarorlar qabul qilishga, boshqalarga nisbatan hurmat ko'rsatishga va o'zini mas'uliyatli his qilishga undaydi.*

Kalit so'zlar: *qadriyat, maqsad, salohiyat, barkamol shaxs, vatanparvarlik, ajdodlar, xalq, kutubxona, qo'lyozma, adabiyot, san'at, axloq, falsafa, qalb.*

Abstract*: This article covers ideas about the importance of socio-moral values in the upbringing of a harmonious generation. Through socio-moral values, the literal existence of a person is determined. Socio-moral values include concepts such as understanding and respecting the importance of each person, which form the right relationship between people, maintain stability and order in society. Social moral values teach people mutual respect, tolerance, justice and kindness. These values encourage young people to make the right decisions, show respect for others, and feel responsible.*

Keywords*: value, purpose, potential, harmonious personality, patriotism, ancestors, people, library, manuscript, literature, art, ethics, philosophy, heart.*

Аннотация*: В этой статье рассматриваются идеи о важности социально-нравственных ценностей в воспитании гармоничного поколения. Через социально-нравственные ценности определяется буквальное существование человека. К социально-нравственным ценностям относятся такие понятия, как те, которые формируют правильные отношения между людьми, поддерживают стабильность и порядок в обществе, осознают значимость каждого человека и проявляют к нему уважение. Социальные моральные ценности учат людей взаимному уважению, терпимости, справедливости и доброте. Эти ценности побуждают молодых людей принимать правильные решения, проявлять уважение к другим и чувствовать ответственность.*

Ключевые слова: *ценность, цель, потенциал, гармоничная личность, патриотизм, предки, народ, библиотека, рукопись, литература, искусство, мораль, философия, душа.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Mustaqillik yillarida mamlakatimiz ta'lim tizimidagi keng qamrovli islohotlar tezda samara berib, jahon hamjamiyatining havasini keltirayotgani bejiz emas, mustaqilligimizning ilk kunlaridan boshlab o'zligimizni anglash, milliy qadriyatlarimizni tiklashga alohida e'tibor qaratildi. Bundan ko'zlangan yagona maqsad esa ertangi kunimizning egalari bo'lmish yoshlarni yuksak intellektual salohiyatli, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdir. O'z navbatida yoshlarda vatanparvarlik ruhini uyg'otish, eng avvalo, ularning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalalarining qanchalik samarali hal etilishiga bog'liq. Shuning uchun ham hozirda yoshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish muammosini o'rganish dolzarb bo'lib qolmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Ana shu yo'lda ajdodlarimizning boy ilmiy merosi va tarixiy xotirasi muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanib kelinayotgan ming-minglab qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilik va boshqa ilm sohalariga oid bebaho asarlar bizning buyuk ma'naviy boyligimizdir. Ana shunday katta ko'lamdagi boy ilmiy merosga ega xalq dunyoda kamdan kam topiladi[1].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Qalb, yurak, din va ilohiyot sof tushunchalar hisoblanadi. Qur'oni Karimda "qalb" so'zi 133 marta uchraydi. Tustariy, Balxiy, Nuriy, Termiziy, G'azzoliy kabi allomalar fikricha, qalb inson ichidagi ilohiy sir bo'lib, shu tufayli inson hatto farishtalardan ham yuqori turadi. Qalb narsalarning tub mohiyatini ko'ra oladi, u inson xatti-harakatlarini aks ettiruvchi ko'zgu bo'lib, savob amallar uni nurga to'ldiradi, yomon amallar esa, aksincha, xiralashtiradi[2].

Demak, insonning tom ma'nodagi mavjudligi uning qalbida aks etadi. Qalbi nur, ezgulik, yaxshilik, go'zallik bilan to'lgan har qanday insonni mukammallikka intilgan, o'zini yaxshi insonga aylantirishga harakat qilayotgan shaxs sifatida tan olish mumkin.

Shu bilan birga go'zal inson, yaxshi shaxs tarbiyasi faqat uning qalbi bilangina belgilanmaydi. Qalb bilan bab-baravar aqlning o'rni ham juda katta. Aql eng ulug' ne'matlardan biri sanaladi va u insonni doimo anglash, fikrlash, mushohada etish, tafakkur qilishga undaydi.

Masalaning eng muhim jihati shundaki, qalb aql bilan uyg'unlashgandagina u tom ma'noda insonga, insoniyatga xizmat qilishi mumkin, zero, Arastu ta'kidlaganidek, aql dil go'zalligi bilan qo'shilsa fazilatga aylanadi, aks holda aql fazilat emas.

Insonda qalb va aql uyg'unligiga erishishning barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni masalasiga Sharqda, ayniqsa, katta ahamiyat berilgan. Buyuk mutafakkir Abu Homid G'azzoliy o'zining "Kimyoi saodat" asarida inson tanasini shaharga o'xshatadi. Uning aytishicha qalb, dil – bu shaharning podshohi. Aql bu shahar podshohining vaziri. "Bunga o'xshash vaqtiki podshoh Dil vazir – Aqlning maslahati birla ish qilsa, shahvat va g'azabni vazir Aqlning zerdasti va farmonida qilsa, badan mamlakati aning nizomida bo'lg'usidir. Va saodat yo'lini topib, Haq Taoloning ma'rifatini hosil qilg'usidir va agar Dil vazir Aqlni shahvat va g'azab iligida asir qilsa, badan mamlakati vayron bo'lib, podshoh Dil ham asir bo'lib, badbaxt va halok bo'lg'usidir"[3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Nazarimizda, qo'yilgan masalaga bundan ortiq izoh yo'q. Qalb bilan aql uyg'unlashgan joyda rivojlanish, yaxshilik, ezgulik, go'zallikka intilish bor. Qalb, dil va aql o'rtasidagi kelishmovchilik esa, barcha ziddiyatlar, nohaqliklar,

[1] Каримов И. А. "Юксак маънавият – енгилмас куч" Иккинчи нашр. Т.: "Маънавият" 2010, 31-бет.

[2] Ислом энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. –Б.290.

[3] Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимёи саодат. Руҳ ҳақиқати. – Т.: Адолат, 2005. –Б.37.

adolatsizliklarning manbaidir. Shubhasiz, ushbu holatda qalb, dil, yurakning o‘rni, ahamiyati kattadir.

Jamiyat ma’naviy qiyofasini belgilashda, fuqaroning sog‘lom ma’naviy ehtiyojini shakllantirishda, shak-shubhasiz, yuqoridagi savollarga berilgan javoblar muhim ahamiyatga ega. Fuqaro ma’naviy ehtiyojini shakllantirish o‘ta murakkab va ma’lum vaqtni talab etadi. Buning uchun, eng avvalo, shaxsda o‘zini-o‘zi rivojlantirishga moyillik bo‘lishi lozim. Bu esa, ko‘proq oila, mahalla, o‘qiyotgan yoki ishlayotgan bilim yurti, muassasa, tashkilotdagi, umumiy tarzda aytadigan bo‘lsak, jamiyatdagi o‘rnak va ibrat masalasiga bog‘liq. Bu birinchi masala.

Masalaning ikkinchi jihati yon-atrofimizda, dunyoning boshqa mamlakatlarida yoshlarga taqdim etilayotgan turli ma’naviy “ne’matlar” saviyasiga bog‘liq. Ma’lumki, “sadizm” iborasi fransuz yozuvchisi Markiz de Sad (1740-1814-yillar) nomi bilan bog‘liq. Sadizmning ma’no-mohiyati – jinoiy buzuqlik, yostiqdoshiga jismoniy azob yetkazilgan taqdirdagina to‘la-to‘kis huzur qilish, haddan tashqari shafqatsizlik, boshqalarning azoblanishidan huzurlanish demak. Taniqli adib M.Shohonov ta’kidlaganidek, de Sad asarlarida tasvirlangan ma’naviy qashshoqlik, ashaddiy shafqatsizlik manzaralari faqat la’natlashga loyiq. O‘z onasini zo‘rlagan murtad, qizini o‘ziga o‘ynash tutib, so‘ng uning murdasini ovloq joyga eltib tashlaguncha yalab-yulqab borgan vosvos ota haqidagi parchalarni o‘qishning o‘zi ham azob. Shunday bo‘lsa-da, de Sad kitoblarini o‘qishga mushtoq bo‘lgan kitobxonlar juda ko‘p[4].

Insonning go‘zal fazilatlari, uning muqaddasligini ifoda etuvchi asarlar bilan birga uni kamsituvchi, yerga uruvchi ayrim “asarlar”ning yuzaga kelishi, shubhasiz, fuqaro ma’naviy ehtiyojini vulgarlashtiradi. Bosqinchilik, ur-yiqit, zo‘ravonlikni muntazam ravishda “tomosha qiluvchi”, “o‘qiydigan” kishidan nimani ham kutish mumkin? Sog‘lom ma’naviyat yomon odamning yaxshi odamga, yaxshi odamning esa go‘zal xulqli insonga aylanishini ifoda etuvchi ma’naviy boyliklar asosidagina shakllanishi mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Shu ma’noda bizning jamiyat a’zolari o‘rtasida olib boradigan ishlarimiz, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarimiz o‘z maqsad-muddaomizga yetkazyaptimi, ular sog‘lom ma’naviy ehtiyojni shakllantirishga xizmat qilyaptimi – buni aniqlash juda muhim. Qolaversa, sog‘lom ma’naviy ehtiyoj fuqaroda erkin tafakkur qilish, fikriy mustaqillikka erishishni ta’minlaydi. Olib borayotgan targ‘ibot-tashviqot, ma’naviy-mafkuraviy ishlarimiz aniq maqsadga yo‘naltirilmas ekan, undan hech kim, hech qanday naf ko‘rmaydi. Fuqaroning qiziqishi, xususiyatlari, yoshi va boshqa jihatlari e’tiborga olinib o‘tkaziladigan har qanday tadbir bir tomondan, o‘sha shaxsning sog‘lom ma’naviy ehtiyojini shakllantirishga xizmat qilsa, boshqa tomondan, uning ma’naviy qiyofasini boyitishga, mustaqil shaxs sifatida barkamol inson bo‘lib tarbiya topishiga imkon beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Каримов И. А. Юксак маънавият – енгилмас куч. Иккинчи нашр. Т.: Маънавият. 2010, 31-бет.
2. Ислом энциклопедияси. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. –Б.290.
3. Абу Ҳомид Ғаззолий. Кимёи саодат. Руҳ ҳақиқати. – Т.: Адолат, 2005. –Б.37.
4. Айтматов Ч., Шоҳонов М. Чўққида қолган овчининг оҳу зори. - Т.: Шарқ, 1998. –Б.128.
5. Мирзаев Т., Ширинов Т. Буюк тарихимиз кўзгуси // Халқ сўзи газетаси, 2003 йил, 2 апрель.

[4] Айтматов Ч., Шоҳонов М. Чўққида қолган овчининг оҳу зори. - Т.: Шарқ, 1998. –Б.128.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 81-2

THE PHRASES RELATED TO "LIFE" CONCEPT IN ENGLISH

Iskandarova Gulifor Muzaffar qizi, a student of the 2303 group of the 2nd year of UrSU

INGLIZ TILIDAGI "HAYOT" TUSHUNCHASI BILAN BOG'LIQ IBORALAR

Iskandarova Gulifor Muzaffar qizi, UrDU 2-kurs 2303-guruh talabasi

ФРАЗЫ СВЯЗАННЫЕ С ПОНЯТИЕМ "ЖИЗНЬ" В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Искандарова Гулифор Музаффар кызы, студентка 2303-группы 2-курса УрГУ

https://orcid.org/0009-0004-0912-6096
e-mail: gulifor.iskandarova@bk.ru

***Abstract**: The nature and definition of life have been long-standing subjects of debate across multiple disciplines, ranging from biology to philosophy and even artificial intelligence. This article provides an overview of the most significant attempts to categorize and define life, focusing on the various frameworks proposed in recent decades. Through examining definitions from both experts in the field and innovative research on artificial life (A-Life) and synthetic biology, this paper explores how life has been conceptualized and classified.*

***Keywords**: life, artificial life, synthetic life, origins of life, definition of life, epistemology, ontology, Strong A-Life, Weak A-Life, self-replication, minimal genomes, prebiotic chemistry.*

***Annotatsiya:** hayotning tabiati va ta'rifi uzoq vaqtdan beri biologiya va falsafadan tortib sun'iy intellektgacha bo'lgan turli fanlarda muhokama mavzusi bo'lib kelgan. Ushbu maqola so'nggi o'n yilliklarda taklif qilingan turli xil ramkalarga e'tibor qaratib, hayotni tasniflash va aniqlashga qaratilgan eng muhim urinishlar haqida umumiy ma'lumot beradi. Ushbu soha mutaxassislari va sun'iy hayot (A-Life) va sintetik biologiya sohasidagi innovatsion tadqiqotlar tomonidan taklif qilingan ta'riflarni o'rganib chiqib, ushbu asar hayotning qanday konsepsiyalashtirilganligi va tasniflanganligini ko'rib chiqadi.*

***Kalit so'zlar:** hayot, sun'iy hayot, sintetik hayot, hayotning kelib chiqishi, hayot ta'rifi, epistemologiya, ontologiya, Strong A-Life, tsel A-Life, o'z-o'zini ko'paytirish, minimal genomlar, prebiyotik kimyo.*

***Аннотация:** Природа и определение жизни долго были предметом обсуждения в различных дисциплинах, начиная от биологии и философии и заканчивая искусственным интеллектом. Эта статья предоставляет обзор наиболее значительных попыток классифицировать и определить жизнь, сосредотачиваясь на различных рамках, предложенных в последние десятилетия. Изучая определения, предложенные как экспертами в данной области, так и инновационными исследованиями в области искусственной жизни (A-Life) и синтетической биологии, данная работа рассматривает, как жизнь была концептуализирована и классифицирована.*

***Ключевые слова:** жизнь, искусственная жизнь, синтетическая жизнь, происхождение жизни, определение жизни, эпистемология, онтология, Strong A-Life, Weak A-Life, саморазмножение, минимальные геномы, предбиотическая химия.*

INTRODUCTION. The search for a definitive understanding of life has given rise to many competing theories, each offering a different perspective on what constitutes life. The effort to define life is not only a philosophical inquiry but a scientific challenge that extends to fields such as

artificial life, synthetic biology, and the study of the origins of life itself. Researchers like Popa (2004), Trifonov (2011), and Malaterre & Chartier (2019) have all attempted to categorize the many definitions of life based on different approaches, whether theoretical, operational, or functional. These definitions range from biological criteria, such as the capacity for self-replication, to the inclusion of artificial systems that replicate lifelike behaviors. The diversity of definitions indicates the complexity and richness of the concept of life. This article examines both theoretical approaches to defining life and practical applications in related areas like synthetic biology and palliative care, where the concept of "living in the moment" has been found to be an effective coping strategy for individuals facing life-threatening illness.

RELEVANCE OF WORK. The ability to define life carries significant weight in numerous scientific and healthcare fields. In synthetic biology, for instance, understanding life at a molecular or chemical level opens possibilities for creating artificial life forms. The search for life beyond Earth also hinges on a shared understanding of life. In healthcare, particularly in palliative care, defining life affects how practitioners engage with terminally ill patients. Understanding the psychological and emotional facets of life, such as how individuals cope with the knowledge of their imminent death, is crucial for providing dignified care in the final stages of life. As part of dignity-conserving care (DCC), the concept of "living in the moment" is significant in promoting psychological well-being in terminally ill patients.

PURPOSE. The purpose of this article is to critically analyze the different attempts at defining life, providing an overview of the competing definitions in contemporary scientific discourse. Furthermore, this paper aims to demonstrate how these definitions can inform the practical application of the concept of life, particularly in the field of palliative care. By investigating "living in the moment", a concept integral to dignity-conserving care, this article aims to offer insights into how life can be meaningfully understood in both philosophical and clinical contexts.

MATERIALS AND METHODS OF RESEARCH. This research combines theoretical analysis with empirical studies to explore the various conceptualizations of life. In addition to literature reviews and analysis of definitions in artificial life and synthetic biology, a concept analysis method based on Walker and Avant's (2014) approach was utilized to examine the idea of "living in the moment". This method involved systematic searches of international online databases for relevant studies published between 1941 and 2019. Grey literature, dictionaries, and additional hand-searching were conducted to ensure comprehensive coverage of the concept's applications in clinical and theoretical settings.

RESULTS AND DISCUSSION. Numerous definitions of life were reviewed and classified into three broad categories: (1) functional definitions, which focus on the ability of systems to exhibit characteristics such as self-replication and energy transformation; (2) structural definitions, which emphasize the chemical and physical embodiment of life in molecular terms; and (3) operational definitions, which are based on the practical behaviors and properties exhibited by life forms. The work of Popa (2004), Trifonov (2011), and Malaterre & Chartier (2019) provides a framework for these categorizations, showing overlaps but also distinctions based on the underlying assumptions of each researcher. For instance, the debate between Strong and Weak Artificial Life reflects a philosophical divide on whether functional behavior can substitute for the chemical embodiment of life. Strong A-Life advocates argue that entities capable of replicating behaviors of living organisms should be considered "alive", while critics point out that life requires physical embodiment and cannot be merely mimicked by functional representations.

Another central concept explored is the idea of "living in the moment", particularly in relation to dignity-conserving care. Studies have shown that patients facing life-threatening illnesses who focus on the present moment often report increased well-being, even in the face of their terminal condition. Living in the moment allows these individuals to find meaning in small pleasures, such as listening to music, gardening, or simply appreciating nature. This concept is essential for creating a compassionate and person-centered care approach, which addresses the emotional, psychological, and spiritual needs of individuals nearing the end of life.

CONCLUSION. While the definition of life remains elusive and diverse, the integration of artificial life research, synthetic biology, and

TAMADDUN NURI

philosophical inquiry offers new perspectives on what constitutes life. Whether life can be replicated in artificial systems or whether biological embodiment is necessary for life to exist remains a key point of contention. However, the understanding of life from a clinical and humanistic standpoint can provide essential insights, particularly in the field of palliative care. The concept of "living in the moment" has profound implications for dignity-conserving care at the end of life, as it helps terminally ill patients cope with their circumstances and find meaning in their final days. As the scientific community continues to explore life from a multitude of angles, future discoveries may provide clearer definitions, bridging the gap between theoretical and practical understandings of life.

REFERENCES:

1. Cleland, Carol E., 2019, *The Quest for a Universal Theory of Life: Searching for Life as we Don't Know It* (Vol. 11), Cambridge: Cambridge University Press.
2. Cleland, Carol E. and Christopher F. Chyba, 2002, Defining'life', *Origins of Life and Evolution of the Biosphere*, 32(40): 387–393.
3. Corbella, Mercedes, 2020, Globally, seven in ten adults favor allowing abortion, *IPSOS*, published online 17 August 2020 [Corbella 2020 available online].
4. Mariscal, Carlos and W. Ford Doolittle, 2015, Eukaryotes first: how could that be? *Philosophical Transactions of the Royal Society B (Biological Sciences)*, 370(1678): 20140322.
5. Mariscal, Carlos and W. Ford Doolittle, 2020, Life and Life Only: a Radical Alternative to Life Definitionism, *Synthese*, 197(7): 2975–2989.
6. Ammer, C., 2013. *The American Heritage Dictionary of Idioms: American English Idiomatic Expressions & Phrases*. Houghton Mifflin Harcourt, New York.
7. Anagnostopoulos, F., Griva, F., 2011, Exploring time perspective in Greek young adults: validation of the Zimbardo time perspective inventory and relationships with mental health indicators, *Soc. Indic. Res.*, 106 (1), 41–59.
8. Andersson, M., Hallberg, I.R., Edberg, A.K., 2008, Old people receiving municipal care, their experiences of what constitutes a good life in the last phase of life: a qualitative study, *Int. J. Nurs. Stud.*, 45 (6), 818–828.
9. Andrew, J., Johnston, B., Papadopoulou, C., 2013, Community nurses' participation in palliative care research: the dignity care pathway, *Br. J. Community Nurs.*, 18 (7), 326–331.
10. Arantzamendi, M., Garcia-Rueda, N., Carvajal, A., Robinson, C.A., 2018, People with advanced cancer: the process of living well with awareness of dying, *Qual. Health Res.*, 0 (0), 1–13.
11. Baker, P., Beesley, H., Fletcher, I., Ablett, J., Holcombe, C., Salmon, P., 2016, Getting back to normal' or'a new type of normal'? A qualitative study of patients' responses to the existential threat of cancer, *Eur. J. Cancer Care*, 25 (1), 180–189.
12. Benzein, E., Norberg, A., Saveman, B.I., 2001, The meaning of the lived experience of hope in patients with cancer in palliative home care, *Palliat. Med.*, 15 (2), 117–126.
13. Black, J., 2011, What are patients' priorities when facing the end of life? A critical review, *Int. J. Palliat. Nurs.*, 17 (6), 294–300.
14. Bradt, J., Dileo, C., 2010, Music therapy for end-of-life care, *Cochrane Database Syst. Rev.*, 20 (1), 1465–1858.
15. Brown, H., Johnston, B., Östlund, U., 2011, Identifying care actions to conserve dignity in end-of-life care, *Br. J. Community Nurs.*, 16 (5), 238–245.
16. Buiting, H.M., Terpstra, W., Dalhuisen, F., Gunnink-Boonstra, N., Sonke, G.S., Hartogh, G., 2013, The Facilitating Role of Chemotherapy in the Palliative Phase of Cancer: qualitative interviews with advanced cancer patients, *PLoS One*, 8 (11), e77959.
17. Cameron, J., Waterworth, S., 2014, Patients' experiences of ongoing palliative chemotherapy for metastatic colorectal cancer: a qualitative study, *Int. J. Palliat. Nurs.*, 20 (5), 218–224.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 37.02.78.01.398

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЭФФЕКТИВНЫХ МЕТОДОВ ЧЕРЕЗ ФОЛЬКЛОРНУЮ МУЗЫКУ В ОБРАЗОВАНИИ

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Berdaq shoirning asarlarida aks etgan ijtimoiy munosabatlar tahlil qilinadi. Shoirning asarlari jamiyatning turli qatlamlari, inson huquqlari, adolat, tenglik va xalq dardini ifodalash bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida Berdaq ijodining ijtimoiy ahamiyati, uning falsafiy va gumanistik qarashlari o'rganilib, shoirning o'z davridagi ijtimoiy masalalarga munosabati yoritiladi. Maqola Qoraqalpoq xalqining madaniy merosi va Berdaq ijodining bugungi kundagi ahamiyatini ochib berishga qaratilgan.*

Kalit so'zlar: *inson, jamiyat, ijtimoiy munosabat, jamiyatning ijtimoiy hayoti, madaniyat, madaniy taraqqiyot, ijtimoiy haqiqat, insonparvarlik, qadriyat, adolat, dunyoqarash, ijtimoiy taraqqiyot, vatanparvarlik.*

Abstract*: This article analyzes the social relations reflected in the works of the poet Berdaq. His works stand out for their depiction of different social strata, human rights, justice, equality, and the people's concerns. The study examines the social significance of Berdaq's creativity, his philosophical and humanistic views, and his attitude towards social issues of his time. The article aims to highlight the cultural heritage of the Karakalpak people and the relevance of Berdaq's works in the modern era.*

Key words*: human, society, social relations, social life of society, culture, cultural development, social truth, humanism, value, justice, worldview, social development, patriotism.*

Аннотация*: В данной статье анализируются социальные отношения, отражённые в произведениях поэта Бердака. Его творчество выделяется изображением различных слоёв общества, прав человека, справедливости, равенства и народных чаяний. В ходе исследования рассматривается социальная значимость творчества Бердака, его философские и гуманистические взгляды, а также*

его отношение к социальным проблемам своего времени. Статья направлена на раскрытие культурного наследия каракалпакского народа и актуальности творчества Бердака в современную эпоху.

Ключевые слова: *человек, общество, общественные отношения, социальная жизнь общества, культура, культурное развитие, социальная реальность, гуманизм, ценности, справедливость, мировоззрение, социальное развитие, патриотизм.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Inson jamiyatdagi odamlar bilan doimo aloqada bo‘ladi, ular bilan turli munosabatlar o‘rnatadi. Ijtimoiy munosabatlar – bu odamlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik, aloqa va ta’sir jarayonlaridir. Ular jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, insonning shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy muhit bilan uyg‘unlashuvida muhim rol o‘ynaydi. Ijtimoiy munosabatlar odamlar o‘rtasida turli shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin: do‘stlik, qardoshlik, kasbiy, hamkorlik, raqobat iqtisodiy va hokazo. Har bir davrning ulug‘ ijodkorlari ijtimoiy hayot manzaralarini o‘z asarlarida mujassam etadi. Xalq dardi, orzu-umidlari va ijtimoiy muhitdagi o‘zaro munosabatlar adabiyotning asosiy mavzularidan biri bo‘lib kelgan. Berdaq ijodida ana shunday chuqur ijtimoiy mazmun kasb etib, xalq hayoti, adolat uchun kurash va insonlar o‘rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini aks ettiradi. Uning asarlarida ijtimoiy tenglik, mehr-oqibat, hamkorlik g‘oyalari yetakchi o‘rin tutadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Zamonida har bir xalq o‘zi ma’naviy bayroq etib ko‘targandek, dunyoga bir kelgan dono farzandini tug‘ib, uni o‘zining milliy oltin beshigida tebratadi. Taqdir uni haqiqatning tikonli so‘qmog‘idan yalang oyoq yugurtirib, o‘tda toblab, suvga bosib chiniqtiradi. U endi o‘z xalqining baxt-saodati uchun, insonparvarlik, haqiqat uchun jonini jabborga berib kurashish namunasini ko‘rsatadi. Qoraqalpoq xalqining ulug‘ shoiri, millatimizning ma’naviy timsoli va faxri Berdaq ana shunday siymodagi inson bo‘ldi[1:3].

Berdaq G‘arg‘aboy o‘g‘li – qoraqalpoq adabiyotining faxri. Buyuk gumanist shoir va mutafakkir Berdaqning nomi, ijodi yurtimizdagi barcha qardosh xalqlar uchun qadrlidir. Sababi, Berdaq o‘z ijodi bilan umr bo‘yi mehnatkash xalqqa xizmat qilgan, ortida o‘lmas asl so‘z durdonalarini qoldirgan chin xalq shoiri. Ulug‘ shoirning otashin vatanparvarlik ruhida, xalqqa xizmat qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan asarlari hozirgi vaqtda ham mamlakatimiz madaniyati gullab-yashnashiga xizmat qiladi. O‘zbek shoiri Alisher Navoiy, qozoq shoiri Abay, turkman shoiri Maxtumquli mazkur xalqlar adabiyoti uchun qanday ahamiyatga ega bo‘lgan bo‘lsa, Berdaq ham qoraqalpoq adabiyotida shunday muhim o‘rin tutadi. Chingiz Aytmatov, mashhur qirg‘iz yozuvchisi, “Berdaq ijodi nafaqat qoraqalpoq adabiyotida, balki bizning ko‘p millatli Vatanimiz adabiyoti tarixida katta o‘rin tutadi. Qirg‘izning Olatovining cho‘qqilari ko‘p. Ularning ba’zilari baland bo‘lsa, boshqalari undan ham baland, xalqimiz ana shu baland cho‘qqilarni “tug‘ cho‘qqi” ya’ni “bayroq cho‘qqisi” deb ataydi. Berdaq ham... ko‘p millatli qardosh adabiyotning baland cho‘qqilarining biri”, deb ta’riflaydi[2:9].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/ DISCUSSION). Berdaqning bizga qadrliligi, uning o‘z zamonida progressivlik, demokratik, xalqchillik g‘oyalarni kuylaganligida. Berdaq mehnatkash xalqning orasidan chiqqan, shu xalqning chin farzandi edi. Berdaq yashagan zamoni XIX asrning ikkinchi yarmi qoraqalpoq xalqining hayotidagi katta tarixiy voqealarni boshidan kechirgan zamon edi. U qoraqalpoq adabiyotini boyitishga katta hissa qo‘shdi. Adabiyotni ko‘plab yangi g‘oyalar, yangi mavzular, janrlar bilan boyitib, adabiyotni xalqqa avvalgidan ham yaqinlashtirdi. Berdaq qoraqalpoq adabiyotiga adabiy shakllar, janrlar, uslub bobida ham bir qator yangiliklar kiritdi. Berdaq qoraqalpoq shoirlari ichida birinchi bo‘lib o‘z xalqining tarixini, o‘tmishdagi qahramonlik ishlarini o‘rganib, kuylagan, shu yo‘lda juda ko‘p mehnat qilgan shoir hisoblanadi. Qoraqalpoq xalqining tarixi haqida, uning o‘tmishdagi qahramonlik ishlari haqida “Shajara”, “Aydos bobo”, “Amangeldi”, “Ernazar

TAMADDUN NURI

biy” kabi bir qancha keng qamrovli tarixiy asarlar yaratdi. Bu asarlar izchil ilmiy tarix bo‘lmasa-da, lekin ularning tarixiy va badiiy ahamiyati katta [3:21].

XIX asr dunyo miqyosida ulkan o‘zgarishlar yuz bergan, eski tuzum o‘zgarish yoqasida turgan murakkab davr edi. Aynan shu tarixiy sharoitda qoraqalpoq xalqining buyuk shoiri Berdaq ijod etdi. Uning asarlari xalq turmushi, feodal zulm, ijtimoiy tengsizlik va adolat izlash kabi mavzularni qamrab olib, o‘sha davrning haqiyqiy manzarasini aks ettiradi. Berdaq o‘z ijodida xalqning dardi tashvishlari, orzu-umidlarini aks ettirishga harakat qilgan. U nafaqat she’riyat orqali go‘zallikni tarannum etgan, balki jamiyatdagi illatlar, adolatsizlik va qiyinchiliklarni ham ochiq-oydin tasvirlagan. Uning quyidagi she’r va satrlari bunga yaqqol misol bo‘la oladi: *“Shoir edim, ko‘zim ko‘rganin yozdim, Ko‘nglim sezib bilganini yozdim. Zamon qismatidan sarg‘aydim, ozdim, Bo‘larmu deb yorug‘ kunlar xalq uchun”*[4:28].

Berdaq – o‘z zamonasidagi ijtimoiy hayotni, siyosiy, iqtisodiy jarayonni haqqoniy ko‘rsatgan realist shoir. Uning ijodida qoraqalpoq xalqining butun bir asr ichidagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayoti yorqin tasvirlangan. Berdaq ijodi faqat shaxsiy kechinmalar bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy muammolarni yoritishda ham katta ahamiyatga ega. Uning asarlari xalqni uyg‘otishga, haqiqatni anglashga chorlaydi. Shoir ijodi qoraqalpoq adabiyotida realizmning rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Bilim insoniyat tarixida har qanday taraqqiyotning asosi bo‘lib, Berdaq shoirning “Izlar edim” she’ri satrlaridagi mazmun bugungi kun uchun ham, jamiyatimiz uchun ham dolzarb hisoblanadi. Ya’ni “Aqli komil, ilmi zo‘r, bilimli el bo‘lmaydi xo‘r”.

Har bir davr rivoji ilm-fan, texnologiya va madaniyat rivoji bilan chambarchas bog‘liq. Bilim odamlarga dunyoni anglash, muammolarni hal qilish va yangi imkoniyatlar yaratish imkonini beradi. Bilimli jamiyat doimo barqaror rivojlanishga erishib kelgan. Qadimgi davrlardan boshlab insoniyat ilmga intilish orqali taraqqiyot sari qadam tashlagan. Masalan, qadimgi Yunonistonda ilm-fan va falsafa rivojlangan davrda bu jamiyat yuksak sivilizatsiyaga ega bo‘ldi.

Buning aksi, ilmsizlik va jaholat hukmron bo‘lgan jamiyat orqaga ketib, zulmatga botgan. Bilimli insonlar jamiyatning har bir sohasida yetakchi bo‘lib, innovatsiyalar va texnologik rivojlanish orqali mamlakatning global maydonda raqobatbardoshligini oshiradi. Shuningdek, shoirning “Izlar edim” she’rida ilmiy fikrlash nafaqat individlar, balki butun jamiyat taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi: *“O‘tgan Arastu, Aflotun, yaratib ilmning kalitin, yechish uchun fikr bantin, men ma’rifat izlar edim”.*

Ilmiy tafakkur bu haqiqatni ochib beradigan, insoniyatni olg‘a boshlovchi eng kuchli vositadir. U odamlarga real faktlarga asoslangan qarorlar qabul qilish, xatolar ustida ishlash va yangilik yaratish imkonini beradi. Ilmiy tafakkurga ega insonlar hayotiy haqiqatni chuqur tahlil qiladilar va muammolarga ijodiy yondashadilar. Bunday insonlar nafaqat mavjud bilimlarni, balki yangi g‘oyalarni yaratish va amaliyotga tatbiq etish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bu esa jamiyatning ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Haqiqatan ham hayotda insonning yetukligini belgilaydigan asosiy omillardan biri uning niyatining to‘g‘riligi. To‘g‘ri niyat insonni yaxshilik yo‘liga boshlaydi va boshqalarga foyda keltiradigan amallarni qilishga undaydi. Chunki ezgu niyat samimiylik va haqqoniylikning asosidir. Agar inson o‘z niyatida adolat va haqiqatni ustuvor qo‘ysa, uning qadri jamiyatda albatta e’tirof etiladi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Shuningdek, *“Xalqqa bursang yuzingni”* satri bilan, ya’ni odamlar bilan ochiq va samimiy munosabatda bo‘lish, ularning dardini tushunish va muammolariga yechim topishga harakat qilish insonni chinakam fuqarolik darajasiga ko‘taradi.

Insonparvarlikning yana bir muhim ko‘rinishi bu muhtoj va ehtiyojmandlarga mehr-muruvvat ko‘rsatishdir. Ularni e’zozlash, ularga yordam qo‘lini cho‘zish nafaqat insoniy burch, balki ma’naviy yuksalishning asosiy omillaridan biridir. Mehr-oqibat va saxovat bilan amalga oshirilgan har

TAMADDUN NURI

bir ish jamiyatni birlashtiradi va insoniy qadriyatlarni mustahkamlaydi.

She'r satrlarida ko'rsatilganidek, bularning hammasini o'zida jamlagan inson haqiqiy azamat sifatida aks etadi. Insonparvarlik bu faqat kuch-qudratga ega bo'lish emas, balki qalbida mehr-shafqat, donolik hamda amallarida adolatni namoyon etishdir. Chinakam fuqarolar jamiyatni yorug' kelajakka yetaklovchi yetakchilardir. Shunday ekan, bizlarning har birimiz bu tamoyillarni hayotimizda qo'llashga harakat qilishimiz zarur.

Xalqning XIX asrdagi hayoti bilan bog'liq bo'lgan katta masalalari Berdaq she'riyatining asosiy qismini tashkil etadi. Berdaq shoirning "Soliq" she'ri o'sha davrdagi odamlarning turmushi haqidagi ma'lumotlarni beradi. Masalan: *"O'tgan yildan bu yil yomon, qanday-qanday bo'ldi zamon, g'arib-yetim qolmay omon, o'n tillodan keldi soliq. Menga hech gap – eshshagim bor, sotib berarman bir bozor, attang, kambag'al, och Ernazar, unga qiyin bo'ldi soliq".*

Xalqimizning kundalik hayotida qo'llaydigan va unga amal qilishga undaydigan maqol-matallari juda ko'plab topiladi. Xususan, "Mehnatning tagi rohat" "Yomg'ir bilan yer ko'karar, Mehnat bilan – el" kabi naql-maqollarda mehnatni ulug'laydi, uni odamgarchilikning dastlabki belgisi, asil xislat sifatida baholaydi[5:21]. Ya'ni Berdaq shoir ijodida mehnat inson hayotining ajralmas bo'lagi sifatida tasvirlanadi. U xalq orasida mehnatsevarlik, fidoyilik va halol mehnat g'oyalarini targ'ib qiladi. Uning asarlarida dehqon, hunarmand, chorvador va boshqa mehnatkash tabaqalarning qiyinchiliklari va mashaqqatli mehnati yuksak baholanadi. Berdaq asarlarida mehnat tushunchasining ijtimoiy-falsafiy va tarbiyaviy mazmuni aks etadi. *"Ilm-g'oyibdan so'zlama, kishining yorin ko'zlama, mehnatsiz dunyo izlama, jonni o'tga soladursan. Mehnat qilib top dunyoni, sutdan oqdir bilsang anı. Ko'p qilsang o'zing gunohni, yomon otli bo'ladursan" ("Qachon rohatlanadursan?" asaridan)*

Berdaq shoir insonning mehnati orqali kamolga yetishini alohida ta'kidlaydi. Uning asarlarida inson mehnat qilishi, o'z hunarini puxta egallashi orqali jamiyatda hurmat qozonishi va o'z o'rnini topishi mumkinligi aks etgan. Bu fikrlar falsafiy nuqtayi nazardan insoniyat taraqqiyotining asosiy tamoyillari bilan bog'liq. Berdaq o'z ijodida mehnatkash insonlarni ulug'lash orqali ularning ijtimoiy jamiyatdagi o'rnini ko'rsatib beradi. Uning she'rlarida fidoyi dehqonlar, vijdonli hunarmandlar va mehnatkash xalq farovonlikning asosi ekani ta'kidlanadi.

Yigit bo'lsang arslonday tug'ilgan,
Xizmat etgil doimo xalq uchun.
("Xalq uchun" asaridan)

Shoirning bu she'riy satrlari ijtimoiy falsafa jihatidan esa u shaxs va jamiyat o'rtasidagi muvozanatni anglash, o'zini jamiyatning bir qismi sifatida his etish va umumiy maqsad yo'lida xizmat qilish g'oyalariga asoslanadi. Shuningdek, shaxsiy manfaatdan voz kechish va xalq xizmatida bo'lish asosiy qadriyat sifatida ilgari surilgan.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilib aytganda Berdaq shoirning asarlari qoraqalpoq adabiyotining XIX asrdagi yozilgan katta tarixiy yozma yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Qimmatli merosning yaratilish manbalarida iste'dod va bu katta she'riy improvizatsiya emas, balki ajoyib turkiy xalqlar tarixi va madaniyati yotadi[6:174]. Berdaq qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lib, uning ijodida inson, jamiyat va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning ko'rinishlari muhim o'rin egallagan. Aniqroq qilib aytganda, xalqning hayoti, orzu-armonlari va mehnatkash xalqning qadriyatlari aks etgan. Berdaq shoir ijodi va ijtimoiy munosabatlar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, uning asarlarida insoniyatning ijtimoiy hayot, adolat va tenglikka bo'lgan intilishlari ko'zga tashlanishini ko'rish mumkin. Berdaq shoir o'z asarlarida insonning jamiyatdagi o'rni, shuningdek, odamlarning bir-biriga bo'lgan munosabatini tasvirlaydi. Shu bilan birga, shoirning ijtimoiy muammolarga, o'sha davrdagi ijtimoiy qatlamlar orasidagi farqni so'z kuchi bilan badiiy tasvirlaydi. U ijtimoiy adolatni, inson huquqlarini oliy qadriyatlar sifatida ilgari suradi. Berdaq shoirning ijodi nafaqat adabiy meros sifatida, balki jamiyatdagi haqiqiy ijtimoiy munosabatlar va ularni rivojlantirish yo'lida g'oyaviy asos bo'lib ham xizmat qiladi.

TAMADDUN NURI

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. M.Nizanov. Berdaq. Saylandı shiǵarmaları. Nókis: Bilim, (Qayta basılım).2022j 280b.
2. Б. Курбанбаев. Бердақ ҳәм өзбек әдебияты. Нөкис, Қарақалпақстан, 1986. 9-бет.
3. Бердақ. Танламалы шығармаларының жыйнағы Сағийтов И. Т., Юсупов И., Мақсетов Қ., Жумамуратов Т., Кәримов А., Қайыпназаров Б. Муртазаев А., Хамидов Х. Нөкис-1977 20-21-б.
4. И.Юсупов Ҳ.Ҳамидов. Бердақ Сайланды шығармалары: Нөкис: Қарақалпақстан, 1997. 220. –Б.
5. К.Жәримбетов. Бердақтың насиятлары бизиң руўхый ғәзийнемиз. (Бердақтың дидактикалық лирикасы ҳаққында). Нөкис, Қарақалпақстан. Руўхый мәдениет ҳәм ағартыў жәмийетлик орайы, 1998. 24-б.
6. Пахратдийнов Ә. Бердақ шайырдың творчествосының жыйналыў, басып шығарылыў ҳәм изертлениў тарийхынан: илимий изертлеў. Нөкис: Қарақалпақстан, 1990-200 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 811.512.122. 81.3.81.42

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI BADIIY MATNLARDA HIS-TUYG‘UNI IFODALOVCHI IBORALAR

Jumatova Buvijon Ulug‘bekovna, Urganch davlat universiteti Xorijiy filologiya fakulteti “231-Lingivistika (ingliz tili)” yo‘nalishi magistranti

ФРАЗЫ ВЫРАЖАЮЩИЕ ЧУВСТВА В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТАХ НА АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Джуматова Бувижон Улугбековна, магистрант кафедры “231-Лингвистика (английский язык)” факультета иностранной филологии Ургенчского государственного университета

PHRASES EXPRESSING FEELINGS IN LITERARY TEXTS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Jumatova Buvijon Ulugbekovna, master’s student of the Faculty of Foreign Philology of Urgench State University, specialty “231-Linguistics (English)”

https://orcid.org/0009-0009-3235-353
e-mail: jumatovabibijon@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘uni ifodalovchi iboralar tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar o‘rganiladi, bu esa adabiyotshunoslikda ikkita tilning strukturaviy va stilistik xususiyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ushbu tadqiqot badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni tasvirlashning universal va madaniy maxsus xususiyatlarini o‘rganishga qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *his-tuyg‘u, badiiy matn, ingliz tili, o‘zbek tili, iboralar, stilistik vositalar, metafora, taqqoslash, adabiyot.*

Abstract: *This article analyzes the expressions of emotions in literary texts in English and Uzbek. The differences and similarities between expressions of emotions in English and Uzbek literary texts are examined, which helps to gain a deeper understanding of the structural and stylistic characteristics of the two languages in literary studies. This research aims to study the universal and culturally specific features of expressing emotions in literary texts.*

Keywords: *emotion, literary text, English language, Uzbek language, expressions, stylistic devices, metaphor, comparison, literature.*

Аннотация: *В данной статье анализируются выражения эмоций в художественных текстах на английском и узбекском языках. Исследуются различия и сходства между выражениями эмоций в художественных текстах на английском и узбекском языках, что помогает глубже понять структурные и стилистические особенности двух языков в литературоведении. Это исследование направлено на изучение универсальных и культурно-специфических особенностей выражения эмоций в художественных текстах.*

Ключевые слова: *эмоция, художественный текст, английский язык, узбекский язык, выражения, стилистические средства, метафора, сравнение, литература.*

KIRISH. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi farqlar va o‘xshashliklar, ularning strukturasi va til boyligining ifodalanish usullari, his-tuyg‘ularni tasvirlashda qanday ta’sir ko‘rsatadi, degan savolni o‘rganish muhimdir. Badiiy matnlarda his-tuyg‘u ifodasi turli usullar bilan amalga oshiriladi va bu

jarayon tilning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. Ingliz va o‘zbek tillari orasidagi farqlar, ayniqsa, iboralar va stilistik vositalarning ishlatilishida, turli milliy va madaniy xususiyatlarning aks etishida ko‘zga tashlanadi. Ushbu tadqiqotda ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar tahlil qilinadi. Maqsad – har ikki tilning badiiy adabiyotida his-tuyg‘ularni ifodalashning o‘ziga xos usullarini o‘rganish, shuningdek, bu iboralarning tarjima va madaniyatlararo muloqotdagi o‘rnini aniqlashdir. Tadqiqotda stilistik vositalar va iboralarning o‘ziga xosligi, ularning badiiy adabiyotda qanday ishlatilishi haqida batafsil ma’lumot beriladi.

ASOSIY QISM. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar tilning badiiy imkoniyatlarini va uning madaniy kontekstini aks ettiradi. Ushbu bo‘limda biz ikki tilning o‘ziga xos jihatlari va ularning his-tuyg‘ularni ifodalashdagi usullarini tahlil qilamiz. His-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar adabiy asarlarda metaforalar, taqqoslashlar, ta’riflashlar, hissiy ohanglar va boshqa stilistik vositalar yordamida yuzaga keladi.

1. His-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralarda stilistik vositalar. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalash uchun ko‘plab stilistik vositalar ishlatiladi. Ulardan ba’zilari quyidagilardir:

a) Metafora: Metafora – bir narsaning o‘rniga boshqa bir narsani keltirish orqali tushuncha va tasavvur yaratish usulidir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalashda keng qo‘llaniladi. Masalan, o‘zbek adabiyotida “ko‘zlarimda o‘q otildi” iborasi biror kishi yomon qarash yoki og‘riqli hissiyotlar bilan qarayotganini ifodalashda ishlatiladi. Ingliz tilida esa “a storm of emotions” (his-tuyg‘ular to‘foni) kabi iboralar his-tuyg‘ularni kuchli, chaqqon tarzda ifodalash uchun qo‘llaniladi.

b) Taqqoslash: Taqqoslash (simile) — ikki narsani o‘xshashliklar asosida bog‘lash usuli. O‘zbek tilida “yuragim to‘lg‘onib ketdi, go‘yo ko‘kragimda zardob bor” kabi iboralar his-tuyg‘ularning kuchli va real his-tuyg‘ularga aylanganini ko‘rsatadi. Ingliz tilida esa “Her heart was like a broken glass” (Uning yuragi singan shishaga o‘xshardi) kabi iboralar ishlatiladi, bu esa his-tuyg‘uni tushunishga yordam beradi.

c) Ta'riflash va detallash: Badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalashda, shuningdek, ta'riflash va detallash usullari keng qo‘llaniladi. O‘zbek va ingliz tillaridagi matnlarda hissiyotlar ko‘pincha detallarga asoslangan, chuqur tasvirlar bilan ifodalanadi. Misol uchun, o‘zbek adabiyotida: “Yuragim juda achchiqlangan, o‘zimni yengil his qila olmayapman“ kabi ifodalar, ingliz tilida esa: “Her heart was heavy, filled with sorrow she couldn't escape” (Uning yuragi og‘ir edi, undan qochib qutulolmaydigan qayg‘u bilan to‘lgan edi) kabi iboralar ishlatiladi.

2. Emotsional ohang va ularning tilga ta'siri. His-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar tilning emotsional ohangini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Ingliz va o‘zbek tillarida emotsional ohangning farqlari va o‘xshashliklarini ko‘rish mumkin. O‘zbek adabiyotida tilning yurakka ta’sir qiluvchi kuchi ko‘proq seziladi, chunki unda milliy ruhiyat va ichki ehtiroslar juda kuchli ifodalanadi. Masalan, “dilim og‘riyapti” yoki “ruhiy dardni ko‘tarolmayman” kabi iboralar o‘zbek adabiyotida his-tuyg‘ularni chuqur va nozik tarzda aks ettiradi. Ingliz adabiyotida esa ko‘pincha his-tuyg‘u noaniq yoki universal tarzda ifodalanadi, masalan: “She couldn't stop the tears from falling” (U ko‘z yoshlarini to‘xtata olmadi).

3. Madaniy kontekstda his-tuyg‘ularni ifodalash. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalash madaniy jihatdan ham o‘ziga xosdir. Har bir madaniyatda his-tuyg‘ularni ifodalashda o‘ziga xos an'ana va qabul qilingan usullar mavjud. Masalan, o‘zbek adabiyotida oilaviy yoki diniy qadriyatlar asosida his-tuyg‘ular ifodalanadi. Bu yerda ko‘proq “jondan o‘tmoq”, “ko‘z yoshlari bilan to‘lish” kabi iboralar uchraydi. Ingliz tilida esa his-tuyg‘ular ko‘proq individualistik va introspektiv tarzda aks etadi. “He felt like a prisoner in his own mind” (U o‘z ongida qamoqda kabi his qilardi) kabi iboralar ingliz tilidagi badiiy asarlarda his-tuyg‘ular o‘zini o‘ylab, ichki kurashni ifodalashga moyil bo‘ladi.

MUHOKAMA. Ingliz va o‘zbek tillaridagi his-tuyg‘ularni ifodalashga oid birinchi ilmiy tadqiqotlar odatda tilning semantik, leksik va stilistik jihatlariga asoslangan. O‘zbek olimi T.To‘raqulovning “O‘zbek tilida so‘z va iboralar” (2005) asarida, u til orqali his-tuyg‘ularni ifodalash va metafora, taqqoslash kabi stilistik vositalarning o‘rni haqida gapiradi. To‘raqulov, shuningdek, o‘z-bek tilidagi his-tuyg‘u ifodalari va ularning tilshu-

noslikdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Uning fikricha, his-tuyg‘ularni ifodalashda badiiy iboralar yordamida tilni boyitish va emotsional tasvirni jonlantirish mumkin. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, til va madani-yatlarning farqlarini va o‘xshashliklarini namoyon etadi. Har ikki tilda his-tuyg‘ularni ifodalash usul-lari, ularning tilga ta'siri va o‘quvchiga yetkazilishi haqida turli jihatlar mavjud. Ushbu bo‘limda ingliz va o‘zbek tillarida his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar orqali olingan tahlil natijalarini muhokama qilamiz.

1. Stilistik vositalar va iboralar. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalashda ishlatiladigan stilistik vositalar o‘xshash va farqli bo‘lishi mumkin. Masalan, o‘zbek adabiyotida ko‘proq an'anaviy tasvirlar, mashhur iboralar va diniy-ma'naviy elementlar ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilida his-tuyg‘ularni ifodalashda “yuragi to‘kilgan”, “ko‘zlari yiriklashgan” kabi iboralar keng tarqalgan bo‘lsa, ingliz tilida esa “his heart sank”, “tears welled up in her eyes” kabi iboralar ishlatiladi.

Badiiy matnlarda, ingliz tilida, metaforalar va taqqoslashlar yordamida his-tuyg‘ular ko‘pincha tasvirlanadi. Masalan, “a heart of stone” (to‘shakni to‘kib qo‘ygan kabi, ko‘ngli tosh kabi) yoki “her tears were a river” (uning ko‘z yoshlari daryo edi) kabi iboralar orqali kuchli emotsional holatlar tasvirlanadi. O‘zbek tilida ham shunga o‘xshash iboralar mavjud: “yuragi temirdan” yoki “ko‘zlaridan yomg‘ir yog‘ardi” kabi iboralar orqali his-tuyg‘ular ifodalanadi.

2. Madaniyat va tilning ta'siri. Har bir til va madaniyat his-tuyg‘ularni ifodalashda o‘ziga xos usullarni rivojlantiradi. O‘zbek tilida ko‘proq an'anaviy va oilaviy his-tuyg‘ular, ahil oilaning muhim roli va ijtimoiy hayotda ko‘p sonli hissiyotlarni ta'riflashga moyil bo‘lishadi. O‘zbek adabiyotida oilaviy hissiyotlar, masalan, “ona yuragi”, “otani sevish”, “tug‘ilgan o‘g‘ilni qo‘llab-quvvatlash” kabi iboralar juda keng tarqalgan. Bu iboralarda milliy madaniyat, oilaviy qadriyatlar va shaxsiy aloqalar aks etadi. Ingliz tilida his-tuyg‘ular ko‘proq individualistik, introspektiv va universal tarzda ifodalanadi. Masalan, “I felt like I was drowning in my own sorrow” (Men o‘zimning qayg‘ularimda cho‘kayotganimni his qildim) yoki “his heart was shattered into a thousand pieces” (uning yuragi mingta bo‘lakka bo‘lingan edi) kabi iboralar o‘z-o‘zini anglash va individual hissiyotlarga asoslangan tarzda ifodalangan.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar orqali, bir tilning o‘ziga xos ma'nosi va tasvirlash usuli, boshqa tilga qaraganda, o‘zining ijtimoiy, diniy, va madaniy xususiyatlarini ko‘rsatadi. O‘zbek tilidagi iboralarda ko‘proq oilaviy, ma'naviy va diniy elementlar mavjud bo‘lib, ingliz tilida esa ko‘proq individualistik va umumiy hissiyotlar o‘rganiladi.

3. Tarjima va madaniyatlararo muloqot. Ingliz va o‘zbek tillarida his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar madaniyatlararo muloqotda muhim o‘rin tutadi. His-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar ko‘pincha tarjimada yo‘qotilishiga olib keladi, chunki ularning har birida ma'lum bir madaniyatga xos elementlar mavjud. Ingliz tilidagi “She was walking on air” (U havoda yurgan edi) iborasi o‘zbek tiliga tarjima qilinganda aniq shunday tasvir yaratish qiyin bo‘lishi mumkin, chunki bunday metafora ingliz madaniyatiga xosdir.

XULOSA. Ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar, til va madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini va badiiy imkoniyatlarini ko‘rsatadi. His-tuyg‘ularni ifodalashda ishlatiladigan stilistik vositalar, metaforalar, taqqoslashlar va boshqa badiiy usullar har ikki tilda o‘ziga xos tarzda aks etadi. Ingliz tilida his-tuyg‘ular ko‘pincha individualistik va introspektiv tarzda ifodalansa, o‘zbek tilida ko‘proq oilaviy, ma'naviy va diniy elementlar orqali tasvirlanadi. Har ikki tilda ham his-tuyg‘ularni ifodalovchi iboralar yordamida voqealar nafaqat tashqi holatlar, balki ichki dunyo va ruhiy holatlar orqali ham aks ettiriladi. Metaforik va stilistik iboralar yordamida o‘quvchi yoki tinglovchi his-tuyg‘ularni chuqurroq his qilishi va voqeaning emotsional ohangini to‘g‘ri tushunishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. To‘raqulov T. (2005). O‘zbek tilida so‘z va iboralar.
2. Wierzbicka, A. (1992). Semantics: Primes and Universals.
3. Vygotsky, L. S. (1965). Thinking and Speech.
4. Dubrova, M. S. (2002). O‘zbek adabiyotida badiiy iboralar.
5. Searle, J. R. (1995). The Social Origins of Meaning.
6. Jakobson, R. (1959). On Linguistic Aspects of Translation.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 93/94

JANUBIY OROLBO‘YI HAVZASIDA BRONZA DAVRIDAGI TURAR JOYLARINING ARXEOLOGIK TADQIQOTLARI

Usmanova Inobat Ibragimovna, “Tarix va geografiya” kafedrasi stajyor-o‘qituvchisi, Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

ARCHAEOLOGICAL RESEARCH OF BRONZE AGE SETTLEMENT SITES IN THE SOUTHERN ARAL BASIN

Usmanova Inobat Ibragimovna, teacher-intern of the “History and geography” department, Doctoral student of the Urganch State Pedagogical Institute

АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ ПОСЕЛЕНИЙ БРОНЗОВОГО ВЕКА В БАССЕЙНЕ ЮЖНО-АРАЛЬСКОГО ЗАЛИВА

Усманова Инобат Ибрагимовна, преподаватель-стажер кафедры “История и география”, докторант Ургенчского государственного педагогического института

https://orcid.org/0000-0003-4013-3556
e-mail: inobatusmanova540@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Janubiy Orolbo‘yi hududida bronza davri yodgorliklarining arxeologik jihatdan o‘rganilish darajasi tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *Itina M.A., Tolstov S.P, G‘ulomov Ya.G‘, Quyi Amudaryo, Ko‘kcha-3, Ko‘kcha, Jonbos-6, Sulton Sanjar, Qarriqizil, Qushbuloq, Zomonbobo.*

Abstract: *The article analyzes the degree of knowledge of archaeological monuments of the Bronze Age of the Southern Aral Sea region.*

Key words: *Itina M.A., Tolstov S.P., Gulyamov Ya.G., Lower Amu Darya, Kokcha-3, Kokcha, Zhonbos-6, Sulton Sanzhar, Karrykizyl, Kushbulok, Zamanbaba.*

Аннотация: *В статье анализирован степень изученности археологических памятников бронзового периода Южного Приаралья.*

Ключевые слова: *Итина М.А.,Толстов С.П., Гулямов Я.Г., Низовья Амударьи, Кокча-3, Кокча, Жонбос-6, Султон Санжар, Каррыкызыл, Кушбулок, Заманбаба.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida neolit davri urug‘ jamoalari Jonbos – 33, 34, Tojiqazg‘on manzilgohlari urug‘-jamoalari avlodlari suv zahirasi, o‘simlik va hayvonot dunyosidan uddaburon va epchillik bilan o‘z manfaatlariga yog‘och ustunli yarim yerto‘la manzilgohlarida yashab bronza davriga ovchilik va termachilik, idish-tovoqlarni qo‘lda yasab bronza davriga tarixiy tajriba bilan yetib kelgan.

Amudaryo va Zarafshon daryolari suv toshqini natijalariga ko‘nikkan neolit urug‘-jamoalari yangi vorislari xo‘jalik sohasida erishgan natijalari eneolit davrida davom etib, uning ta’siri bronza aholisi xo‘jalik sohalarini yanada rivojlantirishda erishgan zafarlarini; ushbu maqolada yoritish nazarga olingan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/MATERIALS AND

METHODS).1937-yildan 1940-yilgacha Quyi Amudaryo, Sariqamish, Uzboy, Sirdaryo quyi havzasi va o‘rta qismida keng qamrovli arxeologik dala amaliyotini olib borishi natijasida, ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan turar joylarni ro‘yxatga olib, ularda arxeologik tadqiqotlarni olib borishni ilmiy rejalari mavzularida belgilab oldilar. Zikr qilish kerakki, XX asr 50-yillari o‘rtalarigacha Amudaryo o‘ng sohili hududida bronza davri aholi turar joylarida arxeologik izlanishlar olib borilmagan. Sariqamishbo‘yi, Uzboy va Tuyamo‘yin hududida 70-yillar boshlari olimlar faoliyat olib bormagan. Faqat XX asr o‘rtalaridan boshlab Amudaryo o‘ng sohili hududida To‘rtko‘l va Beruniy tumanlari hududida olib borilgan Xorazm ekspeditsiyasi xodimasi M.A.Itina ilmiy rejasida bronza davri aholisi olib borgan moddiy va ma’naviy madaniyatini o‘rganishni belgilab olganligi bois, asosiy arxeologik izlanishlar bronza davri manzilgohlarida olib borilgan. Xususan, dastlab Janubiy Oqchadaryo havzasida Sho‘roxon qishlog‘i shimoliy hududlari geografik manzarasini hosil qilgan Angqa-5, Qavat-3 hamda Ko‘kcha-3 manzilgohi aholisi tomonidan qoldirilgan 74 ta qabrda qazishma ishlari olib borilishi natijasida joylashtirilgan marhumlar jasadlari, atroflarida qo‘yilgan idish-tovoqlar, mehnat qurollari hamda zeb-ziynat ashyolari olingan [1,2,3,4]. Shu bilan birga, M.A.Itina 70-80 -yillarda Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida aholi manzilgohlarida arxeologik tadqiqotlarni davom ettirdi.

Oqchadaryo (Janubiy qismida) havzasida Ko‘kcha 15, 16, 21, 22, Jonbos 33,34 yodgorliklarida hamda so‘l sohil Tuyamo‘yin hududida Sulton Sanjar, Qushqal’a, Qarriqizil manzilgohlarida qazishma ishlarni olib borib, mazkur jamiyatda kechgan tarixiy jarayonlarni yoritadigan manbalar olingan[5,6,7]. Afsuski, M.A.Itina asarlarida Yonboshqal’a balandligi atroflari hamda Sulton Uvays tog‘i shimoli-sharqiy hududlarida o‘rnashgan Jonbos-4 manzilgohi urug‘-jamoalari vorislari tarixiy taqdiri to‘g‘risida fikr-mulohazalarini kuzatish mushkul.

Shuningdek, Uzboy hududida eneolit davri aholisi vakillarining bronza davrida olib borgan xo‘jalik madaniyati to‘g‘risida nashrlarda ma‘lumotlar qayd qilinmaydi. Ya.G‘ulomovning Jonbosqal’a atrofida joylashgan Jonbos-6 manzilgohi ovchi-termachilari mahalliy Suvyorgan madaniyati tarixiga oid manbalarni olishga muyassar bo‘lgan[8]. Xorazmga geografik jihatdan ulangan hududlarda ham bronza davri aholisi manzilgohlari arxeologik jihatdan o‘rganilgan.

Xorazm vohasiga geografik manzarasi jihatidan o‘xshash bo‘lgan Ustyurtda neolit davri urug‘ jamoalari avlodlari yarim erto‘lalarda yashaganlar, kulolchilik ashyolari qo‘lda yasalgan, uy chorvachiligi hamda Qayir ziroatchiligi bilan etnik jarayonlarni olib borganlar[9]. Oqchadaryo havzasi Qizilqum tasvirini davom ettirgan Quyi Zarafshon vodiysida Zomonbobo ko‘l sohili etagida joylashgan. Aholisi yog‘och ustunli yarim erto‘la kulbalarda istiqomat qilib, xo‘jalik sohalarida uy chorvachiligi hamda madaniy sohilda qilgan kashfiyotlari – “qayir” ziroatchiligini olib borib, o‘troq hayot tarzida etnik munosabatlarni olib borganligidan, tadqiqotlarda olingan ashyolar dalolat beradi [10,11].

Arxeologik adabiyotlarda qayd qilingan ma’lumotlarga O‘zbekiston hududi shimoliy sharqiy tomondan Andronova aholisi chorvadorlarining guruh vakillari Janubiy Oqchadaryo, Quyi Zarafshon hududlariga kelib joylashib, etnik munosabatlar geografiyasini kengaytirganlar[12],13],14].

TADQIQOT METODOLOGIYASI (МЕТОД/RESEARCH METHODOLOGY). Obyektivlik, tarixiy xronologik tahlil, munozara, umumlashtirish, mantiqiy xulosa, arxeologiya, geografiya va etnografiya fanlari yutuqlaridan foydalanildi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida bronza davri aholi turar joylarida olib borgan arxeologik izlanishlar natijalari tahlil qilindi.

Xorazm ekspeditsiyasini Amudaryo o‘ng va so‘l sohili hududlarida XX asr 50-yillari o‘rtalaridan ajdodlarimizni bronza davri jamiyatini ijtimoiy-iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarni rivojlantirish barobarida erishgan natijalari oydinlashtirildi. Shu bilan birga, bronza davri jamiyatining notekis rivojlanishida bo‘lgan omillar hamda Surxon vohasi va Farg‘ona vodiysi aholisining jamiyatni rivojlantirishda erishgan natijalaridan farqlanish holati aniqlashtirildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Yuqoridagi fikr-mulohazalar ma’nosidan kelib chiqib, quyidagi xulosa qayd qilindi:

-Quyi Amudaryo havzasi geografik muhit, iqlim sharoit, antropogen landshaft ta'sirida neolit davri Jonbos-4 manzilgohi urug' jamoalarini eneolit, bronza davrlarida jamiyatning notekis rivojlanishi davom etdi;

-Eneolit davri aholisining Amudaryo dinamikasiga moslashgan holda, bronza davri jamiyatini iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirish sohasidagi tarixiy tajribasi navbatdagi tarixiy davr taraqqiyotiga asos bo'ldi;

-Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari Amudaryo o'ng va so'l sohili hududlarida bronza davri aholisining hayot va ijod uyg'unligi bo'lgan turar joylarda keng qamrovli qazishma ishlarini olib borib, mazkur jamiyatda kechgan jarayonlarni yoritishga xizmat qiladigan manbalarni olgan.

Takliflar:

-Tevarak atrofi Qizilqum va Qoraqum oralig'ida joylashgan kichik hajmga ega bo'lgan hududda mil.avv. IV-III ming yillikdan etnik jarayonlarni olib borgan ajdodlarimiz tarixini o'rganish dolzarb masalalardan biri;

-Xorazm vohasining geografik joylashishi o'ziga xos xususiyatlari, iqlim sharoiti jihatlari, suv manbasi serob bo'lsa ham qo'shni hududlardan aholining kech joylashishiga bo'lgan omillarga e'tibor berish;

-Xorazm arxeologiya va etnografiya ekspedisiyasini voha tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi davrida ajdodlarimizning olib borgan kundalik faoliyatlarini o'rganishda tarixiy o'rnini yoritish joizligi kabi takliflar ilgari surildi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Итина М.А. Новые стоянки Тазабагъябской культуры (Работы 1956 г) //МХЭ-М.:Наука 1959. Вып 5-С.52-150.
2. Итина М.А. Раскопки стоянки Кават-3 в 1956 г. //МХЭ-М, Наука, 1963 г. Вып-6-С.103-106.
3. Итина М.А. Раскопки стоянки Тазабагъябской культуры в 1957 г. //МХЭ-М,:Наука 1960. Вып-4-С-82-103.
4. Толстов С.П. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1954 г.//Советское востоковедение-М.:Наука, 1953-№ 6-С.99-103.
5. Итина М.А. Раскопки на Акчадарье //А/О 1976-М.: Наука, 1977-С 527.
6. Итина М.А. История степных племен Южного Приаралья-М.:Наука, 1977.Т.-Х-С 44-109.
7. Итина М.А. Памятники эпохи неолита и бронзы //Древности Южного Хорезма //ТрХАЭЭ-М.:Наука, 1991. Т-XVI –С.72-79.
8. Ғуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Тошкент.:Фан, 1959-Б 52-65.
9. Байпаков К.М. Таймагамбетов Ж.К. Археология Казахстана-Алматы: Казак Университети, 2006-С. 116-117.
10. Аскаров А. Культура Заман-Баба в Низовьях Зеравшана //ОНУ-Ташкент, Фан, 1962-№ 1-С 59-65.
11. Гулямов Я.Г, Исламов У.И. Аскаров А. Первобытная культура и возникновение орошаемого земледелия в Низовьях Зарафшана. -Ташкент: Фан. 1966-С. 171-179.
12. Этнические проблемы истории Центральной Азии в древности (II тысячелетие до н.э.) //-М.:Наука, 1981-369 с.
13. Сагдуллаев А.С. Тогаев Ж.Э. Миграции бронзы в Центральной Азии //Проблемы истории, археологии и этнологии Центральной Азии. -Ташкент, 2018-С. 88-89.
14. Аванесова Н.А. Зарафшанский вариант Андроновской историко-культурной общности //Археология Узбекистана в годы независимости достижения и перспективы. -Самарканд, 2016-с 34-37.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UO'K: 94(575.1) (045)

XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATI NAMOYANDALARINING G'OYAVIY VA NAZARIY QARASHLARI

Raxmatov Murod G'aybullayevich, Navoiy davlat universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

IDEOLOGICAL AND THEORETICAL VIEWS OF THE REPRESENTATIVES OF THE TURKESTAN JADID MOVEMENT AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Rakhmatov Murod Gaybullayevich, Associate Professor of Navoi State University Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences

ИДЕЙНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ПРЕДСТАВИТЕЛЕЙ ТУРКЕСТАНСКОГО ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Рахматов Мурод Гайбуллаевич, доцент Навоийского государственного университета, доктор философии по истории (PhD)

https://orcid.org/0009-0002-2054-987X
e-mail: raxmatov.80@bk.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkiston jadidchilik harakati namoyandalarining g'oyaviy va nazariy qarashlari sifatida qilgan harakatlari ilmiy asoslar bilan yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *imperiya, Turkiston, duma, jamiyat, muhojir, matbuot, firqa, fenomen, istiqlol, xotira, hay'at, qurultoy, modda.*

Abstract: *This article examines the ideological and theoretical views of the Turkestan Jadid movement's leaders at the beginning of the 20th century, based on scientific foundations.*

Key words: *empire, Turkestan, duma, society, emigrant, press, faction, phenomenon, independence, memory, government, congress, article.*

Аннотация: *В статье на научной основе рассматриваются идейно-теоретические взгляды лидеров движения туркестанских джадидов начала XX века.*

Ключевые слова: *империя, Туркестан, дума, общество, эмигрант, пресса, фракция, явление, независимость, память, правление, съезд, статья.*

KIRISH. Turkiston jadidlari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida tarix sahnasiga chiqdilar. Ularning g'oya va qarashlari asriy qoloqlikda yotgan hamda Rossiya imperiyasining mustamlakachilik zulmi ostida ingrayotgan Turkiston jamiyatini uyg'otish, o'zbek xalqini siyosiy va ma'rifiy islohotlar va o'zgarishlar orqali ozodlikka chiqarish bo'lgan. Turkistondagi jadidchilik harakati Turkiston o'lkasi (Toshkent, Samarqand, Farg'ona) hamda Buxoro amirligi va Xiva xonligida vujudga kelgan hamda xalqimiz o'rtasida keng tarqalgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Munavvar Qori, Sadriddin Ayniy, Usmon Xo'ja, Abdulvohid Burhonov, Fayzulla Xo'jayev, Abdulqodir Muhitdinov, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Avloniy, Ishoqxon Ibrat, Polvonniyoz Hoji Yusupov singari ko'plab taraqqiyparvarlar siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy masalalarni yoritishda ahamiyatga ega, taraqqiyparvarlik va milliy ozodlik g'oyalarining keng yoyilishida katta rol o'ynagan o'sha davrning vaqtli matbuot nashrlarida faol ishtirok etdilar. Jumladan, "Oyina", "Al-izoh", "Al-

isloh” jurnallari, “Turon”, “Buxoroyi sharif”, “Tarjimon”, “Sadoyi Turkiston”, “Sadoyi Farg‘ona” kabi ko‘plab gazetalarda mahalliy xalqning og‘ir ahvoli, chidab bo‘lmas darajadagi ijtimoiy turmushini yoritib, davlat mustaqilligi, maorif-madaniy sohalarni rivojlantirish yo‘lida jiddiy ijtimoiy-siyosiy talablar bilan chiqdilar. Jadidlar orasidan yetuk olimlar, sanoat va ziroatchilik sohalarining zamonaviy mutaxassislari, madaniyat arboblari yetishib chiqdi[1].

MUHOKAMA. Turkiston o‘lkasi, Buxoro amirligi, Xiva xonligi Rossiya imperiyasi mustamlakasiga aylangach, hududlarda asosiy xom ashyo yetkazib beruvchi bazaga aylanishi, siyosiy-iqtisodiy huquqlarining cheklanishi, paxta yakka hokimligining o‘rnatilishiga sabab bo‘ldi. Bunday holat o‘lkada milliy sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishiga, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning cheklab qo‘yilishiga olib keldi. Iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida jadidlar iqtisodiy ilmni o‘rganish zarurligi, ishlab chiqarish sanoatini, iqtisodiyotga xorijiy sarmoyalarni, ilg‘or texnika va texnologiyalarni jalb etish, banklar faoliyatining o‘rni va ahamiyati, savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosga qurish, tadbirkorlik, agrar iqtisodiyot samaradorligini oshirish masalalariga alohida e’tibor qaratdilar. Shu maqsadda ularning mafkurasi negizida raqobatbardosh bozorlar safini shakllantirish jarayonlarini faollashtirish, taraqqiyparvar demokratik institutlarni vujudga keltirish, o‘lkada o‘ziga xos milliy rivojlanishni yaratish kabi vazifalarni o‘zida qamrab olgan. Shuning uchun amirlik iqtisodini rivojlantirish va taraqqiy ettirish borasidagi birinchi qadam millatni o‘qimishli, ma’rifatli qilish, aholining barcha qatlamlariga ziyo tarqatish, doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini xalqqa singdirish, o‘lka bundan keyin metropoliya iqtisodiyotiga xomashyo yetkazib beruvchi makon bo‘lib qolmaslikka chaqirishdir. Ikkinchi qadam Turkistonda o‘zining milliy iqtisodiyotini vujudga keltirish, mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish, jahon mamlakatlari bilan tenglik va manfaatlilik tamoyili asosida hamkorlik qilish edi[2].

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat taqozosi bilan maydonga kelgan jadidlar savdo tijorat faoliyatini tubdan isloh qilish va takomillashtirish borasida o‘z fikrlarini ilgari surdilar. Jumladan, Fitrat savdo va tijorat ishini uch tamoyilga asoslanib izohlaydi: birinchidan, savdo va tijorat ishida millat, Vatan, yurt manfaatlari hisobga olinishi, ana shu manfaatlardan kelib chiqib o‘zaro ittifoq bo‘lib faoliyat ko‘rsatish lozim. Ikkinchidan, savdo va tijorat ahli tovar va xizmatlar bozorida ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosida qurishiga yordam ko‘rsatish lozim. Zero, tovarlarning arzonlashuvi ularning sotilishini tezlashtiradi va foyda olishni kafolatlaydi. Uchinchidan, tijorat ahli savdo ilmini zo‘r berib o‘qib-o‘rganishlari lozim. U vatandoshlarini tijorat ilmini o‘rganishga da’vat etib: “Sizlar o‘z farzandlaringizni tijorat maktablariga yuborib savdo ishiga o‘qitingiz, chunki begonalar tijorat ilmidan xabardor. Siz esa bexabarsiz”, deb yozadi[3].

Shuningdek, Fitrat savdo va tijorat faoliyati bilan shug‘ullanish, undan daromad topib tirikchilik o‘tkazish musulmonlar uchun halol amallardan ekanligi Qur’oni Karim va “Hadis”larda uqtirilganini quyidagicha ta’kidlaydi: “...Islom shariati tijorat va davlatmandlikni man etgan emas, balki amr etgan. Biroq shuni ham bilishimiz lozimki, islom bizni tijoratdan man etmagan-u, biroq baxillik, isrofgarchilik va ta’magirlikdan qattiq tortgan. Shunday ekan, har kim xudoning va uning rasuli mute’i ekan, puldorlik va tijorat ishiga intilishi lozim...”[4].

Buxorodagi jadidchilik harakatining boshqa bir yirik namoyandasi Sadriddin Ayniy (1878-1954) zamonaviy texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali sanoatni yanada rivojlantirish va buning natijasida iqtisodiy inqirozni bartaraf qilish mumkinligini ta’kidlab, “agar ishlarimizni shul usulda qo‘ysak bir zamon kelurki, Turkiston bir bo‘ston holiga kelur, zovudlar, fabrikalar, temir yo‘llar va boshqa madaniy korxonalar ila to‘la bo‘ladur”, deya opzy qilgan[5].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida turkistonlik savdogarlar asosan paxta savdosi bilan shug‘ullanganlar. Biroq, ular savdo-sotiq ilmini yaxshi bilmaganliklari sababli ham paxta savdosidan zarar ko‘rganlar. Ayni vaqtda xorijiy savdogarlar savdo ilmini, savdo-sotiq qonun-qoidalarini yaxshi bilganliklari sababli paxta savdosidan katta foyda ko‘rganlar. Fitrat turkistonlik savdogarlarning zamonaviy tijorat ilmidan xabarsizligi va o‘zaro ziddiyatlarini paxta savdosi misolida bayon etadi: “Sizlarning falokatga botishlaringizning sababi faqat bugina emas, yana boshqa yirik bir illat ham bor. Ajnabiylar o‘zaro ittifoq va birlikka ega. Sizlar esa pullaringizni hamisha o‘zaro ichki ziddiyatlaringiz

yo‘lida sarf etasizlar. Molni sotib olayotgan paytda, sizning fikr-o‘yingiz buxoroli falon boy ustidan g‘alaba qilish borasida bo‘ladir. Undan ko‘proq mol olib, uni sindirsangiz bas.

Shuning uchun juda ko‘p hollarda bir-birlaringizga qasd qilib, paxtani Maskov narxidan to‘rt baravar oshiq olib, hisobsiz zarar ko‘rgansizlar. Teri sotib olishda ham ahvol shu. Biroq ajnabiylar bu yo‘lni tutmaydirlar. Ular bozorga kirib savdo qilishidan avval, to‘planishib maslahat qilishadi. Ko‘radirlarki, paxtaning narxi Maskovda o‘n besh so‘m, ular bu yerda o‘n so‘mdan oshirmaslikka qaror qilishadir. Keyin bozorga kirib, o‘z ahdlarida turib savdo qiladirlar. Paxta narxi o‘n so‘m-u bir tangaga teng kelishi bilanoq hammalari hamyonlarining og‘zini bekitadirlar. Chorasiz qolgan dehqon yana bir tanga tushib, arzon sotadir... Shuning uchun xorijiy savdogarlar foyda ko‘radilar, sizlar – zarar”[6] deb ta’kidlaydi.

Turkistonda jadidchilik harakatining rahnamosi bo‘lgan Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) savdo-tijorat, dehqonchilikda texnikani jalb qilish, yoshlarni ilmli qilish tarafdorlaridan biri edi. U savdo-tijorat ishlarini ilmiy asosda tashkil etish, banklar faoliyatini rivojlantirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilashga qaratilgan g‘oyalarni ilgari surdi[7].

Maxmudxo‘ja Behbudiyning banklar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan mulohazalari va ilgari surgan fikrlari iqtisodiyotning rivojlanishida banklar faoliyatining o‘rni va ahamiyati katta ekanligini anglatgan. To‘g‘ri, o‘sha davrda banklardan olingan kreditlar evaziga savdogarlar, boylar va aholining boshqa tabaqalari xonavayron bo‘lgan. Lekin taraqqiyparvarlarning fikricha bunga banklar emas, balki mijozlarning olgan kredit mablag‘ini to‘g‘ri sarflamaganligi sabab bo‘lgan. Bu borada M.Behbudiy “Oyna” jurnalining 1914-yilgi sonida e’lon qilingan maqolasida banklar faoliyatining ijobiy tomonlarini tushuntirish bilan bir qatorda mahalliy aholining tijoratdagi sinish sabablarini misollar bilan keltirib o‘tgan[8]. Jumladan, “savdoning inqiroziga sabab bo‘layotgan omillarlan biri savdogarlarning mablag‘larni to‘y va aysh-ishratga ortiqcha sarf qilayotganligi bo‘lib, bu mablag‘larning aksariyati banklardan olinayotgan qarzlar hisoblanib, uni vaqtida qaytara olmaganliklari uchun butkul xonavayron bo‘lgan”ligini yozgan[9].

Maxmudxo‘ja Behbudiy hayotiy faoliyatida ko‘plab mamlakat va shaharlarga sayohat qilib, turli millat vakillari bilan suhbatda bo‘lgan. O‘zga millat vakillarining bizning Turkiston to‘g‘risida bildirgan fikrlarini u xotiralarida keltirib o‘tadi.

Yahudiylardan biri derki, “Turkiston eski dunyoning Amriqosidur. Paxta, ma’dan, g‘alla har nimarsa bor. Turkiston oltindir. Agarda Rusiya hukumati mone’ bo‘lmasa, barcha mulkimni sotib, pulig‘a Turkistondan yer olib, dehqonchilik etardim. Oltun berib, yer olib, so‘ngra olmos ko‘tarar edim”[10].

Bundan ko‘rinib turibdiki, Turkiston eski dunyoning Amerikasi ekanligi, hosildorlik jihatidan ilg‘or bo‘lib, paxta, g‘alla va boshqa xildagi ekinlarni undirish mumkinligini, Turkiston mamlakatining yer va iqlimi oltinga teng darajada bo‘lganligini ta’kidlaydi. Agar Rossiya imperiyasi qarshilik qilmasa, yahudiy o‘zining barcha mulkini sotib, puliga Turkistondan yer olib dehqonchilik qilishli to‘g‘risidagi fikrlar mamlakatimiz tuprog‘i haqiqatda ham oltinga teng ekanligini ko‘rsatadi.

M.Behbudiy Turkistonda tijorat sohasining sustligi, raqobatsizligi sabablarini quyidagicha baholaydi: “...Hisobsizlik, aql va tarbiyasizlik bizni barbod etdi. Naf’ va zararlarimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamonadan bexabarligimizdan, xulosa va jaholat va nodonligimizdandur. Qo‘limizda bor nimarsamizni behuda odatlarg‘a sarf etarmiz. Ko‘rpamizga qarab oyoq uzatmaymiz. Qarz ila imorat, to‘y qilarmiz. Isrof qilarmiz. Molni sotib olish va sotish joyini bilmaganimiz, tijorat maydoninda nodonligimizdan boshqalar tarafidan aldanganimiz bu bizning ojizligimizdir”[11].

Behbudiy “Samarqand” gazetasining 1913-yil 12-iyul sonida “Ehtiyoji millat” nomli maqolasida Turkistonning tashqi aloqalarini asosan chet ellik savdogarlar bajarganligi, ular yerli aholidan mahsulotni arzon-garovga olgan holda tashqi bozorda qimmat narxga sotganligi, shu sababdan ham yetishtirilgan mahsulotlardan olinadigan foydaning asosiy qismi ularning cho‘ntagiga tushganligi haqida kuyunib yozgan. Bundan tashqari, Behbudiyning yozishicha, “Bizda shohi, adras, beqasam, alacha...bofliklar bor. Agarda bir nafar texnik va muhandisimiz bo‘lsa, bu dastgohlarni isloh etar, aholi obod bo‘lur. Valloh, yaqin vaqtda “doka” bofillarimizdek zoye’ bo‘lib ketar. Chunki Ovrupa yangi asbob ila mundin yaxshi qilib chiqarur”[12].

Milliy mutaxassislar yetishtirish dasturini amalga oshirish dolzarb masala ekanligini barcha jadidlar kabi Rajabzoda Niyoziy [13] e’tirof etib, bu haqda o‘z fikrini quyidagicha bayon qilgan: “... Ilm-ma’rifatsiz hech bir

millat muborazayi hayot maydonida turolmas. Xoh ul millat millati hokim va xoh millati mahkum bo‘lsun, ilm-u ma’rifatdan mahrum bo‘lganligi uchun boshqa san’at va hunar sohibi bo‘lgan mamlakatlarning oyog‘i ostida ezilurga majbur bo‘ladur. Chunki ziroat, sanoat, tijorat kabi lavozimoti insoniyatniig vujudga kelmog‘i maktab, madrasalarning tartiblik darslarining zamon va makonga muvofiq bo‘lganligidandir....” Niyoziy Rajabzoda yeri ko‘p, xalqi oz Eron va Buxoroni Angliya va Germaniya bilan taqqoslar ekan, bu yerliklarning ko‘plab mahsulotlarga muhtojligi borligini e’tirof etib, “Buxoro va Turkiston musulmonlari uchun ziroatdan so‘ngra eng ahamiyatli narsa savdo va tijoratdir”, deya ta’kidlaydi. Buning uchun muallifning fikriga ko‘ra, “... maktabda boshqa dunyoviy fanlar bilan birga savdo va tijoratga rag‘bat uyg‘otuvchi, bu sohalarning sir-asrorlarini o‘rgatuvchn fanlarni ham o‘quv dasturiga kiritish lozim”[14].

XX asr boshlarida mamlakatimizda irrigatsiya, sun’iy sug‘orish ishlari holati qoniqarsizligi, zamon talabiga javob beradigan texnikaviy moslamalar yo‘qligi, suv ta’minotining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi, ko‘plab katta yer maydonlaridan foydalanilmay kelinishiga, qishloq xo‘jaligi samaradorligining pasayishiga olib keldi.

Buxoro amirligining iqlimi va geografik sharoiti yerlarni sun’iy sug‘ormay turib, qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga imkoniyat bermaydi. G‘arbiy Buxoroda, Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo vodiylarida yerlarning ko‘pchiligida sug‘orish yo‘li bilan dehqonchilik qilinadi. Sharqiy Buxoroda, Surxondaryo va Amudaryoning yuqori qismida sug‘orish talab qiladigan yerlar foizi katta. Biroq sug‘orish shaxobchalari juda qoniqarsiz holatda, shuning uchun ham katta yerlar foydalanilmay qolgan.

Buning sababi shuki, bir tomondan, suv manbalarining o‘zida suv juda kam (Qashqadaryo vohasi) va Zarafshonning yuqori qismlarida va Samarqand viloyatida suvdan ko‘p foydalaniladi. Natijada, Zarafshon Buxoro hududiga o‘tganida juda kamsuv bo‘lib qoladi. Ikkinchi tomondan, irrigatsiya shaxobchalari qoniqarsiz ekanligi, shuningdek, texnikaviy moslamalar yo‘qligi sababli suv noto‘g‘ri taqsim qilinayotganligidan yerlarni sug‘orib qilinadigan dehqonchilikka katta zarar yetkazgan.

Buxoro amirligida agrar sohani rivojlantirish, uning samaradorligini ta’minlash bo‘yicha Fitratning 1918-yilda Yosh buxoroliklarning Markaziy Qo‘mitasi tomonidan tasdiqlangan “islohotlar loyihasi”ni ishlab chiqdi. Mazkur loyihada cho‘l va dashtlar hisobidan ekin maydonlarini kengaytirish, dehqonchilik madaniyatini oshirish, shu maqsadda keng miqyosdagi irrigatsiya tadbirlarini hayotga tatbiq etish, takomillashgan yagona sug‘orish tarmog‘ini yaratib Samarqand va Buxoro o‘rtasida adolatli suv taqsimotini yo‘lga qo‘yish, Buxorodagi yerlarni sug‘orish ishlariga qisman Amudaryodan foydalanish, dehqonlarga imtiyozli kreditlar berish, qishloq xo‘jaligida texnikadan keng foydalanish nazarda tutilgan[15].

Taniqli davlat arbobi, Buxorodagi jadidchilik harakatining rahbarlaridan biri Fayzulla Xo‘jayev (1896-1938) fikricha, loyihada Buxoro amirligi aholisining farovonligini oshirish, o‘lkani iqtisodiy-siyosiy va harbiy jihatdan mustahkamlash, qishloq xo‘jaligini intensivlashtirish uchun ko‘riladigan chora tariqasida qishloq xo‘jalik kreditlarini va dehqonchilik ishlarini mexanizatsiyalashni taklif qiladi. Buning uchun Buxoro amirligida qishloq xo‘jalik bankini tashkil etish va uning bo‘limlarini bekliklar hududida ko‘paytirish, qishloq xo‘jalik mashinalarini jalb qilish, qishloq xo‘jalik maktablari ochish va agrar sohasidagi bilimlarini omma orasida targ‘ib qilish, yerga quvvat beradigan hosildorlikni oshiruvchi vositalardan foydalanish kerakligi ko‘rsatilgan[16].

Fitrat tomonidan ishlab chiqilgan dasturda ilk marta Buxoro amirligi zamirida huquqiy davlat yaratish masalasining yechimini ko‘rsatdi. U amirlikdagi monarxik tuzumni bir qator Yevropa mamlakatlari namunasidagi marifatli monarxiya bilan almashtirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hisobidan xalq farovonligini yuksaltirish, mamlakatning iqtisodiy va mudofaa qudratini ko‘tarishni taklif qildi. Fitrat loyihadagi Buxoroda qishloq xo‘jaligi bankini ochishni, joylarda uning juda ko‘p sho‘balarini vujudga keltirishni, qishloq xo‘jaligi maktablarini, xalq o‘rtasida ziroat bilimlarini tarqatish ham ko‘rsatilgan. Mana bu choralarni amalga qo‘yish to‘g‘risida Ziroat nozirligi degan idora tuzishni taklif qiladi[17].

NATIJALAR. Jamiyat va davlat taraqqiyotida iqtisodiy sohadagi rivojlanishlar muhim o‘rin tutishini chuqur anglagan Fitrat vatandoshlariga quyidagi murojaat bilan chiqdi: “...buxorolilar Allohning ne’mati bo‘lg‘an tabiiy boyliklardan foydalanmas ekansiz, begonalar bu boyliklarga ega bo‘lib, ularning har birlari ustidan hayratangiz mashinalar va fabrikalarni o‘rnashtiradirlar. Dunyo-

dunyo pul ishlab oladilar. Minglab xizmatchilar bu ishga safarbar qilinadir. U vaqtida sizlarning farzandlaringiz chorasiz qolib, begonalarning xizmatlariga bo‘yin egishlari muqarrar...”[18].

Sadriddin Ayniy Turkistonning boyliklari masalasiga bag‘ishlangan maqolasida o‘lkadagi yer osti konlari xususida so‘z yuritib, “Chet millat olimlarining izlab topg‘onlariga qaraganda bizam Turkistonda tosh ko‘miri, temir, kumush, oltun, yer moyi (neft) va boshqa har xil ma’danlar bor ekan. Ameriko xalqi, nemis va inglizlar shul ma’danlar orqasinda butun yer yuzinda eng boy odamlardan bo‘lg‘on holda, bizlar faqir yashaymiz”[19], degan fikrlari bilan mamlakatda mavjud imkoniyatlardan yetarli darajada foydalanilmayotgani tanqid qilingan.

Turkiston jadidlari 1917-yilga kelganda o‘zlarining milliy mustaqil davlat qurish to‘g‘risidagi fikrlarini yangi bosqichda rivojlantirdilar. Bu yo‘lda ular muxtoriyatchilik g‘oyalaridan foydalanishdi[20].

XULOSA . Xulosa qilib aytganda, Turkistondagi jadidchilik harakatining yirik namoyandalari qarashlarida uchta asosiy masala: siyosiy mustaqillik, iqtisodiy mustaqillik, ma’naviy-ma’rifiy mustaqillik g‘oyalari bo‘rtib turadi. Taraqqiyparvar bobolarimiz Turkistonda jadid maktablari va gazetalari tashkil qilish orqali xalqni ma’rifatli qilishga intilgan bo‘lsa, siyosiy islohotlar orqali Turkistonni mustamlakachilik zulmidan qutqarish, Buxoro va Xorazmda mavjud monarxik tuzumni demokratik boshqaruv usuli bilan almashtirish yo‘lida harakat qildilar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Жадидчилик: ислоҳот, янгиланиш, мустақиллик ва тараккиёт учун кураш (Туркистон ва Бухоро жадидчилиги тарихига янги чизгилар). Даврий тўплам. – №1. – Тошкент: Университет, 1999. – Б. 10-12.
2. Ражабов Қ. Ўзбекистон XX асрда. Икки жилдлик. Биринчи жилд (1900-1939). Масъул муҳаррир: академик Азамат Зиё. – Тошкент: Фан, 2024. – Б. 118-120.
3. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Ҳинд сайёҳи баёноти. – Б.167.
4. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Ҳинд сайёҳи баёноти. – Б. 163-164.
5. Айний С. Туркистон бойлиги // “Турк эли” (Тошкент). 1917 йил 4 октябрь.
6. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар. 1-жилд. Ҳинд саёҳи баёноти. – Б. 166.
7. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Икки жилдлик. I-жилд. Нашрга тайёрловчи: Сирожиддин Аҳмад. – Тошкент: Akademnashr, 2018. – 512 бет.
8. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 2-нашри. Нашрга тайёрловчи, тўпловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи Б.Қосимов. – Тошкент. Маънавият, 1999. – Б. 167-168.
9. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Оҳ, бонкалар бизни барбод этди // Ойна. 1914. № 19. – Б. 344.
10. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Қасди сафар // Танлаган асарлар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б. 69.
11. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Оҳ, бонкалар бизни барбод этди // Ойина (Самарқанд). 1914. № 19. – Б. 342.
12. Маҳмудхўжа Беҳбудий. Эҳтиёжи миллат // Самарқанд газетаси. 1913 йил 12 июль. – Б. 3.
13. Абдурауф Фитрат ташаббуси билан Бухоро шаҳрида Туркистон минтақасида биринчи бўлиб ташкил этилган Шарқ мусиқа мактабида биринчи раҳбар сифатида Ражабзода Ниёзий ҳам шогирдларга таълим бера бошлади.
14. Насиров О.Н. XIX аср охири – XX аср бошларида Туркистонда акциядорлик жамиятлари ва ширкатлар тарихи. Тарих фанлари номзоди дисс... автореферати. – Тошкент, 2009. – Б.19.
15. Наимов Н. Маърифатга бахшида умр. – Бухоро: Дурдона, 2018. – Б. 93.
16. Файзулла Хўжаев. Танланган асарлар. Уч томлик. Том 1. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 134.
17. Файзулла Хўжаев. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар (Қайта нашри). – Тошкент: Фан. 1997. – Б. 109.
18. Абдурауф Фитрат. Ҳинд саёҳи баёноти // Танланган асарлар. 1-жилд. – Б. 168.
19. Айний С. Туркистон бойлиги // Турк эли. 1917 йил 4 октябрь.
20. Аъзамхўжаев С. Туркистон Мухторияти: миллий демократик давлатчилик қурилиши тажрибаси. – Тошкент: Маънавият, 2000; Ражабов Қ. Туркистон Мухторияти вазирлари ҳамда Миллий Мажлис аъзолари ҳаёти ва тақдири. – Тошкент: Bodomzor invest, 2021; Ўша муаллиф. Туркистон Мухторияти тарихи. Иккинчи нашр. – Тошкент: Фан, 2023.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 1/14;17

YANGI O‘ZBEKISTONNING YOSHLARIDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI KUCHAYTIRISH DAVR TALABI

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti dotsenti, falsafa doktori (PhD)

STRENGTHENING THE IDEOLOGICAL IMMUNITY OF THE YOUTH OF THE NEW UZBEKISTAN

Tashmetov Tuxtasin Xudayberganovich, Associate Professor, Chirchik State Pedagogical University, Doctor of Philosophy (PhD)

УСИЛЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА

Ташметов Тухтасин Худайберганович, доцент Чирчикского государственного педагогического университета, доктор философии (PhD)

https://orcid.org/0009-0009-7633-4035
e-mail: toshmetovtuxtasin@gmail.com

Annotatsiya: *Yangi O‘zbekistonni yuksak ma’naviyatli jamiyatga aylantirish uchun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni yanada kuchaytirish, komil insonni tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng miqyosli ishlarni amalga oshirishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. Zero bu kechayotgan globallashuv jarayonlarining salbiy oqibatlari, yangi mafkuraviy xavf va tahdidlar ko‘lamining kengayib borayotgani yoshlar ma’naviyatini shakllantirishda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish masalasi dolzarb ekanini ko‘rsatmoqda.*

Kalit so‘zlar: *Stretegiya, ma’naviyat, mafkura, ma’rifat, qadriyat, tarbiya, axloq, g‘oya, immunitet, gumanizm, ta’lim, texnologiya, targ‘ibot, global, axborot, internet, tahdid, xuruj, buzg‘unchi g‘oya, bunyodkor g‘oya.*

Abstract: *In order to transform the new Uzbekistan into a highly spiritual society, it is necessary to carry out large-scale work to strengthen the ideological immunity of young people, educate a perfect person, and form a harmonious personality. After all, it is the negative consequences of the ongoing processes of globalization, the expansion of new ideological risks and threats that indicate that the issue of strengthening ideological immunity in the formation of youth spirituality is relevant.*

Key words: *strategy, spirituality, ideology, enlightenment, value, upbringing, morality, idea, immunity, humanism, education, technology, propaganda, global, information, Internet, threat, attack, destructive idea, creative idea.*

Аннотация: *Для превращения нового Узбекистана в высокодуховное общество необходимо проведение широкомасштабной работы по укреплению идеологического иммунитета у молодежи, воспитанию совершенного человека, формированию гармоничной личности. Ведь именно негативные последствия протекающих процессов глобализации, расширение масштабов новых идеологических рисков и угроз свидетельствуют о том, что вопрос укрепления идеологического иммунитета в формировании духовности молодежи является актуальным.*

Ключевые слова: *стратегия, духовность, идеология, просвещение, ценность, воспитание, мораль, идея, иммунитет, гуманизм, образование, технологии, пропаганда, глобальный, информация, интернет, угроза, атака, деструктивная идея, созидательная идея.*

KIRISH. Ma'lumki, jamiyat taraqqiyoti fuqarolarning ijtimoiy faolligi va ma'naviy ongi darajasi bilan belgilanadi. Davlatimiz o'z taraqqiyot strategiyasining asosini ma'rifiy jamiyat qurishga qaratmoqda. Ma'rifiy jamiyat esa mustaqil fikrlovchi, ma'naviyati yuksak, o'z manfaatlarini jamiyat va davlat manfaatlari bilan uyg'un tasavvur etuvchi barkamol avlod vakillariga ehtiyoj sezadi. Shu boisdan, insoniyat yaratgan kashfiyotlarda o'zligini yo'qotish havfi, xususan, yoshlar orasida bevosita yoki bilvosita bosim ostida tobora ortib bormoqda. Shu sababli yoshlar tarbiyasi, ma'naviyati va salohiyatini yanada yuksaltirish mamlakatimiz oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "…. Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talabalari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[1]. Shu ma'noda, global o'zgarishlar sharotida dunyo miqyosida bahs-munozaraga sabab bo'layotgan va yechimini kutayotgan muammolar ko'lami tobora kengayib bormoqda, jumladan yoshlar tarbiyasi. Shu jihatdan, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Yangi O'zbekistonning yoshlarida mafkuravıy immunitetnı kuchaytirish strategiyasi bilan bog'liq masalalar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning[2] ilmiy-siyosiy merosida ma'naviyatning konseptual asoslari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning[3] siyosiy qarashlarida esa ma'naviyat va uning targ'iboti globallashuv sharoitiga mos talablar asosida yanada takomillashtirilmoqda. Shu bilan birgalikda faylasuf olimlari tomonidan ham tadqiq etilmoqda. Xususan, akademik E.Yusupov[4] ma'naviyat va mafkuraning o'zaro munosabati, ularning mohiyati, ijtimoiy-tarixiy mazmuni va ahamiyatini, J.Tulenov[5] ma'naviyat va ijtimoiy taraqqiyotni, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyevlar[6] O'zbekistonning rivojlanish strategiyasida ma'naviyatning o'rni masalasini tadqiq etganlar.

MUHOKAMA. Bugun komil insonni tarbiyalash, barkamol shaxsni shakllantirish borasida keng miqyosli ishlarni amalga oshirar ekanmiz, biz bevosita har bir inson qalbidagi ana shu nuqtani mo'ljalga olmog'imiz lozim. Mafkuraviy immunitet yoki g'oyaviy kurashchanlik fazilati bizning nazarimizda xuddi ana shu nuqtada joylashgan. U kimdadir uyg'oq, kurashchan, behalovat u bezovta bo'lsa, kimdadir mudroq, tanbal, befarq va loqayddir. Bizning vazifamiz ana shu immunitetni uyg'otish, shakllantirish asosida jamiyat ishiga daxldor, millat taqdiriga taqdirdosh, Vatan istiqboli uchun javobgar shaxsni shakllantirishdan iborat. Buning uchun mafkuraviy immunitetning vazifasini aniqlab olmog'imiz lozim. Bizningcha, u quyidagilardan iborat: a)munosabat bildirish; b)ta'sir etish; c)yo'naltirish; d)javobgarlik hissini uyg'otish; e)daxldorlik tuyg'usini oshirish; j)safarbarlikka da'vat etish. Ana shu yo'nalishlarda mafkuraviy immunitetning vazifalari, ya'ni insonni ma'naviy-ruhiy mudroqlikdan uyg'otish, har qanday voqelikka munosabat bildira olish, unga ta'sir ko'rsatish, jamiyat va umummilliy taraqqiyot uchun javobgarlik hissini, daxldorlik tuyg'usini namoyon etish orqali o'zini o'zi umummilliy manfaat yo'lida yo'naltira olish, safarbar eta bilish fazilatlarini yorqin namoyon qilishni taqozo etadi.

Ayni paytda, mafkuraviy immunitet turli xil yot va zararli g'oyalar ta'sirlaridan biz uchun asosiy himoya vositasi hisoblanadi. Yoshlarimiz orasida mafkuraviy immunitetni shakillantiruvchi vositalar ham mavjud bo'lib, ular quydagilardan iboratdir: birinchidan, yoshlarimizni ta'limning barcha bosqichlari bilan qamrab olishni yanada oshirish; ikkinchidan, yoshlarimiz orasida tarbiyaviy jarayonlarni har doimgidan-da yuqoriroq darajaga ko'tarish; uchinchidan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni targ'ibot qilishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etish; to'rtichidan, media tarbiyani yoshlar orasida shakllantirsh, ya'ni turli xil internet ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini rivojlantirish.

Yangi O'zbekistonni yuksak ma'naviyatli jamiyatga aylantirish uchun yoshlarimizda mafkuraviy immunitetni kuchaytirish talab etiladi:

- birinchidan, mamlakatimizni bugungi tez taraqqiy etib borayotgan dunyoga mos ravishda rivojlantirish, jamiyat a'zolarini milliy yuksalish

yo‘lida yanada birlashtirish va safarbar etish masalasiga alohida e’tibor qaratish;

- **ikkinchidan,** mamlakat tinchligi, xalqning asrlar davomida shakllangan ma’naviy qadriyatlariga asoslangan hayot tarzini barbod qilishga yo‘naltirilgan g‘oyaviy-mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashda sinovdan o‘tgan milliy va jahon tajribasining samarali usullaridan keng foydalanish;

- **uchinchidan,** dunyoda yuz berayotgan geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlar, turli axborot xurujlari mazmun-mohiyatini anglash, aqidaparastlik, buyuk davlatchilik shovinizmi, vandalizm, genotsid, “demokratiya eksporti”, diniy ekstremizm, dogmatizm, irqchilik, kosmopolitizm, ksenofobiya, ludomaniya, mahalliychilik, millatchilik, missionerlik, natsizm, odam savdosi, “ommaviy madaniyat”, terrorizm, fashizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm kabi turli xavf va tahdidlarga qarshi kurashishda kuchlarni birlashtirish va ularni umummilliy harakat darajasiga olib chiqish;

- **to‘rtinchidan,** dunyoviylik va diniylikning sog‘lom muvozanatini ta’minlash, insof, vijdon, diyonat kabi axloqiy qadriyatlarga tayanib yashash va faoliyat yuritishni fuqarolarning dunyoqarashi va xatti-harakatiga singdirish;

- **beshinchidan,** inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim va tarbiyani, milliy-ma’naviy qadriyatlarni yanada yuksaltirish orqali yoshlarda ta’lim olishga bo‘lgan intilishni rag‘batlantirishning samarali mexanizmlarini joriy etish.

NATIJALAR. Umuman olganda, yoshlar hayot strategiyasini tanlash jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy holatiga, uning madaniyatining rivojlanish darajasiga bog‘liq bo‘lib, ishlab chiqarish va mulkiy munosabatlar usuli, hayot darajasi va sifati, muayyan ijtimoiy qatlam va odamlar guruhiga a’zo bo‘lish, muayyan tarixiy davrda jamiyatda hukmronlik qiladigan urf-odatlar, g‘oyalar va qadriyatlarning ta’siri va vaqti bilan, shuningdek, yoshlar hayot strategiyasini belgilashi ularning jinsi, yoshi, etnik va milliy xususiyati, ijtimoiy holati va boshqa ijtimoiy ahamiyatga ega belgilariga ham bog‘liqdir.

Yoshlar hayot strategiyalarini turli asoslarga ko‘ra tasniflash mumkin, biroq ulardan eng asosiylari sifatida quyidagi turlarga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

-birinchidan, kunlik yoki kundalik strategiyalarni to‘g‘ri shakllantirish;

-ikkinchidan, o‘z-o‘zini anglash strategiyasini shakllantirish va rivojlantirish;

-uchinchidan, muvaffaqiyatga erishish strategiyasini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar hayotiy strategiyalari tegishli usullar va manbalar orqali kundalik xatti-harakatlarida, amalga oshiriladigan kelajakdagi hayot haqidagi shaxsning dinamik fikrlash tizimi sifatida ifodalanishini inobatga olsak, yoshlar hayot strategiyasini to‘g‘ri shakllantirish orqali ularning ma’naviy kamolotini ta’minlashga erishish mumkin. Shu jihatdan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning: “Biz barpo etayotgan Yangi O‘zbekiston mafkurasi, avvalo, insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik mafkurasi bo‘ladi”[7] deb ta’kidlaydi. Darhaqiqat, buyuk kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodning ongi va qalbini bunyodkorlik g‘oyalari bilan to‘yintirishimiz lozim, agarda bu ma’suliyatli vazifani o‘z vaqtida to‘g‘ri tashkil eta olmasak, oqibatni hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan og‘ir jarohatga, tuzalmas dardga, aylanib qolishi barchamizga ayon. Shunday ekan, bugungi murakkab davrda buzg‘unchi g‘oyaviy-mafkuraviy ta’sirlarga qarshi fuqarolarimizda mafkuraviy immunitetni, yot-begona buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi mentalitetimiz mohiyatini ifodalaydigan sog‘lom, bunyodkor g‘oyalarni farqlay olish ko‘nikmasini shakllantirish, o‘sib kelayotgan yosh avlodni esa vatanga muhabbat, yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, elim deb, yurtim deb, yonib yashaydigan insonlar qilib voyaga yetkazish zarur.

XULOSA. Bugungi globallashuv davrida yoshlarimizni turli xil mafkuraviy tahdidlar ta’sirida milliy qahramonlarimiz jasoratidan bexabar o‘sayotganligi sababli ma’naviyatga chuqurroq e’tibor qaratmas ekanmiz, ularning zehni o‘tkir, dunyo bilimlarini egallagan bo‘lishlariga qaramasdan, Vatan manfaati yo‘lida xizmat qilishlariga, begona g‘oyalarga berilmasligiga kafolat bera olmaymiz. Ularda eng avvalo, Vatanga muhabbat, kuchli e’tiqod, urf-odat va qadriyatlarimizga sadoqat shakllanmas ekan, axborot xurujlarining ta’siriga tushib qolaveradilar. Buning uchun har qanday buzg‘unchi axborotlarga qarshi kuchli immunitetni shakllantirish talab etiladi.

Umuman, yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, tadqiqotning mazkur fasli bo‘yicha quyidagi xulosalarni keltirish mumkin:

- fikrga qarshi fikr bilan javob berish uchun har bir yosh o‘zining mustaqil fikriga ega bo‘lishi kerak;
- yoshlar g‘oya bilan g‘oyaning farqiga borishi kerak: ma’naviyat hamda milliy g‘oyaga nisbatan ishonch va e’tiqodi esa mustahkam bo‘lishi bugungi kunning talabi darajasida doimiy e’tiborda bo‘lishi lozim;
- bugungi yot va zararli g‘oyalarga qarshi kurashish uchun yoshlarning ma’rifati va ma’naviyati yuksak, vatanparvarlik tuyg‘usi shakllangan, milliy qadriyatlarga nisbatan hurmati barqaror bo‘lishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. – Тошкент: Ўзбекистон, 2017. –Б. 22.
2. Каримов И.А. Жамиятимиз мафкураси халқни – халқ, миллатни миллат қилишга хизмат қилсин // Биз келажагимизни ўз қўлимиз билан қурамиз. Ж. 7. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 414 б; Каримов И.А. Ҳушёрликка даъват // Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги мухбирининг саволларига жавоблар. –Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 31 б; Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 174 б.
3. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. –Тошкент: Ўзбекистон, 2016. –56 б; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. Ж. 1. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 592 б.
4. Юсупов Э. Миллий ғоя ва мафкура: моҳияти, ижтиомий-тарихий илдизлари, аҳамияти. – Шимкент, 2001. – Б 37.
5. Туленов Ж. Маънавият ва ижтимоий тараққиёт. –Тошкент: Меҳнат, 2000. –В. 228.
6. Яхшиликов Ж., Муҳаммадиев Н. Миллий ғоя: Ўзбекистонни ривожлантириш стратегияси. – Тошкент: Чўлпон НМИУ, 2018. – 555 б.
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. –Тошкент: Ўзбекистон, 2022. – Б. 280.
8. Imamova Umida Ismoil qizi. Jamiyatda axborotning tutgan o‘rni va ahamiyati// Ta’lim tizmida innovatsion va raqamli texnologiyalarni qo‘llash masalalari xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2024/05, -B. 1368-1374.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 651.009.023

ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ ПРЕЦЕДЕНТНЫХ ФЕНОМЕНОВ АНГЛИЙСКОЙ ПРЕССЫ

Маматкулова Камола, докторант Термезского государственного университета

THEMATIC GROUPS OF PRECEDENT PHENOMENA OF THE ENGLISH PRESS

Mamatkulova Kamola, Doctoral student at Termez State University

INGLIZ MATBUOTI PRETSEDENT HODISALARINING TEMATIK GURUHLARI

Mamatqulova Kamola, Termiz davlat universiteti doktoranti

https://orcid.org/0000-0009-0524-3456
e-mail: Mamatkulovakamola005@gmail.com

Аннотация: *В настоящей статье рассматривается значение термина «тематическая группа» в языкознании, отмечаются основные взгляды ученых. Автором предлагается классификация прецедентных феноменов, отмеченных в английской прессе. В частности, прецедентные феномены газеты «British Summer Time».*

Ключевые слова: *лингвистика, тематическая группа, прецедент, прецедентность, прецедентный феномен, язык СМИ.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tilshunoslikdagi "tematik guruh" atamasining ma'nosi o'rganilib, olimlarning asosiy qarashlari yoritilgan. Muallif ingliz matbuotida qayd etilgan pretsedent hodisalarning tasnifini taklif qiladi. Xususan, «British Summer Time» gazetasining pretsedent hodisalari.*

Kalit so'zlar: *tilshunoslik, tematik guruh, pretsedent, pretsedent hodisasi, media tili.*

Abstract: *This article examines the meaning of the term "thematic group" in linguistics, and highlights the main views of scientists. The author proposes a classification of precedent phenomena noted in the English press. In particular, the precedent phenomena of the newspaper "British Summer Time".*

Key words: *linguistics, thematic group, precedent, precedent, precedent phenomenon, media language.*

ВВЕДЕНИЕ. Тематическая группа в лингвистике –это **лексическая группировка, в которой лексические единицы (слова или фразеологизмы) объединяются по содержанию обозначаемых ими понятий.** То есть основным признаком объединения выступает связь с внеязыковой действительностью, выделение таких групп основано на классификации самих предметов и явлений.

Согласно Л.Ф.Алефиренко, тематическая группа – это совокупность слов разных частей речи по их сопряжённости с одной темой на основе экстралингвистических параметров [2,с.119].

Согласно точке зрения И.В.Кременецкой, тематическая группа – это объединение лексических единиц, используемых при общении на определённую тему без учёта особенностей и условий акта общения. Основой интеграции тематической группы служат связи предметов реального мира, являющиеся денотатами словесных знаков, составляющих тематическую группу[3,с.94].

Каждая лексическая единица, будучи самостоятельной, характеризуется определенными отношениями с другими единицами одного и разных с ней уровней языковой структуры. Парадигматические группировки всего словаря в целом не описаны ни для одного языка. Поэтому и представляются

обоснованными исследования в данном направлении с конечной целью создать словарь лексико-семантических парадигм, учитывая предшествующие разработки в этой области.

Тематическая группа слов является одной из парадигматических группировок языка. Тематическая группа – это объединение лексических единиц, используемых при общении на определенную тему без учета особенностей и условий акта общения. Основой интеграции тематической группы служат связи предметов реального мира, являющиеся денотатами словесных знаков, составляющих тематическую группу.

Особый интерес в лингвистике представляет исследование прецедентных феноменов, в частности, прецедентных феноменов, представленных в английской прессе и различающихся по тематике.

I. Политика и международные отношения:

Феномены, связанные с выборами: *swing states, battleground states, landslide victory, close race, exit polls, election rigging* и т.д. Эти выражения используются для описания различных аспектов избирательного процесса и результатов:

«…he was «kickstarting» a debate that would carry on «week in, week out» through to the general election» (он «дал старт» дебатам, которые должны были продолжаться «неделя за неделей» вплоть до всеобщих выборов) (Mon 24 Sep 2012 10.56 BST).

Феномены, связанные с международными конфликтами: *proxy war, hotspot, escalation of tensions, ceasefire, sanctions, diplomatic efforts* и т.д. Они характеризуют динамику международных отношений и военные действия.

Феномены, связанные с политическими идеологиями и движениями: *liberal elite, conservative backlash, populist movement, radicalization, far-right/far-left* и т.д. Эти выражения используются для описания политических взглядов и движений:

«He has long been the «nearly man» for a big management job at News International» (Он долгое время был «почти человеком», претендующим на крупную руководящую должность в News International) (Sun 24 Jul 2011 19.57 BST).

II. Экономика и финансы:

Феномены, связанные с рынком: *bull market, bear market, stock market crash, economic recession, inflation, stagflation* и т.д. Данные прецедентные феномены используются для описания состояния рынка и экономики в целом.

Феномены, связанные с бизнесом: *corporate raider, white-collar crime, insider trading, merger and acquisition, downsizing, startup* и т.д. Они описывают различные аспекты деловой активности:

«In March it announced that it was to cut its budget by more than 20% this year in a bid to «front load» a four-year cost savings plan» (В марте компания объявила, что в этом году сократит свой бюджет более чем на 20%, чтобы «запустить» четырехлетний план экономии средств) (Sun 24 Jul 2011 20.03 BST).

Феномены, связанные с финансовыми кризисами: *subprime mortgage crisis, global financial crisis, debt ceiling, austerity measures, bailout* и т.д. Эти выражения характеризуют события, связанные с экономическими кризисами.

III. Социальные проблемы:

Феномены, связанные с преступностью: *organized crime, white-collar crime, mass shooting, cybercrime, recidivism* и т.д. Данные прецедентные феномены используются при освещении проблем преступности:

«Yates, who resigned over the scandal, later admitted his decision not to reopen his investigation had been a «pretty crap one» and Scotland Yard's reputation had been «very damaged» by its failure to» (Йейтс, ушедший в отставку из-за скандала, позже признал, что его решение не возобновлять расследование было «довольно дерьмовым», а репутация Скотленд-Ярда была «сильно подорвана» из-за того, что он не смог провести расследование) (Sun 24 Jul 2011 20.06 BST).

The campaign in the US is about "youmanity" (Wed 28 Sep 2011 11.18 BST).

Youmanity is an organization that promotes human rights, social inclusion, and diversity. Youmanity uses cultural projects, donations, and photography awards to raise awareness of social issues.

TAMADDUN NURI

Youmanity – это организация, продвигающая права человека, социальную интеграцию и разнообразие. Она использует культурные проекты, пожертвования, чтобы привлечь внимание к социальным проблемам.

IV. Технологии и наука:

Феномены, связанные с технологическим прогрессом: *artificial intelligence, big data, blockchain technology, virtual reality, cybersecurity* и т.д. Данные выражения используются при описании достижений в технологической сфере: «The announcement came in February, and had been expected (helped by a tweet from Google's Vic Gundotra – who'd been in on the negotiations – that «two turkeys don't make an eagle» (Объявление было сделано в феврале и было ожидаемым (чему способствовал твит Вика Гундотры из Google, который участвовал в переговорах) о том, что «из двух индеек не получится орла») (Thu 29 Dec 2011 10.55 GMT).

Феномены, связанные с научными открытиями: *scientific breakthrough, medical innovation, climate change, global warming, genetic engineering* и т.д. Они используются при освещении научных открытий и исследований.

Спорт: Described the comments as a «slap in the face» and promised that he would «have it out» with the player (Он назвал эти комментарии «пощечиной» и пообещал, что «разберется» с игроком) (Wed 3 Aug 2011 22.11 BST).

ЗАКЛЮЧЕНИЕ. Представленная классификация не является исчерпывающей, но демонстрирует разнообразие прецедентных феноменов в английской прессе и их тесную связь с тематикой освещаемых событий. Более глубокое изучение прецедентных феноменов позволит лучше понять особенности языка английской прессы и их роль в формировании общественного мнения.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Газета «British Summer Time».
2. Алефиренко Л.Ф. Теория языка: введение в общее языкознание: учеб. пособие. - Волгоград : Перемена, 1981. - 342 с.
3. Кремнецкая И.В. Тематическая группа как парадигматическое объединение слов // Lingua mobilis. – 2009. – № 3 (17). – С. 94–98.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 1.101.3

KORRUPSIYANING JAMOAT HAYOTIGA TA'SIRI

Alisher ARIPOV
Navoiy davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
NDPI dotsenti, f.f.d. N.Safarova taqrizi ostida

THE IMPACT OF CORRUPTION ON PUBLIC LIFE

Aripov Alisher Sayfiddinovich
Independent researcher of Navaiy state pedagogical institute
Doctor of philology, associate professor, Navoi state pedagogical institute. Under the review of N.O. Safarova

0009-0005-1409-6482

ВЛИЯНИЕ КОРРУПЦИИ НА ОБЩЕСТВЕННУЮ ЖИЗНЬ

Алишер Сайфиддинович Арипов
Навоийская государственная педагогика
Независимый научный сотрудник института
НГПИ ф.ф.д. дот. под рецензию Н.О. Сафаровой

Annotatsiya: Maqolada korrupsiya, shu jumladan poraxo'rlik jinoyatlarining oqibatlari va zarari, bunday jinoyatlarga qarshi kurashishning o'ziga xos ahamiyati hamda yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan ishlar, bu borada qonunchiligimizga kiritilayotgan yangiliklar va ularni yanada mustahkamlash uchun qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan takliflar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: korrupsiya, poraxo'rlik, korrupsiyaga qarshi islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish.

Annotation: The article describes the consequences and harms of corruption, including bribery crimes, the specific importance of combating such crimes, as well as the work carried out in the field of combating corruption in our country, the innovations introduced in the legislation in this regard and proposals for the implementation of additional measures for their further strengthening.

Key words: corruption, bribery, anti-corruption reforms, improvement of anti-corruption system.

Аннотация: В статье описаны последствия и вред коррупции, в том числе взяточничества, важность борьбы с такими преступлениями и работа, проводимая в борьбе с коррупцией в нашей стране, нововведения в нашем законодательстве и предложения по дополнительным мерам по их дальнейшему усилению.

Ключевые слова: коррупция, взяточничество, антикоррупционные реформы, совершенствование системы противодействия коррупции.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning aksariyatining mazmuni jamiyatda halollik, adolat va qonuniylikni ta'minlashdan iborat. Korrupsiya kabi illatdan voz kechish, inson tafakkurini bunday balodan tozalash juda ham murakkab jarayon bo'lib, poraga nisbatan murosasiz kayfiyatni uyg'otish, metin iroda bilan kurashishni talab etadi. Insonning bolalik davridan boshlab, ulg'ayib esini taniguniga qadar o'rganganlari butun umrga xotirasida muxrlanib qoladi. Bir tomondan yoshlikda olingan bilim, inson

hayotidagi yo‘llarda ravon yurishi uchun eng kerakli omil bo‘ladi.

Adliya vazirligi tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan birgalikda qurilish, sog‘liqni saqlash, oliy ta’lim va davlat xaridlari sohalarini tartibga soluvchi 226 ta qonunchilik hujjatlari korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazilganligi va natijasiga ko‘ra ushbu hujjatlarning 75 tasida 302 ta korrupsiyaviy omillar aniqlanganligi yuqoridagi fikrimizning yaqqol isboti hisoblanadi.[1]

Bugungi kunga qadar qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlarni yoki kelgusida amalda tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan hujjatlarning loyihalarini to‘liq korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish, korrupsiyaviy omillar aniqlangan hujjatlardan voz kechish, bir-birini takrorlovchi hujjatlarni birlashtirish, byurokratik funksiyalarni umuman yo‘q qilish, mamlakatda barcha hujjatlar aylanmasi tizimini qog‘ozbozlikdan voz kechib, to‘laqonli elektron tartibga o‘tish zarurati tug‘ilmoqda.

Fikrimizcha, elektron hujjatlar aylanmasi xavfsiligini ta’minlovchi va tartibga soluvchi kiberxavfsiz dasturni yo‘lga qo‘yish zarur. Hujjatlarni imzolashda, tasdiqlashdagi inson omilidan xoli tizimni yo‘lga qo‘ya olsak, korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan yana bir qadam bo‘ladi. Afzallik tomonlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, qog‘oz uchun milliardlab sarflanadigan xarajatlar qisqaradi, navbat kutishlar yo‘qoladi, poraxo‘rlikka moyil bo‘lgan shaxslarga turli ko‘rinishdagi iltimoslar qilinishiga yo‘l qo‘yilmaydi, elektron tartibdagi hujjatlarni tahlil qilish, ulardagi korrupsiyaviy omillarni aniqlash va o‘z vaqtida bartaraf qilish oson bo‘ladi hamda davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatida ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik yanada kuchliroq ta’minlanadi.

Ta’kidlash joizki, bugungi kunga qadar yurtimizda korrupsiyani oldini olish borasida samarali targ‘ibot-tashviqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda, poraxo‘rlik yomon illat ekanligi deyarli har qadamda aytiladi, biroq amalga oshirilgan ishlarga qaramasdan korrupsiya bilan bog‘liq holatlarga yo‘l qo‘yilayotgani sir emas. Endilikda bunday holatlarni oldini olishga qaratilgan ish uslubini o‘zgartirish, zamon bilan hamnafas qadam bosishimiz kerak deb hisoblaymiz.

Quyidagi taklif va tavsiyalarni amalda qo‘llash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- **har bir rahbarni yoki rahbarlik lavozimiga tayinlanayotgan shaxslarni maxsus psixologik testdan o‘tkazish.** Ushbu test orqali nomzodning poraxo‘rlikka moyillik darajasi tahlil qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi mutaxassislari tomonidan tegishli tavsiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan xulosa ola bilgan nomzodgina, rahbarlik lavozimlarini egallashi mumkin bo‘lgan tizimni joriy etish;

- **korrupsiyaga oid jinoyatlarni sodir etgan shaxslar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinmasligi shart.** Bundan tashqari, davlat fuqaroligi xizmatiga aynan qaysi lavozimlar kirishi to‘g‘risidagi ro‘yxatni o‘zida mujassamlashtirgan **qonun loyihasini tayyorlab, yurtimizda joriy qilish;**

- qonun bilan davlat fuqarolik xizmatchilarining huquqiy maqomi, huquq, majburiyatlari, ularni ishga olishda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik choralari ko‘rilganligi hamda **lavozimga tayinlash tartibi, lavozimlarga tayinlashda shaffoflikka amal qilish kabilar mustahkamlanishi joiz;**

- mulkiy huquqlarni ishonchli daxlsizligini yanada mustahkamlash va xususiy mulkka egalik qilishda davlat organlari aralashuviga umuman yo‘l qo‘ymaslikni kafolatlashni kuchaytirish shart;

- shuningdek, **shaxsiy ID-kartalar chipiga** karta egasining daromadlari, faoliyat bilan shug‘ullangan davri, mehnatda rag‘batlantirilganligi yoki salbiy harakatlari uchun jazolanganligi, nomida bo‘lgan barcha mol-mulki, soliq yoki kredit qarzdorliklari va boshqa qarzdorliklari, unga nisbatan sudlarda ko‘rilgan ishlar natijalari, kasbi yoki ma’lumoti, o‘qish yoki ish joyi, nikohi, yaqin qarindoshlari, tadbirkorlik ishlari, sudlanganligi, ma’muriy javobgarlikka tortilganligi, intizomiy chora ko‘rilganligi, chet el fuqaroligiga ega ekanligi, tarjimai holi va shaxs to‘g‘risidagi boshqa malumotlar qo‘shilib, **shaxsni identifikatsiyalashning yagona mexanizmini to‘liq joriy etish** va ID-karta xotirasida shaxsni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-5263-son Qarori.

tug‘ilganidan boshlab amalga oshirilgan jarayonlar jamlangan **“Shaxs tarixi”** yoki **“Fuqaro tarixi”** dasturini amalda tatbiq etish zarur va davlat xizmatlari sohasida fuqaro haqida to‘liq ma’lumotlarni jamlab, ortiqcha sarsongarchiliklarsiz fuqaro to‘g‘risida yagona ma’lumotnoma taqdim qila oladigan **“Fuqaro tarixi”** xizmatini joriy etgan holda amalga oshirish lozim. **Shaxs to‘g‘risidagi ma’lumotlarni integratsiya qilib, hisobga olish tizimini yanada qulay qilish kerak;**

- sud organlarining faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash va aholining korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida **barcha sud jarayonlarini jonli ravishda doimiy efirga uzatuvchi yangi televizion kanal tashkil qilib, barcha ochiq sud jarayonlarini uzluksiz namoyish qilib borish lozim.**

- jamiyatda umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi va oliy ta’lim muassasalarining o‘quv dasturlarida **korrupsiyaga qarshi** mavzularni yanada kuchaytirilishi, imkoni bo‘lsa, **fan sifatida o‘tilishi**, bu orqali yoshlar ongida korrupsiyaga nisbatan murosasizlik tuyg‘usini shakllantirilishi, mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyotiga keskin ijobiy burilish yasash zarur.

Zero, korrupsiyaning nafaqat oqibatlarini, balki sabablarini oldindan bartaraf etish bo‘yicha ta’sirchan amaliy choralarni ishlab chiqish va amalga oshirish [2] kelajakda o‘z samarasini bermay qo‘ymaydi, bizdan keyingi avlodga halollik va adolatga asoslangan sog‘lom turmush-tarzini qoldirishimizga, yoshlar ongida yaxshi bilan yomonni, oq bilan qorani farqlay biladigan irodaviy kuchni hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi, sinov sifatida berilgan omonat umrni to‘g‘ri yashashlariga va natijada yaxshi kunlarni ko‘rishlariga muhim omil bo‘ladi. Har bir inson o‘zidan iz qoldirishni xohlaydi, bizdan kelajak avlodga qoladigan yagona esdalik bu halollikka asoslangan yaxshiliklar bo‘lishi mumkin...

Xalqimiz qanchalar ko‘p “halollik vaksinasi bilan emlansa”, o‘zini yomon illatlardan tozalab, yaxshi amallar bilan isloh qilsa, jamiyatimiz hayoti shunchalar tez taraqqiyotga erishadi, insonlar o‘zligini anglash sari odimlab boraveradi...

Foydalanilgan manbalar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi **PQ-81-son Qarori**.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-oktabrdagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi **PQ-5263-son Qarori**.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatda bo‘lish muhitini yaratish, davlat va jamiyat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarni keskin kamaytirish va bunda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-6257-son Farmoni.**
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi **PQ-5177-son Qarori.**
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi **PF-60-sonli Farmoni.**
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-6127-son Farmoni.**
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **PF-5729-son Farmoni.**

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 328.32.019.5

IDEOLOGIYA HÁM JÁMIETLIK RAWAJLANIW

Bayrıeva Almagul Qurbanovna, Berdaq atındağı Qaraqalpaq mámleketlik universiteti professori, siyasiy ilimler doktorı (DSc)

MAFKURA VA IJTIMOIY TARAQQIYOT

Bayriyeva Almagul Qurbanovna, Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti professori, siyosiy fanlar doktori (DSc)

IDEOLOGY AND SOCIAL DEVELOPMENT

Bayrieva Almagul Qurbanovna, professor of Karakalpak State University named after Berdak, doctor of political sciences (DSc)

ИДЕОЛОГИЯ И СОЦИАЛЬНОЕ РАЗВИТИЕ

Байрыева Алмагуль Курбановна, профессор Каракалпакского государственного университета имени Бердака, доктор политических наук (DSc)

https://orcid.org/0009-0005-3289-4648

e-mail:

Almagul68_68@.mail.ru

Rezyume: *Bul maqalada jámiyettiń ruwxıy rawajlanıwında ideologi-yalıq tárbiyanıń áhmiyeti, jaslar tárbiyası hám jámiyetlik birlik máseleleri haqqında sóz júritiledi. Sonday-aq, dúnyanıń kóplegen rawajlanǵan mámleketlerindegi ruwxıy-ideyalıq tárbiya usılları tiykarında ideologiyalıq tárbiyanıń mánis-mazmunı hám maqsetleri talqılanadı.*

Tayanısh sózler: *ideya, ideologiya, ruwxıy tárbiya, jámiyetlik rawajlanıw, qádriyatlar, ruwxıy miyras, jámiyetlik sana, isenim, tárbiya.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada jamiyatning ma'naviy taraqqiyotida mafkuraviy tarbiyaning ahamiyati, yoshlar tarbiyasi va ijtimoiy birlik masalalari haqida swz yuritiladi. Shuningdek, dunyoning ko'plab rivojlangan mamlakatlaridagi ma'naviy-mafkuraviy tarbiya usullari asosida mafkuraviy tarbiyaning mazmun-mohiyati va maqsadlari tahlil qilinadi.*

Tayanch so'zlar: *g'oya, mafkura, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy taraqqiyot, qadriyatlar, ma'naviy meros, ijtimoiy ong, e'tiqod, tarbiya.*

Abstrakt: *This artisle dissusses the signifisanse of ideologisal edusation in the spiritual development of sosiety, the upbringing of youth, and issues of sosial unity. The sontent and goals of ideologisal edusation are also analyzed based on the methods of spiritual and ideologisal edusation in many developed sountries of the world.*

Key words: *ideas, ideology, spiritual edusation, sosial development, values, spiritual heritage, publis sonssiousness, faith, edusation.*

Аннотация: *В статье рассматривается значение идеологического воспитания в духовном развитии общества, воспитании молодежи и вопросах общественного единства. Также анализируются сущность и цели идеологического воспитания на основе методов духовно-идеологического воспитания во многих развитых странах мира.*

Ключевые слова: *идея, идеология, духовное образование, общественное развитие, ценности, духовное наследие, общественное сознание, вера, образование.*

TAMADDUN NURI

KIRISIW. Adamzat jámiyetiniń turaqlı rawajlanıwında ideologiyanıń áhmiyeti búgingi dáwirdiń de baslı máselelerinen sanaladı. Insan jámiyeti payda bolǵalı beri oǵan tuwrı jol kórsetip, durıs baǵdarlar otıratuǵın ideologiyası qáliplesken. Ideyasız hám ideologiyasız jámiyet, xalıq óz jolınan adasatuǵınlıǵın tariyx bir neshe turmıslıq mısallar menen dáliyllep berdi.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.Mirziyoev dúnyada túrli qarama-qarsılıqlar háwij alıp atırǵan búgingi zamanımızda jaslardıń ruwxıy-ideyalıq tárbiyasına ayrıqsha itibar qaratıp, "Biz házirgi keskin sharayatta ideyalıq-ideologiyalıq tarawda básekige tayarmızba? Jas áwladımızdıń tárbiyası quramalı zaman talaplarına juwap bereme?

Bul máseleler hár birimizdi ayrıqsha oylandırıwı, táshwishke salıwı kerek"[1],-dep, búgingi globallasıw dáwirindegi eń tiykarǵı máselelerden sanalǵan ideyalıq, ideologiyalıq tárbiya máselesin kóldeneń qoydı.

ÁDEBIYATLAR ANALIZI. Ideologiyalıq-ideyalıq úgit-násiyat dáslep quramalı sociallıq informaciya kommynikativ process. Jáhánniń rawajlanǵan mámleketlerinde úgit-násiyat máselesi áyne usı kózqarastan túsiniledi hám bonda sociallıq kommynikaciya menejmenti máselelari úlken áhmiyetke iye boladı.

Batıs Evropada jaylasqan kópshilik mámleketler óz ideologiyalıq mexanizmlerin "insanlarǵa sheksiz erkinliklerdi beriw" ideyası tiykarında alıp baradı. Usı mexanizmler tiykarında puqaralarǵa mámleketti qollap -quwatlaw bul - olardıń huqıq hám erkinliklerin támiynlewdiń tiykarǵı kepili sıpatında sanasına sińdiriledi. Mısal ushın, Franciya mámleketinde insanlardıń sanasına milliy ideyanı sińdiriwde ulıwma tán alınǵan qaǵıydalar koncepciyası tańlap alınǵan. Puqaralardı mámleket maqsetleri ushın baǵdarlawda jáhánde tán alınǵan hám xalıqaralıq huqıqıy normalar mámlekettiń milliy maqsetlerine uyǵınlastırılǵan hám nátiyjede bárshe ushın birdey tásir kúshine aylanǵan.

ANALIZ HÁM NÁTIYJELER. "Hámme nárse insan hám onıń mápleri ushın" degen ideyanıń kúsheyiwi ayırım adamlardıń kózqaraslarında mámleket puqaralardıń sheksiz erkinliklerin maksimal dárejede qanaatlandırılıwın támiynlewi kerek degen natuwrı pikirdi qáliplestirmekte. Bul bolsa puqaralar tárepinen mazmnı jaǵınan antigymanistlik qálewlerdiń de qollap-quwatlanıwına alıp kelmekte. Máselen, bir jınslı insanlar ortasındaǵı neke, gedonizm, sado-mazoxizm sıyaqlı insaniylıqqa tuwrı kelmeytuǵın unamsız illetler insannıń tábiyiy talabı, tábiyiy huqıqı sıpatında bahalanbaqta. Búgingi kúnde ruwxıy-aǵartıwshılıq, milliy tárbiya sheńberinen tısqarıda qalǵan jaslar dúnyada «Lost generation», yaǵnıy "qoldan ketken áwlad", dep ataldı.

Diniy hám milliy tiykarlardı uyǵınlastırǵan halda xalıqtı birlestirgen ideologiyalar búgingi kúnde Izrail, Iran, Saudiya Arabstanı, Hindistan, Myanma, Yaponiya hám Qıtay ideologiyaliq siyasatında óz kórinisin tawıp, mámleket din yamasa millet qáwenderi, mámleket basshısı diniy yamasa milliy basshı sıpatında sáwlelenedi. Puqaralar diniy yamasa milliy basshı átirapında jámlesedi.

Yaponiya ideologiyasın kóretuǵın bolsaq, onda "tariyx-sintoizm-Konfuciylik-samypaylıq erki" qádriyatlar sisteması tiykarında olardıń milliy ideyası qáliplesken. Yaponiyada puqaralardıń sanasına milliy ideyanı sińdiriw usılları sıpatında qádriyatlar sistemasınan nátiyjeli paydalanadı. Olarda milliy ideya mámleket ekonomikasınıń tayanıshı sıpatında tiykarǵı orınǵa kóterilgen. Onı biz tómendegi basqıshlarda kóriwimiz múmkin: Miliy ideya – milliy ekonomika – milliy rawajlanıw.

Yaponiyada bunnan tısqarı birden bir aymaq – birden bir millet koncepciyası mámlekettiń bilimlendiriw sisteması hám basqa sistemalarda da keń qollanıladı. Yaponiyada milliy tariyxıy qaharmanları, ápsanalarınıń milletke keń kólemde tanıtılıwı nátiyjesinde yaponlardıń ishki ruwhiyatın birden-bir Yaponiya ushın baǵdarlaw mexanizmine aylandırılǵan. Húkimet qálegen waqıtta usı mexanizmdi nátiyjeli háreketke keltire aladı. Yaponiyada bunnan tısqarı, "Millet, Watan, Táǵdir" sıyaqlı túsinikler pútkil milletti birlestiriw jolında uyǵınlastırıldı.

Bunıń ushın milliy-insaniylıq pazıyletlerdi arnawlı shólkemlestiriliwshi tárbiyalıq jaǵdaylarda,

tárbiyalıq saatlarda oqıwshılarǵa kórsetiw (máselen, “milliy ádep”tiń qanday júzege keliwin tek túsindiriw ǵana emes, al úlgi sıpatında kórsetiw) hám oqıwshı jaslar menen milliy ádep shınıǵıwların shólkemlestiriw talap etiledi. Máselen, Yaponiya mekteplerinde “yapon minez-qulqı” sabaǵı islep shıǵılǵan bolıp, hár bir mektepte májbúriy alıp barıladı. Bul sabaqta mámile, ádep-ikramlıqtıń eń názik qırralarına shekem arnawlı úyretiledi, shınıqtırıladı. Milliy tárbiyalıq tálim milliy pazıyletlerdi oqıwshılardıń dáslep bipinshi, keyin bolsa ekinshi signallar sistemasına aylandırıwǵa, nátiyjede, oqıwshılardıń shaxsiy pazıyletlerine, ádetlerine aylanıwında pedagogikalıq texnologiya wazıypasın óteydi[2].

Qıtay mámleketinde puqaralardıń sanasına milliy ideya hám milliy dúnyaqarastı sińdiriwde Konfuciy táliymatına múrájat qılınǵan. Qıtay Konfuciy táliymatınan diniy táliymat sıpatında emes, al ádeplilik tiykar sıpatında paydalanadı. Bul bolsa, mámlekette táliymatqa degen radikal keypiyat qáliplesiwiniń aldın aladı hám óz náwbetinde zamanagóy Qıtay kózqaraslarına ańsat ǵana uyǵınlasıwına sebep boldı.

Qıtayda ruwxıy-ideologiyalıq tárbiya sisteması “Ana Watanǵa xızmet qılıw hám sadıq bolıw” ideyası tiykarında qáliplestirilgen. Jaslıqtan balalarǵa shaxsiy talaplar hám jámaatlıq talaplar ortasındaǵı balanstı saqlaw úyretip barıladı. SHaxsiy talaplardı qandırıw ushın háreket qılıw jámaatlıq talaplarǵa unamsız tásir etpewi kerekligine ayrıqsha itibar berilgen. Olarda qattıqollıq hám qatań tártip intizam ústin esaplanadı. Qıtaydıń ápsanalıq patshalarınan bolǵan Yaonıń “Mehir-múriwbet, jaqsı minez-qulıq, bilim, ádillik hám abıroy Qıtay milletiniń uzaq jasawınıń kepilligidur” degen pikiri búgingi kúnde de tárbiyanı jetilistiriwde óz áhmiyetin joytpaǵan.

Millet hám milliy mámleket túsinigin bir túsinik dep qaraw faktorınan Germaniya, Turkiya, Koreya respublikası sıyaqlı bir qatar mámleketlerdiń milliy ideologiyasın qáliplestiriwde keń paydalanbaqta.

Germaniyada milliy ideya nemis milleti hám mámleketi birligi negizinde qáliplesken bolıp, hátte ekinshi jáhán urısınan keyin rásmiy nemis milletshiligi inkar etilse de, zamanagóy Germaniya ideologiyası “nemis milletiniń ózine tánligi”niń postmodern hám postindystrial talqılanıwı tiykarında qayta islenip, Germaniya milliy birliginiń tiykarǵı kúshin quramaqta.

Germaniyada ruwxıy tárbiya insan tuwılǵannan baslanatuǵın ózgeshe process bolip, insan tuwılǵannan baslap jumıs iskerligin juwmaqlaǵanǵa shekem dawam etedi. Usı tárbiyada tiykarǵı másele "nemis milliy xarakteri"n qáliplestiriwge qaratılǵan. Qatań tártip hám intizamǵa boysınıwǵa úlken itibar beriledi. Mektepke shekemgi bilimlendiriw mekemelerinde balalardıń ózine tán qásiyetlerinen kelip shıǵıp, tárbiya túri anıqlansa, miynet jámáátlerinde jumıs nátiyjeliligi hám watansúyiwshilik prinsipleri arqalı ámelge asırıladı.

Olardıń shańaraqlarında balalar bólmesi bolıwı májbúriy etip belgilengen. Usı shańaraqlarda balalardıń kún tártibi qatań belgilengen bolıp, bala 8 jasqa shekem televizor kóriwi múmkin emes, degen qatań qaǵıydaǵa ámel qılınadı. Onıń ornına balalar ayaq oyını, súwret salıw hám muzıka shınıǵıwları menen bánt boladı. Keshki dem alıw waqtı qatań 20:00 etip belgilengen. Ata-analar háptede keminde bir márte perzentleri menen qıyabanǵa hám jámiyetlik dem alıw orınlarına barıwı shárt dep qabıl etilgen. Germaniyada balaǵa onıń ata-anasınan basqa shaxstıń eskertiw beriwi múmkin emes. Germaniyada barlıq ǴXQ milliy ideyanıń úgit-násiyatlawshısı esaplanadı.

Qubla Koreya Respublikasında da milliy ideyanıń tiykarı koreec milletiniń ózine tánligi esaplanadı. Milliy ózine tánlik tiykarında úrp-ádetler, ádep-ikramlılıq ideallar arqalı bekkemlep barıladı. Jaslardı tárbiyalawda shańaraq institutı tiykarǵı tayanısh esaplanadı. Sonıń ushın koreec shańaraqlarında jmiyetlik byudjettiń 56% bala ushın jumsaladı. Balanıń dáslepki tárbiyası menen tek analar shuǵıllanıwı belgilengen. Tárbiyanıń dáslepki basqıshında analar óz perzentlerine koreec milliy dástúrlerin úyretedi.

Kópshilik Shıǵıs mámleketlerinde bolǵanınday Qubla Koreyada da úgit-násiyat texnologiyasınıń eń nátiyjeli usılı sıpatında

jámiyettegi biyǵárez liderlerge hám tariyxıy qaharmanlarǵa úlken itibar beriledi.

Rawajlanǵan mámleketlerde mámlekettiń maqsetlerin xalıq maqsetleri menen uyǵınlastırıw, birden-bir aymaq - birden-bir xalıq túsinigi qáliplestirilgeni, watan hám mámleket, xalıq hám millet túsinikleri ideyalıq kózqarastan birlestirilgeni mámleket xalqınıń ulıwma maqsetler jolında birlesiwinde úlken áhmiyetke iye bolǵan.

Insan isenimsiz, ideyasız, pikirlewsiz jasay almaydı. Shaxs hám onıń isenimi máselesi áhmiyetli mashqalalardan bolıp, onıń qáliplesiwi tiykarınan sociallıq faktorlarǵa tikkeley baylanıslı, dep qaraydı. Bul máselege itibardıń artıp baratırǵanlıǵı sonnan ibarat, adamdaǵı ideologiyalıq immunitettiń qáliplesiwinde ondaǵı jaqsı ideya hám isenim úlken áhmiyetke iye. Eger biz jaslarımızda balalıqtan baslap salamat isenim hám bilimge tiykarlanǵan dúnyaqarastı qáliplestire alsaq, olar ruwxıy mádeniyatı bay, ozıq oylı hám shın insaniylıq pazıyletli shaxslar bolıp kamalǵa keledi.

Jeke tárbiyanıń áhmiyetli baǵdarı - bul ideyalıq tárbiya. Bul insan sanasın sana-sezimler sistemasında ómirdegi filosofiyalıq, siyasiy, huqıyqıy, diniy, estetikalıq, ádep-ikramlılıq, kórkem, kásiplik qáliplestiriw processi bolıp tabıladı. Hár qanday tárbiya procesiniń maqseti hám mánisinde ideyalıq tárbiya turadı. Sebebi shańaraqtı alamız ba, balalar baqshasın alamız ba, máhálle, mektep, kolledj, lisey, universitet yamasa akademiyanı alamız ba - hámmesinde beriletuǵın tálim-tárbiya procesi oqıwshı, tárbiyalanıwshı hám tınlawshılardıń dóretiwshiligin keńeytiw, olardıń sanasın ilimiy tiykarlanǵan bilimler menen bayıtıw jáne jámiyet ushın, onıń rawajlanıwı ushın zárúrli bolǵan qásiyetlerdi qamtıp aladı. Bul isler balanıń dúnya haqqındaǵı, dúnyanıń rawajlanıwı, insaniylıq qatnasıqlar baǵdarındaǵı ózine tánlikler, ádep-ikramlılıq prinsipleri, gózzallıq haqqındaǵı túsiniklerin keńeytiwge xızmet etedi. Bul shın mánisinde ideologiyalıq tárbiyanıń tiykarı, negizi bolıp tabıladı. Sonlıqtan ideologiyasız insan, ideologiyasız topar, millet, xalıq, jámiyet bolıwı múmkin emes.

Ne ushın bir jámiyet, sociallıq topar (máselen, siyasiy partiya, sociallıq háreket) ideologiyasın basqa bir sociallıq toparǵa májbúriy sińdiriw natuwrı? Sebebi ideologiya - belgili bir sociallıq topar aǵzalarına tán ózlerindegi bar talaplar, tilekler, kóz-qaraslar hám ideyalar tiykarında sol topardıń kózqarasları, pikir dúnyası hám ideyalarınıń ónimi sıpatında jaratıladı. Olarda basqalardıń mápleri sáwlelendirilmegen bolıwı da múmkin. Sonlıqtan ózgelerdiń ideologiyasın májbúriy túrde basqa xalıqqa sińdiriw múmkin emes.

Hár qanday ideologiyalıq tárbiyanıń maqseti - jámiyettiń hár bir aǵzası hám olardıń tımsalında hár bir sociallıq qatlam, topardıń tárbiyalıq dárejesin támiyinlew sanaladı. Bul sol jámiyettiń rawajlanıwına tiykar salıwshı aldıńǵı ideyalardıń hár bir puqara tárepinen sanalı túrde ózlestiriliwin, onıń oylaw hám pikirlew usılına aylandırılıwın támiyinleydi. Usı mániste, milliy ideya Ózbekstanda jasap, dóretiwshilik etip atırǵan hár bir puqaranıń sanası hám qálbinde milliy qádiriyatlarımız, xalqımızdıń búgingi hám keleshektegi máplerin kórsetiwshi eń salamat ideya hám pikirler - xalıqtıń oy-pikirinde óz kórinisin tabıwı lazım. Bul ideologiyalıq tárbiyanıń bas qásiyetlerinen biridur. Ideologiyalıq tárbiyalılıq, eń dáslep, joqarı isenim, Watan hám xalıq aldındaǵı juwapkershilik, watansúyiwshilik, pidayılıq sıyaqlı pazıyletlerde kórinedi.

Ózbekstannıń ǵárezsiz rawajlanıw strategiyası, xalqımızdıń ullı mámleket qurıw baǵdarındaǵı maqset-niyetleri milliy ideyanı jaslardıń qálbine hám sanasına sińdiriwdiń áhmiyetli baǵdarlarınan bolıp esaplanadı. Bul process jámiyet turmısınıń barlıq tarawların qamtıp alıwdı, tálim-tárbiya hám úgit-násiyatlawdıń nátiyjeli usıl hám qurallarınan aqılǵa uǵras paydalanıwdı talap etedi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev tárepinen belgilep berilgen “Mánawiy baǵdarlarımız ekonomikalıq baǵ-darlardan on qádem aldında júriwi kerek. Áne sonda biz házir qılıp atırǵan úlken-úlken rejelerimiz, baǵdarla-malarımız ámelge asadı”[3], formasında sáwlelengen metodologiyalıq princip mánawiyat, milliy ideya, milliy ideologiyanıń Ózbekstandaǵı strategiyalıq hám ámeliy wazıypaların, rolin, ornın, áhmiyetin tiykarlap berdi.

TAMADDUN NURI

Mámleketimizde ásirler dawamında qáliplesken, áwladtan-áwladqa biybaha miyras sıpatında ótip kiyatırǵan úrp-ádet, máresim hám baylamlar da milliy ideyanıń tiykarǵı ideyaların sińdiriwde áhmiyetli faktor bolıp xızmet etpekte. Atap aytqanda, Ǵárezsizlik, Nawrız, Hayit bayramları, Muǵállimler hám oqıtıwshılar kúni, Eslew hám qádirlew kúni sıyaqlı bayram hám máresimlerimizden jámiyetlik turmısqa zamanagóy mazmun beriw jolında aqılǵa uǵras paydalanılmaqta.

Úrp-ádet hám dástúrlerdiń tiykargı bólegi shańaraqta hám shańaraq aǵzalarınıń tikkeley qatnasıwında ótkeriledi. Sonıń ushın da hár bir shańaraq dástúri ideologiyalıq tárbiyanıń áhmiyetli baǵdarı esaplanadı. Máselen, insansúygish, joqarı isenimli, keńpeyil, miyrim-shápáátli insanlardı kamalǵa keltiriwde tolerantlıq, adamgershilik prinsipleri áhmiyetli orın tutadı. Hár bir shańaraǵımızda mólsherlengen miymandoslıq, qız hám ul balalar tárbiyası boyınsha arnawlı dástúrlerdiń bar ekenligi, jıl máwsimine kóre shańaraq aǵzalarınıń qatnasıwında ótkeriletuǵın túrli dástúr hám ilajlar salamat ideologiyalıq ortalıqtı qáliplestiriwge xızmet etedi. Bunda hár bir ata-ana óz perzentiniń mektepke shekemgi tárbiyası onıń keyingi rawajlanıwında qanshelli áhmiyetke iye ekenligin, bul dáwir izbe-iz bilimlendiriw hám tárbiyanıń áhmiyetli basqıshı ekenligin ańlawına erisiw ushın ámeliy jumıs alıp barıladı. Bunda shańaraqtıń mektepke shekemgi bilimlendiriw hám orta bilimlendiriw mákemeleri sistemasına izbe-iz jámleniwine erisiw názerde tutılǵan. Yaǵnıy, shańaraq-bilimlendiriw mektebi-máhálle koncepciyası islep shıǵılǵan hám ideologiyalıq bilimlendiriw sistemasınıń ózine tán sisteması jolǵa qoyılǵan.

JUWMAQ. Búgin Jańa Ózbekstanda milliy qádiriyatlarımızdan sanalǵan ózin-ózi basqarıwdıń ózine tán modeli - máhálle xalqımızdıń ázeliy qádiriyatları, úrp-ádetleri hám dástúrlerine súyengen halda, puqaralarǵa sińdiriletuǵın úlken ideologiyalıq, tárbiyalıq ózgesheliklerdi orınlap kelmekte. Kekselerdiń jaslarǵa beretuǵın pándu-násiyatı, úlkenlerdiń jeke ibratı, jámááttiń awızbirshiligi mısalında adamlardıń sanasına jaqsılıq ideyaları sińdirip barıladı. Máhálle - salamat sociallıq ortalıq. Ol kúshli tásirge iye bolǵan jámiyetlik pikir, máhálle xalqınıń minez-qulqı, óz-ara qatnasıqların ádalatlılıq hám ruwxiy ólshemler tiykarında tártipke salıwshı tárbiyalıq mektep.

ÁDEBIYATLAR:

1. Мирзиёев Ш. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. Т.: O‘zbekiston, 2024.
2. Куронов М. Миллий тарбия. Тошкент, “Маънавият”, 2007.
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2017 йил 29 декабрь куни миллий кино санъати ва киноиндустрияни ривожлантириш бўйича амалга оширилаётган ишлар таҳлили ва бу борада мавжуд муаммоларни ҳал этиш масалаларига бағишланган йиғилишда сўзлаган нутқидан. Kun Uz. 13:43 / 30.12.2017.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 243-2324.2-33232-02

MAHALLIY KENGASH DEPUTATI VAKOLATLARINI MUDDATIDAN ILGARI TUGATISH TARTIBI VA ASOSLARI

Avezov Dilshod Sadulayevich
Toshkent davlat yuridik universiteti Uzluksiz ta'lim boshqarmasi boshlig'i

ПОРЯДОК И ОСНОВАНИЯ ДОСРОЧНОГО ПРЕКРАЩЕНИЯ ПОЛНОМОЧИЙ ДЕПУТАТА МЕСТНОГО СОВЕТА

Авезов Дилшод Садулаевич
Заведующий упралении непрерывного образования Ташкентского государственного юридического университета

E-mail: davezov07@gmail.com
Orcid: 0009-0005-3077-2305

PROCEDURE AND GROUNDS FOR EARLY TERMINATION OF THE AUTHORITY OF A LOCAL COUNCIL DEPUTY

Avezov Dilshod Sadulayevich
Head of the Continuing Education Department of Tashkent State Law University

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mahalliy Kengash deputatining vakolatini qonunchilikda belgilangan muddatidan ilgari tugatish tartibi va uni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Maqolada mazkur huquqiy jarayonning amaldagi qonunchilik normalari asosida qanday amalga oshirilishi, uning xususiyatlari tahlil qilinib, yakunda muallif tomonidan takliflar ilgari suriladi.*

Kalit so'zlar: *mahalliy kengashlar, deputat, qonunchilik, muddatidan ilgari tugatish, huquqiy asoslar.*

Abstract: *This article analyzes the procedure for early termination of the authority of the deputy of the local Council and the issues of its improvement. The article analyzes how this legal process is carried out on the basis of current legal norms, its features, and finally, the author puts forward suggestions.*

Key words: *local councils, deputy, legislation, early termination, legal grounds.*

Аннотация: *В данной статье анализируется процедура досрочного прекращения полномочий депутата местного Совета и вопросы ее совершенствования. В статье анализируется, как осуществляется данный юридический процесс на основе действующих правовых норм, его особенности и, наконец, автор выдвигает предложения.*

Ключевые слова: *местные советы, депутат, законодательство, досрочное прекращение полномочий, правовые основания.*

KIRISH. Mahalliy kengashlarning faoliyati boshqaruvning hal qiluvchi jihati bo'lib, jamiyat ehtiyojlari va manfaatlarini mahalliy darajada ifodalanishini ta'minlaydi. Ushbu maqolada mahalliy Kengash deputatining vakolatlarini muddatidan oldin tugatish tartibi va asoslari ko'rib chiqiladi.

ASOSIY QISM. Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlari natijasida Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Inson qadri uchun!" tamoyili davlat organlari faoliyatining bosh mezoniga aylandi. Shu sababli, hududlarda aholiga munosib turmush sharoitlarini yaratib berish maqsadida o'rta va uzoq muddatlarga mo'ljallangan ijtimoiy-

iqtisodiy taraqqiyot parametrlari aniqlanib, rivojlanish strategiyalari belgilab olinmoqda. Davlat hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish siyosatini olib borish orqali mintaqalarning o‘ziga xosligi, ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat va ularni ijtimoiyiqtisodiy rivojlantirish, mintaqalararo integratsiya masalalari, muammoli mintaqalarni qo‘llab-quvatlash, islohotlarni ayrim yo‘nalishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri mintaqalarga o‘tkazish, turli mintaqa va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi o‘rtasidagi jiddiy muammolarni kamaytirish va tugatish masalalariga alohida e’tibor beradi. Bu esa, davlat boshqaruvida markazlashtirish siyosatidan voz kechish zarurligini, ko‘pgina vakolatlarni markaziy davlat organlaridan hududiy organlarga o‘tkazish kerakligini ko‘rsatmoqda. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari haqida so‘z ketganda, muayyan hududdan o‘sha hududda istiqomat qiladigan aholi tomonidan saylov orqali shakllantirilgan vakillik hokimiyat organlari tushuniladi. Mazkur vakillik tuzilmasining faoliyati demokratik boshqaruvning mahalliy darajasidagi tipik namunasi hisoblanadi. Zero, bu jamiyatni isloh qilish jarayonlariga keng ommani ko‘proq jalb etish, mintaqalar imkoniyatlarini ishga solish, mahalliy hokimiyat organlari va mansabdor shaxslarning mas’uliyatini oshirish uchun qulay demokratik muhitni yaratadi. Ushbu muhitni joylarda ta’minlash uchun esa saylangan xalq vakillarining mahalliy boshqaruvdagi amaliy ishtiroki hamda aholi irodasi va manfaatlarini aniq aks ettirish vositalarining mavjudligi taqozo etiladi.[1]

Alohida hollarda deputatning vakolatlari tegishli xalq deputatlari Kengashi qaroriga binoan muddatidan ilgari tugatilishi mumkin. Deputat degan yuksak nomga dog‘ tushiruvchi xulq-atvor bunday masalani ko‘rib chiqish uchun asos bo‘lishi mumkin. O‘zbekicton Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 21.10.2024 yildagi “Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-835-IV-sonli qarori bilan tasdiqlangan Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Kengashining namunaviy reglamenti 38-moddasiga muvofiq, Mahalliy Kengash raisi ovoz berish orqali mahalliy Kengash deputatlari umumiy sonining uchdan ikki qismidan ko‘prog‘ining ovozi bilan qabul qilingan mahalliy Kengash qaroriga binoan muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilinishi mumkin. Mahalliy Kengash raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi masala mahalliy Kengash deputatlari umumiy sonining kamida uchdan bir qismidan iborat deputatlar guruhining taklifiga binoan mahalliy Kengash tomonidan ko‘rib chiqiladi. Mahalliy Kengash raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqilayotganda sessiyada mahalliy Kengashning doimiy komissiyalari raislaridan biri raislik qiladi. Mahalliy Kengash raisini muddatidan ilgari lavozimidan ozod qilish to‘g‘risida qaror qabul qilinadi, qaror mahalliy Kengash sessiyasida raislik qiluvchi tomonidan imzolanadi.[2] Noqonuniy xatti-harakatlar, jumladan, korrupsiya, hokimiyatni suiiste’mol qilish, axloqsiz xatti-harakatlar yoki jinoiy harakatlar muddatidan oldin tugatish uchun asos bo‘lishi mumkin. Kengashlar odatda qabul qilinadigan xatti-harakatni belgilaydigan xulq-atvor qoidalariga ega va buzilishlar intizomiy choralarga, jumladan, muddatidan oldin tugatishga olib kelishi mumkin. Deputat o‘z vazifalarini doimiy ravishda bajarmasa yoki o‘z vazifasiga bo‘lgan talabni qondirmasa, uning vakolatlari ham tugatilishi mumkin. Bu kengash majlislarida qatnashmaslik, o‘z elektoratini samarali vakillik qilmaslik yoki kengash qarorlariga rioya qilmaslikni o‘z ichiga oladi.

Qonunchiligimizda yuqoridagi normalar borasida bir qancha rivojlantirilishi mumkin bo‘lgan masalalarni keltirib o‘tish mumkin: Birinchidan, sudning qonuniy kuchga kirgan qarori asosida bedarak yo‘qolgan deb topilgan shaxsning deputatlik o‘rnidan mahrum bo‘lishi masalasi qayt ko‘rilishi lozim. Nazarimizda, mazkur norma, agar deputat qaytib kelsa yoki uning yashash manzili va holat aniqlansa, qaytadan deputat etib tayinlashning imkoni bo‘lmay qoladi. Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 02.12.2004 yildagi 706-II-son Qonuni 3-moddasida xalq tomonidan deputatning lavozimidan ozod etish masalasi kiritilishi lozim. Bundan, aytaylik qonunga “saylovchilr tashabbusi” kabi yangi termin qo‘shgan holda, aytaylik, mazku

[1] Sherov, Q. (2023). Mahalliy vakillik organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini takomillashtirish masalalari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(1), 73-77.

[2] Aliqulov, K. U. (2022). The concept, content and significance of normative legal acts of local public authorities. Miasto Przyszłości, 24, 15-19.

hududdagi aholi sonining 1/5 qismi muhokmaga tegishli deputatni lavozimidan ozod etish borasida teklif kiritishi mumkin bo‘ladi.

XULOSA. Mahalliy Kengash deputatining vakolati samarali boshqaruv va jamoatchilik vakillari uchun zarurdir. Biroq, ularning vakolatlarini muddatidan oldin tugatishni talab qiladigan vaziyatlar yuzaga kelishi mumkin. Mahalliy Kengashlarning ushbu jarayon davomida o‘z saylovchilari bilan shaffof muloqot qilishi ishonchni mustahkamlash va demokratik qadriyatlarni himoya qilish uchun muhim ahamiyatga ega. Yuqoridagilarda kelib chiqib, “saylovchilar tashabbusi” bilan tegishli deputatning lavozimidan ozod etish malalari qonunlar – O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlarida aks ettirilishi mqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurashidova, M. (2024). Mahalliy hokimiyat organlari. Молодые ученые, 2(13), 63-67.
2. Mihaylovna, s. S. (2024). Yangi o ‘zbekiston konstitutsiyasida mahalliy davlat hokimiyati asoslari. Hozirgi zamon psixologiya ilmidagi dolzarb muommolar: yechimlar va imkoniyatlari, 91-95.
3. Sherov, q. (2023). Mahalliy vakillik organlari normativ-huquqiy hujjatlari loyihalarining jamoatchilik muhokamalarini takomillashtirish masalalari. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 3(1), 73-77.
4. Aliqulov, k. U. (2022). The concept, content and significance of normative legal acts of local public authorities. Miasto Przyszłości, 24, 15-19

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 232-3232.4-412-3

MEASURES TAKEN TO INCREASE THE ROLE OF WOMEN IN SCIENCE

Teshayeva Yulduz Hakim qizi
BukhSU basic doctoral student

МЕРЫ, ПРИНЯТЫЕ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ ЖЕНЩИН В НАУКЕ

Тешаева Юлдуз Хаким кизи,
Базовый докторант БухГУ

AYOLLARNING ILM-FANDAGI ROLINI OSHIRISH BORASIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA TADBIRLAR

Teshayeva Yulduz Hakim qizi

BuxDU tayanch doktoranti

e-mail: yulduzteshayeva96@gmail.com

orcid: 0009-0004-9597-9780

Abstract: This article analyzes the reforms implemented in Uzbekistan during the years of independence to increase the activity of women in the field of education and to support women, and the extent to which Uzbekistan's indicators in world indices have increased in this regard.

Key words: primary education, secondary education, higher education, women.

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, реализованные в Узбекистане в годы независимости по повышению активности женщин в сфере образования и поддержке женщин, а также насколько выросли показатели Узбекистана в мировых индексах в этом отношении.

Ключевые слова: начальное образование, среднее образование, высшее образование, женщины.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda xotin-qizlarning ta’lim sohasidagi faolligini oshirishda amalga oshirilayotgan hamda ayollarni qo‘llab-quvvatlash borasida olib borilayotgan islohotlar, bu borada O‘zbekistonning jahon indekslaridagi ko‘rsatgichlari qay darajada o‘sganligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, o‘rta bosqichdagi ta’lim, oliy ta’lim, ayollar.

Kirish. Tarixdan ma’lumki o‘zbek millatida onaga, ayolga hurmat va e’tibor azaldan mavjud bo‘lgan. Buning boisi ayollarning ijtimoiy hayotdagi muhim o‘rni va sivilizatsiya rivojidagi bevosita ishtirok etishidadir. Hattoki buyuk bobokalonimiz Amir Temur ham har bir o‘g‘illariga va nabiralariga kelin tanlashda nomzodlarning yetti pushtini surishtirib, sog‘lom, ilmli va tarbiyali, har taraflama mukammal nomzodlarni tanlaganlari bejizga bo‘lmagan. Zero sog‘lom, hur fikrli va bilimli onalardan tug‘ilgan farzandlar jamiyatning taraqqiyotini yuqori marralarga olib chiqadi va yuksalgan sivilatsiyalarning bunyodkorlari bo‘ladi. Shu boisdan bugungi kunda Vatanimizda ham xotin-qizlarni har taraflama ilmli va sog‘lom qilib tarbiyalash uchun hukumat tomonidan yetarlicha e’tibor qaratilyapti.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” **69-maqsadida:** *xotin-qizlarning ta’lim va kasbiy ko‘nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko‘maklashish, tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirish* vazifasi belgilab qo‘yilgan[1].

Shuningdek, davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘zining “**Yangi O‘zbekiston strategiyasi”** nomli asarida *“Bugun O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining asosiy maqsadi ayollarimizga e’tibor va amaliy g‘amxo‘rlik ko‘rsatishni yangi, yuksak bosqichga olib chiqish, xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rni va maqomini mustahkamlash ularning huquq va manfaatlarini ta’minlashdir. Bu o‘z navbatida,* **ayollarga ilm berish – jamiyatni ilmli, ma’rifatli va salohiyatli qilish** *degan aqidani hayotga izchil tatbiq etish”*[2] kerakligini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Maktab - bu qizlar o‘z imkoniyatlarini yuzaga chiqara oladigan va kelajakdagi yetakchi intellektual salohiyatlarini namoyon qilish uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladigan makondir. Biroq hozirda YUNESKO Statistika Instituti ma'lumotlariga ko‘ra, jahon taraqqiyotiga qaramay, 250 millionga yaqin bolalar va yoshlar maktabga bormaydi: shundan 122 million qizlar va 128 million o‘g‘il bolalar. Hattoki ayollar hali ham boshlang‘ich savodxonlik ko‘nikmalariga ega bo‘lmagan 765 million kattalarning deyarli uchdan ikki qismini tashkil qiladi. Qashshoqlik, geografik izolyatsiya, ozchilik maqomi, nogironlik, erta turmush qurish va homiladorlik, genderga asoslangan zo‘ravonlik, ayollar va erkaklarning maqomi va roli haqidagi an'anaviy munosabatlar qiz bolalar ta'limda ishtirok etishiga to‘sqinlik qiladigan ko‘plab omillardan biridir. UNICEF hisob-kitoblariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab 122 million qiz, jumladan, 34 million boshlang‘ich maktab yoshidagi, 87 million nafari esa o‘rta maktab yoshida maktabga bormaydi. Ta'lim qizlarga yetakchi, innovator va inqiloblar yaratuvchisi bo‘lishga imkoniyat beradi.

Yurtimizda boshlang‘ich va o‘rta ta’limda gender tenglik tamoyillari to‘liq ta’minlangan, ya’ni o‘g‘il va qiz bolalar bu ta’lim bosqichida bir xilda ishtirok etadilar. Lekin oliy ta’lim va oliy ta’limdan keying ta’lim bosqichlarida erkaklarga nisbatan xotin-qizlarning ulushi birmuncha past. Bunga sabab ko‘pincha oilalardagi moliyaviy ahvol deb aytish mumkin. O‘g‘il va qiz farzandlar shartnoma asosida o‘qishga qabul qilingan vaziyatlarda ko‘pincha tanlov ota-onaning moliyaviy imkoniyati yuzasidan o‘g‘il bolalarga beriladi. Aynan mana shunday moddiy to‘siqlar sabab ko‘pchilik iqtidorli qiz bolalar oliy ta’limda o‘qiy olmasdi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2022-yil 7-martda “Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-son farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda ta'lim tashkilotlarida o‘qishni istovchi xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga doir aniq vazifalar aniq va tizimli qilib belgilab berilgan. Mazkur qarorga asosan 2022/2023-o‘quv yilidan boshlab respublikadagi barcha xususiy, xorijiy va davlat oliy, o‘rta maxsus va professional ta’lim tashkilotlarida kunduzgi, sirtqi va kechki ta’lim shaklida xotin-qizlarning to‘lov-kontrakt asosida tahsil olishlari uchun imtiyozli ta'lim kreditlari ajratish ko‘zda tutilmoqda. Foiz stavkasi yuqori bo‘lmagan va asosiy qismi talaba o‘qishni tugatgandan so‘ng so‘ndiriladigan bu imtiyozli kreditlar o‘qish istagidagi millionlab qizlar uchun katta imkoniyatdir. Ya'ni ushbu kreditni talabaning rasmiy o‘qish muddati tugagandan so‘ng yettinchi oydan boshlab 7 yil davomida qaytarilishi belgilab qo‘yildi. Bu farmon to‘lov-shartnoma asosida o‘qishga qabul qilingan qizlarning, oiadagi moliyaviy sharoiti tufayli o‘qishni davom ettirolmayotgan vaziyatlarda ularga ko‘mak beruvchi haqiqiy “ijtimoiy lift” vazifasini o‘tab kelyapti.

1. *“2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони.*

2. *Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. – 250 Б.*



Yuqoridagi diagrammadan ko‘rishimiz mumkinki 2016- yilda qiz bolalarning 5.6%i, o‘g‘il bolalarning 8.8%i oliy ta’limda oqigan, ya’ni o‘g‘il bolalar foiz hisobida qiz bolalardan ustunlik qilgan. Lekin bu ko‘rsatgich 2023-yilga kelib, qiz bolalarda 43.9% ga, yigitlarda esa 41.8% ga yetganligini ko‘rishimiz mumkin.[1] Keyingi yillarda oliy ta’limda o‘qiydigan xotin-qizlar ulushining ko‘tarilishiga prezidentimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning sabab bo‘lyapti.

“Oila va xotin-qizlarni tizimli qo‘llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonga muvofiq mutaxassisligi bo‘yicha kamida 5 yil mehnat stajiga ega, lekin oliy ma’lumotga ega bo‘lmagan 500 nafar xotin-qizlarni har yili Qo‘mita tavsiyanomalariga asosan davlat oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat ta’lim yo‘nalishlariga umumiy qabul parametrlaridan tashqari alohida test sinovlari natijalariga muvofiq to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish amaliyoti joriy etildi. Bu tadbir ma’lum sabablarga ko‘ra oliy ta’limda o‘qiy olmagan o‘z ishining ustasi bo‘lgan iqtidorli kadrlarning ish joylari saqlanishiga ko‘maklashdi.

Xalqimiz orasida saqlanib qolayotgan dunyoqarashga ko‘ra qizlar yigit bolalarga qaraganda ancha erta oila qurishadi. Ko‘pchilik holatlarda oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlarida qiz bolalarning o‘qishiga oilasi tomonidan har xil to‘siqlar qo‘yiladi. Islohotlar kesimi oliy ta’limdan keyingi ta’limda o‘qish istagida bo‘lgan bilimli va salohiyatli xotin-qizlarni ham qo‘llab quvvatladi. Ya’ni, 2022-yildan boshlab magistratura bosqichiga to‘lov shartnoma asosida qabul qilingan qizlarning kontrakt pullari davlat budjetidan qoplab berilyapti. Shaxsan men ham ana shunday baxtli talaba qizlardan bittasiman. Yurtboshimiz tomonidan berilayotgan bunday ajoyib imkoniyatlar samarasi o‘laroq, so‘nggi yillarda magistraturada o‘qiydigan qizlarning soni bir necha baravarga ko‘paydi. Bundan tashqari doktorantura yo‘nalishida xotin-qizlar uchun har yili kamida 300 tadan maqsadli kvota ajratildi. Bu tadbirlarning samarasi o‘laroq oliy ta’limda faoliyat yuritayotgan o‘qituvchi professorlar orasida xotin-qizlar ulushi 2016-yilda 42% dan, 2024-yilda 48 %ga o‘sdi[2].

Bu kabi imtiyoz va qulayliklar, eng avvalo, millat onalarini o‘qimishli va ziyoli qilish, Vatan kelajagi haqida qayg‘urish, uchinchi renessans poydevorlarini mustahkamlash yo‘lidagi muhim omildir.

2016-yil yildan boshlab, har yili 11-fevral kuni BMT qaroriga binoan “Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni” sifatida nishonlanadi. Bundan ko‘zlangan maqsad xotin-qizlarning ta’lim olishiga qo‘shimcha shart-sharoitlarni yaratish, ilm-fandagi salohiyatiga e’tibor qaratish va qo‘llab-quvvatlashdan iborat hisoblanadi. Yurtimizda ham har yili shu sana munosabati bilan ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi asosida o‘tkazilgan “Olima ayollar” forumi amaliy loyihalar tanlovi o‘tqaziladi va 10 nafar ayolning ilmiy loyihalariga grantlar ajratiladi.

[1] www.gender.stat.uz

[2] www.gender.stat.uz

Joriy ilda o‘tqazilgan “Olima ayollar” forumida Buxoro davlat universiteti Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti Gulnora Bo‘ronova "Robototexnikani o‘rgatishga mo‘ljallangan milliy o‘quv kontenti va virtual ta’lim platformasini yaratish” loyihasi bilan, Pedagogika kafedrasi doktoranti Zilola Rasulova "Oliy ta’lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilishning “tuzilmaga yo‘naltirilgan baholash” modeli elektron platformasini yaratish" amaliy loyihalari bilan g‘oliblar safidan joy olishdi. Gulnora Bo‘ronovaga 520 million so‘m, Zilola Rasulovaga esa 670 million so‘m miqdorda grant ajratildi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mamlakatimizda ehtiyojmand, ijtimoiy himoyaga muhtoj xotin-qizlar, xususan, oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan opa-singillarimiz davlatimiz tomonidan doimiy qo‘llab-quvvatlanadi. Chunki ilm olgan, oliy ma’lumotli ayollarimiz nafaqat farzand tarbiyasi, oila mustahkamligini ta’minlashga o‘zgacha yondashadi, balki jamiyat ravnaqiga ham munosib hissa qo‘shadi. Shunday ekan, Yangi O‘zbekistonimizda ayollarning jamiyatdagi, oiladagi maqomi, o‘rni va nufuzi yanada yuksalaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 29 январь 2022 йилдаги “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.
2. Шавкат Мирзиёев. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИ. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2021. – 250 б.
3. Ногаева Айнур Муханбетияровна, Жанна Мергенжановна Шупанова. «Роль женщин в сфере образования, науки и обществе стран Центральной Азии.» (2016).
4. https://gender.stat.uz
5. https://www.unesco.org/en/gender-equality/education
6. https://www.unicef.org/education/girls-education

TAMADDUN

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 94:339(575.1)"XIX/XX"

TERMIZNING AMUDARYO ORQALI SAVDO ALOQALARI (XIX ASRNING OXIRI - XX ASRNING BOSHLARI)

Allamuratov Shuxrat Ashurovich, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

TRADE RELATIONS OF TERMEZ THROUGH THE AMU DARYA (LATE 19TH - EARLY 20TH CENTURIES)

Allamuratov Shukhrat Ashurovich, Associate Professor of Termez University of Economics and Service, Doctor of Philosophy in Historical Sciences (PhD)

ТОРГОВЫЕ СВЯЗИ ТЕРМЕЗА ЧЕРЕЗ АМУДАРЬЮ (КОНЕЦ XIX - НАЧАЛО XX ВЕКОВ)

Алламуратов Шухрат Ашурович, доцент Термезского университета экономики и сервиса, доктор философии по истории (PhD)

https://orcid.org/0009-0006-6815-9319

e-mail: shuxrat_allamuratov@tues.uz

Annotatsiya: *Maqola XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi Termiz va uning asosiy kechuvi hisoblangan Pattakesar orqali olib borilgan savdo aloqalariga bag'ishlangan. Maqolada Termizning Amudaryo orqali savdo aloqalari tarixiy hamda arxiv materiallari asosida o'rganilib, tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *Amudaryo suv yo'li va kechuvlari, Amudaryo flotiliyasi, Pattakesar bojxona punkti, savdo-sotiq.*

Abstract: *The article is devoted to the trade relations conducted through Termez and its main crossing, Pattakesar, in the late 19th and early 20th centuries. The article studies and analyzes Termez's trade relations through the Amu Darya based on historical and archival materials.*

Key words: *Amu Darya waterways and crossings, Amu Darya flotilla, Pattakesar customs point, trade.*

Аннотация: *Статья посвящена торговым связям, осуществлявшимся через Термез и его главную переправу Паттакесар в конце XIX — начале XX вв. В статье на основе исторических и архивных материалов изучаются и анализируются торговые связи Термеза через Амударью.*

Ключевые слова: *водные пути Амударьи и переправы, флотилия Амударьи, Паттакесарской таможенный пункт, торговля.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Amudaryo, nafaqat, daryo bo'yidagi hududlar, shaharlar, savdo markazlari bilan aloqa vositasi uchun qulay suv yo'li bo'lgan, balki Amudaryoni kesib o'tuvchi savdo (karvon) yo'llarini bog'lovchi daryo hamdir. Aynan Amudaryo suv yo'li va uning kechuvlari Buxoro amirligining Sharq davlatlari bilan olib borgan savdo aloqalarida muhim o'ringa ega bo'lgan. Ushbu kechuvlardan Pattakesar – Termizning Amudaryo qirg'og'iga tutashgan, Buxoro amirligining Afg'oniston bilan chegara chizig'idagi

manzilgohi edi. Pattakesar kechuvi savdo-iqtisodiy jihatdan qulay bo‘lgan strategik hudud ham edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida mintaqaning Amudaryo suv yo‘li va kechuvlari orqali olib borgan savdo munosabatlarida Termizning o‘rni haqidagi ma’lumotlar O‘zbekiston Milliy arxivi (keyingi o‘rinlarda – O‘zMA) ning I-1, I-2, I-3, I-126-fondlarida uchraydi. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida Surxon vohasidagi Termizning Amudaryo savdo aloqalaridagi o‘rniga doir ma’lumotlar S.N.Tursunov[1], E.A.Qobulov[2], F.B.Ochildiyev[3], Sh.Allamuratovlarning[4] dissertatsion tadqiqotlari, monografiyalari va bir qator maqolalarida uchraydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Buxoro amirligining Afg‘oniston va Hindiston bilan savdo aloqalarida Termiz shahri muhim o‘rin tutgan. Ma’lumotlarga asosan, yiliga 6 mingdan ortiq tuyalarda Afg‘onistondan har xil mahsulotlar olib o‘tilgan[5]. Birgina 1886-yilda Hindistondan 8 mingdan ortiq tuyalarda har xil turdagi mollar Buxoro hududlariga olib kelingan. Hisob-kitoblarga ko‘ra, bu mahsulotlarning umumiy narxi 5 mln 475 ming so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, Buxorodan Hindistonga 427 ming so‘mlik mahsulot eksport qilingan[6].

Shuning uchun ham Rossiya imperiyasi o‘zining buyuk strategik maqsadlarini amalga oshirish, O‘rta Osiyoning ichki hududlariga kirib borish, Afg‘oniston va Hindiston bozorini zabt etish, quruqlik yo‘llari bilan bir qatorda suv yo‘llarini ham yaxshi o‘rganganlar, xususan Amudaryo kechuvlarga alohida e’tibor qaratishgan. Sababi Rossiyadan keltirilgan tovarlarning bir qismi daryo orqali Termizdan Afg‘onistonga yetkazilgan. Aynan Surxon vohasida Amudaryo suv yo‘lining muhim kechuvlari – Pattakesar, Eski Termiz, Yorgoh (Sho‘rob), Cho‘chqaguzar, Qorakamar tashqi savdoda muhim o‘rin tutgan bo‘lsa[7], Xotinrabot, Burguttepa, Ayritom, Maymunto‘qay, Sassiqko‘l va Boldir kechuvlari esa mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan[8,C.49]. Bu kechuvlar XIX asr oxirida Amudaryo flotiliyasi tashkil etilgandan (1887-yil) keyin ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Rossiya imperiyasi hukumati Buxoro amirligi ustidan o‘z protektoratini o‘rnatgandan so‘ng Sharq davlatlari bilan bo‘ladigan savdo aloqalarida Rossiya manfaatlari ustunligini ta’minlash choralarini ko‘rdi. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi bilan Buxoro amirligi o‘rtasida 1873-yil 28-sentyabrda tuzilgan shartnomadan keyin unga e’tibor yanada ortdi. Ma’lumki, shartnoma 17 moddadan iborat bo‘lib, uning 3-moddasida: “Buxoro amirligiga qarashli Amudaryo qismida Buxoro kemalari va rus paroxodlari, shuningdek boshqa flot kemalari qatorida hukumat hamda shaxsiy kemalarga erkin suzishga ruxsat beriladi”, deyilsa, shartnomaning 4-moddasida “Kerak va qulay bo‘lgan Amudaryoning Buxoro qirg‘oqlarida ruslar o‘zining to‘xtash joyi va tovar omborlari qurishga haqlidir”, deb yozilgan[9].

1888-yil 23-iyunda imzolangan shartnoma moddalari qayta ko‘rib chiqiladi va rus fuqarolari uchun Yangi Buxoro, Chorjo‘y va Kerki hududlari asosiy yashash joy sifatida tanlanadi. Bundan tashqari, Amudaryo chegara chizig‘i bo‘ylab manzilgohlar barpo etish ko‘zda tutiladi. Xususan, Termizning Amudaryo qirg‘og‘iga tutashgan Pattakesar qishlog‘i yonida ruslar istiqomat qilishi uchun yashash joylarini qurish boshlanadi. Ayniqsa, Amudaryo suv yo‘lida paroxodchilik tashkil etilganidan so‘ng ishlar yanada rivojlanadi.

1893-yil 15-yanvarda Termiz Buxoro amiri tomonidan Rossiya podshosi ixtiyoriga berilganidan so‘ng bu yerda harbiy qismlarni joylashtirish ishlari olib borila boshlandi. Bu hududni rivojlantirish uchun Rossiya hukumati barcha tadbirlarni amalga oshira boshladi. Shuningdek, Rossiya imperiyasi hukumati Surxon vohasi hududlarining Afg‘oniston davlati bilan chegaradoshligi va bu davlat orqali inglizlarning Buxoro amirligi hududlariga nisbatan g‘arazli talablari oshib borayotganligini hisobga olib, Termiz shahrini mustahkam o‘rnashib olish choralarini ko‘rdi. Harbiylar bilan birgalikda bu yerga savdogarlar ham kelib joylashadi va uylar qurib, o‘z do‘konlarini ochishadi[10].

Buxoro amirligini rus bojxona tizimiga kiritish to‘g‘risidagi qonun 1894-yil 6-iyulda qabul qilinib, rasman shu yilning 15-noyabridan kuchga kirdi. 1895-yil boshlarida Kerki, Kelif, Cho‘chqaguzar, Pattakesar va Ayvoj bojxonalari ish boshladi. Shu tariqa rus -afg‘on chegarasidagi savdoni nazorat qilish 1895-yil 1-iyuldan to‘la Rossiya imperiyasi ta’siriga o‘tdi[11]. O‘rta Osiyoning yagona bojxona tizimiga binoan Surxon vohasi hududidagi muhim Amudaryo kechuvlari hisoblanmish Pattakesarda uchinchi darajali bojxona tashkil etildi.

Termizda bo‘lgan Imperator geografiya jamiyati vakili sayyoh R.Yu.Rojevitsa Amudaryo bo‘yida Pattakesarda qurilgan Termiz tabiiy chegarasi, Pattakesardagi bozor, unda sotilgan mollar, Armaniston, Eron va boshqa davlatlar savdogarlari haqida ma’lumot berib o‘tadi[12,C.48]. Yana shuni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, Pattakesar Afg‘oniston bilan savdo aloqalar yaxshi rivojlanishida muhim o‘rin tutgan. Chunki asosiy bojxona posti shu yerda joylashgan bo‘lib keltirilgan mollar shu yerda qadoqlangan va chegara posti orqali afg‘on savdogarlariga yetkazilgan[13].

Shimoliy Afg‘oniston (Chorviloyat, Andxo‘y, Maymana) bilan savdoda Pattakesar kechuvi Kerki bojxonasidan keyingi o‘rinda turgan. Pattakesar bojxonasi Mozori Sharif – Toshqo‘rg‘on savdo yo‘lida joylashib, umumiy yuk aylanmasi 715ming rublni tashkil etgan. Savdo aloqalari rivoji natijasida Pattakesar kechuvi orqali Hindistonning ko‘pgina mahsulotlari – choy, doka, nil bo‘yog‘i, marjon kabilar bir yilda 0,5 mln rubl summadan ziyod hajmda tashib o‘tilgan [14,C.8].

Pattakesar kechuvi orqali 1891-1892-yillarda 118 ming pud kishmish mayiz, 27,5 ming bosh chorva mollari, 41,4 ming pud paxta, 12,4 ming pud urug‘lik chigit, 13 ming pud har xil bo‘yoqlar Buxoroga olib o‘tilgan bo‘lsa, 11,1 ming pud shakar, 0,5 ming pud sham, 2,2 ming pud sopol buyumlar, 2,6 ming pud kerosin, 7,4 ming pud metall, 25,7 ming pud mato va 2,2 ming pud boshqa mahsulotlar Afg‘onistonga eksport qilingan [15,C.37]. Keyingi yillarda, Pattakesar va Cho‘chqaguzar kechuvlaridagi bojxonalar orqali 1896-yilda 145532 rubl, 1900-yilda 60521 rubl, 1904-yilda 38770 rublli tovarlar Afg‘onistonga eksport uchun o‘tkazilgan bo‘lsa, xuddi yillarga mos ravishda 1896-yilda 439749 rubl, 1900-yilda 167080 rubl, 1904-yilda 549135 rublli tovarlar olib kelingan [16, C.120-128].

Rus flotiliyasi tashkil qilingandan so‘ng Termizning yuk tashishdagi ahamiyati ham oshib borgan. Bu yerda yangi ulgurji savdo omborxonalarining qurilishi va Afg‘onistondan keladigan paxtani qayta ishlaydigan paxta tozalash korxonasining qurilishi bunga imkon berdi[17].

XX asr boshlarida ham Termiz shahri orqali chet davlatlarga chiqariladigan mahsulotlar hajmi ham sezilarli darajada o‘sgan. Masalan, 1903-yilda shahar orqali 23 mln rubllik turli xil mahsulotlar chetga chiqarilgan. Shundan 2 mln rubli Rossiyaga, 500 ming rubli Afg‘onistonga, 70 ming rubllik mahsulotlar esa Eron, Hindiston va boshqa mamlakatlarga eksport qilingan[18]. Bu davrda birgina Termiz shahrida Shalman, Baxtadze, Mgaloblishvili, Avanov, Karimov, Axnazarov, Aganosov, Aryutyunov, Ayrapetov, Gozarov, Davidovlarning savdo do‘konlarida chetdan keltirilgan turli xildagi sanoat mollari sotilgan[19].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). XIX asr va XX asrning boshlarida Amudaryobo‘yi hududlaridan boy xom ashyoni tashib ketish, shuningdek, Afg‘oniston bilan chegaralarni muhofaza qilish bevosita Termizga bog‘liq edi. Shunday qilib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Termiz shahri va uning asosiy kechuvi hisoblanmish – Pattakesar Samarqanddan Qobul va Hindistonga boradigan asosiy savdo yo‘lidagi muhim joy bo‘lgan. Termiz nafaqat asosiy savdo hududi, balki Rossiya imperiyasining Buxoro amirligidagi Afg‘oniston bilan chegara chizig‘idagi muhim harbiy - strategik manzili ham edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Allamuratov S. Surxon vohasining tashqi savdo munosabatlari (amudaryo suv yo‘li misolida) //TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi. – 2023. – T. 1. – №. 1. – C. 58-68.
2. Allamuratov S.A., Toshimov B.B. Qadimgi davr manbalarida Amudaryo suv yo‘li haqidagi ma’lumotlar //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2024. – T. 4. – №. 6. – C. 13-18.

3. Allamuratov Sh.A. Markaziy Osiyo kommunikatsiyasi va savdo tranzit tizimida Amudaryoning o‘rni (XIX- XX asr boshlari). Tarix fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Termiz, 2022; Amudaryo suv yo‘li va kechuvlari tarixi (XIX-XX asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: – Innovatsiya-Ziyo, 2023.
4. O‘z MA, I-126-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 29-ish, 1-varaq.
5. O‘z MA, I-1-fond, 11-ro‘yxat, 1319-ish, 2-varaq.
6. O‘z MA, I-1-fond, 27-ro‘yxat, 408-ish, 13-varaq.
7. O‘z MA, I-1-jamg‘arma, 11-ro‘yxat, 504-ish, 3-varaq.
8. Qobulov E.A. Surxon vohasi xo‘jaligi. – Toshkent: Akademnashr, 2012; XVIII asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Surxon vohasi xo‘jaligi. Tarix fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2019.
9. Tursunov S., Qobilov E., Murtazoyev B. va boshq. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Sharq, 2004.
10. Алламуратов Ш.А. Паттакесар–Амударёнинг муҳим кечуви сифатида // Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари методлари ва методологиясининг долзарб масалалари. – 2021. – С. 514.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:096.374.117

SURXONDARYO VILOYATIDA KORONAVIRUS PANDEMIYASI OQIBATLARINI BARTARAF ETISH BILAN BOG‘LIQ ISHLAR

Xo‘janazarov Absalom Ziyadullayevich, Termiz davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

РАБОТА ПО ЛИКВИДАЦИИ ПОСЛЕДСТВИЙ ПАНДЕМИИ КОРОНАВИРУСА В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

Хужаназаров Абсалом Зиядуллаевич, старший преподаватель Термезского государственного педагогического института, доктор философии по истории (PhD)

WORK RELATED TO ELIMINATING THE CONSEQUENCES OF THE CORONAVIRUS PANDEMIC IN SURKHANDARYA REGION

Khujanazarov Absalam Ziyadullaevich, Senior Lecturer of the Termez State Pedagogical Institute, Doctor of Philosophy in History (PhD)

https://orcid.org/0009-0006-9711-5163
e-mail:
xujanazarov@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida koronavirus pandemiyasi sharoitida sog‘liqni saqlash xodimlarining fidoiyligi va pandemiya oqibatlarining bartaraf etilishi bilan bog‘liq harakatlar yoritilgan. Shuningdek, maqolada koronavirus pandemiyasi oqibatlarini bartaraf etish tibbiyot muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash borasida amalga oshirilgan ayrim chora-tadbirlar hamda o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlar tahlili ham o‘z ifodasini topgan.*

Kalit so‘zlar: *koranavirus COVID-19, tibbiy xizmat, karantin markazlar, dizenfeksiyalovchi vositalar.*

Abstract: *This article highlights the dedication of healthcare workers in the Surkhandarya region during the coronavirus pandemic and the actions taken to eliminate the consequences of the pandemic. The article also analyzes information on some measures and changes taken to strengthen the material and technical base of medical institutions to eliminate the consequences of the coronavirus pandemic.*

Key words: *coronavirus COVID-19, medical services, quarantine centers, disinfectants.*

Аннотация: *В статье рассказывается о самоотверженности работников здравоохранения Сурхандарьинской области в период пандемии коронавируса и усилиях по ликвидации последствий пандемии. В статье также представлен анализ данных о некоторых мерах и изменениях, принятых для укрепления материально-технической базы медицинских учреждений для ликвидации последствий пандемии коронавируса.*

Ключевые слова: *коронавирус COVID-19, медицинские услуги, карантинные центры, дезинфицирующие средства.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Yangi O‘zbekiston sharoitida inson qadri va salomatligi yo‘lida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar asosida tibbiyot tizimida ham ulkan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Aholining sog‘lig‘ini mustahkamlash,

davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada yaxshilash va tibbiyot xodimlarini moddiy hamda ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyatini tashkil etadi. Bundan tashqari aholining sanitariya-epidemiologik xotirjamligini ta'minlash, karantin, o'ta xavfli va boshqa yuqumli kasalliklarning chetdan kirib kelishi, ularning aholi o'rtasida tarqalib ketishining oldini olish o'ta muhim masala hisoblanadi. Ayniqsa, aholi salomatligini muhofaza qilish yuzasidan respublikada amalga oshirilgan tadbirlar xalqaro jamoatchilik tomonidan e'tirof etildi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). O'zbekistonda mustaqillik davrida sog'liqni saqlash tizimi tarixiga doir qator ilmiy maqolalar va boshqa ishlar nashr etildi. Mazkur soha tarixchi olimlar tomonidan ham tadqiq etilib, monografiya ko'rinishidagi ilmiy ishlar nashr etildi. So'nggi yillarida sog'liqni saqlash tizimini o'rganishga bag'ishlangan G.E.Mo'minova[1], N.F.Rasulov[2], S.A.Djumanov[3], O.R.Ochilova[5] va A.Xujanazarov[6] kabilarning ilmiy maqolalari, monografiyalari hamda dissertatsiya ishlari diqqatga sazovordir.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). O'zbekiston Respublikasiga (COVID-19) koronavirus infeksiyasining kirib kelishi hisobiga karantin e'lon qilinganligi va uning viloyatda tarqalishi oldini olish, bemorlarni davolash hamda alohidalash maqsadida viloyatda gospital, provizor, observatsiya va izolyator tizimini shakllantirish bo'yicha jami 37ta obyekt ajratildi va ularda jami 3124 o'rin tayyorlandi[6]. Surxondaryo viloyatiga 2020-yilning 10-aprel holatiga ko'ra chetdan kirib kelgan hamda muloqotda bo'lgan jami 34 ming 407 nafar fuqarolar kuzatuvga olingan, ulardan 24 ming 42 nafari jumladan 20 ming 835 nafari uy karantiniga olinganlar, 3 ming 207 nafari esa statsionar sharoitida kuzatuvga olinganlar 14 kunlik kuzatuvdan so'ng hisobdan chiqarilgan [6].

2020-yil iyun oyida 10365 nafar fuqarolar kuzatuvda bo'lib, ulardan 1806 nafar statsionar sharoitda 8559 nafari uy karantiniga olingan edi. Shu davrda viloyatda 74 nafar fuqarolardan kasallik aniqlangan bo'lib, shundan charter reysdagilar – 28 nafar, boshqa viloyat fuqarosi – 2 nafar (tranzit yuk tashuvchilar – Sirdaryo va Samarqand viloyatlari), mahalliy fuqarolar 14 nafar, (4 nafar IIB, 6 nafar tibbiyot xodimlari, 1 nafar oshxona ishchisi, 3 nafar tranzit yuk tashuvchilar) edi [7].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Viloyatda mazkur infeksiyaning tarqalishining oldini olish bo'yicha barcha epidemiologik tadbirlar amalga oshirilib, aholi o'rtasida keng sanitariya targ'ibot ishlari olib borildi. Gumon qilingan fuqaro bilan ish yuzasidan va ishdan tashqari holatda muloqotda bo'lganlardan 700 nafardan ortiq fuqarolar alohidalash maqsadida 245 nafari statsionar, jumladan "Surxon", "Ulug'bek" mehmonxonalarida hamda tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli yuqumli kasalliklar bo'limlarida va 448 nafari esa uy sharoitida kuzatuvga olindi.

Mazkur kasallikning tarqalishini oldini olish, kasallanganlarni davolash jarayonida ishtirok etgan tibbiyot xodimlarini ham ma'nan va ruhan rag'batlantirib borildi. Jumladan, 2020-yil avgust oyiga qadar kasallik bilan davolangan bemorlarga xizmat ko'rsatishda ishtirok etgan 3 ta guruhda jami 92 nafar tibbiyot xodimlariga 1,3 mlrd so'm mablag' to'lab berildi. Respublika Bosh vazirining topshirig'iga asosan, COVID-19 koronavirusning kirib kelishi va tarqalishining oldini olish maqsadida 4,1 mlrd so'mlik 61 turdagi dori vositalari, 996 mln so'mlik 10 dona sun'iy nafas berish moslamasi yuqumli kasalliklar bo'limlarga yetkazib berildi[8]. Epidemiologik osoyishtalikni ta'minlash hamda aholi salomatligini muhofaza qilish tadbirlari uchun vazirlik tizimidagi maxsus tibbiy ta'minot omborxonalarda saqlanayotgan zahiralardan davolash-profilaktika muassasalariga 245 turdagi tovar moddiy boyliklari, jumladan, 3 dona dizenfeksiyalovchi avtotransport, 3 dona rentgen diagnostika apparati, 14 dona elektrik ingalyatorlar keltirildi. Karantin davrida ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan aholi qatlami jami 809 dona reabilitatsiya texnik vositalari bilan ta'minlanib, 239 172 043,05 ming so'm mablag' sarflandi[9].

TAMADDUN NURI

Epidemiologik vaziyatni barqarorlashtirish maqsadida karantinga olinayotgan fuqarolarni joylashtirish uchun Termiz tumanidagi “Surxon” va “Xursandoy” sanatoriyalari, hamda Denov tumanidagi “Denov kardio shifo” klinikalari va “Sharq”, “Ulug‘bek”, “Fidan” kabi mehmonxona rahbarlari o‘z binolarini birinchilardan bo‘lib foydalanishga bo‘shatib berildi.

Respublikada pandemiya va tabiiy ofatlar tufayli iqtisodiy sohada qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da davlatimiz rahbari tomonidan aholi salomatligini muhofaza qilish, tibbiyot muassasalarning moddiy texnika bazasini mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi.

Jumladan, 2020-yilda Surxondaryo viloyat tibbiyot tizimida ham bir qancha ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Shu yili Investitsiya dasturi asosida sog‘liqni saqlashning 21 ta tibbiyot muassasalariga 55,7 mlrd so‘m mablag‘ ajartilib, joriy yilning shu kuniga qadar 14.4 mlrd so‘mlik qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirildi. Viloyat kardiologiya markazini zamonaviy, yuqori texnologiyali tibbiy apparaturalar bilan jihozlash bo‘yicha viloyat kardiologiya markaziga 7,1 mlrd so‘mlik 10 turdagi tibbiy asbob-uskunalar olib keltirildi. Natijada viloyatda Aritmologik kompleks tizimi yaratilib, yurakning murakkab aritmiyalarini xirurgik yo‘l bilan davolash yo‘lga qo‘yildi. Bu kompleks faoliyati Respublikada birinchi bo‘lib, Surxondaryo viloyatida joriy etildi. Shu bilan bir qatorda Respublikada birinchi marotaba tumanlarda bahosi 4,5 mlrd so‘mlik angiograf apparati va qiymati 1,5 mlrd so‘mlik 5 dona gemodializ apparati Denov tumanida ham o‘rnatildi[6].

Aholi salomatligining muhofaza qilish borasida olib borayotgan tinimsiz harakatlar natijasida sog‘liqni saqlash tizimining moddiy texnika bazasini mustahkamlash, shifoxonalarni zamonaviy yuqori texnologiyali tibbiy apparatura bilan ta’minlash bu borada O‘zbekistonda jahon andozalarga mos tibbiy apparaturalar ishlab chiqarishni tatbiq etish kabi misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar amalga oshirildi. Butun dunyoni qamrab olgan COVID-19 koronavirus pandemiyasining mamlakatda tarqalishining oldini olish va zararlangan bemorlarni sog‘lomlashtirish maqsadida davlatimiz tomonidan keng qamrovli ishlar olib borildi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa tariqasida qayd etish joizki, koronavirus pandemiyasi davrida viloyat sog‘liqni saqlash tizimi xodimlari ham aholining salomatligi yo‘lida fidoyilarcha faoliyat yuritib, aholining salomatligini saqlash borasida hatto ajal bilan olishib yuksak jasorat va insonparvarlik namunalarini ko‘rsatishdi. Pandemiya sharoitida 48 nafar oliy va o‘rta ma’lumotli tibbiyot xodimlari koronavirus kasalligidan vafot etishdi. Eng avvalo davlat rahbarining oqilona siyosati, hukumatning epidemiyaga qarshi kurash choralarini samarali tashkil etganligi hamda tibbiyot xodimlarining tinimsiz kasallik bilan kurashishi natijasida pandemiyaning oqibatlari ancha yumshatildi. Shuni g‘urur bilan qayd etish lozimki COVID-2019 sharoitida pandemiya oqibatlarini bartaraf etish borasida amalga oshirilgan O‘zbekiston tajribasiga jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti va dunyoning ko‘plab yetakchi davlatlari tomonidan yuksak baho berildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Мўминова Г.Э. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917–1991 йиллар). – Тошкент: Yangi nashr, 2015. –336 б; Медицина и здравоохранение Узбекистана: проблемы и последствия (1946–1990 гг.) (На примере южных областей Узбекистана).: Автореф. дис. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 2000; История системы здравоохранения в Узбекистане в советский период (1917-1991 гг.).: Автореф. дис. ... докт. ист. наук. – Ташкент, 2018.
2. Расулов Н.Ф. История развития педиатрии в Узбекистане.: Автореф. дис. ... канд. мед. наук. – Ташкент, 2006.
3. Джуманов С.А. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими асосий йўналишларининг ривожланиши тарихи (1991–2015 йй.).: Тарих фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Тошкент, 2019.
4. Очилова О.Р. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш соҳасини ривожлантиришда халқ

табобатининг ўрни.: Тарих фан. бўй. фалс. докт. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022.
5. Xujanazarov A.Z. O‘zbekistonda tibbiyot tizimi taraqqiyoti: natijalar va tahlillar (Surxondaryo viloyati misolida, 1991-2020 yy.). Tarix fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) … diss. – Termiz, 2023.
6. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 112-yig‘ma jild. 150-varaq.
7. Surxondaryo viloyat davlat arxivi. 77-fond, 5-ro‘yxat, 122-ish, 56, 91-varaq.
8. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 112-yig‘ma jild. 34-varaq.
9. Surxondaryo viloyati hisoblash markazi ma’lumoti. 2020-2021 yy. Termiz.
10. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Реформы в системе здоровья Узбекистана в последние годы //Наука, техника и образование. – 2021. – №. 1 (76). – С. 19-23.
11. Surxondaryo viloyat sog‘liqni saqlash boshqarmasi joriy arxivi. 115-yig‘ma jild. 32-35-varaq.
12. Хужаназаров А.З., Алламуратов Ш.А. Система здравоохранения в Узбекистане: проблемы и реформы //Бюллетень науки и практики. – 2021. – Т. 7. – №. 2.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:193.479.135

SHAXS BIOIJTIMOIY XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING DIALEKTIK JIHATLARI

Norliyev Rustam Ibragimovich, Termiz davlat pedagogika instituti "Falsafa va ma'naviyat asoslari" kafedrasi mudiri, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

DIALECTIC ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF BIOSOCIAL CHARACTERISTICS OF THE PERSON

Norliev Rustam Ibragimovich, Head of the Department of "Fundamentals of Philosophy and Spirituality" of the Termez State Pedagogical Institute, Candidate of Philosophy, Associate Professor

ДИАЛЕКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ БИОСОЦИАЛЬНЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ЛИЧНОСТИ

Норлиев Рустам Ибрагимович, заведующий кафедрой Философии и основ духовности Термезского государственного педагогического института, кандидат философских наук, доцент

https://orcid.org/0009-0007-6348-681X
e-mail: norliyevr@mail.ru

Annotatsiya: *Inson tabiatidagi biologik va ijtimoiy xususiyatlar barcha zamonlarda tadqiqotchilarni o'ziga jalb qilib kelgan. Hozir esa u falsafa va boshqa fanlarning diqqat markazida turgan asosiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada shaxsning ijtimoiy va biologik xususiyatlari, ularning o'zaro aloqadorligi va o'ziga xos jihatlari falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *inson, shaxs, odam, falsafiy antropologiya, biosotsial xususiyatlar, dialektika, globallashuv.*

Abstract: *Biological and social characteristics of human nature have always attracted the attention of researchers. Now this is one of the main issues in the center of attention of philosophy and other sciences. The article analyzes the social and biological characteristics of the individual, their interrelations and unique aspects from a philosophical point of view.*

Key words: *man, individual, personality, philosophical anthropology, biosocial characteristics, dialectics, globalization.*

Аннотация: *Биологические и социальные особенности человеческой природы во все времена привлекали внимание исследователей. Сейчас это один из главных вопросов, находящихся в центре внимания философии и других наук. В статье анализируются социальные и биологические характеристики личности, их взаимосвязи и уникальные аспекты с философской точки зрения.*

Ключевые слова: *человек, индивид, личность, философская антропология, биосоциальные характеристики, диалектика, глобализация.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Shaxsning biosotsial xususiyatlari insonning shaxsiyati va xulq-atvorini shakllantiradigan biologik va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'sirining natijasi hisoblanadi. Biosotsial yondashuv genetik moyillik va biologik jarayonlarning ijtimoiy muhit va madaniy amaliyotlar bilan qanday bog'lanishiga urg'u beradi. Biologik omillar (genetika, fiziologiya, asab tizimi) va ijtimoiy omillar (tarbiya, madaniyat, ta'lim,

ijtimoiy me'yorlar) doimiy ravishda bir-biriga ta'sir qiladi, bu shaxsning individual xususiyatlari, uning xatti-harakati va tafakkurida namoyon bo'ladi. Biologik xususiyatlar va jamiyatda hukmron bo'lgan ijtimoiy me'yorlar doimiy hamkorlikda shaxsning shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ma'lumki, odamlar biologik tur sifatida ma'lum instinktlarga va biologik ehtiyojlarga ega (masalan, oziq-ovqat, xavfsizlik, ko'payish), lekin ijtimoiy muhit bu ehtiyojlarning qanday amalga oshirilishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Masalan, instinktlar madaniy me'yorlar bilan bostirilishi yoki o'zgartirilishi mumkin. Insonning biosotsial xususiyatlari hayot davomida o'zgaradi. Bu jarayon dialektika qonunlari asosida rivojlanadi: har bir yangi avlod o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlarga moslashadi, bu esa biologik va ruhiy jihatlarga (masalan, intellekt, fiziologiya, hissiy sohaning rivojlanishi) ta'sir qiladi.

Biosotsial xususiyatlar turli darajalarda namoyon bo'ladi: masalan, ruhiy muammolar nafaqat ijtimoiy xususiyatga ega, balki biologik sabablarga ham ega bo'lishi mumkin. Demak, insonning biosotsial xususiyatlarining dialektikasi shuni ta'kidlaydiki, inson shunchaki biologik jarayonlarning natijasi emas, balki xulq-atvori va rivojlanishi doimo ushbu ikki sohaning o'zaro ta'siri bilan belgilanadigan ijtimoiy mavjudotdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Shaxs va uning ijtimoiy-biologik xususiyatlari masalasi ilohiy kitoblardan tortib, ko'p sonli tadqiqotchilar uchun asosiy bahs mavzusi bo'lib kelgan. Xususan, Qur'oni Karim insonni eng oliy va mukarram mavjudot sifatida ta'riflaydi. Inson haqida Qur'oni Karimda ko'plab oyatlar mavjud bo'lib, ular insonning yaratilishi, uning fazilatlari, vazifalari va oxiratdagi taqdiri haqida ma'lumot beradi. Xususan, Alloh taolo o'z Kitobida shunday deb marhamat qiladi:

"Darhaqiqat, Biz Odam bolalarini mukarram qildik..." (Isro surasi, 70-oyat) [1].

Antik davr yunon falsafasida, uning yetuk namoyandalaridan hisoblangan Suqrot, Platon, Aristotel kabi allomalar asarlarida shaxs va uning biosotsial xususiyatlari, axloqiy xislatlariga alohida ahamiyat qaratilgan. Musulmon allomalaridan biri, "Ikkinchi muallim", "Islom falsafasining otasi" kabi unvonlar bilan ulug'langan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida shaxs va uning fozil jamiyat barpo etishdagi asosiy vazifalariga alohida urg'u berilganligini ko'ramiz [4]. Abu Ali ibn Sino esa shaxsni asosan axloqiy fazilatlar bilan ziynatlangan mavjudot sifatida talqin qiladi [3].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Biosotsial jarayonlar inson va jamiyat taraqqiyotini belgilovchi biologik va ijtimoiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikdir. Ularga falsafiy nuqtayi nazardan dialektika, falsafiy antropologiya, etika va gnoseologiya prizmasi orqali qarash mumkin. Falsafa insonni ikki tomonlama mavjudot deb biladi.

Dialektik materializm (K.Marks, F.Engels) insonning biologik tabiati asos, lekin uning rivojlanishini ijtimoiy muhit belgilaydi, deb ta'kidlaydi. Ekzistensializm ta'limoti namoyandalari esa (J.P.Sartr, M.Xaydegger) biologik cheklovlarga qaramay, shaxs erkinligini ta'kidlaydi. Insonni uning biosotsial tabiatini hisobga olmasdan tushunish mumkin emas. Zamonaviy faylasuflar yondashuvning fanlararo xususiyatini tan olishadi. Biosotsial jarayonlarning falsafiy tahlili shuni ko'rsatadiki, inson nafaqat biologik mavjudot, balki ijtimoiy jihatdan shartlangan shaxs hamdir. Sivilizatsiya rivojlanishi bu munosabatlarni murakkablashtiradi, yangi axloqiy va ontologik yechimlarni talab qiladi [5].

"Biosotsial" atamasi ijtimoiy fanlarda keng qo'llaniladi. Garchi bu atama ilmiy adabiyotlarda ellik yillar oldin paydo bo'lgan bo'lsa-da, so'nggi o'n besh yil ichida bioijtimoiy tadqiqotlardagi yondashuvlar sifat jihatidan o'zgardi. Ilmiy adabiyotlarda biosotsial jarayonlar hayot davomida inson rivojlanishining asosi bo'lib xizmat qiluvchi biologik hodisalar va ijtimoiy munosabatlarning dinamik, ikki tomonlama o'zaro ta'sirini nazarda tutuvchi keng tushuncha sifatida ta'riflanadi. Ijtimoiy hodisalar murakkab va ko'p qirrali bo'lib, ularni tuzuvchi me'yorlar, institutlar va iyerarxiyalarni baham ko'radigan guruhlarda va ijtimoiy kontekstlarda (oila, mahalla, maktab) yashovchi shaxslar o'rtasidagi munosabatlar va o'zaro ta'sirlar orqali tasvirlanadi. Shunday qilib, biosotsial jarayonlar kelajak biologiya, tibbiyot, axloq va ijtimoiy fanlarning modellari hamda usullariga tayanadi. U biologik va ijtimoiy kuchlarni dialektik nuqtayi nazardan o'zaro aloqador kuchlar sifatida tasavvur qiladi va tana ichidagi va tananing tashqarisidagi hodisalar o'rtasidagi chegaralarni yo'q qiladi [5].

Bu antropologiya, psixologiya, epidemiologiya, sotsiologiya, iqtisod, sog‘liqni saqlash, genomika, tibbiyot va demografiya bo‘yicha tizimli ma’lumotlarga ega bo‘lgan olimlar tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llaniladigan inson rivojlanishi, xulq-atvori va sog‘lig‘ini tushunish uchun qo‘llaniladigan falsafiy yondashuvdir.

Shaxsning biosotsial xususiyatlarining rivojlanishi biologik va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga olgan murakkab, dialektik jarayondir. Dialektika falsafiy usul sifatida inson tabiatining rivojlanishiga turtki beruvchi qarama-qarshiliklar, o‘zgarishlar va o‘zaro ta’sirlarni o‘rganadi. Shaxsning biosotsial xususiyatlariga dialektik yondashuv ularning biologik va ijtimoiy o‘lchamlari o‘rtasidagi dinamik va o‘zaro bog‘liqlikni ta’kidlaydi [6].

Ijtimoiylashuv – bu hayotiy dialektik jarayon bo‘lib, unda biologik va ijtimoiy omillar dinamik ravishda o‘zaro ta’sir qiladi. Bu jarayon quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- boshlang‘ich ijtimoiylashuv (oila, erta bolalik tajribasi): asosiy shaxsiy xususiyatlar, til va axloqiy qadriyatlar shakllanadi;
- ikkilamchi ijtimoiylashuv (ta’lim, tengdoshlarning ta’siri, ommaviy-axborot vositalari): kognitiv qobiliyatlarni, kasbiy ko‘nikmalarni va ijtimoiy rollarni kengaytiradi[5];
- uchinchi ijtimoiylashuv (umr bo‘yi o‘rganish, yangi ijtimoiy rollarga moslashish): tajribalar, qiyinchiliklar va o‘zgarishlar orqali uzluksiz rivojlanishni aks ettiradi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Sotsializatsiyaning har bir bosqichi biologik moyillik va ijtimoiy ta’sirlarning sintezini ifodalaydi, bu esa inson rivojlanishining yuqori darajasiga olib keladi. Globallashuv shaxsning biosotsial xususiyatlariga kuchli ta’sir ko‘rsatadi, uning rivojlanishining biologik va ijtimoiy tomonlarini o‘zgartiradi. Bu jarayon jamiyatda insonning o‘ziga xosligi, moslashishi va o‘zaro ta’sirining yangi shakllariga olib keladi. Aynan globallashuv jarayoni shaxsning ijtimoiy va biologik xususiyatlariga ham ta’sir qilib, yangi muammolar va imkoniyatlar yaratadi. Global jarayonlar inson hayotining biologik asoslarini o‘zgartirishga olib keladi. Xususan, sintetik oziq-ovqat turlarining tarqalishi, ovqatlanish tartibidagi o‘zgarishlar, migratsiya va global munosabatlarning taraqqiyoti viruslar va kasalliklarning tez tarqalishiga olib keladi (masalan: COVID-19 pandemiyasi). Shu nuqtayi nazardan aytish mumkinki, insonning biologik tabiati tobora ko‘proq global tibbiy, texnologik va ekologik omillarga bog‘liq bo‘lib qolmoqda [6].

Globallashuv shaxs rivojlanishining ijtimoiy jihatlariga ham ta’sir qiladi. Xususan, madaniyatlarning gibridlanishi, multikulturalizmning yuksalishi, virtual aloqa, ijtimoiy tarmoqlar shaxsning ijtimoiylashuv usullarini o‘zgartirmoqda. Buning natijasida odamlar turli madaniy an’analarni o‘zida mujassam etgan gibrid o‘ziga xoslikka ega bo‘lgan “global fuqarolar”ga aylanib bormoqda [5].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa sifatida aytish mumkinki, globallashuv shaxsning biosotsial xususiyatlarini tubdan o‘zgartirib, yangidan-yangi falsafiy muammolarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. Kelajak odami – bu moddiy va virtual-raqamli makonda bir vaqtning o‘zida mavjud bo‘lgan gibrid mavjudot sifatida tasavvur qilina boshlandi. Inson biologik asoslar va global ijtimoiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi muvozanatni saqlab, ushbu o‘zgarishlarga qanchalik muvaffaqiyatli moslasha olishi esa asosiy muammoga aylanib bormoqda.

ADABIYOTLAR RO’YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Qur’oni Karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Tarjima va izohlar muallifi Abdulaziz Mansur. – Toshkent: Sano-standart, 2019.– 624 b.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston Strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2021. – 464 b.
3. Abu Ali ibn Sino. Tadbir ul-manzil. Muhammad Najmiy Zinjoniy tarjimasi. – Tehron: Eron Milliy kutubxonasi, 1902. – 111 b.
4. *Abu Nasr Forobiy: Fozil odamlar shahri*. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 206. – 320 b.
5. Engel George L. The Biopsychosocial Model and the Education of Health Professionals. Annals of the New York Academy of Sciences. 310 (June): 1978. – P. 169–87.
6. Грицанов А. А. Никомахова этика // История философии: Энциклопедия. — Минск: Интерпрессервис; Книжный дом, 2002. – 1376 с.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 130.31

MA'NAVIY MARGINALLASHUVNING FALSAFIY JIHATLARI

Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich, Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

THE PHILOSOPHICAL DIMENSIONS OF SPIRITUAL MARGINALIZATION

Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich, Doctoral student at Termez State University

ФИЛОСОФСКИЕ АСПЕКТЫ ДУХОВНОЙ МАРГИНАЛИЗАЦИИ

Шакамбаров Абдурашид Абдужаббарович, докторант (PhD) Термезского государственного университета

https://orcid.org/0009-0004-6414-1635
e-mail:
a.shogambarov@mail.ru

Annotatsiya: *Ushbu maqola ma'naviy marginalashuvning inson va jamiyatga ta'sirini ilmiy-falsafiy jihatdan o'rganishga bag'ishlangan. Ma'naviy marginallashuv shaxs yoki guruhlarning o'z ma'naviy qadriyatlaridan chetlanishi sifatida ta'riflanadi, bu esa ijtimoiy va psixologik muammolarni keltirib chiqaradi. Tadqiqot maqsadi mazkur jarayonning mohiyatini ochib berish va uning oldini olish bo'yicha amaliy yechimlar taklif qilishdan iborat.*

Kalit so'zlar: *ma'naviy marginallashuv, falsafiy tahlil, madaniy identifikatsiya, madaniy meros zaiflashishi, ijtimoiy zaiflik, jamoat tashabbuslari, ma'naviy ta'limni rivojlantirish.*

Abstract: *This article is devoted to the scientific and philosophical study of the impact of spiritual marginalization on individuals and society. Spiritual marginalization is defined as the process in which individuals or groups become alienated from their spiritual values, leading to various social and psychological problems. The purpose of the research is to reveal the essence of this process and propose practical solutions to prevent it.*

Key words: *spiritual marginalization, philosophical analysis, cultural identification, weakening of cultural heritage, social vulnerability, community initiatives, development of spiritual education.*

Аннотация: *Данная статья посвящена научно-философскому изучению влияния духовной маргинализации на личность и общество. Духовная маргинализация определяется как процесс, при котором индивиды или группы утрачивают связь со своими духовными ценностями, что приводит к различным социальным и психологическим проблемам. Цель исследования заключается в раскрытии сущности данного процесса и выработке практических решений по его предотвращению.*

Ключевые слова: *духовная маргинализация, философский анализ, культурная идентификация, ослабление культурного наследия, социальная уязвимость, общественные инициативы, развитие духовного образования.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Ma'naviy marginallashuv deganda odamlar yoki guruhlarning o'z ma'naviy e'tiqodlari yoki qadriyatlari asosida jamiyatdan chetlanishi, an'ana bo'lib kelayotgan qadriyatlarga hurmat-e'tibor ko'rsatilmasligi tushuniladi. Bu jarayon zamonaviy dunyoda globallashuv, texnologik rivojlanish va ijtimoiy o'zgarishlar fonida borgan sari dolzarb masalaga aylanmoqda. Ma'naviyat inson va jamiyat hayotining ajralmas qismidir, uning chetga surilishi butun bir jamiyat darajasida jiddiy talofatlarni keltirib chiqarishi mumkin[7].

Ma'naviy marginallashuvning dolzarbligi shundaki, u nafaqat shaxsiy ruhiy salomatlikka, balki

jamiyatning umumiy barqarorligi va madaniy o‘ziga xosligiga ta’sir qiladi. Ushbu maqola falsafiy tahlil orqali muammoning sabablarini va oqibatlarini ko‘rsatib berishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Bugungi globallashuv va axborot oqimlari davrida bunday hodisa yanada tezlashib, yoshlar orasida ijtimoiy tan olinmaslik qo‘rquvi, virtual dunyoga chekinish va o‘z qadriyatlarini himoya qilishdan voz kechish kabi jarayonlarga olib kelmoqda. Shu sababli, jamiyatdan uzoqlashish va ma’naviy marginallashuvni faqat shaxsiy muammo sifatida emas, balki umumjamiyat muammosi va madaniy xavfsizlik tahdidi sifatida ko‘rish lozim. E.Fromm fikricha, shaxsning o‘z ijtimoiy muhitidan begonalashuvi – bu modern jamiyatdagi asosiy muammolardan biridir[4]. P.Bourdieu esa ijtimoiy maydon va kapital nazariyasi orqali jamiyatdagi marginal guruhlarning harakatlanish mexanizmini tushuntirgan[1].

Asosan konseptual tahlil metodiga tayanib yozilgan ushbu tadqiqot ishida ilmiy-falsafiy uslubdan foydalanilgan. Ma’naviy marginallashuv hodisasi falsafiy sohada mavjud bo‘lgan turli nazariyalar, jumladan, ekzistensializm, axloq falsafasi va ijtimoiy tanqidiy nazariyalar nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqiladi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Falsafiy tahlil natijasida ma’naviy marginallashuvning quyidagi asosiy salbiy oqibatlari aniqlandi:

Jamiyatdan uzoqlashish. Ma’naviy qarashlari yoki xatti-harakatlari jamiyat tomonidan qabul qilinmagan insonlar ko‘pincha o‘zlarini yolg‘iz his qiladilar va ko‘pchilikning qo‘llab-quvvatlashdan chetda qoladilar. Bu holat ijtimoiy aloqalarning cheklanishiga va shaxsning jamiyatdan begonalashishiga olib keladi. Falsafiy nuqtayi nazardan, bu jarayon ajralish (alienatsiya) tushunchasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, E.Fromm, va P.Bourdieu kabi mutafakkirlar tomonidan tahlil qilingan. Ijtimoiy psixologiya nuqtayi nazaridan, jamiyat tomonidan qabul qilinmaslik yoki doimiy rad etish psixologik stress, o‘zini qadrlash darajasining pasayishi va identifikatsiya inqirozi kabi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, jamiyatdan uzoqlashish – bu shaxsning o‘zining asosiy ma’naviy tamoyillarini saqlab qolish uchun ijtimoiy moslashuvdan voz kechish jarayoni hamdir. Yaponiyada o‘zini jamiyatdan to‘liq yulqib olgan yoshlar – Hikikomori deb ataladi. Bu yoshlar jamiyatning haddan tashqari bosimi, ijtimoiy muvaffaqiyat me’yorlari va ruhiy zaiflik sababli o‘z xonalariga qamalib yashaydi[2].

Madaniy o‘ziga xoslikning yo‘qolishi. Ma’naviy marginallashuv an’anaviy qadriyatlar va madaniy merosning zaiflashishiga olib keladi. Bu jarayon milliy identifikatsiya rolining pasayishi va global madaniyatning universallashishi bilan yanada ortib boradi. Globalizatsiya sharoitida madaniy o‘ziga xoslikning yo‘qolishi tobora dolzarb muammoga aylanmoqda. Milliy va mahalliy madaniyatlar o‘ziga xos tarixiy tajriba, an’anaviy qadriyatlar va ma’naviy meros asosida shakllangan bo‘lib, ular orqali milliy o‘zlik anglanadi. Ammo, ommaviy madaniyatning bosimi, ommaviy axborot vositalarining biryoqlama ta’siri va G‘arb hayot tarzining ideal sifatida targ‘ib etilishi natijasida milliy madaniy qadriyatlar unutilib bormoqda. Turli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali global ommaviy madaniyatning cheksiz oqimi mahalliy madaniy qadriyatlarni siqib chiqarmoqda. Yoshlar ommaviy madaniyatni ilg‘or va zamonaviy deb qabul qilib, milliy madaniyatni ortda qolgan deb baholay boshlashdi. Ko‘pgina milliy madaniy meros unsurlari turistik tovar darajasiga tushib qolmoqda. Bu esa madaniy merosning ma’naviy va ijtimoiy qadriyat sifatidagi rolini emas, balki faqatgina tijorat obyekti sifatidagi rolini kuchaytiradi.

A.Giddens fikricha, globallashuv fonida an’ana bo‘lib kelgan milliy qadriyatlar tizimi inqirozga uchraydi va qadriyatlarni qayta qurish jarayoni boshlanadi[5]. Bunda milliy madaniy asoslar chetga surilib, universal madaniy standartlar asosiy o‘rinni egallaydi. Z.Bauman global jamiyatda shaxs o‘zligini saqlab qolish uchun doimiy tanlovlar qilishga majbur bo‘lishini ta’kidlab, bu jarayonni likvid identifikatsiya deb ataydi[2]. Bunday muhitda milliy va madaniy identifikatsiya o‘zining tayanch nuqtalarini yo‘qotib, o‘rniga shaxsiy manfaatlar va iste’mol madaniyati kuchayadi.

Ijtimoiy xafvning ortishi. Ma’naviy marginallashgan shaxslar ko‘pincha ekstremistik guruhlarga qo‘shilish yoki ekspluatatsiyaga uchrash kabi xavf-xatarlarga ko‘proq moyil bo‘ladi. Jamiyatda o‘zining madaniy va ma’naviy o‘zligidan ajralgan, e’tiqodiy va axloqiy bo‘shliqqa tushib qolgan shaxslar hayotda o‘z o‘rnini topa olmay, ko‘p hollarda ekstremistik guruhlar, jinoyatchilik

tizimlari, yoki turli ekspluatatsion tarmoqlarga kirib qolish xavfi ostida bo‘ladi. Bunday shaxslar o‘z-o‘zini anglash inqirozi va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash yo‘qligi sababli radikal mafkuralarni qabul qilishga moyil bo‘ladi. Bu jarayon individual muammo emas, balki butun jamiyat xavfsizligiga tahdid tug‘diruvchi tizimli hodisadir. Tadqiqotlarga ko‘ra, ISHID safiga qo‘shilgan ko‘plab yoshlar bu guruh mafkurasini emas, balki o‘z jamiyatida o‘zini chetda his qilgani sababli bu harakatni tanlagan. Ularning aksariyati etnik va diniy kam sonli guruhlar vakillari bo‘lib, yakkalanish va kamsitilish tajribasini boshidan kechirgan[1]. Ma’naviy marginallashgan shaxs o‘zini jamiyat tomonidan rad etilgan deb his qiladi. Bu esa “biz va ular” mexanizmini shakllantiradi. Natijada shaxs alternativ g‘oya va guruhga oson qo‘shiladi.

Fromm ta’kidlashicha**, erkinlik va o‘zlikni anglashda muammoga** duch kelgan shaxslar ko‘pincha o‘z-o‘zini anglash o‘rniga **mutlaq g‘oya** yoki **radikal mafkura**ga yopishib oladi. Bu ularning **yolg‘izlik hissidan qochish va o‘zligini qayta topish** uchun o‘ziga xos psixologik himoya mexanizmiga aylanadi [4].

E.Durkheim ijtimoiy tartib buzilganda va **an’anaviy qadriyatlar inqirozga uchraganda** shaxslarning **normativ bo‘shliq**da qolishini anomiya deb atagan. Bunday vaziyatda shaxs **yangi identifikatsiya manbasi**ni izlaydi, bu esa uni **radikal mafkuralar** yoki **ekstremistik guruhlar**ga yetaklashi mumkin[3].

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Ma’naviy marginallashuvning salbiy oqibatlari falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinganda, bu jarayon insonning o‘z-o‘zini anglashi va jamiyatdagi o‘rnini yo‘qotishi bilan chambarchas bog‘liqligini ko‘rishimiz mumkin. Ekzistensialist falsafa nuqtayi nazaridan, ma’naviy marginallashuv insonning hayotdan ma’no topish qobiliyatini yo‘qotishiga olib keladi, bu esa ruhiy inqiroz va bo‘shliqni keltirib chiqaradi. Masalan, Jan-Pol Sartrning fikricha, inson o‘z mavjudligini mustaqil ravishda belgilashi kerak, ammo ma’naviy marginallashuv bu jarayonni qiyinlashtiradi. Ijtimoiy nuqtayi nazardan, ma’naviy marginallashuv jamiyatdagi bo‘linish va nizolarni kuchaytiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Ma’naviy marginallashuv shaxsiy va ijtimoiy darajada jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi, jumladan, ijtimoiy izolyatsiya, ruhiy salomatlik muammolari, madaniy identifikatsiyaning yo‘qolishi va zaiflikning ortishi. Ushbu tadqiqot falsafiy tahlil orqali ushbu jarayonning chuqur ildizlari va ta’sirini ochib berdi. Ma’naviy qadriyatlarning saqlanishi va rivojlanishi jamiyatning barqarorligi va farovonligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, ushbu muammoni hal qilish uchun davlat, ta’lim muassasalari va jamoat tashkilotlari birgalikda harakat qilishi zarur. Ma’naviy marginallashuv bugungi kunda faqat falsafiy yoki madaniy masala emas, balki milliy xavfsizlik darajasidagi ijtimoiy tahdiddir. Agar bu jarayon nazoratsiz qoldirilsa, shaxsiy va jamiyat darajasidagi identifikatsiya inqirozi chuqurlashib, ijtimoiy birdamlik va milliy xotira zaiflashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, bu hodisaning falsafiy ildizlarini anglab yetish va unga qarshi samarali mexanizmlar ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Borum R. Radicalization into Violent Extremism I: A Review of Social Science Theories. *Journal of Strategic Security*, 4(4). 2011. – P. 7-36.
2. Bauman Z. Liquid Modernity. Polity Press. 2000.
3. Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. Free Press. 1897.
4. Fromm E. Escape from Freedom. Holt, Rinehart and Winston. 1941.
5. Giddens A. Modernity and Self-Identity: Self and Society in the Late Modern Age. Stanford University Press. 1991.
6. Nafasov, R. (2023). Ma’naviyat va globallashuv: qarama-qarshiliklar va uyg‘unlashuv. *Ma’naviyat va Ma’rifat Jurnali*, 3(65), 21-28.
7. Shakambarov, A. A. (2023). Ma’naviy marginallashuv yoshlar ma’naviyati shakllanishiga xavf soluvchi tahdid sifatida. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *3*(6), 418-422.
8. Xolbo‘taev, I. (2022). Ma’naviy qadriyatlar va globallashuv muammolari. Ma’naviyat va ma’rifat jurnali, 3(58), 45-51.
9. Шакамбаров, А.А. (2023). Исторические корни и значение духовной маргинализации. *International scientific journal of Biruni*, *2*(2), 133-137.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 193.479.144

EKOLOGIK XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BARQAROR RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Arolova Zarina Lochin qizi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti talabasi

TRENDS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT IN ENVIRONMENTAL SECURITY

Arolova Zarina Lochin qizi, Student of Shakhrisabz State Pedagogical Institute

ТЕНДЕНЦИИ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ В ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аролова Зарина Лочин кызы, студент Шахрисабзского государственного педагогического института

https://orcid.org/0009-0006-9839-6403
e-mail:
azamovasitora04@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ekologik xavfsizlikni rivojlantirish maqsadida o'simlik olami bioxilma-xilligini yaratish va hozirgi vaqtda tirik tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi va ozon qatlamining siyraklanishi sababi haqida aytib o'tilgan. Ekologik xavfsizlikni yaratish uchun yanada mukammal darajada, barqaror rivojlanish tendensiyalarini ishlab chiqish zarurati haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik xavfsizlik, ozon qatlami, atmosfera, fan-texnika inqilobi, BMT, kislotali yomg'ir, biosfera.*

Abstract: *This article discusses the creation of biodiversity of the plant world in order to develop ecological security, the problem of the current reduction in the number of plant and animal species in living nature and the cause of the depletion of the ozone layer. The article discusses the need to develop more advanced, sustainable development trends to create ecological security.*

Keywords: *ecological security, ozone layer, atmosphere, scientific and technological revolution, UNO, acid rain, biosphere.*

Аннотация: *В статье рассматриваются вопросы создания биоразнообразия в растительном мире в целях обеспечения экологической безопасности, современная проблема сокращения численности видов растений и животных в живой природе, а также причины истощения озонового слоя. Обсуждалась необходимость разработки более устойчивых тенденций развития для создания экологической безопасности.*

Ключевые слова: *экологическая безопасность, озоновый слой, атмосфера, научно-техническая революция, ООН, кислотные дожди, биосфера.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda sayyoramizda ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularning kamayib ketishining oldini olish jahon hamjamiyati oldida turgan dolzarb masalalardan biri ekanligi alohida ta'kidlanmoqda. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqida dunyo e'tiborini Orol dengizining ekologik fojiasiga qaratdi. Uning qurishi oqibatlarini bartaraf etish xalqaro miqyosdagi sa'y-harakatlarni faollashtirishni talab qiladi[1].

XX asr o'rtalarida yuzaga kelgan va yangi ming yillikda yanada jadallashgan ekologik globallashuv jarayonlari "inson-tabiat" munosabatlari xarakteriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Insoniyat tabiiy muhitga avvalgi tarixiy davrlardagi kabi lokal emas, global miqyosda ta'sir ko'rsata

boshladi, buning oqibatida sayyora ekotizimi umumsayyoraviy miqyosda o‘zgaradigan obyektiv reallikka aylandi. Inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarning keskinlashishi ekologik globallashuvning avj olishiga sharoit yaratib berdi[2]. Shu bois ekologik xavfsizlik tizimini yaratish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Ekologik xavfsizlikka ta’rif berishda ko‘pchilik uni tabiatni muhofaza qilish deb tushunadi. Vaholanki, ekologik xavfsizlikning obyekti ancha keng bo‘lib, u tabiiy xavf-xatar natijasida inson, jamiyat va davlatning ekologik manfaatlariga jiddiy zarar yetishi bilan izohlanadi. Shundan kelib chiqib, ekologik xavfsizlik deganda inson, jamiyat va davlatning ekologik manfaatlari, tabiiy atrof-muhitning buzilishi natijasida yetkazilgan va yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararning oldini olish va uni bartaraf qilish tushuniladi. Hozirgi vaqtda ekologik xavf-xatar iqlim o‘zgarishi, havo haroratining ko‘tarilishi, bioxilma-xillikning kamayishi, yer maydonlarining degradatsiyaga uchrashi, atrof-muhitning ifloslanishi, suv resurslarining taqchilligi hamda sifatining yomonlashuvi, cho‘llarning kengayishi, aholining ko‘payishi natijasida tabiiy zahiralardan yanada ko‘proq foydalanish, texnika va sanoat korxonalarining rivojlanishida namoyon bo‘lmoqda. Yer yuzidagi hayotni ta’minlashda o‘simliklar dunyosi, ayniqsa, o‘rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Aholi sonining ortishi, xo‘jalik faoliyatinining kengayishi tufayli tabiatda inson qo‘li yetmagan joy qolmayapti.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). S.M.Turabdjanov, M.M.Aripova, L.S.Raximova kabi tadqiqotchilarning “Ijtimoiy ekologiya” kitobida [3] ekologik xavfsizlikni yaratish, tobora globallashib borayotgan ekologik muammolarning ildizini aniqlash kerakligi ta’kidlab o‘tilgan. Ushbu ekologik xavfsizlik barqaror rivojlanish strategiyalarining muhim masalalari sifatida ko‘riladi. O‘zbekiston Respublikasida ham ekologik xavfsizlik bo‘yicha muhim qonunlar ishlab chiqildi. Unga ko‘ra har bir hududda suv, elektr, gaz kabi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish maqsadida yangi tizim joriy etildi. Ekologik xavfsizlik barqaror taraqqiyotning asosiy omilidir. Ekologik xavfsizlikni ta’minlash maqsadida dunyo hamjamiyati tomonidan Barqaror rivojlanish konsepsiyasi ishlab chiqilib, unda atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish asosiy masalalar sifatida e’tirof etilmoqda. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-fevraldagi 95-son qaroriga muvofiq “Ekologik xavfsizlik to‘g‘risidagi umumiy texnika reglamenti” qabul qilindi [4]. Mazkur umumiy texnik reglament mahsulotni ishlab chiqarish, saqlash, tashish va utilizatsiya qilish jarayonlarida ekologik xavfsizlikni ta’minlashda majburiy talablarni belgilaydi.

Mazkur maqolada mavzuning mohiyatini yoritishda, zamonamizning ekologik muammolari shiddat bilan ko‘payib borayotganiligi uchun uni insonlar ongiga tez yetib borishi maqsadida, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi uslublardan foydalanilgan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Insoniyat yaralgandan boshlab tabiat bilan hamkorlikda yashab kelmoqda. Shu boisdan hozirda atmosfera havosini muhofaza qilish bo‘yicha ekologik xavfsizlik talablari qo‘yilmoqda.

Asosan ekologik barqaror rivojlanish maqsadi bu – ekologik muhofazadir.

“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, atrof-muhit muammolarini bartaraf etish, iqlim o‘zgarishi salbiy ta’sirining oldini olish kabi maqsadlarga alohida e’tibor qaratilgan. Yurtimizda 2021-yildan hozirga qadar “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida jami 725 million tup mevali va manzarali daraxt ekildi. 588 gektar “yashil bog‘”, 662 gektar “yashil jamoat parki”, Buxoro, Nukus, Xiva va Urganch shaharlari atrofida jami 40 kilometr masofada “yashil belbog‘” barpo etildi [2].

Oqilona iste’mol g‘oyasi XX asrning oxirlarida va XXI asrning boshlarida ijtimoiy va ekologik harakatlar orqali paydo bo‘lgan. Oqilona iste’mol – bu resurslarni samarali va mas’uliyatli ravishda ishlatishni ta’minlaydigan, odamlarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan iste’mol usulidir. Oqilona iste’mol, ayniqsa, global isish va atrof-muhit muammolariga e’tibor qaratgan holda, jamoatchilik va davlatlar o‘rtasida muhim mavzuga aylandi. 2012-yili Rio-de-Janeyroda BMTning barqaror taraqqiyot bo‘yicha “Rio+20” nomini olgan Konferensiyasi bo‘lib o‘tdi. Sammit ochilishida so‘zga chiqar ekan, BMTning Bosh kotibi Pan Gi Mun insoniyat yangi davrga qadam qo‘yayotganligini qayd etdi. U 2040-yilga borib Yer sharining aholisi 9 mlrd ga ko‘payishini hisobga olib,

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eski modeli o‘z ahamiyatini yo‘qotganligini ta’kidladi. Ma’ruzada 2030-yilga kelib dunyo aholisining oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyoji 50%, elektr quvvatiga 45%, suv zahiralariga esa 30% o‘sishi ta’kidlandi. Buni amalga oshirish uchun esa zudlik bilan “yashil iqtisodiyot”ni joriy etish zarur, deydi Pan Gi Mun [3]. Bugungi kunda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich AQSH, Janubiy Koreya, Germaniya, Shvetsiya, Daniya, Gollandiya va boshqa rivojlangan mamlakatlar o‘tmoqda.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Yer yuzida tinchlik va hamkorlikni mustahkamlash, barqaror taraqqiyotni ta’minlash borasida samarali faoliyat olib borishda Birlashgan Millatlar Tashkilotining roli kattadir. Dunyo davlatlarini o‘zaro muloqot, hamkorlik va ham-jihatlikka chorlash, ularning kuch va imkoniyatlarini yaratuvchanlik yo‘lida birlashtirish, ya’ni eng dol-zarb masalalarni hamjihat hal qilish ushbu tashkilot tomonidan 2015-yilga qadar qabul qilingan Mingyil-lik rivojlanish maqsadlarida, 2016-yilda esa barqaror rivojlanish maqsadlarida o‘z ifodasini topdi. Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish 2016-yilning 1-yanvaridan boshlanib, 2030-yilning 1-dekabrida yakunlanishi lozim [5].

Bugungi kunga kelib mamlakatimizda ham tabiatni muhofaza qilishga oid qonunchilikni amalga oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan, maqsadli davlat dasturlari, milliy harakat rejalari hayotga tatbiq etilmoqda. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim qismi bo‘lgan ushbu xayrli ishlarda jamoat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqda. Amalga oshirilayotgan bunday keng ko‘lamli va izchil chora-tadbirlar natijasida mamlakatimizda istiqlol yillarida atmosferaga zararli moddalarni chiqarish 2 barobar, ifloslangan oqova suvlarni oqizish 2,2 barobar kamaytirildi. So‘nggi bir necha yilda qishloq xo‘jaligida pestitsidlardan foydalanish 5 barobar qisqartirildi, sanoat korxonalarida ekologik xavfsiz texnologiyalar keng joriy etilmoqda, ishlab chiqarish chiqindilari chuqur qayta ishlanib, tozalash qurilmalari modernizatsiya qilinmoqda[2]. Bu esa nafaqat ekologik, balki katta iqtisodiy samaralar berayotgan bo‘lsa-da, aholining ekologik madaniyatini oshirish hamda tabiatni asrab-avaylash ularning eng oliy burchi ekanligini uqtirish lozim. Ijtimoiy ekologik muammolarni hal etish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarbdir. Bunda savolnoma tuzish yoki test so‘rovlarini o‘tkazish yaxshi samara beradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida aytish lozimki, ekologik xavfsizlikni, barqaror rivojlanishni ta’minlashda ekologik qonunchilikni takomillashtirish choralari sifatida tabiat obyektlarini muhofaza qiladigan qonunlarni umumlashtirish, tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq munosabatlarni esa tabiiy resurslardan foydalanish huquqining alohida sohalari: yer, suv, kon, o‘simlik va hayvonlarni muhofaza qilishga oid qonunlar bilan tartibga solish maqsadga muvofiqdir. Fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqi yashash huquqi kabi tabiiy huquqlar sirasiga kiradi. Shu bois fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlash borasida tadbirlar amalga oshirish lozim. Ushbu tadbirlarning amalga oshirilishi bizni o‘rab turgan tabiiy muhitni muhofaza qilishga, fuqarolarning qulay atrof-muhitga ega bo‘lish huquqini ta’minlashga, umuman olganda, hozirgi va kelajak avlod uchun ona tabiatni asrashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2022. – 440 b.
2. Azamova.S.A. Ekologik globallashuv sharoitida O‘zbekiston umumta’lim maktablari o‘quvchilarida ekologik madaniyatni shakllantirish zaruriyati. Fals.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. – Buxoro: BuxDu, 2024.
3. Turabdjanov S.M., Aripova M.M., Raximova L.S. – Ijtimoiy ekologiya. – Toshkent: Book Trade, 2022. – 284 b.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 18.02.2020-yildagi 95-sonli Ekologik xavfsizlik to‘g‘risida umumiy texnik reglamenti to‘g‘risidagi qarori.
5. Ayonovna, Azamova Sitora. “The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization”. *Global Scientific Review* 13 (2023): 7-10.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:101.9

GLOBALLASHUV SHAROITIDA EKOLOGIK ONGNING TRANSFORMATSIYASI VA JAMIYATDAGI ROLI

Safarov Akbar Isakulovich, Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti dotsenti

ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО СОЗНАНИЯ И ЕГО РОЛЬ В ОБЩЕСТВЕ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

Сафаров Акбар Исакулович, доцент Самаркандского государственного архитектурно-строительного университета

TRANSFORMATION OF ECOLOGICAL AWARENESS AND ITS ROLE IN SOCIETY IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

Safarov Akbar Isakulovich, Associate Professor, Samarkand State University of Architecture and Civil Engineering

https://orcid.org/0009-0004-9158-5181

e-mail: safarov_akbar@mail.ru

Annotasiya: *Maqolada "Ekologik ong" tushunchasi turli ilmiy va falsafiy nuqtayi nazarlardan tahlil qilingan. Unga ko'ra, ekologik ong – bu insonning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini anglash, baholash va unga ta'sir ko'rsatishdagi ichki qobiliyatidir. Tushuncha ichida, ekologik ongning shakllanishiga ta'sir qiluvchi turli yondashuvlar va uni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan omillar ko'rib chiqilgan. Shuningdek, maqolada jamiyatning ekologik ongini shakllantirishning asosiy maqsad va vazifalari, uning ijtimoiy-psixologik jihatlari, jamiyat a'zolarining ongini o'zgartirish uchun kerakli shart-sharoitlar batafsil tahlil qilingan. Ekologik ongni shakllantirishda ijtimoiy va psixologik omillar, ularning har biri uchun muhim sharoitlar, shuningdek, bu jarayonning jamiyatdagi umumiy taraqqiyotga bo'lgan ta'siri yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *ekologik ong, ekologik ong funksiyalari, globallashuvjarayonlari, "inson – tabiat – jamiyat" tizimi, antropotsentrik, biosentrik, ekosentrik.*

Abstract: *The article analyzes the concept of "Ecological consciousness" from various scientific and philosophical points of view. According to it, ecological consciousness is the internal ability of a person to understand, evaluate and influence his attitude to the environment. Within the concept, various approaches affecting the formation of ecological consciousness and the factors necessary for its development are considered. The article also analyzes in detail the main goals and objectives of the formation of ecological consciousness of society, its socio-psychological aspects, the necessary conditions for changing the consciousness of members of society. The social and psychological factors in the formation of ecological consciousness, the important conditions for each of them, as well as the impact of this process on the overall development of society are highlighted.*

Key words: *ecological consciousness, functions of ecological consciousness, globalization processes, "man – nature – society" system, anthropocentric, biocentric, ecocentric.*

Аннотация: *В статье анализируется понятие "Экологическое сознание" с различных научных и философских точек зрения. По его словам, экологическое сознание — это внутренняя способность*

"Педагогик атамалар луғати"да ушбу тушунчаларига қўйидагича таърифлар келтирилади: "Таълим – ўқувчи ва талабаларга билим бериш, уларни тарбиялаш, ривожлантириш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш жараёни, ёшларни ҳаётга ва меҳнатга тайёрлашнинг асосий воситаси[2;70-б.]". "Ўқитиш – ўқувчи ёки талабаларнинг ўқув, билув жараёнига раҳбарлик қилиш, уларга билим бериш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш[2;90-б]".

Демак, ўқитиш – бу маълум бир мақсадга йўналтирилган ўзаро таъсир жараёни бўлса, таълим ўқитиш жараёнининг умумий натижаси ҳисобланади.

Маълумки, масофавий таълим ва масофавий ўқитиш атамаларининг мазмуни ва моҳиятига оид турли хил фикр-мулоҳаза ва таърифлар мавжуд. Энг аввало, ушбу тушунчаларни педагогик илмий-оммабоп луғатлар орқали кўриб чиқиш заруриятини келтириб чиқарди.

"Педагогик энциклопедия"да бу тушунчаларга қўйидагича таърифлар берилган: "Масофавий таълим – ахборот коммуникация техникаси воситасида амалга ошириладиган педагогик жараён" [3;256-б]. "Масофавий ўқитиш – ўқув машғулотларининг барчаси ёки кўп қисми телекоммуникацион ва замонавий ахборотлаштириш техникаси асосида олиб бориладиган масофадан туриб ўқитиш жараёнини ифодаловчи тушунча" [3;256–257-б]. Келтирилган таърифлардан англанадики, биринчидан, МТ – бу ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш орқали амалга ошириладиган педагогик фаолият. Иккинчидан, МЎ – бу ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш асосида ўқув машғулотларини масофадан туриб ўқитишга йўналтирилган таълим жараёни ҳисобланади.

Ж.Ҳасанбоев, Х.Тўрақулов, М.Ҳайдаров, О.Ҳасанбоевалар ҳаммуаллифлигида яратилган "Педагогика фанидан изоҳли луғат"да ушбу тушунчаларига қўйидагича таърифлар берилган: "Масофавий таълим – услубларга асосланган ҳолда аҳолининг кенг қатламларига тақдим этилувчи замонавий таълим хизматлари мажмуаси"[4;185-б]. "Масофавий ўқитиш – ўқитувчи ва ўқувчи ўртасидаги тўғридан-тўғри, шахсий алоқасиз "масофадан ўқитиш" имконини яратиб берувчи замонавий ахборот ва телекоммуникацион технологияларидан фойдаланишга асосланган ўқитиш жараёнини амалга оширишнинг янги услуби"[4;186–187-б.]". Юқорида берилган таърифлардан англаш мумкинки, МТ – бу ҳар кимнинг таълим олиши учун тенг имкониятларини таъминлайдиган янги таълим хизматлар мажмуаси бўлса, МЎ – эса ўқув жараёни иштирокчиларининг маълум вақт орасида ўзаро тўғри ва тескари алоқа режимисиз ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш орқали ўқув контентини ўзлаштиришга мўлжалланган янги ўқув фаолияти ҳисобланади.

Шунингдек, мазкур атамаларининг мазмуни ва моҳияти бўйича бир қатор олимлар томонидан олиб борилган илмий тадқиқот ишларида юқорида ҳам қайд этилган тушунчаларни илмий-назарий ва методологик тарафлама тадқиқ этишга йўналтирилгандир.

Жумладан, Академик С.С.Гулямов ва бошқалар ҳаммуаллифлигида яратилган "Дистанционное экономическое образование" номли монографияда ушбу тушунчаларига

қўйидагича таърифлар қайд этилган: “Масофавий таълим – бу замонавий информацион ва телекоммуникация технологияларидан фойдаланган ҳолда масофавий ўқитиш жараёни амалга оширилади ва таълим даражасини (таълим цензини) тасдиқлайдиган педагогик тизим”[5;15-б]. “Масофавий ўқитиш (МЎ) – бу ўқитувчи ва талабаларнинг ўзаро ва ўқитиш воситалари билан, уларнинг макондаги жойлашувига нисбатан инвариант ва вақт бўйича мувофиқлаштирилган интерактив (диалогли), асинхрон ёки синхрон ўзаро таъсирининг мақсадга йўналтирилган жараёни”[5;15-б]. Ушбу келтирилган таърифлардан англаш мумкинки, МТ – бу янги ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш орқали масофадан туриб ўқитишга мўлжалланган педагогик тизим. МЎ – эса таълим берувчи ва олувчиларнинг маълум бир вақт орасида ўзаро интерактив мулоқотда бўлишига, асинхрон ва синхрон ҳамкорлик орқали маълум бир мақсад учун йўналтирилган таълим жараёнидир.

А.А.Абдуқодиров, А.Х.Пардаевлар томонидан яратилган “Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти” номли монографияда масофавий таълим тушунчасини қуйидагича таърифлайди: **“**Масофали таълим – масофали ўқитиш усул ва воситалари орқали таълим олиш шакли”[6;121-б]. “Масофали таълим (distant education) – ахборот технологиясидан фойдаланган ҳолда, масофадан туриб, ўқув ахборотларининг алмашувини таъминлайдиган, ўқув жараёнини олиб бориш ҳамда бошқариш тизимини амалга оширадиган билим ва кўникмаларни эгаллаш жараёнидир”[6;46-б]. Дарҳақиқат, масофавий таълим – бу масофавий ўқитиш технологияларини қўллаш орқали таълим олиш шакли бўлиб, у ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш асосида ўқув контентини масофадан туриб ўзлаштиришга асосланган ўқув жараёнидир.

Шунингдек, юқорида ҳам номи қайд этилган, монография муаллифлари томонидан масофавий ўқитиш тушунчасига қуйидагича таърифлар келтирилади: **“**Масофали ўқитиш – ўқитувчи билан ўқувчининг маълум бир масофада жойлашган ҳолда таълим бериш ва таълим олиш тизимидир”[6;2-б]. **“**Масофали ўқитиш – ахборот-коммуникация технология воситалари ва илмий асосланган ўқитиш усулларини қўллаб, таълим олиш шаклидир”[6;46-б]. Албатта, масофавий ўқитиш – бу ўқув жараёни иштирокчиларининг турар жойидан қатъи назар, ахборот-коммуникация технологияларини қўллаш орқали таълим олиш шакли ҳисобланади.

О.Д.Раҳимов, З.Э.Чоршанбиев, А.Х.Раҳимовлар ҳаммуаллифлигида яратилган “Ўзбекистон олий таълим тизимида масофавий таълимни ташкил этиш” номли монографияда ушбу тушунчаларга қуйидагича таърифлар келтирилади: “Масофавий таълим – энг яхши анъанавий ва инновацион услублар, ўқитиш воситалари ва шаклларини ўз ичига олган ахборот ва телекоммуникация технологияларига асосланган таълим шаклидир”[7;16-б]. “Масофавий ўқитиш – бу янги ахборот технологиялари, телекоммуникация технологиялари ва техник воситаларига асосланган таълим тизимидир” [7;16-б]. Мазкур таърифлардан англаш мумкинки, МТ – энг қулай ва самарали анъанавий ва ноанъанавий усул ва ўқитиш технологияларини қўллаш орқали амалга оширилади таълим олиш шакли. МЎ – замонавий ахборот-коммуникация инфратузилмаси имкониятларидан самарали фойдаланишга асосланган таълим тизимидир.

МУҲОКАМА ВА НАТИЖАЛАР. Масофавий таълим ва масофавий ўқитиш атамаларининг мазмуни ва моҳияти бўйича келтирилган турли хил таърифларнинг умумий мазмуни бу ўқув методик материалларни тақдим этиш ва ўқув машғулотларини масофадан туриб ўзлаштириш учун замонавий ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланиш имкониятини таъминлайдиган ахборот-коммуникация инфратузилмаси зарурлиги кўрсатилган.

Юқорида ҳам қайд этилган, турли хил таърифларнинг мазмуни ва моҳиятини таҳлил қилиш орқали қуйидаги фикр ва мулоҳазаларни келтириш мумкин:

1. Масофавий таълим ва масофавий ўқитиш тушунчалари ўзаро чамбарчас боғлиқ ва ўзаро мустақил.

2. Масофавий ўқитиш – бу фаолият жараёни, масофавий таълим – эса фаолият натижасидир.

3. Масофавий таълим – масофавий ўқитиш орқали маълум бир мақсад учун йўналтирилган таълим олиш шакли.

4. Масофавий таълим – масофавий ўқитиш мажмуаси ҳисобланади.

ХУЛОСА. Мазкур атамаларнинг мазмуни ва моҳиятига оид турли хил таърифлар ва фикр-мулоҳазаларни таҳлил қилиш орқали ушбу тушунчаларни қуйидагича талқин қилиш мумкин: масофавий таълим – бу таълим шакли, масофавий ўқитиш – фаолият тури ҳисобланди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati: 80 000 dan ortiq so‘z va so‘z birikmasi. Uchinchi jild. L-P / Mas’ul muharrirlar A.Madvaliyev, D.Xudoyberganova. – Toshkent.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbba ijodiy uyi, 2023. – 844 bet.
2. Джураев Р.Х., Толипов Ў.Қ., Сафарова Р.Ғ., Тўрақулов Х.О., Иноятова М.Э., Диванова М.С. Педагогик атамалар луғати. – Тошкент, Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Фан нашриёти, 2008. – 136 б.
3. Педагогика: энциклопедия / тузувчилар: жамоа. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2015, 376 бет.
4. Ҳасанбоев Ж., Тўрақулов Х., Ҳайдаров М., Ҳасанбоева О. Педагогика фанидан изоҳли луғат. Тошкент, Fan va texnologiya, 2008, 480 бет.
5. Гулямов С.С, Романов А.Н., Алимов Р.Х., Торопцов В.С., Ходиев Б.Ю., Алимов К.А., Бегалов Б.А., Григорович Д.Б. Дистанционное экономическое образование. – Тошкент: Шарқ, 2004. – 432 б.
6. Абдуқодиров А.А, Пардаев А.Х. Масофали ўқитиш назарияси ва амалиёти. Монография. – Тошкент: Фан, 2009. – 145 б.
7. Раҳимов О.Д., Чоршанбиев З.Э., Раҳимов А.Х. Ўзбекистон Олий таълим тизимида масофавий таълимни ташкил этиш. Монография. – Қарши: Intellekt nashriyoti, 2021. – 112 б.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:37.016:78

BAKALAVRIAT TA'LIM YO'NALISHIDA MUSIQA O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH FUNKSIYALARI

Sabirdjanova Dilnozaxon Zafar qizi, Xalqaro Nordik universiteti tayanch doktoranti

FUNCTIONS OF IMPROVING MUSIC TEACHING METHODOLOGY IN UNDERGRADUATE EDUCATION

Sabirdzhanova Dilnoza Zafar qizi, a doctoral student at the International Nordic University

ФУНКЦИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ МУЗЫКИ В БАКАЛАВРИАТЕ

Сабирджанова Дилнозахон Зафар кызы, докторант Международного университета Нордик



https://orcid.org/0009-0008-3406-3065
e-mail: dinasabirdjanova@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa ta'limi bakalavriyat ta'lim yo'nalisida musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishda qo'llaniladigan metodik ta'minot funksiyalari tahlili muhokama etilgan. Bundan tashqari nazariy bilimlar asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishida musiqiy-nazariy fanlarning shakl va metodlarini yangi innovatsion texnologiyalar orqali amaliyotga joriy qilish masalalari ko'rib chiqilgan.*

Tayanch so'zlar: *musiqa, ta'lim, tarbiya, faoliyat, kasbiy faoliyat, metodik tayyorgarlik, funksiya, metodika, uslub.*

Abstract: *This article discusses the analysis of the functions of methodological support used in teaching music-theoretical subjects in the undergraduate music education program. In addition, the issues of implementing the forms and methods of music-theoretical subjects in the undergraduate music education program through new innovative technologies based on theoretical knowledge are considered.*

Key words: *music, education, upbringing, activity, professional activity, methodological preparation, function, methodology, style.*

Аннотация: *В статье рассматривается анализ функций методической поддержки, используемых при преподавании предметов теории музыки в программе бакалавриата по музыкальному образованию. Кроме того, были рассмотрены вопросы внедрения форм и методов музыкально-теоретических дисциплин в практику посредством новых инновационных технологий в образовательную программу бакалавриата на основе теоретических знаний.*

Ключевые слова: *музыка, образование, воспитание, деятельность, профессиональная деятельность, методическая подготовка, функция, методика, стиль.*

KIRISH. Ilmiy tadqiqotimizning maqsadi va mazmuni, birinchi navbatda, ijtimoiy buyurtma sifatida, pedagogik nazariya va uning amaliyot ehtiyojlari bilan belgilanib va ularning o'ziga xos ifoda shakli bo'lib xizmat qiladi. Bakalavriat ta'lim bosqichining musiqa ta'limi yo'nalishida musiqa o'qitishda metodik tayyorgarlikning maqsadli uslubi – bo'lajak musiqa o'qituvchisining metodik madaniyati va uning asoslari, amaliy hamda kasbiy malakalari hisoblanib, bakalavriat ta'limi yo'nalishi bazasida o'qitilayotgan musiqiy-nazariy fanlarni o'qitishning usul, metod va shakl vositalarini

o‘rgatishning yangicha innovatsion texnolgiyalaridan keng foydalanishdan iboratdir. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalarning jamiyat hayotida kirib kelishi bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy rivojlanishi, kasbiy tayyorgarligini muntazam oshirib borishi, zamon, jamiyat talabi bilan hamnafas holda o‘z faoliyatini olib borishi uchun maqbul bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratib, ularda kasbga yo‘naltirilgan tanqidiy-uslubiy fikrlash darajasini takomillashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan zamonaviy oliy musiqa pedagogikasi ta’limning eng muhim funksiyalarini o‘zida aks ettiradi.

Musiqa pedagogikasi oliy ta’limning yaxlit tuzilishi va unda o‘qitilayotgan ta’lim dasturlarini o‘zlashtirish jarayonida metodik tayyorgarlik eng muhim tarkibiy qismlardan biri bo‘lib, ular bir qator o‘ziga xos funksiyalarni bajaradigan dinamik tizimdan iboratdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Musiqa ta’limida tahsil oluvchi bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining ijodiy- kasbiy va metodik tafakkurini rivojlantirish – tadqiqot ishimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri sanaladi. Mahalliy olimlardan Q.Panjiyevning ilmiy tadqiqotlarida “Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda metodik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi, bo‘lajak o‘qituvchi o‘zida mavjud samarali musiqiy g‘oyalarni ilgari surish orqali o‘zining ilmiy-nazariy va metodik strategiyasini ilgari surishi hamda ilmiy-nazariy usullar sintezini rag‘batlantirish orqali kuchli evristik qobiliyatini takomillashtirishi lozim”, deydi.

Oliy ta’lim tizimidagi pedagogika sohasida yetishib chiqayotgan musiqa o‘qituvchilarining musiqiy, kasbiy-uslubiy madaniyatini takomillashtirishning bir qator vazifalari va shartlarini olib borayotgan tadqiqot jarayonida aniqlashga harakat qildik. To‘g‘ri, bu kabi holatlar MDH olimlari tomonidan bir qator o‘rganilgan. Shunday bo‘lsa-da, V.A.Slastenin tomonidan musiqa o‘qitishda refleksivlikning kuchayishi bilan bog‘lash jarayonlarini kuzatdik. Biz tomonimizdan amalga oshirilgan tadqiqot mazmunida esa, bu kabi jarayonlar talabalarga ularning kognitiv va amaliy harakatlarining mantig‘i va vositalarini tushunishga yordam beradi[4].

Oliy ta’limning pedagogika sohasi musiqa pedagogikasi ta’limi tizimida uslubiy tayyorgarlikning evristik funksiyasining vizual namoyon bo‘lishi, uning mazmunini asoslash, bo‘lajak musiqa o‘qituvchisining tafakkurini takomillashtirishdir. XXI asr boshqa sohalarda bo‘lgani kabi musiqa ta’limi uchun o‘zining zamonaviy ilmiy izlanishlari fonida katta yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu borada MDH olimlari (V.N.Rostorguev, B.C.Shubinskiy) qatorida mahalliy olimlar (N.Kiyamov, Q.Panjiyev, Sh.Mustafoyev)ning tadqiqotlarida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida nafaqat musiqiy-nazariy fanlardan egallagan bilimlarini, balki ma’lum bir metodik sohadagi nazariy, kasbiy-ijrochilik yoki uslubiy farazlar, amaliy farazlar, tushuncha va g‘oyalarni shaxsiy darajasida ilmiy asoslashni ta’minlaydigan bunday munosabat, bilim va qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ilmiy ishimiz tomonimizdan amalga oshirilgan tadqiqot mazmuni va jarayoni xuddi shunday fikrlashni rivojlantirishga, musiqa pedagogikasi sohasidagi ta’lim muammolariga yechim sifatida metodik yondashuvning ijtimoiy obro‘sini tiklashga qaratilgan[2].

TAQIQOT METODOLOGIYASI. Ushbu maqolani yozishda analiz, sintez, tarixiylik va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan. Mahalliy olimlardan Q.Panjiyevning tadqiqot mavzusi yuzasidan olib borgan ishlari va g‘oyalari o‘rganildi. MDH olimlaridan A.Slastenin va boshqa olimlarining fikrlari tahlil qilingan.

TAHLIL VA NATIJALAR. Bakalavriat talabalarining metodik va eng muhim funksional tayyorgarligining ahamiyati, uning bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi shaxsining yaxlit rivojlanishiga, kognitiv, motivatsion-qiymat, intellektual va faoliyat komponetlari ta’sir kuchidir. Aynan metodik tayyorgarlik jarayonida, turli ilmiy sohalar vakillari ta’kidlaganidek, mutaxassisning tafakkuri va faoliyat uslubi jadal qayta tiklanadi, uning ijodiy salohiyati boyitiladi [3].

Oliy musiqa pedagogik ta’limning umumiy musiqiy-nazariy fanlar tizimida birinchi navbatda metodik tayyorgarlikdagi kognitiv funksiyasini bajaradi, chunki u bo‘lajak musiqa o‘qituvchilari tomonidan fan va musiqa san’atining turli sohalaridagi bilimlarni faol o‘zlashtirilishga hamda ularni o‘rganish va o‘rgatishning turli texnologik usullarini bilishiga yordam beradi. Bundan tashqari, ularning shaxsiy, ijtimoiy va kasbiy qadriyatlarini anglashga yordam beradi. Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabasi tomonidan o‘zlashtirilgan nazariy

va amaliy bilimlar asosida bo‘lajak mutaxassis sifatida musiqiy pedagogik voqelikni bilish va o‘zgartirishning zarur usullarini o‘rganadilar, ulardan o‘z amaliyotida ijodiy foydalanish tajribasiga ega bo‘ladilar.

Bakalavriat talabalarining metodik tayyorgarligi nafaqat fan va musiqa san’atining turli sohalarida (musiqiy, musiqiy-nazariy, kasbiy, pedagogik bilim, ko‘nikma va malakaviy komptensiyalarni axloqiy, hissiy-irodaviy, musiqashunoslik, musiqiy ijrochilik tajribalari va amaliyoti) bo‘lajak mutaxassis o‘qituvchilar tajribasida mavjud bo‘lgan bilimlarni faollashtirishni, balki ushbu bilimlarning mohiyatini izchil tushunishni, ularning didaktik, tizimli va yaxlit yondashuvini amalga oshirishdagi hal qiluvchi rolini ta’minlaydi. Talabalarning tegishli kasbiy-metodik ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni o‘zlari o‘rganishlari hamda turli darajadagi (pedagogik, kasbiy, metodik, umumiy ilmiy, xususiy ilmiy) kasbiy yo‘naltirilgan uslubiy-metodik bilimlarni o‘zlashtirishlari va egallashlari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqa pedagogikasi ta’limi jarayonining maktab ta’limi va tarbiyasining boshqa jihatlari, umuman ijtimoiy-madaniy konsert ijrochiligi amaliyoti bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘p tomonlama, didaktik aloqalari haqidagi g‘oyalarni sintez qiladi va undagi tajribalarni aniqlashtiradi. Metodik tayyorgarlik bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini o‘qitishda bunday yondashuvga yo‘naltirgan musiqiy-nazariy dars mashg‘ulotlaridagi ba’zi empirik faktlar va hodisalar nafaqat metodik, balki uslubiy kontekstda ham, ya’ni musiqa pedagogik jarayonining umumiy qonuniyatlari, uning dolzarb ilmiy va nazariy asoslari prizmasi orqali namoyon bo‘ladi.

Bo‘lajak musiqa pedagogi sifatida talabalar musiqashunos, etnomusiqashunos, pedagog nuqtayi nazardan qaraganda metodik (uslubiy) tayyorgarlikning bevosita ta’siri ostida musiqiy va kasbiy bilim, ko‘nikma va ijrochilik qobiliyatlarini puxta o‘zlashtirishlari, o‘zini o‘zi baholash, qayta baholash lozim bo‘ladi. Shuning uchun ham ko‘pincha ta’lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan musiqa o‘qituvchilar orasida funksional-pragmatik yondashuv yuzaga kelayotgan, shaxsiy va ijodiy yondashuvlarga yo‘l ochadi. Bunday holda, musiqa asarlarini tahlil qilish va ijro etish barobarida badiiy-majoziy tasvirlar bilan ishlash qobiliyati aynan biz muhokama etayotgan bo‘lajak musiqa o‘qituvchisi tomonidan kengroq yondashuvlarda tan olinadi. Bo‘lajak musiqa o‘quvchilari bilan ma’naviy va shaxsiy aloqani o‘rnatishning ajralmas sharti sifatida, ularning badiiy, kasbiy, musiqiy ijrochilik, metodik-uslubiy va ijtimoiy tajribasini boyitishning eng muhim vositasi hisoblanadi [5].

Metodik tayyorgarlik jarayonida bo‘lajak mutaxassislar turli darajadagi, uslubiy bilimlarga murojaat qilish, birinchi navbatda, musiqiy va pedagogik amaliyotning ehtiyojlari, unda nafaqat maxsus, balki psixologik, musiqashunoslik, estetik va boshqa muammolarning juda murakkab kombinatsiyasi bilan tartibga solinadi. Musiqa ta’limi bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalarining metodik tayyorgarligi jarayonida davom etadigan va unga erishiladigan musiqa ta’limi va pedagogikasining nazariy va uslubiy muammolarini ko‘p darajali, konseptual tushunishlari bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy-metodik va kognitiv qiziqishlarini sezilarli darajada kengaytirishga yordam beradi. Ularda fan, ta’lim va musiqa san’atining turli sohalaridan yangi bilimlarni muntazam ravishda to‘plashning pedagogik zaruriyatini ta’minlaydi.

Musiqiy-nazariy fanlarni o‘qitishda metodik tayyorgarlik oliy ta’lim tiizmida pedagogik sohasi bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini o‘qitishda bugungi axborot asridagi yangiliklardan xabardor bo‘lish, uni o‘quv tizimida qo‘llash bo‘yicha talabalarni tarbiyalashning yaxlit jarayoni tabiatiga sezilarli darajada o‘zgarishlarni ta’minlaydi. Mazkur jarayonni reproduktiv darajadan didaktik, kasbiy-ijodiy va metodik darajaga o‘tkazadi. Bu uslubiy tayyorgarlikning yana bir muhim vazifasi – evristik xususiyatlarini ta’minlashga pedagogik shart-sharoitlarni yaratib beradi[2].

XULOSA. Shunday ekan, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining musiqiy-nazariy fanlarni o‘zlashtirish, o‘qitish va o‘rgatishdagi metodik tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot jarayonida tahlil etib kelinayotgan musiqa o‘qitishning metodik tayyorgarlik funksiyasi – pedagogik usullarni va shakllarni tanlashga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilariga ijodiy muloqot olib borish uchun sharoit yaratadigan vositalardan foydalanish zarurligini belgilaydi. Talabalarda metodik tayyorgarlik nafaqat bo‘lajak musiqa o‘qituvchisini uslubiy bilimlar, balki ularni qo‘llashning ijodiy tajribasi bilan qurollantirish vazifasini, balki musiqa

pedagogikasi ta'limida voqelikni bilish va o'zgartirishda ma'lum bir qiymat munosabatini shakllantirishni ham o'z ichiga oldi. Ushbu tayyorgarlikning bo'lajak mutaxassisning ongi va faoliyatining axloqiy va qiymat jihatlariga ta'siri uning aksiologik funksiyani bajarishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, uning mohiyati shundan iboratki, uslubiy tayyorgarlikning mazmuni talabalar uchun nafaqat musiqiy-nazariy fanlarni, balki pedagogik voqelikning turli hodisalari va jarayonlarini uslubiy aks ettirish manbai bo'lib, ularning kasbiy metodik va ijodiy faoliyatining ushbu jihatiga shaxsiy qiymat munosabatini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi[3].

Shuningdek, musiqa ta'limi yo'nalishlari talabalari metodik tayyorgarligining takomillashib borishiga yordam beradi. Unda o'ziga yaqin bo'lgan musiqa o'qitish metodikasi va texnologiyalarining boshqa tomonlarini bo'lajak o'qituvchilar tomonidan kashf etishga erishiladi. Bunday hollarda, nazariy g'oyalar va metodik kashfiyotlarning birlashishi bo'lajak musiqa o'qituvchilarining o'zlarini ham kasbiy, ham metodik, ham ijodiy, ham axloqiy, madaniy mezonlar va ehtiyojlarni o'zida rivojlantirishga foydali ta'sir ko'rsatadi. Uslubiy bilimlarning qadriyat tomonini anglash bo'lajak mutaxassislarga kengroq ijtimoiy-madaniy va musiqiy-pedagogik tajriba kontekstida hayot va kasbiy tajribani tushunishga, u bilan bog'liqligini va uni bilish istagini his qilishga imkon beradi[4].

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Panjiyev Q.B. Musiqa o'qitish metodikasi. Darslik. Toshkent 2023. 306 b.
2. Panjiyev Q.B. O'zbek xalq qo'shiqlari vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Monografiya. 2022, 202 b.
3. Ibrohimjonova G.A., Yuldashev U.Yu. Musiqa nazariyasi. Darslik. Toshkent, 2017.
4. Абдуллин Е.Б. Теория и практика музыкального обучения в общеобразовательной школе. М., 1983.
5. Ibrohimov O.A. "O'zbek xalq musiqa ijodi" (metodik tavsiyalar 1-qism), Toshkent. 1994-y. B.62.
6. Карабаев У. Этнокультура (Традиционная народная культура): Учеб. пособие, Шарқ. 2005. Ст. - 240.

TAMADDUN

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 821.112.28

YANGI O‘ZBEKISTONDA MAHALLA INSTITUTI FAOLIYATI VA UNING ISTIQBOLLARI

Maxmudov Feruz Tulkinovich, IIV Malaka oshirish instituti tadqiqotchisi

ACTIVITIES OF THE MAHALLA INSTITUTE IN NEW UZBEKISTAN AND ITS PROSPECTS

Makhmudov Feruz Tulkinovich, Researcher at the Institute for Advanced Training

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ИНСТИТУТА МАХАЛЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ И ЕЕ ПЕРСПЕКТИВЫ

Махмудов Феруз Тулкинович, научный исследователь Института повышения квалификации МВД

https://orcid.org/0460-0202-5240-0564
e-mail: maxmudov feruz@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda mahalla instituti faoliyati va uning istiqbollari masalasi yoritilgan. Yurtimizda “Mahallabay” tizimining amaliyotda samarali ishlashini ta’minlash mexanizmlari ishlab chiqilmoqda. Bugungi kunda mahallalarni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha respublika, viloyat va tuman (shahar) kengashlari joriy etilmoqda.*

Kalit so‘zlar: *mahallabay ishlash, mahalla, mahalla beshligi, mahalla yettiligi, ijtimoiy himoya.*

Abstract: *This article reflects the essence and philosophical features of the neighborhood work system in New Uzbekistan. In our country, mechanisms are being developed to ensure the effective functioning of the “Mahallabay” system in practice. Today, republican, regional and district (city) councils are being introduced for the development and support of neighborhoods.*

Key words: *neighborhood work, neighborhood, neighborhood five, neighborhood seven, social protection.*

Аннотация: *В данной статье отражена сущность и философские особенности системы махаллинской работы в Новом Узбекистане. В нашей стране разрабатываются механизмы, обеспечивающие эффективное функционирование системы “Махалля” на практике. Сегодня для развития и поддержки микрорайонов введены республиканские, областные и районные (городские) советы.*

Ключевые слова: *махаллинская работа, махалля, “махаллинская пятерка”, “махаллинская семерка”, социальная защита.*

KIRISH. Mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xalqimizning urf-odatlari, an’analari va qadriyatlarini saqlab qolish, ularni jipslashtirish kafolati sifatida mahallalar maydonga chiqmoqda. Shu bilan birga, mahalla tizimida bir qator kamchiliklar to‘planib qolganini tan olish lozim.

2023-yil 26-sentyabr kuni O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida mahallabay ishlash tizimini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida O‘zbekistonda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotganligi alohida qayd etildi. Buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilgan bo‘lib, mahalla raisi, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faoli, yoshlar yetakchisi hamda profilaktika inspektoridan iborat “beshlik tizimi” tashkil etildi. Lekin ularning o‘zaro muvofiq

ishlashida kamchiliklar, juda ko‘p takrorlanishlar bor. Ijtimoiy maqsaddagi mablag‘lar ba’zan samarasiz yo‘naltirilmoqda. Ehtiyojmand aholining masalasini hal qilish viloyat va respublika idorasiga bog‘lanib qolgan. Mahalla xodimlari faoliyatini baholash mezoni yo‘q. Ularning ko‘p vaqti “qog‘oz to‘ldirish” va majlislarga ketmoqda.

2023-yil oktyabr oyidan boshlab bu sohaning tizimi o‘zgaradi hamda mahalla boshqaruviga soliqchi va ijtimoiy xizmat xodimi qo‘shilib, “mahalla yettiligi” shakllantiriladii. Xususan, ehtiyojmand aholini ro‘yxatga kiritish, moddiy yordam, subsidiya va kredit ajratish kabi 70 dan ortiq masalalar, tuman va viloyat idoralariga chiqmasdan, mahallaning o‘zida jamoaviy hal qilinadi. Shuningdek, Bandlik, Tadbirkorlik va Kasanachilik jamg‘armalari mablag‘lari har bir mahallaga taqsimlab beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Mahallada qulay va elektron ish yuritish yo‘lga qo‘yiladi. Amaldagi uchta platforma – “Onlayn mahalla”, “Xotin-qizlar”, “Yoshlar portali” o‘zaro integratsiya qilinib, yagona tizimda mujassamlashtiriladi. “Mahalla yettiligi” ishini muvofiqlashtirishda mahalla raislarining vakolatlari kengaytiriladi. Jumladan, ular hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori, soliqchi va ijtimoiy xodimni rag‘batlantirish yoki intizomiy jazo qo‘llash bo‘yicha taqdimnoma kiritish vakolatiga ega bo‘ladi [1.84].

Xususan, mahallalarning ichki yo‘llari, ichimlik suvi va elektr ta’minoti, irrigatsiya tarmog‘ini yaxshilash bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Mahalla xodimlarining sektor rahbarlari va tegishli vazirlik va tashkilotlar bilan olib borgan uzviy hamkorligi natijasida bugungi kunga qadar ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ko‘maklar berilib, xotin-qizlarning bandligi ta’minlanib kasb-hunarga o‘qitish ishlari jadal olib borilmoqda.

Yurtimizdagi mavjud barcha fuqarolar yig‘inlari qoshida tashkil etilgan “Ayollar maslahat kengashlari”da malakali psixologlarni jalb etgan holda ijtimoiy himoyaga va psixologik ko‘makka muhtoj ayollar uchun treninglar tashkil etilgan. “Har bir oila – tadbirkor” dasturi doirasida fuqarolarga imtiyozli kreditlar ajratish, fuqarolarning hunarmandchilik va kasanachilik bilan shug‘ullanishlariga imkoniyatlar yaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son “Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaroriga asosan, har bir shaharcha, qishloq, ovulda, shuningdek, shaharlar, shaharchalar, qishloqlar hamda ovullardagi har bir mahallada yoshlar yetakchisi lavozimi joriy qilindi. Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, iqtidori, iste’dodi va tashabbuslarini rag‘batlantirish hamda hayotda o‘z o‘rnini topishlariga ko‘maklashish yoshlar yetakchilarining asosiy vazifalari etib belgilandi[2].

TAHLIL VA NATIJALAR. Mamlakatimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholining ijtimoiy talablaridan kelib chiqib amalga oshirilmoqda. Buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilmoqda.

Bugungi kunda yurtimiz hududlaridagi muammolarni “mahallabay” aniqlash va bartaraf etish, xususan, hududlarda “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari ijrosini ta’minlash maqsadida Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari mas’ul xodimlaridan iborat Ishchi guruhlar tuzilgan hamda mazkur amaliyot natijasida joylardagi odamlarni qiynayotgan ko‘plab ijtimoiy muammolar hal etilmoqda.

Mahallalarda istiqomat qiluvchi fuqarolarga tomorqachilikni rivojlantirish maqsadida subsidiya ajratilib, ularning o‘quv kurslarida o‘qitilishi ta’minlanmoqda. O‘quv kurslarida kasb-hunarga o‘qitilgan fuqarolarga o‘z tadbirkorlik faoliyatlarini boshlash uchun subsidiyalar ajratilmoqda.

“Mahallabay” tizimining amaliyotda samarali ishlashini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Jamoat xavfsizligi xodimlari tomonidan joylarda ishchi guruhlari tashkil etilib, yo‘l harakati xavfsizligi ta’minlanmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan yurtimizda barcha ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar aholi talabidan kelib chiqib, joylarda amalga oshirilayotgani, buning uchun mahallalarga ko‘plab vakolatlar, tashkiliy va moliyaviy imkoniyatlar berilayotganligi alohida ta’kidlangan. Zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Mahallani joylarda muammolarni chinakam hal qiladigan institutga aylantirishimiz zarur. Yana tajriba orttiramiz, yana o‘zgartiramiz. Hayot bizni shunga majbur qilyapti. Hozirgi tahlikalarga yechim topamiz desak, bizning yagona yo‘limiz – mahalla, mahalla, mahalla va yana bir marta mahalla. Mahalla

tizimi obro‘yini qancha ko‘tarsak, odamlar ishonadi, odamlar bizdan rozi bo‘ladi, -deya ta’kidladi davlat rahbari.

Bugungi kunda “Mahallabay” ishlash tizimida har bir mahallaga tijorat banklarining mas’ul xodimlaridan iborat doimiy vakil biriktirilib, ular mahalla raislari bilan birga xonadonlardagi ahvolni, ishsizlar soni, ularning qiziqishlari, hududning “o‘sish nuqtalari”, mavjud tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirish masalalarini o‘rganmoqdalar. Har bir mahallani rivojlantirish bo‘yicha “Yo‘l xaritalari” ishlab chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PF-29-sonli Farmoniga asosan mahallalarda tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha tuman “hokim yordamchisi” lavozimi ta’sis etildi[3]. Ushbu lavozimlarga Respublika Ishchi guruhi bilan birgalikda tuman korxona va tashkilotlarida ishlayotgan rahbar xodimlar saralab olindi. Lavozimga tayinlangan hokim yordamchilarining faoliyatini samarali tashkil qilish maqsadida o‘qitish, nazariy va amaliy mashg‘ulotlar asosida tajribasini oshirish yuzasidan o‘quv seminarlar tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-dekabrdagi PQ-31-sonli qaroriga asosan tijorat banki va hokim yordamchilari faoliyati yo‘lga qo‘yilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-dekabrdagi PQ-62-sonli qaroriga asosan hokim yordamchilari faoliyatini muvofiqlashtirib borish maqsadida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish boshqarmasi va hududlarda markazlar tashkil etildi [4].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, mahallalar mamlakatimizdagi aholini o‘zini o‘zi boshqarishda, fuqarolar xohish va istaklarini e’tiborga olishda va imkoniyatlar yaratishda mihim ijtimoiy institutga aylanib bormoqda. Shuningdek, hozirgi davrga kelib davlatning aholini ijtimoiy himoya qilish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni aniqlash kabi vakolatlari ham mahallalar zimmasida ekanligi ular faoliyatining mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirib bormoqda. Shu bilan birga, mahallalardagi tinch va osoyishta hayotni ta’minlash, oilalarni mustahkamlash chora-tadbirlarini ko‘rish, muhtoj fuqarolarga mehr-muruvvat ko‘rsatish, mahalla fuqarolar yig‘inlari faoliyatining asosiy yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Bularning barchasi mahallalar faoliyati istiqbolni belgilovchi tamoyillardandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Тўйчиев Б., Омонов Б. Сиёсий маданият. Монография. Тошкент, Tafsir Books, 2024. – 224 бет.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 19-yanvardagi PQ-92-son Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Qarori. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.01.2022 y., 07/22/92/0046-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risidagi PF-29-son Farmoni. https://lex.uz/uz/docs/5758437
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2021-yildagi Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PQ-31-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/5758155
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.12.2021-yildagi Tomorqadan foydalanish samaradorligini oshirish, shuningdek, aholining tadbirkorlik tashabbuslarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risidagi PQ-54-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/5777393

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 94 (575.1)

THE SIGNIFICANCE OF THE WORK "FIRDAVS UL-IQBAL" BY HISTORICIAN MUNIS AND OGAHII IN THE RESEARCH OF RELATIONS BETWEEN THE KHANATE OF KHIVA AND RUSSIA DURING THE PERIOD OF KHAN MUHAMMAD RAHIMKHAN I OF KHIVA (1806-1825)

Saparbaev Bunyodbek Khurrambek ogli, Associate professor of the department of the "History" of the Urgench State University, Doctor of philosophy (PhD) in Historical sciences

https://orcid.org/ 0000-0002-9011-4057
e-mail: bunyod.saparbayev@gmail.com

TARIXCHI MUNIS VA OGAHIYLARNING "FIRDAVS UL-IQBOL" ASARINING XIVA XONI MUHAMMAD RAHIMXON I DAVRIDA (1806-1825) XIVA XONLIGI VA ROSSIYA MUNOSABATLARINI TADQIQ QILISHDAGI AHAMIYATI

Saparbayev Bunyodbek Xurrambek o'g'li, Urganch Davlat Universiteti "Tarix" kafedrasi dotsenti, (PhD)

ЗНАЧЕНИЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ "ФИРДАВС УЛ-ИКБАЛ" ИСТОРИКОВ МУНИСА И АГАХИ В ИССЛЕДОВАНИИ ХИВИНСКО-РУССКИХ ОТНОШЕНИЙ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ХИВИНСКОГО ХАНА МУХАММАДА РАХИМХАНА I (1806-1825)

Сапарбаев Бунёдбек Хуррамбек оглы, доцент кафедры "История" Ургенчского государственного университета, (PhD)

Abstract: *The article talks about the importance and necessity of the work "Firdavs ul-Iqbal" by historians Munis and Agakhi in studying the relations between the Khiva Khanate and Russia during the reign of Muhammad Rahimkhan I. Information is provided that the work is a primary source in the analysis and study of relations between the two countries, and that researchers can obtain important information from the work.*

Key words: *Muhammad Rahimkhan I, Khiva state, Munis, Agakhi, the work "Firdaws ul-iqbal", Russia.*

Annotatsiya: *Maqolada Muhammad Rahimxon I davrida Xiva xonligi va Rossiya munosabatlarini o'rganishda tarixchilar Munis va Ogahiylarning "Firdavs ul-iqbol" asarining ahamiyati va zarurligi to'g'risida so'z boradi. Asarning ikkala davlat munosabatlarini tahlil qilishda va tadqiq qilishda birlamchi manba ekanligi, asardan tadqiqotchilar muhim ma'lumotlar olishi mumkinligi haqida ma'lumotlar beriladi.*

Kalit so'zlar: *Muhammad Rahimxon I, Xiva xonligi, Munis, Ogahiy, "Firdavs ul-iqbol" asari, Rossiya.*

Аннотация: *В статье говорится о значении и необходимости труда "Фирдавс уль-икбал" историков Муниса и Агахи в изучении отношений Хивинского ханства и России в период правления Мухаммад Рахимхана I. Приведена информация о том, что работа является первоисточником в анализе и исследовании отношений между двумя странами и что исследователи могут получить важную информацию из работы.*

Ключевые слова: *Мухаммад Рахимхан I, Хивинское ханство, Мунис, Агахи, произведение "Фирдавс уль-икбал", Россия.*

TAMADDUN NURI

INTRODUCTION. The first President I.A.Karimov emphasized this in the meeting with the historians of our country that "in the present period, when there has been a sharp turn in our statehood, it will be necessary for us to clearly define our place in the world, who we are, and our ancient roots" [1: P.252]. According to the head of our country, when it comes to the historical past of the Uzbek people, their identity, and spirituality, we lack evidence and analyzes with a deep scientific basis in this matter. Scientifically speaking, there is no complete concept in this regard. Self-awareness begins with knowing history. This fact, which does not require proof, should be raised to the level of state policy. Our head of state said that statehood has become an important political issue in the current era. We can convey this historical truth, which the First President of our country has put before us, to the minds of people only by illuminating the historical events and activities of historical figures. Consequently, our national ideology, which is being formed in our society, also draws its nourishment from historical sources.

In a word, creating a real scientific history of our country and people has become one of the most necessary and urgent tasks of the general public.

In the implementation of these tasks set before us, comprehensive research and analysis of the work "Firdaws-ul-Iqbal" by Munis and Oghahi is of great relevance.

LITERATURE ANALYSIS AND RESEARCH METHODOLOGY. There are many studies on the historical works and biographies of Munis and Ogahis. Preliminary information about Munis can be found in the works of A.Vamberi. According to him, Munis and Mirab (Vamberi understood this name and position as two brothers and sisters. He calls Munis a poet and Mirob a translator) were brothers and were engaged in poetry and translation. By translation, he refers to Mirkhand's work "Rawzat ul-Safa"(Paradise garden) [2: P.360].

Manuscripts related to Munis and Ogahi first came to the attention of A.L.Kuhn, who came to Khiva in 1873 [3:P.57].

A complete copy of the work of V.V.Bartold, which is kept in the Asian Museum of the Russian Academy of Sciences, has not been published by anyone, was written in the 19th century and provides official information about the Khanate of Khiva. are lost manuscripts. Although A.L. Kuhn made a brief statement of comments on the sources of this manuscript, this analysis was not published.

After A.L.Kun, the talented orientalist V.V., who commented on the historical works related to Munis and Ogahi. Barthold He noted that, "These detailed chronicles of Munis and Ogahi remain the main source of information about the next three hundred years of Khorezm's history. Mullah Bobojon (Bayani) also used these chronicles in writing "Shajarai Khorazm Shahi" [3: P.57].

V.V.Bartold prepared a summary text of "Firdavs-ul-Iqbal", but it was not published.

Some passages from "Firdaws ul-Iqbal" were translated by P.P. Ivanov and included in the book "Materials on the history of the Turkmens and Turkmenistan" [4:P.323-354;355-426].

P.P.Ivanov evaluates this work of Munis and Ogahiy as "The main source on the history of the Khanate of Khiva in the 18th-19th centuries"[5:P.56].

Some excerpts from the work "Firdaws ul-Iqbal" are also given in the book.

"Materials on the history of the Kazakh khanates of the XV-XVIII centuries"[6:P. 431-475].

In Uzbek historiography, there are many studies about this work of Munis and Ogahiy [7:P.113-116].

This work was published for the first time in a collective form by the historian Y.Bregel and translated into English[8]. Finally, in 2010, this work was presented to Uzbek readers in its entirety[9].

DISCUSSION. Based on the work "Firdaws ul-Iqbal", the main goal of the research is to shed light on the socio-political life of Muhammad Rahimkhan I, and the following tasks were defined:

- Give a general description of the work;

-Reacting to the part written by Munis of the era of Muhammad Rahimkhan I;

-Analysis of the part of life in the time of Muhammad Rahimkhan I, which belongs to the pen of Agahi;

-Clarifying the skills of historians in reporting events;

Based on the perfect text of the recently published "Firdaws ul-Iqbal" work, the first monographic analysis of social and political life in

the era of Muhammad Rahimkhan I from the perspective of the ideology of independence marks its scientific innovation.

In writing the work, it was mainly based on the copy of "Firdaws ul-Iqbal" published in 2010 in Tashkent by "Teacher" publishing house. In some cases, N.Muravyov's "Travel to Turkmenistan and Khiva in 1819 and 1820". published in Moscow in 1822, his work was also referred to.

ANALYSIS AND RESULT**.** The historical work "Firdaws ul-Iqbal" by Munis and Ogahiy is of particular importance as it covers the history of the Uzbek, Turkmen, Kazakh, Karakalpak peoples from the earliest times to the first quarter of the 19th century.

Apart from the introduction, the book is divided into five chapters, five parts, and two seasons. The last part of the work is dedicated to the reign of Muhammad Rahimkhan I, and the events of each year of his 20-year career are described separately. The part of the work from the earliest times to 1813 was written by Munis, and the events between 1813 and 1825 were written by Ogahi. When writing the history of Khorezm, historians combined prose narrative with poetic imagery. For this reason, many poetic verses were included in the composition of the work.

He begins to write "Firdaws ul-Iqbal" at the suggestion of Munis Eltuzarkhan. After the death of Eltuzarkhan, Muhammad Rahimkhan I, who took the throne in his place, ordered to continue the book.

Munis managed to record the events up to the eighth year of Muhammad Rahimkhan's reign and died of cholera in 1813. Agahi continues to write from that point of the book.

In fact, after the death of Eltuzarkhan, Abulghazikhan V sat on the throne of the Khanate of Khiva. Muhammad Rahimkhan works on his behalf. After five months, he ascends the throne himself [10:P.141].

During the reign of Muhammad Rahimkhan I, the social, political, cultural and economic life of the country was extremely complicated.

One of the main reasons for this was the constant exchange of khans, the installation of fake khans on the throne, and other people ruling the country on their behalf.

CONCLUSION**.** If we look at the 50-year history of the khans until the accession of Muhammad Rahimkhan I to the throne, 22 khans came and went to the throne in half a century. Among them, Karabaikhan ruled for 4 months, Abulgazikhan III for 6 months, Bolakaykhan for 1 month, Abdullahkhan for 5 months, and Abulgazikhan V for five months [10: P.100]. Others sat on the throne for 1 to 7 years. These changes of the throne show the extreme instability of the political situation. This instability leads to self-destruction of economic development.

REFERENCES:

1. Karimov I.A. There is no future without historical memory.-T. Uzbekistan (in Uzbek), 1998.
2. Vambery A. Traveling through Central Asia. –T.: Institute of History of the Peoples of Central Asia named after. Mahpirat, 2007.
3. Bartold V.V. Essays. T. 2. Part 2. Works on individual problems of the history of Central Asia. –M.: 1964.
4. Materials on the history of the Turkmen and Turkmenistan. Proceedings of the Institute of Oriental Studies. T. XXIX Sources on the history of the peoples of the USSR. – T.2 Iranian, Bukhara and Khiva sources. –M., -L.: 1938.
5. Ivanov P.P. Essays on the history of Central Asia. XVI-mid-XIX centuries. – M.: ed. East Lit., 1958.
6. Materials on the history of the Kazakh khanates of the XV-XVIII centuries. (compiled by: S.K. Ibragimov, N.N. Mingulov, K.A. Pishchulina, V.P.Yudin-Alma-Ata, 1969.
7. See: Munirov Q. Historical works of Munis, Ogahi and Bayani. - T.: Science, 1960; Abdullaev V. History of Uzbek literature. -T.: Teacher, 1967. -P. 113-116; Mutalov O. Khanate of Khiva during the reign of Olloquli Khan. -T.: 2005 and others.
8. Shermuhammad Munis Khorezmi and Muhammadreza mirab almutakhallis bil Ogahi. Firdaws ul-Iqbal. Leiden, 1988.
9. "Firdaws ul-Iqbal" (Gardens of Paradise). -T.: Teacher, 2010. (Preparers for publication: N. Jumakhoʻja, S. Roʻzimboev, A. Ahmedov).
10. Khudoyberganov K. From the history of the Khans of Khiva. - Urganch. Khorazm, 2008. - P. 141; P. 100.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 376

INKLYUZIV TA'LIMDA SELF-PACED LEARNING (SPL) METODINI QO'LLAB O'QITISHNING ISTIQBOLLARI

Ubaydullayeva Gulnora Oltinbek qizi, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti "Amaliy matematika va kompyuter tahlili" kafedrasi tayanch doktoranti

https://orcid.org/0009-0005-5865-1062
e-mail: ubaydullayeva_g@nuu.uz

PROSPECTS OF APPLYING THE SELF-PACED LEARNING (SPL) METHOD IN INCLUSIVE EDUCATION

Ubaydullaeva Gulnora Oltinbek qizi, PhD student at the Department of Applied Mathematics and Computer Analysis of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

ПЕРСПЕКТИВЫ ПРИМЕНЕНИЯ МЕТОДА САМООРГАНИЗОВАННОГО ОБУЧЕНИЯ (SPL) В ИНКЛЮЗИВНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Убайдуллаева Гульнора Олтинбек кызы, докторант кафедры прикладной математики и компьютерного анализа Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Annotatsiya: *Zamonaviy ta'lim tizimida inklyuziv ta'lim barcha o'quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishni maqsad qiladi. Ushbu jarayonda Self-Paced Learning (SPL) – ya'ni har bir o'quvchiga o'z tezligida bilim olish imkonini beruvchi metod samarali yondashuvlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda adabiyot tahlili, eksperimental yondashuv va amaliy tajribalar o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, SPL o'quvchilarning mustaqilligi, o'ziga bo'lgan ishonchi va akademik natijalarini oshirishga yordam beradi.*

Kalit so'zlar: *Inklyuziv ta'lim, mustaqil o'qish, Self-Paced Learning (SPL), raqamli texnologiyalar, ta'lim samaradorligi, masofaviy ta'lim, ta'lim platformalari.*

Abstract: *The modern education system aims to create equal opportunities for all students through inclusive education. In this process, Self-Paced Learning (SPL) – a method that allows each student to learn at their own pace – is considered one of the effective approaches. The study examined literature analysis, experimental approaches, and practical experiences. The results showed that SPL helps improve students' independence, self-confidence, and academic performance.*

Keywords: *inclusive education, independent learning, Self-Paced Learning (SPL), digital technologies, learning efficiency, distance education, educational platforms.*

Аннотация: *Современная система образования стремится создать равные возможности для всех учащихся через инклюзивное обучение. В этом процессе метод Self-Paced Learning (SPL), позволяющий каждому учащемуся обучаться в своем темпе, считается одним из эффективных подходов. В исследовании были изучены анализ литературы, экспериментальный подход и практический опыт. Результаты показали, что SPL способствует развитию самостоятельности, уверенности в себе и повышению академической успеваемости учащихся.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, самостоятельное обучение, Self-Paced Learning (SPL), цифровые технологии, эффективность обучения, дистанционное обучение, образовательные платформы.*

KIRISH. Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri har bir o'quvchiga sifatli ta'lim olish imkoniyatini yaratishdir. Shu nuqtayi nazardan, inklyuziv ta'lim barcha bolalarga, jumladan, jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy jihatdan turli xususiyatlarga ega bo'lgan o'quvchilarga ham bir xil ta'lim olish imkonini taqdim etadi. Inklyuziv ta'limning asosiy tamoyillari har bir bolaning shaxsiy xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish, ularni umumiy ta'lim jarayoniga integratsiya qilish va inklyuziv muhitni shakllantirishdan iborat.

Inklyuziv ta'lim nafaqat jismoniy imkoniyati cheklangan yoki maxsus ehtiyojga ega bo'lgan o'quvchilarni qamrab oladi, balki turli darajadagi ta'lim olish sur'atiga ega bo'lgan barcha bolalarga moslashuvchan ta'lim berish tamoyilini ilgari suradi. Bugungi kunda an'anaviy o'qitish usullari barcha o'quvchilarning ehtiyojlariga mos kelavermaydi. Shuning uchun ham moslashuvchan va shaxsiylashtirilgan ta'lim usullarini joriy etish inklyuziv ta'lim samaradorligini oshirish uchun muhim hisoblanadi.

Self-Paced Learning (SPL) — ya'ni o'quvchining o'z tezligida bilim olishiga asoslangan ta'lim usuli — so'nggi yillarda inklyuziv ta'lim tizimida muhim o'rin egallamoqda. Ushbu metod o'quvchilarga o'quv jarayonini o'z ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlariga mos ravishda olib borish imkonini beradi. An'anaviy ta'lim tizimida barcha o'quvchilar bir xil sur'atda o'rganishga majbur bo'ladilar, bu esa ba'zi bolalar uchun juda tez, boshqalari uchun esa juda sekin kechishi mumkin. SPL metodida esa har bir o'quvchi o'z shaxsiy qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda ta'lim olish imkoniga ega bo'ladi.

SPL metodining dolzarbligi quyidagi omillar bilan bog'liq:

– O'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish – har bir bolaning o'zlashtirish tezligi va usuli har xil bo'lgani sababli, SPL har bir o'quvchining o'zi uchun qulay bo'lgan tezlikda o'rganishiga imkon beradi.

– O'quv jarayonida mustaqillikni oshirish – o'quvchilar o'z o'quv jarayonlarini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lib, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

– Stress darajasini kamaytirish – tez yoki sekin o'zlashtiruvchi o'quvchilar umumiy guruh bosimidan xalos bo'lib, o'zlariga qulay bo'lgan sharoitda ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

– Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish – SPL metodini joriy etish jarayonida onlayn platformalar, interaktiv materiallar va multimedia resurslar muhim ahamiyat kasb etadi.

Inklyuziv ta'limda SPL metodining qo'llanilishi ko'plab afzalliklarga ega. Bu metod har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olib, ularning imkoniyatlarini maksimal darajada ochib berishga yordam beradi. SPL metodining inklyuziv ta'limdagi roli quyidagicha baholanadi:

– Turli ehtiyojlarga ega o'quvchilar uchun qulay ta'lim muhitini yaratish – SPL usuli har bir o'quvchining o'ziga qulay bo'lgan ritmda o'rganishini ta'minlab, ta'lim jarayonini stressiz olib borish imkoniyatini beradi.

– Maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashuvchan yondashuv – aqliy yoki jismoniy cheklovlarga ega o'quvchilar o'zlariga mos keladigan o'quv sur'atini tanlash orqali ta'lim olishi mumkin.

– O'z-o'zini o'qitish va refleksiya qilish imkoniyati – SPL orqali o'quvchilar o'zlarining bilim olish jarayonlarini tahlil qilish va to'g'ri strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

– Raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini yaxshilash – SPL metodini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'quv materiallari interaktiv platformalar orqali yetkazib beriladi.

Inklyuziv ta'limda SPL metodining joriy etilishi o'qituvchilar uchun ham yangi yondashuvlarni talab qiladi. An'anaviy o'qituvchi rolidan farqli ravishda, SPL metodida o'qituvchilar ko'proq fasilitator (yo'lboshchi) rolini bajarib, o'quvchilarga mustaqil ta'lim olishda yordam beradilar. Tadqiqot natijalari SPL metodining inklyuziv ta'limda qo'llanilishi va samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilishga qaratiladi.

TAMADDUN NURI

METODOLOGIYA. Inklyuziv ta'limda Self-Paced Learning (SPL) metodining samaradorligini tahlil qilish va uning ta'lim jarayoniga ta'sirini baholash uchun chuqur adabiyotlar tahlili amalga oshirildi, hamda SPL metodining ta'lim sohasidagi nazariy asoslari, inklyuziv ta'limdagi roli va uning amaliy qo'llanilishiga oid ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar o'rganiladi.

Self-Paced Learning (SPL) – bu o'quvchiga o'ziga mos keladigan ritmda bilim olish imkoniyatini beruvchi metod bo'lib, u mustaqil ta'lim tamoyillariga asoslanadi. Ushbu metodning asosiy g'oyasi – har bir o'quvchining individual ehtiyojlarini hisobga olib, unga o'z tezligida o'qish imkonini taqdim etishdir[1].

SPLning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

Moslashuvchan ta'lim – o'quvchilar o'zlariga qulay vaqt va sur'atda o'rganishlari mumkin.

Shaxsiylashtirilgan yondashuv – har bir o'quvchining qobiliyatlari va o'zlashtirish tezligi inobatga olinadi.

O'qituvchining fasilitator sifatida ishtirok etishi – SPL metodida o'qituvchi ma'lumotni beruvchi emas, balki yo'lboshchi rolini bajaradi[2].

Raqamli texnologiyalarning muhim roli – SPL metodi ko'pincha onlayn platformalar va o'quv materiallarini erkin foydalanish imkoniyati bilan bog'liq [3].

Inklyuziv ta'lim har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga oladigan ta'lim modelidir. Inklyuziv ta'lim tizimida har bir bola o'zining qobiliyatlari va ehtiyojlariga qarab mos ta'lim olishi kerak.

SPL metodining inklyuziv ta'limdagi afzalliklari:

Maxsus ehtiyojli bolalar uchun moslashuvchanlik – SPL usuli jismoniy yoki aqliy imkoniyati cheklangan o'quvchilarga o'zlariga qulay sharoitda ta'lim olish imkonini beradi[4].

Turli darajadagi o'quvchilar uchun mos model – kuchli va sust o'zlashtiruvchi o'quvchilar SPL orqali o'z tezligida o'qishi mumkin [5].

Ijtimoiy bosimning kamayishi – maxsus ehtiyojli bolalar an'anaviy sinf muhitida o'zlarini noqulay his qilishlari mumkin, SPL esa ularga mustaqil ta'lim olish imkoniyatini beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Ilmiy tadqiqotlar SPL metodining samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, Garrison va Vaughan tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda SPL metodidan foydalangan talabalarning akademik natijalari an'anaviy ta'lim olgan talabalarga nisbatan yaxshiroq ekanligi aniqlangan[6]. Ushbu tadqiqotda SPL metodining quyidagi afzalliklari qayd etilgan:

– Mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyati: SPL o'quvchilarning mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

– Akademik stressning kamayishi: O'quvchilar o'zlariga mos tezlikda o'rganishlari tufayli stress darajasi pasayadi.

– Materialni chuqurroq o'zlashtirish: O'quvchilar qiyin mavzularga ko'proq vaqt ajratish orqali materialni yaxshiroq tushunadilar.

Biroq, SPL metodining samaradorligi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish qobiliyatiga bog'liq. Deci va Ryan tomonidan ilgari surilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasiga ko'ra, SPL metodi o'quvchilarning ichki motivatsiyasini oshiradi, chunki ular o'z ta'lim jarayonlarini nazorat qilishadi [7].

Dunyo bo'ylab SPL metodi turli ta'lim muassasalari va onlayn platformalarda keng qo'llanilmoqda. Masalan:

– Onlayn ta'lim platformalari: Coursera, Udemy, Khan Academy kabi platformalar SPL metodini qo'llab-quvvatlaydi, bu esa o'quvchilarga istalgan vaqtda va joyda ta'lim olish imkonini beradi.

– An'anaviy ta'lim muassasalari: Ko'plab universitetlar va maktablar SPL metodini o'z dasturlariga kiritib, o'quvchilarga mustaqil o'rganish imkoniyatlarini taqdim etmoqda.

Jahon miqyosida SPL metodini muvaffaqiyatli joriy etish uchun quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega:

– Raqamli texnologiyalarning rivojlanganligi: yuqori tezlikdagi internet va zamonaviy qurilmalar mavjudligi SPL metodini qo'llashni osonlashtiradi.

– O'qituvchilarning malakasi: O'qituvchilar SPL metodini qo'llash uchun zarur bo'lgan pedagogik va texnologik ko'nikmalarga ega bo'lishlari kerak.

– O'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish qobiliyati: SPL metodi o'quvchilardan yuqori darajada o'zini o'zi boshqarish va motivatsiya talab qiladi.

TAMADDUN NURI

O‘zbekiston ta’lim tizimi so‘nggi yillarda islohotlar jarayonida bo‘lib, zamonaviy ta’lim metodlarini joriy etishga intilmoqda. Biroq, SPL metodining keng ko‘lamda qo‘llanilishi hali to‘liq amalga oshirilmagan. Buning asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

– An’anaviy ta’lim usullariga tayanish: Ko‘plab maktablar va universitetlar hali ham an’anaviy ta’lim usullaridan foydalanmoqda.

– Raqamli infratuzilmaning cheklanganligi: SPL metodini samarali joriy etish uchun zarur bo‘lgan raqamli texnologiyalar va internetga kirish imkoniyatlari cheklangan.

O‘zbekistonda SPL metodini keng joriy etishda bir qator qiyinchiliklar mavjud:

– O‘qituvchilarning malakasi: SPL metodini samarali qo‘llash uchun o‘qituvchilarning yangi pedagogik va texnologik ko‘nikmalarga ega bo‘lishi zarur.

– O‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyati: SPL metodi o‘quvchilardan yuqori darajada o‘zini o‘zi boshqarish va motivatsiya talab qiladi, bu esa har doim ham mavjud emas.

– Texnologik infratuzilma: Internetga kirish imkoniyatlari va raqamli qurilmalar yetishmasligi SPL metodini joriy etishda to‘siq bo‘lishi mumkin.

XULOSA. Self-Paced Learning (SPL) metodining asosiy maqsadi o‘quvchilarga o‘z tezliklarida ta’lim olish imkoniyatini yaratishdir. Bu metod orqali o‘quvchilar mustaqil ta’lim olish, materiallarni chuqurroq o‘zlashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ushbu metodning afzalliklari quyidagilardan iborat:

– Shaxsiylashtirilgan ta’lim – har bir o‘quvchi o‘zining individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga qarab o‘qish jarayonini boshqaradi.

– Moslashuvchan ta’lim – o‘quvchilar o‘z vaqtlarini mustaqil rejalashtirishi va o‘zlariga qulay usulda bilim olishi mumkin.

– Mas’uliyat va mustaqillik – o‘quvchilar o‘z ta’lim jarayonlariga mas’uliyat bilan yondashib, mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

Bugungi global ta’lim tizimida SPL metodidan foydalanish tendensiyalari kuchayib bormoqda. Bu ayniqsa raqamli texnologiyalarning rivojlanishi va onlayn ta’lim platformalarining keng tarqalishi bilan bog‘liq.

Dunyo bo‘ylab SPL metodi keng tarqalgan bo‘lib, u quyidagi ta’lim shakllarida qo‘llanilmoqda:

– Massiv ochiq onlayn kurslar (MOOC) – Coursera, Udemy, Khan Academy kabi platformalar SPL metodiga asoslangan kurslarni taqdim etadi.

– An’anaviy ta’limda qo‘llanilishi – G‘arb davlatlarida universitetlar va maktablar SPL metodini aralash ta’lim modeli orqali joriy etmoqda.

– Korporativ ta’limda qo‘llanilishi – Ko‘plab yirik kompaniyalar xodimlarini o‘qitishda SPL metodidan foydalanib, ularga mustaqil ravishda yangi bilim va ko‘nikmalarni o‘rganish imkonini bermoqda.

O‘zbekistonda SPL metodini keng joriy etish hali boshlang‘ich bosqichda turibdi. Asosiy muammolar quyidagilardan iborat:

An’anaviy ta’lim modeliga tayanish – O‘qitish jarayoni asosan sinfda o‘qituvchi boshchiligida amalga oshiriladi, bu esa o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishiga kam imkoniyat qoldiradi.

– Texnologik infratuzilmaning yetishmovchiligi – Internet tarmog‘ining sifati va raqamli qurilmalar taqsimoti

– O‘qituvchilarning yangi metodlarga tayyor emasligi – O‘qituvchilar SPL metodining afzalliklarini to‘liq tushunmagan yoki uni samarali qo‘llash ko‘nikmalariga ega emaslar.

Shunga qaramay, O‘zbekiston hukumati va ta’lim muassasalari SPL metodini joriy etish bo‘yicha bir qator tashabbuslarni ilgari surmoqda. Jumladan:

– Masofaviy ta’lim platformalarining rivojlanishi – O‘zbekistonda “Ziyonet”, “Bilimlar akademiyasi” kabi platformalar joriy etilgan.

– Xalqaro hamkorlik – ta’lim tizimini raqamlashtirish bo‘yicha Jahon Banki, UNESCO kabi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda.

– Ta’lim islohotlari – oliy ta’lim tizimida kredit-modul tizimining joriy etilishi SPL metodini qo‘llash uchun imkoniyat yaratmoqda.

SPL metodini rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar:

– Texnologik infratuzilmani yaxshilash. SPL metodining samarali joriy etilishi uchun internet sifati yaxshilanishi va barcha o‘quvchilar uchun raqamli qurilmalar yetkazib berilishi kerak.

TAMADDUN NURI

– O‘qituvchilarni tayyorlash. SPL metodini samarali joriy etish uchun o‘qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni o‘rgatish va ularni raqamli texnologiyalar bilan tanishtirish lozim.

– O‘quv dasturlarini moslashtirish. Ta’lim dasturlariga SPL metodiga mos keluvchi materiallar va baholash tizimlari joriy etilishi zarur.

– O‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish. O‘quvchilarga mustaqil ta’lim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi kerak.

– Dunyo tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda SPL metodini joriy etish bo‘yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish lozim.

Self-Paced Learning metodining ta’lim jarayoniga joriy etilishi o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olish qobiliyatlarini rivojlantirishga, ta’lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Dunyo miqyosida bu metod samarali ishlayotgan bo‘lsa-da, O‘zbekistonda uni to‘liq joriy etish uchun texnologik infratuzilmani rivojlantirish, o‘qituvchilarning malakasini oshirish va o‘quvchilarning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirish zarur. SPL metodining joriy etilishi O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va global ta’lim standartlariga moslashtirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Knowles, M.S. (1984). Self-Directed Learning: A Guide for Learners and Teachers. New York: Cambridge, The Adult Education Company.
2. Blaschke, L.M. (2012). Heutagogy and Lifelong Learning: A Review of Heutagogical Practice and Self-Determined Learning. The International Review of Research in Open and Distributed Learning, 13(1), 56-71.
3. Mayer, R. E. (2020). Evidence-based principles for how to design effective instructional videos. *Journal of Applied Research in Memory and Cognition*, *10*(2), 229-240.
4. Choi, Y., & Anderson, W. J. (2016). Self-Directed Learning with Feedback. *Journal of College Science Teaching*, *46*(1), 32-38.
5. Bergmann, J., & Sams, A. (2012). *Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day*. International Society for Technology in Education.
6. Garrison, D.R., & Vaughan, N.D. (2008). Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. San-Fransisko: Jossey-Bass. 12-14.
7. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Self-Determination Theory and the Facilitation of Intrinsic Motivation, Social Development, and Well-Being. *American Psychologist*, *55*(1), 68-78.

TAMADDUN NURI

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 94

SAYFIDDIN QUTUZ TARIXINING YANGI SAHIFALARI

Atajanov G'ulomjon Urinboyevich, Oriental universiteti magistranti, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Xorazm viloyati bo'limi bosh mutaxassisi

NEW PAGES OF THE HISTORY OF SAIFIDDIN KUTUZ

Atajanov Gulomjon Urinboyevich, master's student of Oriental University, chief specialist of the Khorezm regional branch of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment

НОВЫЕ СТРАНИЦЫ ИСТОРИИ САЙФИДДИНА КУТУЗА

Атажанов Гуломжон Уринбоевич, магистр университета Oriental, главный специалист Хорезмского областного филиала Республиканского центра духовности и просветительства

https://orcid.org/0009-0002-9843-4255

e-mail: gulomjonotajonov@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada Yevroosiyo mintaqasining mo'g'ullar tomonidan istilo etilishi, musulmon olamining so'nggi tayanchi bo'lgan Mamluklar davlatining tuzilishi, Sayfiddin Qutuzning tarix sahnasiga chiqishi va u boshchiligida Ayn Jalut jangidagi tarixiy g'alaba haqida mulohazalar qayd etilgan.*

Kalit so'zlar: *Anushteginiylar, Jaloliddin Manguberdi, Ayyubiylar, Maqriziy, Mahmud ibn Mamdud, Shajar at-dur, Ayn Jalut, Xulogu, Kitbug'a, Beybars Bunduqdoriy.*

Abstract: *The article discusses the Mongol conquest of the Eurasian region, the establishment of the Mamluk state as the last stronghold of the Muslim world, the rise of Sayf al-Din Qutuz to the historical stage, and the historic victory under his leadership at the Battle of Ain Jalut.*

Key words: *Anushteginids, Jalaliddin Manguberdi, Ayyubids, Maqrizi, Mahmud ibn Mamdud, Shajar at-Dur, Ain Jalut, Khulagu, Kitbuga, Baybars Bunduqdari.*

Аннотация: *В статье упоминается завоевание Евразийского региона монголами, образование государства мамлюков, последнего оплота мусульманского мира, появление на арене истории Сайфиддина Кутуза и историческая победа в битве при Айн-Джалуте под его руководством.*

Ключевые слова: *Ануштегиниды, Джалалиддин Мангуберди, Айюбиды, Макризи, Махмуд ибн Мамдуд, Шаджар ат-Дур, Айн Джалут, Хулогу, Китбуга, Бейбарс Бундукдари.*

KIRISH (INTRODUCTION). 1219-yil Chingizxon va uning 3 o'g'li boshchiligidagi 150 ming kishilik mo'g'ul qo'shini Xorazmshohlar mamlakatiga yurish qiladi. Mamlakat "O'tror voqeasi" bahonasida boshlangan 1221-yilga kelib 4 qismga bo'lingan Chingizxon qo'shini tomonidan birin-ketin egallanadi. Dastlab O'tror, Xo'jand, Banokat, Jand, Yangikent, Borchig'likent, Sig'noq,

Buxoro, keyinchalik Samarqand, Gurganj va boshqa shaharlar zabt etildi. Bu shaharlar ichida faqatgina Gurganj va O‘tror shaharlari qariyb yarim yildan ziyodroq, Toliqon esa bir yildan ortiq vaqt davomida qamalga dosh bera oldi, xolos.

Mamlakat poytaxti Gurganch Chingizxonning topshirig‘iga ko‘ra, o‘g‘illari Chig‘atoy va O‘qtoy tomonidan qamal qilindi. Keyinchalik ularga Jo‘ji o‘z qo‘shinlari bilan qo‘shildi[1]. Bu paytda Alouddin Muhammad Abeskunga qochgan, Jaloliddin Manguberdi unga uyushtirilajak suiqasd haqida eshitib Temur Malik bilan Xurosonga qarab ketgan, Turkon xotun esa o‘z xizmatkorlari, nabiralarini olib vazir Muhammad ibn Solih bilan Mozandarondagi Ilal qal’asiga yashiringan edi[2]. Gurganch 7 oylik qamaldan so‘ng mo‘g‘ullar tomonidan egallanadi.

1221-yil Ilal qal’asida turgan Turkon xotun Subutoy boshchiligidagi mo‘g‘ullar tomonidan 15 kunlik qamaldan keyin taslim etiladi va Toliqonga, Chingizxon huzuriga yuboriladi[3]. Tadqiqochilar tomonidan esa o‘rganayotgan qahramonimiz Sayfiddin Qutuz mana shu davrda mo‘g‘ullar qo‘liga asir tushgani taxmin qilinadi[4].

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW). Sayfiddin Qutuz tarixi bilan bog‘liq ma’lumotlarni o‘rta asrlarning bir qator manbalarida uchratish mumkin. Afsuski, ushbu birlamchi manbalarning deyarli hech biri o‘zbek tiliga o‘girilmagan. Ayniqsa, Mamluklar davri tarixchilari asarlarida ma’lumotlar nisbatan batafsil taqdim etiladi. Umuman olganda, Sayfiddin Qutuz tarixiga oid manba va tadqiqotlarni quyidagi toifalarga ajratishimiz mumkin: 1.Musulmon manbalari; 2.Mo‘g‘ul manbalari; 3.Xristian manbalari; 5.Arman manbalari; 6.Suryoniy manbalar; 7.Zamonaviy tadqiqotlar[5].

Musulmon manbalari orasida Sayfiddin Qutuz haqidagi eng noyob va ishonchli ma’lumotlar **Abu Muhammad Taqiyuddin Ahmad Maqriziy**ning (1364-1442-yy.) **“As–suluk li-ma’rifat duval al-mulk”** (“Podsholarning davlatlarni bilish yo‘llari”), Maqriziyning shogirdi **Ibn Tangriberdi**ning (1411-1470-yy.) **“An-Nujum al-zahira fi muluk Misr val-Qohira”** (“Misr va Qohira shohlarining yorqin yulduzlari”), **Shihabiddin Fazlulloh Al-Umariy**ning (1300-1348) **“Masalik ul absor fi mamalik al-Amsar”** *(Mamlakatlarning yirik shaharlarini tavsiflash yo‘llari)*, **Shihobiddin Ahmad Ali Al-Qalqashandi** tomonidan yozilgan **“Kitab Subh al-a sha fi sinaat al-insha”**[6], shuningdek, **Abu Abdulloh Izzuddin Ibn Shaddad** (vaf.1285), **Abu Abdulloh Jamoladdin Muhammad ibn Vosil** (1208-1298), **Beybars al-Mansuriy** (vafoti 1325-yil), **Abu Abdulloh Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad Zahabiy**, **Ibn Asir, Sibt ibn al Javziy, Sayfiddin Davodoriy, Ibn Kasir**, **Ibn Holdun**, **Mirxond** hamda **Xondamir** asarlarida biz tadqiq qilayotgan davr va voqealar xususida ma’lumotlar keltirilgan[7].

Mo‘g‘ul amaldorlari topshiriqlari asosida tayyorlangan **Atomalik Juvayniyning** “Tarixi jahonkusho”, **Rashididdin Fazlulloh Hamadoniyning** “Jom’e at-tavorix”, **Qazviniyning** “Tarixi Guzida” asarlari, arman manbalari orasida **Ganjalik Kiragosning** “Arman tarixi”, **Vardapet Vardanning** “Jahon tarixi”, **Aknerlik Grigorning** “Kamonchi xalq tarixi” asarlari, suryoniy hamda xristian manbalari sifatida **Yosir Ilyos**, **Malatiy**[8]

[1] Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotixi tarixi). Nazarbek Rahim tarjimasi, mas’ul muharrirlar H.Boltaboyev, M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. B. 164.

[2] Z.Bunyodov. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231)// A.Ahmad va M.Mahmud tarj.; Mas’ul muharrir; X.Sodiqov/. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Aabiyot va san’at nashriyoti, 1998. B. 189.

[3] Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotixi tarixi). Nazarbek Rahim tarjimasi, mas’ul muharrirlar H.Boltaboyev, M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. B. 416.

[4] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

[5] Muhammed Said Güler. Moğol Istilası ve Ayniçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. S. 1.

[6] https://kmu.edu.tr/kamam/bilgi/1362/4-memlukler-donem-kaynaklari

[7] Muhammed Said Güler. Moğol Istilası ve Ayniçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. S. 1-36.

[8] Muhammed Said Güler. Moğol Istilası ve Ayniçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. S. 37-47.

asarlariga ham bu davr tadqiqotchilari murojaat qilishi mumkin bo‘ladi.

XX-XXI asrlar davomida Sayfiddin Qutuz tarixiga oid ma’lumotlarni asosan arab, turk hamda Yevropa tadqiqotchilari asarlarida topish mumkin bo‘ladi. Yevropalik tadqiqotchi Mark Mersiyerning 1999-yil chop etilgan “Mamluk tarixi bibliografiyasi”da Mamluklar davri yuzasidan turli sohalar, xususan, boshqaruv, siyosiy, harbiy, iqtisodiy, numizmatik, madaniyat va san’at, arxitektura hamda adabiyotiga oid 4 mingga yaqin ilmiy tadqiqotlar katalogi taqdim etilgan[9].

Yurtimizda esa Sayfiddin Qutuz tarixiga bag‘ishlangan tadqiqot ishlari so‘nggi yillarda yuzaga kela boshladi. Biz uchun tanish bo‘lgan **Ziyo Bunyodovning “Anushtagin Xorazmshohlar davlati. 1097-1231”** asarida bir qator ma’lumotlar keltiriladi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori **Bekzod Abdirimovning “Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha”, “Sayfiddin Qutuz – so‘nggi zarba”** asarlari orqali O‘zbekistonda keng jamoatchilikka ushbu shaxsni batafsil tanishtirishning dastlabki yirik qadamlari bosildi. **Shahodat Ulug‘** tomonidan **“Xaloskor Sulton Sayfiddin Qutuz”** tarixiy romani bosilib, Sayfiddin Qutuz badiiy adabiyotda ham o‘z o‘rnini topa boshladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA (DISCUSSION). Sayfiddin Qutuzning kelib chiqishi haqidagi qarashlar. Qutuz so‘zining mazmuni borasidagi tahlillar. Sayfiddin Qutuzning dunyoga kelishi va oilasi bilan bog‘liq ma’lumotlarda ayrim chalkashliklar mavjud. Umuman Sayfiddin Qutuzning dunyoga kelishi va oilasi xususida eng asosiy ma’lumotni Maqriziyning “As-suluk fiy ma‘rifa duval al-muluk” asarida, shuningdek, Ibn Tangriberdi, Zahabiy, Ibn Xaldun, Suyutiy[10], Abdulloh Yununiy, An-Nuvayriy, Al-Ayniy[11]larning asarlarida uchratish mumkin. Ularga ko‘ra Sayfiddin Qutuz Anushteginiylar sulolasining vakili bo‘lib, uning to‘liq ismi Mahmud ibn Mamdud Sayfiddin Muzaffar Qutuzdir. Manbalarda otasi Jaloliddin Manguberdining amakisi, onasi esa opasi ekanligi keltiriladi[12]. Qutuzning otasining kimligi haqida fikr bildirilar ekan, turkiyalik tadqiqotchi Altan Chetin sulton Alouddin Muhammad Xorazmshoh qizlaridan birini Mamdud ismli qarindoshiga turmushga bergani, Qutuzning otasi Mamdud Alouddin Muhammadning inisi bo‘lgan Tojiddin Alishoh, Yunus xon, To‘g‘an tug‘di yoki Malikshohning, yo mazkur xonadonga mansub boshqa bir shaxsning o‘g‘li bo‘lishi mumkinligi haqida[13] *aytadi*. Qutuzning onasi sifatida esa Xonsulton bir necha joyda qayd etiladi. Xonsultonning Samarqand xoni Usmonning xotini bo‘lganligi, Usmonning Xonsultonga qo‘pol munosabatidan keyin – 1212-yil Samarqand Alouddin Muhammad tomonidan egallangani ma’lum. Juvayniyga ko‘ra, mo‘g‘ullar istilosidan keyin Chingizxon 1221-yil Ilal qal’asidan keltirilgan Turkon xotun va oilasini, aynan Xorazmshoh qizlarining ikki nafarini Chig‘atoyga asir sifatida beradi. Nasaviy esa Xonsulton Jo‘jiga berilganini qayd etadi[14]. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, keyinchalik Jo‘ji va Xonsultondan Oltin o‘rdaning

[9] https://www.academia.edu/34772375/An_mamluk-_history_bibliography_pdf

[10] B.Abdirimov, W.Sajjad. Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda / Sultan Jalaluddin Khuwarzam Shah In Pakistan. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. B. 202.

[11] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

[12] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

[13] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

[14] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 316.

birinchi musulmon xoni Berkaxon tug‘iladi[15]. Manbalarda Xonsulton Jo‘ji vafotidan keyin mo‘g‘ullarga oid ma’lumotlarni Jaloliddinga yetkazib turgani haqida ham aytiladi[16].

Yuqoridagi ma’lumotlar asosida xulosa qilish mumkinki, Sayfiddin Qutuz Ilal qal’asida Turkon xotun bilan birga asirga tushadi va mo‘g‘ullar tomonidan Damashq qul bozoriga sotiladi. Dastlab uni Ibn Zaim ismli shaxs qul qilib oladi. Aynan mana shu shaxs sababli va ayyubiylarning ishonchli amiri Izaddin Oybek vositasida Qohiraga keladi. Tadqiqotlarda 1241–1242-yillarda Shomdagi harbiy harakatlarda mag‘lub bo‘lib, Bag‘dod xalifasi Mustansir Billohdan yordam olish uchun borgan xorazmliklarga sulton Jaloliddinning singlisining o‘g‘li bosh bo‘lgan sharqiy kuchlar Sherozdan kelib qo‘shilgani qayd etiladi[17].

Ibn Tangriberdi Mahmud ibn Mamdudga Qutuz nomi mo‘g‘ullar tomonidan berilganligi, bu so‘z esa “Quturgan it” degan ma’noni bildirishi yoziladi[18]. Sayfiddin Qutuz haqidagi rivoyatlarda esa Qutuzning asl ismi Mahmud ekanligi keltirilgan. Jumladan, Yununiy, Nuvayriy, Tangriberdilar keltirgan rivoyatga ko‘ra, Qutuzning ilk xojasi bo‘lgan Ibn Zaim kunlarning birida uni kaltaklab, oziq-ovqat bermay jazolaydi. Xojasi undan: “Ota-onang kofir emasmi?” – deganida Qutuz: “Yo‘q, men musulmon o‘g‘liman, Xorazmshoh Muhammad qizining o‘g‘liman. Men podshohlar avlodidanman, ismim Mahmud, otamning ismi Mamdud. Men bir kuni Misrga borib, Mo‘g‘ullarni yengaman”, – deb javob beradi[19]. Sayfiddin Qutuzga berilgan Qutuz so‘zining ma’nosi haqida Bekzod Abdirimovning “Sayfiddin Qutuz – so‘nggi zarba” asarida yangicha fikrlar ilgari suriladi. Xususan, *Qutuz* so‘zining kelib chiqishi turkiycha bo‘lib, so‘zning o‘zagi bo‘lgan *“qut”*dan olingan va bu odatda “baraka” so‘zi bilan qo‘shma so‘z sifatida ishlatiladi. Shu bilan birga, *“qut”* so‘zi “Qut-li”, “Qut-lug‘”, “Qut-lov” kabi so‘zlarning o‘zagi bo‘lib ham keladi[20]. Xalqimizda bugungi kunda ham “Qut” o‘zagiga qurilgan ismlar uchraydi – Qutlibika, Qutlimurod va hokazo. Shunday ekan, aytish mumkinki, Mahmud ibn Mamdudga mo‘g‘ullar tomonidan berilgan Qutuz nomi “Quturgan it” ma’nosida emas, “Baraka”, “Baxt” ma’nosida qo‘llanilgan bo‘lishi haqiqatga yaqin.

Ayyubiylarning parchalanishi va Mamluklar davlatining tashkil topishi. XII asrning 70-yillarida Salohiddin Ayyubiy sa’y-harakatlari bilan Misr, Yaqin Sharq, Arabiston yarim oroli hududlarida vujudga kelgan Ayyubiylar davlati salibchilarga qarshi kurashdagi g‘alabalari bilan tarixda katta iz qoldirdi. Biroq Salohiddin Ayyubiyning vafotidan so‘ng uning farzandlari va qarindoshlari tomonidan hokimiyat uchun kurash, mulk va toj talashuvi davlatni inqiroz sari olib keldi. Dastlab Qohirada Aziz Usmon, Damashqda Afzal ibn Salohiddin, Halabda Zohir bir-biridan mustaqil hukm yuritadilar. XIII asrning birinchi yarmi esa o‘zaro taxt talashuvlari bilan o‘tadi. Faqatgina Halab 1260-yilgacha Salohiddinning vorislari qo‘lida qoldi. Misr 1250-yilga kelib mamluklar qo‘l ostiga o‘tib ketgandi[21].

XIII asrning ikkinchi choragiga kelib esa G‘arbda salibchilar qayta uyg‘onayotgan, musulmon yerlariga qayta hujum qilayotgandi. Sharqda tarqoq Rum saljuqlari hamda Xorazmshohlar davlati kuchayib kelayotgan mo‘g‘ullar ta’sirida Yaqin Sharqdagi siyosiy jarayonlarga ko‘proq aralasha boshladilar. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdining vafotidan keyin, xususan, 1237–1246-yillarda uning

[15] B.Abdirimov, W.Sajjad. Sulton Jaloliddin Xorazmshoh Pokistonda / Sultan Jalaluddin Khuwarzam Shah In Pakistan. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. B. 202.

[16] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 317.

[17] D.Sabri Salim. al-Atrok al-Khwarezmiyun fi-sh-sharqi-l-adna-l-islami. – Cairo, 2000.

[18] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 314.

[19] Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. S. 315-316.

[20] А. Мадвалиев. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти” Тошкент. 2020. - Б. 391.

[21] SH.Vohidov. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. - B. 218.

harbiy kuchlari Yaqin Sharqda muhim rol o‘ynadi. Bu davrda barcha Xorazm harbiy kuchlariga amir Muhammad Barakatxon ibn Davlat Malik rahbarlik qiladi. Uning qarorgohi Harron qal’asi edi[22]. Hisn Kayfdagi ayyubiy hukmdor Malik Solih ularni o‘zining Raqqa, Saruch, Xarran va Urfa kabi Ko‘niya saljuqiylari bilan chegaralarga joylashtiradi. Malik Solih Ayyubiy amirliklari ichida ko‘zga ilinmaydigan chekka hududdagi amirlik darajasidan keyinchalik Misr hukmdori darajasigacha ko‘tariladi. Bu darajaga ko‘tarilishida xorazmlik harbiy qismlar muhim rol o‘ynaydi.

1238-yil Misr hukmdori Malik Komil vafot etishi natijasida ayyubiylar o‘rtasida ichki urushlar qizib ketadi. Malik Komilning o‘g‘li Malik Odil taxtga o‘tiradi. Xorazmliklar tomonidan qo‘llab-quvvatlangan Malik Solih taxtni tortib olishga kirishdi. 1240-yil aprel oyida Malik Solih Misr hukmdori bo‘lgan akasi Malik Odilga qarshi harakat boshladi va o‘sha yili Misr poytaxti Qohirani egallab, o‘zini Misr hukmdori deb e’lon qiladi. Malik Solih shundan boshlab xorazmliklardan iborat yollanma qo‘shinning harbiy quvvatidan foydalanish ahamiyati va samarasini tushungan holda, ularning O‘rta Yer dengizi qirg‘oqlari va Misrga ko‘chib kelishlarini rag‘batlantiradi.

1249-yili Mansura shahri yaqinida salibchilar bilan bo‘ladigan jangga tayyorgarlik davomida Malik Solih kasallik tufayli vafot etadi. Malik Solihning xotini Shajaratud-Dur hukmdorning vafot etganligini sir saqlab, uning Hisn Kayfda hokimlik qilayotgan o‘g‘li Turonshohni chaqirtiradi va urushni muvaffaqiyatli yakunlaydi. Shajaratud-Durning uddaburonligi sababli 1250-yili Malik Solih o‘rnini o‘g‘li Turonshoh egallaydi. Turonshoh ham mamluklar (ayrim manbalarda Farisuddin O‘qtoy, ayrimlarida Beybars) qo‘li bilan o‘ldiriladi. Hokimiyat amalda Shajaratud-Dur qo‘liga o‘tadi. Juma namozlarida minbardan turib, xutbaga musulmonlarning abbosiy xalifasi haqiga qilingan duolardan keyin Shajaratud-Durning nomi qo‘shib o‘qila boshladi. Biroq ko‘p o‘tmay uning hukmronligiga qarshi barcha joylarda g‘alayonlar boshlanadi. Xalq musulmonlar boshida ayol kishi turganidan norozi edi. G‘alayonlardan sakkiz kun o‘tib, Shajaratud-Dur taxtdan voz kechdi va Mu’iz mamluklari amiri Izzaddin Oybekka turmushga chiqdi. Bu nikoh Shajaratud-Durga Misr taxtini norasmiy bo‘lsa-da egallash huquqini berardi.

Izzaddin Oybek 1250–1257-yillarda Misrni boshqardi. Uning haqiqiy ma’noda hukmroniligiga mamluklardan O‘qtoy va Beybarslarning Misrdagi katta mavqei to‘sqinlik qilmoqda edi. Ayni vaqtda Suriya ayyubiylari Misrdagi mamluklar davlatini tan olmasdan unga qarshi kurashadilar, biroq ularga qarshi kurashlar jarayonida Izzaddin Oybekning obro‘si osha boradi. Izzaddin Oybekning Bahriy mamluklari va Shajaratud-Dur ta’siridan qutilishida o‘zi tomonidan tuzilgan “Mu’iz mamluklari” (Oybek mamluklari) guruhining o‘rni katta bo‘ladi. Bu guruhda xorazmliklar ko‘pchliklni tashkil qilar edilar.

Sayfiddin Qutuzning hokimiyatga kelishi. Ayn Jalut jangi. Izzaddin Oybekning mustaqil davlat boshqarishida, Bahriy mamluklaridek katta tayanchga ega bo‘lgan malika Shajaratud-Durning aralashuvini tugatishda “Muizz mamluklari” guruhining o‘rni katta bo‘ldi. Mana shu mamluklarga Sayfiddin Qutuz boshchilik qiladi. Misr sultoni malikaning imkoniyatlarini qisqartirish uchun uning tayanchi bo‘lgan Bahriy mamluklari sardori Farisuddin O‘qtoyni yo‘q qildi. Shundan so‘ng yana bir mamluk sarkardasi Beybars boshchiligidagi Bahriy mamluklari tarqalib, Misrni tashlab, Suriyaga chiqib ketadilar. Ko‘p o‘tmay 1257-yili malika Shajaratud-Dur tomonidan uyushtirilgan fitna natijasida Izzaddin Oybek o‘ldiriladi. Sayfuddin Qutuz va Nuriddin Ali (Izzaddin Oybekning boshqa xotinidan tug‘ilgan o‘g‘li) fitna sababchisi bo‘lgan malika Shajaratud-Durni qatl qildiradi. Sayfiddin Qutuz boshchiligidagi Muizz mamluklari Oybekning fojeali o‘limi sabab bo‘sh qolgan taxtga uning o‘n besh yoshli o‘g‘li Nuriddin Ali ibn Muizz Oybekni chiqarish kerak, degan xulosaga keldilar. 1257-yil Nuriddin Alini taxtga o‘tqazdilar va unga Malik Mansur Ali laqabini

[22] Бунятов .З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов 1097 – 1231 гг. – Баку: Элм, 1999. – С. 115.

berdilar. Ayrim mamluklar yosh bolani sulton deb e'tirof etishdan bosh tortdilar va ularning noroziliklari sabab bir necha tartibsiz qo'zg'olonlar sodir bo'ldi. Taxtga yoshi kichik bo'lgan bolaning o'tirg'izilishidan maqsad – vaqtdan yutish bo'lib, shu fursat ichida mamluklarning boshliqlaridan biri saltanat taxtini egallashi kerak edi. Qutuz endi davlatni rasmiy ravishda boshqarishga qaror qilib, yosh shahzodani taxtdan tushiradi va shu tariqa 1259-yilda Misr diyori hukmdoriga aylandi. Mamlakatdagi katta amirlar ham uning sultonligiga rozi bo'ldilar. Va uni podshoh taxtiga o'tqizib, "Muzaffar" nomi bilan chaqira boshladilar[23].

Sayfuddin Qutuz mamlakat ichkarisida tinchlikka erishgan bo'lsa-da, tashqi siyosatda ancha ehtiyotkor edi. Chunki, bu paytga kelib mo'g'ullar Bag'dodni egallab, saltanat chegarasiga yaqinlashib qolgandi.

Shunday paytda Misrga Xulagu tomonidan 40 nafardan iborat elchilar guruhi yetib keladi. Sayfuddin Qutuz barcha amaldorlari, ulamolar, vazirlar va qo'shinboshilarni chaqirib Oliy Kengash yig'adi[24]. Yig'ilishda mo'g'ullarning yengilmasligi haqidagi turli rivoyatlar og'izdan-og'izga o'tib kelayotgani xalq kabi majlis ishtirokchilarini ham ko'ngliga qo'rquv solgan edi. Yig'ilishda xorazmlik amir Nosiriddin Muhammad Ximriy ham mo'g'ullarning va'dalariga ishonib bo'lmasligini ta'kidlaydi. Qutuz yig'ilishda mo'g'ullarga qarshi urush e'lon qiladi. Qutuz 4 nafar mo'g'ul elchilarini qatl qildirib, birining boshini Jabal qal'asi tagidagi Xayl bozoriga, yana birining boshini Zuvayl darvozasiga, uchinchisinikini Nasr darvozasiga va to'rtinchisinikini Raydoniya darvozasiga ostirdi.

Oxir-oqibat, 1260-yil 3-sentabr kuni Sayfiddin Qutuz boshchiligidagi Misr qo'shini Falastindagi Ayn-Jalut maydonida Kitbug'a boshchiligidagi mo'g'ul lashkari bilan to'qnashadi.

Jang arafasida Mamluk askarlarining ruhi baland bo'lsa ham, amirlarning hadik va qo'rquvi kuchli bo'lgan va iloji boricha mo'g'ullar bilan urush qilishni istashmagan. Sayfiddin Qutuz jang qilishini istamagan amirlarni darra bilan jazolagan va deyarli har bir muhim pallalarda jangovar nutqlar qilib qo'shinni olg'a boshlagan.

Ayn Jalut maydoniga kirib kelgan Qutuz maydon atrofidagi chakalakzorlarga qo'shinlarni yashirishga va pistirmalar qo'yishga muvaffaq bo'ladi. Mo'g'ullarda Qutuzning pistirmadagi qo'shini haqida ma'lumotlar yo'q edi. Jang mo'g'ullarning Beybars qo'shiniga hujumi bilan boshlanadi. Qo'shinining asosiy qismi esa Qutuzning jangga kirish ishorasini kutib turar edi. Rejaga ko'ra, dovullar va boshqa cholg'u asboblari chalinib, ishora berilganda Beybars armiyasi o'zlarini qochayotgan ko'rsatib, vodiyning ichkarisiga chekinadi. Mo'g'ullar esa tuzoqni sezmasdan ularning ortidan ta'qib qilib, vodiyning ichkarisida yashiringan katta qo'shin tomon qarab boradilar. Keyin esa burg'u va dovullar chalinib yashiringan qo'shin quvib kelayotgan mo'g'ullarning atrofini o'rab olishadi. Hatto mo'g'ul qo'shini orqasini o'rab olishga ham muvaffaq bo'ladilar. Nihoyat mo'g'ul qo'shini jang maydonini tashlab ketishdan boshqa chora topolmaydi. Jang mamluklarning to'liq g'alabasi bilan tugaydi. Atrofdagi qamishzorga yashiringan mo'g'ullar ham mamluklar tomonidan yo'q qilinadi.

Qutuzning armiyasi bir necha hafta ichida butun Shomni mo'g'ullardan tozalashga muvaffaq bo'lishdi va Qutuz, o'n yillik parokandalikdan so'ng Misr va Shomning birlashganligini e'lon qildi. Misr, Falastin va Shomning barcha shaharlaridagi masjidlarda Qutuz nomi xutbaga qo'shildi.

Sayfiddin Qutuz Shomda tartib o'rnatib, o'z qo'shini bilan 1260-yili Qohiraga yo'lga chiqadi. Misrda esa sulton Sayfiddinni kutib olishga katta tayyorgarlik ko'rilayotgan edi. Qohira devorlari bo'ylab bezaklar o'rnatilgandi. Qusayrga yetib kelganida sulton shu yerda to'xtadi. Qo'shinning boshqa qismi esa Misrning sharqiy viloyatidagi Solihiyyada chodir tikladi. Ana shu damlarda Sayfiddin Qutuz va Beybars Bunduqdoriy o'rtasidagi munosabatlar taranglashdi. Chunki, Sayfiddin Qutuz Beybarsga va'da qilingan Halabni bermagan edi. O'zining jasurligi va hiyla-

[23] Fatih Güzel Hülya Karababa Çakir. Kuruluş devrinde bir memluk sultani: Melikü'l-Muzaffer Seyfeddin Kutuz. Karefad. Tezis. Cilt: 7, Sayi: 2, Ekim, 2019. – S. 256.

[24] Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1946. Т. III. – С. 57.

nayranglari bilan tanilgan Beybars Bunduqdoriy o‘z ittifoqdoshlari bilan Solihiyya yaqinidagi Qusayr shahri atroflarida ov qilishni rejalashtirgan Sayfiddinni o‘ldirish uchun otlandilar. Ovga otlanayotgan Qutuzga Beybarsning ishorasi bilan hujum qildilar va bir necha bor xanjar urib qatl etdilar. Beybars Bunduqdoriy shu bilan hokimiyatni o‘z qo‘liga oldi.

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Asosini turkiy xalqlar tashkil etgan mamluklar ta’siri ostida Misr va Yaqin Sharq mintaqasida yangi bir davlatning yuzaga kelishi, Sayfiddin Qutuzning tarix sahifasida paydo bo‘lishi, Ayn Jalut jangi va undagi g‘alabani nafaqat turkiy va musulmon xalqlari uchun, balki butun dunyo tarixidagi hal qiluvchi hodisa deb baholash mumkin. Chunki bu ulkan g‘alaba faqat islom olamini qutqarib qolmadi, Yevropa dunyosini va Yevropa madaniyatini ham mo‘g‘ullar bosqinidan qutqarib qoldi. Aks holda mo‘g‘ullar Misrdan so‘ng Sitsiliya va Gibraltar orqali Yevropaga o‘tib borgan bo‘lar edi[25];

Shuningdek, mazkur g‘alaba natijasida Misr davlati qayta birlashib, o‘rta asrlardagi eng gullagan davrni boshdan kechirdi, Sharqning ilm-fan, madaniyat markaziga aylandi;

Bir necha asr mobaynida Misr Mamluklar davlati Islom dini himoyachisi hamda markazi sifatida mavjud bo‘ldi.

FOYDALANILGAN MANBALAR VA ADABIYOTLAR:

1. Shihobiddin Muhammad an-Nasaviy. Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti tafsiloti. / Kamol Matyoqubov tarjimasi./ – T.: O‘zbekiston, 2006. – 384 b.
2. Alouddin Atomalik Juvayniy. Tarixi Jahonkusho (Jahon fotihi tarixi). Nazarbek Rahim tarjimasi, mas’ul muharrirlar H.Boltaboyev, M.Mahmudov. – Toshkent: MUMTOZ SO‘Z, 2015. 504 b.
3. Рашид ад-Дин. Сборник летописей. – М.-Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1946. Т. III., 337 с.
4. Altan Çetin. Celaleddin Mengüberdi’nin akrabasi moğolları yenen harzemşahlı bir mamlük sultanı Kutuz’un kökeni hakkında bazı tespitler.//Harzemşahlar ve etrafındaki dünya. – Bursa: EKIN, 2024. 418 s.
5. Abdirimov B. W.Sajjad. Ikki buyuk sarkarda yoxud Jaloliddindan Qutuzgacha. – Toshkent: Yoshlar mediaprint, 2021. 248 b.
6. Bunyodov Z. Anushtagin Xorazmshohlar davlati (1097-1231)/A.Ahmad va M.Mahmud tarj.; Mas’ul muharrir; X.Sodiqov/. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Aabiyot va san’at nashriyoti, 1998. 256 b.
7. Sabri Salim D. Al-Atrok al-Khwarezmiyun fi-sh-sharqi-l-adna-l-islami. – Cairo, 2000.
8. Fatih Güzel, Hülya Karababa Çakir. Kuruluş devrinde bir memluk sultani: Melikü’l-Muzaffer Seyfeddin Kutuz. Çankırı Karatekin Üniversitesi Karatekin Edebiyat Fakültesi Dergisi. Tezis. Cilt: 7, Sayi: 2, Ekim, 2019. 256 s.
9. Muhammed Said Güler. Moğol Istilası ve Ayniçalüt savaşı. Yüksek lisans tezi. – İstanbul, 2018. 394 s.
10. Rajabov Q., Amonova F., Qandov B. O‘zbekiston tarixi. – Toshkent: “Ochun” nashriyoti, 2024. 512 b.
11. Vohidov Sh. Sharqning mashhur sulolalari. – Toshkent: Akademnashr, 2013. 624 b.
12. Мадвалиев А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энцклопедияси Давлат илмий нашриёти” Тошкент. 2020. 592 b.
13. Али Муҳаммад ас-Соллобий. Султон Сайфиддин Қутуз ва Айн-Жалут жанги. – Қоҳира, 2009. 422 b.
14. URL:https://kmu.edu.tr/kamam/bilgi/1362/4-memlukler-donem-kaynaklari
15. URL:https://www.academia.edu/34772375/An_mamluk_history_bibliography_pdf

[25] Али Муҳаммад ас-Соллобий. Султон Сайфиддин Қутуз ва Айн-Жалут жанги. – Қоҳира, 2009. - Б. 125.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:1:111:378 (575.1)

YUSUF XOS HOJIBNING SIYOSIY FALSAFASI "UCHINCHI RENESSANS" KONSEPSIYASI TALQINIDA

Turabova Sevara Kattaqulovna, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi dotsenti

YUSUF KHASS HAJIB'S POLITICAL PHILOSOPHY IN THE INTERPRETATION OF THE 'THIRD RENAISSANCE' CONCEPT

Turabova Sevara Kattakulovna, Associate Professor of the Department "Social Sciences" of the Termez University of Economics and Service

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ФИЛОСОФИЯ ЮСУФА ХОС ХОДЖИБА В ИНТЕРПРЕТАЦИИ КОНЦЕПЦИИ "ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА"

Турабова Севара Каттакуловна, доцент кафедры "Социальные науки" Термезского университета экономики и сервиса

https://orcid.org/0000-0001-9028-6943
e-mail: turobova.sevara@mail.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqola Yusuf Xos Hojib siyosiy tafakkurining "Uchinchi Renessans" konsepsiyasi doirasidagi o'rni va uning hozirgi davlatchilik modelini shakllantirishdagi ahamiyatini tahlil qilishga qaratilgan. Bugungi siyosiy jarayonlar nuqtayi nazaridan qaraganda, mutafakkirning fikrlari davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlash, adolat va qonun ustuvorligini ta'minlash, siyosiy rahbariyatning samaradorligini oshirish borasida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.*

Kalit so'zlar: *Yusuf Xos Hojib, Qutadg'u bilig, Uchinchi Renessans, siyosiy tafakkur, davlat boshqaruvi, adolat, qonun ustuvorligi, ma'naviy tiklanish, siyosat, rahbar mas'uliyati.*

Abstract: *This article is dedicated to analyzing the role of Yusuf Khass Hajib's political thought within the framework of the "Third Renaissance" concept and its significance for the formation of the modern state structure. From the perspective of contemporary political processes, the thinker's ideas hold important theoretical and practical value for strengthening the relationship between the state and society, ensuring justice and the rule of law, as well as enhancing the effectiveness of political leadership.*

Keywords: *Yusuf Khass Hajib, Kutadgu Bilig, Third Renaissance, political thought, state governance, justice, rule of law, spiritual revival, politics, responsibility of leadership.*

Аннотация: *Настоящая статья посвящена анализу роли политического мышления Юсуфа Хос Хожиба в контексте концепции "Третий Ренессанс" и его значения для формирования современного государственного устройства. С точки зрения современных политических процессов, идеи мыслителя имеют важное теоретическое и практическое значение для укрепления взаимосвязей между государством и обществом, обеспечения справедливости и верховенства закона, а также повышения эффективности политического руководства.*

Ключевые слова: *Юсуф Хос Хожиб, Кутадгу Билик, Третий Ренессанс, политическое мышление, государственное управление, справедливость, верховенство закона, духовное возрождение, политика, ответственность руководителя.*

KIRISH. (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Global siyosiy jarayonlar va davlat boshqaruvi tizimlari tobora murakkablashib borayotgan hozirgi davrda O‘zbekiston “Uchinchi Renessans” g‘oyasi asosida siyosiy va ma’naviy tiklanish yo‘lidan bormoqda. Bu jarayon jamiyat taraqqiyotining konseptual asoslarini qayta shakllantirish, demokratik institutlarni mustahkamlash va davlat boshqaruvining samaradorligini oshirishni talab qiladi. Shu nuqtayi nazardan, tarixiy merosga, ayniqsa, davlatchilik va adolat masalalariga oid mumtoz manbalarga murojaat qilishning ahamiyati ortib bormoqda.

Yusuf Xos Hojibning 1069 yili turkiy tilda yaratilgan “Qutadg‘u bilig” (Baxtga eltuvchi ilm) asari o‘z davrida Sharq-u G‘arbda dong taratgan asar bo‘lib, asarda davlat boshqaruvi va siyosiy tafakkur masalasiga doir o‘ziga xos konseptual qarashlar ham ilgari surilgan. Bu qarashlar yurtning sodiq davlat arbobi (U Qoraxoniylar davlatining “xos hojibi” davlat kotibi bo‘lgan) tomonidan bayon qilinganligi bilan diqqatni o‘ziga tortadi. Yusuf Xos Hojib o‘zining “Qutadg‘u bilig” asarida “ideal shaxs, jamiyat, davlat qanday shaklla nishi kerak, ideal shaxs fazilatlari qanday bo‘lishi lozim va bu fazilatga qanday qilib erishib bo‘ladi, mansab sohiblarining xususiy, shaxsiy hayoti va jamiyat hamda davlat manfaatlariga munosabati qay tartibda bo‘lishi shart”[3,16-b.] kabi muhim masalalarning falsafiy sistemasini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Yusuf Xos Hojib tomonidan yozilgan “Qutadg‘u bilig” asari nafaqat falsafiy-ma’rifiy, balki siyosiy-huquqiy ahamiyatga ham ega bo‘lib, hozirgi davlat boshqaruvi tizimi uchun muhim metodologik asos sifatida xizmat qilishi mumkin. Asarda adolatli hokimiyat, rahbar mas’uliyati, qonun ustuvorligi va jamiyat barqarorligi masalalari keng yoritilgan. Ushbu g‘oyalar bugungi kunda O‘zbekistonda olib borilayotgan davlat boshqaruvi islohotlari, siyosiy elita mas’uliyatini oshirish va xalqparvar davlat qurish jarayonlari bilan mutanosibdir. Yusuf Xos Hojib va uning “Qutadg‘u bilig” asari yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar keng ko‘lamli bo‘lib, ular asosan falsafiy, huquqiy, ma’naviy va adabiy jihatdan o‘rganilgan. Shu bilan birga, asarning davlat boshqaruvi va siyosiy tafakkurga ta’siriga doir tadqiqotlar ham mavjud bo‘lsa-da, ular hozirgi global siyosiy jarayonlar va “Uchinchi Renessans” konsepsiyasi nuqtayi nazaridan to‘liq qamrab olinmagan bo‘lib, ularni chuqur tahlil qilish va ommalashtirish orqali ijtimoiy taraqqiyotga katta hissa qo‘shish mumkin.

Dunyoning lingvistik tasviri — bu tilda aks etgan haqiqat, tilning dunyoni bo'lishi, til birligidan turli darajalar orqali dunyo haqidagi ma'lumotlarning uzatilishidir. Avvalo, ijtimoiy tarmoqlarda, xususan Facebook va Twitterda dunyoning til tasvirini ko'rish mumkin. Masalan, ijtimoiy tarmoqlardagi yangiliklar bo'limida "Faol mavzular" bloki mavjud bo'lib, unda saytdagi eng mashhur hashtaglar ko'rsatiladi. Bunda sayt foydalanuvchilarining menyu havolalarining nomlari ham muhim ahamiyatga ega. Facebook va Twitter: "Home" (mening sahifam), "Groups" (guruhlar/ommaviy), "News feed" (Yangiliklarim), "Saved" (Saqlanganlar), "Notification" (Javoblarim), "Do list of friends" (Do'stlarim), "Followers" (obunachilar), "Followers" (obunalar), "Tweets" (postlar), "Trends" (tematik yangiliklar) va boshqalar. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi o'zining "tarmoq" dunyo tasviridir. Shu bilan birga, ijtimoiy tarmoqlardan tashqaridagi odamlar ularning muloqot kontekstidan chetlatilgan, ular moslashmagan, yangi lingvistik stilistik o'zgarishlarga kirmagan, memlar va qisqartmalarni bilmaydilar, bu esa ba'zida suhbatdoshini tushunishda qiyinchiliklarga olib keladi.

Ijtimoiy aloqalar bilan tanish bo'lgan va bo'lmagan odamlar, hatto ular bir xil avlod yoki ijtimoiy qatlamga mansub bo'lsa ham, fundamental ravishda turli xil muloqotchilar hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ijtimoiy tarmoqlarning jonli ingliz tiliga ta'siri juda katta bo'lib, tadqiqotchilar ushbu sohani o'rganish uchun yangi imkoniyatlarni ochmoqda, va bu sohadagi eng muhim yo'nalishlardan biri (shu jumladan, leksikografik tasvirlash nuqtai nazaridan) semantik o'zgarishlarning dinamikasi va sabablari o'rganishdir. Hozirgi kunda ko'plab so'zlarga onlayn muloqotda ishlatiladigan yangi ma'nolar berilgan.

Ko'plab so'zlar World Wide Web doirasida yaratilgan va o'z ta'siri va nufuziga ega bo'lib, Oxford lug'atiga rasmiy ravishda kiritilgan. Bu so'zlardan ba'zilari – selfie, inbox, noob, phablet, derp, photobomb, sext, OMG – kundalik suhbatda shunday keng tarqalganki, biz yangi so'zlarni eski so'zlar bilan birga tilga olamiz. Ular shuningdek, og'zaki suhbatlarimizga kirib bormoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, odamlar minimal darajadagi xabarlarni ishlatishni afzal ko'rsalar-da, zamonaviy avlodning deyarli uchdan biri ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy xatlarida boy lug'atdan foydalanishga moyil bo'lib, bu ularning texnik bilimlar sohasini kengaytiradi. Chunki til Internet muloqotining ta'siri ostida o'zgargan, shuning uchun turli odamlar yozish va gapirish uslubi hamda

[3] Andreas M. Kaplan *, Michael Haenlein, Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media, 0007-6813/$ — see front matter # 2009 Kelley School of Business, Indiana University. All rights reserved. doi:10.1016/j.bushor.2009.09.003

muloqot uslublari bo‘yicha turlicha yondashuvlarga ega.

Emojilar ma’no va belgilar bilan o‘xshashlikka ega. Emoji piktogrammalari biror xarakter yoki psixologik holatni ifodalaydi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoq foydalanuvchisi matnli xabarlarda emojilarni o‘qiyotganda, bu belgilalar yuboruvchining xususiyatlarini aks ettiradi. Emoji barcha ijtimoiy tarmoqlarda (Facebook, Instagram, WA) ishlatiladi va uning ishlatilish chastotasi ortib bormoqda. Ushbu o‘sish, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlarda internet foydalanuvchilari sonining o‘sishi bilan bog‘liq. Emotikonlar ko‘plab internet foydalanuvchilari uchun yuz ifodalarining grafik ko‘rsatilishi hisoblanadi. Emotikonlarga o‘xshash bo‘lganlar esa faqat yozuv emas, balki haqiqiy tasvirlardir. Emoji — bu xabarlar va veb-sahifalarda ishlatiladigan ideogrammalar va kulgilardir. Emoji turli janrlarda bo‘lib, ularga yuz ifodalari, umumiy obyektlar, ob-havo, joylar va turlar, hayvonlar kabi turli mavzular kiradi. Emoji'ni ishonchli WA belgisi sifatida kiritish, "kulish va odamlar", "hayvonlar va tabiat", "ovqat va ichimliklar", "faoliyatlar", "sayohat va joylar", "ob'ektlar", "simvollar" va "bayroqlar" kabi ma’no va ifodalar bilan to‘ldirilgan. Har bir emotikonni ta’riflash uning ishlatilish maqsadini ta’kidlaydi. Masalan, kulgan emotikonni va uning ba’zi misollarini ko‘rib chiqaylik. Emoji nomlari uning shaxsiyatini tasvirlaydi. Masalan, "kulgan yuz" emotikoni zavq va xursandchilikni ifodalaydi, shuning uchun foydalanuvchi WA emoji'sini o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash uchun ishlatishi mumkin. Emoji nomlari ro‘yxati — bu ifoda qilish maqsadi, bu foydalanuvchining his-tuyg‘ularini ifodalash shakli sifatida konnotatsion ma’nolarni uzatish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu misol sifatida quyidagi jumlada keltirilishi mumkin[4].

Emoji	Ma’nosi
	Qoshlari tik turgan qo‘rqoq chehra, g‘ira-shira ko‘zlari yonboshiga qaragan. G‘azab, bezovtalik, g‘azab va ishonchsizlik kabi ma’yus his-tuyg‘ularni keltirib chiqarishi mumkin.
	Ikki qo‘l yurak shaklini yaratadi. Sevgini ifodalash va yordam berish uchun keng tarqalgan.
	Ko‘zlari quvnoq, yonoqlari gullab-yashnagan. Bir qator baxtni, mehrli his-tuyg‘ularni, asosan sevgini ko‘rsatadi. Qizil yuraklarning joylashuvi platformaga qarab farq qilishi mumkin.
	Katta yuzli, baland qoshli va quvnoq ko‘zli yuz, qattiq qichqirganidan ko‘z yosh tomchilab chiqqan. Ko‘pincha biror narsaning baxtli yoki yoqimli ekanligini ifodalash uchun ishlatiladi.
	Ko‘zlari yumilgan, og‘zini biroz ochgan va ko‘k zarbli burb kelayotgan o‘tkir yuz. Yumilgan ko‘z xarakterning uyqusiragan yoki charchaganligini ko‘rsatadi.
	Odatda turli xil ijtimoiy platformalarda jin sirenalari, keng yuzli, qoshlari va ko‘zlari bezovtalangan yuzga o‘xshab siqilgan binafsha yuz. Google qurilmasi qizil rangda, Facebookda esa yashil ko‘zli qora shoxlari bilan ifodalanadi.

Jadval 1. Emoji tavsiflari

[4] https://emojipedia.org/

Ijtimoiy tarmoqlarda odamlar o`rtasidagi o‘zaro aloqalar o‘zining maxsus qoidalari va qonunlari asosida yuz beradigan butun bir marosimdir. Ular ovozdan holi bo‘lib, kontaktni o‘rnatishni soddalashtirish va yozish vaqtini qisqartirishga moyil, lekin o‘rnatilgan til me’yorlarini e’tiborsiz qoldirishga emas. Ijtimoiy tarmoqlar ta’sirida ingliz tilidagi o‘zgarishlarni yaxshiroq tushunish uchun kommunikatsiya sohasidagi nazariy asosiy bilimlar o‘rganildi. Birinchi navbatda, asosiy kommunikatsiya vositalarining xususiyatlari o‘rganildi, ya’ni kommunikatsiyaning ta’rifi, uning ijtimoiy ahamiyati, bu jarayonning tomonlari, asosiy tarkibiy qismlari va ma’lumot uzatish usullari ko‘rib chiqildi. Shuningdek, kommunikatsiya tuzilmasi va nutq faoliyatining tarkibiy qismlari o‘rganildi. Ikkinchidan, ijtimoiy tarmoqlar tilining xususiyatlariga chuqur tahlil o‘tkazildi. Uning asosiy xususiyatlari ommaviylik, vositachilik, majburiy aloqalar sonining ortishi, forma va kommunikatsiya vositalari bilan uning mazmuni o‘rtasidagi qarama-qarshilik va quasi-kommunikatsiyaning faol o‘sishi sifatida belgilandi. Ijtimoiy tarmoqlarda ingliz tilining xususiyatlarini yanada to‘liq va chuqur o‘rganish uchun lingvistikaning asosiy bo‘lim-laridagi o‘zgarishlar ko‘rib chiqildi: morfologiya, leksika va sintaksis. Emoji ijtimoiy tarmoqlarda foydalanuvchilar tomonidan an'anaviy ravishda birgalikda ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalar sifatida davom etmoqda (WA).

Matnlardan olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, odamlar barcha noan'anaviy til kodlari yoki yozish tizimlaridan foydalanadilar va kontekstni e’tiborsiz qoldirib, ularning birgalikdagi ta’sirini chetlab o‘tadilar. Ijtimoiy tarmoqlar tilining bunday til va pedagogik og‘ishlari hukumat, ijtimoiy va ta’lim sohalari uchun katta tahdid soladi. Bu, ijtimoiy tarmoqlar innovatsiyasini ehtiyotkorlik bilan ishlatishga chaqiradi. Bu, tilning kommunikatsion qudrati va yoshlarning pedagogik salohiyati bizning dunyo va atrof-muhitimizni rivojlantirish, o‘zgartirish va saqlashda katta ahamiyatga ega ekanligini yodda tutganimizda haqiqatga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Andreas M. Kaplan *, Michael Haenlein, Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media, 0007-6813/$ — see front matter # 2009 Kelley School of Business, Indiana University. All rights reserved. doi:10.1016/j.bushor.2009.09.003
2. Asteroff, J.F. (1987). Paralanguage in electronic mail: A case study. Unpublished doctoral dissertation, Columbia University, New York. 1987
3. B.Danet, LRuedenberg-Wright, and Y.Rosenbaum-Tamari "HMMM...WHERE’S THAT SMOKE COMING FROM?" Writing Play and Performance on Internet Relay Chat. *J. Comput. Mediat. Commun. 2 (4): 0* (*1997*).
4. Milroy, Lesley. 1980/1987. Language and Social Networks. Oxford: B. Blackwell.
5. Nwala, M. A. (2015). Introduction to linguistics: A first course. (rev. edition Port Harcourt: Obisco Nig. Enterprises.
6. Labov, William. 2001. Principles of Linguistic Change (II): social factors. Oxford, UK: Blackwell.
7. Rezabek, Landra L. and John J. Cochenour. “Visual Cues in Computer-Mediated Communication: Supplementing Text with Emoticons.” *Journal of Visual Literacy* 18 (1998): 201-215.
8. Stewart Shapiro, Deborah J. MacInnis, Susan E. Heckler, Ann M. Perez, An experimental method for studying unconscious perception in a marketing context 1999, https://doi.org/10.1002/(SICI)1520-6793(199909)16:6<459::AID-AR2>3.0.CO;2-2
9. Terry *Flew* & Richard *Smith* ARTICLE/CHAPTER TITLE: Mobile New Media JOURNAL/BOOK TITLE: New Media: An Introduction VOLUME: DATE: *2011* . P. 279-289
10. Цветкова Л. С. Нейропсихологическая реабилитация. Речь и интеллектуальная деятельность. М.:Издательство Московского университета, 2001.
11. Широкова Е. А. Практика преподавания иностранных языков на факультете международных отношений БГУ: сборник / Е. А. Широкова. –Вып. II, 2012
12. https://daryo.uz/en/2023/03/23/uzbekistan-ranks-second-in-number-of-telegram-channels.
13. https://emojipedia.org/

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:372.8

LOYIHALASH KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJ TAJRIBASI

Alimkulov Jamshid, Chirchiq davlat pedagogika universiteti tadqiqotchisi

DEVELOPING PROJECT COMPETENCE: INTERNATIONAL EXPERIENCE

Alimkulov Jamshid, Researcher at Chirchiq State Pedagogical University

РАЗВИТИЕ ПРОЕКТНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ

Алимкулов Джамшид, исследователь Чирчикского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0009-0002-4289-3954
e-mail: jamshid12021988@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada talabalarning loyihaviy faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Unda innovatsion ta’lim texnologiyalari va loyiha asosida o‘qitish metodlarining samaradorligi o‘rganilib, talabalarning mustaqil fikrlashi, ijodiy va tanqidiy tafakkurini shakllantirishga ta’siri yoritiladi. Shuningdek, mazkur usullarni ta’lim tizimiga samarali joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *loyihaviy ta’lim, innovatsion pedagogika, zamonaviy yondashuvlar, STEAM, raqamli ta’lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash, kasbiy kompetensiyalar, amaliy ta’lim, ijodiy tafakkur, ta’lim strategiyalari.*

Abstract: *This article analyzes modern pedagogical approaches aimed at developing students’ project-based activities. It examines the effectiveness of innovative educational technologies and project-based teaching methods, highlighting their impact on fostering students’ independent thinking, creativity, and critical thinking skills. Additionally, practical recommendations are provided for effectively integrating these methods into the education system.*

Key words: *project-based learning, innovative pedagogy, modern approaches, STEAM, digital education technologies, independent thinking, professional competencies, practical education, creative thinking, educational strategies.*

Аннотация: *В данной статье анализируются современные педагогические подходы, направленные на развитие проектной деятельности студентов. Рассматривается эффективность инновационных образовательных технологий и методов проектного обучения, освещается их влияние на формирование у студентов самостоятельного мышления, творческих и критических навыков. Кроме того, представлены практические рекомендации по эффективному внедрению этих методов в систему образования.*

Ключевые слова: *проектное обучение, инновационная педагогика, современные подходы, STEAM, цифровые образовательные технологии, самостоятельное мышление, профессиональные компетенции*, практическое обучение, творческое мышление, образовательные стратегии.

KIRISH. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida talabalarning muammolarni hal qilish, jamoada ishlash va bilimlarni real hayotda qo‘llash bo‘yicha malakalarini rivojlantirish maqsadida OTM faoliyatida loyihaga asoslangan ta’lim muhim o‘rinni egallamoqda. Quyida loyihaga asoslangan ta’limga xalqaro yondashuvlar va ular talabalarning

ko‘nikmalarini oshirish uchun qanday amalga oshirilganligini ko‘rib chiqamiz.

Dunyoda Finlyandiya davlati o‘zining innovatsion ta’lim tizimi bilan mashhur bo‘lib, mamlakat ta’lim tizimida talabalarga yo‘naltirilgan ta’limga urg‘u beriladi. Finlyandiyada loyihaga asoslangan ta’lim, ayniqsa, o‘rta va oliy ta’limda keng qo‘llaniladi. Finlyandiyadagi o‘qituvchilar talabalarni turli fanlarni o‘zida mujassamlashtirgan loyihalar ustida ishlashga undaydi, bu esa ularga o‘z bilimlarini real muammolarga qo‘llash imkonini beradi. Fin maktablari o‘quvchilar o‘rtasida ijodkorlikni, tanqidiy fikrlashni va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Finlyandiya modeli, shuningdek, baholash amaliyotlarini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, unda talabalar loyiha natijalari va o‘quv safari jarayoni asosida baholanadi. Finlyandiya Milliy o‘quv dasturi ko‘pincha mahalliy hamjamiyat va tashkilotlar bilan hamkorlikni o‘z ichiga olgan o‘quv dasturlariga asoslangan loyihalarga asoslangan vazifalarni birlashtirish bo‘yicha maxsus ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi.

Finlyandiyada baholash jarayoni faqat yakuniy natijaga emas, balki o‘quvchining o‘rganish jarayoniga ham e’tibor qaratadi. O‘quvchilar loyihalarining yakuniy natijasi, shuningdek, ular o‘qish jarayonida qanday ishlaganliklari, jamoada qanday faoliyat ko‘rsatganliklari va o‘rganilgan bilimlarni amaliyotda qanday qo‘llaganliklari baholanadi. Bu yondashuv o‘quvchilarni faqat ma’lum bir bilimni yodlashga emas, balki uni ijodiy tarzda amaliyotga tatbiq etishga undaydi.

AQSHda loyihalash asosidagi ta’lim jarayonida keng qo‘llaniladigan, ayniqsa progressiv maktablar va universitetlarda o‘qitishning samarali yondashuvlaridan biri sifatida tanilgan. Bu metodologiya o‘quvchilarga o‘rganayotgan mavzularini chuqurroq tushunishga, o‘z bilimlarini amaliyotda qo‘llashga va real dunyo muammolariga yechimlar ishlab chiqishga yordam beradi. Loyihalash asosidagi ta’lim yordamida talabalar o‘zlarini o‘quv jarayoniga faol jalb etishadi, o‘zaro hamkorlikda ishlashadi va ko‘plab muammolarni hal qilishda ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

AQShda loyihalash asosidagi ta’limning kengayishi va muvaffaqiyatli qo‘llanishi, xususan New Tech Network va Buck Institute for Education kabi tashkilotlarning yordami bilan, dunyo bo‘ylab boshqa ta’lim tizimlari uchun o‘rnak bo‘lmoqda[3].

Singapur dunyoda o‘zining yuqori raqobatbardosh va akademik yo‘nalishda eng yaxshi ta’lim tizimlaridan biriga ega bo‘lib, u nafaqat akademik bilimlarni, balki talabalarning innovatsion fikrlash, hamkorlik va global iqtisodiyotdagi muvaffaqiyatlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni ham rivojlantirishga katta e’tibor qaratadi. Singapurning loyihalash asosidagi ta’limga qarashlari, dunyo bo‘ylab boshqa ta’lim tizimlari uchun o‘rnak bo‘lib xizmat qilmoqda. Singapurning ta’lim tizimi nafaqat akademik darajada kuchli, balki talabalarning tanqidiy fikrlash, hamkorlikda ishlash va innovatsiyalarga tayyor bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Singapur Ta’lim vazirligi tomonidan qo‘llanilayotgan “Loyiha ishlari” moduli va XXI asr kompetensiyalari talabalarga yuqori darajada tayyorlangan global fuqarolar bo‘lish imkoniyatini beradi. Singapurda loyihalash asosidagi ta’lim metodologiyasi, nafaqat ta’lim tizimining o‘quvchilarga bilimlar berishdagi an’anaviy yondashuvini, balki ularni global iqtisodiyotda muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar bilan ta’minlashni ham o‘z ichiga oladi[4]. Singapurning “Loyiha ishlari” moduli va 21-asr kompetensiyalariga yo‘naltirilgan ta’lim tizimi, dunyo bo‘ylab boshqa ta’lim tizimlarida ham qiziqish uyg‘otmoqda va ilgari surilayotgan yondashuvlarni o‘rganishga va qo‘llashga yordam bermoqda.

Avstraliya ta’lim tizimi, ayniqsa o‘rta va oliy ta’limda, innovatsion yondashuvlar va amaliy ta’limga katta ahamiyat beradi. Loyihalash asosidagi ta’lim Avstraliyada o‘quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni, balki real dunyo muammolarini hal qilishda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi. Avstraliya maktablari va oliy ta’lim muassasalarida loyihalash asosidagi ta’lim milliy o‘quv dasturining bir qismiga aylangan va u barcha darajalarda qo‘llaniladi. Ayniqsa, STEM (fan, texnologiya, muhandislik, matematika) sohalarida bu metodologiya keng yoyilgan.

Avstraliya ta’lim tizimida loyihalash asosidagi ta’lim ko‘pincha o‘quvchilarning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, hamkorlik va muammolarni hal qilish kabi muhim kompetensiyalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Loyihalash asosidagi ta’lim yondashuvi, asosan, o‘quvchilarni haqiqiy va amaliy muammolar bilan shug‘ullanishga undaydi. Bu yondashuv talabalarni turli fanlar orqali,

o‘zlarining o‘rganilgan nazariy bilimlarini real dunyo vazifalariga tatbiq etishga yo‘naltiradi.

Kanada ta’lim tizimi, ayniqsa Ontario va Britaniya Kolumbiyasi provinsiyalarida, innovatsion ta’lim yondashuvlarini o‘z ichiga olgan tizim sifatida tanilgan. Bu yondashuvlar o‘quvchilarning nafaqat akademik, balki ijtimoiy va amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishga qaratilgan. Ontario provinsiyasida loyihalash asosidagi ta’lim metodologiyasi boshlang‘ich va o‘rta maktablarda keng qo‘llaniladi. Ontario Ta’lim Vazirligi o‘quvchilarga sinfdagi o‘qish va o‘rganishni jamiyatdagi muammolar bilan bog‘lashni, shuningdek, o‘rganish jarayonini o‘quvchilarning kundalik hayotiga moslashtirishni maqsad qilgan. Bu yondashuvni qo‘llash orqali maktablar o‘quvchilarning ilg‘or fikrlash va muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. Loyihalar orqali o‘quvchilar, masalan, ijtimoiy, ekologik yoki iqtisodiy muammolarni o‘rganadilar va ularga amaliy yechimlar ishlab chiqadilar[1].

Yuqoridagi xalqaro tajribalar, ayniqsa Avstraliya, Singapur va AQShda, loyihalash asosidagi ta’lim orqali talabalar turli ko‘nikmalarni rivojlantiradilar. Bu ko‘nikmalar, masalan, tanqidiy fikrlash, ijtimoiy ko‘nikmalar, ijodiy yondashuv, muammoni hal qilish va innovatsion fikrlash kabi hayotiy ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. O‘zbekiston ta’lim tizimida esa, hali ham ko‘plab maktablarda, ayniqsa, oliy ta’limda, faqat nazariy bilimlarga katta e’tibor berilgan. Biroq, global iqtisodiyotda muvaffaqiyatli bo‘lish uchun talabalar faqat bilimlarga emas, balki bu bilimlarni qanday ishlatishni bilishga ham ega bo‘lishlari zarur. O‘zbekistonda loyihalash asosidagi ta’limni joriy etish orqali, o‘quvchilarda yuqoridagi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratish mumkin. Masalan, talabalar sinfda yoki tashqarida amalga oshiriladigan loyiha ishlari orqali o‘zaro hamkorlikda ishlash, muammolarni hal qilish va ijodiy fikrlashga o‘rgatishlari mumkin. Bu o‘zgarishlar o‘quvchilarga akademik bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkonini yaratadi va ularni ijtimoiy hayotga tayyorlaydi.

Hozirgi kunda yangi O‘zbekistonda oliy ta’limni takomillashtirish sharoitida aniq metodologik asoslarni izlash dolzarb masalalardan biriga aylandi. Pedagogik ta’lim muammolarini tahlil qilish jarayonida metodologik asos sifatida pedagogik loyihalash alohida o‘ringa ega bo‘lishi mumkin.

XULOSA. Xalqaro tajribalarni O‘zbekiston ta’lim tizimiga joriy etish katta imkoniyatlarni yaratadi. Haqiqiy dunyo muammolarini o‘rganish, hamkorlikda ishlash, ko‘nikmalarni rivojlantirish va texnologiyalarni ta’lim jarayoniga integratsiya qilish, talabalar uchun yangicha o‘qish jarayonini taqdim etadi. O‘zbekistonning ta’lim tizimi zamonaviy talablar asosida rivojlanishi uchun loyihalash asosidagi ta’lim yondashuvidan foydalanish, talabalarni real dunyoga tayyorlashda, ularning tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Madumarov T, Kamoldinov M. Innovatsion pedagogik texnologiya asoslari va uni ta’lim – tarbiya jarayonida qo‘llash. – T.:, Talqin, 2012. – 176 b.
2. Tojiyev M, Alimov A.Ya., Qo‘chqorov D.U. Pedagogik texnologiya –
ta’lim jarayoniga tatbig‘i: o‘quv mashg‘ulotlarining loyihasi. I qism. – T.: Tafakkur, 2010. – 148 b.
3. Махмудов М.И., Ибрагимов Г.И., Чоршамов М.А. Педагогические технологии развития мышления учащихся. – Казань, 1993. – С.88 .
4. Norboyev A. Uzluksiz geografiya ta’limining sifat va samaradorligini oshirish texnologiyasi: monografiya. – T.: 2016.
5. Ro‘zieva D., Usmonboyeva M., Xoliqova Z. Inerfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi. – T.: TDPU, 2013.
6. Селевко Г.К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK:37.02

AKMEOLOGIYA TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA NAZARIY ASOSLARI

Xaytmetov Raimberdi Kudratulloyevich, Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

CONCEPT, CONTENT AND THEORETICAL BASIS OF ACMEOLOGY

Khaytmetov Raimberdi Kudratulloevich, Independent researcher of Chirchik State Pedagogical University

ПОНЯТИЕ, СОДЕРЖАНИЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА АКМЕОЛОГИИ

Хайтметов Раимберди Кудратуллоевич, независимый исследователь Чирчикского государственного педагогического университета

https://orcid.org/0000-0002-6251-0490
e-mail: xaytmetovraimberdi@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada akmeologiya tushunchasi, kelib chiqishi, uning inson hayotidagi o‘rni, inson rivojlanish bosqichlarining kasbga bo‘lgan ta’siri va bo‘lajak o‘qituvchilarda bo‘lajak o‘qituvchining akmeologik kompetentlikka erishish yo‘llari ilmiy nuqtayi nazardan ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *akmeologiya, individual ta’lim, pedagogika, professiya, psixologiya, fizeologiya.*

Abstract: *The article examines the concept of acmeology, its origins, role in human life, the influence of human development stages on the profession, as well as the ways in which future teachers can achieve acmeological competence from a scientific point of view.*

Key words: *acmeology, individual education, pedagogy, profession, psychology, physiology.*

Аннотация: *В статье рассматривается понятие акмеологии, ее истоки, роль в жизни человека, влияние этапов развития человека на профессию, а также способы, с помощью которых будущие учителя могут достичь акмеологической компетентности с научной точки зрения.*

Ключевые слова: *акмеология, индивидуальное образование, педагогика, профессия, психология, физиология.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Davlatimizda rivojlangan ta’lim-tarbiyaga yangicha yondashuvni shakllantirish, shaxsni uning alohida qobiliyatlari, malakalari va qiziqishlari bilan kamol toptirishga ko‘maklashishni nazarda tutadi. Ta’lim tizimida individuallashtirishga erishish uchun turli guruhlardagi talabalarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarni hal qila oladigan ta’lim jarayonining zamonaviy modellarini ishlab chiqish zarurligi mavjud. Bu har bir talabaning individual, shaxsiy va subyektiv o‘ziga xosligiga mos keladigan yangi ta’lim yondashuvlarini ishlab chiqishni taqozo etishi mumkin. Ana shu yondashuvlar asosida bo‘lajak mutaxassislarning shaxsiy va kasbiy malakasini oshirishning kompleks tizimlarini ishlab chiqish iqtisodiyotning turli tarmoqlari va ijtimoiy sohalarda kasbiy mahoratni oshirish muammosini hal etishdagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi[1].

Hozirgi vaqtda O‘zbekiston ta’lim tizimi sezilarli o‘zgarishlar bilan ajralib turadi, buning natijasida, birinchi navbatda, innovatsion jarayonlar faollashmoqda. Bugungi kunda ta’lim tizimiga tashqi omillar sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatmoqda. Mutlaqo yangi talablar qo‘yiladi, ularning doimiy o‘sishi bir qator global rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq hisoblanadi, ular quyidagilardan iborat:

- jamiyatimizning rivojlanish sur’atlarini tezlashtirish talabalarni shiddat bilan rivojlanayotgan va birinchi sharoitlarda hayotga tayyorlashni taqozo yetadi;

- xalqaro madaniyatlararo aloqalarning sezilarli darajada kengayishi bilan talabalarning muloqotga kirishish qobiliyatlari va bag‘rikengligi alohida ahamiyatga ega hisoblanadi;

- global muammolarning paydo bo‘lishi va kuchayishi ularni hal etishda yosh kadrlardan zamonaviy tafakkurga ega shaxs bo‘lib yetilishni talab qiladi;

- jamiyatni demokratlashtirish, siyosiy va ijtimoiy tanlash imkoniyatlarini kengaytirish fuqarolarning bunday tanlovga tayyorligini shakllantirish zarurati bilan duch keladi;

- iqtisodiy tizimdagi jadal rivojlanish va ish bilan ta’minlash borasidagi o‘zgarishlar xodimlarning professional malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlashga doimiy ehtiyojni paydo qiladi, talabalarning butun hayoti davomida bilim olishga bo‘lgan istagi va qobiliyatini shakllantirishni taqozo etadi [163; 37 b].

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ/LITERATURE ANALYSIS). Akmeologiya inson kamolotining turli bosqichlarida inson rivojlanishining hodisalari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganadigan ilmiy fan sohasi sifatida tan olingan, bunda odatda yetuklikka erishishni bildiruvchi ilg‘or bosqichlarga alohida e’tibor beriladi. Fanning asosiy tushunchalaridan biri sanalgan “*akme*” tushunchasi yunoncha ***akme*** *yetuklik, cho‘qqi, kamolot, yuksalish, yetuklik*, **logos** - *ta’limot, fan* degan ma’noni anglatib, “katta yoshli inson rivojlanishi haqidagi fan” degan mazmunni bildirgan. Akmeologiya atamasi, evrilogiya, ergonologiya, refleksologiya kabi sohalar singari ilmiy-amaliy bilimlarga ega bo‘lgan va o‘tgan asrning 20-yillarida paydo bo‘lgan. Akmeologiyada odam kasbiy faoliyat va o‘z hayotini o‘zi belgilash, o‘z-o‘zini rivojlantirish va ijodkorlik qobiliyati, inson hayot faoliyatida subyekt sifatida qarab chiqiladi “Akmeologiya” termini datslab 1928-yil rossiyalik psixolog N.A.Ribnikov tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Insonning ontogenezidan keyingi bosqichlarida rivojlanib boradigan, yetuklik bosqichigacha rivojlanadigan, individual shaxsiy va subyektiv taraqqiyotida ko‘tarilib boradigan cho‘qqini ilmiy maktabning bu namoyandalari ko‘pincha kulminatsiya yoki optimum sifatida ta’kidlagan.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Bizning fikrimizcha, bu bo‘lajak o‘qituvchining akmeologik kompetentlikka erishishga intilishini ta’minlaydigan kasbga qaratilgan. A.A.Derkashning fikricha, faqatgina tanlangan faoliyat bilan shug‘ullanadigan odamda haqiqiy professionallik vujudga kelmaydi. Yuqori professionallik garchi ma’lum bir faoliyat sharoitida rivojlangan insonning maxsus qobiliyatlari, shuningdek, tegishli bilim va ko‘nikmalarisiz rivojlanmasa ham, bu mumkin yemas, ammo bunga erishish uchun eng muhim shart bu shaxsning umumiy qobiliyatlarini kuchli rivojlantirish va umumiy o‘zgarishlarni yaratishdir. Insoniy qadriyatlar shaxsning axloqiy tarbiyasini anglatadi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS). Bo‘lajak o‘qituvchining professionalligi olingan bilimlarni mustaqil ravishda umumlashtirish va tizimlashtirish qobiliyatiga asoslangan pedagogik, psixologik tadqiqot kompetensiyasini birlashtiradi. Pedagogik faoliyat pedagogik va maxsus bilimlarning butun majmuasini, vazifaning o‘zaro bog‘liqligi va uni hal qilish vositalarini sintezlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchi faoliyatining o‘ziga xosligi, uning serqirraligi talabadan kasbiy bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishda ko‘p mashaqqatli ishlarni talab qiladi, bu jarayon muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun kasbga barqaror turtki berilishi kerak. Faoliyatning aksiologik mexanizmi alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uni tartibga soluvchi sifatida qadriyatlar muammosi, subyekt-obyekt munosabatlari sifatida aksiologik munosabatlarning metodologik mazmunini uzoq vaqt saqlab qoldi.

So‘nggi o‘n yillikda faoliyatning umumiy tuzilishida motivatsiyaning o‘rni quyidagi olimlar: A.N.Leontyev, A.V.Zaporojets, L.I.Bojovich, B.V.Zeygarnik, D.N.Uznadze, O.S.Grebenyuk, V.I.Kovalev, V.YE.Milman, A.Maslou, G.Ollport, K.Rodjers va boshqalar [3] tomonidan faol o‘rganilgan. Psixologik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson uchta yo‘nalishda rivojlanishi mumkin:

1. Doimiy, giperbolik, boshqa odamlar bilan tanishishga tayyorlik.

2. Boshqa odamlardan begonalashish yo‘nalishi bo‘yicha.

3. Shaxsning ichki va ijtimoiy ehtiyojlariga muvofiq ravishda identifikatsiya qilish va ta’minlashning uyg‘un o‘zaro ta’siri.

S.P.Begaliyevaning ta’kidlashisha, akmeologiyaning asosiy natijasi – bu kasbiy mahoratni baholash, insonning mehnat unumdorligini baholashning aniq belgilangan

mezonlarga asoslanishi zarurligidan iborat [4]. Ushbu mezonlar turli sohalardagi mutaxassislar va talabalar uchun farq qilishi kerakligini anglash juda muhimdir. A.A.Bodalev [5] faoliyat cho‘qqilari (“*akme*” ga eng yaqin yoki optimal moment) va keyingi pasayish (“*akme*” dan ketish) bilan tavsiflangan hayot trayektoriyasi bilan birgalikda shaxsning ichki fazilatlari rivojlanishini o‘rganadi. Ushbu ko‘tarilish va pasayishlarni xaritada ko‘rsatish orqali insonning eng yuqori cho‘qqisini yoki hayot “*akme*”sini vizual ravishda aniqlash mumkin.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Demak, bundan xulosa qilishimiz mumkinki, har bir yosh davrlarida shaxsda turli dinamik xususiyatdagi akmeologik rivojlanishni oldindan kuzatish mumkin. G.T.Tillayeva ta’kidlashisha, akmeologiya insonning kasb-hunarni (mutaxassislikni) egallash jarayonida eng yuksak bosqichlarga yetishish muammolarini o‘rganuvchi fan sifatida insonni yuksak cho‘qqiga, kasb-korda mukammallik bosqichida o‘rganish muammolarini o‘rganadi, deb ta’kidlagan [7]. M.M.Kashapov esa, shaxsning yosh davrlaridagi psixik va kasbiy rivojlanish bosqichlarini quyidagi bosqichlarga ajratib o‘rgangan [13]:

I. Kasbgacha bo‘lgan rivojlanish		
1.1.	O‘yindan oldingi rivojlanish	(3 yoshgacha)
1.2.	O‘yin bosqichi	(maktabgacha bolalik 3-7 yoshgacha)
1.3.	O‘quv faoliyatini o‘zlashtirish bosqichi	(7-8 dan 11-12 gacha bo‘lgan yosh)
II. Kasb tanlash davridagi rivojlanish		
2.1.	Optatsiya bosqichi	(hayotga ongli tayyorgarlik, mehnat, kasb yo‘lini rejalashtirish, kasb tanlash davri 13-13 dan 14-18 yoshgacha)
III. Kasbiy tayyorgarlik va kelgusi kasbiy mahoratga erishish davridagi rivojlanish		
3.1.	Kasbiy ta’lim bosqichi	(15-19 dan yoki 16-23 yosh)
3.2.	Kasbiy moslashuv bosqichi	(17-21 dan 24-27 yoshgacha)
3.3.	Kasbiy mahoratning rivojlanish bosqichi	(21-27 dan 45-50 yoshgacha)
3.4.	Kasbiy mahoratni namoyish etish davri	(46-50 yoshdan 60-65 yoshgacha)
3.5.	Sustlashish bosqichi	(61-65 yosh)

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Tillayeva G.H. //Akmeologiya asoslari//. Toshkent: 2014. – Б.86.
2. Толочек, В.А. Современное человекознание. Б.Г.Ананева: состояние и проблемы // Вестник Самарской гуманитарной академии. Серия: Психологий. 2007. №2.
3. Темир М.М. //Акмеологический подход к развитию профессионального самоопределения старшеклассников// Екатеринбург: 2018. С-56.
4. Бегалиева С.Б. Акмеологический подход – новая парадигма в совершенствовании подготовки будуших специалистов // Успехи современного естествознаний. – 2013. – № 7. – С. 123-126.
5. Бодалёв, А.А. //Акмеология развития человека: феноменология, закономерности, механизмы // Москва: 2007. №3-4.
6. Karimova V.M. //Ijtimoiy psixologiya asoslari.// - T.: 1994. B.98.
7. Tillayeva G.T. Ijtimoiy muhit va yoshlar tarbiyasi.// Toshkent: 2009. B 149.
8. Кашапов М.М. Психология творческого мышления профессионала: монография / Москва: ПЕР СЕ, 2017. - С. 688.

Qabul qilindi: 06.01.2025 Chop etildi: 28.02.2025 UDK: 091.274.112

BIOSFERA VA NOOSFERA: O‘ZARO ALOQADORLIK VA MUAMMOLAR

Panjiyev Suhrob, *Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Ijtimoiy fanlar kafedrasi v.b. dotsenti, falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)*

БИОСФЕРА И НООСФЕРА: ВЗАИМОСВЯЗЬ И ПРОБЛЕМЫ

Панжиев Сухроб, *Термезский университет экономики и сервиса, Исполняющий обязанности доцента кафедры “Социальных наук” (PhD)*

BIOSPHERE AND NOOSPHERE: INTERCONNECTION AND ISSUES

Panjiyev Sukhrob, *Termez University of Economics and Service, Acting Associate Professor of the Department of “Social Sciences” (PhD)*

E-mail: suhrob.panjiyev@mail.ru
Tel: +998996788788
Orcid: 0009-0004-2448-9047

Annotatsiya: *Maqolada biosfera va noosfera xususida, ularning o‘zaro aloqadorligi, biosfera va noosferaning o‘zaro aloqadorligi doirasida yuzaga kelgan muammolari borasida va bu muammolarni bartaraf etishga oid fikrlar bildirilgan.*

Kalit so‘zlar: *noosfera, biosfera, texnosfera, etosfera, falsafa, fan, bilim, sun’iy yo‘ldoshlar, jamiyat, ekalogik muammo, geologik kuch.*

Аннотация. *В стате изложены взгляды на биосферу и ноосферу, их взаимосвязь, проблемы, возникшие в рамках взаимосвязи биосферы и ноосферы, и пути преодоления этих проблем.*

Ключевые слова: *ноосфера, биосфера, техносфера, этосфера, философия, наука, знание, искусственные спутники, общество, экологическая проблема, геологическая сила.*

Annotation. *In the article, opinions are expressed about the biosphere and noosphere, their interrelationship, the problems that have arisen within the framework of the interrelationship of the biosphere and noosphere, and how to eliminate these problems.*

Key words: *noosphere, biosphere, technosphere, etosphere, philosophy, science, knowledge, satellites, society, environmental problem, geological force.*

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). Bugungi kunda noosfera tushunchasi, uning namoyon bo‘lishi va o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risidagi bahslar to‘xtagani yo‘q. Insoniyat olam sirlarini tobora ko‘proq bilib boraverar ekan, noosferaning xilma-xil qirralarini kashf etish davom etaveradi. Bu esa shu sohadagi bilimlar to‘planishiga, turli dalillarni umumlashtirish, ular asosida falsafiy g‘oyalarni o‘rtaga tashlash uchun keng imkoniyat yaratadi.

Noosferani biosferadan ajralgan, mustaqil mavjud bo‘lgan alohida qobiq yoki borliqqa hech

qanday aloqasi bo‘lmagan sof nazariy qarash sifatida emas, balki biosferaning bir holatdan boshqa holatga o‘tishi, buning natijasida butunlay yangicha sifat kasb etishi sifatida tushunmoq lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОД / MATERIALS AND METHODS). Noosfera inson faoliyati, bu faoliyatning fikr va vazifalarini maqsad va insonning fikrlarini bahamjihat harakatlar vositasida umumiy birlashishga jalb qiluvchi insoniyatning fikrlovchi kuchlar va birliklarning butun majmui sayyoramiz evolyusiyasiga ta’sir ko‘rsatadi, uni ko‘p jihatdan belgilaydi. V.I.Vernadskiy noosferaga biosferani va umuman tabiatni o‘zgartirishga qaratilgan inson faoliyati natijasi sifatida yondoshdi. Uning fikricha, Yer atrofida kelib chiqishi antropogen xususiyatga ega bo‘lgan “parda” vujudga keladi, ammo bu ideal soha emas, balki biosferaning rivojlanishidagi muayyan bosqichdir. Bunda odamlarning ongli o‘zgartiruvchi faoliyati amalda mazkur rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchiga aylanadi, shu tariqa yuzaga kelgan “aql-idrok sohasi” esa moddiy kuchga aylanadi.

Inson raketalar, sun’iy yo‘ldoshlar, orbital stansiyalar va boshqa kosmik texnikadan foydalanib, tabiiy shakllangan biosfera chegaralaridan tashqariga chiqadi, ayni vaqtda u (inson) shu biosferaning tarkibiy qismi sifatida, u o‘zining hatti-harakati bilan biosfera chegaralarini kengaytiradi. Jamiyat tabiat bilan o‘zaro aloqaga kirishib, biosferaga kirib boradi, uni yangicha mazmun bilan boyitadi va “ijtimoiylashtiradi”. Biosfera ijtimoiy borliq doirasiga tobora kuchliroq “tortiladi”, uning cheksiz rivojlanish va takomillashish jarayoni esa ijtimoiy hayotga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Tabiatning bir qismi bo‘lgan inson mazkur jarayonni to‘xtata olmaydi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Ekologik va jamiyatning axloqiy muammolar bir-biridan farqlansa-da, ular mohiyati, kelib chiqish sabablari, bartaraf etish yo‘llari, salbiy oqibatlari jihatidan uzviy aloqadordir. Ushbu muammolarga xos umumiylik, avvalo, butun insoniyatning hayoti shart-sharoitlari, imkoniyatlari va istiqboli masalalaridir. Ikkinchi tomondan, ular u yoki bu darajada hozirgi davrning bosh omili – fan-texnika inqilobi bilan aloqadordir, ya’ni uning oqibatidir. Bu muammolarni hal qilishda, eng avvalo sayyoramizda *etosfera - axloqiy muhit* davrini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Bunday muammolarni hal qilish uchun jamiyat hamda “jamiyat-tabiat” sistemasi haqida keng bilimlarga ega bo‘lish talab etiladi. Bu o‘z navbatida falsafiy bilimlarni, fan sohalaridagi yangiliklarni o‘zlashtirishni, shu bilan bir qatorda hayotning qadr-qimmatini chuqur anglashni muayyan axloqiy ideaallarni egallashni talab qiladi.

Noosfera (Aql sohasi)ni anglash unga nisbatan 2 xil munosabatni to‘g‘ri tushunishni taqozo qiladi: uning ijobiy tomonlarini ko‘rsatib, jamiyat taraqqiyotida noosfera bosqichini ijobiy (progressiv) hodisa sifatida deb talqin etish mumkin. Mingyilliklar davomida bilimlar tufayli odamlar an’anaviy jamiyat batomam yangilanib, yangicha madaniy hayot vujudga keldi [1]. Insoniyat taraqqiyotida yozuv, kitob bosish dastgohining kashf qilinishi, buyuk geografik kashfiyotlar radio, televideniye, uyali aloqa vositalari, kosmik uchish apparatlari, sun’iy yo‘ldoshlar xalqaro internet tarmog‘ining yaratilishi inson va jamiyat hayotida mutlaq yangi davrni boshlab berdi. Noosfera qudrati Yer deb atalgan Olamning bir kichik nuqtasida yangi dunyo qiyofasini yarata oldi.

Ayni vaqtda Noosferani salbiy (regressiv) hodisa sifatida talqin etish, uning tabiat va kishilik jamiyati hayotiga keskin va xatarli ta’sir etuvchi jihatlarini ham ko‘rish mumkin.

Aqlning cheksiz quvvati oqibati bo‘lgan bu xavfni, insoniyat ancha kech ya’ni, XX asrning 70-yillari boshlaridagina anglay boshladi. Insoniyat qanday xavf qarshisida turganligini, atrof-muhitga inson faoliyati tufayli yetkazilayotgan zarar qanday natijalarga olib kelganligini yaqqol his etdi. Insonning tabiat imkoniyatlarini va uning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olmay jadal yuritayotgan xo‘jalik faoliyati, Rim klubining “XXI asr yo‘li” deb atalmish tadqiqotlaridan birida ko‘rsatib o‘tilganidek, Yer yuzida tuproq nurashi, o‘rmonlardan mahrum bo‘lish, baliqlarning haddan tashqari ko‘p ovlanishi, tuzli yomg‘irlar, atmosferaning ifloslanishi, azon qatlamining buzilishi va hokazolarni ro‘y berishiga olib keldi” [2]. Ekologiya o‘zgarishi oqibatida yuz berayotgan tabiiy ofatlar insoniyat hayotiga salbiy ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Hozirgi kunda odamzot global inqirozlarga ro‘baro‘ turibdi: Yadro urushi xavfi, chuchuk suv zahiralarining tobora kamayib borishi, insoniyat hayoti uchun zaruriy xom ashyo

TAMADDUN

manbalarining tobora kamayib borishi, iqlimdagi o‘zgarishlar, tabiiy ofatlar - bularning hammasi umumbashariy muammolar tobora ko‘payib borayotganidan dalolat beradi. Shu o‘rinda tabiiy birsavol to‘g‘iladi. Bu muammolarni bartaraf etish mumkinmi? Noosfera xayoliy utopiyami yoki insoniyatni asrash strategiyasimi?

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). Bu borada, akademik V.I. Vernadskiy noosfera davrining qaror topish mumkinligini asoslab, jahon jamoatchiligi diqqatini quyidagi masalalarga qaratdi: ***Birinchidan,*** mamlakatlararo tezkor aloqa vositalarini isloh qilish va dunyodagi barcha mamlakatlararo aloqalarni mustahkamlash; ***Ikkinchidan,*** biosferada kechayotgan boshqa geologik jarayonlar insonni geologik rolini ortib borayotganini e’tiborga olish va yangi energiya manbalarini izlab topish; ***Uchinchidan***, barcha diniy va irqiy farqlardan qat’iy nazar, odamzot tengligini va axloqiy muhit barqarorligini ta’minlash; ***To‘rtinchidan,*** ichki va tashqi muammolarni yechishga xalq ommasi kuchiga tayanish va ilmiy tafakkur erkinligi ta’minlash; ***Beshinchidan,*** ta’limi tizimini takomillashtirish va xalq farovonligini oshirishning real imkoniyatlarini yaratish; ***Oltinchidan,*** tabiatni oqilona o‘zgartirish va urushlarni ijtimoiy amaliyotdan tamomila chiqarib tashlash.[3]

Noosfera davri uchun qo‘yilgan yuqoridagi parametrlar ma’lum ma’noda hozirgi davrda butun dunyo xalqlari amaliyotida namoyon bo‘layotgani quvonchlidir. Jahonda yadroviy urush xavfiga qarshi kurashish, demokratiya va inson huquqlarini himoya qilish, inson manfaatlari ustunligiga erishish, insonga eng oliy qadriyat sifatida qarash kabilar Yer, hayot, insoniyatning istiqboli uchun katta ahamiyatga ega.

Tabiat kelgusi evolyusiyasini saqlab qolishga uchun aql bilan yondashishi, axloqiy muhit barqarorligini ta’minlashi, inson, insoniyat va tabiat oldidagi burch mas’uliyatini anglashi, noosferaning hayotiyligini ta’minlash omili ekanligini unutmasligi lozim. Darhaqiqat, “Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik qo‘l qovushtirib o‘tirish – o‘z-o‘zini o‘limga mahkum etish bilan barobardir... Tabiat va inson o‘zaro muayyan qonuniyatlar asosida munosabatda bo‘ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o‘ta o‘nglab bo‘lmas ekologik muammolarga olib keladi” [3].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, yuzlab asrlar mobaynida inson kichik biologik olam sifatida katta biologik olam ichida, uning bir parchasi, jonli organizmlar podshosi, oqil va hukmron qismi sifatida yashab keldi. XIX asrning oxiridan boshlab, ayniqsa XX asrda u o‘z tafakkur quvvati bilan, ilmiy-texnikaviy yuksalishlar tufayli ana shu biosfera ichida noosferani - texnikaviy muhitni yaratdi. Inson endilikda o‘zi yashayotgan butun boshli sayyoraga ta’sir ko‘rsata boshladi. Yer tarixida inson birinchi marta ulkan geologik kuch bo‘lib maydonga chiqdi. Insoniy tafakkur biosferadagi o‘zgarishlarning asosiy sababiga aylandi.

Binobarin bugungi kunda jamiyat, ekalogiya va etikalogiya muammosi – bu eng avvalo inson muammosi, uning ma’naviy-axloqiy, aqliy-idrokiy dunyosi muammosidir. Insonning tabiatga munosabatining o‘zgarishi, avvalo, insonning insonga munosabatining o‘zgarishini taqozo etadi. Endi inson o‘zi oldidagi va tabiat oldidagi majburiyatlarini anglay boshlashi va atrof muhitga bo‘lgan munosabatini oqilona-axloqiy tartibda olib borishi lozim.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES)

1. Вернадский В.И. Начало и вечност жизни. – М., 1989. – С.136.
2. Karimov. I.A. O‘zbekiston XXI bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T: “O‘zbekiston” nashr, 1997. – 113 b.
3. Karimov.I. O‘zbekiston XXI bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: “O‘zbekiston” nashr., 1997. – B. 112-113.
4. Panjiyev, S. (2022). The relevance of the philosophical comprehension of truth. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(12), 195-197.